MOTURIDIYLIK TA’LIMOTI VA HOZIRGI ZAMON

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi

MAQOLALAR TO‘PLAMI

Samarqand, 2025-yil 4 – 5-oktabr

UDK 001:297

Moturidiylik ta'limoti va hozirgi zamon – *respublika ilmiy-amaliy konferensiya to'plami. – Samarqand, 2025. – 309 b.*

Ushbu respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-martdagi "Imom Moturidiy tavalludining 1155-yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi PQ-102-son Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida hamda buyuk vatandoshimiz, islomiy ilmlar rivojiga ulkan hissa qo'shgan benazir alloma, kalom ilmining sultoni Imom Abu Mansur Moturidiyning ibratli hayot yo'li va boy ilmiy-ma'naviy merosini har tomonlama chuqur o'rganishni rag'batlantirish, moturidiylik ta'limotiga xos bag'rikenglik va mo'tadillik tamoyillarini xalqimiz va jahon jamoatchiligi o'rtasida keng targ'ib etish, yoshlarni vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda zamonaviy yondashuvlar, fikr va tavsiyalarni o'zida aks ettirgan. Mazkur to'plamda O'zbekistondagi Imom Moturidiy talimotining zabardast tahlilchilari va olimlarining tavsiyaviy xarakterdagi munosabatlari ushbu to'plamda aks etgan.

Sharaf Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Kengashining 2025-yil 29-sentyabrdagi 02 sonli yig'ini qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

Mas'ul muharrirlar:

Sh.T.Ravshanov	*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Samarqand tamadduni tarixi kafedrasi mudiri, (PhD), dotsent*
M.J.Buzrukov	*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Samarqand tamadduni tarixi kafedrasi dotsenti. (PhD)*
A.A.Ungalov	*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Samarqand tamadduni tarixi kafedrasi o'qituvchisi, (PhD)*

Taqrizchilar:

M.Amonov	*Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi katta ilmiy xodimi, (PhD)*
I.I.Sulaymonov	*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti mumtoz adabiyot tarixi kafedrasi mudiri. Professor.*
A.R.Samadov	*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti falsafa va milliy g'oya kafedrasi mudiri. Professor.*

Tahrir guruhi:

R.D.Yo'ldoshev, O.J.Irisqulov, J.B.Vafayeva, M.B.Yakubova, M.G'.Xasanov, A.S.Yakubov, Sh.Hamdamova, O'.Nazarov, Sh.Sayfullayev

©Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

MUNDARIJA

Шовосил ЗИЁДОВ *Мотуридий калом мактаби тарихини ўрганишда Чокардиза қайроқ тошларининг ўрни*	7-12
Sarvar SAIDOV *Imom Moturidiyning kalom ilmiga oid qarashlari: falsafiy tahlil*	13-17
Shokir G'OFFOROV *From the history of the madrassahs of Uzbekistan*	17-29
Nadim MACIT *Ebu Mansûr el-Matüridi: peçelenmiş bir anlayişin öncüsü*	30-36
Q.M. NASRITDINOV, M.I. RAUPOVA Abu Mansur al-Moturidiyning hayoti va ilmiy merosi tarixidan	36-39
Жўрабек ЧЎТМАТОВ *Холид ибн Зиёд Термизий – термизийлар калом мактабининг илк намоёндаси сифатида*	39-45
Muxlisa MIRZAEVA *Saljuqıylar davrıda hanafıy-moturidiy bırlıgı*	45-49
Shoira HAMDAMOVA *Al-Moturidiy va uning dualistlar hamda dahriylar bilan bahsi*	50-55
Jahongir TURDALIYEV *Ilk o'rta asrlar Sug'dda vujudga kelgan empirik bilimlarning Moturidiy ta'limotidagi o'rni*	55-65
Halima HABIBULLAYEVA, Muhabbatxon AGZAMOVA *Naqshbandiylik tariqatida Qur'on tafsiri va hadislar sharhining o'ziga xos jihatlarining qiyosiy tahlili*	66-70
Feruza ISMATULLAYEVA *Abu Mansur Moturidiy falsafiy merosining shaxs ma'naviyatini yuksaltirishdagi o'rni*	71-73
Elbek G'ANIYEV *Abu Mansur al-Moturidiy ijtimoiy qarashlarining ilmiy tahlili*	74-77
Shohzod SAYFULLAYEV *Abu Mansur al-Moturidiy: Samarqanddan boshlangan ilmiy-ma'rifiy meros*	77-81
Muniba QODIROVA *IX-X asrlarda ilmiy-ma'naviy muhit va imom moturidiyning ta'limoti*	81-84
Rafiq O'RALOV *Abu Mansur al-Moturidiy hayoti va faoliyati*	85-87
Салохиддин ЎРОҚОВ *Абу Мансур Муҳаммад ибн Муҳаммад ибн Маҳмуд ал-Ҳанафий ас-Самарқандий*	87-90
Lutfiyaxon ULUG'OVA *Mahdumi A'zam hayoti va faoliyati*	90-94
Azizbek UNGALOV	

Islom sivilizatsiyasi va mahalliy an'analar o'rtasidagi sinkretlashuvda moturidiylik ta'limotining o'rni	94-101
Санжарбек ДЖУМАНОВ *Ўзбекистон тараққиётининг янги босқичида Имом Мотуридий илмий меросининг ўрганилиши*	101-107
Muxriddin JO'RAYEV *Imom Moturidiyning hadis ilmlariga munosabati*	107-112
Pirnazar RAJAPOV *Buyuk Saljuqiylar davri (1038-1157) da Xurosonda kalom ilmi rivoji*	112-115
Shoxida MIRAXMEDOVA *Moturidiy ta'limoti va bugungi diniy-ma'naviy hayot*	116-118
Zebiniso RAJABOVA *Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida kreativ yozma nutq kompetensiyasini shakllantirish strategiyasini takomillashtirish: Imom Moturidiy qarashlari asosida*	118-120
Mehribon SHODIYEVA *Qalb va aql uyg'unligi: moturidiylik ta'limotining bugungi davrdagi talqini*	121-123
Nasiba QANDIMOVA *Motrudiylik ta'limoti va hozirgi zamon*	124-127
Orzigul NE'MATOVA *"Husni xulq" tushunchasining shakllanishi va uning motrudiya ta'limotidagi ahamiyati*	127-133
Zumrad AGZAMOVA *Moturidiy asarlarida ma'naviy qadriyatlarning tutgan o'rni va ahamiyati*	134-139
Manzura BEKCHANOVA, N. XAKIMOVA *Moturidiylik ta'limoti va hozirgi zamon*	140-143
Mashhura MATCHONOVA, SH.TO'XTIYEV *Imom Moturidiy va uning izdoshlari ilmiy merosining islom ilmlari rivojidagi o'rni*	144-148
Ayubxon RAXMATXONOV *Yangi O'zbekistonda imom Moturidiy ilmiy merosiga e'tibor*	148-151
Q.R.MAHAMADJONOV, D.M.TURDIYEVA *Moturidiylik ta'limoti va hozirgi zamon*	152-158
M.Z.SHOKIROVA *Moturidiylik ta'limoti va hozirgi zamon*	158-161
Ruxshona MAMASAIDOVA, Nurmuhammad USMONOV *Imom Motrudiy asarlarining Markaziy Osiyo ilmiy-ma'naviy hayotidagi o'rni*	162-165
Marjona RAVSHANOVA *Moturidiyning "Kitob at-tavhid" asari va uning ilmiy falsafiy qarashlari*	165-168
Mohidil NE'MATOVA	168-170

Imom Moturidiyning kalom ilmidagi o'rni va ilmiy merosining o'rganilishi	
Мамаюнус ПАРДАЕВ, Фарход НАБИЕВ *Имом Мотрудийнинг бағрикенглик ғоясини маънавиятни юксалтиришдаги аҳамияти*	171-175
Джамиля ВАФАЕВА *Рационализм и вера: актуальность идей Абу Мансура аль-Матуриди в современной философии*	175-180
Jamol JURAKULOV *Moturidiylik maktabining xalq ongida saqlanishi va uning xalq xotirasidagi ifodasi*	180-183
М.И.НАСРУЛЛАЕВ, Г.Б.НОРМУРОДОВА *Предпосылки и особенности центральноазиатского возрождения*	183-188
Рустам ЙЎЛДОШЕВ *Янги Ўзбекистонда ёшларнинг дунёвий ва диний дунёқарашларини уйғун шакллантириш ва ривожлантириш концепцияси»ни ишлаб чиқиш зарурияти ва уни амалга ошириш тадбирлари (шартлари)*	188-199
Sherbek RAVSHANOV *Globallashuv sharoitida diniy-ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashda moturidiylik merosining dolzarbligi*	199-208
Dilmurod MAMARASULOV *Samarqandda birinchi ilm markazlarining shakllanishi va ularning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan omillar*	209-219
Madina O'RINBOYEVA *Imom al-Moturidiyning ilmiy merosining yoshlar ta'lim tarbiyasidagi o'rni va roli*	219-223
Faxritdin XUDOYNAZAROV *Imom Moturidiy aqidasida mo'tadillik tamoyillari va ularning zamonaviy radikal g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitet shakllantirishdagi ahamiyati*	224-226
Umidjon ABDURAXMONOV, Kaxramon MAMARAXIMOV *Yoshlar intellektual salohiyatini oshirishda Imom Moturidiyning kalom ilmidagi ilmiy merosining ahamiyati*	227-230
Феруз З. ХОЛМЎМИНОВ *Хитойда мотуридийлик таълимотини тарғиб қилган саййид ажалл шамсиддин умар бухорий*	230-235
Суннатулла АБДУЛЛАЕВ *Мотуридийлик таълимотида радикализмга қарши мафкуравий иммунитет (рукниддин самарқандий илмий мероси асосида)*	235-240
Dilorom XAMIDOVA *Tarixiy shaxsning badiiy siymosi*	240-245
Aziza BOTIRALIYEVA *Globallashuv jarayonida diniy-ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashda moturidiylik maktabining ahamiyati*	246-248

Dildora PO‘LATOVA *Moturidiylik ta'limoti va hozirgi zamon*	248-258
Parinoz OTAQULOVA *Moturidiylik va globallashuv sharoitida diniy-ma'naviy tahdidlar; radikalizmga qarshi mafkuraviy immunitet*	259-262
Xikmatillo MO‘MINOV, Ilmiy rahbar: Jo‘rabek CHO‘TMATOV *Moturidiylik ta'limoti va ijtimoiy birdamlik*	262-265
Qobul XUBBIMOV *Imom Moturidiy – hidoyat imomi*	266-267
Akmal S. YAKUBOV *Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti*	267-271
Muhammadixon BUZRUKOV *"Sharh al-aqoid an-nasafiy" asarining Samarqand davlat universitetida saqlanayotgan qo‘lyozma nusxalari*	272-277
Bekzod JOMONQULOV *Moturidiylik ta'limotida aql va adolat tamoyillari hamda ularning zamonaviy fuqarolik jamiyatini shakllantirishdagi ahamiyati*	278-288
Azizjon JUMABOYEV *Moturidiy ta'limotining asosiy g‘oyalari*	288-291
М.М. САИДОВ, А.Э. БЕРДИМУРОДОВ, А.Н. САНДИБОЕВ *Чокардизада олиб борилаётган сўнгги тадқиқотлар*	292-296
Muxlisa ERGASHOVA *Imom Moturidiyning kalom ilmidagi o‘rni va ilmiy merosining o‘rganilishi*	296-305
Мехрожиддин АМОНОВ *Чокардиза қабристони қачон ташкил топган?*	305-307
Guldasta O‘NGALOVA *Moturidiylik va Navoiy ijodida "ilm-u ma'rifat" konsepsiyasining mushtarak jihatlari*	307-316
Tuxtamurod MAMATOV *Globallashuv sharoitida ma'naviy axloqiy tahdidlardan yoshlarni himoya qilishning dolzarb masalalari*	317-320

1-2-SHUBALAR. IX–X ASRDA ILMIY-MA’NAVIY MUHIT VA IMOM MOTURIDIYNING TA’LIMOTI; MOTURIDIYLIK TA’LIMOTINING TARIXIY ILDIZLARI VA MARKAZIY OSIYODAGI RIVOJLANISH BOSQICHLARI

МОТУРИДИЙ КАЛОМ МАКТАБИ ТАРИХИНИ ЎРГАНИШДА ЧОКАРДИЗА ҚАЙРОҚ ТОШЛАРИНИНГ ЎРНИ

Шовосил ЗИЁДОВ

Имом Бухорий халқаро илмий тадқиқот маркази директори

Тарих фанлари доктори, профессор

Мақолада Самарқанд шаҳрида мавжуд қадамжолардаги айрим қайроқ тошлар ҳақида бирламчи маълумотлар берилган.

Барчамизга маълумки, Самарқанд шаҳри бир неча минг йиллик тарихга эга бўлган қадимий ва навқирон шаҳар. Бу ҳудуд асрлар давомида турли сулолалар ва маданиятлар ўчоғи бўлиб келган. Шаҳар музофотида бўлган туманлар, қишлоқлар, маҳаллалар ва гузаларда – қадимий осори атиқалар, зиёратгоҳлар, тарихий обидалар, масжид, ҳонақоҳ ва қабристонлар мавжуд. Кўплаб зиёратгоҳларда Самарқандда фаолият олиб борган ва ислом илми ривожига салмоқли ҳисса қўшган муҳаддислар, муфассирлар, мутакаллимлар, мутасаввуфлар, шоир-адиблар ва фақиҳ қадамжолари бор. Мазкур қадамжоларни ўрганиш ва тарихимизни очиқ қолаётган бўшлиқларини тўлдириш давр талабидир.

Самарқанд зиёратгоҳлари борасидаги асосий манба “Қандийа” ҳанузгача чуқур ўрганилмаган. Мазкур асарнинг биринчи қисми Саййид Аҳмад томонидан битилган бўлиб, иккинчи қисми анча кейин яратилган. Узоқ вақтлар мобайнида бу асар Абу Ҳафс Умар Насафийнинг “Китоб ал-қанд фи маърифат уламо Самарқанд” (“Самарқанд уламоларини билиш бўйича ширин китоб)” [8] ёки Муҳаммад Абдужалил Самарқандийнинг “Мунтахаб китоб ал-қанд” асарининг форс тилидаги таржимаси деб ҳисобланиб келинган. Яна бир кейинги давр муаллифи ҳисобланмиш Абу Тоҳир Хожа ўзининг “Самария” асари учун “Қандийа” асаридан кўп фойдаланган. Бу асар эса кўплаб маротаба қайта нашр этилган [1].

Қўлёзма манбалардан ташқари мўғуллар истилосидан аввалги уламолар борасидаги маълумотлар Самарқанд қайроқ тошларида ҳам учрайди. Лекин уларни аксарият қисми ҳали ё ўрганилмаган ё нашр этилмаган.

Шуларни назарда тутган ҳолда Самарқанд шаҳрида мавжуд қадамжолардаги қабртошларни айримлари ҳақида айрим қайроқ тошлар ҳақида бирламчи маълумотларни беришга аҳд қилдик. Маълумки,

Самарқандда уламолар қабрларига қўйилган қабртошларга юксак санъаткорлик билан ўйиб ёзилган битиклар уларни шу ҳудуд ҳаётида тутган юксак ўрнидан далолат беради. Ўз навбатида, бу битиклар ўтмишни яхши тушунишда ўзга хос кўприк вазифасини ўтайди.

Самарқанд ҳудудида кўплаб қабртошларни учратишимиз мумкин ва бу ёдгорликларни хиллари турличадир. Улар сандиқ, стела (понасимон), қайроқ тошлардир. Улар узунчоқ ёки трапеция, қайроқ шаклда учрайди.

Сандиқ шаклидаги ёдгорликларни Регистон [2], Шоҳизинда [7: 12], Гўри Амир [9: 44-66], Имом Бухорий мажмуаларида учратишимиз мумкин. Стела (понасимон, лавҳ) шаклидаги қабртошлар эса Хожа Аҳрор [6: 42-47], Махдуми Аъзам [10] зиёратгоҳларида мавжуд. Тадқиқотимиз объекти қайроқ тошлар Абу Мансур Мотуридий мақбараси ҳудудида сақланиб қолган.

Қайроқ – суви сайқал берган дарё тоши бўлиб, турли ўлчамларда ва аксарият ҳолларда чўзиқ ҳолдаги кўринишда ифодаланади. Узоқ йиллар давомида Ўрта Осиёнинг кўплаб ҳудудларида қайроқ тошлар қабртош сифатида ишлатилиб келинган. Чунки мазкур ҳудудларда у кўп учрайди ва у алоҳида ишлов беришга муҳтож эмас. Аммо уларни аксарияти Самарқанд ҳудудида учрайди ва улардаги битиклар улкан маҳорат билан амалга оширилган.

Бу борада тадқиқотлар кўп бўлмаса-да уларда турлича ёндашувлар бор. Айримлари қайроқ тошлардаги битикларни ўқиб фақат шу билан чекланган бўлса, айримлар тошлардаги битикларни ўқишда камчиликларга йўл қўйганлар. Тожикистонлик олима Додхудоева Л.Н. ўзининг "Эпиграфические памятники Самарканда XI-XIV вв" номли китобда 130 қайроқ тошларни чоп этган [3], Хашимов М. А. эса "Религиозные и духовные памятники Центральной Азии (книга-атлас)" [11: 28-40] китобида 100 та қайроқ тошларни юқорида кўрсатилган манба асосида киритган.

2000 йил Вазирлар Маҳкамасининг қарори билан ал-Мотуридий таваллудига бағишлаб ўтказилган тантаналар арафасида Самарқандда Чокардиза қабристони ўрнида 3,5 гектарлик мажмуа барпо этилди. Мажмуа марказида Абу Мансур ал-Мотуридий мақбараси бунёд этилди.

Мотуридий мақбарасини тиклаш жараёнида кўплаб фақиҳ ва уламоларга мансуб қабртошлар (*қайроқ тошлар*) топилгани эътиборга моликдир. Уларнинг аксарияти қорахонийлар даврига оид бўлиб, кўплаб янги маълумотлар бериши табиий. Ҳозирда мақбарадаги, ЎзФА археология институти ҳамда Самарқанд ва Тошкент музейларидаги қайроқ тошларни исломшунос олимлар Б.Бобожонов, А.Мўминов, У.Рудольф томонидан ўрганилди ва 2019 йил чоп этилди [13]. Чокардиза қабристонидан топилган баъзи эпиграфик ёдгорликларини ўрганиш жараёнида X аср уламолари

қабртошларидан бир қисми бизгача етиб келганлиги аниқланмоқда. Улар орасида мотуридийа калом мактаби вакиллари Абул-Ҳасан ар-Рустуғфаний, Абу Салама ас-Самарқандий каби йирик олимларга оидлари ҳам аниқланди [5: 457-463].

Одатда матн қайроқ тошни юқори қисмига битилган бўлиб, қабр устига қўйилган. Улар юзасидаги битиклар, рамзий белгилар, нақшу нигорлар маълум тартиб ва қоидаларга асосан амалга оширилган:

1) Одатга кўра матн: *"ҳаза қабр"* (бу қабр), *"ҳаза марқад"* (), *"ҳаза бустан"* (бу боғ) каби фарқли битиклар билан бошланади;

2) Кейин эса марҳумни исми, лақаби, нисбаси ва одатга кўра уч авлод шажараси берилади;

3) Вафот санаси маълум бир тартибдага ибора билан бошланади *"мутавафий фи"* (вафот этди...);

4) Марҳумни илм соҳасидаги – фақиҳ, муфассир ёки қори ва бошқалар

5) Марҳумни ўзига ёки унинг яқинларига хайрихоҳона баҳо ҳолатлари ҳам учрайди.

Лекин сўнгги кузатувларимиз натижасида бундай қайроқ тошлар нафақат Мотуридий мақбараси балки Самарқандининг бошқа ҳудудларида ҳам борлиги аён бўлмоқда. Буларга қуйидаги манзиллардаги қайроқ тошларни киритишимиз мумкин: Афросиёб тарих музейида бир дона, Доримий мақбараси ёнида икки дона, яна икки донаси Ҳазрат Хизр масжиди ёнида. Беш донаси Амир Темур мақбарасидан узоқ бўлмаган Хон "Саид Имом" маҳалласидаги Искандаров ва М. Умаров кўчалари кесишган жойдаги Хон Саид Имом зиёратгоҳида ғиштдан қурилган даҳма деворига ўрнатилган.

Қуйида мазкур янги қайроқ тошлардаги битикларни ўқишга ҳаракат қилдик:

I. Афросиёб тарих музейидаги қайроқ тош:

Амир Абу Мухожир Муҳаммад ибн Имрон ибн Муҳаммад ибн ал-Ахвас Ансорий номи битилган. Вафот санаси ва соҳаси берилмаган (1-расм).

II. Доримий мақбарасидаги қайроқ тошлар:

1) Шамсиддин Муҳаммад ибн Арслон Аркабаш ибн Муҳаммад Ўзгандий. Вафот санаси сақланиб қолмаган (2-расм).

2) Муфассир, войиз – Сайид Шаҳобиддин…қолган қисми сақланиб қолмаган (3-расм)

III. Ҳазрат Хизр масжиди:

1) Шайх, имом Абу… Абд … Вафот санаси: 523/1129 йил. (4-расм)

2) Шайх, фақиҳ Али ибн Муҳаммад ибн Аҳмад ал-Сарромий. Вафот санаси: рамазон ойи 609/1213 йил. феврал. (5-расм)

IV. Хон Саид Имом зиёратгоҳи:

1) Муфтий, войиз, муфассир Абу Хомид Умар ибн Муҳаммад ибн Аҳмад ал-Халвоний ал-Зариқий?. Вафот санаси: жума куни рабий ул-охир ойининг биринчи чорагида 603/1206 йил ноябрь ойи бошларида (6-расм).

2) Шайх, Имом, Муҳаммад ибн Али ибн Аби Сахл ибн Хамза. Вафот санаси: душанба 5 шаъбон ойининг 543/1148 йил 18 декабрь куни (7-расм).

3) Муфтий, Шайх, фақиҳ – Маҳмуд ... Абу Муҳомид Муҳаммад ибн Али ибн Нажафи... вафот санаси: 562/1166 йил (8-расм).

4) Шайх – Муҳаммад ибн Шайх ал-Кабир ал-Нажжорий Хайриддин Муҳаммад ибн Муҳаммад. Вафот санаси: 14 рамазон 638/1241 йил 28 март куни (9-расм).

5) Хожа Туркий Маҳмуд ибн Музаффар ибн Умар ибн Сафоб ал-Марвазий... Вафот санаси: Рамазон ойининг 10 куни 582/1186 йил 23 декабрь куни (10-расм)

Илмий текширишлар натижасида X-XII аср сангтарошлик санъати ўз даврида анча тараққий этганлиги аниқланди.

Қабртош матнларининг текстологик ва палеографик таҳлили матнларнинг ҳар бир тарихий давр шарт-шароитидан келиб чиққан ҳолда ўзгарганлигини кўрсатди.

Хулоса ўринида шуни айтиш керакки, мазкур қайроқ тошларни ўрганиш ва илмий муомалага киритиш Самарқандда яшаб ўтган уламоларни вафот ва туғилган йиллари, туғилган жой ёки вафот жойлари, шажараси, нисбалари, асарлар номлари, ислом илмларидаги хизматлари, устозлари, шогирдлари борасидаги қўлёзма асарларда учраймадиган муҳим маълумотлар билан муҳимдир:

1. Био-библиографик адабиётларда номлари учрамайдиган мотуридийа калом мактаби вакиллари, улар атрофидаги уламолар номларини тиклашда;

2. X асрда Самарқандда фаолият кўрсатган илк икки калом мактаби ва Абу Мансур Мотуридийга бевосита туташган : а) "Дор ал-иёдия" б) "Дор ал-жузжония" тарихини ўрганишда;

3. Мотуридийлар томонидан битилган ва бизгача етиб келмаган асарларни номларини аниқлашда.

Ўйлаймизки, Самарқанд шаҳри ҳамда унинг атрофида янги ва ҳали бизга номаълум бўлган қайроқ тошлари топилади ва илмий муомалага киритилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Абу Тоҳирхожа. Самария // Мерос. – Т.: Камалак, 1991.
2. Bakhtiyar Babajanov, Ashirbek Muminov, Jürgen Paul (eds.): Schaibanidische Grabinschriften. Wiesbaden: Harrassowitz, 1997.
3. Додхудоева Л.Н. «Эпиграфические памятники Самарканда XI-XIV вв.» Том I. – Душанбе: Издательство «Дониш», 1992.

4. Каримов И.А. «Юксак маънавият – енгилмас куч». – Т., Маънавият, 2008.

5. Мўминов А. Значение погребальной эпиграфики в г. Самарканде (X-XIV века) для изучения истории Матуридийа //// *Büyük Türk Bilgini. Imam Mâturîdî ve Maturidilik /* Millletlerarası tartışmali ilmî toplantı. 22-24 mayıs 2009 – İstanbul. Ed. Prof. Dr. İlyas Çelebi. – İstanbul, 2012.

6. Надгробная эпитафия Ходжа Йахйи сына Ходжа Убайдаллах Ахрара // Археология, нумизматика и эпиграфика средневековой Средней Азии. – Самарканд, 2000.

7. Немцева Н. Шахи Зинда (Альбом) – Т. 1987.

8. Раҳимджанов Д. VIII-XII асрларда Самарқандда ҳадис илми тараққиёти (Абу Ҳафс ан-Насафийнинг «Китоб ал-қанд фи ма'рифат 'уламо' Самарқанд» асари асосида): тарих фанлари номзодлик диссертацияси автореферати. – Т.: Тошкент ислом университети, 2003. – 26 б.

9. Семенов А.А. Надписи на надгробиях Темура и его потомков в Гуре Эмире/ Эпиграфика Востока, Вып.П. М Jl., 1948.

10. Тураев Б.О. "Маҳдуми Аъзам" рисоласи 2014 йил. Имом Бухорий нашриёти, 2013.

11. Хашимов М. А.Религиозные и духовные памятники Центральной Азии (книга-атлас). – Алматы: Издательство «САГА», 2001.

12. Эпиграфика мемориального комплекса Шахи-Зинда. (тексты, переводы). Прочитане текстов, переводы, Введение: Б.Бабаджанов, У. Рустамов. Самарканд. 2015.

13. Эпитафии мусульманких ученых Самарканда (X-XIV века). (тексты, переводы). Прочитане текстов, переводы, Введение: Б.М. Бабаджанов, Л.Н. Додухудонва, А.К. Муминов,У. Рудольф. Стамбул 2019.

1-расм

2-расм

3-расм

4-расм

5-расм

6-расм

7-расм

8-расм

9-расм

10-расм

IMOM MOTURIDIYNING KALOM ILMIGA OID QARASHLARI: FALSAFIY TAHLIL

Sarvar Saidov
Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi Ilmiy tadqiqot bo'limi boshlig'i, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Annotatsiya: Ushbu maqolada Imom Abu Mansur Moturidiy (873–944) ning kalom ilmiga oid qarashlari falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Moturidiy o'z davrida islom tafakkuri rivojiga beqiyos hissa qo'shgan mutakallim sifatida tanilgan bo'lib, uning asarlari orqali kalom ilmi metodologiyasi, nazariy asoslari va dalillash usullari yangi bosqichga ko'tarilgan. Maqolada avvalo Moturidiy ta'limotining shakllanishiga ta'sir etgan tarixiy, diniy va intellektual muhitga e'tibor qaratiladi. Allomaning aqidaviy qarashlarida aql va naqlning o'zaro uyg'unligi, inson erki va qadar masalalari, ilohiy sifatlar va ularning talqini singari masalalar tahlil qilinadi. Ushbu maqolada Imom Moturidiyning nafaqat kalom ilmiga, balki islom falsafasi va diniy tafakkur taraqqiyotiga qo'shgan hissasi yanada chuqurroq o'rganilib, uning qarashlarining bugungi kun uchun ahamiyati ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: Imom Moturidiy, kalom ilmi, aqida, falsafiy tahlil, islom tafakkuri, aql va naql, iymon va amal, qadar masalasi, ilohiy sifatlar, metodologiya, epistemologiya, Mu'tazila, Ash'ariya, diniy meros.

Bugungi kunda yurtimizda barcha sohalarda bo'lgani kabi diniy-ma'rifiy sohada ham keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa yurtimizdan yetishib chiqqan ulug' alloma va mutafakkirlarning boy ilmiy-ma'naviy merosini chuqur o'rganish va ular asosida turli mafkuraviy xurujlarga qarshi kurashish masalasiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Ushbu islohotlarning izchil davomi sifatida Imom Abu Mansur Moturidiy ilmiy-ma'naviy merosini har tomonlama tadqiq etishga qaratilayotgan yuksak e'tiborni alohida ta'kidlash lozim. Yurtboshimiz tashabbusi bilan "Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi"ning tashkil etilishi, "Imom Moturidiy tavalludining 1155 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi Prezident Qarorining qabul qilinishi yangilanayotgan O'zbekistonda ushbu buyuk alloma ijodiga qaratilayotgan yuksak e'tiborning yaqqol namunasidir. Zero, Imom Moturidiy asarlari o'z davrida ham, keyingi asrlarda ham turli adashgan oqimlarga qarshi ishonchli raddiyalar berishda dasturulamal vazifasini bajargan.

Imom Abu Mansur Moturidiy Islom olamida ko'plab muhim voqealar sodir bo'lgan, diniy, e'tiqodiy, falsafiy va siyosiy mazhablar hamda oqimlar paydo bo'lgan bir davrda yashagan. Ana shunday murakkab muhitda yetishib chiqqan Imom Moturidiy sof Islom e'tiqodiga nisbatan olib borilgan buzg'unchi harakatlarga qarshi yozgan asarlari bilan mashhurdir. Alloma o'zining ilmiy faoliyati orqali sof

diniy qadriyatlarni yemirishga uringan turli diniy va falsafiy oqimlarning fikr va da'volarini tanqidiy o'rganib, ularni rad etishga intilgan. Avvalo, tavhid e'tiqodi orqali Islomning asosiy aqidaviy asoslarini aniqlab, ularni himoya qilgan va mustahkam aqidaviy poydevorga asos solgan [4].

Islomiy ilmlar borasida yuksak mavqega ega bo'lgan Imom Moturidiyning eng ko'p shug'ullangan ilm sohalaridan biri, shubhasiz, kalom ilmidir. Imom Moturidiy ushbu ilmga olib kirgan metod va yo'nalishlari sababli bu sohada yetuk alloma sifatida tan olingan. Shu bois, u islom olamida tafsir va fiqh ilmlaridan ko'ra, kalom ilmi olimi sifatida ko'proq mashhurlikka erishgan. Imom Moturidiyning kalom ilmida yuksak mavqega ega bo'lishidagi eng muhim omil – uning ushbu ilmning rivojlanishi va tizimlashtirilishiga qo'shgan hissasidir [3].

Qur'oni karim nozil bo'lgan davrdan boshlab Imom Moturidiy yashagan milodiy X asrgacha bo'lgan davr oralig'ida Islom olamida siyosiy, ijtimoiy, ilmiy va madaniy sohalarda ko'plab muhim voqea va o'zgarishlar yuz bergan. Buning natijasida Islom dunyosida dinni anglash va sharhlash borasida turli xil siyosiy, falsafiy, e'tiqodiy va fiqhiy mazhablar hamda oqimlar paydo bo'lgan. Ayniqsa, Payg'ambarimiz (s.a.v.) vafotidan so'ng musulmonlar orasida birinchi marta yuzaga kelgan xalifalik/imomat borasidagi bahslar, Hazrat Ali (r.a.) xalifalik davrida sodir bo'lgan Jamal va Siffin urushlari murakkab aqidaviy muammolarning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Aynan ushbu asrlarda xorijiylik, Shia va Murji'a kabi turli siyosiy mazhablar ham shakllana boshladi [4].

Islom o'lkalarining kengayib borishi natijasida turli din, madaniyat va sivilizatsiyalar o'rtasida diniy, fikriy, ilmiy va madaniy sohalarda o'zaro ta'sirlanish kuchaydi va turli e'tiqod sohiblari o'rtasida diniy-aqidaviy masalalarda bahs-munozaralar paydo bo'la boshladi [6].

Bundan tashqari, musulmonlar boshqa din, madaniyat va sivilizatsiyalarni chuqurroq o'rganish va anglash maqsadida hind va fors madaniyati hamda yunon falsafasiga oid asosiy asarlarni tarjima qilishga katta ahamiyat bera boshladilar. VIII asrdan boshlangan ushbu tarjima harakatlari natijasida g'ayriislomiy tafakkur shakllari Islom sivilizatsiyasiga kirib keldi. Bu holat bir tomondan ilmiy-falsafiy, aqidaviy jihatdan ko'plab yangi fikr va yondashuvlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan bo'lsa, boshqa tomondan esa Islomga qarshi kayfiyatdagi, zararli va buzg'unchi guruhlarning yuzaga kelishiga ham olib keldi. Natijada, musulmonlar bir tomondan din doirasida paydo bo'lgan yangi masalalarni tushuntirishga, boshqa tomondan esa turli din vakillariga Islomni bayon qilishga va ko'plab adashgan oqimlarning Islomga qarshi hujum va tuhmatlariga qarshi kurashishga majbur bo'ldilar [6]. Mana shunday ichki va tashqi omillar tufayli, Islom jamiyatida Jabariyya, Jahmiyya, Qadariyya, Mo'tazila, Salafiyya kabi turli oqimlar vujudga keldi. Imom Moturidiy ilmiy merosining ahamiyati ham o'z davridagi turli aqidaviy

ixtiloflarni ilmiy dalillar asosida tushuntirib, musulmon dunyosida birdamlikni ta'minlash borasidagi intilishlarida namoyon bo‘ladi [3].

Imom Moturidiyning Islom olamida yetuk kalom olimlaridan biri sifatida tan olinishi faqatgina Abu Hanifaning qarashlarini qayta sharhlab, boyitgani yoki uning nomi bilan ataluvchi kalom maktabining mavjudligi bilangina izohlanmaydi. Bular bilan bir qatorda, umuman Islom tafakkurining, xususan kalom ilmining mazmun, uslub va metod jihatidan boyishiga, yanada tizimli bir shaklga kirishiga, Islom e'tiqodi asoslariga qarshi yuzaga kelgan buzg‘unchi falsafiy va diniy oqimlarga qarshi Islom aqidasini himoya qilish va asoslab berishda ko‘rsatgan xizmat va hissasi ham uning mazkur ilm sohasida shuhrat topishiga katta ta'sir ko‘rsatgan [4].

Allomaning eng muhim ikki asari – “Kitob at-Tavhid” va “Ta'vilot ahl as-Sunna” yuqoridagi fikrimizni yaqqol tasdiqlaydi. Chunki Imom Moturidiy bu asarlarida o‘zidan avvalgi olimlar muhokama qilmagan muhim masalalarni ko‘tarib chiqqan, naqliy dalillar bilan birga tarixiy, ijtimoiy xarakterdagi aqliy dalillardan ham foydalanib, ixtiloflarni bartaraf qilishga harakat qilgan. Shu sababli bugungi kunda uning ilmiy faoliyatini chuqur o‘rgangan zamonaviy olimlar Imom Moturidiyning kalom ilmi tizimlashuvi va haqiqiy ilmiy fan darajasiga ko‘tarilishida ko‘rsatgan hissasini ochiq-oydin e'tirof etadilar [3].

Imom Moturidiy kalom ilmining joizligi masalasi bo‘yicha munozaralar avj olgan bir davrda yashab, bu ilmni o‘rganishning joiz ekanini asoslab berishga harakat qilgan va kalom ilmining mustaqil bir ilm sohasi sifatida shakllanishi hamda musulmon jamiyati tomonidan qabul qilinishiga hissa qo‘shgan. Chunki yuqorida ta'kidlanganidek, uning davrida kalom ilmi qattiq tanqid ostiga olingan, unga qarshi salbiy munosabat mavjud edi. Boshqacha aytganda, kalom ilmining shar'iyligi masalasi shubha ostiga olingan edi. Imom Moturidiy esa bu bahs-munozaralarda kalom ilmining zaruriy va joiz ekanini Qur'on oyatlaridan dalillar keltirish orqali isbotlashga intilgan [6].

Ma'lumki, kalom ilmining asosiy vazifalaridan biri Islomning aqidaviy asoslarini himoya qilish, bu asoslarni mustahkamlash bilan birga, musulmonlarga uni to‘g‘ri tushuntirish va keyingi avlodlarga sog‘lom tarzda yetkazishdan iboratdir. Ayniqsa, “Ta'vilot” asarining turli joylarida Imom Moturidiy o‘z davridagi turli adashgan oqimlarni tanqid qilar ekan, aynan kalom ilmining mana shu xususiyatiga e'tibor qaratadi. U diniy masalalarda bahs va munozarani inkor etuvchi toifalarga qarshi turib, kalom ilmi nafaqat joiz, balki zaruriy ilm ekanini isbotlashga harakat qilgan. Imom Moturidiy kalom ilmi bilan shug‘ullanishning shar'an joizligini dalillash uchun avvalgi payg‘ambarlarning o‘z qavmlari bilan olib borgan bahs-munozaralarini dalil sifatida keltiradi [2]. Unga ko‘ra, hech bir payg‘ambar o‘z qavmi bilan bahs qilmasdan, ularni da'vat qilmagan. Masalan, Ibrohim (a.s.)ning Allohning borligi va yagonaligi masalasida o‘z qavmi va podshoh bilan olib borgan

bahslari, shuningdek, Muso (a.s.)ning Fir'avn bilan olib borgan munozaralari bunga dalil sifatida ko‘rsatilgan [3].

Imom Moturidiyga ko‘ra, musulmonlar Islom dinini boshqa xalqlarga yetkazish uchun o‘zlarini ilmiy jihatdan yetuk holda tayyorlashlari kerak, ayniqsa diniy masalalarda zarur bo‘lgan dalillarni o‘rganishlari zarur. Chunki islom diniga da'vat etish jarayonida fath etilgan xalqlarni ishontirish uchun aynan shu dalillarga ehtiyoj tug‘iladi. Zero, barcha payg‘ambarlarga o‘z qavmlarini Allohdan boshqa iloh yo‘qligiga, Unga hech qanday sherik yo‘qligiga ishontirish vazifasi yuklatilgan bo‘lsa, xuddi shunday musulmonlar ham Allohning yagonaligini dalillar asosida boshqalarga yetkazishga mas'uldirlar. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, Imom Moturidiy adashgan oqimlarning "bu joiz emas" degan fikrlariga zid ravishda, kalom ilmi bilan shug‘ullanish, din haqida fikr yuritish va bahs qilish shar'an joiz ekanini asoslagan [4].

Islom e'tiqod tizimini himoya qilish va uni to‘g‘ri anglash masalasida Kalom ilmining zarurligiga urg‘u bergan holda Imom Moturidiy bu fikrni faqat nazariyada qoldirmasdan, balki butun hayoti davomida amaliyotda ham qo‘llashga harakat qilgan va shu orqali bu ilmning zarurligini isbotlab bergan. Imom Moturidiyni bunga undagan eng muhim omillardan biri, shubhasiz, uning diniy, falsafiy va siyosiy mazhab hamda oqimlar, bid'atlarga asoslangan qarashlar paydo bo‘lgan, Islom jamiyatiga turli vayronkor g‘oyalar kirib kelgan bir davrda yashaganligidir. Mana shunday muhit va davrda kamol topgan Imom Moturidiy bir tomondan boshqa sivilizatsiyalar tomonidan kirib kela boshlagan turli yot g‘oyalarga qarshi Islomning asosiy e'tiqod asoslarini, boshqa tomondan esa Islom doirasida paydo bo‘lgan diniy va siyosiy mazhab hamda firqalarga qarshi sunniy aqidani himoya qilish maqsadida kurash olib borgan. Imom Moturidiyning radikal oqimlarga qarshi olib borgan kurashlarini bugungi kunda unga nisbat berilgan asarlari orqali bilib olamiz. Bu borada ushbu asarlarning faqat nomlari va mavzu sarlavhalariga nazar tashlashning o‘ziyoq allomaning hayoti turli yot, adashgan firqalarga qarshi fikriy kurashlar, radikal oqimlarga qarshi sunniy aqidani himoya qilish bilan o‘tganini anglash uchun yetarli bo‘ladi [3].

Umuman olganda, ahli sunna va-l-jamoa ta'limotining ikki yirik aqidaviy maktablaridan biri – moturidiya yo‘nalishiga asos solgan Abu Mansur al-Moturidiy Movarounnahr zaminida yetishib chiqqan buyuk mutafakkir sifatida islom tafakkuri tarixida alohida o‘rin egallaydi. U o‘zining boy ilmiy merosi orqali islom dinining bag‘rikenglik va insonparvarlik g‘oyalarini asoslab bergan, turli yot mafkuralar va buzilgan e'tiqodiy qarashlarga Qur'oni karim hamda Sunnat asosida ilmiy raddiyalar bilan javob qaytargan. Moturidiy kalom ilmi sohasida chuqur bilimga ega bo‘lgan alloma bo‘lib, uning asarlari nafaqat aqidaviy masalalarni, balki falsafiy va mantiqiy muammolarni ham qamrab oladi.

Xususan, "Kitob at-Tavhid" asari allomaning kalom, falsafa va jadal ilmidagi yuksak salohiyatini yaqqol ko'rsatsa, "Ta'vilot al-Qur'on" tafsir, hadis, fiqh va aqida sohalarida chuqur bilimga egaligini isbotlaydi. Mazkur asarlar orqali Moturidiy nafaqat Movarounnahr mintaqasida, balki butun islom olamida ilmiy obro'-e'tibor qozongan va o'z davrida ham, undan keyingi asrlarda ham aqidaviy tafakkur taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Shu bois Imom Moturidiyning ilmiy merosi bugungi globallashuv jarayonida ham diniy-ma'naviy barqarorlikni ta'minlash, turli radikal g'oyalarga qarshi ilmiy asoslangan yondashuvni shakllantirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. Tarjima va izohlar muallifi Abdulaziz Mansur. – Toshkent: Sano-standart, 2019. – 624 b.
2. Abu Mansur Moturidiy. Ta'vilot al-Qur'on (27-28-juzlar). – Toshkent: "HILOL-NASHR" nashriyoti, 2022. – 736 b.
3. Kutlu Sönmes. Mâtürîdîligin Tarihi Arka Plani. – Ankara: 2003.
4. Recep Önal. Mâtürîdî'nin Hayatı, Eserleri Ve Kelam İlmi'ndeki Yeri. Akademik İncelemeler Dergisi. Cilt: 8, Sayı: 3, 2013.
5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hidoyat imomi. Imom Abu Mansur Moturidiy. – Toshkent: "HILOL-NASHR" nashriyoti, 2021. – 128 b.
6. Ziyodov Sh. Abu Mansur al-Moturidiy va uning "Kitob at-ta'vilot" asari. "Fan" nashriyoti. 2009. – 140 b.

FROM THE HISTORY OF THE MADRASSAHS OF UZBEKISTAN

G'offorov Shokir Safarovich
Professor of Samarkand State University, Doctor of Historical Sciences

Annotation. This article states that schools and madrassahs have existed in Uzbekistan since ancient times. Also, the activity of Mirzo Ulugbek madrassah in Samarkand was analyzed on the basis of sources. It is noted that the activity of Mirzo Ulugbek madrassah and other madrassahs in Samarkand in the following centuries, they existed in the 20s of the XX century.

Keywords: Madrassai ulum, madrassai muallimun, mutavvalli, mudarris, Shamsiya, alo, adno, avsot, mushkulot, university.

Öz. Bu makalede, Özbekistan'da en eski çağlardan beri okulların ve medreselerin mevcut olduğuna vurgu yapılmaktadır. Ayrıca Semerkand'daki Uluğbey medresesinin faaliyetleri kaynaklara dayalı olarak incelenmiştir. Semerkand'daki Uluğbey medresesi ve diğer medreselerin sonraki yüzyıllarda faaliyetinin, XX yüzyılın 20'li yıllarına kadar devat ettirdiği ar olduğu kaydedilmektedir.

Anahtar Kelimeler: Medresei ulum, medresei muallimün, mütevvalli, müderris, Şemsiye, alo, adno, avsot, muşkulat, üniversite.

Introduction. Our country has a glorious history as one of the centers of ancient science, education and culture. For this reason, it is not for nothing that many great people and thinkers came out of our country. Because in our country since ancient times there was a historical basis for the formation of science, culture and spirituality. The same can be said about educational institutions, activities of madrassahs, their educational system, form and educational process. We intend to pay special attention to these aspects of the issue.

Main part. In the East, including in the regions of Uzbekistan, the education system was studied by a number of scientists on the basis of sources that have come down to us, and their results were published in different languages [1, s. 232-251; 2; 3; 4, b.182; 5].

In some works on the history of culture and education, it is noted that the appearance of madrassahs in Islamic lands dates back to the 10th century, and the first madrassahs were built in Nishapur. However, historical sources, including the "History of Bukhara" by Narshakhi, claim that back in the 10th century there were madrassahs in Bukhara, one of which was badly damaged by a fire in 937, staged by Farjak [13, b.84].

One of the most important stages of the education system was the construction of madrassahs in two great cities of our country - Samarkand and Bukhara, the first in the Islamic world in the late 8th - early 9th centuries.

The education system consisted of three levels and three educational institutions - primary school, madrassah and secondary school madrassah. Madrassahs with secondary specialized education could exist in the form of "madrasatun kharbiya" (military school), "madrasatun muallimin" (pedagogical institute), and higher educational institutions-universities could exist as "madrassahs ulum" ("madrassah of sciences" - dorilfunun)[7].

All this testifies to the fact that the education system of our Motherland and other peoples of Turkestan in the past was perfect and mature and fully met the requirements of life at that time.

The most brilliant and perfect stage in the history of the education system undoubtedly dates back to the times of the great master Amir Temur and the Temurids.

After the establishment of the rule of Amir Temur in Movarounnahr at the end of the 14th century, large-scale work was carried out to unite the country and organize various processions, as well as various structures, improve the education system and build educational centers. As a result, 12 gardens and palaces described

in "Boburnom" by Zakhiriddin Muhammad Babur around Samarkand, a city arch, a mosque, the grave of Kusam - Kusam ibn Abbas (now known as Shahi Zinda), the son of Abbas, uncle of the Prophet Muhammad and a number of mausoleums around him. Samarkand stone fortress - Oksaroy in the Chakar region was built on the direct orders of Amir Temur. Members of Amir Temur's family - his wife, grandchildren and Amir officials, began similar work, many of whom began to build madrassahs and trade in rastahs (teams).

As a result of Amir Temur's wife - Saraimulkhanim (madrassah), Tuman aka (khanaka and kulokhfurushon bazaar), Idigu Temur, Firuzshah (madrassah), grandson Muhammad Sultan (madrassah), Samarkand City major Mavlono Kutbid (madrassah) built a number of rows, buildings, especially madrassah.

The construction of these madrassahs was not in vain. As the foundation of Amir Temur's empire was laid and expanded, a need arose for the education of officials and the intelligentsia, necessary for a more solid administration of it. Secondly, Amir Temur intended to demonstrate the glory, power and talent of the kingdom by erecting magnificent buildings and gardens. To achieve these goals, he brought famous scientists, doctors, craftsmen, in a word, talented specialists from other countries to his capital Samarkand. Therefore, experts from different cities of Movarounnahr, Khorasan, Rum, Iran, Damascus and India gathered in Samarkand. Among them are Saiddin Mas'ud Taftazani, Sayyid Sharif Jurjani, Salahiddin Musa Kazizoda-i Rumi, Abu Sayyid ibn Burkhaniddin Sogardji, Mawlana Kamoliddin Keshi; architects and engineers Fakhri Ali, Alim Nasafi, Zainiddin Shams-i Tabrez, Muhammad ibn Mahmud Isfahani; artists and calligraphers Yusuf Sherazi, Muhammad bin Haji Banjir al-Tugra-i Tabrezi and others. In order to effectively use these specialists, great attention was paid to the construction of madrassahs in all spheres, including the revival of the education system, the writing of new works and the growth of the popularity of Amir Temur and the Temurids.

Some of the madrassahs built during the Sahibkiran period were dedicated to science for 20-25 students (Muhammad Sultan madrassah), some up to 100 students were dedicated to science (Idigu Temur, Qutbiddin Sadr, Saraimulkhanim madrassah). Madrassahs seem to be somewhat specialized, including in the form of management education (Mavlono Qutbiddin Sadr madrassah), general education (intellectuals, imams, scientists, school teachers) and other directions (Idigu Temur, Saroimulkhanim madrassah).

Classes in the madrassah were conducted in three languages - Arabic, Persian and Turkish (Uzbek). In each madrassah, depending on the income and specialization determined by its fund, the number of students is determined. Accordingly, they determine the number of sadr-mutawwali, mudarri, mu'id, hafiz,

imam, mukri, nokit, mujavir, farrosh, musdir and others. The Chief Chairperson is also responsible for hiring teachers and other staff and renovating madrassas [11].

The "golden age" in the education system of the peoples of Central Asia is undoubtedly the period of Mirzo Ulugbek (1409-1449). During the 40-year reign of Mirzo Ulugbek in Movarounnahr, a patron of science and enlightenment such as a great scientist and statesman, a great ancestor, the country was at the forefront of world civilization at that time. Thanks to the efforts of the scientist and ruler, Samarkand became the center of science and culture of the entire Muslim East. The great Jahangir Amir Temur brought scientists and craftsmen from other countries to increase the cultural, educational and scientific power of his kingdom, and during the reign of Ulugbek Mirzo, Arabu Ajam and Ruma, the students of India, voluntarily came to Turkestan.

Historical sources contain a lot of information about dozens of madrassahs and mosques, mausoleums, khanaks, bazaars and baths built by Ulugbek. The madrassahs built by the great scientist have survived to this day, which we will talk about below.

The madrassah of Mirzo Ulugbek in Bukhara was built in 1417, and its architect was Ismail ibn Tahir ibn Mahmud Isfahani.

The madrassah is small in size (history is 50x40 meters), it has a beautiful entrance roof, and in the courtyard there are two floors of rooms, a mosque, and a classroom.

The entrance to the madrassah is known in the upper layer of the right layer - the hadith "All Muslims are obliged to seek knowledge" is written in a beautiful nastalik script. It is known that such an inscription is among the inscriptions on the tomb of Khoja Ahmad Yassavi (Yassi, now in Turkestan), built by Amir Temur.

The second inscription, corresponding to this meaning, is also notable for the words inscribed on the first (bronze) ring of the gate: "The door of God's blessing is always open to those seeking biblical knowledge".

It is worth noting that at the entrance to the Mirzo Ulugbek madrassah in Bukhara there are inscriptions that propagandize and promote science. The fact is that Mirza paid special attention to the education system, madrassahs, which are one of his centers.

Although the lack of information about the activities of the madrassah does not allow us to speak unambiguously about many madrassahs, there is no doubt that this is a general purpose madrassah.

Now the madrassah has been preserved. Renovated in 1993-1994. To the 600th anniversary of Mirzo Ulugbek.

In 1433, Mirzo Ulugbek built a small one-story madrassah (in the city of Gijduvan) on the sunset side of the grave of Sheikh Abdulkhalik Gijduvani. The

madrassah had a roof and a courtyard with a mosque, classroom and khanaka. It was not in vain. While building this madrassah, Mirzo Ulugbek expressed his respect to Abdulkhalik Gijduvani, the founder of the Khojagon sect.

Today the roof and facade of the madrassah have been preserved. In the following centuries, a summer mosque was built and added, and a small minaret was built next to it (a small branch of the Kalon minaret in Bukhara).

Mirzo Ulugbek, with the help of scientific forces and qualified engineers who gathered in Samarkand, began large-scale construction work in the country, including in the capital Samarkand, for the effective implementation of the education and scientific research system. The fact is that before starting this work, much attention was paid to the purpose, task, location, architects of madrassahs and madrassah complexes for the education system and scientific research, as well as the fact that each building is based on accumulated experience and theory. while. In this work, a group of engineers Sultan Giyosiddin Kashi, famous architects and artists Muhammad ibn Mahmud Isfahani, Ismail bin Tahir bin Mahmud Isfahani, Yusuf Sherozi, Muhammad bin Haji Banjir and others created long-term plans under the direct leadership of Mawlan and Ruganbek and Mirzoda. On the basis of this, a plan was approved for the construction of madrassahs in Bukhara (1417) and Gijduvan (1433), as well as the creation of a complex of madrassahs in Samarkand.

Abdurazzak Samarkandi (1413-1482) writes in his Matla us-sa'dain wa majma 'ul-bahrain:

"(Mirzo Ulugbek) built a madrassah and a khanaka inside Samarkand, in the center of the city and in the center of the square, in an area called Sary-Davonik, not far from the Arch of Oli." The madrassah in Samarkand was built in 1417-1420 due to its size and a large number of premises.

The madrassah is extraordinarily magnificent in terms of architecture, and painting is the supreme example of calligraphy, stone carving and carpentry. The history of the madrassah covers an area of 81x56 meters, and its facade - the roof - faces the sun. The starry sky on the roof is a blue image, the entrance gate is made of wood using the carving technique. On the southern and northern sides of the obverse there are two three-tiered bouquets. a minaret with two beautiful domes on the sides, closed entrance gates and entrances from the southern and northern sides of the madrassah, a courtyard of the madrassah on the southern and northern sides of the sunset side with two more flower towers and two domes.

The madrassah has 55 rooms on two floors. Each room, in turn, has two floors. On the first floor there is a boiler room, a reading room and a chat room, and on the second there is a hostel. One room is designed for two people.

There are four classrooms on the four sides of the madrassah, and a mosque on the west side. They say that the complex of Mirzo Ulugbek madrassah in

Samarkand differed from other madrassahs in that it also had an observatory. In support of this idea, it is appropriate to cite a wonderful reference text in the work "Tazkirat ush-shuaro" by the poet, literary critic and historian Mavlana Mutribi Samarkandi, who lived and worked in the 17th century. Mawlana Mutribi writes: (Contents) "Binders Atorud fatinatli rasad and Mushtariy hislat Kamar, photographic detectors depict the image of seven climates and the rulership of the Earth on the wall of the madrassah of Sultan Shahid Ulugbek Koragon in Samarkand and Firdavsmonand (It is necessary to believe what Mawlana Mutribi wrote. That the compilation of seven climatic maps in the madrassah was carried out after the launch of the observatory and the determination of seven climatic directions, and a copy of this map was drawn on the wall of the madrassah. Therefore, the image of the seven climatic maps applied to the wall of the madrassah has not survived to this day [8].

At the beginning of the madrassah, the level of knowledge of the student was determined, which was divided into three groups - excellent (high), avsat (medium) and adno (low). It is worth mentioning here that in order to find out which group a student belongs to, he was examined. The exam was conducted by a special delegation headed by Mavlana Kazizade Rumi. Mirzo Ulugbek sometimes took part in the Talibs science exam.

The educational process in the madrassah lasted seven months. It began on the first day of the criterion month (September 21) and lasted until the first day of the pregnancy month (March 21). The period from the month of Hamal (March 21) to the month of Mezan (September 21) is a holiday, and the student of natural sciences was engaged in various activities (agriculture, crafts, the imam of the mosque, etc.).

The term of study in madrassah is 8 years, with three stages - adno, avsat, alo, during which the student is given a month and uluf.

A student who distinguished himself by his abilities and talents was allowed to teach science and was left as a teacher in a madrassah (for example, Ali Kushchi, Abdurahman Jami).

A graduate of a madrassah is issued a diploma, a certificate that he can teach science. License - the diploma contains the name of the science and the works studied by the student. One of these diplomas, issued in 1435 by the senior teacher of the Mirzo Ulugbek madrassah Salokhiddin Musa Kazizoda Rumi, is now kept in the Manuscript Fund of the Institute of Oriental Studies. Abu Raikhan Beruni of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan.

After the death of Mirzo Ulugbek (1449), the madrassah continued its activity. According to the work of Mavlono Davlatshah Samarkandi "Tazkirat ush-shuaro" (1487), during this period (1487) more than 100 students continued their studies at

the Mirzo Ulugbek madrassah. Along with Khoja Fazlullah Abu Laysi and Ali Kushchilar, this subject was taught by the Alisher Navoi Majolis un-nafais. Mavlana Khoja Khurd also taught. In particular, Mir Alisher Navoi was in Samarkand and studied there (1465-1469). Mir Alisher Navoi also wrote: "Khoja Khurd is the only judge of the Samarkand throne and teacher of the madrassah of Ulugbek Mirzo. His generosity is among perfect wisdom and knowledge, and his generosity is among the adornments of morality. Yes In the interpretation of the waqfi of the poor (Mir Alisher Navoi) "Min waqf-i Alisher" was found by history "1. It can be seen from the above data that the antiquity of the higher education system in our country and their unique traditions are described. This shows that the education system in Turkestan does not lag behind the education systems in other parts of the world (for example, China, Egypt, Western Europe), but in some respects (teaching languages, financing the educational process) it will surpass them. However, in the distant past, it was more perfect and comprehensive. Russian colonialists came face to face with him when the education system in Turkestan was in crisis. In some Russian (and partly European) sources, hasty conclusions about his condition should be explained by this factor or by the fact that the researchers did not have a deep approach to the essence of the matter [4, b.182].

Brief information about the history of national schools and madrassahs of Turkestan is given. It was the turn of the madrassahs of the tsarist period, their place in the education system of the region. Among the messages on this topic are notes by V.P. Nalivkina, A.P. Khoroshkhin, K.E. Bendrikov are distinguished by their breadth, accuracy and richness of evidence.

"In Samarkand, Syrdarya and Fergana regions," V.P. Nalivkin, - the total number of madrassahs is 189, including 118 in Fergana, 50 in Samarkand and 21 in Syrdarya region. There are 34 madrassahs in Kokand and 25 in Margilan. " Samarkand, 18 in Andijan, 14 in Namangan, 14 in Tashkent and 10 in Khojand" [12, s. 49-60].

A.P. Khoroshkhin in his "Collection of Articles on the Turkestan Territory"[15, s. 41] notes that there were about 200 such madrassahs in the Khiva Khanate and the Bukhara Emirate.

Термиз ҳудуди Мовароуннаҳрнинг Ислом дини кириб келган муҳим дарвозаси бўлгани ва ҳудудда жуда эрта ёйилгани сабабли илк Термизий олимлар ҳатто VII аср охири – VIII аср бошларидан етишиб чиқа бошлади. Улар орасида бизга маълум илк олим Абу Абдураҳмон Холид ибн Зиёд ибн Жарв Термизийдир. Мовароуннаҳр олимлари илм силсиласининг илк вакилларидан бўлган бу олим ҳақида жуда кўплаб манбаларда маълумотлар берилган, устоз-шогирдлари, ривоят қилган айрим ҳадислари, тафсир борасидаги ривоятлари ва бошқа маълумотлар қайд этилган. Аммо унинг ҳаётига оид энг муҳим жиҳатлардан иккитаси алоҳида аҳамиятга эга. Биринчиси, у Имом Аъзамнинг яқин сафдоши ва маслакдоши саналади. Иккинчиси эса, у Термизнинг бизга маълум илк қозисидир. Қози эса ўз ҳудудида нафақат шаръий-фиқҳий ҳукмлар, балки ақида ва бошқа дин илмлари бўйича йўналишни белгилаб берадиган муҳим марказий шахс бўлган. Демак, маълум бўладики, бу шахс маҳаллий диний муҳитда айнан Абу Ҳанифа қарашларига таянган. Холид Термизий ўз ўғли Абдулазиз ибн Холид Термизийни Абу Ҳанифага шогирдликка бергани ва Абдулазиз ҳам отасидан кейин Термиз қозилигига келгани бу фикрнинг улкан исботи бўлиши мумкин.

Амалда ҳам Термиз қозиси Холид Термизий муҳим ишлар борасида айнан Имом Аъзам Абу Ҳанифага таянар эди. Жумладан, халқни безовта қилган ғалаёнларни тинчитиш учун ҳукмдор халифа ҳузурига кириши лозим бўлганда Термиз аҳлидан бўлган икки шахс – Холид ибн Зиёд ва Холид ибн Амр биргаликда йўлга чиқиб, Имом Абу Ҳанифанинг ҳузурига боришган ва ундан ҳукмдор ҳузурига киргизиши учун халифанинг хос вакили бўлган Ажлаҳ исмли кишининг номига хат ёзиб беришини илтимос қилишган ва у зот

ёзиб берган. Ушбу хат ва воситачи шахс сабабли Холид Термизий ҳукмдор ҳузурига киришга муваффақ бўлган. Табарий (224-310/839-923) ушбу учрашув ҳақида анча батафсил маълумот берган ва бу кейинчалик бошқа манбаларда ҳам қисман акс этган. Жумладан, таниқли олим Ибн Асокир (499-571/1105-1176) ҳам Холид ибн Зиёд Термизий Димашққа келгани туфайли ўзининг машҳур асари бўлмиш "Тарихи Димашқ" китобида алоҳида боб очади ва унга тегишли маълумотларга батафсил тўхталади. Ундан ривоят қилинган ҳадисларни, шунингдек, унинг халифага айтган сўзларини келтиради.

Гап шундаки, VIII асрнинг биринчи ярмида эътиқодда адашган хорижийлар тоифасига мансуб Ҳорис ибн Сурайж (ваф. 128/746) номли қўзғолончи Хуросон ва унга ёндош ҳудудларнинг тинчлигига жиддий раҳна солаётган ва бу узоқ вақт давом этиб, кўплаб вилоят ва шаҳарларга моддий ва маънавий томондан зарар етказаётган эди.

Хорижийлар – ислом тарихида адашган оқим бўлиб, мусулмонларнинг эътиқодий бирлигига раҳна солган дастлабки фирқа саналишади. Улар замон ва маконга тегишли ҳолатлардан узилган ҳолда ҳукмдорларга қарши чиқиши ва гуноҳ ишга қўл урган мўмин шахсни ўз адашган эътиқодларига кўра тўғридан-тўғри кофирга чиқариши ва уларни бемалол қатл этиши билан машҳур бўлишган. Улар ҳатто тўртинчи рошид халифа бўлган Али ибн Абу Толиб розияллоҳу анҳуни ҳам куфрда айблашиб, уни ва кўплаб саҳобаларни қатл этишган. Бузуқ эътиқодлари сабабли кейичалик ўзлари ҳам ўнлаб гуруҳларга бўлиниб кетишган [3, б.114-138].

Ислом тарихидаги энг йирик қўзғолонлардан бири бўлган ушбу ғалаённи бостириш учун Холид Термизийнинг вакил бўлиши ва олий ҳукмдор ҳузурига кириб бориши унинг ёт оқимларга қарши курашини яққол намоён этиб, ўз даврининг пешволаридан эканлигини кўрсатади. Ушбу учрашув умавийлар ҳукмдори Язид ибн Валид ибн Абдулмалик (86-126/705-744) билан бўлиб, бу ҳукмдор 126/744 йилда беш ой ҳукмронлик қилган. Аммо унинг сийрати ва хулқ-атвори машҳур ҳукмдор Умар ибн Абдулазиз (61-101/681-720) билан қиёсланади.

Яна бир муҳим жиҳат шундан иборатки, халифалик маркази бўлган Дамашққа келган Холид ибн Зиёд Термизий ҳукмдордан биратўла ушбу ғалаённи тинчитиш учун катта қўшин ва қаттиққўллигу бешафқатликни сўрамайди, балки муроса йўлини таклиф этади. Унга кўра, ҳукмдор қўзғолончи Ҳорисни авф этиб, унга омонлик беради, бунинг эвазига у ғалаёнини тўхтатиб, ҳукмдорга таслим бўлади. Шу тарзда бирор кишининг қони тўкилмасдан, ортиқча жангу жадалсиз иш битиришга келишилади.

Албатта, узоқ вақтдан бери давом этаётган тўқнашув ва низо сабабидан бундай шартларни халифага қабул қилдириш осон эмасди. Аммо Холид ибн

Зиёд сўзини юксак нуктадонлик билан йўғрилган тавсия ва насиҳатлардан бошлайди:

- "Эй мўминлар ҳукмдори, ўз яқинларингиз билан Қуръонга амал қилиб, Ҳақ йўлида бўлиш учун кураш олиб бордингиз. Аммо жойлардаги вакилларингизда алдамчилик ва зулм кузатилмоқда".

Шунда ҳукмдор:

- "Ўзимга ўшалардан бошқа яхши ёрдамчилар топа олмаяпман. Албатта, мен улардан норозиман", – деди.

Шунда у деди:

- "Эй мўминлар ҳукмдори, ҳокимларни одамлар рози бўладиган оила вакилларидан тайинлайверинг, фақат уларга яхшилик ва илм аҳлидан бўлган кишиларни қўшиб қўйинг, токи улар ҳокимларнинг сизга берган аҳдларини бажаришини назорат қилишсин".

Ҳукмдор:

- "Унда шундай қиламан", – деди.

Шу тарзда ҳукмдор унинг насиҳатларини қабул қилгач, икки вакил кейинги масалага ўтиб, уни нафақат ижобий ҳал қилишга эришишди, балки ҳукмдордан ёзма аҳднома ҳам олишди.

Ушбу аҳднома матни қуйидагича бўлди: "Албатта, биз Аллоҳ учунгина ғазабландик. Зеро, сен Аллоҳ қонун-қоидаларини менсимадинг, унинг бандаларига зиён-заҳмат етказдинг. Мумкин бўлмаган тарзда одамлар қонини тўкиб, ҳақсиз равишда уларнинг молларини таладинг. Биз эса бу умматнинг ишида Қуръон йўл-йўриқларини жорий қилишга бел боғладик. Дарҳақиқат, сенга ичимиздаги фикримизни очиқ-ойдин етказаяпмиз. Сен ва одамларинг омонлик кафолати билан келинглар. Сизлар бизларнинг биродарларимиз ва ёрдамчиларимиз саналасизлар. Мен Абдуллоҳ ибн Умар ибн Абдулазизга сизлардан мусодара қилинган молу дунёни қайтариб беришини буюриб хат ёздим".

Иш ҳал бўлиб, икки вакил ёзма аҳдни олиб, Кўфага қайтгач, ҳукмдорнинг кўрсатмасига кўра, Холид ибн Зиёд у ерда Умар ибн Абдулазизнинг ўғли Абдуллоҳ билан ҳам музокаралар ўтказади. Алалоқибат, Холид Термизий келтирган ҳукмдорнинг кафолатли тинчлик аҳдидан қўзғолончи тараф ҳам, улар билан курашаётган тараф ҳам самарали фойдалана олишмайди [2, Б. 30-32].

Аммо ушбу воқеалардан маълум бўладики, Холид ибн Зиёд Термизий ёт оқимларга қарши курашга бел боғлаган, халқпарвар, кишиларнинг тинч-осойишталиги учун қайғурувчи, ҳақиқат жонкуяри ва юртнинг пешвоси ҳисобланган шахс бўлган. У ҳукмдорга давлат бошқаруви борасида ҳам ҳақиқатга мувофиқ тарзда ажойиб маслаҳатлар бера олгани, Ҳақ йўлида

самимий насиҳат қилгани ва ниҳоят, буларнинг барини нозик нуктадонлик билан амалга ошира олгани туфайли ҳам халифа бу сўзларни қабул қилиб, тасдиқлаган.

Хуросонда яшаган Ҳорис ибн Сурайж Тамимий (ваф. 128/746) қўзғолони умавийлар давридаги энг йирик қўзғолонлардан бўлди. Бу шахс қўзғолони кучга тўлган даврда Фарёб, Балх, Жузжон, Толиқон, Марвируддан иборат катта ҳудудларни эгаллайди ва олтмиш минг аскарга эга бўлади. У Марв остонасида енгилиб, уч минг аскари билан қолганда ҳам турклар ерига ўтиб, ўн икки йил қаршиликни давом эттирган. Орадаги баъзи сулҳлар натижасида ҳам аҳвол ўнгланмаган ва бу кураш то ушбу шахснинг Марв деворлари олдидаги вақотига қадар давом этган. Булардан маълум бўладики, Холид Термизий фаолияти давлат кучлари бостира олмай узоқ давом этиб келаётган бу қўзғолоннинг бузуқ ғоялар марказига айланиб қолишини олдини олишга қаратилган.

Бу ўринда Холид ибн Зиёд Термизийнинг узоқ йиллардан бери давом этиб келаётган ушбу қўзғолонни тинч йўл билан ҳал этишга уринишида муҳим бир жиҳат бор. У ҳам бўлса, қўзғолон ва нотинчлик бўлиб турган ҳудуд айни вақтда бошқаларни ҳам жалб этувчи хусусиятга эга бўлади. Бошқача айтганда, у ер бузуқ оқим тарафдорлари бориб қўшиладиган ва у ерда кўпаядиган нуқтага айланади. Узоқ йиллик урушлар натижасида енгилса ҳам уларнинг қолдиқлари фаолиятни давом эттириши мумкин. Аммо бу ғоявий-сиёсий қаршилик нуқтаси тинч йўл билан бостирилганда эса улар фаолияти тўхтатилиши билан бирга уларнинг тўғри йўлдаги кенг халқ оммаси сафига қўшилиб, сингиб кетишига эришилади. Шу нуқтаи назардан олганда Холид Термизий халқни моддий талон-тарождан ва маънавий буҳрондан асраш учун ҳаракат қилгани келиб чиқади.

Шу тарзда мотуридия мактаби ўз асосларини анча олдин, яъни Исломнинг юртимиз Мовароуннаҳрга кириб келиш жараёнидан бошлаган. Бунда Имом Аъзам Абу Ҳанифа Нўъмон ибн Собит ҳазратларининг сафдошлари ва шогирдлари алоҳида ўрин тутишган. Термиз қозилигида бўлган Холид ибн Зиёд шулардан бири бўлиб, у кейинчалик ўз ўғли Абдулазиз ибн Холид Термизийни Имом Аъзамга шогирдликка берган ва у ҳам отасидан сўнг Термиз қозиси бўлиб, адашган оқимларга қарши курашгани ва бу йўлда катта ишларни амалга оширгани маълум ва бу эса ўз навбатида алоҳида мавзудир.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Абулқосим Убайдуллоҳ ибн Абдуллоҳ ибн Хўрдодбеҳ. Ал-Масолик вал-мамолик. – Лейден: Брилл, 1889.

2. Абу Жаъфар Муҳаммад ибн Жарир Табарий. Тарих ал-умам ва-л-мулук. V. Биринчи нашр. – Байрут: Дор ал-кутуб ал-илмийя, 1407/1986.

3. Абулфатҳ Муҳаммад ибн Абдулкарим ибн Абу Бакр Аҳмад Шаҳристоний. ал-Милал ван-ниҳал. II. Амир Али Миҳна ва Али ва Али Ҳасан Фаъур таҳқиқи. – Байрут: Дор ал-маърифа, 1414/1993.

4. Абулқосим Али ибн Ҳасан ибн Ҳибатуллоҳ ибн Асокир Димашқий. Тариху мадинату Димашқ ва зикру фазлуҳа ва тасмияту ман ҳаллаҳа мина-л-амасил ав ижтаз би-наваҳийҳа мин варидийҳа ва аҳлиҳа. LXXX. – Байрут: Дор ал-фикр, 1415/1995.

5. Абу Саъид Абдулкарим ибн Муҳаммад ибн Мансур Тамимий Самъоний. Ал-Ансоб. XII. – Қоҳира: Мактабату Ибн Таймийя, 1400-1404/1980-1984.

6. Шиҳобиддин Абу Абдуллоҳ Ёқут ибн Абдуллоҳ Румий Ҳамавий. Мўъжам ал-булдон. VII. – Байрут: Дору содир, 1415/1995.

7. Камалиддинов Шамсиддин. Историческая география Южного Согда и Тохаристана по арабоязычным источникам IX - начала XII вв. – Ташкент: Узбекистан, 1996.

SALJUQIYLAR DAVRIDA HANAFIY-MOTURIDIY BIRLIGI

Mirzaeva Muxlisa Nuritdinovna
O'zXIA tadqiqiotchisi

Annotatsiya. Maqolada motrudiylikning Saljuqiylar davrida Movarounnahr ilmiy-ma'naviy muhitida tutgan o'rni, Imom Motrudiy hayoti va ilmiy faoliyati, uning asosiy e'tiqodiy qarashlari, Saljuqiylar davrida asosiy kalom yo'nalishiga aylanishi va moturidiylik ta'limotida turk xalqlarining erkinlik ruhi, ayol huquqlari va ijtimoiy masalalarga munosabati masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar. Imom Motrudiy, maturudiylik ta'limoti, ilmiy-ma'naviy muhit, Movarounnahr, Kalom ilmi, inson iroda erkinligi, aql va naql uyg'unligi, Saljuqiylar davlati, Turk xalqlari e'tiqodi.

IX–X asrlar islom tarixida "Ilmiy uyg'onish-Renessans'' davri sifatida tanilgan. Ayniqsa, Movarounnahr, ya'ni hozirgi Markaziy Osiyo hududi (Buxoro, Samarqand, Marv, Farg'ona, Nasaf va boshqalar) bu davrda musulmon olamining eng yetuk ilmiy-ma'naviy markazlaridan biri hisoblangan. Bu yerda ko'plab madrasalar, kutubxonalar, ilm majlislari faoliyat yuritgan [1], din, falsafa, fiqh, kalom, mantiq, adabiyot, tarix, tabobat kabi fanlar jadal rivoj topgan.

Movarounnahrda ilm-fan va ma'rifatga bo'lgan qiziqish, xususan, Somoniylar davrida IX asr oxiri va X asr boshlarida kuchaygan. Ular ilm-fan ahlini qo'llab-quvvatlagan, arab tili bilan bir qatorda fors-tojik va turkiy tillarda yozilgan asarlarni ham qadrlagan. Ayniqsa, diniy-falsafiy qarashlarning shakllanishida bu davr muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Imom Abu Mansur al-Motrudiy (870–944) hanafiy mazhabiga mansub kalom olimi bo‘lib, Samarqandda yashab ijod etgan. Uning asosiy asari **“Kitob at-Tavhid”** bo‘lib, aqida va kalom masalalariga bag‘ishlangan. Xususan asarda aqlga alohida urg‘u berib shunday deyiladi: “Aql Allohni tanishda muhim vosita. Inson aql bilan Yaratganini tanishga majburdir”[2, b.25]. Mutakallim ilmiy faoliyatining asosiy qismini Samarqandda o‘tkazgan. Imom Motrudiy iymon masalalarida Abu Hanifa (699–767) Bag‘dod yo‘lidan yurgan va Abu Hanifaning fikrlarini sharhlab, ularga oydinlik kiritgan. U Movarounnahrda hanafiy imomi va Abu Hanifa izdoshi bo‘lganligi sababli undan keyingi ulamolar ham unga ergashganlar. Binobarin, Motrudiya Movarounnahr ulamolari uchun tafakkur maktabiga aylandi [9, b.67].

Imom Motrudiy zamonasining yirik mutakallimlari, hadis va fiqh olimlari bilan ilmiy munozaralarda qatnashgan. Uning mashhur teologik-aqidaviy masalalarni tahlil qilgan **Kitob at-Tavhid** asaridan tashqari quyidagi asarlari ham bor:

- “Ta’vilot al-Qur’an” – Qur’oni Karim tafsiriga bag‘ishlangan asar [18].
- “Risola fi’l-imoma”, “Bayan Vahm al-Mu’tazila”-mazhablararo ilmiy munozaralarga javob sifatida yozilgan asar.

Motrudiy aqidasi hanafiy fiqhiga asoslangan bo‘lib, aql va naql uyg‘unligini ta’minlaydi. U mo‘tazila (*Mo’tazila mazhabi-arabcha: المعتزلة al-muʿtazila-ajralib chiqqanlar, uzoqlashganlar. Islomdagi ilohiyot oqimlaridan biri hisoblanadi. 8-asr o‘rtasida Arab xalifaligida vujudga kelgan. Asoschilari Vosil ibn Ato (699-748) va Amr ibn Ubayd (vaf. 761). Ular o‘z guruhi bilan ustozlari Hasan al-Basriy (vaf. 728a) maktabidan ajralib chiqqan)* va ash’ariylik (*Ash’ariylik- islom dinidagi sunniylik yo’nalishining ikki asosiy kalom (aqida) ilmi maktablaridan biri. Asoschisi Abul Hasan Ash’ariy (873-935*) dan farqli yondashuvlarni ilgari surdi. Mu’tazila va ash’ariylar o‘rtasida oraliq yo‘lni tanlagan Imom Motrudiy ilohiyotda yangi davrni boshlab berdi, u mubolag‘a va chegaradan chiqmasdan aqlga muhim o‘rin berdi [4, b.289]. Imom Motrudiy aql va naqlni alohida ilm manbalari sifatida qabul qilgan bo‘lsa, aqlning adashib, xatoga yo‘l qo‘yishini ham tan olgan. Biroq u Ash’ariy (873-935)dan farqli o‘laroq, aqlni faqat Xudoning xitobini (amr va taqiqlarini) anglash vositasi sifatida ko‘rmagan. Aksincha, u aql-idrok ba’zi narsalarning yaxshiligini ular din tomonidan oshkor etilishidan oldin aniqlay oladi, deb ta’kidlagan. U dinga zid bo‘lmagan masalalarda aqlning hukmini birinchi o‘ringa qo‘ygan [6, b.97].

Imom Motrudiyning Imom Abu Hanifaga ergashishi va Bag‘dod diniy muhitidan uzoqda, ilmiy munozaralar bemalol o‘tiladigan Movarounnahrda tarbiyalanishi unga usul va uslubda ustunlik bergan [12, b.6]. Ashariy yashagan Bag‘dod va Basra shaharlari turli diniy mazhablar o‘rtasidagi to‘qnashuvlarning o‘chog‘i bo‘lsa, Motrudiy yetishib chiqqan Samarqand va Buxoro shaharlari bu bahs va to‘qnashuvlardan yiroq edi. Binobarin, Imom Motrudiy masalalarni tiniq fikr bilan ko‘rib chiqish va ularni aql bilan filtrlash imkoniyatiga ega bo‘lgan. Ashariy

kalom maktabi mo‘tazila oqimi bilan doimiy munozara olib borgani uchun o‘z g‘oyalari va asarlariga bir qancha keraksiz va haddan tashqari ko‘p unsurlarni kiritgan. As’hariyning g‘oya va fikrlarini asos olib, uning yo‘lidan yurganlar bu fikr va g‘oyalarni rivojlantirish bahonasida yanada ko‘paytirib, yangilarini qo‘shib borganlar. Ammo Imom Motrudiy asarlarida bunday xatoliklar ko‘zga tashlanmaydi [5, b.176].

Motrudiy sunniy bo‘lib tug‘ildi, sunniy hayot kechirdi va shu aqidada vafot etdi. Zamondoshi Ash’ariy dastlab mo’taziliy mazhabida bo’lib keyin o’z yo’nalishiga asos soldi, Motrudiy esa sunniy aqidani ilmiy va mantiqiy dalillar bilan himoya qildi [17, b.37]. Ashariylikdan ko‘ra liberal fikrlarga ega bo‘lgan motrudiylik [13, b.285] Bag‘dod xalifalik markazidan uzoqda yashagani [10, b.11] va ilohiy bahslar qizg‘in kechgan bu mintaqa ulamolari orasida mashhur emasligi sababli ba’zi olimlar tomonidan mutakallim sifatida e’tiborga olinmagan. Aksariyat sharqshunos olimlar “Hanafiy-Motrudiy” atamasini qo‘llaganlarida [13, b.282], hatto hanafiy tabaqot kitoblarining o‘zida ham uni mutakallimdan ko’ra faqih sifatida e’tirof etishgan.

Motrudiylik g’oyalari o‘zining turk asoschisi tufayli butun Turkiston hududiga tarqaldi. Dinga keyinchalik qoshilgan uydurmalardan uzoqda, aqlga asoslangan va shariat tamoyillariga zid kelmaydigan aqidaviy mazhabga aylandi. Uning Turkistonda paydo bo‘lishi va tarqalishi, hanafiy qarashlari bilan parallel bo‘lishi, aqlga e’tibor qaratishi turklar, binobarin, Saljuqiylar davlatida keng tarqalishi va rivojlanishiga zamin yaratdi.

O‘zidan keyin kelgan ilohiyot olimlariga katta ta’sir ko‘rsatgan [3, b.406] buyuk sunniy imomlardan bo’lgan Imom Motrudiy va uning qarashlari hanafiylik bilan parallel ravishda, birinchi navbatda, Movarounnhr, Hindiston va Iroqda tarqalgani ma’lum bo‘ladi [16, b.337]. Hanafiy aqoidini shaklantirgan Motrudiylik aql va irodaga bergan ahamiyati jihatidan ba’zan mo‘tazilaga ham yaqinlashib kelgan. Shariatda Allohni bilish farz degan ash’ariylarning qarashlaridan farqli o‘laroq, motrudiylar ko‘p masalalarda mo‘tazilaning qarashlariga qarshi bo‘lishlariga qaramay, aqlga urg‘u berib, aql va irodaga oid masalalarda mo‘tazilaga yondosh g‘oyalarni targ‘ib qilganlar, masalan, “Allohni aql bilan topish mumkin” degan mo‘tazilaning qarashlarini e’tirof etish bilan bu masalada mo‘tazilaga yaqin fikr bildirganlar [8, b.118].

1. Aql va Vahiyning Muvozanati.

Motrudiyga ko‘ra, inson aql orqali Allohning borligini, uni tanish va uni sevish zarurligini anglay oladi. Vahiy esa aql yetib bormaydigan narsalarda yo‘l ko‘rsatadi. Demak, aql – diniy bilimga olib boruvchi vosita hisoblanadi.

2. Iroda va Qadar (taqdir).

Motrudiy insonning erkin irodasi borligini tan oladi. Inson o‘z xatti-harakatlari uchun javobgardir. Alloh taqdirni biladi, ammo insonni majburlamaydi. Bu g‘oya ayniqsa turk xalqlari orasida keng tarqalgan erksevarlik ruhiga mos

tushadi. Motrudiy insonning erkin irodasini tan olib, taqdir masalasida mu'taziliy va jabariy yondashuvlarni rad etadi: "Inson o'z irodasi bilan amal qiladi, Alloh esa uni yaratgan va bilgan" [2, b.134].

3. Imon va Amallar.

Motrudiyga ko'ra, imon – qalb bilan tasdiqlashdir. Amallar esa imonning mukammalligini ko'rsatadi, lekin amal qilmaslik kufr degani emas. Bu yondashuv hanafiylikdagi yengillik va murosaga asoslanadi.

4. Ayol Huquqlari va Ijtimoiy Masalalar

Motrudiylik ayollarning insoniy sha'nini tan olgan, ularning huquqlarini ta'minlash zarurligini ta'kidlagan. Unga ko'ra, erkak va ayol har ikkisi aql va irodaga ega, javobgarlikka qodir mavjudotlardir. Bu masala o'sha davrda ayollarni faqatgina nikoh yoki uy ishlariga qamab qo'ygan qarashlardan farq qilgan.

Maturudiylik ta'limoti keyinchalik Saljuqiylar, Xorazmshohlar, Temuriylar, Usmoniylar kabi yirik turk davlatlari tomonidan asosiy e'tiqodiy oqim sifatida qabul qilingan. Saljuqiylar davlatida (XI–XII asrlar) rasmiy aqida maktabi sifatida moturidiylik tan olingan. Bu haqda turk tarixchisi Fuad Köprülü shunday yozadi: "Saljuqiylar zamonida kalomda ash'ariylar va moturidiylar orasida kuchli raqobat bor edi, ammo turk xalqlari moturidiylikni tabiiy ravishda qabul qildilar" [7, b.123].

Bu holat bejiz emas. Maturudiy ta'limoti aqlni qadrlashi, inson iroda erkinligi va javobgarligini tan olishi, amalda yengillikni yoqlashi, ayollarga nisbatan murosali yondashuvi kabi omillar orqali turk xalqlarining qadimiy erkinlik ruhiga mos kelgan. Turk jamiyatlarida erk, jasorat, mas'uliyat kabi qadriyatlar yuqori baholangan va Maturudiy ta'limoti aynan shu qadriyatlarni ilohiy manba bilan uyg'unlashtirgan.

Tarixiy manbalarda turk xalqlarining ayolga nisbatan yuqori e'tibor ko'rsatgani qayd etilgan. Ayollar oila va jamiyatda muhim rol o'ynagan, siyosiy masalalarda fikr bildirgan, hatto sarkarda yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritgan. Bu haqda Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu Lug'otit Turk" asarida shunday yoziladi: "Turklar orasida ayol er bilan birga majlislarda qatnashadi, fikr bildiradi, so'z aytadi" [14, b.75]. Maturudiylik esa bu qadriyatni diniy asos bilan mustahkamladi: "Ayol ham aql va ixtiyor sohibidir. Undan ham savol olinadi, unga ham savob yoziladi" [2, b.211]. Maturudiylik bu qadriyatlarni diniy asos bilan mustahkamladi. Ayolning erkin irodasi, ijtimoiy hayotdagi roli ta'kidlandi. Bu esa diniy ta'limotning hayotga mos, zamonaviy, taraqqiyotga yo'naltirilganligini isbotlaydi.

Yuqorıdagilardan xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, IX–X asrlardagi ilmiy-ma'naviy muhit islom tafakkurining yuksalishiga zamin yaratdi. Bu muhitda yetishib chiqqan Imom Motrudiy o'zining aql, erkinlik, adolat va murosaga asoslangan aqidaviy ta'limoti bilan islom dunyosiga ulkan ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, turkiy xalqlar orasida uning qarashlari erksevarlik, iroda, ayollar huquqlari kabi masalalarda mustahkam diniy asos bo'lib xizmat qildi. Saljuqiylar davrida bu

ta'limot asosiy kalom yo'nalishiga aylangan holda butun musulmon Sharqining taraqqiyoti uchun zamin yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1) Beruniy, Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar, Toshkent: Fan nashriyoti, 1973. 11-bob.
2) Moturidiy, Kitob at-Tavhid., Tahqiq: Fathullah Xulif. Beirut: Dar al-Mashriq, 1970.
3) D.M. Macdonald, "Maturidi", İ.A. VII, İstanbul 1 977
4) E. Ruhi Fığlalı, Çağımızda İtikadi İslam Mezhepleri, İstanbul 1980, s. 46; M.Saim Yeprem, Irade Hürriyeti ve Imam Matüridi, İstanbul 1980,
5) Ebu'l-Hasen en-Nedvi, Islamda Fikir ve Davet Onderleri, (trc. Yusuf Yılmaz), Istanbul 1987
6) Emrullah Yüksel, "Eşariler İle Maturidiler Arasındaki Görüş Farkları", Atatürk Üniversitesi İslami İlimler Fakültesi Dergisi IV, (1980)
7) Fuat Köprülü – Türklerde İslam, Istanbul: Diyanet Vakfı Yayınları, 1950. s. 123.
8) I.Agah Çubukçu, Islam Düşünürleri, Ankara 1977
9) İzmirli İsmail Hakkı, Yeni ilmi Kelam, (n§r. Sabri Hizmetli), Ankara 1981
10) Kemal İşık, Maturidi'nin Kelam Sisteminde İman, Allah ve Peygamberlik Anlayışı, Ankara 1980, s. 10; A.Vehbi Ecer, "Maturidi'nin Tanınması", Ebu Mansur Semerkandi Maturidi, Kayseri 1986
11) M. Sait Yazıcıoğlu, Matrudi ve Nesefi'ye Göre Insan Hürriyeti Kavramı, İstanbul 1992
12) M.Sait Yazıcıoğlu, "Maturidi Kelam Ekolü'nün İki Büyük Siması: Ebu Mansur Maturidi ve Ebu'l-Mu'in Nesefi", A.Ü.İ.F.D XXVII, 1985., s. 285: I.Goldziher, Le Dogme et La Loi de L'İslam, Paris 1973
13) M.Sait Yazıcıoğlu, "Maturidi Kelam Ekolü'nün İki Büyük Siması: Ebu Mansur Maturidi ve Ebu'l-Mu'in Nesefi", A.Ü.İ.F.D XXVII, 1985
14) Mahmud Koshg'ariy., Devonu Lug'otit Turk, İstanbul: Milli Eğitim Bakanliği, 1915. C. 1.
15) Ömer Ferruh, Tarihu'l-Fikri'l-Arabi ila Eyyami İbni Haldun, Beyrut 1983
16) Sadeddin Taftazani, Kelam ilmi ve İslam Akaidi (Şerhu'l-Akaid), (trc. Süleyman Uludağ), İstanbul 1982.
17) Ta'wilot al-Qur'an, tahqiq: Muhammad Mustafa al-A'zamiy, Riyadh: Maktabat ar-Rushd, 2004.

AL-MOTURIDIY VA UNING DUALISTLAR HAMDA DAHRIYLAR BILAN BAHSI

Hamdamova Shoira Vohidovna
Samarqand davlat universiteti 1-kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abu Mansur al-Moturidiy ta'limotining markaziy masalalari, xususan, dahriylar va dualistlarga qarshi olib borgan ilmiy bahs-munozaralari keng tahlil qilinadi. Moturidiy o'zining mashhur "Kitob at-Tavhid" asarida bu oqimlarning qarashlarini tanqid ostiga oladi va islom aqidasining asosiy tamoyillarini mantiqiy-daliliy uslubda himoya qiladi. Maqolada Movarounnahrda keng tarqalgan zardushtiylik, moniylik, shuningdek, yunon falsafasi ta'siri ham ko'rib chiqiladi. Zamonaviy tadqiqotlar bilan qiyosiy tahlil o'tkazilib, Moturidiy ta'limotining islom aqidasi va ilmiy tafakkur rivojida tutgan o'rni yoritiladi.

Kalit so'zlar. Dahriylar, dualistlar, kalom, Moturidiy, islom ilohiyoti, Kitob at-tavhid, zardushtiylik, manixeylik, mu'taziliylar

Kirish. IX–X asrlar islom tafakkurining yuksalish davri bo'lib, bu jarayon ko'proq Bag'dod va Basra kabi markazlarda shakllangan kalom maktablari bilan chambarchas bog'liq edi [1, b.166-179]. Shu bilan birga, Movarounnahr ham o'zining diniy va falsafiy muhitiga ega bo'lgan. Shuningdek, IX–X asrlar islom tafakkuri tarixida muhim bosqich ham hisoblanadi. Bu davrda musulmon mutakallimlari nafaqat ichki islomiy oqimlar – mu'taziliylar, ash'ariylar va boshqalar bilan, balki tashqi diniy-falsafiy oqimlar bilan ham bahs yuritdilar [2, b.141]. Bu davrning eng buyuk mutakallimlaridan biri bo'lmish **Abu Mansur al-Moturidiy (vaf. 944 y.)** o'z asarlarida, xususan *Kitob at-Tavhid*da, diniy va falsafiy qarashlarning keng doirasiga baho bergan va diniy-falsafiy qarashlarni tizimli ravishda sharhlab, ularni islom aqidasiga zid jihatlaridan xalos qildi [1, b.166-179].

Ushbu maqolada Moturidiy asarlarida, xususan, *Kitob at-Tavhid*da ko'tarilgan qarashlar asosida mazkur oqimlarning mohiyati, tarixi va islomiy javoblar tahlil qilinadi.

Al-Moturidiy o'z davrida islom aqidalarini himoya qilish bilan bir qatorda, uni Movarounnahr sharoitiga moslashtirdi. Movarounnahr hududi Bag'dod yoki Basradan farqli ravishda o'ziga xos diniy-falsafiy muhitga ega edi. Bag'doddagi mutakallimlardan farqli ravishda, u ko'proq **dualistik oqimlar** (Manixeylik, Marsionizm, zardushtiylikdagi ayrim oqimlar) hamda **dahriylar** (materiyachilar, ateistlar) bilan bahs olib brogan [2, b.141-142]. Bu uning ilmiy merosida alohida o'rin egallaydi.

Movarounnahrdagi diniy-falsafiy muhit

Movarounnahr islomlashuv jarayonida turli qarama-qarshi ta'limotlar chorrahasi bo‘lib xizmat qildi. Al-Moturidiy uchun bu oqimlarning mavjudligi ikki jihatdan muhim edi:

1. Islom aqidasini mustahkamlash – g‘ayriislomiy qarashlarga qarshi ilmiy asoslangan dalillar keltirish.

2.Ichki raqiblarni tanqid qilish – mu'taziliylarning zaif dalillarini ko‘rsatib, o‘z maktabini ustun qo‘yish.

Movarounnahr musulmonlashuv jarayoni davom etayotgan davrda turli din va mazhablar bir hududda yashab kelar edi:

– Manixeylar va zardushtiylar Samarqand va Balxda faolroq bo‘lgan. Ularning dualistik qarashlari musulmon mutakallimlari uchun muhim bahs mavzusi edi.

– Marsionchilar ularning “Māhāniya” deb atalgan tarmoqlari haqida Abu Iso al-Varroqning xabarlari mavjud bo‘lib [4], ular ham Xuroson va Movarounnahrda tarqalganligi qayd etiladi.

– Bardesaniylar (Dayṣoniylar) haqida ham ayrim ishoratlar uchraydi, biroq ularning Sharqda haqiqiy ta'siri kuchli bo‘lmagan.

– Ismoiliylar bu hududda neoplatonistik qarashlari bilan tanilgan bo‘lib, ular musulmonlar uchun boshqa bir falsafiy raqib hisoblangan [5, b.1531-1533].

– Dahriylar esa butunlay ateistik qarash egalari bo‘lib, vaqt (dahr)ni yagona hukmron kuch deb e'tirof etganlar [3].

Demak, al-Moturidiy uchun kurash maydoni Bag‘doddagi mu'taziliylar yoki faylasuflarga qarshi bahslardan ko‘ra kengroq va murakkabroq edi.

Dualistlar ta'limoti va Moturidiy tanqidi

Dualistlar (ikkiyuzlamachilar yoki ikki asosni tan oluvchilar) asosan qadimgi Eron diniy-falsafiy an'analari bilan bog‘liqdir. Ularning mashhur ko‘rinishi **zardushtiylik** va undan kelib chiqqan oqimlar – **manixeylik** va **Marsioniylik** bo‘lib, ular olamda ezgulik va yovuzlikning ikki abadiy manbai mavjud, degan aqidani ilgari surganlar [2, b.141]. Dualistlarning asosiy ta'limoti – olamda ikki ibtido mavjud: yaxshilik va yomonlik, yorug‘lik va zulmat hisoblangan.

Manixeylik (Moniy dini) III asrda paydo bo‘lib, Movarounnahr va Xurosonda keng tarqalgan. Ularning ta'limotiga ko‘ra, nur va zulmat abadiy mavjud bo‘lib, inson hayoti ham bu ikki kuchning kurash maydoniga aylangan. Marsioniylik esa xristianlikdagi dualistik oqimlardan biri bo‘lib, Eski Ahd xudosi yovuz, Yangi Ahd Xudosi esa ezgulik manbai sifatida talqin qilinardi [6, b.18-34].

Al-Moturidiy o‘z davrida bu dualistik g‘oyalar Movarounnahrda hanuz kuchli bo‘lganini yaxshi bilgan. Samarqand va Buxoroda manixeylar, zardushtiylar va boshqa dualistlar faoliyat yuritganligi tarixiy manbalarda qayd etiladi [6, b. 18-34]. Shu bois, ularning ta'limotiga qarshi ilmiy va falsafiy asoslangan rad javoblarini ishlab chiqqan.

Al-Moturidiy dualistlarning nuqtai nazarini bir necha asosiy jihatdan tanqid qildi:

Ilohiy birlik (tavhid) tamoyiliga zidligi – ikki ibtido mavjud bo‘lsa, demak, ularning hech biri mutlaq emas, chunki ular bir-biriga qarama-qarshi va muhtoj bo‘ladi.

Olamdagi tartib va qonuniyat – agar ikki mutlaq kuch abadiy kurashda bo‘lsa, borliq tartibsiz va beqaror bo‘lishi kerak edi. Vaholanki, olamda muvozanat va hikmat mavjud.

Oqibat masalasi- ikki kuch mavjud bo‘lsa, inson taqdiri ham chalkash bo‘lishi kerak edi, bu esa hayotdagi aniq axloqiy me’yorlarni izohlab bera olmaydi.

Manixeylik va Marsionchilikdagi tafovut – Moturidiy ularning qarashlarini musulmon manbalarida mavjud tasvirlar asosida baholagan. Ammo, Abu Iso al-Varroqning xabarlariga ko‘ra, Marsionchilar o‘zlarining asl ta’limotida ancha murakkab va xristianlikka yaqin qarashlarga ega bo‘lishgan. Shunga qaramay, musulmon mutakallimlari ularni ko‘pincha oddiy dualistlar sifatida tasvirlagan.

Moturidiy ham ularning qarashlarini dualizmning zaif va mantiqsiz shakli sifatida ko‘rsatib, Qur’on asosida yagona yaratuvchini isbotlashga intildi.

Dahriylar ta’limoti va Moturidiy tanqidi

“Dahriylar” (arabcha *dahriyya*) Qur’onda ham zikr etilgan bo‘lib, ular moddiy dunyoning abadiyligini, inson hayotining esa faqat tabiat qonunlariga bog‘liqligini da’vo qilgan oqim vakillari hisoblanadi [3]. Qur’onda ular haqida shunday deyiladi:

“Ular: ‘Bu dunyoviy hayotimizdan boshqa hayot yo‘q. Biz yashaymiz va o‘lamiz, bizni vaqt (dahr) halok qiladi, xolos’, – dedilar” (Josiya surasi, 24-oyat).

Dahriylarning asosiy g‘oyasi – yaratuvchidan mustaqil moddiy olamning abadiyligini ilgari surishdir. Ular na oxiratni, na hisob-kitobni tan olganlar. Shu bois ular islom mutakallimlari tomonidan eng asosiy dinsiz oqim sifatida ko‘rilgan.

Al-Moturidiy o‘z asarida dahriylarning dunyoqarashini keskin rad etadi. Ularning “tabiatdan boshqa sabab yo‘q” degan da’volariga qarshi Qur’oni karim oyatlariga va aqliy dalillarga tayanib, olamning yaratilganligini, har bir mavjudotning o‘z sababchisiz mavjud bo‘la olmasligini isbot qiladi.

Ularning asosiy e’tiqodi shunday edi:

- Olam abadiy va o‘z-o‘zidan mavjud.
- Hayot va o‘lim tabiiy jarayon bo‘lib, uni vaqt (dahr) belgilaydi.
- Vahiy, payg‘ambarlar va oxirat mavjud emas.

Moturidiy ularning bu qarashlarini quyidagicha rad etdi:

Olam abadiy bo‘la olmaydi, chunki abadiy mavjudot o‘z-o‘zidan emas, balki yaratuvchi irodasidan kelib chiqadi.

Tabiat qonunlari – ular bevosita yaratuvchining qudrati va hikmatidan dalolat beradi. Agar yaratuvchi bo‘lmaganida, qonuniyat ham bo‘lmas edi.

Insonning ma'naviy va axloqiy mohiyati – faqat moddiy sabablar bilan tushuntirib bo'lmaydi. Bu esa ilohiy manbaga ishora qiladi.

Moturidiy va mu'taziliylar o'rtasidagi farq. Moturidiy nafaqat tashqi raqiblar, balki ichki islomiy oqimlar – mu'taziliylar bilan ham bahs yuritgan. Ularning dualistlar va dahriylarni rad etishda qo'llagan dalillarini zaif va chalkash deb baholadi. Moturidiy fikricha, mu'taziliylar ko'proq falsafaga berilib, aniq natijaga erisha olmaganlar. Shuning uchun u o'zining *Kitob at-Tavhid* asarida yanada puxta va Qur'on asosidagi dalillarni keltirdi.

Moturidiy ta'limoti islom tarixida nafaqat diniy, balki falsafiy jihatdan ham mustahkam asoslangan oqimdir. U **dahriylar**ning moddiy qarashlari va **dualistlar**ning ikki ibtido nazariyasiga asosli dalillar bilan javob berib, islom aqidasini himoya qilgan.

Zamonaviy tadqiqotlar, jumladan MDPI maqolasi, shuni ko'rsatadiki, Maturidiylik bugungi kunda ham islomiy aqidasiningning muhim namunasidir. U aql va vahiy uyg'unligi, erkin iroda va mas'uliyat masalalarida o'ziga xos yondashuv taklif etadi.

Demak, Maturidiylik faqat o'tmishda emas, balki hozirgi davrda ham dahriy va dualistik qarashlarga qarshi ilmiy-falsafiy asos sifatida dolzarbligini saqlab kelmoqda.

Zamonaviy tadqiqotlarda mavzuning yoritilishi. So'nggi yillarda Maturidiy ta'limoti xalqaro miqyosda keng o'rganilmoqda. Masalan, MDPI jurnalida chop etilgan 'Some Insights from Rationalistic Islamic Maturidite Theology' [7, b.609] maqolasida Maturidiy ta'limotining muhim asoslari tahlil qilingan va uning dualistik hamda moddiy qarashlarga qarshi kuchli dalillar ishlab chiqqani ta'kidlangan. Bu tadqiqotlar Maturidiy maktabining nafaqat tarixiy, balki zamonaviy islom ilohiyotidagi o'rni yuqori ekanini ko'rsatadi. Unda Maturidiylikning ratsionalistik (aqlga tayangan) xususiyatlari chuqur tahlil qilinadi.

Maturidiylikning ratsionalistik qarashlari. MDPI maqolasida qayd etilganidek, Maturidiylik aql va vahiy uyg'unligiga katta e'tibor beradi. Bu jihat uni nafaqat Ash'ariy maktabidan, balki g'arb falsafasidagi ko'plab teologik oqimlardan ham ajratib turadi.

Asosiy g'oyalar:

1. **Aql va vahiy** – Inson aqli Allohni tanishga qodir, ammo vahiysiz to'liq hidoyat topa olmaydi.

2. **Erkin iroda va taqdir** – Inson o'z amallarini tanlaydi, ammo ularning yaratilishi Alloh tomonidan bo'ladi. Bu bilan jabariylik va qadariylik o'rtasidagi muvozanat ta'minlanadi.

3. **Imon va amal** – Imon qalb tasdig'i bilan mavjud bo'ladi; amal esa imonning mukammalligi uchun zarur, ammo uning shartiy qismi emas.

4. **Allohning adolati** – Allohning amallari inson aqli uchun tushunarli bo‘lgan adolat va hikmatga asoslanadi.

Dahriylar va dualistlarga maturidiylarning munosabati.

– Dahriylarning modda abadiy degan da’volariga Maturidiylar hudus dalili (yaratilish dalili) bilan javob bergan. Olamning doimiy o‘zgarishi uning qadim emasligini isbotlaydi.

– Dualistlarning ikki ibtido haqidagi qarashlari esa tavhid asoslari orqali inkor qilingan. Alloh yagona yaratuvchidir, ikki mustaqil ibtido mavjud emas.

– Shu bilan birga, Maturidiylar inson erkinligini ta’kidlab, uni mas’uliyatli mavjudot sifatida ko‘rsatganlar. Bu esa ularning diniy-falsafiy qarashlariga yanada chuqur falsafiylik bag‘ishlagan.

Xulosa. Al-Moturidiy *Kitob at-Tavhid* asarida dahriylar va dualistlarning qarashlarini alohida tahlil qiladi. Unga ko‘ra:

1. **Dahriylar xatosi** – ular olamni abadiy deb biladilar. Moturidiy olamning o‘zgaruvchanligi, vaqt va makonga bo‘ysunishi uning yaratilganligidan dalolat berishini ko‘rsatadi.

2. **Dualistlar xatosi** – ular olamda ikki asosni tan olib, Allohning yagona yaratuvchiligiga qarshi chiqadilar. Moturidiy esa Qur’on asosida barcha mavjudot yagona Zotga, ya’ni Allohga bog‘liq ekanini isbotlaydi.

3. **Mu’taziliylarning zaifligi** – Moturidiy mu’taziliy mutakallimlarning ham bu masalalarda to‘liq dalil keltira olmaganini tanqid qiladi. Ularning munozaralari ko‘pincha chalkashlik va mantiqiy nomuvofiqliklarga olib kelganini qayd etadi.

Shunday qilib, Moturidiy nafaqat Movarounnahr musulmonlari uchun, balki butun islom olami uchun aqidaviy tafakkurni boyitgan ulkan mutakallim bo‘lib, uning dualistlar va dahriylar bilan olib borgan bahslari islom ta’limoti tarixida muhim o‘rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rudolph, U., & Adem, R. (2014). Al-Māturīdī and the development of Sunnī theology in Samarqand. https://doi.org/10.1163/9789004261846

2. Gwynne, R., & Madelung, W. (1992). Religious trends in early Islamic Iran. Journal of the American Oriental Society, 112(1), 141. https://doi.org/10.2307/604602

3. Goldziher, I., & Goichon, A. (2014). Dahriyya [Dataset]. In Encyclopaedia of Islam, Second Edition. https://doi.org/10.1163/1573-3912_islam_sim_1666

4. Abu Iso al-Varroq. (n.d.). “Kitab al-Maqolat” (as preserved by Ibn al-Malahimiy).

5.Peters, F. E., & Dodge, B. (1971b). The Fihrist of Al-Nadim: A Tenth-Century survey of Muslim culture. The American Historical Review, 76(5), 1531. https://doi.org/10.2307/1870539

6.Boyce, M. (1975). A history of Zoroastrianism, the early period. https://doi.org/10.1163/9789004294004

7.Zhussipbek, G., & Satershinov, B. (2019). Search for the Theological Grounds to Develop Inclusive Islamic Interpretations: Some Insights from Rationalistic Islamic Maturidite Theology. Religions, 10(11), 609. https://doi.org/10.3390/rel10110609

8.Islamic Philosophy Online. (n.d.). [Website].

9.Stanford Encyclopedia of Philosophy. (n.d.). [Online resource].

10.Encyclopaedia Iranica. (n.d.). [Online resource].

ILK O‘RTA ASRLAR SUG‘DDA VUJUDGA KELGAN EMPIRIK BILIMLARNING MOTURIDIY TA'LIMOTIDAGI O‘RNI

Turdaliyev Jahongir

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti assistenti, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD

Annotatsiya. Ilk o‘rta asrlar Sug‘diyona (Movarounnahr) ilm-fan va ma'rifat markazlaridan biri sifatida shakllandi. Ushbu maqolada Sug‘dda tarkib topgan empirik bilimlar va ilmiy an'analarning Imom Abu Mansur Moturidiy ta'limoti rivojiga ta'siri o‘rganiladi. Tadqiqot davomida Sug‘d mintaqasidagi ko‘p diniy va dunyoviy bilimlar muhitida Moturidiy qanday qilib aql va tajribaga asoslangan ilmiy yondashuvni o‘z aqidaviy ta'limotiga singdirgani tahlil qilinadi. Xulosalarda Moturidiy kalomining shakllanishida mintaqaviy empirik an'analarning o‘rni va ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Sug‘d mintaqasi, ilk o‘rta asrlar, empirik bilimlar, Imom Moturidiy, kalom, aql va naql, ilmiy an'ana, Movarounnahr madaniyati, diniy-falsafiy tafakkur, aqidaviy ta'limot.

Kirish. Sug‘d mintaqasi (hozirgi Markaziy Osiyo hududi) ilk o‘rta asrlarda iqtisodiy va madaniy yuksalish bilan birga ilm-fan taraqqiyoti bo‘yicha ham yirik markazlardan biriga aylangan edi. IX–X asrlarda Somoniylar davlati ostida Buxoro va Samarqand kabi shaharlarda adabiyot, fan va diniy ilmlar jadal rivoj topdi – matematikadan tortib tarix va fiqh ilmlarigacha ko‘plab sohalarda yirik olimlar voyaga yetdi. Masalan, aynan shu davrda Abu Abdullo Rudakiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy kabi allomalar yetishib chiqdi. Somoniylar poytaxti Buxoroda tuzilgan “Siwān ul-hikma” (Donishmandlik xazinasi) nomli kutubxonada o‘sha davrning eng nodir ilmiy asarlari jamlangan bo‘lib, Buxoroning kitob bozorida hatto eng kamyob asarlar ham topilganligi qayd etiladi. Markaziy Osiyoda o‘sha davrdagi

shiddatli ilmiy-ma'rifiy muhit nafaqat musulmon dunyoviy fanlarining, balki kalom ilmining ham rivojiga zamin yaratdi.

Sug'd jamiyati o'sha davrda madaniy va diniy jihatdan ham xilma-xil edi. Manbalarda keltirilishicha, VII–VIII asrlarda bu hududda zardushtiylik (mazdakiylik) bilan bir qatorda buddizm, nasroniylik (nestorianlik) va manixeylik kabi turli diniy oqimlar mavjud bo'lgan. Ayniqsa, Zardushtiylikning mahalliy varianti bo'lgan Mazdakiylik dini keng tarqalgan bo'lib, Sug'diylar o'tga sig'inish marosimlariga sodiq qolishgan. VIII asrda Arablar istilosidan keyin ham mintaqada ma'lum muddat davomida bu turli e'tiqodlar yashab kelgani tarixiy hujjatlarda aks etgan. Masalan, Sug'd hududidagi Mug' tog'idan topilgan VIII asrga oid hujjatlarda Sug'd jamiyatida Zardushtiylik izlari kuzatiladi – ayrim hujjatlarda Ahuramazda va Mitra nomlari bilan qasam ichilgan matnlar uchraydi. Shuningdek, nasroniy (xususan, Sharqiy Nestorian) jamoalari ham faoliyat yuritganini olimlar qayd etganlar. Bu holatlar shuni ko'rsatadiki, Sug'd ilmiy-ma'naviy muhitida islomdan avvalgi empirik bilimlar va dunyoviy qarashlar to'planmasi ham mavjud bo'lgan. Ayniqsa, manixeylik singari monistik-diniy ta'limot tarafdorlari Eron hududidan kelib Sug'dga joylashgani va o'z bitiklarini tarqatgani ma'lum. Bu turli manbali ilmiy va falsafiy bilimlar xazinasi islom ilmlari bilan birga rivojlanib, mintaqada boy intelektual muhitni yuzaga keltirgan edi.

Shu bilan birga, Somoniylar davrida davlatning ilm-fanga homiylik siyosati ham ilmiy tafakkurning yuksalishiga xizmat qildi. Somoniy hukmdorlari adabiyot va fan namoyandalarini saroyga jamlab, ularga homiylik qilganlar. Natijada Buxoro "sharaf maqomi, davr buyuklarining to'planish maskani"ga aylangan, Samarqand, Balx kabi shaharlarda ham ilmiy markazlar vujudga kelgan. *Buxoro madrasa*si kabi oliy bilim yurtlari paydo bo'lgan – xususan, 937 yilda Buxoroda ilk madrasalardan biri tashkil etilgani ma'lum. Ana shunday sharoitda, islom dunyosining yetuk ilohiyotchilaridan biri bo'lmish Imom Abu Mansur al-Moturidiy (853–944) Samarqandda ilmiy faoliyat olib bordi. Uning hayoti va ilmiy merosi aynan shu Sug'd mintaqasidagi ko'pqirrali ma'naviy muhit bilan chambarchas bog'liqdir.

Imom Moturidiy hanafiy mazhabiga mansub mutakallim bo'lib, u Bag'dod markazli Mu'taziliy va Ash'ariy maktablaridan tamomila mustaqil ravishda Movarounnahrda sunniy kalomning alohida yo'nalishini – moturidiylik aqidaviy maktabini – asos soldi. U yashagan IX asr oxiri – X asr boshlarida islom olamida turli guruh va firqalar paydo bo'lib, aqidaviy bahslar keskinlashgan edi. Xususan, Mu'taziliylar aqlni vahiydan ustun qo'yib, Qur'on va hadislarni kuchli aqliy talqin qilganlari bois, salafiy va an'anaviy ulamolar orasida ixtiloflar kuchaygan edi. Mana shunday vaziyatda Samarqandlik Moturidiy va Iroqlik Abul Hasan al-Ash'ariy kelib chiqayotgan muammolarni ilmiy asosda bartaraf etishga kirishdilar. Moturidiy o'z davridagi ilmiy-ma'naviy muhit mahsuli o'laroq, aql va naql uyg'unligini

ta'minlovchi ta'limotni ishlab chiqdi. Uning ta'limotida mantiqiy dalillar va empirik kuzatuvlarga tayanish qat'iy o'rin tutadi. **Ushbu maqolada** Sug'd mintaqasida shakllangan empirik bilimlar an'anasi Moturidiy ta'limotida qanday namoyon bo'lgani va Moturidiy kalomining usul va mazmuniga qanday ta'sir ko'rsatgani ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi.

Tadqiqot usullari. Maqola tayyorlashda tarixiy-taqqosiy va tahliliy usullar qo'llanildi. Dastlab, Sug'd mintaqasining ilk islom davridagi ilmiy-mafkuraviy muhitini o'rganish uchun tarixiy manbalar va zamonaviy tadqiqotlar tahlil qilindi. Xususan, turli diniy oqimlar va ilmiy an'analarning mavjudligini tasdiqlovchi hujjatlar (Mug' tog'idan topilgan hujjatlar, xorijiy manbalardagi ma'lumotlar) o'rganildi. Keyinchalik, Imom Moturidiy asarlaridan oqilona dalillar va empirik qarashlar bilan bog'liq qismi tahliliga alohida e'tibor qaratildi. Moturidiy qalamiga mansub **"Kitob at-Tavhid"** asari hamda moturidiy maktabiga oid manbalar (masalan, Abu Mu'in an-Nasafiy va boshqalar izohlarida) mazmuniy tahlil qilindi. Shuningdek, ilmiy adabiyotlarda Moturidiy ta'limotining shakllanishi haqida ilgari surilgan nazariyalar, xususan, Moturidiyga Abu Hanifa va Mu'taziliylarning ta'siri haqidagi ilmiy fikrlar tahlil etib chiqildi [4, b.349-365]. Tadqiqot davomida G'arbiy va mahalliy olimlar – V. Bartold, I. Petrushevskiy, U. Rudolph, S. Kutlu, R. Hasanov va boshqalar – tomonidan yozilgan ilmiy maqola va monografiyalardan foydalanilib, ularning natijalari qiyosiy ko'rib chiqildi. Yuqoridagi manbalar asosida, Sug'dda shakllangan empirik bilimlar va Moturidiy aqidaviy maktabi o'rtasidagi bog'liqlik ilmiy asosda yoritib berildi.

Natijalar. **Sug'd mintaqasida empirik bilimlarning rivojlanishi.** Tarixiy manbalarga ko'ra, eramizning birinchi mingyilligi oxiri va ikkinchi mingyilligi boshlarida Sug'diyona Markaziy Osiyoda yuksak madaniyat va ilm-fan markazlaridan biri bo'lgan. Bu hudud Buyuk Ipak yo'li chorrahasida joylashgan bo'lib, Sharq va G'arb tsivilizatsiyalari o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar ilmiy-ma'rifiy almashinuvga ham turtki bo'lgan. Xitoydan qog'ozning keltirilishi va Samarqandda VIII asrda birinchi qog'oz ishlab chiqarish ustaxonasining tashkil etilishi Sharqiy ma'lumotlarga ko'ra, mintaqada kitobatchilik va ilm tarqalishiga xizmat qilgan. Darhaqiqat, qog'ozning joriy etilishi qo'lyozma asarlarni ko'paytirishni osonlashtirib, ilmu fan ravnaqini tezlashtirdi. Natijada, IX–X asrlarga kelib, Somoniylar davlatida ilm-fan va falsafa keng rivoj topdi.

Bu davrda Sug'd va umuman Movarounnahrda shakllangan ilmiy muhitning muhim xususiyati – diniy va dunyoviy bilimlarning birga rivojlanishidir. Somoniylar hukmronligi yillari **adabiyot, tarix, falsafa, handasa, falakiyot (astronomiya)** kabi sohalarda salmoqli ishlar yaratilgan. Masalan, Narshaxiy *"Buxoro tarixi"* asarini X asrda fors tilida yozdi, Bal'amiy esa Tabariyning *"Tarix"* asarini fors tiliga tarjima qilib, keng ommaga manzur qildi. Geografiya sohasida

Jayhoniy singari olimlar dunyo xalqlari va shaharlarining "ajoyibot"larini tasvirlovchi asarlar yaratganlar. Bu ilmiy faoliyat ko'pchilik hollarda mahalliy tillar (forsiy, sog'diy)da ham olib borilgani e'tiborlidir – masalan, **Ibn Sino** va **al-Beruniy** asosan arab tilida ijod qilgan bo'lsalar-da, ba'zi ilmiy risolalar fors tilida ham yozilgan (Ibn Sinoning *"Donishnoma"* asari kabi). Bularning barchasi Sug'd jamiyatida dunyoviy-ilmiy tafakkur yuqori darajada bo'lganini tasdiqlaydi.

Sug'd ilmiy muhitining boshqa muhim tarkibiy qismi – **diniy bilimlar** va ilohiyot sohasidagi rivojlanishdir. Somoniylar davrida Movarounnahr islom olamining eng nufuzli diniy markazlaridan biriga aylangan. Hadis ilmi va fiqhda yirik hofiz va faqihlar bu yerda yetishib chiqqan. Masalan, VIII asrda Buxoroda tug'ilib faoliyat ko'rsatgan Imom al-Buxoriy mashhur *"Al-Jomi' as-sahih"* hadis to'plamini tuzgan va butun islom olamida shuhrat qozongan. X asrga kelib Buxoroda hadis va fiqh ilmining rivojiga davlat miqyosida e'tibor berilgan bo'lib, hatto Somoniylar amirlari diniy ulamolarni saroyda hurmat-e'tibor bilan kutib olganlar. Ismoil Somoniy va uning avlodlari ko'plab hadis va tafsir ulamolarini moddiy qo'llab-quvvatlagan. Natijada, Buxoroda 937 yilda dunyoda birinchi madrasalardan biri – *Fardjak madrasasi* tashkil topdi va u oliy diniy ta'lim maskani sifatida faoliyat ko'rsatdi. Bu madrasa va umuman Buxoro, Samarqanddagi diniy maktablar hanafiy mazhabi va ahli sunna aqidaviy ta'limotini targ'ib qilar edi. Aynan shunday muhitda, Movarounnahr ulamolari sunniy kalom fanini rivojlantirishda yetakchi o'rin tutdilar. Xususan, Abu Mansur Moturidiy o'z maktabini tashkil etish jarayonida shu oldingi mahalliy ilmiy an'analarga tayanib ish ko'rgan.

Shu tariqa, Sug'd mintaqasining ilk islomiy davrida paydo bo'lgan *"empirik bilimlar to'plami"* ikki qismdan iborat edi: birinchisi – dunyoviy fanlar (astronomiya, tibbiyot, falsafa va hokazo) bo'yicha to'plangan tajribaviy bilimlar; ikkinchisi – turli diniy oqimlar va an'analar (islomiy ilmlar bilan bir qatorda mahalliy zardushtiylik, nasroniylik va boshqalar) bo'yicha shakllangan mafkuraviy bilimlar. Bu ikki yo'nalish mintaqa madaniy hayotida o'zaro uyg'unlashib, o'zaro ta'sir ko'rsatgan. **Empirik bilimlar** deganda, o'sha davr manbalarida asosan insonning kuzatish va tajriba orqali olgan ma'lumotlari tushunilgan. Misol uchun, Ibn Sinoning ilmiy metodida tajriba va induktiv usullar muhim ahamiyatga ega bo'lgan – u "ilm dar hikmat amaliy tajribaga va faktlarni obyektiv kuzatishga tayanishi lozim" deb ta'kidlagan. Sug'd olimlari astronomik kuzatuvlar olib borib, qamariy va quyosh taqvimlarini takomillashtirganlar; tabiblar esa xalq tabobati tajribalarini ilmiy asosga solib, tibbiyot bo'yicha asarlar yozganlar. Bunday hayotiy tajribalarga tayangan ilmiy yondashuv keyinchalik Moturidiy singari ilohiyot olimlarining uslubida ham aks etganini kuzatish mumkin.

Moturidiy ta'limotida empirik bilimlarning o'rni. Imom Abu Mansur al-Moturidiy o'z davrining ilg'or ilmiy an'analarini chuqur o'zlashtirgan holda, islom aqidaviy ta'limotini asosladi. U kalom ilmini rivojlantirishda asosiy raqiblari bo'lgan Mu'taziliy va boshqa oqimlar bilan bahs-munozara qilgan. Moturidiy tafakkurining noyob jihati shundaki, u iymon va aql o'rtasidagi mutanosiblikni saqlagan holda, ilmiy haqiqatni izlash uslubini taklif etdi. Jumladan, Moturidiy inson ma'rifat hosil qilishi mumkin bo'lgan **uchta manbani** alohida ta'kidlaydi: **(1)** bevosita sezgi orqali bilish (his-tuyg'ular va empirik idrok orqali haqiqatni anglashi), **(2)** aql va tafakkur yordamida xulosa chiqarish (nazariy mulohaza va mantiqiy dalillar orqali), **(3)** ishonchli xabar va rivoyatlar (ya'ni Payg'ambarlar va vahiy orqali kelgan ma'lumotlar). Moturidiy o'z "Tavhid kitobi"da shunday deydi: *"Ilmning sabab va vositalari uchtadir: birinchisi – his etiluvchi sezgi bilimi (al-'iyan) va insonning fitriy idroki, ikkinchisi – tafakkur va nazar orqali anglash, uchinchisi esa – ta'lim va ogohlantirish (ya'ni xabarlardir)"*. Ko'rinib turibdiki, Moturidiy nazdida insonning moddiy olamni idrok etish qobiliyati (sezgilari) va aql yuritish quvvati ishonchli bilim manbasi sifatida tan olingan. Shuning uchun u islom aqidasini asrab qolish va asossiz taqlidni inkor etish yo'lida har bir musulmonni tafakkur qilishga chaqiradi – Qur'onda ham botil e'tiqodlarni ko'r-ko'rona ergashish (taqlid) orqali qabul qilish qoralanganini u eslatadi. Moturidiy nazarida, haqiqiy e'tiqodga faqat aql va dalil orqali ishonch hosil qilingandagina erishiladi; ko'pchilikka ergashish yoki ajdoddan qolgan aqidalarni so'roq qilmasdan qabul qilish to'g'ri yo'l emas.

Moturidiy ta'limotining shakllanishida uning zamondoshlari bo'lgan Mu'taziliylar bilan olib borgan ilmiy bahslari muhim o'rin tutadi. Mu'taziliylar aqlni mutlaq birlamchi manba deb bilib, axloqiy yaxshilik-yomonlik kabi tushunchalarni ham to'la aqliy mezonlar orqali belgilagan edilar. Ash'ariylar esa aksincha, **yaxshi va yomonning me'yorini faqat vahiy belgilaydi**, aql bu borada ojiz deb, ilohiy irodaning mutlaq ustunligini (volyuntarizmni) ilgari surgandilar. Moturidiy esa bu ikki qarashning o'rtasida o'ziga xos "oltin o'rtalik"ni tanladi: u Mu'taziliylar kabi **aql orqali Allohning borligi va birlik haqidagi bilimga kelish mumkin** deb hisoblaydi, shuningdek, **yaxshi va yomonni aqlan anglasa bo'ladi** degan fikrda edi. Uningcha, Qur'onda "Biz hech bir qavmga payg'ambar yubormay turib azob bermaymiz" (Isro surasi, 15-oyat) degan oyat, aslida, payg'ambar kelmagan odamlar ham aql yordamida Yaratganning birligini topishi shartligini anglatadi.

Zero, deydi Moturidiy, agar aql orqali Xudoni topish lozim bo'lmaganida, payg'ambarlar kelganida odamlar "Bizga payg'ambar yuborilmagandi, biz qaerdan bilaylik" deya uzr keltirishardi; Alloh ularni shunday uzr bahonasidan mahrum etish uchun payg'ambarlar jo'natib, haqiqatni yanada oydinlashtirgan. Bu talqin shuni anglatadiki, **Moturidiy nazarida aql inson zimmasiga Allohni tanish vazifasini**

yuklaydi – har bir aqli butun (aqli komil) insonga Yaratganning borligini tafakkur orqali anglash farzdir. Shuningdek, Moturidiy fikricha, aql ezgulik va yovuzlikni ham qaysidir darajada idrok etishi mumkin (masalan, adolatli bo‘lish yomonlik emasligini, begunohni o‘ldirish yomonlik ekanini aql tushunadi). Shu bois, Moturidiy axloqiy kategoriyalarni ham obyektiv, ilohiy qonuniyat deb bilib, Ash'ariylarning "yaxshi-yomon nisbiy, faqat Alloh amr qilgani uchun yaxshidir" degan qarashini rad etadi. Bu nuqtada Moturidiy Mu'tazila bilan hamfikr bo‘lsa-da, ularning haddan ziyod aqldan ustuvor foydalanish usulini qabul qilmagan. Ya'ni, Moturidiy Mu'taziliylar kabi faqat **aqlga tayanib qolmasdan, aql bilan birga naqlni** – Qur'on va sunnatni – ham bilishning majburiy manbasi deb bilar edi. Unga ko‘ra, **aql va naql** (vahiy) bir-birini to‘ldiradi: aql vahiyni tushunishga xizmat qiladi, vahiy esa aql o‘zi erisha olmaydigan sirlarni ochib beradi. Shu sababli, Moturidiy ta'limoti doirasida shakllangan ilmiy maktab ham **aqliy va naqliy dalillarni uyg‘un qo‘llash** bilan ajralib turadi.

Moturidiy o‘z asarlarida turli falsafiy oqimlar va din vakillarining da'volariga qarshi aqliy dalillar keltiradi. U xususan, dahriylar (materiyalistik inkorchilar) va dualistlarning fikrlarini tanqid qiladi. *"Kitob at-Tavhid"* asarida Moturidiy **borliqning yagona Yaratuvchisi borligini** mantiqiy isbotlashga alohida e'tibor qaratadi. Masalan, u koinotdagi tartib va qonuniyatni tahlil qilib, **bir nechta iloh bo‘lganida olam nizo va tartibsizlikka yuz tutgan bo‘lardi**, degan Qur'oniy dalilni aqlan asoslaydi. Bunda Moturidiy tajribiy kuzatishlarga ham tayanadi – tabiatdagi qat'iy tartib (masalan, sayyoralarning harakati, fasllarning almashinuvi) yagona boshqaruvchini ko‘rsatadi, deydi u. Bu kabi kosmologik dalillar, aslida, uning zamonasida mavjud bo‘lgan zardushtiy va manixey dualistlarning e'tiqodini rad etishga qaratilgan edi. Darhaqiqat, manixeylik ta'limotiga binoan olamda yorug‘lik va zulmat kabi ikki asl ibtidodan kelib chiqadigan ikki ilohiy kuch kurashadi, deb hisoblangan. Moturidiy esa kuzatilayotgan olam hodisalari bu qarashni tasdiqlamasligini ko‘rsatib berdi: dunyo yaxlit bir tizim bo‘lib, unda yomon va yaxshi hodisalar bir-birini to‘ldiradi va ilohiy hikmatga xizmat qiladi. Shu tariqa, Moturidiy dalillar yordamida dualistlar va dahriylar e'tiqodini ilmiy asosda inkor etdi.

Empirik va aqliy bilimlar sintezi. Imom Moturidiy ta'limotining muvaffaqiyati uning empirik (tajribaviy) va aqliy bilimlarni islomiy aqidaga uyg‘un holda birlashtira olganidadir. U o‘z davrining ilmiy yutuqlarini ham, islomiy manbalarni ham chuqur o‘rgangan olim edi. Moturidiy fiqhda Imom A'zam Abu Hanifa maktabiga ergashib, u zotning aqlga suyanish an'anasini meros qildi – ma'lumki, Abu Hanifa murakkab masalalarda **"ra'y"** (erkin fikr bildirish) usulini qo‘llagan va qiyosiy fikrlashga e'tibor bergan edi. Moturidiy ham xuddi shunday, Qur'on va hadislarning mohiyatini aqlan anglashga intildi va shaklbozlik (zohiriy

matnga ko‘r-ko‘rona ergashish)dan voz kechdi. Bunda, albatta, uning yashagan jamiyatidagi turli ilmiy an’analar ta’siri seziladi. Misol uchun, Moturidiy o‘z davrida Markaziy Osiyoda yaxshi tanilgan Aristotel logikasidan xabardor bo‘lgan va mantiq qoida va kategoriyalaridan foydalangan. Uning ba’zi bahslarida *jism va a’raz* (substantsiya va aksidensiya) tushunchalari orqali Allohning sifatlarini tahlil qilganini ko‘rish mumkin – bu uslub qadim yunon falsafasi ta’sirini ko‘rsatadi. Yana bir misol: Moturidiy **atomistik nazariya** bilan ham bahslashgan. O‘sha paytda Bag‘dod Ash’ariylari va ba’zi faylasuflar olam atomlardan tashkil topgan, deb qarashardi. Moturidiy esa *vahdat ul-vujud* g‘oyalariga yaqin bo‘lgan bu nazariyaga ehtiyotkor yondashib, modda tuzilishi haqida Qur’on va aql mezonlariga muvofiq fikrlar bildirgan. Bunda u biror nazariyani mutlaq inkor ham qilmaydi, balki o‘z isbotini topmagan farazlarni e’tiborga olmaslikni tavsiya etadi – bu ham uning empirik ehtiyotkorligidan dalolatdir.

Moturidiy ta’limotida **“aqlning yutuqlari va vahiyning haqiqatlari bir-biriga zidd emas, balki uyg‘undir”** degan tamoyil amalda namoyon bo‘lgan. Unga ko‘ra, sog‘lom aql hech qachon sahih vahiyga qarshi xulosa chiqarmaydi – agar ziddiyat ko‘rinadigan bo‘lsa, demak noto‘g‘ri tushuncha yoki qabullarda muammo bor. Shu bois, Moturidiy Qur’on oyatlarining botiniy ma’nolarini ochishda ham empirik dalil va mantiqdan foydalangan. Uning mashhur tafsiri “Ta’vilot al-Qur’on”da ko‘plab oyatlar aqliy izohlanadi: masalan, u Ibrohim (a.s.)ning yulduz, oy va quyoshni ko‘rib “mana bu rabbiymidir?” deb sinov tariqasida aytgan voqeasini (An’om surasi, 76–78-oyatlar) tafsirlar ekan, bu holni odamlarni haq diniga da’vat etish uchun qo‘llangan **empirik dalillash usuli** deya izohlaydi. Ya’ni, Ibrohim (a.s.) xalqiga yulduzlar botib ketishini ko‘rsatib, ularning iloh bo‘la olmasligini, faqat botmaydigan, so‘nmaydigan Yaratganggina haqli iloh ekanini tushuntirgan. Moturidiy bu misolda payg‘ambarning usulidan kelib chiqib, **“zahiran empirik kuzatishga tayanib, mantiqiy xulosa chiqarish”** metodini ko‘rsatadi. Bu xulosa bevosita uning o‘z da’vatida ham qo‘llagan uslubidir, chunki Moturidiy asarlarida ko‘p hollarda u avval muayyan hodisani yoki da’voni tasvirlab, so‘ngra aqliy tahlil bilan uning xulosasini chiqaradi.

Yana bir e’tiborli jihat: Moturidiy ilmiy tafakkurini boyitishda mahalliy ilmiy merosga ham suyanadi. Masalan, Zardushtiylik falsafasida **yorug‘lik va zulmat** munosabati bo‘yicha maxsus tafakkur shakllangan edi. Moturidiy bu tafakkurdan ham baholi qudrat xabardor bo‘lib, *nur va zulmat* masalasini Qur’on nuqtai nazaridan qayta ko‘rib chiqadi. Unga ko‘ra, yaxshilik – nurga, yomonlik – zulmatga o‘xshatilishi mumkin, lekin zulmatning mavjudligi yorug‘lik manbasining (Allohning) bitta ekanini inkor etmaydi; aksincha, zulmat – nurning yoxud uning manbasining yo‘qligi natijasidir, bu esa yana Yaratganning birligiga dalolat qiladi. Bu kabi mantiqiy-falsafiy mulohazalar Moturidiy qalamida mahalliy madaniy

bilimlar (zardushtiylik falsafasi)ning ham, islomiy ilohiyotning ham elementlari uyg‘unlashganini ko‘rsatadi.

Umuman, Imom Moturidiy ta'limotida empirik bilimlarning o‘rni uning **aqoid ilmini qat'iy dalillar bilan mustahkamlashida** yaqqol namoyon bo‘ladi. U ahli sunna e'tiqodini asoslashda sof naqliy dalillar (oyat-hadislar) bilan bir qatorda, hayotiy va ilmiy dalillarni ham keltirar edi. Bu yondashuv tufayli Moturidiylik ta'limoti keng yoyilib, turli zamon va makonlarda muslamon jamoalari e'tiqodiga mos va maqbul bo‘lib bordi. Masalan, Turkiy xalqlar o‘rtasida X–XII asrlarda Moturidiy aqidasi keng qabul qilinib, ma'lum ma'noda mahalliy ong va tajribaga uyg‘un bo‘lgani uchun ularning islomga kirishini yengillashtirgan. Chunki Moturidiy targ‘ib etgan "aql va tafakkur qilish" tamoyili turkiy jamiyatlarning qadimiy an'analaridagi dono ota-bobolar nasihatlari bilan hamohang edi. Buni qarangki, O‘rta asrlarda ko‘chmanchi turk qabilalari ichida islomni qabul qilish jarayonida Moturidiy aqidasi muhim rol o‘ynagan – ular bu ta'limotda o‘zlarining ba'zi tushunchalariga moslik ko‘rishgan, masalan, Tangrining yagonaligini aql bilan qabul qilish g‘oyasi.

Muhokama. Yuqoridagi natijalar shuni ko‘rsatadiki, ilk o‘rta asrlar Sug‘d mintaqasida shakllangan boy empirik bilimlar xazinasi Imom Moturidiy ta'limotining shakllanishiga bevosita va bilvosita ta'sir ko‘rsatgan. **Bevosita ta'sir** sifatida aytish mumkinki, Moturidiy o‘z ilmiy faoliyatida zamonasidagi dunyoviy fanlar yutuqlaridan xabardor bo‘lgan va ularni ilohiy haqiqatlarni tushuntirishga xizmat qildirgan. U astronomiya, mantiq, tibbiyot kabi sohalardagi bilimlarni rad etmagan, balki ularni to‘g‘ri e'tiqodni mustahkamlovchi omillar sifatida ko‘rgan. Bu, masalan, Allohning qudratini koinot tartibi misolida tushuntirishida yaqqol namoyon bo‘ladi: Moturidiy koinot va tabiat hodisalarini *"Allohning qudrati va yagonaligiga dalolat qiluvchi oyatlar"* deb atagan, bu bilan u empirik kuzatuvni e'tiqodiy dalil darajasiga ko‘targan. Shuningdek, Moturidiy inson tabiati va jamiyat hayoti haqidagi kuzatishlardan ham foydalanib, aqidaviy xulosalar chiqargan. Masalan, u turli xalqlarning tarixi va madaniyatini o‘rgangan holda, haq dinni rad etgan jamiyatlar inqirozga uchrashi haqida xulosa qiladi – bu xulosa tarixiy-empirik dalillarga asoslanib, Allohning yo‘l-yo‘riqlariga ehtiyoj borligini ko‘rsatadi.

Bilvosita ta'sir jihatidan qaralganda esa, Sug‘d ilmiy muhitining Moturidiyga ko‘rsatgan asosiy xizmati – bu muhit Moturidiyga o‘z ta'limotini ishlab chiqishda ilhom manbai va zamin bo‘lib berganidir. Birinchidan, Movarounnahrdagi bag‘rikenglik va turfa ilmiy an'analar muhiti Moturidiyga odilona muloqot va bahs yuritish ko‘nikmasini singdirdi. U bolalikdan turli din vakillarining bahslarini, shubhasiz, ko‘rib o‘sgan, Samarqandda musulmonlar bilan zardushtiylar yoki nasroniylar o‘rtasidagi munozaralar unga notanish bo‘lmagan. Bu esa unda har bir e'tiqodni aql tarozisida tortib ko‘rish, haqiqatni izlab, insofsizlik qilmaslik fazilatini

shakllantirdi. Shu bois, Moturidiy hatto o‘sha davrda islom jamoasida bid’at sanalgan oqimlar (qadariylar, jabriylar, mushabbihalar va hokazo) bilan ham ochiq ilmiy dialogga kirishdi – ularning dalillarini keltirib, so‘ng aql va naql yordamida xatolarini ko‘rsatdi. Bunday yondashuv, shubhasiz, Sug‘d jamiyatidagi ko‘p diniy muhit ta’sirida yuzaga kelgan edi, chunki Bag‘doddagi Ash’ariylar avval boshda Mu’taziliylar bilan bahsni rad etib, so‘ng majburan munozaraga kirishgan bo‘lsa, Moturidiy bahslashishni zarurat va haqiqatni aniqlash vositasi deb bildi. Uning “sokratik” uslubda – savol-javob shaklida – fikr yuritishi va avval raqib dalilini to‘liq bayon qilib, so‘ng javob berishi bunga misoldir. Bunda ko‘rinadiki, mahalliy bag‘rikeng ilmiy muhit Moturidiyga shu tariqa muomala qilishni, har qanday g‘oyani mantiqan sinab ko‘rishni o‘rgatgan.

Ikkinchidan, Sug‘dda shakllangan empirik dunyoqarash Moturidiy kalomining ruhiga singdi. Moturidiy nazdida, bashariyat tajribasi jamlangan sog‘lom aql xulosalari qat’iy dalil bo‘lishi mumkin. U faqat mo‘’jizaviy va g‘ayritabiiy hodisalar sohasidagina aql ojiz qolishini tan oladi, xolos – bu esa, masalan, payg‘ambarlarning mo‘’jizalari yoki oxiratga oid masalalardir. Boshqa barcha hayotiy masalalarda Alloh inson aqliga “haqni topish qobiliyati”ni bergan deb, Moturidiy insonni faol izlanishga undaydi. Bu xususiyat o‘sha davrdagi mahalliy dunyoviy bilimlarga hurmat hissidan kelib chiqqan. Chunki agar ilm-fanga yot munosabat bo‘lganda, Moturidiy ham ba’zi mutaassiblar kabi “aql bu ishda ojiz, faqat Qur’onga ergashing” deyish bilan cheklanib qolishi mumkin edi. Biroq, u bunday yo‘lni tanlamadi – aksincha, “Qur’on va aql bir haqiqatga ishora qiladi” deb, ilm-fan yutuqlarini qadrladi. Masalaning yana bir tomoni shuki, Moturidiy ta’limoti keyinchalik Markaziy Osiyo va butun musulmon Sharqida ilm-fanning turg‘unlikka tushib qolmasligiga xizmat qildi. Chunki uning ta’limotida “imon – faqat taqlid qilish emas, balki qalb bilan tasdiq etilgan ilmdir” degan tushuncha bor edi. Keyinchalik ayrim oqimlar orasida irratsional qarashlar tarqalib, “fan dunyoviy narsa” deb kamsitilish hollari kuzatilgan bo‘lsa, Moturidiylik an’anasiga sodiq bo‘lgan ulamolar, xususan, Samarqand va Buxorodagi olimlar aql va fan ahamiyatini pastlatmadilar. Masalan, XIV–XV asrlarda yashagan **Ulug‘bek** moturidiy e’tiqodiga ega hukmdor bo‘lib, u Samarqandda rasadxona (observatoriya) qurdirib, falakiyot ilmini rivojlantirdi – bu hol uning e’tiqodi aql va fanga ochiq bo‘lgan muhit mahsuli ekanini ko‘rsatadi. To‘g‘ri, Ulug‘bek davri Moturidiydan ancha keyin bo‘lsa-da, umumiy madaniy zamin bir edi va unda Moturidiy merosining ham hissasi bor edi, deyishimiz mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, **Moturidiy ta’limoti – o‘z davrining empirik bilimlar yutuqlarini o‘zlashtirgan holda shakllangan ilmiy aqidaviy maktabdir**. Unda Qur’on va Sunnat asosiy manba bo‘lsa-da, inson aqli va tajribasining o‘rni ham alohida e’tirof etiladi. Moturidiy “ilm” tushunchasini

faqat diniy bilimlar bilangina cheklamaydi – u nafosat ilmlari (badiiy adabiyot), mantiq, falsafa kabi sohalardagi bilimlarni ham *haqiqat izlash yo'lida foydali vositalar* deb hisoblaydi. Bu yondashuv bugungi kunda ham dolzarb bo'lib, uni chuqur o'rganish din va ilm-fanni qarama-qarshi qo'yish xatolarini bartaraf etishga xizmat qilishi mumkin. Zero, Moturidiy ta'limoti tajriba va aqlning din bilan uyg'unlashuv modelini ko'rsatadi – u inson tafakkurining erkin ijodini e'tiqodiy barqarorlik bilan birlashtirish mumkindigini tarixiy tajriba orqali isbotlagan.

Xulosa. Maqolada keltirilgan tahlillar Moturidiy ta'limoti va Sug'd mintaqasining empirik bilimlar an'anasi o'rtasida uzviy aloqadorlik mavjudligini tasdiqlaydi. Imom Moturidiy Movarounnahrdagi boy ma'naviy-intellektual muhit farzandi bo'lib, u islomiy aqidaga asos solishda shu muhitda shakllangan empirik va racional bilimlardan ijodiy foydalandi. Xususan, Sug'dda vujudga kelgan ilmiy an'analar – ilm-fanga hurmat, kuzatuvchanlik, mantiqiy tafakkur va turli g'oyalarga bag'rikeng yondashuv – Moturidiy tafakkurida o'z aksini topdi. U Qur'on va hadislarni talqin qilishda aql va ilmiy dalillarni ishga solib, diniy haqiqatlarni inson tajribasi bilan mushtarak tarzda yoritib berdi. Moturidiy uch xil bilim manbaini (empirik sezgi, aqliy nazar va ishonchli naql) e'tirof etib, ularni aqidaviy masalalarni hal etishda uyg'un qo'llash konsepsiyasini yaratdi. Bu esa o'z zamonasi uchun ulkan yangilik bo'lib, sunniy kalomni quruq munozaradan ancha kengroq, fundamental ilmiy asoslarga qurilgan fandek rivojlantirdi.

Shuningdek, Sug'd jamiyatidagi turli din va falsafa vakillari bilan muloqot Moturidiyga ularga nisbatan ilmiy polemika yuritish ko'nikmasini hosil qildi. Natijada u Mu'taziliy, Qadariy, Jabriy kabi oqimlarning chalkash fikrlarini puxta mantiqiy dalillar bilan rad etdi va ahli sunna e'tiqodini mustahkam qoida va usullar bilan izohladi. Bu jarayonda u so'fiyona taqlidga berilmay, balki aqliy tahlil metodidan foydalanib, aslida musulmon ilohiyotini empirik-ilmiy asoslar bilan boyitdi. Moturidiy kalomi islom falsafasi va kalom ilmi tarixida **racionalizm bilan an'anaviylikni birlashtirgan maktab** sifatida nom qozondi. Uning ta'limoti asrlar davomida Movarounnahr va umuman Markaziy Osiyo xalqlari e'tiqodining tayanchiga aylangan bo'lsa, bu aynan uning ta'limoti mahalliy ilmiy an'analarga mos va ular bilan hamohang bo'lganining isbotidir.

Xulosa o'rnida aytish joizki, Imom Moturidiy ta'limoti va Sug'd empirik bilimlar merosi bir-birini boyitgan hodisalardir. Sug'd ilmiy-mafkuraviy muhitisiz Moturidiy kabi alloma yetishib chiqmasligi mumkin edi, xuddi Moturidiy ta'limotisiz Sug'd intellektual merosi o'zining davomchisi va himoyachisidan mahrum bo'lgan bo'lur edi. Moturidiy mintaqaning ming yillik ilmiy-falsafiy tajribalarini islom aqidasiga muvaffaqiyatli integratsiya qildi va shu orqali o'z nomini nafaqat ilohiyot, balki ilm-fan tarixiga ham muhrladi. Zamonaviy islomshunoslik nuqtai nazaridan, Moturidiy merosi diniy va dunyoviy bilimlar

sintezining mumtoz namunasidir. U ko‘rsatib berganidek, haqqoniy e’tiqod va haqiqiy ilm bir-biriga zid emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi ikki qanotdir – inson ma’naviy kamolotga yetishmoq uchun har ikkala qanotga muhtoj. Moturidiy ta’limotidagi empirik dalillarga ochiqlik va aql-zakovatni ulug‘lash g‘oyalari bugungi kunda ham bilim va e’tiqod o‘rtasidagi munosabatni to‘g‘ri anglashimizga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Turdialiev J. The Development of Empirical Knowledge in Sughd in the Early Middle Ages (the example of literature) // Current Research Journal of History. – 2024. – Vol. 5, No 2. – P. 25–29. [1, p. 25]

2. Sattorov E. B. Religious Processes in Social Life of Early Medieval Sughd // International Journal of Advanced Research. – 2020. – Vol. 8, Issue 10. – P. 152–154. [2, p. 152]

3. Negmatov N. N. The Samanid State // History of Civilizations of Central Asia. Vol. IV, Part 1. – Paris: UNESCO Publishing, 1998. – P. 93–100. [3, p. 94]

4. Nasir S. A. The Epistemology of Kalām of Abū Manṣūr al-Māturīdī // Al-Jami’ah: Journal of Islamic Studies. – 2005. – Vol. 43, No 2. – P. 349–365. [4, p. 362]

5. Rudolph U. Al-Māturīdī and the Development of Sunnī Theology in Samarqand. – Leiden: Brill, 2015. – P. 300. [5, p. 300]

6. Correa A. D. Imām Māturīdī and Māturīdīlik // Proceedings of the International Symposium on Imām Māturīdī. – Istanbul, 2012. – P. 378–382. [6, p. 380]

7. Hasanov R. I. Imom Moturidiyning ma’naviy merosi // Eurasian Journal of Academic Research. – 2024. – №2. – B. 142–150. [7, b. 148]

8. Bartold V. V. Turkestanda islomsiz davrdagi nasroniylik haqida // Asarlar. 2-jild, 2-qism. – M.: Nauka, 1964. – S. 259. [8, c. 259]

9. Livshits V. A. Sughdiy yozuv yodgorliklari (Markaziy Osiyo va Yettisuv). – SPb.: Filologiya fakulteti nashri, 2008. – S. 46. [9, c. 46]

10. Zhussipbek G., Satershinov B. Some Insights from Rationalistic Islamic Māturīdite Theology // Religions. – 2019. – Vol. 10, No 11 (609). – P. 7–10. [10, p. 8]

NAQSHBANDIYLIK TARIQATIDA QUR'ON TAFSIRI VA HADISLAR SHARHINING O'ZIGA XOS JIHATLARINING QIYOSIY TAHLILI

Habibullayeva Halima Farxod qizi
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi Stajyor-tadqiqotchisi

Ilmiy rahbar: Agzamova Muhabbatxon Mirtoxirovna
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi Islomshunoslik va islom sivilizasiyasini o'rganish ICESCO kafedrasi mudiri dosent v.b.

Naqshbandiylik tariqati tasavvuf yo'llardan biri bo'lib, Qur'on va sunnatga muvofiqligi, ahli sunna e'tiqodini qabul qilishi va bid'atlardan yiroq tasavvufiy ta'limotga asoslanishi bilan mashhurdir. Naqshbandiylik ta'limoti olimlar va omma xalq nazdida qabul qilingan hamda keng tarqalgan tariqat hisoblanadi. Ushbu tariqat asoschisi sifatida Bahouddin Naqshband qaraladi, uning izdoshlari Yoqub Charxiy, Ubaydulloh Ahror va Boqibilloh tarafidan Bahouddin Naqshbandning tasavvufiy qarashlari keng yoyilgan. Ushbu maqolada naqshbandiylik tariqati namoyondalarining hayoti, tasavvufiy qarashlari hamda Qur'on oyatlari va hadislarini tushunishlari borasidagi tasavvufiy talqinlari misollari bilan ko'rib chiqiladi.

Tafsir "تفسير" so'zi "fassara" – "فَسَّرَ" fe'lining o'zagidan olingan bo'lib, "bayon qilish", "yoritish", "ochish", "sharhlash" ma'nosida, "تفسير" esa, "yopiq narsani ochish", "mushkul lafz maqsadini yoritish" kabi ma'nolarni beradi. Shundan kelib chiqib, "mufassir" so'zi Qur'on oyatlarini sharhlovchi mazmunini ifoda etadi. Tafsirlar o'z navbatida aqliy tafsirlar, naqliy tafsirlar va tasavvufiy-ishoriy tafsirlar kabi turlarga bo'linadi. Tasavvufiy tafsirlar – Qur'on oyatlarining zohiriy ma'nolariga qaramay, uni Alloh tomonidan berilgan laduniy ilm orqali maxfiy ishoralari taqozosiga ko'ra tafsir qilishdir. Oyatlarning ishoriy ma'nolarini sharhlashda mufassir nafaqat kashf va ilhom bilan, balki o'zining tasavvufiy qarashlari, tajribalari va so'fiy hayot yo'liga asoslanishi ko'zga tashlanadi. Ishoriy tafsirlarni o'rganish mobaynida ularda ma'lum tariqatning qarashlari aks etganini kuzatish mumkin.

Tasavvufiy tafsirning botiniy tafsirlardan ajralib turadigan katta farqi Qur'onning zohiriy ma'nosiniga zid kelmasligidir. Muhammad Ali Sobuniy (vaf. 1442/2021 y.) ishoriy tafsirlarga ta'rif berib, quyidagilarni keltiradi: "Ba'zi ilm egalariga ayon bo'lgan Qur'onning zohiriga xilof yashirin ishoralar yoki Qur'onning asrorlarini anglashlari uchun Alloh qalb ko'zlarini ochib qo'ygan, tasavvuf ahllaridan bo'lgan nafsiga qarshi kurashgan oriflarga zohir bo'lgan ishoralar hamda ilohiy ilhom vositasida oyatlarning ma'nolarini zehnlarida teran anglagan kishilarning ta'vilidir. Bu ta'villar oyatlarning zohiriy ma'nolariga zid bo'lmay,

ularning orasini jamlash mumkin bo‘ladi” [1, b.169]. “Ruhul bayon” ishoriy tafsiri muallifi Ismoil Haqqiy Bursaviy (vaf. 1137/1725) ishorat ahlining eng to‘g‘risi tashqi ma’nodan chetga chiqmagan, ibora va ishorani teng tutgan “majmual bahrayn” (ikki dengizni birlashtiruvchi) bo‘lishi lozim ekanligini ta’kidlaydi. Bularni tarozining ikki pallasi deb ta’riflab, agar ularning biri yengil kelsa, insonni dahriylik gumonidan xalos qilib bo‘lmasligini aytadi [2, b.543-544].

Mutasavvif ulamolar “Bugun diningizni komil qildim” oyatini sharhlab, dinning asoslari va hukmlari tugal bo‘lgani, payg‘ambarlik tugagani, ammo valiylik eshiklari ochiq qolganini keltiradilar. Bu esa, Qur’on oyatlarining haqiqati va ma’rifati ilhom orqali bilishga hech qanday to‘siq yo‘q ekanligini, mutasavvif mufassir oyatlarning yashirin haqiqatlarni ochib berishiga, ichki ma’nolarini sharhlashi va ramziy ma’nolarini yoritishi mumkinligiga dalildir. So‘fiy olim valiylik darajasiga Alloh va Payg‘ambarga (s.a.v) ergashish bilan yetishadi [2, b.1014-1015].

Markaziy Osiyoda XIV asrda paydo bo‘lgan “Naqshbandiya” tasavvufiy tariqati Xoja Muhammad Bahouddin Naqshband (718/1318-791/1389) nomi bilan bog‘liqdir. Bahouddin Naqshbandning asarlari yozma tarzda hozirgacha yetib kelmagan bo‘lsada, uning shogirtlari tomonidan tariqat olimining hayoti, fikrlari, suhbatlari, tasavvufiy qarashlari haqida bir qancha asarlar yozilgan.

Bahouddin Naqashbandning xalifasi Muhammad Porso (vaf. 822/1420) shayxining suhbatlarini va uning eslatmalarni yozib olib, “Risalai qudsiyya” nomi bilan fors tilida asar yozgan [3]. Ushbu asarda Bahouddin Naqshbandning fikrlari, Qur’on va sunnatni tushunish va sharhlashdagi yondashuvini uchratish mumkin.

Solah ibn Muborak Buxoriyning (vaf. 789/1391) “Anisut tolibiyn va uddatus solikiyn” (Toliblar oshnosi va soliklar rahnamosi) asarida Bahouddin Naqshbandning hayot tarzi, kashfu karomatlari va purhikmat so‘zlaridan namunalar beriladi. Bu asar “Maqomati hazrati Xojai Naqshband” nomi bilan yuritiladi. Solah ibn Muborak shayxning suhbatlarida qatnashgan va ushbu asarni Alouddin Attorning undovi bilan fors tilida yozgan. Asar to‘rt qismdan iborat bo‘lib, xossatan uchinchi bo‘limda Bahouddin Naqshbandning so‘fiylik mavzulariga oid ba’zi oyat va hadislarning tafsirlari o‘rin olgan [4, b.60]. Solah ibn Muborak shayx Bahouddin Naqshbandning nasihatlarining aksari ishora va timsollardan iborat bo‘lib, Payg‘ambar (s.a.v.) hadislarini, sahobalarning so‘zlari va salafi solihlarning hollarini rivoyat qilganini ta’kidlaydi.

Shuningdek, “Nafahatul uns”, “Roshahati aynul hayat”, “Hadaiqul vardiyya” kabi asarlarda Bahouddin Naqshbandning bazi oyat va hadislar borasida kelgan rivoyatlar ham yuqoridagi asarlarga tayangan. Quyida ba’zi oyat va hadislarning Bahouddin Naqshband tarafidan sharhlangan misollari ko‘rib chiqiladi.

Solah ibn Muborakning "Anisut tolibin" asarida keltirilgan bir voqeada Bahouddin Naqshband Hirotda podshoh Husayn huzuriga boradi, podshoh undan bir qancha savollar so'raydi. Bahouddin Naqshband o'z yo'lini Abduxoliq Gijduvoniyning tariqati kabi "xilvat dar anjuman" ya'ni "ko'pning ichida yolg'iz qolish" ekanini aytadi. Banda zohirda xalq bilan birga, botinda esa, Haq taolo bilan birga bo'lishini, xalq ila bo'lish Allohning zikri va shukridan uzoqlashtirmasligi lozimligini ta'kidlaydi va bunga "Nur" surasi 37-oyatni dalil qilib keltiradi: "رِجَالٌ لَا تُلْهِيهِمْ تِجَارَةٌ وَلَا بَيْعٌ عَن ذِكْرِ اللَّهِ وَإِقَامِ الصَّلَاةِ وَإِيتَاءِ الزَّكَاةِ ۙ يَخَافُونَ يَوْمًا تَتَقَلَّبُ فِيهِ الْقُلُوبُ وَالْأَبْصَارُ" "Ularni na tijorat va na oldi-sotdi Allohni zikr qilishdan, namozni to'kis ado etishdan va zakotni (haqdorlarga) ato etishdan mashg'ul qila olmas. Ular dil va ko'zlar iztirobga tushib qoladigan (Qiyomat) kunidan qo'rqurlar" [5].

Muhammad Porso "Risolai qudsiyya" asarida "مَّا عِندَكُمْ يَنفَدُ ۖ وَمَا عِندَ اللَّهِ بَاقٍ ۗ وَلَنَجْزِيَنَّ الَّذِينَ صَبَرُوا أَجْرَهُم بِأَحْسَنِ مَا كَانُوا يَعْمَلُونَ" "Sizlarning huzuringizdagi (dunyo ne'matlari) tugaydi. Allohning huzuridagi (ne'matlar) esa boqiydir. Albatta, Biz sabr qilganlarning ajrlarini qilgan amallarining eng chiroylisi bilan mukofotlaymiz" oyati tafsirining ishoriy ma'nosi haqida Bahouddin Naqshbanddan quyidagilarni rivoyatini keltiradi: "Mo'minlarning qilgan solih amallari va xayrli ishlari Alloh taolo tomonidan qabul qilingani ko'rinadi. Amalning qabul bo'lganlik belgisi, bu amalda insoniy borlikning yo'q bo'lishi va ilohiy jozibaning ko'rinishidir" [3].

Bahouddin Naqshband o'z tariqatida "vuqufi adadiy"ni *("Laa ilaha illalloh" zikrini nafas olmasdan takrorlash va muayyan adadlarni kam yoki ziyoda qilmaslik.*) ilmi laduniyning birinchi martabasi deb biladi. "Vuqufi adadiy" bu zikr qiluvchi bir nafasda tavhid kalimasini uch, besh, yetti yoki yigirma bir martda qalbda aytishi va toq songa rioya qilishidir. Shunga ko'ra "فَوَجَدَا عَبْدًا مِّنْ عِبَادِنَا آتَيْنَاهُ رَحْمَةً مِّنْ عِندِنَا وَعَلَّمْنَاهُ مِن لَّدُنَّا عِلْمًا" "Bas, ular Bizning bandalarimizdan bir bandani topdilar. Uni huzurimizdan rahmat ato etgan va O'z huzurimizdan ilm o'rgatgan edik" oyatida "ilmi yaqin" va "ilmi laduniy" o'rtasidagi farq berilgan. Yaqiniy ilm Allohning ism va sifatlari nurini idrok etmoqdir, laduniy ilm Alloh taolo ilhom qilgan ma'nolarni va so'zlarni anglamoqdir [4, b.76].

Shuningdek, yuqoridagi asarlarda Bahouddin Naqshbandning ba'zi hadislarni tasavvufiy qarashlarining dalili o'laroq sharhlagani keltiriladi. Muhammad Haniyning "Hadaiqul vardiyya" asarida "Bahouddin Naqshbanddan Allohning ahllari ko'ngillardagi o'ylarni, maxfiy amallar va hollarni qanday bilishi mumkinligi haqida so'ralganda, ular buni Alloh taolo ikrom etgan farosat nuri bilan ko'radilar, buni dalili "Mo'minning farosatidan qo'rq, u Allohning nuri ila qaraydi" hadisidir" deya javob bergani keltiriladi [3, b.44].

Saloh ibn Muborak "Anisut tolibin" asarida keltiriladi: "Bahouddin Naqshband "أمط الأذى عن الطريق" "Yo'ldan aziyat yetkazuvchini olib tashlang" hadisidagi "aziyat yetkazuvchi"dan murod nafsdir, "yo'l"dan murod Haq taoloning

yo‘lidir. Aziyat beruvchi narsani yo‘q qilish menlikni tamoman yo‘q qilishga ishoradir” [3, b.331].

Naqshbandiylik tariqatining rivojlanishi va keng tarqalishida hissasi katta bo‘lgan Bahouddin Naqshbandning xalifasi Muhammad Porsoning asarlari orqali ushbu tariqatning Qur’on va hadisni ishoriy talqinlarini o‘rganish mumkin. Uning “Fotiha” surasi tafsiri, “Tafsiri suvari samaniya” nomi ostidagi “Qadr”, “Bayyina”, “Zalzala”, “Adiyat”, Qori’a”, “Takasur”, “Asr”, “Humaza” suralarining forscha tafsiri, “Tafsiri Porso” asarida yigirma to‘qqiz, o‘ttizinchi juzdagi suralar va “Yasin” surasining tafsiri yetib kelgan. Muhammad Porsoning “Arbain hadiysan” nomli arab tilidagi asarida zohidlik, zikr va axloq masalalariga doir qirq hadisni jamlagan [6, b.564].

Bahouddin Naqshbandning izdoshlaridan biri, Alouddin Attorning shogirdi va xalifasi bo‘lgan Yaqub Charxiyning (vaf. 851/1447) “Tafsiri Yoqubi Charxiy” asarida “Fotiha” surasi, yigirma to‘qqiz va o‘ttizinchi juz suralarining forscha tafsiri o‘z aksini topgan. Yoqub Charxiy ushbu tafsirida Zamaxshariyning “Kashshof” va Kevashiyning “Tabsira” kabi tafsir va tasavvufga doir asarlardan manba sifatida foydalangan. Shuningdek, Charxiy Bag‘oviyning “Masobihu sunna” asarida kelgan hadislardan tanlab “Misbah muktabas minal Masobih” nomli asar yozgan, va bu hadislarning ichida qirqtasini tanlab olib, “Hadisi arabain” kitobini tuzgan [7, b.83-95].

Ubaydulloh Ahror (vaf. 895/1490) “Fikrat”, “Risolai Havraiyya”, “Risolai validiyya” va “Rukuat” kabi asarlarida va suhbatlarida ayrim oyat va hadislarning ishoriy tafsir va talqinlarini keltirgan. Ubaydulloh Ahrorning izdoshlari tarafidan uning hayoti, so‘zlari va qarashlari aks etgan bir qancha asarlar ta’lif etilgan bo‘lib, MirAbdulavvalning (vaf. 905/1500) “Malfuzaat”, Mavlono Shayxning (vaf. 916-1510) “Havariqi odati Ahror”, Muhammad Qozi Samarqandiyning (vaf. 921-1515) “Silsilatul orifiyn va tazkiratus siddiqiyn”, Ali ibn Husayn Voiz Koshifiyning (vaf. 939/1532) “Rashahatu aynul hayat”, Muhammad Amiyn Kerkiyning “Malfuzatu Ahror” nomli asarlari shular jumlasidandir. Ali ibn Husayn Voiz Koshifiy o‘z asarida Ubaydulloh Ahrordan eshitgan o‘n olti oyat tafsiri va sakkiz hadis sharhini keltirgan [8, b.434-444].

Naqshbandiylik tariqatining muhim namoyondalaridan biri bo‘lgan Abdurahmon Jomiyning (vaf. 898/1492) tafsir va hadisga oid bir qancha asarlari mavjud. Qur’onni to‘liq tafsir qilishni niyat qilib boshlagan “Tafsirul Qur’an” asarida faqat “Fotiha” surasi va “Baqara” surasining ilk yigirma uch oyatini tafsir qilishga ulgirgan. Ushbu tafsirdan ham naqshbandiy shayxlarining Qur’onni tushunishdagi uslubini o‘rganish mumkin bo‘ladi.

Hindistonda Naqshbandiylik ta’limotini yoyilishiga sababchi bo‘lgan Imom Rabboniyning murshidi Boqibilloh (vaf. 1012/1603) tarafidan sharhlangan oyat va

hadislarning tafsiri shogirdlari tarafidan yozilgan maktubotlarga kiritilgan bo‘lib, ushbu maktublarning bir qismi “Kulliyati Boqibilloh” nomi ostida nashr qilingan. Ushbu risolada Boqibillohning istioza va basmala, “Fotiha”, “Shams”, “Ixlos”, “Falaq”, “Nos” suralari va ba’zi oyatlarning sharhlari jamlangan [6, b.543].

Xulosa o‘rnida, Naqshbandiylik tariqati tasavvufiy maktab sifatida Qur’on va sunnat asosida shakllangan bo‘lib, ahli sunna e’tiqodiga sodiqligi hamda bid’atlardan yiroqligi bilan ajralib turadi. Tariqat asoschisi Bahouddin Naqshband o‘z qarashlarida Qur’on oyatlari va hadislarning zohiriy ma’nosiga zid kelmagan holda, ularning ishoriy talqinlarini ilgari surgan. Uning bu yondashuvi shogirdlari va xalifalari - Muhammad Porso, Solah ibn Muborak, Ya’qub Charxiy, Ubaydulloh Ahror, Abdurahmon Jomiy va Boqibilloh tomonidan davom ettirilib, keng yoyilgan. Naqshbandiylik namoyandalari Qur’on oyatlari va hadislarning ma’nolarini laduniy ilm, ilhom va farosat nuri orqali sharhlab, inson ma’naviy kamoloti va tasavvufiy hayotga yo‘naltiruvchi g‘oyalarni ilgari surganlar. Shuningdek, ular asarlarida ishoriy tafsir bilan bir qatorda zohiriy tafsirga ham tayanib, Qur’onning botiniy va zohiriy ma’nolari o‘rtasida uyg‘unlik yaratishga intilganlar.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati:

1. Muhammad Ali Sobuniy. Tibyan fiy ulumil Qur’an. – Damashq: Maktabatul G‘azzoliy. 1981.
2. Ismoil Haqqiy Bursaviy. Kitabun Natije. Ali Namli. – Istanbul: Turkiya Qo‘lyozma Asarlari Boshqarmasi. 2019.
3. Muhammad Porso. Risolai Qudsiyya: Hazrati Muhammad Bahouddinning suhbatlari. Tarj. Najdat Tosun. – Istanbul. 1998.
4. Saloh ibn Muborak Buxoriy. Anisut tolibin. Tarj. Sulaymon Izziy Tashrifotiy. – Istanbul. 1910.
5. Shayx Abdulaziz Mansur. Qur’oni Karim ma’nolari tarjimasi. – Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyoti, 2001.
6. Hamid Algar. Muhammad Porsho. Turk-Islom Ensiklopediyasi (DİA). – J. XXX. 1988.
7. Ahmet Johid Haksever. Yoqub Charxiy: hayoti, asarlari va tasavvufiy qarashlari. Istanbul. 2009.
8. Ali ibn Husayn Sofiy Voiz Koshifiy. Rashahot aynul-hayot. tahqiq: Ali Asgar Muyniyon. Tehron. – J. II. 1977.

ABU MANSUR MOTURIDIY FALSAFIY MEROSINING SHAXS MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDAGI O'RNI

Ismatullayeva Feruza
Samarqand davlat pedagogika instituti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Maqolada buyuk mutafakkir Abu Mansur Moturidiy falsafiy merosining shaxs ma'naviyatini yuksaltirishdagi o'rni keng tahlil qilingan. Tadqiqotda Moturidiy ta'limotidagi aql va naql uyg'unligi, imon va amalning o'zaro bog'liqligi, insonning erkin irodasi va mas'uliyati haqidagi qarashlari shaxs ma'naviy barkamolligini shakllantirishdagi asosiy omillar sifatida yoritilgan. Shuningdek, mutafakkirning bag'rikenglik va mo'tadillik g'oyalari zamonaviy jamiyatda diniy-mafkuraviy barqarorlikni ta'minlash, yoshlarni ekstremizm va radikalizm ta'siridan asrash hamda ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashdagi dolzarbligi ko'rsatib berilgan. Moturidiy merosini chuqur o'rganish va ta'lim-tarbiya jarayonlariga tatbiq etish bugungi kunning strategik vazifalaridan biri sifatida asoslangan.

Kalit so'zlar: Abu Mansur Moturidiy, falsafiy meros, shaxs ma'naviyati, aql va naql uyg'unligi, imon va amal, erkin iroda va mas'uliyat, bag'rikenglik, mo»tadillik, diniy-mafkuraviy barqarorlik, yoshlar tarbiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar.

Kirish. Jahonda mutakallimlar imomi Abu Mansur Moturidiyning falsafiy merosi va moturidiylik ta'limotining asl mohiyatini tadqiq etishga zaruriyat ortib bormoqda. Chunki bugungi kunda insoniyat olamida radikallashuvning keskin tus olib, dindan siyosiy maqsadlarda foydalanuvchi kuchlar ta'sirining ortib borishi va natijada diniy tusdagi siyosiy nizolarning kelib chiqishi yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Bu esa, o'z navbatida, o'zining falsafiy qarashlarida diniylik va dunyoviylik uyg'unligini ta'minlab, kalom ilmida mo'tadillikni yoqlab, o'z mulohazalarini aqliy va naqliy dalillar asosida yoritib bergan, IX asrdayoq Movarounnahr diyorida butun ahli sunna val jamoa aqidasining Hanafiylik yo'nalishini davom ettiruvchi buyuk yo'lboshchisiga aylangan Imom Abu Mansur Moturidiyning ilmiy merosini o'rganish hamda uning "Kitob at-tavhid" va "Ta'vilot al-Qur'on" asarlarida shaxsning ma'naviy fazilatlarini yuksaltirishga, diniy e'tiqodni mustahkamlashga xizmat qiladigan g'oyalarini jamiyat hayotiga to'g'ri tadbiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Uchinchi rennesans davri tomon harakatlanayotgan O'zbekistonda ham Imom Abu Mansur Moturidiy falsafiy merosini ilmiy jihatdan xolis o'rganishga, mutakallimning "Kitob at-tavhid" va "Ta'vilot al-Qur'on" kabi shoh asarlarida ilgari surilgan hayotbaxsh g'oyalarni kishilar ongi va qalbiga singdirishga, olimning hayot

yo‘li, diniylik va dunyoviylikda mo‘tadillikni mahkam tutgan moturidiylik ta’limotining bugungi kundagi ahamiyatini keng doirada xalq ongiga yetkazishga hamda faol targ‘ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu bois, kalom ilmining sultoni Imom Abu Mansur Moturidiyning nodir asarlarida ilgari surilgan falsafiy g‘oyalar va ularning shaxs ma’naviyatini yuksaltirishdagi o‘rnini o‘rganish, shuningdek, mazkur falsafiy merosning ma’naviy-axloqiy tarbiya omillarini rivojlantirishdagi ijtimoiy jihatlarini yoritib berish lozim.

Abu Mansur Moturidiy ta’limotining asosiy tamoyillaridan biri – aql va naqlning uyg‘unligidir. Unga ko‘ra, inson ma’naviy barkamollikka faqat vahiy asosida emas, balki aql orqali ham erisha oladi. Qur’oni Karim va hadis ilmlari inson uchun yo‘l-yo‘riq bo‘lsa, aql ularni to‘g‘ri talqin qilish vositasidir[1, b.356]. Bu qarash shaxsni mustaqil fikrlashga, ma’naviy hayotida ongli qarorlar qabul qilishga o‘rgatadi.

Moturidiy nazarida imon qalbdagi e’tiqod, amal esa uning tashqi ifodasidir. Amal imonning bir qismi bo‘lmasa-da, u imonni mustahkamlovchi asosiy omil hisoblanadi. Bu g‘oya shaxsni ikkiyuzlamachilikdan, so‘z va amal tafovutidan asraydi, insonni halollikka, poklikka va mas’uliyatga chorlaydi. Shu jihati bilan Moturidiy ta’limoti shaxsiy ma’naviyatni yuksaltirishga xizmat qiladi.

Moturidiylik ta’limotida qadar va ixtiyor masalasi alohida o‘rin tutadi. Unga ko‘ra, inson to‘liq majburiyat ostida emas, balki erkin iroda egasi sifatida faoliyat yuritadi [2, b.280]. Bu yondashuv shaxsning o‘z xatti-harakatlari uchun javobgarlikni his etishiga, jamiyatda mas’uliyatli fuqaro bo‘lib shakllanishiga turtki beradi. Erkinlik va mas’uliyat uyg‘unligi – shaxs ma’naviyatining eng muhim poydevoridir.

Moturidiy turli diniy oqimlarning mutaassib qarashlarini tanqid qilib, islom aqidasini mo»tadil va bag‘rikeng yondashuv asosida sharhlab berdi. Unga ko‘ra, mutaassiblik jamiyatni zaiflashtiradi, bag‘rikenglik esa uni mustahkamlaydi. Shu sababli moturidiylik ta’limoti nafaqat shaxs, balki butun jamiyat ma’naviyatini yuksaltirishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi globallashuv sharoitida diniy ekstremizm, mutaassiblik va ma’naviy bo‘shliq xavflari kuchayib bormoqda. Shu bois, Moturidiy ta’limoti yoshlarni sog‘lom e’tiqod ruhida tarbiyalashda, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhini singdirishda muhim o‘rin tutadi [3, b.464]. O‘zbekistonda tashkil etilgan Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi uning merosini o‘rganish va targ‘ib qilish orqali shaxs ma’naviyatini yuksaltirishda faoliyat yuritmoqda .

Xulosa. Abu Mansur Moturidiy falsafiy merosi shaxs ma’naviyatini yuksaltirishda beqiyos ahamiyatga ega. Uning ta’limotidagi aql va naql uyg‘unligi diniy haqiqatlarni ongli ravishda anglash, ilmiy dalillarga asoslangan e’tiqodga ega

bo‘lishni ta’minlaydi. Imon va amal uyg‘unligi shaxsiy hayotda halollik, poklik, adolat va mas’uliyat kabi fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Erkin iroda va mas’uliyat haqidagi qarashlar esa insonni faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lishga, jamiyat taraqqiyotida mas’uliyatli ishtirok etishga undaydi. Shuningdek, bag‘rikenglik va mo»tadillik g‘oyalari zamonaviy sharoitda diniy ekstremizm va mutaassiblikka qarshi mafkuraviy immunitet yaratadi, yoshlarni sog‘lom e’tiqod va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalaydi.

Tavsiyalar:

1. Ta’lim tizimida: Moturidiy merosini umumta’lim maktablari, oliy ta’lim muassasalari va diniy ta’lim dasturlariga keng tatbiq qilish, maxsus kurslar va seminarlar orqali yoshlarning e’tiqodiy va falsafiy bilimlarini boyitish lozim.

2. Yoshlar tarbiyasida: Moturidiylikning bag‘rikenglik, mo»tadillik va mas’uliyat haqidagi g‘oyalarini yoshlar ongiga singdirish orqali ularni ekstremistik oqimlardan asrash va milliy-ma’naviy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash zarur.

3. Ilmiy tadqiqotlarda: Moturidiy asarlarini zamonaviy ilmiy metodologiyalar asosida chuqur tahlil qilish, xalqaro miqyosda taqqosiy tadqiqotlar olib borish va natijalarni ilmiy jurnallarda chop etish maqsadga muvofiq.

4. Jamiyatda targ‘ibot ishlari: Moturidiylik ta’limotini keng jamoatchilik ongiga yetkazish uchun ommaviy axborot vositalari, madaniy-ma’rifiy tadbirlar va xalqaro konferensiyalar imkoniyatlaridan samarali foydalanish lozim.

5. Global hamkorlikda: Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi faoliyatini kengaytirish, UNESCO, ISESCO va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda ilmiy anjumanlar o‘tkazish orqali moturidiylikning bag‘rikenglik falsafasini dunyo miqyosida targ‘ib etish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abu Mansur Moturidiy. Kitob at-tavhid. – Samarqand: Imom Buxoriy xalqaro markazi nashriyoti, 2010. – 356 b.

2. Abul Yusr al-Pazdaviy. Usul ad-din. – Bayrut: Dar al-Kutub al-‘Ilmiyya, 2002. – 280 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.

ABU MANSUR AL-MOTURIDIY IJTIMOIY QARASHLARINING ILMIY TAHLILI

G'aniyev Elbek Abdizoitovich
Samarqand davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abu Mansur al-Moturidiy ijtimoiy-falsafiy qarashlari, xususan shaxs va davlat o'rtasidagi munosabatlar, adolat va jamoaviy iroda masalalari ilmiy tahlil qilingan. Mutafakkirning shaxsning erkin irodasi va tanlov imkoniyati haqidagi fikrlari, ularning jamoaviy manfaatlar bilan uyg'unligi nazariy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqotda Movarounnahr ijtimoiy-siyosiy muhiti, xalq turmush tarzi va mentaliteti bilan islom ta'limotining sintezi yoritilgan. Shuningdek, Moturidiy ta'limotining zamonaviy davrda fuqarolik jamiyati, ijtimoiy barqarorlik va yoshlarning ma'naviy tarbiyasidagi dolzarb ahamiyati ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Abu Mansur al-Moturidiy, ijtimoiy-falsafiy qarashlar, shaxs va davlat munosabatlari, jamoaviy iroda, adolat, Movarounnahr, ijtimoiy barqarorlik, hamjihatlik, ma'naviy tarbiya.

Kirish. Markaziy Osiyo mutafakkirlari ijtimoiy-falsafiy merosi butun Sharq tafakkurining yuksak cho'qqilaridan birini tashkil etadi. Ularning asarlarida insonning axloqiy sifatlarini rivojlantirish, jamiyatdagi birlik va hamjihatlikni ta'minlash, davlat hamda shaxs munosabatlarini uyg'unlashtirish masalalari muhim o'rin egallaydi. Sharq falsafasi an'analarida ayniqsa, adolat, ma'naviyat, ilm-fan va e'tiqod masalalari asosiy o'rinda turgan. Xususan, Abu Mansur al-Moturidiy o'zining ijtimoiy hamjihatlikka asoslangan konsepsiyasi bilan ajralib turadi. Uning qarashlari islom dini ta'limotlari, Mavorounnahr hududining ijtimoiy-siyosiy muhiti, xalq turmush tarzi va mentaliteti bilan uyg'unlashgan holda shakllangan. Shu bois Moturidiyning ijtimoiy qarashlari nafaqat diniy ta'limotlar yig'indisi, balki real hayotiy tajribaga asoslangan falsafiy konsepsiya sifatida ham baholanishi mumkin. Bugungi globallashuv sharoitida ham mutafakkirning qarashlari ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Abu Mansur al-Moturidiy qarashlarida shaxsning jamiyat va davlat oldidagi vazifalari alohida o'rin egallaydi. U insonda mavjud erkin iroda va tanlov imkoniyatini tan oladi, biroq bu imkoniyat jamoaga qarshi ishlatilmasligi kerakligini ta'kidlaydi. Moturidiy nazariyasiga ko'ra, shaxs davlat oldida mas'ul bo'lgani kabi, davlat ham shaxs oldida mas'uldir. Bu qarash o'sha davr nuqtayi nazaridan progressiv bo'lib, adolatli boshqaruv tamoyillarini asoslab bergan.

Mutafakkir ijtimoiy birdamlik va hamkorlikni jamiyat barqarorligining asosiy omili sifatida ko'radi. Uning fikricha, jamoaviy iroda shaxsiy iroda ustidan ustuvor

turadi. Chunki umumiy manfaatlar xususiy manfaatlardan muhimroqdir. Shu bois e'tiqod qiluvchi shaxs o'z irodasini jamoadan ustun qo'ymasligi kerak. Moturidiy ta'limotida bu yondashuv jamiyatdagi nizolarni yumshatish, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va adolatli tizimni shakllantirishga xizmat qilgan. Ayniqsa, xalq bilan davlat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashda bu g'oyalar asosiy tamoyil sifatida ilgari surilgan.

Moturidiy fikricha, adolat davlat boshqaruvining eng muhim tamoyilidir. Agar hokimlar va amaldorlar adolatli bo'lsalar, jamiyatda barqarorlik ta'minlanadi. Agar adolat zaiflashsa yoki kuch ishlatishga asoslangan boshqaruv kuchaysa, bu ijtimoiy parokandalikka olib keladi. Shu sababli mutafakkirning qarashlari davlat boshqaruvining insonparvarlikka asoslangan konsepsiyasi sifatida baholanishi mumkin.

Moturidiy ijtimoiy muvozanat nazariyasini ishlab chiqqan mutafakkir sifatida jamiyatdagi turli tabaqalar o'rtasida hamkorlik va kelishuvni zarur deb biladi. Bu qarashlari o'z davrining real ijtimoiy-siyosiy muhitidan kelib chiqqan bo'lib, ularning asosiy maqsadi jamiyat barqarorligini mustahkamlash edi. Mutafakkirning qarashlari nafaqat diniy mazmunga, balki umuminsoniy qadriyatlarga tayangan.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Abu Mansur al-Moturidiy qarashlarini o'rganishda nafaqat diniy manbalar, balki tarixiy, falsafiy va siyosiy yo'nalishdagi asarlar ham asosiy manba sifatida xizmat qilmoqda. Chunki mutafakkirning ijtimoiy-falsafiy konsepsiyasini faqatgina diniy nuqtayi nazardan baholash uni to'laqonli tushunish imkonini bermaydi. Shu bois tadqiqotchilar so'nggi yillarda Moturidiy merosini jamiyat barqarorligi, adolat tamoyillari, shaxs va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar kabi dolzarb masalalar bilan bog'liq holda tahlil qilmoqdalar. Masalan, Usmonov (2024) o'z ilmiy izlanishlarida Moturidiy g'oyalarini zamonaviy fuqarolik jamiyati tamoyillari bilan uyg'unlikda sharhlab, mutafakkirning demokratik qadriyatlar bilan hamohang jihatlarini ochib bergan. Shuningdek, Saidov (2023) esa Movarounnahr ijtimoiy-siyosiy hayotida islomiy ta'limotlarning o'rni va ta'sirini tahlil etar ekan, Moturidiy qarashlarini mintaqa xalqlari turmush tarziga uyg'unlashgan holda izohlaydi. Bu kabi yondashuvlar mutafakkir qarashlarining faqat tarixiy kontekstda emas, balki bugungi zamonaviy hayotiy jarayonlarda ham dolzarb ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Metodologik jihatdan mazkur tadqiqot bir qator ilmiy yondashuvlarga tayangan. Avvalo, tarixiy-taqqosiy tahlil usuli orqali Moturidiy qarashlari o'z davridagi siyosiy-ijtimoiy muhit, islom tafakkuri va Sharq falsafasi bilan solishtirildi. Shu orqali mutafakkirning qarashlarining o'ziga xos jihatlari va yangicha tafakkur namunasi sifatidagi o'rni aniqlashtirildi. Bundan tashqari, falsafiy umumlashtirish usuli yordamida uning adolat, erkin iroda, jamoaviy manfaat va shaxsiy mas'uliyat haqidagi g'oyalari keng qamrovli konseptual tizim sifatida tahlil

qilindi. Ijtimoiy konseptual yondashuv esa Moturidiy qarashlarini Movarounnahr xalqlarining tarixiy tajribasi, milliy mentaliteti va mintaqaviy xususiyatlari bilan bog‘lab o‘rganish imkonini berdi. Shu bilan birga, mutafakkir qarashlari zamonaviy ijtimoiy muammolar – globalizatsiya, ma'naviy qadriyatlarning saqlanishi, yoshlarning ma'naviy tarbiyasi masalalari bilan ham qiyosiy tahlil qilindi.

Mazkur metodologik yondashuvlar asosida olib borilgan tadqiqot Moturidiy ijtimoiy-falsafiy konsepsiyasining nafaqat diniy-falsafiy, balki ijtimoiy-siyosiy ahamiyatini ham to‘laqonli ochib berishga xizmat qiladi. Shu jihatdan qaraganda, mutafakkirning merosi bugungi kun ilm-fanida dolzarb ilmiy-tadqiqot mavzularidan biri bo‘lib qolmoqda.

Tahlil va natijalar. Moturidiy qarashlarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, uning konsepsiyasi nafaqat o‘z davri, balki bugungi kun uchun ham dolzarbdir. Shaxs va davlat o‘rtasidagi o‘zaro mas'uliyat, adolat va hamjihatlik tamoyillari zamonaviy fuqarolik jamiyati qurishda muhim o‘rin tutadi. Bugungi kunda inson huquqlari, erkinlik va majburiyatlarning uyg‘unligi masalasi global muhokama markazida turibdi. Moturidiy qarashlari bu jihatdan zamonaviy demokratiya tamoyillari bilan uyg‘unlik kasb etadi.

Shuningdek, jamoaviy irodaning ustuvorligi haqidagi fikrlar ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Uning qarashlari bugungi globallashuv sharoitida yoshlar ongida ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirish, ularni ekstremistik va radikal g‘oyalardan himoya qilishda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli Moturidiy qarashlari nafaqat tarixiy, balki dolzarb amaliy ahamiyatga ega.

Xulosa: Abu Mansur al-Moturidiy ijtimoiy-falsafiy merosi Movarounnahr xalqlari ijtimoiy hayotining barqarorligiga, islom dini ta'limotlarining mintaqada mustahkamlanishiga katta hissa qo‘shgan. Uning shaxs va davlat munosabatlariga oid qarashlari bugungi demokratik jamiyat qurish jarayonida ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Moturidiy tomonidan ilgari surilgan adolat, hamkorlik va jamoaviy irodaning ustuvorligi haqidagi g‘oyalar zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tafakkurda muhim o‘rin egallaydi. Shuningdek, bu qarashlar yoshlarning ma'naviy tarbiyasida, ularni sog‘lom dunyoqarash ruhida tarbiyalashda ham ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullaev, A. (2021). Moturidiy ta'limotida adolat va ijtimoiy hamjihatlik. Toshkent: O‘zMU nashriyoti.

2. Karimov, B. (2022). Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy qarashlari. Samarqand: SamDU matbaa.

3. Saidov, M. (2023). Movarounnahrda islomiy ta'limotlar va ularning ijtimoiy hayotga ta'siri. Journal of Islamic Studies, 5(2), 45-59.

4. Rahimova, N. (2020). Shaxs va jamiyat munosabatlari falsafasi. Toshkent: Akademnashr.

5. Usmonov, I. (2024). Abu Mansur al-Moturidiy merosi va uning zamonaviy talqini. Falsafa va Hayot, 8(1), 22-37.

6. Yusupov, H. (2019). Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy qarashlari. Buxoro: BuxDU nashriyoti.

7. Ganiyev E. Stages of development and impact on social life of an informed society in Uzbekistan //Western European Journal of Historical Events and Social Science. – 2024. – Т. 2. – №. 11. – С. 17-20.

8. Abdizoitovich G. Educational Problems In The Information Society //Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL). – 2025. – Т. 6. – №. 4. – С. 5-5.

9. G'aniyev E. YOSHLARDA AXLOQIY INQIROZ KUCHAYISHIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING ROLI //Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2025. – Т. 5. – №. 5. – С. 245-248.

10. Аллаярова М., Нурматова У. Некоторые вопросы формирования эстетического отношения человека к природе //Актуальные научные исследования в современном мире. – 2018. – №. 3-4. – С. 137-140.

11. Ризаев И. И., Муминова З. О. Профессиональная подготовка личности: оздоровление и духовное воспитание //Система менеджмента качества в вузе: здоровье, образованность, конкурентоспособность. – 2021. – С. 264-268.

12. Usmonov F. N. The Role of Scientific Ethics and Bioethics in Modern Society //Design Engineering. – 2021. – С. 8373-8379.

ABU MANSUR AL-MOTURIDIY: SAMARQANDDAN BOSHLANGAN ILMIY-MA'RIFIY MEROS

Sayfullayev Shohzod Shavkat o'g'li
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat univeristeti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abu Mansur al-Moturidiy ilmiy va ma'rifiy merosi keng qamrovda tahlil qilinadi. Unda moturidiylik ta'limotining shakllanish jarayoni, aql va naql uyg'unligi hamda sunniy islomdagi o'rni yoritiladi. Imom Moturidiy asarlarining aqida, fiqh va kalom ilmlaridagi ahamiyati, shuningdek, Markaziy Osiyo va musulmon dunyosi taraqqiyotiga ko'rsatgan ta'siri alohida baholanadi. Maqolada uning merosining bugungi kunda dolzarbligi va yosh avlod tarbiyasidagi o'rni ham ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Abu Mansur al-Moturidiy, Samarqand, Fiqh ilmi, Moturidiylik, Sunniy islom, Ahli sunna g'oyasi, Aql va naql, Hanafiya, Markaziy Osiyo

Samarqand buyuk muhaddis va mutafakkirlar yetishib chiqqan muqaddas diyorilaridan biri ekani hech kimga sir emas. IX-X asrlar islom ta'limotining

taraqqiyot davri bo‘lib, bu davrda islom ta’limotida yetuk allomalar ijod qilgan. Ulardan biri – Imom Moturidiy, u o‘zining aqidaviy qarashlari va ilmiy me’rosi bilan kalom ilmi rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan. Abu Mansur Moturidiyning to‘liq nomi Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud al-hanafiy al-Moturidiy as-Samarqandiy, tarixiy manbalarga qaraganda tug‘ilgan yili haqida turli xil ma’lumotlar berilgan. Masalan, uning Abbosiy xalifalardan Mutavakkil (hijriy 232-247 yillar) davrida yashaganligi aniq. Yana, Muhammad ibn Muqatil ar- Roziy (vafoti 248 hijriy yil)va Nasr ibn Yahyo al-Balxiy (vafoti 268 hijriy yil) kabi ustozlaridan saboq olganini nazarda tutilsa, al-Moturidiyning tug‘ilgan yilini 238 xijriy yil deb taxmin qilish mumkin. Lekin “Islom Qomusi” da uning tug‘ilgan yili 870-milodiy yil deb ko‘rsatilgan. Shunga ko‘ra, 2000-yilda al-Moturidiy tavalludining 1130 yiligi nishonlandi. Abu Mansur al- Moturidiy 333/944-vafot etgan. Moturidiy ulamolarining eng mashhurlaridan Abul-Muin Nasafiy (438-508h.y,942-1114 m.y) o‘zining “Tabsiratul-adilla” kitobida shunday yozadi: Abu Mansur al-Moturidiy vafot etganida yaqin shogirdlaridan biri Abul Qosim al-Xakim uning qabr toshiga quyidagi bitikni yozdirgan ekan: “Bu qabr nafaslari miqdoridagi ilmlarni o‘zida jam etgan,bor kuchini u ilimlarni tarqatish va o‘rgatish bilan tugatgan, bas, shuning uchun diniy asarlari maqtovga sazovor bo‘lgan va o‘z umridan serxosil mevalarni olishga erishgan zotning qabridir” [1, b.80].

Shayx Abu Mansur al-Moturidiyning qabri Samarqand shahrining Chokardiza qabristonida ekanligi ishonchli manbalar va ilmiy tadqiqotlar asosida tasdig‘ini topdi. Shunga binoan,2000-yilning may oyida O'zbekiston musulmonlari idorasi tomonidan bu xususida maxsus fatvo chiqarildi.

Butun umri davomida islom dini, aqidasi, falsafsi va fiqh ilmi bo‘yicha asarlar yozib qoldirgan. U “Imom Al-hudo” (“Hidoyat yo‘li imkoni”), “Imom al-mutakallimin” (“Mutakallimlar imomi”) deb ulug‘langan. Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, bu davrda yani islom dini kirib kelib, ravnaq topishni boshlagan paytida turli-tuman guruh va firqalar paydo bo‘lib,o‘zlarining tuzumiga mos ta’limotlarni da’vo qila boshlagan. Bu holat imon-e’tiqod borasida turli ixtiloflarni keltirib chiqargan. O‘sha davrda guruhlar orasidan to‘g‘ri ta’limotni aniqlash mushkul edi, shunday guruhlardan biri mu’taziliylar bo‘lib, ular aqidaviy masalalarni chuqur tahlil qilishda va sharhlashda naqliy dalillardan aqliy dalillarni ustun qo‘yishdi. Bu holat esa salaf hamda ahli hadis ulamolari orasida kalom ilmiga nisbatan tanqidiy fikrlarni paydo bo‘lishiga olib bordi. Mana shunday og‘ir va murakkab vaziyatda ulug‘ mutakallim Imom Moturidiydek allomalar yetishib chiqdi va vujudga kelgan muammoli vaziyatlarni bartaraf etishda o‘z hissalarini qo‘shdilar.Abu Mansur Moturidiy sunniy e’tiqodidagi ikki yirik ta’limotlardan biri bo‘lmish Moturidiya ta’limotining asoschilaridan hisoblanadi.Abu Mansur al-Moturidiy Samarqandning o‘zidan ham, uning atrofidagi turli mazhab vakillari bilan olib borgan bahslarida ham

muvaffaqiyat qozongan. U karramiylar, shialar va mo'taziliylar bilan munozaralarga kirishib, o'z asarlaridan birini ularning qarashlarini inkor etishga bag'ishlagan.Imom Moturidiy Ahli sunna val-jamoa ta'limotiga asos solib, inson aqli va vahiy orasidagi muvozanatni saqlash, islomiy aqidani himoya qilish va ilm-ma'rifatni keng yoyish borasida beqiyos xizmat qilgan.

Al-Moturidiy fiqh va kalom masalalari bilan qiziqib, Hanafiya mazhabi olimlaridan dars olib o'z bilimini oshiradi va tafsir, fiqh va aqoid kabi ilmlarning turli yo'nalishlari bo'yicha asarlar yozgan.Uning dastlabki asarlaridan biri, tafsiri fiqh yo'nalishi bo'yicha "Ta'vilotu ahli sunna"dir. Shuningdek, usul ul-fiqh yo'nalishida "Ma'xozush sharoi" ("Shar'iy hukmlar manbai") va "Jadal" ("Ilmiy bahslar") nomli kitoblar ham yozgan. Oradan vaqt o'tgandan so'ng,Imom Moturidiy Qur'on tafsiriga bag'ishlangan "Ta'vilot al-Qur'on" asari va uning davomi hisoblanmish "Irshad al-mubtadiyin fiy tajvidi Kalami Robbil'alamin" ("Qur'on o'qishga kirishganlar uchun qo'llanma") kitobidir.

Mahmud ibn Sulaymon al-Kafaviyning (vafoti 1582-yil) "Katoib ul-a'lom al-axyor fi taboqot va mashaoyix Mazahab an-Nu'mon" ("Nu'mon mazhabiga mansub bo'lgan taniqli alloma faqihlar va shayxlar haqidagi kitob") nomli kitobida al-Moturidiy va uning asarlari haqida ayrim ma'lumotlar beriladi. Masalan, quyidagi asarlari nomlari keltirilgan: "Kitab at-Tavhid" ("Tavhid kitobi"), "Kitab Maqomat", "Kitab rad avomil lil adila lil kabiy" ("Ka'biy zalolatlarining boshlanishini rad qilishga bag'ishlangan Kitob"), "Kitab bayon va hum ul-mu'tazila" ("Mu'tazila g'avg'olari va undan qo'rqmaslik haqidagi kitob bayoni"), "Kitab Ta'vilot al-Qur'on" ("Qur'on ta'vili Kitobi").

Lekin Hoji Xalifaning (1609–1659) "Kashf az-zunun an-asomil kutub va-l Funun" ("Kitob va fanlar nomlari haqidagi shubhalarni bartaraf etish kitobi") kitobida e'tirof etilishicha, yana Abu Mansur al-Moturidiyning "Ma hazi ash-Shari'a" ("Shariat asoslari sarasi"), "Kitab al-jadal" ("Dialektika haqida kitob") kabi asarlari ham bo'lgan. Bulardan tashqari al-Moturidiyning "Kitab al-usul" ("Diniy-Ta'limot usuli kitobi") asari ham ma'lum [5].

Imom Moturidiy islom olamining e'tiborli, salohiyatli allomalari safida har doim hurmat bilan tilga olinishi bejiz emas. To'g'ri yo'lga va hidoyatga olib boruvchi olim yashagan davrida yuzaga kelgan ko'plab buzg'unchi firqalar turli xil g'oyalarni ilgari surib, insonlarni yo'ldan adashtirar, boshqa soxta ilohiyotga sig'inishga undar edi. Bu esa islom falsafasi va aqidasining insonlar orasida turlicha tushunishga olib borar va noxushliklarga sabab bo'lar edi. Imom Moturidiy har bir buzilgan va adashgan oqimlarga qarshi mardonavar va dadil kurash olib bordi. Buzg'unchi g'oyalarni va oqim yetakchilarini to'g'ridan-to'g'ri tanqid qildi, ularning har biriga asoslanga raddiyalar berishga kuch va jasorat topdi. Imom Moturidiy aqidasi, insonlarni eng mustahkam poydevor uzra birlashtirishga bor

kuch-g‘ayrati, salohiyati va ilmi bilan to‘g‘ri yo‘l ko‘rsata olgan. Imom Moturidiy ilmi ham o‘z davri, ham kelajak uchun mukammal va mustahkam poydevorini bunyod etdi. Uning kitoblari, asarlari, o‘gitlari asrlarga tatiydigan manba bo‘lib qoldi.

Yurtimiz mustaqilligi sharofati bilan milliy-diniy qadriyatlarimizning tiklanishi va uzoq o‘tmishda yashab o‘zlarining sermahsul ijodlari bilan islom dinining turli sohalariga bag‘ishlab ko‘plab asarlar yozib qoldirgan allomalarimizning hayotlari va boy ilmiy meroslarini har tomonlama chuqur o‘rganish eng dolzarb masalalardan biriga aylandi. Binobarin, buyuk allomalarimiz hayoti va ularning boy ma’naviy meroslarini o‘rganib tadqiq qilishda mamlakatimiz olimlari tomonidan talay ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda.

Arab yoki g‘arb yozuvchilaridan ko'plari moturidiya haqida yozgan. Bunga Shayx Moturidiy va uning ilmi kalomga oid fikrlari to‘g‘risida kattagina bir kitob yozgan arab olimi Doktor Ali Abdulfattoh al-Mag‘ribiyni, Abu Mansur qalamiga mansub «at-Tavhid» kitobini tahqiq etib, nashrga tayyorlagan olim Doktor Fathulloh Xulayf va nemis olimi Ulrix Rudolfni misol qilib keltirsa bo‘ladi. Ular shayx Abu Mansur Moturidiy va uning merosini xolisona baholaganlar [6]. Abu Mansur al-Moturidiyning ilmiy-ma’naviy merosini mamlakatimizda, asosan istiqlol yillaridagina o‘rganish imkoniyati vujudga keldi. Bungacha bo‘lgan davrda ahli-sunna g‘oyasi, xususan, moturidiyya ta’limoti, musulmon madaniyati, aqida tizimi va usulini bir qator rus va xorijiy sharqshunoslar, xususan V.V.Bartold, A.E.Shmidt, I.P.Petrushevskiy, so‘nggi yillardagi tadqiqotchilardan U. Rudolf, Talip Özdeş, Sönmez Kutlu kabilar tomonidan o‘rganilgan.Moturidiyning ilmiy merosi – arab dunyosida asosan ash’ariya ta’limoti keng o‘rganilishi sababli, arab olimlari tomonidan nisbatan kam o‘rganilgan.Aynan Moturidiyning tafsiri tadqiqoti bilan shug‘ullangan olimlardan Fotima Yusuf al-Xaymiy va Majdiy Basallum kabilarni keltirish mumkin.

A.Mansurov, U.Alimov, U.Uvatov, Sh.Ziyodov, S.Oqilov kabilarning tadqiqotlarida Abu Mansur Moturidiyning shaxsiyati, uning kalom sohasidagi faoliyati, o‘ziga xos uslub va manbalari, u yashagan davr mohiyati, ahli sunna val-jamoaning aqidaviy qarashlariga oid salmoqli ilmiy xulosalarni uchratish mumkin. Abu Mansur Moturidiyning ijodi bilan bog‘liq ayrim xorijiy tadqiqotchilarning izlanishlari o‘zbek tiliga o‘girildi. Shuningdek, ko‘plab xorijiy davlatlar kutubxonalarida saqlanayotgan allomaning asarlari nusxalari, ular haqidagi tadqiqotlar va ishlanmalar mahalliy tadqiqotchilari tomonidan mamlakatimizga olib kelinmoqda va o‘rganilmoqda. Bu borada 2002-yilda ilohiyot fanlari doktori, nemis prfessori Ulrix Rudolfning “Al-Moturidiy va Samarqand sunniylik ilohiyoti” nomli ishlanmasining qisqartilgan va to‘liq shaklining nashr qilinishi muhim voqea bo‘ldi.

Biroq mamlakatimizda bugungi kunga qadar asha'riya ta'limoti kompleks tarzda tadqiq etilmagan.

Imom Moturidiy islom ta'limotining poydevori sifatida nafaqat aqida sohasida, balki butun islom falsafasi va diniy tafakkurida muhim o'rin egallagan. O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.Karimov tashabbusi bilan Samarqand shahrida Imom Moturidiy xotirasiga bag'ishlab ilmiy yodgorlik tashkil qilindi. Toshkent va Samarqandda Moturidiy ta'limoti va uning islom olamidagi tutgan roli boyicha xalqaro ilmiy anjumanlar tashkil qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Buyuk allomalar: X.S.Karomatov, Z.Xusniddinov, A.Mansurov va boshqalar.; Mas'ul muharrir: Z.Islomov.-T.: "Toshkent islom universiteti", 2002.-80 b.
2. https://sammuslim.uz/
3. https://bilimlar.uz/
4. https://uz.wikipedia.org/
5. Al-Moturidiy ta'limoti va uning Sharq xalqlari madaniyatidagi o'rni. Ma'ruzalar to'plami, T., 2000
6. Артиков М. А. Просвещённий ислам – духовная основаэдинения /materials/rmforum/3/teo_artikov.htm |date=20160305015113 }} ID „Medina"
7. Karimov I. A., Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz Imom Moturidiy tavalludining 1130-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlangan nutq, 9-j, T., 2001
8. Ziyodov Sh., Al-Moturidiy hayoti va merosi, T., 2000.
9. Kattayev K., Imom al-Moturidiy va Chokardiza, Samarqand, 2000;
10. Uvatov U., Imom al-Moturidiy va uning ta'limoti, T., 2000.

IX-X ASRLARDA ILMIY-MA'NAVIY MUHIT VA IMOM MOTURIDIYNING TA'LIMOTI

Qodirova Muniba Iqbol qizi
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi Tarix(islom tarixi va manbashunosligi) yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Movarounnahr, Xuroson va Arab xalifaligida IX-X asrlarda ilmiy-ma'naviy va diniy muhit haqida ma'lumotlar keltiriladi. Shuningdek, Movarounnahrda IX asrga kelib islom ilmlarining rivoji, shaharlar va Somoniylar davridagi ijtimoiy muhit haqida ham ma'lumotlar beriladi. Imom Moturidiyning kalom ilmiga qo'shgan hissasi va Moturidiylik ta'limotining o'lkada keng yoyilishi haqida ham aytib o'tiladi.

Kalit so‘zlar: kalom, fiqh, moturidiylik, taqdir, tavhid, mu’taziliy, rofiziylar, karmatiylar, hadis, tafsir, so‘z, qalb.

Ma’lumki xalifa Ma’mun davrida (813– 838) Bag‘dodda ilm-fan, madaniyat tez sur’atlar bilan rivojlanganligi qadimgi yunon ilmlari keng miqyosda o‘rganilib, yunon asarlari ko‘plab tarjima etildi, ayniqsa tabiiy fanlar, falsafa ilmlari sohasida katta yutuqlar qo‘lga kiritildi. Ilm-fanning ta’siri ostida islomda turli oqimlar, talqinlar kuchaydi, xususan, tafakkurni tabiiy ilm va dunyoviy falsafaga yo‘llovchi mutaziliya davlat mafkurasi darajasiga ko‘tarildi. Bu davr G‘arb sharqshunoslik adabiyotida “Arab Renessansi” sifatida o‘z talqinini topdi. X asrlardan boshlab xalifalikda diniy ilmlar, an’anaviy oqimlar kuchaydi. X–XII asrlarga kelib Markaziy Osiyoda mustaqil davlatlarning ustunlikka erishuvi, xalifalik ta’siridan qutilish bu erda ilmiy-madaniy rivojlanish, turli noan’anaviy islomiy oqimlar ismoiliya, mu’taziliya, karmatlar harakatlari, tasavvuf kabilarning ham yoyilishiga imkon yaratdi. Ilmiy-madaniy yuksalish Bag‘doddan Movarounnahr, Xuroson yerlariga ko‘chdi, bu davr turli ilm, adabiyot sohasida buyuk siymolarni etishtirdi. Bu madaniy to‘lqin Movarounnahrni butun islom dunyosida ilmiy-madaniy markaz sifatida nom qozonishiga olib keldi. Bu davrni Markaziy Osiyo Uyg‘onish davri – Renessansi deb, aniqrog‘i, bu Renessansning ilk davri deb atamoq mumkin [1, b.228].

IX asrning ikkinchi yarmida Movarounnahrning madaniy hayotida yangi davr boshlanadi. Xalifalik hukmronligi tugab, mustaqil Somoniylar davlatining qaror topishi bilan madaniy hayotning jonlanishi uchun keng yo‘l ochiladi. Buxoro, Samarqand, Urganch, Marv va Nishopur kabi shaharlar ilmiy va madaniy markaz sifatida taraqqiy qila boshlaydi. Bu davrda qishloq aholisining aksariyati sug‘diy yoki xorazmiycha so‘zlashsa-da, markaziy shaharlarda forsiy dariy deb yuritilgan xalqning adabiy tili vujudga keladi. Bu til davlat tili sifatida qabul qilinadi. Dariyda nazm, nasr va ilmiy asarlar yozila boshlaydi. Bu davrda dariy tilida yozilgan nasriy asarlarning ayrim nusxalari bizgacha saqlanib qolgan. Abu Mansurning nasriy “Shohnoma”siga yozilgan muqaddima, noma’lum muallifning “Hudud al-olam” nomli asari hamda Abu Ja’far Tabariyning “Tarixi Tabariy”, “Qur’oni Karim”ning 14 jildli “Tafsiri”ning arabchadan dariy tiliga tarjimalari shular jumlasidandir.

IX-X asrlarda ayniqsa Buxoro shahri madaniy jihatdan yuksaladi. Poytaxtda amir saroyida turli sohalarga oid qo‘lyozma kitoblar saqlanadigan kattagina kutub-xona barpo etiladi. Somoniy amirlarning aksariyati adabiyot, she’riyat, ilm-fan, san’at va me’morchilikka homiylik qiladilar. Islom dini ta’limotining ravnaqi va targ‘ibotining kengayishida ayniqsa Buxoro shahri markazga aylanadi. Buxoro madrasalaridan juda ko‘p yetuk fiqhshunos olimlar, odil qozilar, zohid imomlar yetishib chiqadi. Shu boisdan Buxoro IX asrdan boshlab “Qubbat ul-Islom” nomi

bilan shuhrat topadi. Buxoro aholisining ilmli bo‘lishida, Buxoroda ilm keng tarqalishida, imom va ulamolarning hurmatli bo‘lishida Abu Hafs Kabir Buxoriy ismli mashhur fiqhshunos olimning xizmati nihoyatda katta bo‘lgan. Narshaxiyning yozishicha, shu olimning sharofati tufayli Buxoro “Qubbat ul-Islom”, ya’ni “Islom dinining gumbazi” deb atalgan [2, b.230].

Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad al-Hanafiy as-Samarqandiy al-Moturidiy – Islom dinining nazariy (usul ad-din), fiqh asoslari va manbalarini o‘rganadigan (ilm usul al-fiqh,) sohasi bo‘yicha hanafiya mazhabining yirik faqihi (qonunshunosi), kalom ilmida yangi bir yo‘nalish maktab yaratgan yirik alloma. Samarqand yaqinidagi Moturud mahallasida tug‘ilgan. Samarqandda hanafiya mazhabi qonunshunoslaridan fiqh ilmini o‘rgandi. Samarqandda yashagan olim Muhammad ibn Fazlning shogirdi bo‘lgan.

Moturidiyning kalom sohasida ixtiro etgan ta’limoti keyinchalik “Moturidiya” nomi bilan shuhrat qozonib, musulmonlar orasida Movarounnahrda keng tarqaldi. Uning asarlarida qarmatiylar, ravofiziylar va mu’taziliylar ta’limotlari rad etiladi.

O‘z asarlarida kalomning bir qancha masalalarini Allohga xos alomatlar (ilm, kuch-qudrat kabilar) haqqoniyligi, mavjudligi haqidagi ash’ariya ta’limoti tushunchalari asosida hal etdi. Lekin ash’ariylardan farqli o‘laroq, Moturidiy va uning izdoshlari nafaqat Allohga xos alomatlarning azaliyligini tan oldilar, balki inson qilmishi, xatti-harakatini ham e’tirof etdilar. Mu’taziliylarga ergashgan holda insonda xohish-ixtiyor mavjudligini, unda ikkita qarama-qarshilik (al-istitoa li-z-zid-dayn) dan birini tanlab olish qobiliyatiga ega ekanligini qayd etdilar. Ular iymonni, Allohni so‘z va qalb bilan tanishdan iborat ekanligi, uni qandaydir xatti-harakat, diniy rasm-rusum va shunga o‘xshashlar bilan bog‘lamaslik lozimligini ta’kidladilar [3, b.384]. Shuningdek, Moturidiy “Ta’vilot” kitobida Tangrini ya’ni Allohni bilishning ikki yo‘li haqida gapiradi: 1. Tangrini uning yaratilganlari orqali bilish mumkin. Chunki har bir yaratilgani ijod qilganda, ilmiga, yagonaligiga va yaratilgani shunchaki emas, balki muayyan maqsad bilan yaratganiga ishora qiluvchi alomatlar qoldirgan. 2. Vahiy orqali bilish mumkin. Birinchi mulohaza har bir musulmon olimiga xos. Zero, Allohni shu tarzda bilish yo‘li Qur’oni Karimda aytib qo‘yilgan. Bahslarga sabab bo‘lgan muammo boshqa narsada. Olam Alloh tomonidan yaratilganligiga ishoralar shuncha ko‘p ekan, inson qanday tarzda ularni anglab oladi? Bu masalada insonga Allohning yordami qanchalik zarur? Sezgan bo‘lsak, bu yerda gap mantiqiy fikrlashga ruxsat bormi, yo‘qmi, shu ustida ketmoqda. Moturidiy davrida ham bu masala dolzarbligini yo‘qotmagan.

Mu’taziliylar Allohni bilishda mantiqiy tafakkurning ustuvorligi g‘oyasini himoya qilgan bo‘lsalar, Ash’ariychilar inson tafakkurining shakllanishida vahiyning alohida ahamiyati borligiga e’tibor qaratdilar. Ash’ariy Qur’oni Karimda

Allohni bilishga olib keladigan isbot talab qilmas dalillar borligi, va shu ma'noda, Allohni tanishda insonga vahiy yordami kerakligini ta'kidladi. Moturidiy esa olamni aqliy-mantiqiy yondashish ham, vahiy orqali ham anglash mumkinligini, har ikkalasi bir-birini to'ldirgan holda Allohni bilishga xizmat qilishiga urg'u berdi. Uningcha, mantiqiy tafakkur ezgulik va yovuzlikni farqlash, Yaratuvchining mavjudligini isbotlab berishga qodir. Albatta, Vahiy Allohning borligini bevosita isbotlovchi hujjatdir. Ammo vahiy yordamisiz ham Allohni aql bilan bilish mumkin. Moturidiy bu bilan har bir inson Allohning borligi va yagonaligini tabiiy yo'l bilan bilishi mumkinligini nazarda tutadi. Biroq buni mu'taziliylarga yon berish deb tushunmaslik kerak. Bu masalada Moturidiy hanafiylarning an'analariga suyangan holda fikr yuritadi. Hanafiylar hamisha Allohni tabiiy yo'llar bilan bilishga chaqirganlar.

Moturidiyning kalom ilmi rivojidagi o'rnini belgilar ekanmiz, shuni alohida ta'kidlash zarurki, u o'zidan oldingi kalom ilmi natijalarini xulosalagan va mavjud turli ta'limotlardan sintez yo'li bilan yangi nazariyani ishlab chiqqan buyuk ilohiyot olimidir. Moturidiy ilmiy merosini chuqur o'rgangan olmon olimi Rudolf Ulrix uni kalom ilmining eng yuksak namoyondasi, degan qarorga kelgan. Uning yozishicha, Moturidiy Movarounnahrdagi ilohiyotshunoslik taraqqiyotida burilish nuqtasini belgilab berdi. Moturidiy usha davrlarda hanafiylarga qarshi chiqqan mu'tazila maktabining namoyandalari bilan kurashibgina qolmay, Movarounnahrda hanuz ta'sirini yo'qotmagan zardushtiylik, moniylik dinidagi dualistik qarashlarning noto'g'ri ekanligini ishonarli tarzda isbotlab berdi va bu mintaqada islomning yagona e'tiqod manbasiga aylanishiga xizmat qildi.

Xulosa o'rnida, bizning buyuk vatandoshimiz Muhammad Moturidiy o'z salaflari Imom Buxoriy, Imom Termiziylar yo'lini tutib, sof Islom va uning hanafiya mazhabini yoqladi va himoya qildi, islomga va uning qonun-qoidalariga zid ta'limotlarga qarshi kurashdi. Uning ta'limoti nafaqat Movarounnahrda balki Hindiston va Turkiyada keng tarqalgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Jumayeva, N.A. Sharq allomalarining ilmiy merosi. O'quv qo'llanma. Buxoro: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2020. – B. 228.

2. A.R.Muhammadjonov. O'zbekiston tarixi (IV asrdan XVI asr boshlarigacha). Toshkent: "G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi", 2004. –B. 320.

3. Hoji Ismatulloh Abdulloh. Markaziy Osiyoda islom madaniyati. Toshkent: "Sharq" nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2005. –B. 384.

4. Sh. Sirojiddinov. Islom falsafasiga kirish: Kalom ilmi: o'quv qo'llanma. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - Toshkent: "Iqtisod-Moliya", 2008. –B. 132.

ABU MANSUR AL-MOTURIDIY HAYOTI VA FAOLIYATI

O'ralov Rafiq
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya. Mazkur matnda IX–X asrlarda yashab o'tgan buyuk mutafakkir, ilohiyotshunos va kalom ilmining asoschilaridan biri - **Abu Mansur al-Moturidiy** hayoti, ilmiy faoliyati va uning islom olamidagi o'rni haqida batafsil ma'lumot berilgan. U Samarqandning Moturid mahallasida tavallud topgan bo'lib, ilm olishni dastlab otasidan, keyinchalik esa Raboti G'oziyon madrasasida davom ettirgan. Alloma kalom, tafsir va fiqh sohalarida chuqur ilm egallab, o'z ta'limotini rivojlantirgan va "Moturidiylik" diniy-falsafiy yo'nalishiga asos solgan. Uning mashhur "**Kitob at-Tavhid**" va "**Ta'vilot ahl as-Sunna**" asarlari bugungi kungacha islom ilohiyoti sohasida muhim manba sifatida e'tirof etilmoqda. Matnda shuningdek, allomaning ustoz va shogirdlari, uning asarlarining saqlanishi va nashri hamda O'zbekiston mustaqillikka erishgach, unga ko'rsatilgan e'tibor – maqbara qurilishi, xalqaro ilmiy markaz tashkil etilgani haqida ham so'z boradi. Annotatsiyada Abu Mansur al-Moturidiy ilmiy merosini chuqur o'rganish va uni targ'ib qilish bugungi yoshlar zimmasidagi muhim vazifa ekanligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Abu Mansur al-Moturidiy, Moturidiylik, islam ilohiyoti, kalom ilmi, Kitob at-Tavhid, tafsir, fiqh, Samarqand, Movarounnahr, islomshunoslik, xalqaro ilmiy markaz, Islom dini.

Tarix zarvaraqlaridan ma'lumki yurtimizdan (Birinchi Renessans davrida IX-XII asrlarda) bir guruh olim-u ulamolar yetishib chiqqan.Shu davrda yashab o'tgan alloma, kalom ilmining asoschilaridan biri, Abu Mansur al-Moturidiy hazratlari alohida o'rin egallaydi. Islom dini va uning qoidalari bilan o'z xalqini to'g'ri yo'lga boshlagan allomalardan biri hisoblangan. Hozirgacha buyuk alloma yaratgan asarlardan butun islom dunyosida asosiy manba sifatida foydalanib kelinmoqda. Arab xalifaligi va Somoniylar davrida faoliyat ko'rsatgan alloma islom dini ravnaqi yo'lida o'zidan keyingi avlod uchun bir qancha asarlarni meros qoldirgan. Movarounnahr(Samarqand)lik alloma faoliyatini chuqurroq o'rganish, ayniqsa, O'zbekiston respublikasi mustaqillikka erishgach, hurmat bilan alohida e'tibor qaratilmoqda. Allomaning to'liq ismi Muhammad ibn Mahmud Abu Mansur al-Moturidiy as-Samarqandiy bo'lib, Samarqandning Moturid (ba'zi manbalarda Moturit) deb ataladigan mahallasida 870-yilda tug'ilib, faoliyat ko'rsatgan.Alloma 944-yilda ya'ni (74-yoshda) vafot etgan va uni Samarqandning mashhur Chokardiza qabristonida dafn etilgani tarixiy manbalarda aniq ko'rsatilgan [1].

Imom al-Moturidiy dastlabki ma'lumotni otasi Muhammad ibn Muhammaddan, so'ngra o'sha davrda boshlang'ich maktab hajmida bilim beruvchi Kuttobda olgan.Undan keyin Samarqanddagi Raboti G'oziyon masjidi qoshidagi madrasada tahsil olganligi haqidagi ma'lumotlarni ko'rishimiz mumkin.Islom dunyosidagi yetuk va zabardast din peshvosi, alloma Imom al-Moturidiyning ustozlari va shogirdlari ko'p bo'lgan. Ilohiyot ilmlarida o'z davrining yetuk allomasi bo'lib yetishib chiqishiga ustozlarining ham hissasi katta hisoblanadi.Abu Mansur al-Moturidiyning ustozlari jumlasidan taniqli olimlar Abu Nasr Ahmad ibn al-Abbos ibn al-Husayn al-Uyodiy, Abu Bakr Ahmad al-Juzjoniy, Husayn ibn Yahyo al-Balxiy, Muhammad Muqotil ar-Roziylarni ko'rishimiz mumkin. Shu davrda yashab, Imom al-Moturidiydan «Motrudiylik'' ta'limoti asosida ilm olgan shogirdlari va izdoshlaridan Abu Is'hoq ibn Muhammad ibn Ismoil, Abu-l-Hasan Ali ibn Sayyid ar-Rastag'foniy, Abu Muhammad Abu-l-Karim ibn Muso-al Pazdaviy Abu-l-Muin an-Nasafiy, As-Safar al-Buxoriy, As-Sabuniy al-Buxoriy, Umar al-Hanafiylarni ko'rsatishimiz mumkin [2]. Abu Mansur al-Moturidiy «Motrudiylik'' diniy ta'limoti asoschisi hisoblanib, uchta yo'nalishda (Kalom,tafsir va fiqh) ta'limotlari bo'yicha o'n beshga yaqin asarlarni yozib qoldirgan.Moturidiyning butunjahon e'tirof etgan asarlaridan «Kitob al-tavhid» (Yakkaxudolik haqidagi kitob), «Tavilot ahl as-Sunna'' (Sunniylik an'analari sharhi) mashhur bo'lib, aynan «Kitob al-tavhid» haligacha bilish nazariyasi bayon qilingan musulmon ilohiyotining birinchi o'rindagi asarlaridan hisoblanadi.

Islom dunyosi ta'lim maskanlarida bu kitob hozirgacha o'quv qo'llanma sifatida o'rgatilib kelinmoqda. Xorijlik olimlar tomonidan ham Abu Mansur al-Moturidiy hayot va faoliyati bo'yicha o'rganish ishlari olib borilmoqda.Abu Mansur al-Moturidiyning mashhur asarlaridan biri «Kitob al-tavhid» asarining yagona qo'lyozma nusxasi 1950-yillarda topilgan. Hozirda ushbu qo'lyozma Buyuk Britaniyaning Kembrij universiteti kutubxonasida saqlanmoqda. Qo'lyozmaning faksimile nusxasi Belarusda 2019-yilda ilmiy maqsadda yosh izlanuvchan islomshunos olim Minsk masjidi imomi Maqsat hazrat Ovezovning tashabbusi bilan nashrdan chiqqan. Muftiyning ilmiy tadqiqot departamenti 2018-yildan buyon faoliyat yuritib, islom diniga oid manbalarni belarus tilida chop etishga bosh-qosh bo'lib kelmoqda.O'zbekiston respublikasi mustaqillikka erishgach, Abu Mansur al-Moturidiy faoliyati va ilmiy merosini o'rganish ishlari boshlab yuborilgan [3].

Birinchi prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan 2000-yilda allomaning 1130-yilligi keng nishonlangan, imom qabri ustida yangi maqbara barpo etildi.Alloma Xotirasini abadiylashtirish bo'yicha bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilgan. O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida «Imom Moturidiy xalqaro ilmiy tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida» 2020-yil 11-avgustdagi PQ-4802 son qaror qabul qilingan va ushbu qaror ijrosini

ta'minlash Vazirlar Mahkamasi zimmasiga yuklatilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, barcha amaliy ishlar allomaga ko'rsatilayotgan alohida e'tibor va hurmat timsoli hisoblanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda buyuk bobokalonimiz, mashhur islom olimi Abu Mansur al-Moturidiy o'zining o'chmas ilmiy merosi bilan islom dini ta'limotlariga beqiyos hissa qo'shgan. U nafaqat o'z davrida, balki keyingi asrlar davomida butun musulmon olamida katta hurmat va e'tirofga sazovor bo'lgan. Abu Mansur al-Moturidiy kabi ulug' ajdodlarimizning bebaho ilmiy merosini chuqur o'rganish va targ'ib qilish biz yoshlar uchun nafaqat ilmiy majburiyat, balki milliy g'urur va ma'naviy farz hisoblanadi.Islomshunos olimlar va dunyo ilmiy doiralari tomonidan Abu Mansur al-Moturidiy merosi alohida e'tirof etilgan, uning ilmiy ta'limoti o'zgacha uslub va chuqur mazmunga ega ekanligi yuqori baholangan. U yaratgan kalom, tafsir va fiqhga oid asarlar nafaqat o'z vaqtida, balki hozirgi kunda ham islomiy ilohiyotning asosiy manbalari sifatida o'rganilmoqda va dunyo islom ilm-fani taraqqiyotiga katta hissa qo'shmoqda. Abu Mansur al-Moturidiy kabi ulug' allomalarimiz borligi bizning tariximizga va ma'naviy boyligimizga bo'lgan munosabatimizni yanada mustahkamlaydi. Shuning uchun ham uning ilmiy merosini chuqur o'rganish va keng targ'ib qilish, yosh avlodga yetkazish bizning asosiy vazifamizdir. Bu nafaqat bizning ilmiy rivojlanishimiz uchun, balki milliy o'zlikni anglash va diniy qadriyatlarni mustahkamlash uchun ham muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Уватов, У. (2014). Юртимиз алломалари. Тошкент: Нихол.Уватов,
2. У. (2018). Буюк юрт алломалари. Тошкент.
3. Нармонов, Ф. (2022). Шарқ алломалари илмий мероси: ўқув қўлланма. Тошкент: Тамаддун.
4. http://lex.uz//uz/docs/-5084643

АБУ МАНСУР МУҲАММАД ИБН МУҲАММАД ИБН МАҲМУД АЛ-ҲАНАФИЙ АС-САМАРҚАНДИЙ

Ўроқов Салохиддин
Шароф Рашидов Номидаги Самарқанд давлат университети тарих факулитети талабаси

Абу Мансур Мотрудий Самарқанднинг Мотруд қишлоғида 870 йилда туғилган. (хозирги Жомбой тумани).

Абу Мансур Мотрудий суннийлик эътиқодидаги йирик икки таьлимотдан бирини асосчиси ҳисобланади.

Фиқҳ олими калом (илоҳийотшунослик) илмининг Мотрудия мактаби

пойдеворини қўйган шахс сифатида бизга маьлум ва машхур.

Абу Мансур Мотрудий ҳайоти ва ижодини ўрганар эканмиз унинг аҳли сунна вал жамоанинг ақидавий йўналишида қолдириб кетган илмий мероси мусулмонлар жамоасини соф ақида билан Исломда умр гузаронлик қилишлари учун тамал тоши қўйиб кетган шахс сифатида ёдга оламиз. Мотрудий хаёти ва ижоди билан танишмоқчи бўлган ҳар бир инсон аввалambор аҳли сунна вал жамоа ҳақида тасаввурга эга бўлиши керак.

Аҳли сунна вал жамоа: Суннат йўлини маҳкам ушлаган мусулмонларнинг катта қисми деб эътироф қилинади [4].

Ислом сарҳадлари кенгая бошлагач, ислом фирқаларга бўлина бошлади ва уммати Муҳаммадия етмиш уч тоифага ажралди. Бу буюк тўрт халифа замонидан токи имоми Мотрудий замонигача бир нечта фирқа ва оқимлар вужудга келиб, ислом уммати ўртасида тафриқалар солиш ва рухий хаётларини фитна-фасод билан тўлдиришга ҳаракат қилишди [1].

Тарихга назар солган ҳолда бу жамоатлардан баьзиларини эслаб ўтсак Кадария, мурьжия ,хавориж, шиа, мўьтазила, рофиза ва шу каби фирқаларга ажралиб, улар орасида адоват ва низо келиб чиқа бошлади.

Имом Мотрудий шу вақтларда кўплаб машхур фақиҳлар, мухаддислар билан мулоқотда бўлган ва аҳли сунна вал жамоага қарши чиққан уламоларга раддиялар берган.

Бунга мисол қуйидагилардир: Абу Махмуд Боқилий Мўьтазилийнинг "Усулул хомса" (бешта асос) номли китобига "Родду усулил хомса"(бешта асос китобига раддия) китобини ёзди [2].

Абу Мансур Мотрудий таьлимоти ислом дунёсида муҳим ўрин эгаллаган, "Ақида" ва "Калом" илми орқали устозлар силсиласи Пайғамбаримиз С.А.Вга етиб боради.

Абу Мансур Мотрудий -"Мотрудия ақидаси имоми" унинг илмдаги санади Имоми Абу Ханифага бир неча томондан бориб туташади. У киши Абу Бакир Ахмад Жузжонийдан, у Абу Сулаймон Мусо ибни Сулаймон Жузжонийдан, у имоми Абу Юсуф ва имоми Абу Муҳаммаддан, улар эса Абу Ханифадан таьлим олган. Яна бир санадга кўра, имоми Мотрудий билан имоми Абу Ханифа ўртасида иккита одам бор. У киши Нусайб ибни Яхё Балхийдан, у Абу Муьқотил Самарқандий ва Абу Муьтил Балхийдан, улар Абу Ханифадан таьлим олган. Абу Ханифа эса илмни Хаммод ибни Сулаймондан, у буюк тобеин Иброхим Нахаийдан, у Алқамадан, у Ибни Маьсуд, Али ибни абу Толиб, ва Умар ибни Хаттобдан ва бошқа сахобалардан илм олган сахобалар еса Пайғамбаримиз Мухаммад Мустафо С.А.Вдан илм олган. Юқорида таъкидланганидек, Абу Мансур Мотрудийни илмдаги санади Пайғамбаримиз Мухаммад Мустафо С.А.Вга етиб борди. Минг

йиллардан буён ахли сунна вал жамоа мадрасалари деб юритиладиган "Ақида" ва "Калом" эътиқод мактаблари икки буюк имомидан бири бўлмиш Абу Мансур Мотрудий Ақида ва илми каломга шундай таьриф беради: "Ақида илми деганда: Исломдаги эътиқодга ишончга доир илм тушунилади, Бу илимни маньбаси Курьон ва суннат. Илми калом эса: Айнан шу илимни ақлий далиллар билан қувватлаш бу борада тарқатилган шубхаларга ақлий қоидалар асосида мантиқий жавоб бериш тушунилади.Ушбу манхаж (йўл) ақлий ва нақлий далилларга суянади, нақл бунда ақлдан устун туради.Акл нима, ақлга тўғри келадиган амаллар, нақл нима Курьон ва суннатда келган амаллардир". Мотрудий таьлимоти мўьтазилийлар каби фақатгина ақлга суяниш эмас, балки ақл билан нақлни қўшиб фойдаланиш зарур деб билди.Ақида борасидаги яна бир қўшган ҳиссаси шуки ўша даврдаги фақиҳлар ақида борасида турли фикрда эдиларб Мотрудий бу илмларни жамлаб, мусулмон оммасини бир ақида йўлига бошлади.

Шу билан бирга такидлаб ўтишимиз лозим бўлган ақида ва калом илмида, мактаб шакиллантирган яна бир имом бу имоми Ашьарий бўлиб, Шоьфеий мазҳабида фаолият юритган. Имоми Мотрудий эса Ханафий мазхабида бу икки имом бошқа-бошқа мазхабда бўлишига қарамай тутган йўли, манхажи бири-бирини такрорлайди.

Бу имомларнинг манхажи (йўллари) ҳақ эканлигига далолат берувчи ишоратлар мавжуд, бу далилларнинг бири сифатида Пайғамбаримиз Мухаммад Мустафо С.А.Внинг бир ҳадисларини келтирамиз,

لَتُفْتَحَنَّ القُسْطَنْطِينِيَّةُ، فَلَنِعْمَ الأَمِيرُ أَمِيرُهَا، وَلَنِعْمَ الجَيْشُ ذَلِكَ الجَيْ[3] .

Маьноси: (Қунстантиния албатта фатх бўлажак, бу Амир на қадар яхши амир. Бу Қўшин на қадар яхши қўшин.)

Ушбу ҳадис башоратидан саккиз юз йил ўтиб ақидаси Мотрудий бўлган Султон Мехмет Фотих 1453-йил Канстантинопол шаҳрини фатҳ қилди. Росулуллох Алайхиссалом бу ҳадисларида башорат қилинган қўшин эса Мотрудий ва Ашьарий ақидасидаги ислом лашкарлари эди. Шу боис икки имом манхажи (йўли) Росулуллоҳ Алайхиссалом башорат қилган тўғри йўл эканлигига ишонч билдиришимизга далил десак, муболаға бўлмайди.

Хулоса қилиб айтганда, ушбу манхаж (йўл)нинг асосчиси буюк бобокалонимиз имом Мотрудий Пайғамбаримиздан башорати келган буюк аллома олим ва мутафаккир сифатида мамлакатимиз ва бошқа минтақаларда ҳам ўрни беқийос. Хозирги кунга келиб, имоми Мотрудий ақидасини мактаб сифатида шакллантириб, таьлим бериб келишмоқда.

Булар қаторида: Мисрнинг Ал-Азхар дорул фунунида Мотрудий ва Ашьарий ақида мактаби, Тунисннинг Зайтуна дорулфунунида ва бошқа мағриб дийорларида бу ақидалар ўқитилиб келинмоқда.Шу билан бирга бу мактаблар

Индонезия, Малайзия, Покистон, Туркия, Ўзбекистон, Тожикистон, Туркманистон, Қирғизистон, Шом юртлари, Судан, Яман, Африка ва унинг атрофидаги мамлакатлар, Доғистон ва Афғонистон юртларида ўрганилади.

Мазхаблардан Шоьфеийларнинг тўртдан икки қисми Мотрудия эътиқотида, Ханафийларнинг учдан икки қисми ва ва Ханбалийларнинг ўттиз, қирқ фоиз қисми буюк бобокалонимиз Абу Мансур Мотрудий ақидавий тамоилида ҳисобланади.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Шайҳ Мухаммад содиқ Мухаммад Юсуф. "Ақоид илми ва унга боғлиқ масалалар" 2011й2013й

2. http\sammuslim/uz 4 https:\\muslim.uz

3. имом Аҳмад "муснади 18957-тартиб рақам" имом Ал-Бухрий "ат-Тарих ал-Кабир (2\81)"

4. Самарқандниинг сара уламолари 2014 й.

MAHDUMI A'ZAM HAYOTI VA FAOLIYATI

Ulug'ova Lutfiyaxon Xontura qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti talabasi

Annotasiya. Mazkur maqolada Mahdumi A'zam Kosoniy-Dahbediyning ilmiy-ma'naviy merosi, naqshbandiylik tariqatidagi o'rni, O'rta Osiyo ijtimoiy-ma'naviy hayotga ko'rsatgan ta'siri tahlil etiladi. Maqolada shuningdek, Sayid Ahmadxoja Kosoniyning bolalik yillari, ilm olishga bo'lgan qiziqishi, birinchi ustozlari va ilmiy shakllanish bosqichlariga oid muhim manbalar asosida ma'lumotlar keltirilgan. Tadqiqot, bugungi kunda ushbu buyuk alloma merosini chuqur o'rganish va ilmiy muomalaga qaytarish zaruriyatini asoslab beradi.

Kalit so'zlar: Mahdumi A'zam, Naqshbandiya tariqati, Dahbediy xojalar, ilmiy meros, ma'naviy tiklanish, tasavvuf, Koson, tarixiy manbalar.

Kirish. Nafaqat O'rta Osiyo,balkim Sharqiy Turkiston,Afg'oniston,Hindu-Pokiston va Eronning Xuroson yurtlarining diniy,madaniy-ma'naviy ijtimoiy siyosiy hayotlarida sezilarli ta'sir ko'rsatgan Mahdumi A'zam, ul zotning avlodlari bo'lmish Dahbediy xojalar haqida oxirgi o'nlab yillar mobaynida hech bir risola yozilmay,ularning faoliyati tarix sahifalaridan va xalq xotirasidan ongli ravishda o'chirishga harakat qilindi.Shukurlar bo'lsinki, mustaqillik sabab,yurtimiz ma'naviy

qadriyati asoslaridan biri-buyuk allomalarimiz xotiralari tiklanmoqda,asarlari tarjima va chop etilmoqda,anjumanlari o'tkazilmoqda.

Asosiy qisim. Hazrati Mahdumi A'zam (asl nomi Sayid Ahmadxoja Kosoniy) 1461-yilda Farg‘ona vodiysining Koson shahrida Sayid Jaloliddin ibn Jamoliddin Kosoniy oilasida dunyoga keladi. Onasi Sayid Abdullo Arjand naslidan bo'lgan Mir Sa'd Yusufning qizi edi. Yosh Sayid Axmadxoja avvalo maktabda savodini chiqarish bilan birga,otasining ra'yiga binoan dehqonchilik bilan ham mashg‘ul bo'ladi.Bu haqida temuriy tarixchilardan bo'lgan shahzoda Muhammad Doro Shukuh (Bobur mirzoning avlodlaridan) o'zining "Safinatul -avliyo"nomli mashhur kitobida Hazrati Mahdumi A'zamning o'zlari aytgan ushbu so'zlarini keltirgan:"Yoshligimda padari buzrugvorim meni dehqonchilik ishlariga jalb qilar edilar.Lekin manda ilm olishga ishtiyoq katta edi va Qur'oni Karimni qiroat va tilovat qilishga moyillik kuchli edi. Bir kuni tushimda bir kishi menga Qur'on kitobini tuhfa qildi.Uyg‘onib qarasam,yonimda usha Qur'on kitobi turganini ko'rdim va bu kitob menga Allohning inoyati bilan yetkazilgani ma'lum bo'ldi.So'ngra Qur'onni tilovat-u qiro'atiga mashg‘ul bo'ldim..." [1, b.48]

Yosh Sayid Ahmadxoja o'zlarining eng birinchi ustozlari bo'lmish Mavlono Mir Sayid Ali qoshida ilmi sarf-u naxvni (morfologiya va sentaksisni)qunt bilan o'rganadi. Sayid Ahmadxoja madrasa dasturi asosidagi ilmlarni shu darajada mukammal o'rganadiki,bu sohaning eng olim-u fozillari bilan bahs-u munozaralar o'tkazadigan bo'ladi.Shundan so'ng,Sayid Ahmadxoja tasavvuf ilmiga rag‘bat sezib, bu borada ham bilimini oshirish va undagi savollarga javob topish uchun ustozi Mavlono Mir Sayid Alining maslahatlari bilan Hazrati Xoja Axror Valining Toshkentda yashayotgan eng yaqin shogirdlari va o'rinbosarlari bo'lgan Mavlono Muhammad Qozi huzurlariga borib,ul zotga shogird tushadi hamda eng sevikli shogirdlariga aylanadi. Ana shu tariqa Sayid Ahmad Kosoniyning Naqshbandiya silsila sulukidagi faoliyati boshlangan edi [2, b.7].

Xojagiy Ahmad shu tariqa Toshkentda kamolotga erishgach,Kosonga qaytadi.Bu orada temuriyzoda Zahiriddin Muhammad Bobur Movarounnahrga, jumladan, Samarqandga kelib, bir muddat (1511-1512 yillar)taxtda o'tiradi.Ammo 1512-yilda shayboniy sultonlardan yengilib, Afg‘oniston tomon ketadi.Shundan so'ng, Muhammad Yusuf Munshiy "Tazkirai Muqimxoniy"asarida habar berishicha, Movarounnahr tamoman shayboniylar tasarrufiga o'tadi va uning viloyatlari sultonlar tomonidan bo'lib olinadi,jumladan Buxoro viloyati Ubaydulloxonga, Karmana, Miyonqol Jonibek sultonga qarashli bo'ladi. Karmana va Miyonqol hokimi bo'lmish Jonibek sulton Xojagiy Ahmad Kosoniyning kamolotlari va shuhratlaridan habardor bo'lgach, ul hazratdan Kosondan Samarqandga ko'chib kelishini iltimos qiladi va hazrat Samarqandga ko'chib keladilar [3, b.8-9].

Xojagiy Ahmad Samarqandga yaqinlashganda, hazratni Jonibek sulton kutib olib, otdan tushub, hazrat otlari julovini ushlab borardi.Jonibek sulton o'ziga qarashli Miyonqolning hozirgi Dahbed mavzeidan hazrat Xojagiy Ahmad uchun joy

ajiratdi.Rivoyatlarga ko'ra Xojagiy Ahmad bu joyni obod qilib,o'nta tol daraxtini bir biriga yaqin o'tkazganlari tufayli ular voyaga yetib, mavzening nomi ham ana shu munosabat bilan Dahbed(o'nta tol)deb atalarkan.

Yuqorida qayd qilinganidek, hazrat Mahdumi A'zam naqshbandiya tariqatining nazariy-axloqiy asoslarini faqat amalda tadbiq etish bilan shug‘ullanib qolmay, balki uni yana boyitish maqsadida qator ilmiy risolalar ham yozdilar.Bu asarlar "Majmua Ar-Rasoil" (risolalar to'plami) nomi bilan mashhur bo'lib,uning turli davrlarda ko'chirilgan nusxalari davlat va shaxsiy kutubxonalarda saqlanmoqda. Ammo, uning mukammal nusxasi Mahdumi A'zamning shajarai-samarai-tayiba (ya'ni sara avlodlari) hisoblangan Eshoni Kattaxonxojai Dahbediy(1868-1969)ning shaxsiy kutubxonalarida mavjud bo'lib, ul zotdan avlodlariga meros qolgan. Endi majmuadagi asarlar tizimi va ularning qisqacha tavsifini ko'rib chiqaylik: "Majmua al-rasoil"o'ttizga yaqin katta kichik hajimdagi risolalardan iborat to'plamdir.

1)"Asrorul-nikoh". Risolada islom dini va shariatining nikoh to'g‘risidagi shart-sharoit va sir-u asrorlariga hamda nikohning muqaddasligi, barcha yaxshi-yomon ishlar oiladan boshlanishi, nikohdan oldingi va keyingi ma'naviy poklik kabilar to'g‘risida fikr yuritilgan.

2)"Risolai samoiya".Risolada Naqshbandiya tariqatiga nisbatan farqli ravishda, boshqa silsila tariqatlarida namoyon bo'ladigan zikrlar haqida, jumladan, Kubraviya tariqatidagi musiqa hamohangida samo'iy zikr aytish joizligi haqida mushohadalar yuritilgan.

3)"Risolai vujudiya". Risola tavhid haqida vahdatul-vujud-Xudoning yagonaligi, har narsadan ogohligi,mavjudligi,shu bilan birga insoniy-mahluqiy mavjudlik to'g‘risida hadisi sharifdan ma'lumotlar keltirib yozilgan.

4)"Risolai odob us-solixin"-tariqat yo'lidan yuruvchi solih bo'lishi lozim bo'lgan piru murshid va muridlarning odob ahloqi,vazifalari hamda nafs,Arsh kabi tushunchalar bayonini beruvchi risoladir.

5)"Risolai odob us-siddiqin"-ilohiy sevgi,ko'ngildan oliy maqom bo'lmish Xudoga sodiqlik,luqmani pok tutib Haqga yetishish haqidadir.

6)"Ganjnoma"-Risola Haqiqiy ganj-Allohniki, uning Husni konga boyligi,axloqiy xazinalarning eng oliysi bo'lgan Ilohiy sevgiga,(halol yashash orqali)Uning jamoliga musharraf bo'lish haqidadir.

7)"Risolai bukoiya"-Insonning bilib-bilmay qilgan gunohlari uchun chin ko‘ngildan ohu nola va ko'z yosh to'kib tavba qilganlarga Xudo tomonidan rahm-shafqat vada qilingani haqidadir.

8)"Nasihat us-solihin"-Hazrati payg‘ambar(s)ning hadislari:"Qola Nabiy alayhissalom: Qalbul -muminin arshullohil-azim"(Muminlar qalbi arshdir)mazmuni jihatdan axloq qoidalari asosida va Alloh buyurgan ma'naviy qoniqishga kelishda ko‘ngilga quloq solish, uning oynasini g‘ubordan tozalash haqidagi risoladir.

9)"Sharhi savodul-vajh"-Bu risolada ma'naviy qashshoqlik inson uchun ikki dunyoda ham sharmandali hol va yuzi qoralik kabi ekanligi Hazrati payg'ambar(s.a.v)ning bir hadislari misolida,tariqat nuqtai-nazardan yoritilgan.

10)"Tanbiyat us-salotin"-Risolada hukumdorlarning fazilatlari,ularning oddiy xalqqa adolatli bo"lishi lozimligi "podshohning bir soatlik adolati oltmish yillik savobiga teng'' hadisi atrofida olib borilgan mushohadalar tanbeh berish bilan isbotlangan.Shu bilan birga risolada revolyutsion tezis ilk bora olg'a suriladi:qaysi davlatga tirikchilik oson bo'lsa,insonning o'sha yurtga borib yashashi lozimligi uqtiriladi,negaki u yerda Allohning rahmati nozil bo'lgandir.

11)"Sharhul-valadu sarri abihi"-Risola tarbiya haqida,o'g'il otasiga ba'zi sifatlarda o'xshashga harakat qilganidek,murid ham o'z piriga o'xshashga harakat qilib,unga ergashish kerakligi haqida.

12)"Nafahot us-solihin"-Bu risola sufiylik tariqatining xushbo'y fayzlari va tariqiy yo'llari haqida, bu yo'lda Allohdan boshqa hamma narsa ikkinchi darajada bo'lishi kerakligi uqtiriladi.Muallif risolani otasi xotirasiga bag'ishlagan.

13)"Risolai zikr"-Risolada eng yaxshi va asosiy zikr:"La ilahi illallohu"sharhi bilan birga,boshqa turli zikrlar sharhi ham berilgan.

14)"Risolai sharhi rubiyot"(Risolaning boshqa nomi "Sharhi ruboiyoti Ubaydiy").Risola 1533-1539 yillarda Movarounnahrda hukm surgan shayboniy Ubaydullaxon ibn Mahmud Sultonning "Ubaydiy"taxallusi bilan yozgan ruboiylari to'plamiga Mahdumi A'zamning yozgan sharhi.Risola "Sharhi g'azaliyoti Ubaydulloxon"deb ham atalgan.

15)"Risolai bayoni silsila".Bu risola Naqshbandiya silsila sulukining ma'naviyati, uning Hazrati payg'ambar(s)va Abu Bakr Siddiqdan boshlab, Mahdumi A'zamning piru ustozlarigacha bo'lgan vakillari bayoniga bag'ishlangan.Risola shayboniy Jonibek Sulton iltimosiga ko'ra yozilgan [4, b.345-346].

Shunday qilib, yuqorida, Mahdumi A'zam Dahbediyning "Majmua ar-rasoil" to'plamlarining bir qismi keltirildi. To'plam muqovasi jigar rangli kiyik terisidan ishlangan bo'lib,mug'ziy uslubida,ikki tomonlama uch tamg'ali qilib yasalgan hamda 616 sahifadan iborat.

Xojagiy Ahmad – Mahdumi A'zam Dahbediy shayboniy sultonlari Ubaydulloxon,Jonibek sulton,Hindistondagi temuriyzoda Zahiriddin Muhammad Boburning ma'naviy muridlari darjasiga ko'tarildi. Shayboniy sultonlaridan shoirtabiat,qator she'riy devonlar muallifi Ubaydiy taxallusli Ubaydulloxon hazrati Mahdumi A'zam suhbatlaridan tez-tez bahramand bo'lish,buning uchun esa hazratni ortiqcha tashvishlantirmaslik maqsadida o'z qasri ichida hazrat uchun maxsus uy yasatadi va shu yerda bo'lishini iltimos qiladi. Hazrat qasrdagi uyda doimiy turolmasalar-da, har gal sulton xohish qilganda, kelib, shu uyda suhbatlar uyushtirib, yozgan asarlaridan o'qib berar edilar. Shu tariqa hazrat Mahdumi A'zam Dahbeddagi bog'larida dehqonchilik bilan shug'ullanar,o'zlari ekin ekib,daraxtlar o'tkazib,ularni parvarish ham qilardilar,asarlar ijod qilish bilan ham mashg'ul bo'lardilar.Hazrat

Mahdumi A'zam 949-hijriy -1542-milodiy yilda hijriy hisobda 83 yoshlarida olamdan o'tdilar.Ularning tabarruk jasadlari Dahbedda dafn etildi [3, b.10-12].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Komilxon Kattaev "Silsilai A'zamiya va Tariqai Dahbediya" 48-bet .
2. Komilxon Kattaev"Mahdumi A'zam va Dahbed tarixi"risola Samarqand "Sug'diyona"1994,7 bet.
3. Boturxon Valixujaev "Mahdumi A'zam Dahbediy"nomli ilmiy ocherk,Tosh 1993, 8-9 bet.
4. Komilxon Kattaev Gulnoza Kattaeva "Qadimiy kitoblar tarjimasi " "Qaqnus n.2020" 345-346 bet.

3-4-SHO‘BALAR. IMOM MOTURIDIYNING KALOM ILMIDAGI O‘RNI VA ILMIY MEROSINING O‘RGANILISHI; MOTURIDIYLIK MEROSINING XX–XXI ASRLARDAGI TALQINI, ILMIY MEROSINIG QAYTA TIKLANISHI VA JADIDCHILIK HARAKATI: TARIXIY TAJRIBA VA ZAMONAVIY SABOQLAR

ISLOM SIVILIZATSIYASI VA MAHALLIY AN’ANALAR O‘RTASIDAGI SINKRETLASHUVDA MOTURIDIYLIK TA’LIMOTINING O‘RNI

Ungalov Azizbek Amiriddin o‘g‘li
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti “Samarqand tamadduni tarixi” kafedrasi, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD

Annotatsiya. Ushbu maqolada islom sivilizatsiyasi va mahalliy an’analar o’rtasidagi o’zaro ta’sir hamda sinkretizm jarayonida Moturidiylik ta’limotining tutgan o’rni tahlil qilinadi. Markaziy Osiyoda IX–X asrlarda faoliyat ko’rsatgan Imom Moturidiy asos solgan aqidaviy maktab – Moturidiylik oqimi – Hanafiy mazhabi bilan uyg’un holda mahalliy urf-odatlar va qadriyatlarni islomiy tamaddun doirasida integratsiya qilishga xizmat qilgani ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Maqolada Moturidiy ta’limotining aql-zakovatga tayanuvchi mo’tadil (bag’rikeng) tamoyillari va ularning mintaqadagi islomiy hayotda mahalliy an’analar bilan sintezlanishiga ta’siri ko’rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, Moturidiylik ta’limoti islom aqidasini mahalliy ijtimoiy-madaniy muhitga moslashtirgan holda, islomning mintaqada keng yoyilishiga va o’ziga xos mahalliy islomiy madaniyat shakllanishiga zamin yaratgan. Bugungi kunda ham ushbu

tarixiy-merosiy an'ana Markaziy Osiyo davlatlarida "ma'rifatli islom" sifatida e'tirof etilib, ekstremizm va radikalizmga qarshi kurashda muhim mafkuraviy omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Kalit so'zlar: Imom Moturidiy; Moturidiylik ta'limoti; sinkretizm; islom sivilizatsiyasi; mahalliy an'analar; urf-odatlar; Hanafiy mazhab; bag'rikenglik; Markaziy Osiyo; aqidaviy meros.

Kirish. Islom dinining turli mintaqalarda tarqalishi mahalliy an'analar va urf-odatlar bilan muayyan darajadagi sinkretlashuv (qo'shilib ketish) jarayonini yuzaga keltirgan. Xususan, Markaziy Osiyo mintaqasida islom sivilizatsiyasi mahalliy qadimiy madaniy an'analar bilan uyg'unlashib, o'ziga xos mahalliy islomiy tamaddun shakllanganini ko'rish mumkin[3, p. 49–50][4, p. 11–13]. Bu jarayonda IX–X asrlarda yashab ijod etgan buyuk alloma Imom Abu Mansur al-Moturidiy (870–944) asos solgan Moturidiylik ta'limoti muhim rol o'ynagan. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, Moturidiy aqidaviy maktabi bilan bog'liq Hanafiy-Moturidiylik an'anasi islomning mintaqaga kirib kelishidagi "madaniy shok"ni yumshatib, dinning keng yoyilishiga ko'maklashgan[5, p. 79–83][4, p. 11–13]. Boshqa keskin yondashuvlardan farqli o'laroq, Hanafiy-Moturidiylik an'anasi mahalliy urf-odat va qarashlarning ma'lum darajada islom doirasida "islomiy qiyofada" davom etishiga imkon bergan, natijada islom mahalliy jamiyatlar tomonidan osonroq qabul qilingan[1, p. 147–154][4, p. 11–13].

Imom Moturidiy Samarqandda faoliyat yuritgan va u mintaqada islomiy ilm-fanning markazlaridan biri bo'lgan Somoniylar davrida yashagan. Aynan Somoniylar sulolasi davrida Hanafiy mazhabi Markaziy Osiyoda rasmiy e'tirofga sazovor bo'lib, Moturidiylik ta'limoti ham keng yoyildi[11, c. 273]. Moturidiy asarlarida islom aqidalarini hayotiy-mazhaliy asosda talqin etish, ya'ni mahalliy muhitda mavjud falsafiy qarashlar va odatlarni inobatga olgan holda tushuntirish kuzatiladi. Tadqiqotchilar ta'kidlashicha, Moturidiy ta'limoti islom e'tiqodini mintaqaning o'ziga xos sharoitlariga moslash (adaptatsiya) imkonini bergan bo'lib, natijada Markaziy Osiyoda bag'rikeng va mo'tadil ruhdagi "an'anaviy islom" shakllanishiga zamin yaratgan[6, p. 60–62][12, c. 88–94]. Bu an'anaviy islomiy qarash doirasida mahalliy xalqlarning islomgacha bo'lgan ma'naviy merosi va urf-odatlari ham ma'lum darajada saqlanib qolgan va islomiylashgan holda davom etgan.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda Markaziy Osiyo jamiyatlarida aynan Moturidiylik merosi asosidagi ma'rifiy islom konsepsiyasi ekstremizm va radikalizmga qarshi samarali chora sifatida ilgari surilmoqda[7, p. 110–115]. Mintaqa davlatlari rasmiy diniy siyosatida Hanafiy-Moturidiy yo'nalishi "an'anaviy musulmonlik" sifatida qo'llab-quvvatlanayotgani kuzatiladi[10, p. 5]. Shu bois, Moturidiylik ta'limotining tarixiy jarayonlarda

mahalliy urf-odatlar bilan uyg'unlashuvdagi o'rni va bugungi ahamiyatini o'rganish nafaqat tarixiy, balki zamonaviy diniy-ma'rifiy nigohdan ham muhimdir. So'nggi yillarda xalqaro ilmiy doiralarda Moturidiylik maktabiga qiziqish ortib, ushbu yo'nalishda qator tadqiqotlar yuzaga kelmoqda[13, b. 6][14, b. 36–37]. Xususan, Moturidiy va Ash'ariy ta'limotlarini qiyosiy o'rganish, Moturidiylikning ahloqiy-falsafiy jihatlarini tahlil qilish bo'yicha ilmiy ishlar e'lon qilinmoqda[15, p. 2–3]. Mazkur maqola ana shunday ilmiy sa'y-harakatlar doirasida, tarixiy manbalar va zamonaviy tadqiqotlar tahliliga tayangan holda, Moturidiylikning sinkretik jarayonlardagi rolini chuqur yoritishga qaratilgan.

Tadqiqotning maqsadi – Moturidiylik ta'limotining islom va mahalliy an'analar sintezidagi o'rnini tarixiy-falsafiy tahlil qilish va uning asosiy tamoyillarining mahalliy madaniy muhitga ta'sirini ilmiy yoritishdan iborat.

Metodologiya. Maqolada asosan tarixiy taqqoslash va tahlil metodlaridan foydalanildi. Dastlab mavzuga oid tarixiy manbalar – Moturidiy qalamiga mansub asarlar (masalan, "Kitob at-Tavhid", "Ta'vilot al-Qur'an") hamda islom huquqiy manbalari (Hanafiy mazhabi fiqhiy qo'llanmalari) o'rganildi. Shuningdek, mavzu bo'yicha zamonaviy ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) tahlil qilinib, ulardagi yondashuvlar qiyosiy o'rganildi. Tadqiqotda mantiqiy tahlil, sistemali yondashuv va komparativ (qiyosiy) usullar uyg'unligida Moturidiy ta'limotining asosiy qoidalari va ularning mahalliy urf-odatlar bilan o'zaro aloqadorligi o'rganildi. Jumladan, Moturidiy va unga yaqin bo'lgan ilmiy maktablar (Ash'ariylar) o'rtasidagi aqidaviy farqlar va o'xshashliklar ham ko'rib chiqilib, bu farqlarning mahalliy diniy amaliyotga ta'sirini aniqlashga harakat qilindi[14, b. 36–37]. Mazkur yondashuvlar asosida, tarixiy ma'lumotlar va zamonaviy kuzatishlarni solishtirish orqali, Moturidiylikning sinkretik jarayonlardagi roli xolisona yoritildi.

Natijalar. Moturidiylik ta'limoti va uning asosiy tamoyillari. Imom Moturidiy va u asos solgan ta'limot Islomning sunnaviy aqidaviy yo'nalishlaridan biri bo'lib, Asḥarīy aqidaviy maktabi bilan bir qatorda ahl as-sunna e'tiqodining tayanch tarkibiga kiradi[14, b. 36–37]. Moturidiylikning asosiy tamoyili – aql (ʻaql) va vahiy (naql)ni uyg'un holda qabul qilishdir. Imom Moturidiy Qur'on oyatlari va Nabiy sunnatlarini aqliy talqin qilish zarur deb bilgan; uning nazarida, inson aql-zakovati Xudoning mavjudligi va asosiy diniy haqiqatlarni vahiy bo'lmasa ham anglay oladi, vahiy esa aql yetmaydigan sohalarni yoritadi. Shu bois Moturidiy aqidasida e'tiqod masalalarini mantiqiy dalillar bilan isbotlash usuli muhim o'rin tutadi. Imom Moturidiy "Kitob at-Tavhid" asarida Allohning yagonaligi, sifati, qadar (taqdir) kabi masalalarda o'rtacha va mantiqiy pozitsiyani ilgari suradi. Masalan, Moturidiy ta'limotiga ko'ra, inson iroda erkinligi (ikhtiyor) ma'lum darajada tan olinadi – inson o'z amaliga mas'ul, ammo bu amallarni yaratish qudrati baribir Allohga xosdir. Bunda Moturidiylar jabriylar (qadariylar) va mutaassib qadar

inkorchilar (qadarini mutlaq inkor etuvchilar) orasida o'rta yo'lni tanlaganlar. Moturidiy shuningdek, katta gunoh qilgan musulmonni kofir deb hukm qilish – takfir masalasida ham mo'tadil yondashuvni qo'llagan. Unga ko'ra, qaysidir musulmon gunohkor bo'lsa-da, qalbida imon bo'lsa uni dindan chiqdi demaslik kerak – faqat Alloh uning oxiratdagi holini hal qiladi. Bu yondashuv musulmonlar orasida mutaassib guruhlar chiqargan o'zaro takfir va nizolarning oldini olishga xizmat qilgan.

Moturidiylik ta'limotining yana bir muhim jihati – shariatda qat'iy man etilmagan mahalliy urf-odat va an'analarni inkor etmaslikdir. Hanafiy fiqh maktabi doirasida shakllangan bu aqidaviy oqim, ayniqsa, Imom A'zam Abu Hanifa ta'limotiga ergashgan holda, 'urf (mahalliy odat)ni shariat man etmagan sohalarda huquqiy e'tiborga loyiq manba sifatida ko'radi[8, p. 138]. Manbalarda keltirilishicha, Hanafiy ulamolar "urf odatni, agar u nasqqa zid bo'lmasa, shariat doirasida qabul qilish mumkin" degan qoida asosida ish ko'rishgan. Natijada islom hukmlari mahalliy ijtimoiy muhitga moslashib, turli xalqlarning islomni qabul qilishi osonlashgan. Xususan, hanafiylikka xos bo'lgan istihson (yaxshiroq ko'rgan hukmni afzal bilish) va maslaha (jamoat manfaati) kabi printsiplar Moturidiy aqidaviy qarashlari bilan uyg'un holda, dinning mahalliy ehtiyoj va sharoitlarga moslashuvchanligini ta'minlagan. Bu holat Imom Moturidiy zamondoshlari va izdoshlarining mahalliy urf-odatlarni (masalan, marosimlar, bayramlar, turmush odatlarini) diyor sharoitida foydali va zararli jihatlarini ajratib ko'rib, zararli tomoni bo'lmasa, ularni islomiy ma'no bilan davom ettirishga qarshi bo'lmagani orqali namoyon bo'ladi[1, p. 134–137][2, p. 147–155].

Ma'lumki, Hanbaliy mazhabidan chiqqan ba'zi oqimlar tasavvufni bid'at deb qoralagan bo'lsa, hanafiy-moturidiy ulamolar (xususan, Naqshbandiya tariqatining ustozi Xoja Bahovuddin Naqshband va boshqalar) sufiylikni Qur'on va Sunnatga zid bo'lmagan taqvodorlik yo'li sifatida qabul qilganlar[9, p. 46–48]. Moturidiy aqidasining ilohiyotda ochiq fikrlilikni qo'llab-quvvatlashi Markaziy Osiyoda yirik tasavvuf maktablarining (Naqshbandiya, Yassaviya va hokazo) shakllanishiga ijobiy muhit yaratgan. Bu tariqatlar keyinchalik xalq ichida islom aqidalarini yanada chuqurroq singdirishda muhim rol o'ynagan. Shunday qilib, Moturidiylik ta'limoti nafaqat nazariy e'tiqod darajasida, balki amaliy diniy hayot darajasida ham mahalliy an'analar bilan murosali va uyg'unlashgan islomiy madaniyat shakllanishiga xizmat qildi.

2. Mahalliy an'analar bilan sinkretlashuvning tarixiy ahamiyati. Moturidiylik ta'limoti va umuman Hanafiy-moturidiy an'ananing Markaziy Osiyo tarixidagi eng muhim natijalaridan biri – bu mintaqaviy islomiy sivilizatsiyaning boshqa hududlardagidan farqli, nisbatan bag'rikeng va moslashuvchan shaklda qaror topganidir[12, c. 88–94][6, p. 60–62]. Tarixiy manbalar va tadqiqotlar ko'rsatadiki,

Moturidiylik an'anasi islom kirib kelgan hududlarda mahalliy ijtimoiy tuzilmalarning uzluksizligini ma'lum darajada saqlab qolgan. Masalan, qabila tuzilishiga asoslangan turkiy jamiyatlarda islom qabul qilinganidan keyin ham urug'-urug' to'y-ma'rakalari, marhumlarni xotirlash (haq oshi) kabi odatlar davom etdi, ammo ular islomiy ruh bilan boyitildi. Hanafiy-moturidiy ulamolar bu odatlarni butunlay yo'q qilish o'rniga, ularning mazmunini islomiy axloq va e'tiqod bilan to'ldirdilar. Shu tariqa, mahalliy xalqlarning o'tish davridagi "madaniy shok" yumshatilib, islomga asta-sekin o'tish evolyusion yo'l bilan amalga oshdi[5, p. 79–83]. Tadqiqotchilar fikricha, aynan shu omil – ya'ni mahalliy odat va e'tiqodlarning qisman saqlangan holda islomiylashuvi – Markaziy Osiyoda islomning keng qabul qilinishi va ildiz otishini osonlashtirgan[5, p. 79–83]. Masalan, X asr tarixchisi Narshaxiy "Buxoro tarixi"da arab fathidan keyin ham Buxoroda ba'zi qadimiy marosimlar davom etganini, vaqt o'tishi bilan ular islomga uyg'un tarzda qayta talqin qilinganini yozadi. Bu hol Moturidiylik tamoyillarining amaliy tasdig'idir.

Bundan tashqari, Moturidiylik an'anasi Markaziy Osiyoda islomning boshqa hududlarga nisbatan bardoshliroq bo'lishiga xizmat qilgan. Masalan, XVI–XVII asrlarda Arabistonda paydo bo'lgan mutaassib harakatlar (masalan, vahhobiylik) Markaziy Osiyoga nisbatan kech va cheklangan darajada kirib kelgan bo'lsa, buni bu yerda allaqachon chuqur ildiz otgan an'anaviy Hanafiy-Moturidiy muhiti bilan izohlash mumkin. Mahalliy ulamolar va ziyolilar islomni milliy qadriyatlar bilan uyg'un holda talqin qilgani bois, tashqi ekstremistik g'oyalarga jamiyatda immunitet shakllangan edi[6, p. 60–62].

Chunki bu oqim islomning asosiy tamoyillariga putur yetkazmagan holda, turli xalqlarning madaniy identifikatsiyasini inobatga olgan. Natijada islom bu mintaqada "o'zlashtirilgan" (indigenizatsiyalashgan) shaklga ega bo'ldi. Albatta, sinkretik jarayon doimo bir xil ijobiy kechavermagan; ba'zi odatlar islomiy andozalarga zid bo'lgani uchun vaqt o'tishi bilan yo'q bo'lib ketgan. Moturidiy va hanafiy ulamolar shirk yoki harom unsurlar mavjud bo'lgan urf-odatlarni qattiq tanqid qilganlar. Masalan, ayrim xurofotga asoslangan xalqona e'tiqodlar (jinnilar, pari-qaynon va hokazo bilan bog'liq irim-sirimlar) islom aqidasiga zid ekani ulamolar tomonidan uqtirilgan va asta-sekin bunday bid'atlar qisqarib borgan. Ammo muhim jihat shuki, ulamolar bu kurashda ham o'ta keskin choralar o'rniga ma'rifiy yo'l tutganlar. Xususan, jadid ulamolar XX asr boshida "milliy islomiy an'analarni Qur'on va hadislarga zid bo'lmagan shaklda isloh qilib, saqlab qolish" g'oyasini ilgari surgani bejiz emas. Bu Moturidiylik ruhining yangi zamondagi davomiyati edi, desak xato bo'lmaydi.

Moturidiylik ta'limotining bugungi kontekstdagi ahamiyati ham diqqatga sazovor. Hozirgi globallashuv davrida turli yot diniy g'oyalar kirib kelishi tezlashgan bir sharoitda, Markaziy Osiyoning an'anaviy Hanafiy-Moturidiy merosi

jamiyat barqarorligi uchun tayanch bo'lib xizmat qilmoqda. Ayniqsa, diniy ekstremizm va terrorizm xavfi kuchaygan bir paytda, mintaqa olim va diniy arboblari Moturidiylikning bag'rikeng aqidaviy tamoyillarini targ'ib etish orqali yoshlarni ogohlikka chorlamoqda[12, c. 88–94]. Bu ta'limotda mujassam bo'lgan mo'tadillik, insonparvarlik va mantiqiylik bugungi kunda ham zamonaviy jamiyat uchun mos keluvchi qadriyatlardir.

Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, agar Hanafiya-Moturidiylik an'anasi va uning "hujayralari" (ya'ni, ilmiy-ruhiy salohiyati) jamiyatda qayta jonlantirilsa, takfirchilik va ekstremizm muammolarini bartaraf etishda ko'plab yutuqlarga erishish mumkin. Darhaqiqat, Moturidiylik "aqida birligi ichra xilma-xillik" g'oyasini ilgari suradi – ya'ni asosiy e'tiqodda birlik bo'lsa, ikkinchi darajali masalalarda turli fikrlar bo'lishi tabiiy va bunga bag'rikenglik bilan qarash lozim. Bu esa bugungi pluralistik jamiyatlar uchun ham dolzarb tamoyildir.

Yana bir muhim jihat – Moturidiylik Markaziy Osiyoning islomiy madaniyatini jahon sivilizatsiyasi doirasida alohida o'rin tutuvchi hodisaga aylantirdi. XIV–XV asrlarda Temuriylar davrida Movarounnahrda ilm-fan va ma'rifat ravnaq topgan bo'lsa, bunda hanafiy-moturidiy an'ananing erkin fikrlashga nisbatan bag'rikeng muhit yaratgani ham ahamiyat kasb etgan. Ma'lumki, o'sha davr "Sharq Uyg'onish davri" yoki "Musulmon Renessansi" deb ataladi – Biruniy, Ibn Sino, Ulug'bek singari allomalar yetishib chiqqan bu muhitda Moturidiy aqidasi va umuman Kalam (islom ilohiyoti)ning mantiqiy-munosib mavqei mavjud edi. Agar mintaqada o'sha payt rigid (qotib qolgan) talqinlar hukmron bo'lganda edi, balki bu qadar ilmiy-falsafiy yutuqlar ham bo'lmas edi. Demak, Moturidiylik nafaqat diniy, balki ilmiy-madaniy taraqqiyotga ham zamin yaratgan bir omil sifatida qaralishi mumkin.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, Imom Moturidiy asos solgan Moturidiylik ta'limoti islom sivilizatsiyasi va mahalliy an'analar o'rtasidagi sinkretlashuv jarayonida hal qiluvchi o'rin tutgan. Moturidiylik ta'limotining aql va vahiy uyg'unligiga asoslangan mo'tadil tamoyillari tufayli Markaziy Osiyo kabi mintaqalarda islom yangi madaniy muhitga moslashgan holda singib ketdi[4, p. 11–13][9, p. 46–48]. Mahalliy urf-odat va marosimlar shariatga zid bo'lmagan qismi islomiy qobiq kasb etdi, natijada islom diniy hayot bilan milliy madaniyat o'rtasida ziddiyat emas, balki sintez vujudga keldi[1, p. 147–154][4, p. 11–13]. Bu sintez islomning mintaqa xalqlari o'rtasida chuqur ildiz otishini va ularning dinni o'z an'anaviy qadriyatlarining davomi sifatida qabul qilishini ta'minladi. Moturidiylik an'anasining yana bir natijasi – islomiy tafakkurning bag'rikeng va tolerant yo'nalish sifatida qaror topishi bo'ldi[12, c. 88–94][6, p. 60–62]. Bu yo'nalish tasavvufning ravnaqini qo'llab-quvvatlab, mutaassib oqimlarga qarshi ichki bir immunitet hosil qildi.

Hozirgi davrda Moturidiylik ta'limotining tarixiy tajribasi yanada ahamiyat kasb etmoqda. Globallashuv jarayonida paydo bo'lgan radikal g'oyalarga qarshi kurashishda Markaziy Osiyo davlatlari o'zining boy Hanafiy-Moturidiy merosiga tayanmoqda[7, p. 110–115]. Bu meros diniyat va dunyoviylik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash, yosh avlodni milliy-diniy an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Moturidiylik ta'limotidagi bag'rikenglik, mantiqiy mushohada va mo'tadillik kabi qadriyatlar zamonaviy fuqarolik jamiyatlari uchun ham muvofiqdir. Shuning uchun, Moturidiy ajdodlarimizning boy merosini chuqurroq o'rganish va targ'ib qilish nafaqat tarixiy haqiqatni tiklash, balki bugungi murakkab dunyoda "ma'rifatli islom" modelini qaror toptirishga hissa qo'shadi. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Moturidiylik ta'limoti – islom sivilizatsiyasi va mahalliy an'analar sintezining yorqin namunasi bo'lib, u o'zining hayotiyligini asrlar davomida isbotlagan va kelgusida ham musulmon jamiyatlar uchun taraqqiyot hamda tinchlik garovi bo'lib xizmat qilishda davom etadi.

Foydalanilgan manbalar ro'yxati

1. Yemelianova G. M. 7 things you may not know about the history of Muslims in Central Asia. – EUP Publishing Blog, 2019 – (Galina M. Yemelianova) [1, p. 134-137; 1, p. 147-154].

2. Momynkulov J. Embracing Cultural Approaches to the Integration of Central Asia. – The AsiaN, 21.02.2017. – (Zhanat Momynkulov, Kazakhstan) [2, p. 147-155].

3. Awwad M. A. The Doctrine of Maturidiyya is the True Way and Pure Sect. – «Moturidiylik» ilmiy jurnali, 2025. – T. 1. – №1. – P. 48–53 [3, p. 49-50].

4. Kenzhetayev D. T., Nurmatov Zh. Y., Myrzabekov M. M. The Features of Maturidi Doctrine and its Impact on Kazakh Culture. – Hikmet ilmiy jurnali (Qozog'iston), 2024. – T. 2. – №2. – P. 5–15 [4, p. 11-13].

5. Tolegenov M., Nurmatov Zh., Abdrassilov T. The problem of husn (goodness) and qubh (evil) in Maturidi's thought and their reflection in the Kazakh tradition. – Jete: Journal of Philosophy, Religious and Cultural Studies, 2025. – Vol. 151. – №2. – P. 75–95 [5, p. 79-83].

6. Damanhuri A. S. Moderation of the Maturidiyya School: Method and Practise. – «Moturidiylik» ilmiy jurnali, 2022. – T. 2. – №4. – P. 57–66 [6, p. 60-62].

7. Istifarin N. A. et al. Teologi Sunni: Perbedaan Teologi Asy'ari dan Maturidi (Sunni Theology: Differences between Ash'ari and Maturidi Theology). – Journal of Islamic Thought and Philosophy, 2023. – Vol. 2. – №1. – P. 102–127 [7, p. 110-115].

8. Nguyen M. Review of Recent Works in Maturidi Theology. – American Journal of Islam and Society, 2023. – Vol. 40. – №1-2. – P. 138–142 [8, p. 138].

9. Bicer R. Understanding of The Will of Imam Maturidi. – Eurasian Journal of Religious Studies, 2018. – Vol. 14. – №2. – P. 44–51 [9, p. 46-48].

10. Olcott M. B. The Roots of Radical Islam in Central Asia. – Carnegie Endowment, Washington D.C., 2007. – P. 4–6 [10, p. 5].

11. Bogolyubov A. S. al-Khanafiyya // Islam: Энциклопедический словарь. – М.: Наука, 1991. – С. 273 [11, с. 273].

12. Азизи Р. Что означает «традиционный» или «местный» ислам: опыт имплементации в таджикистанском обществе. – CABAR.asia аналитическая платформа, 23.01.2019 [12, с. 88-94].

13. Қодиров М. Шарқ қўлуозмаларида Арасту асарларининг акс етиши (конференция тезислари). – "Ilm-fan va ta'limda innovatsion yondashuvlar" respublika ilmiy onlayn konferensiyasi materiallari, 2021. – Б. 5–8 [13, b. 6].

14. Каримов И. А. Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз (Имом Мотуридий таваллудининг 1130 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқ). – Самарқанд, 2000 [14, b. 36-37].

15. Cornell S. E. (ed.) State and Religion in Central Asia: Fighting the War of Ideas. – Washington: CACI & SRSP, 2016. – P. 2–4 [15, p. 2-3].

ЎЗБЕКИСТОН ТАРАҚҚИЁТИНИНГ ЯНГИ БОСҚИЧИДА ИМОМ МОТУРИДИЙ ИЛМИЙ МЕРОСИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ

Джуманов Санжарбек Абдуразакович
Имом Бухорий халқаро-илмий тадқиқот маркази илмий ходими, тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Аннотация. Мустақиллик йилларида Имом Мотуридий илмий меросини ўрганиш ва кенг тарғиб қилиш ишлари амалга оширилди. 2016 йилдан эътиборан ушбу тадбирлар янги босқичга кўтарилди. Мазкур мақола Ўзбекистон тараққиётининг янги босқичида Имом Мотуридий илмий меросини ўрганиш ишлари тарихига бағишланган.

Калит сўзлар: Имом Мотуридий, илмий мерос, асарлар, халқаро конференция, таржималар.

Аннотация. В годы независимости проводились исследования и широкая пропаганда научного наследия Имама Мотуриди. С 2016 года эти мероприятия вышли на новый уровень. Данная статья посвящена истории изучения научного наследия Имама Мотуриди на новом этапе развития Узбекистана.

Ключевые слова: Имам Мотуриди, научное наследие, труды, международная конференция, переводы.

Annotation. In the years of independence, research and wide promotion of the scientific heritage of Imam Moturidi was carried out.Since 2016, these events have reached a new level. This article is devoted to the history of the study of the scientific heritage of Imam Maturidi at a new stage of Uzbekistan's development.

Keywords: Imam Moturidi, scientific heritage, works, international conference, translations.

Мустақиллик йилларида юртимиздан етишиб чиққан алломалар қатори Имом Мотуридий илмий меросини ўрганиш ва кенг тарғиб қилиш ишлари бошланди. Хусусан, 1999 йил 3 декабрда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг "Имом Абу Мансур ал-Мотуридий таваллудининг 1130 йиллигини нишонлаш тўғрисида"ги қарори қабул қилинди. Ушбу қарорда аллома таваллудини кенг нишонлаш бўйича амалга оширилиши лозим бўлган тадбирлар кўрсатиб берилди. Хусусан, Самарқанд шаҳрининг Регистонга туташ Чокардиза қабристонидаги Имом Мотуридий мақбарасини реконструкция қилиш, мамлакат ҳудудидаги аллома номи билан боғлиқ қадамжо ва обидалар рўйхатини шакллантириш, уларни таъмирлаш, консервация қилиш бўйича таклифлар тайёрлаш ва бошқа вазифалар белгилаб берилди [5].

Ушбу қарорда назарда тутилган вазифалар ижроси доирасида 2000 йил 17 ноябр куни алломанинг 1130 йиллик таваллуд санаси кенг нишонланди. Шу муносабат билан Самарқандда аллома хотирасига атаб тикланган ёдгорлик мажмуси очилди [1:1]. Тошкент ва Самарқандда Мотуридий таълимоти ва унинг ислом оламида тутган мавқеига бағишланган халқаро илмий анжуманлар ўтказилди. Ушбу конференцияларда Имом Мотуридий ва унинг илмий меросига бағишланган мавзуларда маъруза қилинди.

2016 йилдан эътиборан бу борадаги ишлар янги босқичга кўтарилди. Жумладан, 2020 йил 11 августда Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Имом Мотуридий халқаро илмий-тадқиқот марказини ташкил этиш тўғрисида"ги қарори эълон қилинди. Ушбу ҳужжат асосида Ўзбекистон халқаро ислом академияси ҳузуридаги "Имом Мотуридий халқаро илмий-тадқиқот маркази" ташкил этилди. Имом Мотуридий ва унинг издошлари фаолиятини чуқур ўрганиш, уларнинг ақида ва калом илми ривожига қўшган бебаҳо ҳиссасини тадқиқ этиш ва бошқалар марказнинг асосий мақсади сифатида белгиланди [6].

Ушбу вазифалар ижросини таъминлаш мақсадида марказ томонидан турли тадбирлар амалга оширилди. Жумладан, 2020 йилнинг 3-5 март кунлари Самарқанд шаҳрида "Имом Абу Мансур Мотуридий ва мотуридия таълимоти: ўтмиш ва бугун" мавзусидаги халқаро конференция ташкил этилди.

Анжуманда 15 та мамлакатдан 70 га яқин уламо, исломшунос олимлар, нуфузли таълим муассасалари ва илмий тадқиқот марказлари раҳбарлари иштирок этди. Икки кун давом этган конференцияда қирқдан ортиқ маъруза тингланди. Маърузалардан Имом Мотуридий шахси ва ақидавий қарашлари, мотуридия калом мактабига оид янги манбалар, мазкур таълимотнинг бугунги кундаги аҳамияти ҳақида янги илмий маълумотлар берилди [10]. Конференция мотуридийлик таълимотини илмий асосда ўрганиш ва унинг глобаллашув жараёнида мўътадил таълимотни тарғиб қилишдаги ўрнини асослаб беришга хизмат қилди.

Мотуридия таълимотини халқаро миқёсда тарғиб қилиш ва Марказ фаолиятини ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш мақсадида унинг қошида Миср, Туркия, Иордания, Албания, Германия, Россия, Малайзия, Афғонистон, Қирғизистон ва Ўзбекистонлик 22 нафар аъзодан иборат Халқаро Илмий Ҳайъат тузилди. Шунингдек, 2021 йил август ойигача бўлган даврда Марказ томонидан Таълим, фан ва маданият масалалари бўйича ислом олами ташкилоти (ICESCO), Туркиянинг Анқара ва Салжуқ университетлари билан ҳамкорлик алоқалари ўрнатилди [3].

Марказ ташкил этилган кундан то ҳозирги кунга қадар қўлёзма манбаларни ўрганиш ва тарғиб қилиш бўйича кенг кўламли ишлар амалга оширилди. Жумладан, Имом Мотуридийнинг "Китоб ат-Тавҳид" асарининг Буюк Британиядаги Кембриж университети кутубхонасида сақланаётган дунёда ягона қўлёзма нусхаси асосида ўзбек тилидаги илмий изоҳли таржимаси ҳамда танқидий матни тайёрланди [2:6]. Мазкур асарнинг марказда тайёрланган илмий-изоҳли таржимаси китобни ўзбек тилига таржима қилишга илк уриниш бўлгани билан ҳам алоҳида аҳамиятга эга бўлди.

Таъкидлаш жоизки, ушбу асар Имом Мотуридийнинг эътиқод софлигини таъминлаш мақсадида ёзган шоҳ асари бўлиб, мотуридийлик таълимотига оид бирламчи ва энг мўътабар манба ҳисобланади. Марказ илмий ходимлари асарнинг таржима матнини аллома қолдиргандек ва издошлари ўқиганидек ўқувчига тақдим этишга қарор қилди. Матнда хато мавжуд ва маъно бериш имконсиз ёки ҳеч қандай изоҳ йўқ, деган хулосага келингандагина уни таҳрир қилишга қарор қилинди. Дахл қилинган ўринлар асосан изоҳда бўлиб, асосий матнга имкон қадар тегилмади [2:7].

Имом Мотуридий фаолиятини ўрганиш ва уни жаҳонга тарғиб қилиш бўйича халқаро онлайн учрашувлар ҳам ташкил этилди. Жумладан, 2020 йил 17 декабрда "Имом Мотуридий халқаро илмий-тадқиқот маркази: истиқболдаги режалар" номли халқаро онлайн матбуот анжумани ўтказилди. Конференцияда жаҳоннинг 20 га яқин мамлакатидан 40 дан зиёд исломшунос олим ва мутахассислар, халқаро ташкилот ва илмий муассасалар раҳбарлари

иштирок этди. Бундан ташқари, 2021 йилда Сингапурнинг Нанянг технологиялар университети ҳузуридаги Ражаратнам халқаро тадқиқотлар мактаби билан давра суҳбати ва "Мотуридийлик таълимоти ва ҳозирги замон" мавзусида халқаро онлайн илмий-амалий симпозиуми ўтказилди [9]. Бундай тадбирларнинг ўтказилиши Имом Мотуридий илмий меросини ўрганиш ва уни тарғиб қилишда катта аҳамиятга эга бўлди.

Имом Мотуридий асарларини таржима қилишга ҳам катта эътибор берилди. Жумладан, 2022 йилда Имом Бухорий халқаро илмий-тадқиқот маркази олимлари томонидан Мотуридийлик таълимоти асоси бўлган "Таъвилот ал-Қуръон" асарининг дастлабки 30-жузи ўзбек тилига таржима қилинди ва нашр этилди [14]. Таржимада Имом Мотуридий қарашларини имкон қадар енгил, тушуниш осон бўлган услубда халқимизга етказишга ҳаракат қилинди. Қуръони карим оятлари таржимасини келтиришда Шайх Абдулазиз Мансур қаламига мансуб "Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири" асаридан кенг фойдаланилди [4].

Ушбу асарнинг кейинги жузлари таржимаси ҳам амалга оширилди. Жумладан, 2022 йилда Имом Мотуридий халқаро илмий-тадқиқот маркази илмий ходимлари томонидан "Таъвилот ал-Қуръон" асарининг 27, 28 ва 29-жузлари, 2023 йилда эса 25-26 жузлари таржима қилинди. Ушбу асарнинг таржима қилиниши халқимиз орасида ислом маърифатини ёйиш, мотуридия таълимотининг ўрнини янада мустаҳкамлаш, ёш авлодни ботил ғоялардан ҳимоя қилишда муҳим аҳамиятга эга бўлди.

Имом Мотуридий халқаро илмий-тадқиқот маркази илмий ходимлари томонидан аллома илмий меросини ўрганиш билан бир қаторда мотуридий алломалар ҳаёти ва илмий фаолиятига оид қатор тадқиқотлар ҳам олиб борилди. Хусусан, мотуридий алломалар тўғрисида маълумот берувчи "Буюк аждодларимиз" рукни остида халқчил рисолалар, шунингдек, Имом Паздавийнинг "Усул ад-дин", Абул Муин Насафийнинг "Баҳр ал-калом", юртимиздан етишиб чиққан мотуридийлик таълимоти алломаларидан Имом Зандавистий қаламига мансуб "Равзат ал-уламо ва нузҳат ал-фузало" асарининг ўзбек тилидаги нусхасини яратиш устида иш олиб борилди.

Бундан ташқари, Марказ томонидан "Мотуридийлик таълимоти библиографияси" номли китоб ҳам нашрга тайёрланди. Унда мотуридийлик таълимотига оид классик манба ва замонавий адабиётлар ҳақида маълумотлар жамланди [2:7]. Мазкур китоб мотуридийлик таълимоти бўйича келажакда олиб бориладиган илмий-тадқиқотлар учун ҳам муҳим аҳамиятга эга бўлиши мумкин.

Кейинги йилларда ҳам аллома илмий меросини ўрганиш ва уни кенг тарғиб этиш ишлари давом эттирилди. Хусусан, 2025 йил 14 мартда

Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Имом Мотуридий таваллудининг 1155 йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида"ги қарори [7] эълон қилинди. Мазкур қарор асосида аллома таваллудининг 1155 йиллигига бағишланган тадбирларга тайёргарлик кўриш ва уларни ўтказиш бўйича ташкилий қўмита таркиби тасдиқланди. Шунингдек, ташкилий қўмита олдига алломанинг таваллуд санасини у зотнинг обрў-эътибори ва нуфузига мос тарзда нишонлаш бўйича чора-тадбирлар режасини тасдиқлаш вазифаси қўйилди.

Қарор асосида тасдиқланган режада амалга оширилиши лозим бўлган вазифалар ўз аксини топди. 2025 йил апрель ойида Самарқанд шаҳрида "Мотуридийлик – бағрикенглик, мўътадиллик ва маърифат таълимоти" мавзусида халқаро илмий-амалий анжуман ўтказиш, хорижлик тадқиқотчилар ўртасида мотуридийлик таълимоти бўйича илмий танлов ўтказиш, ғолиблар иштирокида Ўзбекистонда маданий-маърифий учрашув ва семинар-тренинглар ташкил этиш, Имом Мотуридийнинг "Таъвилот ал-Қуръон" ва "Китоб ат-тавҳид" асарлари ва мотуридийлик таълимотига оид манбаларнинг ўзбек ва хорижий тиллардаги илмий-изоҳли академик таржималарини нашр этиш ва бошқалар шулар жумласидандир [7].

Юқорида келтирилган вазифалар ижроси доирасида 2025 йил 2930 апрель кунлари Самарқанд шаҳрида "Мотуридийлик – бағрикенглик, мўътадиллик ва маърифат таълимоти" мавзусида халқаро илмий-амалий конференция бўлиб ўтди. Анжуманда Миср, Туркия, Малайзия, Буюк Британия, Индонезия, БАА, Саудия Арабистони, Кувайт, Қатар, Покистон, Озарбайжон, Қозоғистон, Қирғизистон, Тожикистон каби 26 давлатдан 70 дан зиёд муфтий, нуфузли исломшунос олим, мотуридийшунос тадқиқотчилар, давлат ва жамоат арбоблари, диний-маърифий соҳа вакиллари иштирок этди [12].

Анжуман ялпи мажлисида иштирокчилар томонидан аллома илмий мероси, мотуридийлик таълимотининг моҳияти ва унинг бугунги кундаги аҳамияти каби муҳим масалалар муҳокама қилинди. Анжуман сўнггида аллома илмий мероси ва мотуридийлик таълимотини ўрганишни янги босқичга олиб чиқиш бўйича нуфузли олимларнинг таклиф ва ташаббуслари асосида якуний декларация қабул қилинди. Унда ҳозирги кундаги долзарб масалаларга ечим топиш, хусусан, адашган оқимларга қарши раддиялар беришда мотуридийлик таълимотининг ўрни иштирокчилар томонидан эътироф этилди. Бундан ташқари, конференция давомида юртимиздаги илмий-маърифий марказлар томонидан тайёрланган китоблар кўргазмаси ҳам ташкил қилинди. Унда Имом Мотуридийнинг "Таъвилот ал-Қуръон" ва "Китоб ат-Тавҳид" асарларининг ўзбек тилидаги таржималари ҳам ўрин олди [12].

Аллома илмий меросини ўрганиш ва уни халқимиз орасида кенг тарғиб этиш борасида Имом Мотуридий халқаро илмий-тадқиқот маркази томонидан ҳам қатор ишлар амалга оширилди. 2024 йилда эса ижтимоий тармоқларда соҳага тегишли 1458 та материал эълон қилинди, 5 та публицистик мақола нашр этилди, шунингдек, 8 та телекўрсатув ва 18 та радиоэшиттириш тайёрланди [8]. Амалга оширилган бундай тадбирлар аллома илмий меросини халқимиз орасида кенг тарғиб қилиш ишларида муҳим аҳамият касб этди. Хусусан, 2025 йил август ойи ҳолатига кўра, турли мавзуларда маълумот бериладиган Марказ телеграм каналининг обуначилари сони қарийб бир ярим минг нафарга етган бўлса [11], қисқа видеолар жойлаштириладиган Yotube платформаси обуначилари сони 7300 [13] дан ошди.

Хулоса сифатида айтиш мумкинки, мустақиллик йилларида Имом Мотуридий илмий меросини ўрганиш ва тарғиб қилиш ишлари кўплаб ишлар амалга оширилди. Бунда 1999 йилда Ҳукумат томонидан Аллома юбилейини нишонлаш тўғрисидаги қарор муҳим аҳамиятга эга бўлди. 2016 йилдан эътиборан, Имом Мотуридий илмий меросини ўрганиш ишлари янги босқичга кўтарилди. Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони билан 2020 йилда Имом Мотуридий халқаро илмий-тадқиқот маркази ташкил этилди. Марказ фаолияти натижасида аллома асарларини ўзбек тилига илмий-изоҳли таржималарини амалга ошириш йўлга қўйилди, шунингдек, мотуридий алломалар асарларининг ўзбек тилига таржималари амалга оширилди. Шу билан бирга, аллома илмий меросини нафақат халқимиз орасида, балки жаҳон миқёсида тарғиб этиш мақсадида халқаро конференциялар ташкил этилди. Шу ва бошқа омиллар Аллома илмий меросини ўрганиш ва тарғиб қилишда катта аҳамиятга эга бўлди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Бўрибоев И. Президент Ислом Каримовнинг Бурҳониддин Марғиноний таваллудининг 910 йиллигига бағишланган тантанали маросимда сўзлаган нутқи. Маърифат газетаси, 2000 йил 18 ноябр. – Б.1.

2. Каримов Ж. Сўнгги йилларда Имом Мотуридий меросининг юртимизда ўрганилиши: эришилган натижалар ва истиқболдаги режалар. Мотуридийлик. 2024 йил 2-сон. – Б.6.

3. Мақсудов Д. Имом Мотуридий ва унинг издошларига кўрсатилаётган юксак эътибор. Янги Ўзбекистон газетаси, 2020 йил март ойи.

4. https://hilolnashr.uz/tavilot-al-quron-30

5. https://lex.uz/docs/1592041#1592084

6. https://lex.uz/docs/4945427

7. https://lex.uz/docs/7431408

8. https://moturidiy.uz/ignorance/infographic-detail?id=5&lang=uz

9. https://moturidiy.uz/uz/news/290
10. https://nasafziyo.uz/index.php?newsid=1008
11. https://t.me/moturidiyuz
12. https://uza.uz/ru/posts/moturidiylik-talimoti-ezgulikka-marifatga-boshlaydi_715129?q=%2Fposts%2Fmoturidiylik-talimoti-ezgulikka-marifatga-boshlaydi_715129
13. https://www.youtube.com/channel/UCd-YsWfYGqDRDyv8NNLQYgQ
14. https://zarnews.uz/post/tavilot-al-quron-quroni-karim-tafsiriga-bagishlangan-motabar-manba

IMOM MOTURIDIYNING HADIS ILMLARIGA MUNOSABATI

Jo‘rayev Muxriddin Xasanovich
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti katta o‘qituvchi

Annotatsiya: Maqolada Imom Moturidiy asarlarida hadis ilmlariga bo‘lgan yondashuvi tahlil qilinadi. Uning sanadga nisbatan “befarqligi”, mazmunga e’tibor qaratishi va hanafiy an’analaridagi metodologik xususiyatlari ochib beriladi. Shuningdek, Movarounnahr ilmiy muhiti, hadis rivoyatlari va isnod amaliyoti tarixiy manbalar asosida yoritiladi. Tadqiqot natijasida Moturidiyning hadis ilmiga oid o‘ziga xos qarashlari aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: Imom Moturidiy, hadis, isnod, Movarounnahr, Samarqand, Hanafiylik, rivoyat, sanad, tafsir, kalom, ilmiy an’ana.

Kirish. Islom ilmiy an’analari tarixida hadis ilmlari musulmon tafakkurining shakllanishida muhim o‘rin egallaydi. Xususan, Movarounnahr olimlari hadislarning talqini va qo‘llanilishiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Imom Abu Mansur Moturidiy (vaf. 333/944) ham hadis ilmlariga o‘ziga xos yondashuvi bilan ajralib turadi. Uning tafsir va kalom asarlarida rivoyatlar sanad emas, mazmun va maqsad nuqtai nazaridan baholanadi. Shu bois Moturidiyning hadisga munosabati ilmiy doiralarda turlicha talqin qilingan. Ushbu tadqiqotda Moturidiy davrining ijtimoiy-madaniy muhitidan boshlab, uning sanad va mazmun masalasidagi qarashlari hamda hanafiylik metodologiyasi tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. Moturidiy va uning hadisga munosabati masalasi turli tadqiqotchilar tomonidan yoritilgan. Sharq manbalarida Nasafiy, Abu al-Lays Samarqandiy, Lomishiy va Kosoniy asarlarida Moturidiyning hadis rivoyatlaridan foydalanish uslubi haqida ma’lumotlar uchraydi. Ibn Saloh va keyingi muhaddislarning isnod haqidagi qarashlari uning metodini anglashda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Maqdisiy, Zahabiy va Bartold kabi tarixchi va manbashunoslar esa Movarounnahr ilmiy muhiti va hadis ta’limiga oid qimmatli ma’lumotlar

qoldirgan. Hanafiy usul ilmlarida sanad va mazmun o‘rtasidagi yondashuvlar alohida e’tiborli. Biroq Moturidiyning hadis ilmidagi pozitsiyasini to‘liq qamrab olgan tadqiqotlar kam bo‘lib, bu mavzu hanuz dolzarbdir.

Asosiy qism. Samarqand, Jayhun (Amudaryo) sharqidagi Mavoraunnahrning eng yirik shahri bo‘lib, savdo va sanoat markazi sifatida yuksalgan. Somoniylar davrida poytaxt Buxoraga ko‘chirilsa ham, Samarqand ilmiy-madaniy mavqeini saqlab qoldi. Uning unumdor yerlari va savdo yo‘llarida joylashuvi muhim omil bo‘ldi [12]. Mintaqa aholisi so‘g‘d, turk va arablar bo‘lib, islomdan avval turli dinlarga mansub edilar. Maqdisiy (vaf. 390/1000) Samarqand aholisi asosan Ahli sunna val-jamoaga mansub bo‘lib, hukmron mazhab hanafiylik ekanini qayd etadi [1]. Siyosiy jihatdan esa shahar Moturidiy davrida Somoniylar nazorati ostida edi. Somoniylar olimlarni qo‘llab-quvvatlab, vaqf muassasalari va madrasalar tashkil etish orqali ilmiy taraqqiyotga zamin yaratdilar [6].

133/751-yilda Talas jangidan keyin qog‘oz ishlab chiqarish sirining Samarqandga kirib kelishi ilmiy muhit rivojiga katta turtki bo‘ldi. Idrisiyning yo‘qolgan “Tarixi Samarqand” asari, Nasafiyning “al-Qand” kitobida keltirilgan iqtiboslar Samarqandda hadis ta’limi keng tarqalganini ko‘rsatadi [11]. Avval masjidlarda, keyin esa madrasalarda hadis ilmi o‘qitilgan. Samarqand masjidlarida nafaqat mahalliy, balki boshqa hududlardan kelgan olimlar ham hadis rivoyat qilgan. Masalan, Abu al-Fadl as-San’oniy (275/888), Abu Osim al-Marvaziy (295/908), Abd ibn Yahyo al-Keshiy (307/919) va boshqalar shu yerda faoliyat yuritgan. Hatto chegara rabotlarida ham hadis ta’limi yo‘lga qo‘yilgan. Imom Buxoriy Samarqandga kelganda, 400 talabadan aralash isnodli hadislar bilan sinovdan o‘tkazilgani bunga dalildir [7].

Moturidiy “Ta’vilot” va “Kitabu at-tavhid”da hadislarni ko‘p hollarda sanadsiz, (رُوِيَ) “ruviya”, (جَاءَ) “ja’a”, (ذُكِرَ) “zukira” kabi ifodalar bilan keltiradi. U odatda sahoba roviylarini, ba’zan keyingi roviylarni ham zikr etadi, lekin Rasulullohgacha yetuvchi to‘liq sanad keltirmaydi. Ibn Saloh (643/1245) ta’kidlaganidek, keyingi davrlarda isnodlar hadisning sahihligini aniqlash vositasi sifatidagi ahamiyatini yo‘qotib, ko‘proq tabarruk maqsadida ishlatila boshlangan. Moturidiy esa hijriy IV asrdayoq sanadni ko‘p hollarda chetlab o‘tgan [3].

Shunga qaramay, tarixiy manbalar Samarqandda sanadli hadis rivoyati keng tarqalganini ko‘rsatadi. Dorimiy (255/869), Buxoriy (256/870), Abu al-Lays Samarqandiy (373/983) kabi olimlar asarlarida hadislar sanad bilan keltirilgan. Demak, isnodga befarqlikni faqat mintaqaviy yoki davriy omillar bilan izohlash mushkul. Davrga oid o‘zgarishlar Moturidiyning sanadlarni chetlab o‘tishini tushuntirishi mumkin. Biroq u hadis ilmining “oltin asri”dan keyingi davrda yashagan bo‘lib, zamondosh muhaddislar (Buxoriy, Muslim, Abu Dovud, Termiziy,

Nasoiy, Ibn Huzayma, Tahoviy, Ibn Hibbon) sanadga qat'iy amal qilganlar. Shuning uchun sanadni tark etish mintaqaviy yoki davriy sabablar bilan izohlanishi qiyin.

Bu holatda Moturidiy Hanafiy an'analaridagi mazmunga urg'u berish yondashuvi asosida harakat qilgan bo'lishi mumkin. Uning izdoshi Lomishiy "Xabar-i vohidni qabul qilish uchun isnod shart emas" degan fikrni bildiradi. Bu qarash Moturidiy asarlarida ham ko'rinadi. Hanafiylar umumiy ravishda hadislarning isnodidan ko'ra mazmuniga e'tibor qaratgan. Shu bilan birga, Abu Yusuf, Muhammad Shayboniy va Abu al-Lays Samarqandiy kabi olimlarning asarlarida hadislar sanad bilan ham keltirilgan. Demak, sanadni butunlay tark etish hanafiylarga xos tizimli amaliyot bo'lmagan.

Hattobiy esa hanafiylarni, fiqhiy rivoyatlarda sanadga rioya qilgan, ammo Rasulullohdan bo'lgan hadislarni qabul qilishda tasahhul ko'rsatganlikda tanqid qiladi. Shunga qaramay, Moturidiy va uning izdoshlari sanadni mutlaqo ahamiyatsiz deb bilmagan. U nazariy jihatdan mutavotir darajasiga yetmagan xabarlar haqida qaror chiqarishda roviylarning holatini tekshirishni zarur deb biladi.

Kosoniy Moturidiyning ayrim hollarda sanad bilan hadis rivoyat qilganini qayd etadi. Demak, u sanadga mutlaqo qarshi bo'lmagan, ammo amalda sahihlikni aniqlashda mazmunga ko'proq urg'u bergan. Lomishiy ham isnodning shart emasligi haqidagi fikrida, asosan mursal hadislarni nazarda tutgan bo'lishi mumkin. Chunki Hanafiy usul asarlarida xabar-i vohidning Qur'on va sunnat bilan muvofiqligi ham muhim mezon sifatida ko'riladi.

Xulosa qilib aytganda, Moturidiyning isnodlarga befarqligini faqat davriy yoki hududiy omillar bilan izohlash yetarli emas. Uning hadislarni sanad bilan emas, mazmun bilan baholashi- muhaddis emasligi va asarlarining rivoyatlar to'plami emas, tafsir va kalom darslariga asoslanishi bilan bog'lansa, to'g'riroq bo'ladi. "Ta'vilot" asari tafsir darslari yig'indisi bo'lgani uchun sanad zikri shart bo'lmagan, rivoyatlarning sanadlari esa talabalarga allaqachon ma'lum bo'lgan. Shuning uchun Moturidiyning hadislarni texnik rivoyat sifatida emas, balki istidlol vositasi sifatida ishlatganini ko'rish mumkin.

U asarlarda isnodga xos istilohlarni qo'llamay, "ruviya", "ja'a", "zukira" kabi ifodalardan foydalangan. Ibn Saloh va Munziriy bunday shakllar zaif hadislarni ifodalashini ta'kidlagan bo'lsa-da, Moturidiy sahih hadislarni ham shu uslubda keltirgan. Demak, bu ifodalar unda zaiflikni emas, odatiy rivoyat shaklini bildirgan.

Hanafiylar rivoyatlarda moddiy (isnod uzilishi) va ma'naviy (mazmuniy zidlik) inqitoni farqlaganlar. Muhaddislar isnod uzilishida hadisni rad etgan bo'lsa, Hanafiylar ba'zan ularni fiqhiy dalil sifatida ishlatgan, ammo ma'naviy inqito bo'lsa, hatto sahih sanadli hadisdan ham voz kechganlar. Moturidiy ko'pincha isnod masalalarida izoh bermagan, berilgan hollarda esa raqiblarining dalillariga javob tarzida ishlatgan. Masalan, u Shofeiylarni ba'zan mursal hadisni rad etib, ba'zan

noma'lum roviydan rivoyat qabul qilganliklari uchun tanqid qiladi. Shuningdek, o'g'irlik jazosi miqdori haqidagi mursal rivoyatni qo'llab-quvvatlash uchun sahobalarning rivoyatlarini ham keltiradi [9].

Moturidiy hadislarning sahihligini aniqlash uchun roviylar haqida jarh-ta'dil (qoralash va maqtash) qilish bilan shug'ullanmaydi. Aslida, hadislarni isnod bilan keltirmasligi, uning rivoyat qilgan hadislari roviylarini aniqlashni juda qiyinlashtiradi. Shunga qaramay, Moturidiy, boshqa dalillarga tayangan holda rad etgan ba'zi rivoyatlarda, o'z fikrining to'g'riligini isbotlash uchun ba'zi jarh ifodalarini ishlatadi. Masalan, aqliy dalillarga, Qur'onning nasiga va ba'zi rivoyatlarga zid ekanligi sababli rad etgan Abu Hurayra (r. 58/678) ning "Jahannam, Alloh oyoq qo'ygancha ko'proq odamni istaydi" rivoyatini, shuningdek, roviylardan birida mavjud bo'lgan zobt (eslab qolish) muammosi sababli ham rad etilishi kerakligini bildiradi.

Moturidiyning Balxiydan keltirganiga ko'ra, rivoyatning madorida (markazi) bo'lgan Hammod ibn Salama (r. 167/784), hadisni rivoyat qilgan paytda unutgan va aqliy qobiliyatlarini yo'qotgan edi. Shuning uchun undan hadis rivoyat qilinishi to'g'ri bo'lmagan bir holatda edi. Biroq, bu yerda ta'kidlanishi kerak bo'lgan jihat shundaki, roviy haqida jarh ifodalari bo'lmasa ham, Moturidiy bu rivoyatni avval boshqa dalillar bilan rad etgan edi. Qisqasi, yuqorida keltirilgan rivoyatda Moturidiy jarhni, rivoyatni rad etish uchun asosiy argument sifatida emas, balki qo'llab-quvvatlovchi element sifatida ishlatadi va hadisning muhaddislar mezonlariga ko'ra ham rad etilishi kerakligi tasvirlanadi.

Aslida, Moturidiy nazariy jihatdan xabarlarning isnodida bo'lgan roviylarning holatini tekshirishni qabul qiladi. Bunga ko'ra, ilm va shahodat (guvohlik) talab qiladigan mutavotir darajasiga yetmagan ohod (bir shaxsdan rivoyat qilingan) xabarlar, amal qilinishi yoki tark etilishi kerak bo'lgan ikki variantni ko'rsatadi. Bu holatda roviylarning holatlari tekshiriladi va ijtihod bilan qaror qabul qilinadi. Tekshiruvdan so'ng hadisning amal qilishga yaroqli yoki yaroqsizligi haqida qaror chiqarishning xato bo'lish ehtimoli ham mavjud. Biroq, eng yuqori bilim olish usuli bo'lgan sezgilar orqali ham, sezgilar zaifligi, kuzatilayotgan narsaning uzoq yoki nozik bo'lishi kabi sabablar bilan xato qilish ehtimoli mavjud bo'lsa-da, ularga amal qilinadi. Shunday qilib, Moturidiyga ko'ra, roviylarning holati va xabarning mazmuni tekshirilgandan so'ng, bunday xabarlarda, garchi mukammal va aniq ma'lumotga erishilmasa ham, zonn-i g'olib (ko'p hollarda to'g'ri bo'lishi mumkin bo'lgan) bilan amal qilinishi kerak.

Xulosa. Imom Moturidiy hadis ilmlariga yondashuvda o'ziga xos metodologiyani shakllantirgan olim sifatida namoyon bo'ladi. Uning asarlarida isnoddan ko'ra mazmunga e'tibor berilishi, hadislarning fiqhiy va aqidaviy masalalarda dalil sifatida qo'llanishida mazmuniy mantiqiylikni ustun qo'yishi

aniqlanadi. Shu bilan birga, tarixiy manbalar Movarounnahrda sanadli hadis rivoyati keng tarqalganligini ko‘rsatadi. Bu esa Moturidiy pozitsiyasini hududiy yoki davriy xususiyat bilan cheklab bo‘lmasligini bildiradi. Demak, u hadislarni asosan tafsir va kalom ilmlari kontekstida mazmuniy dalillash vositasi sifatida qo‘llagan, ammo sanadni to‘liq rad etmagan.

Tavsiyalar

1.Moturidiy merosida hadislarning mazmuniy talqini bo‘yicha maxsus tadqiqotlar olib borish zarur.

2.Hanafiylik va hadis ilmi o‘rtasidagi metodologik aloqalar qiyosiy tahlil asosida kengroq yoritilishi lozim.

3.Movarounnahr ilmiy muhitida hadis rivoyati amaliyotini alohida monografik tadqiq qilish foydali bo‘ladi.

4.Moturidiy tafsir va kalom asarlarida zikr etilgan hadislar zamonaviy ilmiy mezonlar asosida tasnif qilinishi kerak.

5.Islom ilmiy merosini o‘rganishda hadislarning sanad va mazmun masalasiga yondashuvlar ko‘p qirrali tahlil etilishi tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Abu Abdulloh Shamsaddin Muhammad ibn Ahmad ibn Abu Bakr al-Banno ash-Shomiy al-Bashshoriy al-Maqdisiy, Ahsanu’ttakosim fi ma‘rifati’l-aqolim, 3. nshr., Maktabatu Madbuli, Qohira.1991/1411

2.Abu Abdulloh Shihobuddin Yoqut ibn Abdilloh al-Hamaviy al-Bag‘dodiy ar-Rumiy, Mu‘jamu’l-buldon, Doru Sodir, 2. nshr., Bayrut 1995

3.Abu Amr Taqiyyuddin Usmon ibn Salohiddin Abdirrahmon ibn Muso ash-Shahrazuriy, Muqaddimatu ibni’s-Saloh fî ‘ulumi’l-hadis, thq. Abdulloh al-Minshaviy, Doru’l-hadis, Qohira 1431/2010

4.Abu Muhammad Zakiyyuddin Abdulazim ibn Abdilqoviy ibn Abdulloh al-Munziriy, at-Targ‘ib va’t-tarhib mina’l hadisi’sh-shsrif, nshr. Mustafo Muhammad Amora, 3. nshr., Maktabatu Mustafo, Misr 1388/1968, I, 37.

5.Abu’s-Sano (Abu’l-Mahomid) Mahmud ibn Zayd al-Lomishiy, Kitabun fi usuli’l-fiqh, 1. nshr., thq. Abdulmajid Turkiy, Doru’l-G‘arbi’l-islamiy, Bayrut 1995

6.az-Zahabiy, Abu Abdulloh Shamsuddin Muhammad ibn Ahmad ibn Usmon az-Zahabiy at-Turkmaniy al-Foriqiy ad-Damashqiy, Tarixu’l-islam va vafayoti’l-mashohiri va’l-a‘lom, 1. nshr., thq. Bashshor ‘Avvod Ma‘rûf, Doru’l-g‘arbi’l islamiy, Bayrut 2003

7.az-Zahabiy, Abu Abdulloh Shamsuddin Muhammad ibn Ahmad ibn Usmon az-Zahabiy at-Turkmaniy al-Foriqiy ad-Damashqiy, Siyaru a‘lomi’n-nubalo, 3. nshr., thq. Shu‘ayb al-Arnovud, Muassasatu’r-risola, yy. 1405/1985.

8.Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim al-Ju‘fiy. Sahhhu’l-Buxoriy, 1. bs., nshr. Muhammad Muhammad Tomir, Doru’l-Bayoni’l Arabiy, yy. 1426/2005.

9.Kosoniy, Badoi'u's-sanoi' fi tartibi'sh-sharoi', 2. nshr., Doru'l-kutubi'l-ilmiyya, yy. 1406/1986

10.Moturidiy, Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud al-Moturidiy as-Samarqandiy. Ta'vilotu ahli's-sunna/tafsiru'l-Moturidiy, 1. bs., thq. Majdiy Bosillum, Doru'lkutubi'l-ilmiyya, Bayrut 1426/2005.

11.Nasafiy. al-Qand fi zikri 'ulamo-i Samarqand, 1. nshr., thq. Yusuf al-Hodiy, Oyinatu meros, Tehron 1420/1999.

12.Vasiliy Viladimirovich Barthold, Four Studies on the History of Central Asia, tr. V. Minorsky–T. Minorsky, E. J. Brill, Leiden 1956

BUYUK SALJUQIYLAR DAVRI (1038-1157)DA XUROSONDA KALOM ILMI RIVOJI

Rajapov Pirnazar Sardor o'g'li
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada XI asrda Buyuk Saljuqiylar davlati (1038-1157) da kalom ilmi rivojiga hissa qo'shgan Abulqosim Qushayriy, Abulma'oliy Juvayniy va Imom G'azzoliy kabi buyuk mutakallimlar ilmiy faoliyati ochib berilgan. Shuningdek, Saljuqiylar davlatining mo'taziliy e'tiqoddagi vaziri Amidulmulk Kunduriyning ash'ariylarga qarshi faoliyati natijasida "Ikkinchi Mihna" fitnasi sodir bo'lishi hamda Abulqosim Qushayriy va Juvayniylarning ash'ariylik aqidasini himoya qilish yo'lidagi harakatlari, shu bilan birga, Imom G'azzoliyning botiniylarga qarshi raddiya ruhida yozgan asarlarining qisqacha mazmuni yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Buyuk Saljuqiylar davlati, kalom, Abulqosim Qushayriy, Abulma'oliy Juvayniy, Imom G'azzoliy, ash'ariylar, Amidulmulk Kunduriy, "Ikkinchi Mihna" harakati.

To'g'rulbey (1040-1063), Alp Arslon (1063-1072), Malikshoh (1072-1092) va Sanjar (1118-1157) kabi saljuqiy sultonlar olimlarga hurmat ko'rsatib, butun mamlakat bo'ylab ilm-ma'rifatni yoyishga harakat qilganlar. To'g'rulbey fath etilgan shaharlarga kirgach, birinchi navbatda olimlar va shariat peshvolarini ziyorat qilardi. Sulton Alp Arslon davrida esa madrasalar mamlakatning chekka hududlarigacha yoyildi. U shaxsiy tushumining bir qismini kambag'allarga, 1/10 qismini esa olimlarga ehson qilardi [9:43].

Islom olamining buyuk mutakallim, faqih, mufassir va muhaddislarining aksariyati Saljuqiylar davrida yetishib chiqdi. Jumladan, kalom ilmi yuqori darajaga ko'tarildi. Kalom ilmini o'rganishga bo'lgan e'tibor kuchayib, hatto oddiy xalq vakillarining ham aqidaviy bahs-munozara majlislarida ishtirok etishga rag'bati

oshgan. Ta'kidlab o'tish joizki, XI asrda Buyuk Saljuqiylar davlatida kalom ilmi rivojida ushbu uch buyuk mutakallimning o'rni alohida ajralib turadi: Abulqosim Qushayriy, Abulma'oliy Juvayniy va Imom G'azzoliy.

Abulqosim Qushayriy (376/986-462/1072) Ustuvo (*Bugungi kunda Eron Islom Respublikasining Turkmaniston bilan chegara qismida joylashgan Quchan shahriga to'g'ri keladi.*) shahrida tug'ilgan [7:204]. Qushayriy "Zaynulislom" nomi bilan tanilgan bo'lib, tasavvuf, kalom, hadis, fiqh, tafsir, usul, adabiyot va lug'at ilmlari bo'yicha zamonasining mashhur olimlaridan edi. Qushayriyni ko'proq mutasavvif sifatida e'tirof etishadi. U "Risolayi Qushayriya" asarida so'fiylikning sunniylik ta'limoti asoslariga zid emasligini isbotlashga harakat qilgan. Shuningdek, uning "Tafsiri kabir" kitobi mashhur tafsir asarlaridan hisoblanadi.

Olim yashagan davrda ash'ariylik ta'limotiga qarshi fitna avj olib, mazkur fitna tarixda "Ikkinchi Mihna" yoki "Mihna al-Ash'ariya" nomini olgan [7:208]. Ash'ariylikka ixlos qo'ygan olim 436/1045-yil imom Ash'ariyning ahli hadis ekani va sunniylik aqidasiga ergashgani to'g'risida fatvo berdi. Ushbu fatvoning to'liq matnini Tojuddin Subqiy "Tabaqot ash-shofe'iya al-kubro" asarida keltirib o'tgan [8:374].

Ikkinchi Mihna harakati 1053-yil Amidulmulk Kunduriyning Buyuk Saljuqiylar davlatiga vazir bo'lishi bilan boshlanib, 1063-yilgacha davom etgan. Fiqhiy jihatdan hanafiy, e'tiqodda esa mo'taliziy bo'lgan Kunduriy To'g'rulbeydan bid'at ahliga minbarlardan la'nat aytilishiga ruxsat olgan. Shofe'iylarga nafrati bo'lgan Kunduriy la'nat aytiladigan bid'at ahllari safiga ash'ariylarni ham kiritgan edi. Ish shu darajaga bordiki, Imom Ash'ariy va ash'ariylarni kofirga chiqarganlar ham bo'ldi [7:208-209]. Imom Qushayriy boshliq bir guruh ash'ariy olimlar To'g'rulbeydan ash'ariylarga qarshi haqsiz da'volar bekor qilinishini talab qilishsada, To'g'rulbey vaziri Kunduriyning ash'ariylar haqidagi noto'g'ri ma'lumotlariga asoslanib, ash'ariy olimlar talabini rad etadi. Natijada Imom Qushayriy 446/1054-yil bu zulmni butun Islom olami ulamolariga bildirish maqsadida "Shikoyati ahli-sunna bi hikoyati ma nalahum minal-Mihna" maktubi (risolasi) ni yozgan [6:473-475; 3:200-201].

Abulma'oliy Juvayniy (419/1028-478/1085) Nishopurning Juvayn qishlog'ida tug'ilgan. Juvayniy Buyuk Saljuqiylar davrining mashhur kalom, usul va fiqh olimlaridan edi. U Fiqh ilmini otasi Abu Muhammaddan o'rgangan [1:179]. Keyinchalik Imom Boqilloniyga shogirdlik qilgan [4:140]. Mo'taziliy vazir Amidulmulkning tazyiqi natijasida Xurosonni tark etib, Hijozga borgan. Makka va Madina shaharlarida 4 yil mudarrislik qilgani sababli "Imom al-haramayn" nomini olgan. Nizomulmulk Buyuk Saljuqiylar davlati vaziri bo'lgach, uni Nishopurga chaqirgan hamda unga atab Nishopur Nizomiyasini qurdirgan. 456/1063-64-yildan vafotiga qadar ushbu madrasada mudarrislik qilgan. Uning yetishtirgan 400 ga yaqin shogirdlari payti kelib o'z davrining mashhur olimlariga aylangan. Juvayniy kalom,

fiqh, tafsir va hadis ilmlariga oid 30 dan ortiq asar yozgan [1:179-180; 4:140]. Uning kalomga oid "Kitob al-irshod", "Kitob ash-shomil fiy usul ad-din", "Aqidatu Nizomiya" (Nizomulmulkka bag'ishlangan) va shofe'iy fiqhiga doir "Nihoyatul-matlab fiy diroyatil-mazhab" asarlari diqqatga sazovor [2:164]. Juvayniy Xurosonda shofe'iylarning yetakchi diniy peshvolaridan biri edi. Shu sababli XI-XII asrlarda ko'plab ahli ilmlar unga shogird bo'lishni faxr deb bilishgan. Jumladan, Imom G'azzoliy, Ilkiyo Harrosiy va Abulmuzaffar Havofiy uning shogirdlari bo'lgan.

Mashhur mutakallim, faqih va mutasavvif Imom G'azzoliy (450/1058-505/1111) Xurosonning Tus shahrida dunyoga kelgan. U Islom ilmlarining deyarli barchasida so'z sohibi bo'lgan. G'azzoliy yoshligida Nishopur Nizomiyasi bosh mudarrisi Juvayniydan mantiq, usul, fiqh va kalom ilmlari bo'yicha tahsil olgan. U Islomning boshqa diniy e'tiqod va falsafiy ta'limotlardan ustunligini isbotlashga harakat qilgani uchun "hujjatul-Islom" nomini olgan [4:139-140]. Imom G'azzoliy 34 yoshida Bag'dod Nizomiyasiga mudir bo'lgan. Bir muddat Nishopur Nizomiyasida mudarrislik ham qilgan [2:165-166]. Hayotining so'nggi yillarini tug'ilgan joyi Tusda o'tkazgan. Uyi yaqinida takka va madrasa qurdirib, yana ta'lim berishda davom etgan. Lekin ig'vogarlar Xuroson hokimi Sanjar (490/1097-511/1118) ga uni Abu Hanifaga qarshi faoliyatda ayblab, olimning bahs-munozaraga kelishini talab qilishsa-da, bahs-munozarada ko'zlagan maqsadlariga erisha olishmagan [5:396].

Tasavvuf va kalomni bir-biriga uyg'unlashtirib, Islom tafakkurida yangi yo'nalishga asos solgan G'azzoliy Islom ilmlari bo'yicha 100 yaqin asar yozgan [2:165-166]. Uning tasavvufga oid 4 jildlik "Ihyou ulumid-din" asari asrlar davomida ahli ilmlar e'tiborini o'ziga qaratib kelgan. Qolaversa, o'zining hayoti va asosiy e'tiqodiy masalalar yoritilgan "al-Munqiz minad-dolal hamda o'sha davrda tobora qizg'inlashib, ildiz otib borayotgan botiniylik ta'limoti qarashlariga qarshi xalifaning xohishiga binoan jarh yo'li bilan yozgan raddiyasi ("al-Mustazhiri fir-raddi alal-botiniya"), "Hujjatul-haq fir-raddi alal-botiniya", "al-Qistos al-mustaqim" nomli asarlari ham diqqatga sazovor. Shuningdek, uning falsafaga oid qarashlari aks etgan "Faysalut-tafriqa baynal-Islom vaz-zindiqa", "Maqosidul-falosifa", "Tahofutul-falosifa"; shofe'iy fiqhiga oid "al-Mustafo fiy usulil-fiqh", "Bayon al-qavlayn", "Xulosat ar-rasoil ila ilmil-masoil, "Bosit", "Vosit", "Vojiz", "al-Xulosa"; tasavvufga oid "al-Maqsad al-asno"; kalomga doir "Qavoidul-aqoid", "Iljamul-avom an ilmil-kalom" nomli asarlari ham muhim ahamiyatga ega [2:165-166]. G'azzoliyning Islom aqidasini botil e'tiqodiy ta'limotlardan himoya qilish yo'lidagi sa'y-harakatlari va bu borada faylasuflarni ham tanqid ostiga olgani uning Islom olamiga tanilishi hamda qarashlarining keng omma tomonidan qabul qilinishiga sabab bo'ldi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, insoniyat tarixining har bir davrida mutaassib toifalar yuzaga kelib, o‘zlarining radikal ruhdagi g‘oyalarini targ‘ib qilishi aqidaviy ixtiloflarni keltirib chiqargan. Natijada zamonasining mutakallimlari adashgan toifalar g‘oyaviy xurujlaridan sof Islom aqidasini himoya qilish uchun ularga raddiya mazmunida asarlar yozishgan. Shu taxlit kalom ilmi muttasil ravishda metod o‘zgarishi jarayonlariga yuz tutgan va har bir davrning turli xil murakkab sharoitlariga muvofiq mazmunda kitoblar yozilgan. Jumladan, XI asr o‘rtalarida Buyuk Saljuqiylar davlati vaziri Amidulmulk Kunduriy ash'ariylarga qarshi "Ikkinchi Mihna" fitnasini avj oldirgach, Abulqosim Qushayriy va Abulma'oliy Juvayniylar ash'ariylik ta'limoti himoyasi yo‘lida harakat qilishdi. Shuningdek, Imom G‘azzoliy esa botiniylik talimotiga raddiya ruhida asarlar yozib, kalom ilmi rivojiga katta hissa qo‘shgan.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Cihan Piyadeoğlu. Büyük Selçuklular döneminde Horasan (1040-1157) // Doktora tezi. – İstanbul, 2008. – 383 s.

2. İ.Kafesoğlu. Büyük Selçuklu imparatoru Sultan Melikşah. – İstanbul: Milli Eğitim Basımevi, 1973. – 201 s.

3. Kadir Özköse. Klâsiklerimiz/III: "er-Risâle" (İmam Abdülkerim el-Kuşeyrî) // Tasavvuf: İlmî ve Akademik Araştırma Dergisi, C.2, sayı: 4, 2000. – S. 199-214.

4. Selim Özarslan. Selçuklularda kelam ilmi ve kelam alimleri // I.Uluslararası Selçuklu kültür ve medeniyeti kongresi, C.2. – Konya, 2001. – S. 137-145.

5. Sevim Tekeli. Büyük Selçuklu İmparatorluğunun uygarlığa katkıları // Erdem, C.9, sayı 25, 1996. – S. 393-421.

6. Süleyman Uludağ. Kuşeyrî, Abdülkerim b. Hevazin // Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi. C.26. – Ankara: TDVY, 2002. – S. 473-475.

7. S.Yılmaz, M.S.Kaya. Selçuklu sultanı Tuğrul bey döneminde etkin bir âlim: Abdülkerim el-Kuşeyrî ve Şikâyetü Ehli's-Sünne başlıklı risalesi // SDÜİF Dergisi, sayı 40, 2018. – S. 203-216.

8. Tojuddin Subqiy. Tabaqot ash-shofe'iya al-kubro (طبقات الشـافعية الكبرى), III jild. – Qohira: Darul-ihya al-kutub al-arabiya, 1992.

9. Yahya Akyüz. Türk Eğitim Tarihi. – Ankara: Pegem Akademi Yayınları, 2008. – 529 s.

MOTURIDIY TA'LIMOTI VA BUGUNGI DINIY-MA'NAVIY HAYOT

Miraxmedova Shoxida Nusratilloyevna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada IX–X asrlar islom tafakkuri rivojida yirik mutakallim va mufassir bo'lgan Abu Mansur Moturidiy (870–944) hayoti va ilmiy merosi yoritilgan. Moturidiy hanafiylik asosida shakllangan moturidiylik aqidaviy maktabining asoschisi sifatida musulmon olamida keng e'tirof etiladi. Tadqiqotda uning ilmiy faoliyati, xususan, "Kitob at-Tavhid" va "Ta'vilot al-Qur'on" asarlarida ilgari surilgan asosiy aqidaviy va kalomiy qarashlar tahlil qilinadi. Shuningdek, Moturidiy ta'limotining aql va vahiy o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashdagi o'rni, inson erkinligi va taqdir haqidagi qarashlari hamda bugungi kunda diniy-ma'naviy hayot uchun ahamiyati ochib beriladi. Maqola natijalari moturidiylik merosini zamonaviy sharoitda o'rganish va uni ma'naviy-ma'rifiy faoliyatda qo'llash imkoniyatlarini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Abu Mansur Moturidiy, kalom, moturidiylik, hanafiylik, aqida, tafsir, taqdir, inson erkinligi.

Kirish. Islom falsafasi va kalom ilmining rivojida yirik maktablar va ulkan allomalar muhim o'rin tutadi. Ana shunday ulug' mutakallimlardan biri Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud al-Moturidiy Samarqandiy (870–944)dir. U hanafiylik aqidaviy ta'limotining nazariy asoschisi, moturidiya kalom maktabining yaratuvchisi sifatida musulmon olamida keng e'tirof etilgan [3].

Asosiy qism. Moturidiy hayoti va merosini o'rganish bugungi kunda ham nafaqat diniy-falsafiy, balki ijtimoiy-ma'naviy jihatdan ham dolzarbdir.

Moturidiy IX asr oxiri va X asr boshlarida Movarounnahrning yirik ilmiy markazi bo'lmish Samarqandning Moturid qishlog'ida tug'ilgan. Uning hayoti haqida ko'p tafsilotlar saqlanmagan bo'lsa-da, u mashhur faqih Abu Bakr al-Juzjoniy va Abu Nasr Ahmad ibn Abbos al-Iyodiydan tahsil olgani manbalarda zikr etiladi [1].

Abu Mansur Moturidiy IX asr oxiri va X asr boshlarida Movarounnahrning yirik ilmiy markazi bo'lmish Samarqandning Moturid qishlog'ida tug'ilgan. Uning hayoti haqida manbalarda ko'p ma'lumotlar uchramaydi, biroq u o'z davrida diniy va falsafiy bilimlarni chuqur egallagan, hanafiylik fiqh maktabining yirik vakillari huzurida tahsil olgan.

Moturidiy mashhur faqih va muhaddis Abu Bakr al-Juzjoniy, Abu Nasr Ahmad ibn Abbos al-Iyodiy kabi olimlardan dars olgan. U o'zining ilmiy faoliyatini Samarqandda olib borgan va umrining oxirigacha shu yerda yashab, ta'lim-tarbiya

bilan shug‘ullangan. 944-yilda Samarqandda vafot etgan va hozirda “Chokardiza” qabristonida dafn etilgan [6].

Moturidiy asosan kalom, fiqh va tafsir fanlari bilan shug‘ullangan. Uning asarlarida aqida masalalari, insonning erkinligi va taqdir, Allohning sifatlari, iymon va kufrning mazmuni, Qur’onni talqin qilish usullari haqida chuqur mulohazalar bayon etilgan.

“Kitob at-Tavhid” – kalom ilmidagi asosiy asari bo‘lib, unda iymon, aqida, taqdir, inson erkinligi kabi fundamental masalalar izohlangan.

“Ta’vilot al-Qur’on” – Qur’on tafsiri bo‘lib, unda oyatlar kalomiy va mantiqiy izohlangan. Shuningdek, fiqh va kalomga oid boshqa asarlar ham qalamga olgan [2].

Moturidiy ta’limotining asosiy g‘oyasi – inson aql-idroki diniy masalalarda muhim vosita bo‘lishi mumkinligidir. U taqdir va inson irodasi masalasida o‘rtacha yo‘lni tutgan: insonning amal va harakatlari Alloh tomonidan yaratiladi, biroq inson ularni tanlash va amalga oshirishda erkinlikka ega.

Moturidiy Allohning sifatlari haqida bahs yuritib, ularni Qur’onga mos tarzda izohlagan, mutaassib guruhlarning cheklangan qarashlarini inkor etgan. U fiqhda hanafiylikka, aqidada esa “moturidiya” nomi bilan mashhur bo‘lgan mustaqil maktab asoschisi bo‘ldi.

Xulosa. Abu Mansur Moturidiy musulmon dunyosida kalom va aqida ilmining yirik namoyandasi sifatida e’tirof etiladi. Uning hayoti, asarlari va ta’limoti nafaqat o‘z davri, balki keyingi asrlarda ham ilm-fan rivojiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Bugungi kunda ham moturidiylik ta’limoti Markaziy Osiyo, Turkiya va boshqa hududlarda keng tarqalgan bo‘lib, diniy-ma’naviy hayotda muhim o‘rin egallaydi.

Abu Mansur Moturidiy IX–X asrlarda Movarounnahr ilmiy-ma’naviy muhitida yetishib chiqqan ulkan mutakallim va mufassir sifatida islom ilmi rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan. U yaratgan “moturidiylik ta’limoti” hanafiylik fiqh maktabi bilan uyg‘unlashib, musulmon olamida keng tarqalgan aqidaviy maktab sifatida shakllandi. Moturidiy inson tafakkurini dinni anglashda muhim vosita sifatida e’tirof etib, aql va vahiy o‘rtasidagi uyg‘unlikni asoslab berdi.

Bugungi kunda moturidiylik nafaqat diniy, balki falsafiy va ijtimoiy-ma’naviy jihatdan ham katta ahamiyatga ega bo‘lib, u mutaassiblikka qarshi kurashishda, ilmiy asoslangan diniy dunyoqarashni shakllantirishda muhim manba hisoblanadi. Shunday qilib, Moturidiy hayoti va merosi islom falsafasi va musulmon tafakkuri tarixida o‘chmas iz qoldirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Al-Bag‘dodiy, A. (1991). “Tarix al-bag‘dod”. Qohira: Dar al-Kutub.
2. Al-Moturidiy, A. M. (2001). “Kitob at-Tavhid”. Qohira: Maktaba al-Azhariya.

3. Karimov, A. (2005). "Islom falsafasi va kalom ilmi tarixi". Toshkent: Ma'naviyat.

4. Moturidiy, A. M. (1970). "Ta'vilot al-Qur'on". Istanbul: Diyanet nashriyoti.

5. Nasriddinov, H. (2016). "Moturidiy ta'limotida inson va taqdir masalasi". "Islomshunoslik jurnali", №2, 90–102.

6. Rahmatullayev, Sh. (2012). "Markaziy Osiyo mutafakkirlari merosi". Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi.

BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARIDA KREATIV YOZMA NUTQ KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH: IMOM MOTURIDIY QARASHLARI ASOSIDA

Rajabova Zebiniso Anvarovna
BuxDPI tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida kreativ yozma nutq kompetensiyasini shakllantirish strategiyasini takomillashtirish masalasi yoritiladi. Tadqiqotda yozma nutqning kreativ jihatlarini rivojlantirishda Imom Moturidiy ilmiy merosidan foydalanish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Pedagogik jarayonda tafakkur erkinligi, dalillash madaniyati va mustaqil fikrlashni rag'batlantirishga asoslangan metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi. Shu bilan birga, maqolada amaliy mashqlar va interfaol metodikalar batafsil keltiriladi.

Kalit so'zlar. Kreativ yozma nutq, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari, pedagogik strategiya, Imom Moturidiy, tafakkur erkin

Kirish. Globallashuv davrida ingliz tili nafaqat xalqaro aloqa vositasi, balki ilmiy va madaniy integratsiyaning asosiy kalitidir. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari nafaqat til bilimiga, balki kreativ yozma nutq kompetensiyasiga ham ega bo'lishlari zarur. Yozma nutqning kreativligi talabalarga mustaqil, mantiqiy va original fikrlar ifodalash imkonini beradi. Shu jihatdan, pedagogik strategiyalarni takomillashtirish dolzarb masalaga aylanadi. Imom Moturidiy (870–944) o'z davrining yirik mutafakkiri bo'lib, tafakkur erkinligi, ilmiy asoslangan dalillash va mantiqiy mushohada qilish tamoyillarini ilgari surgan. Uning qarashlari zamonaviy ta'lim jarayonida, xususan, yozma nutq kompetensiyasini shakllantirishda muhim metodologik asos bo'la oladi.

Moturidiy ta'limotida ilmiy tafakkur va axloqiy yondashuv bir-biri bilan chambarchas bog'langan. U yozma nutqni faqat mantiqiy izchil fikrlar emas, balki shaxsiy axloqiy qarashlar va ijtimoiy mas'uliyat bilan bog'lashni tavsiya qiladi.

Shu nuqtai nazardan, zamonaviy ingliz tili o‘qituvchilariga quyidagi pedagogik printsiplarni qo‘llash tavsiya etiladi:

1. Ilmiy asoslangan dalillash – Talabalar har bir fikrni faktlar, statistik ma'lumotlar yoki mavzu bo‘yicha ilmiy manbalar bilan mustahkamlashadi.

2. Axloqiy va ijtimoiy kontekst – Yozma ishlar mavzusi ijtimoiy masalalarni, insoniy qadriyatlarni o‘z ichiga oladi. Masalan, "Texnologiya va insoniy qadriyatlar" mavzusida esse yozish.

3. Kreativ ifoda – Talabalar fikrlarini original va noodatiy shaklda ifodalaydilar, yangi metaforalar va tahlil usullarini qo‘llashadi.

Bu yondashuv talabalarda mantiqiy izchillik, dalillash va ijodiy erkinlikni bir vaqtda rivojlantiradi.

Metodologiya. Tadqiqot bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining yozma ishlarini tahlil qilish va ularning kreativ fikrlash darajasini baholashga asoslandi. Quyidagi strategiyalar ishlab chiqildi:

1. Tafakkur erkinligi mashqlari – Talabalar berilgan mavzuda o‘z pozitsiyasini dalillar bilan himoya qilgan erkin insho yozadilar.

2. Maqol va hikmatlardan foydalanish – Moturidiyning hikmatli fikrlarini ingliz tilida qayta ifodalash orqali ijodiy tarjima ko‘nikmalarini rivojlantirish.

3. Muammoli vaziyatlar tahlili – Talabalar hayotiy yoki ijtimoiy masalalar yuzasidan mantiqiy asoslangan yechimlar taklif qiladilar.

4. Interfaol yozma o‘yinlar – Guruh bo‘lib hikoya yaratish, ijodiy esse tanlovlari va bir-birining ishini tahlil qilish.

Amaliy mashqlar.

1. Rolga kirib yozish (Role-play writing)

– Talabalar tarixiy shaxs yoki zamonaviy ekspert rolini o‘zlashtiradilar va mavzu bo‘yicha maktub yoki maqola yozadilar.

– Bosqichlar: mavzuni tanlash → dalillarni yig‘ish → yozish → guruh muhokamasi.

2. Parafraz va kengaytirish

– Moturidiy hikmatlari qisqa shaklda beriladi.

– Talabalar ularni ingliz tilida kengaytiradilar, misollar va shaxsiy izohlar qo‘shadilar.

3. Kollektiv insho

– Guruh bo‘lib bir mavzu asosida hikoya yoki insho yozish.

– Har bir talaba o‘z qismiga mas'ul bo‘ladi va yakunda mantiqiy butunlik ta'minlanadi.

4. Dalillar jadvali

– "Fikr → Dalil → Qarshi fikr → Xulosa" shaklida jadval tuzish.

– Talabalar mavzuni tanlaydi, dalillar bilan mustahkamlashadi va qarshi fikrlarni tahlil qiladilar.

5. Interfaol seminarlar va texnologiya

– Google Docs, Padlet, Jamboard platformalarida talabalar bir vaqtning o‘zida yozadilar va bir-birining ishini tahrir qiladilar.

– Bu interaktivlik va jamoaviy ijodiylikni oshiradi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot natijasida quyidagilar kuzatildi:

– Talabalar yozma ishlarida mantiqiy izchillik va dalillashni yaxshiroq qo‘llashdi.

– Kreativ yondashuv darajasi oshdi, original fikrlar va noodatiy yondashuvlar paydo bo‘ldi.

– Interfaol mashqlar orqali talabalar jamoaviy ishlash va tanqidiy fikrlashni rivojlantirdilar.

Shuningdek, talabalarning yozma ishlarida orignal fikr ifodasi, mantiqiy bog‘lanish va strukturaviy izchillik sezilarli darajada oshdi.

Xulosa. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida kreativ yozma nutq kompetensiyasini shakllantirish strategiyasini takomillashtirishda Imom Moturidiy qarashlarini integratsiya qilish samarali natijalar beradi. Bu yondashuv talabalarda mustaqil, mantiqiy va ijodiy fikrlashni rag‘batlantiradi hamda ularning yozma nutq sifatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Richards, J. C., & Renandya, W. A. (2002). Methodology in Language Teaching. Cambridge University Press.

2. Harmer, J. (2007). The Practice of English Language Teaching. Pearson Longman.

3. Moturidiy, A. M. (n.d.). Kitab at-Tavhid.

4. Abdullayev, A. (2019). Imom Moturidiy merosida tafakkur erkinligi. O‘zbekiston ilmiy jurnali, №4.

QALB VA AQL UYG'UNLIGI: MOTURIDIYLIK TA'LIMOTINING BUGUNGI DAVRDAGI TALQINI

Shodiyeva Mehribon Amin qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada islom olamining atoqli shaxslaridan biri Abu Mansur al-Moturidiyning ilgari surgan g'oyalari, qarashlari hamda moturidiylik ta'limotida aks etgan fikrlarning bugungi kun bilan aloqadorligi o'zaro tahlil qilingan. Keltirilgan mulohazalar misollar orqali izohlangan.

Kalit so'zlar. Moturidiylik, aqida, sekulyarizm, diniy radikalizm, iymon, "Kitab at- Tavhid", vahiy, mafkuraviy tahdid.

Kirish. Abu Mansur al-Moturidiy sunniy aqida asoschilaridan biri bo'lib, islom olamida muhim shaxslardan biri hisoblanadi. U X asrda Samarqandning Moturid qishlog'ida yashab o'tgan va aql bilan dinni uyg'unlashtirish fikrida bo'lgan. Hanafiya fiqh maktabi hamda Moturidiy aqida maktabiga asos solgan bo'lib, moturidiylik sunniy e'tiqod maktablaridan biri sifatida musulmonlar orasida keng tarqalgan. Ushbu maktabning asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilarni aytish mumkin: aqlga yuksak o'rin berish, iymon va amal, qadar hamda erkin ixtiyor, Allohning sifatlari, vahiyning ahamiyati. Moturidiyning arab tilida yozilgan "Kitab at-Tavhid" asari aqidaviy tizimning asosiy manbasi sifatida qadrlanadi. Unda juda ko'plab mavzular, jumladan, aqida, iymon, aql, Allohning sifatlari, qiyomat, payg'ambarlik kabi mavzular chuqur tahlil qilinadi. Moturidiylik, asosan, Markaziy Osiyo, Turkiya, O'zbekiston, Hindiston, Afg'oniston kabi mamlakatlar hududida keng yoyilgan bo'lib, ayniqsa, Temuriylar davrida rivojlangan. Bugungi kunda ham yurtimiz musulmonlari asosiy e'tiqodiy yo'nalish sifatida e'tirof qilishadi. Moturidiylikning dolzarblik jihatlari quyidagilar bilan asoslanadi: ekstremistik, literalistik yondashuvlarga qarshiligi, aqlga asoslangan din talqini, sekulyarizm va diniy radikalizm o'rtasidagi o'z an'analariga ega, jamiyatda muhim o'rin tutishi bilan.

Bugungi davrda diniy matnlar, qadriyatlarga nisbatan ayrim tushunmovchiliklarni bartaraf etishda ushbu ta'limot aql, vahiy hamda iymon o'rtasidagi muvozanatni ta'minlab turishi bilan asosiy vosita bo'la oladi. Bunda aql Allohni tanishda zaruriy omil sifatida qaraladi va bu orqali ateizmga nisbatan tafakkur bilan yondashishni targ'ib qiladi. Shuningdek, iymon qalbning tasdig'i, amallar esa unga bog'liq holda qaralishi, ammo alohida hisoblanishi haqida aytiladi.

Jamiyatimizda fuqarolik ongi, mas'uliyatini shakllantirish masalasi dolzarb ahamiyatga ega. Moturidiylikda ham erkin iroda va mas'uliyatga jiddiy qaraladi. Ushbu ta'limotning bugungi kun bilan bog'liqligi hamda ahamiyatli bo'lgan jihatlari mavjud. Ta'lim-tarbiya jarayonida diniy fanlarni o'qitishda aqliy yondashuvga

tayanish, radikalizmga qarshi kurashishda asoslangan islomiy tushunchalarni targ‘ib qilishi orqali turli diniy nizolarning oldini olish kabilar shular jumlasidan. Aql va din uyg‘unligi asosida muammolarning yechilishi ma’naviy bo‘shliqning oldini olishga xizmat qiladi. Ayniqsa, erkin iroda va javobgarlik g‘oyalarining ustunligi jamiyatimizda adolatning ustuvor bo‘lishini ta’minlashda ahamiyatlidir. Imom Moturidiy aqlni Allohni tanishda vosita, ibodat va ahkomlar esa vahiy orqali bilinishini aytadi. Aksincha, bugungi kundagi diniy ekstremizm g‘oyalariga qaraganimizda vahiyning so‘zma-so‘z talqin qilinishi, aqliy yondashuvning inobatga olinmasligiga guvoh bo‘lamiz. Afsuski, diniy bilimlarning yetishmasligi, aql va vahiy o‘rtasidagi munosabatning yo‘qligi natijasida ayrim insonlarning qurbonga aylanib qolayotgani achinarlidir. Moturidiya ta’limotida “hamma narsa oldindan yozilgan” deya loqayd bo‘lishdan qaytariladi, ya’ni erkin, mas’uliyatli mavjudot deb biladi.

Bugungi kunda ham “loqaydlik” jamiyatni ichdan yemiruvchi illat sifatida qaraladi. Ruhiy poklanish, ma’naviy ozuqa olish, Allohga iymon keltirish orqali turli ziddiyatlar, buzg‘unchilik va jinoyatchilikning oldini olishga erishish mumkin. Bir so‘z bilan aytganda, Moturidiylik shunchaki aqidaviy maktab emas, balki jamiyatdagi muammolarga tafakkur hamda diniy uyg‘unlik asosida javob bera oladigan tizimdir. Undagi har bir g‘oya hamda qadriyatlar har bir davr uchun dolzarbligi bilan qadrlidir.

Adolat, aql, mas’uliyat, iymon kabi tushunchalar o‘rtasida muvozanatni saqlash diniy barqarorlik va jamiyat xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Darhaqiqat, yozuvchi Luqmon Bo‘rixonning “Imom Moturidiy” nomli asarida ushbu fikrlar yana-da aniqroq o‘z tasdig‘ini topgan. Mustaqillikdan keyingina Moturidiy merosini o‘rganishga jiddiy kirishildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan 2000-yilda Moturidiy tavalludining 1130 yilligining keng nishonlanishi bunday amaliy ishlarning natijasini ko‘rsatib berdi. Moturidiy musulmon olamining mahhur kishilaridan bo‘lib, din, aql va mantiqqa oid o‘z fikrlarini tatbiq qilish maqsadida bir qancha asarlar yozgan, biroq ularning hammasi ham bizgacha yetib kelmagan. Islomiy ilmlarda tengsiz bo‘lganini “Imom al-Xuda”, “Imom al-mutakallimin” kabi nomlar bilan ulug‘langanidan ham bilishimiz mumkin. 2020-yil 3-4-mart kunlari Samarqand shahrida “Imom Moturidiy va moturidiya ta’limoti: o‘tmish va bugun” nomli xalqaro konferensiyaning tashkil qilinishi, unda 15 mamlakatdan 55 nafar taniqli ulamo, muftiy, moturidiyshunos ekspertlar, 100 nafar mahalliy olim va tadqiqotchilarning ishtirok etishi, 2020-yil 11-avgust kuni Yurtboshimiz tashabbuslari bilan Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining tashkil etilishi buyuk mutafakkir merosiga nisbatan chuqur hurmat va e’tiborning yorqin namoyishidir.

Imom Moturidiy hazratlarining ko‘pgina hikmatli so‘zlari har bir inson amal qilishi zarur bo‘lgan ibratli pand-nasihatlar yig‘indisidir. Jumladan, “Yurt obodligi va xalq farovonligini istasang, qo‘ling ochiq bo‘lsin!”, “O‘zgalarga hurmat-ehtirom ko‘rsatish, og‘irini yengil qilish – boylikdan afzal”, “To‘g‘ri yo‘lning kaliti ilmdir!”, “Diningni ilm bilan asragin!” [5] kabi purma’no so‘zlar zamirida chuqur falsafiy xulosalar mujassam. Yomon illatlardan qochish, ezgu amallarni ko‘paytirish, Ollohni tanish, doimo yaxshi insonlarga ergashish kabi masalalarda o‘z fikrlarini bayon qilib, turli oqimlarga qarshi chiqqan holda din va aql uyg‘unligini qo‘llab-quvvatlagan.

Xulosa. Aqliy yondashuv asosida diniy bilimlarning targ‘ib qilinishi jamiyatdagi diniy savodsizlikka barham beradi. Radikalizm, sekulyarizm, ekstremizm kabi mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashishda diniy bilimlar juda muhimdir. Moturidiylik ta’limoti esa bunday ma’naviy bo‘shliqning oldini olishda asosiy manbalardan biri sifatida xizmat qiladi. Ya’ni, turli yot ta’sirlarga qarshi immunitet hosil qilishda ushbu ta’limot ilgari surgan g‘oyalar juda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Al-Moturidiy ta’limoti va uning Sharq xalqlari madaniyatidagi o‘rni. Ma’ruzalar to‘plami, T., – 2000.
2. Mansur A. Al-Moturidiy ta’limoti, T., 2003.
3. Ziyodov Sh. Al-Moturidiy hayoti va merosi. T., 2000.
4. 100 Markaziy Osiyo mutafakkirlari. O‘zbekiston Respublikasi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo‘mitasi. Toshkent islom universiteti «YANGI NASHR», 2011
5. Imom Moturidiy. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy Xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi. 2021-yil 19-avgustdagi 03-07/5077-raqamli xulosasi asosida.

MOTRUDIYLIK TA'LIMOTI VA HOZIRGI ZAMON

Qandimova Nasiba
Buxoro davlat pedagogika instituti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi I bosqich tayanch doktaranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abu Mansur al-Motrudiyning hayoti, asarlari va aqidaviy qarashlari tahlil qilinadi. Motrudiylik ta'limotining asosiy g'oyalari – aql va vahiy uyg'unligi, e'tiqodda dalil zarurligi, inson erki va mas'uliyati hamda diniy bag'rikenglik yoritiladi. Shuningdek, ushbu ta'limotning hozirgi davrda, xususan, O'zbekistonning ma'naviy hayoti va yoshlar tarbiyasidagi o'rni ochib beriladi.

Kalit so'zlar. Abu Mansur al-Motrudiy, motrudiylik, vahiy, aql, bag'rikenglik, zamonaviylik, ma'naviyat, ta'limot.

Kirish. O'rta asrlar musulmon tafakkurining eng yirik mutafakkirlaridan biri Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud al-Motrudiy (870-944) o'zining aqidaviy ta'limoti bilan islom ilm-fan tarixida alohida o'rin egallaydi. U yaratgan motrudiylik maktabi musulmon dunyosida hanafiy mazhabining asosiy aqidaviy yo'nalishlaridan biri sifatida tan olingan.

Bugungi globallashuv davrida diniy bilimlar, millatlararo muloqot va ijtimoiy barqarorlik masalalari dolzarb bo'lib borayotgani sababli motrudiylik ta'limotini qayta o'rganish nafaqat tarixiy, balki amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu ta'limot radikalizm, diniy mutaassiblik va jaholatga qarshi kuchli mafkuraviy asos bo'la oladi. Shu sababli biz ushbu maqolamizni - motrudiylik ta'limotining tarixiy asoslari va hozirgi zamondagi dolzarbligini tahlil qilish, uning amaliy ahamiyatini ochib berishni maqsad qildik.

Hozirgi zamonda esa insoniyat globallashuv, axborot oqimining tezlashuvi, texnologik taraqqiyot va madaniy xilma-xillik sharoitida yashamoqda. Shu bois diniy qarashlarda ham aql, mantiq va dalil asosidagi yondashuv, tolerantlik, hamjihatlik va inson huquqlariga hurmat kabi qadriyatlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jihatdan Moturidiylik ta'limoti bilan hozirgi zamon yondashuvlari o'rtasida ko'plab o'xshashliklar mavjud bo'lib, ayni paytda davrning o'ziga xos talablari sabab ayrim farqlar ham namoyon bo'ladi.

2-jadval**.**

O'xshashlik	Farq
Har ikki davrda aql va bilimga tayanish muhim hisoblangan.	Motrudiylikda asosiy manba vahiy va diniy rivoyatlar, hozirgi davrda esa empirik ilmiy tajriba.

Insonning axloqiy tarbiyasi va jamiyatdagi adolat prinsiplari qadrlangan.	O‘tmishda shariat hukmlari jamiyat hayotining barcha sohalarini belgilagan, hozir esa dunyoviy qonunlar asosiy o‘rin tutadi.
Ilm-fan va ma'naviyat uyg‘unligiga intilish mavjud.	Motrudiylik zamonida aqida masalalari siyosiy va ijtimoiy boshqaruvning markazida bo‘lgan, hozirgi davrda esa ko‘proq huquq va demokratiya prinsiplari yetakchi.

Motrudiy ta'limotining hozirgi zamon ilm-fani bilan o‘xshashlik va farqlari.

Al-Moturidi Samarqand yaqinidagi Moturid qishlog‘ida tug‘ilgan. Yoshligidan Qur'on, hadis, fiqh va kalom fanlarini mukammal o‘rgangan. U hanafiy fiqhining yetuk bilimdoni va kalom ilmining eng yirik namoyandalaridan biri sifatida tanilgan.

Asosiy asarlari "Kitob at-Tavhid" – aqidaviy masalalarni aql va dalil asosida izohlovchi fundamental asar va "Ta'vilot al-Qur'on" – Qur'on tafsiri bo‘lib, unda oyatlar mantiqiy izoh bilan sharhlangan.

Al-Moturidi o‘z davrida mavjud bo‘lgan turli diniy oqimlarga qarshi ilmiy dalillar bilan javob berib, islom aqidasini himoya qilgan.

Motrudiylik ta'limotining asosiy g‘oyalari. Moturidiya maktabi asrlar davomida Movarounnahr, Turkiya, Hindiston va boshqa hududlarda keng yoyildi. U hanafiy mazhabining aqidaviy asosini mustahkamladi va ko‘plab olimlar uning qarashlarini davom ettirdilar.

Bu ta'limotni bevosita hozirgi zamon bilan bog‘liqligi haqida so‘z ketar ekan, avvalo, radikalizmga qarshi mafkuraviy asos masalasiga alohida to‘xtalib o‘tamiz. Ya'ni, Motrudiylik g‘oyalari diniy mutaassiblikning oldini oladi, chunki u aql, dalil va bag‘rikenglikka tayanadi.



Shuningdek, ilm-fan va din uyg‘unligi- bu ta’limot dinni ilm-fan yutuqlari bilan qarama-qarshi qo‘ymasdan, uyg‘unlashtirishga imkon beradi.

Shu bilan birga, bu ta’limotning hozirda eng dolzarb masalalardan biri bo‘lmish- yoshlar tarbiyasida ahamiyati ham kattadir. Yosh avlodning ongli e’tiqod, mas’uliyat va to‘g‘ri dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qiladi.

So‘nggi uyg‘unlik bevosita - O‘zbekistonning ma’naviy siyosatida o‘rni bilan aloqador. Yurtimizda olib borilayotgan “Ma’rifat va ma’naviyat” siyosati motrudiylik merosi bilan uzviy bog‘liq.

Tahlil va muhokama. Motrudiylik ta’limoti islom aqidashunosligi tarixida o‘ziga xos o‘rin tutib, IX–X asrlardagi Movarounnahr ilmiy-ma’naviy muhitining mahsuli sifatida shakllangan. Abu Mansur al-Motrudiy tomonidan asos solingan ushbu ta’limot, bir tomondan, Qur’on va Sunnaga qat’iy tayanishga asoslangan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, mantiqiy dalillash va aqliy isbotlash usullarini qo‘llashi bilan mutazila va boshqa kalom maktablaridan farqlanadi. Bu yondashuv, asosan, diniy masalalarni “naqliy dalillar” (matn asosidagi isbot) va “aqliy dalillar” (mantiq asosidagi isbot) uyg‘unligi orqali izohlash tamoyiliga tayanadi.

Tarixiy manbalardan ko‘rinadiki, Motrudiy, o‘sha davrda keng tarqalgan ifrot va tafritga moyil oqimlarga (masalan, mutaziliylarning haddan ziyod aqlparastligi va ayrim an’anaparast guruhlarning so‘zma-so‘z talqini) qarshi ravishda mu’tadil, o‘rtacha yo‘lni tanlagan. U diniy masalalarda inson aqlining imkoniyatlarini rad etmagan, ammo aqlni vahiydan ustun qo‘ymagan. Bu jihati bilan u ilmiy-falsafiy asoslangan “i’tiqodiy maktab” yaratgan va o‘z maktabini hanafiylik fiqhiy yo‘nalishi bilan uyg‘unlashtirgan.

Motrudiyning asarlarida ayniqsa “Kitab at-Tavhid” alohida ahamiyat kasb etadi. Unda Allohning mavjudligi va birligi, ilohiy sifatlar, payg‘ambarlik, qiyomat va oxirat haqidagi aqidaviy masalalar qat’iy dalillar bilan bayon qilinadi. Shu bilan birga, u insonning ixtiyori va taqdiri masalasida o‘rtacha yondashuvni ilgari surib, jabariy va qadariy oqimlarning keskin qarashlarini muvozanatlashtirgan.

Bugungi kun nuqtayi nazaridan, Motrudiylik ta’limoti diniy-ma’rifiy barqarorlikni ta’minlovchi omillardan biri sifatida baholanishi mumkin. Chunki u diniy e’tiqod masalalarida ekstremizm va radikalizmga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, ta’limotning ilmiy-mantiqiy asoslanganligi uni zamonaviy din falsafasi, dinshunoslik va sotsiologiya tadqiqotlari uchun ham dolzarb manbaga aylantiradi.

Bugungi dunyoda turli diniy-ekstremistik oqimlar yoshlarni noto‘g‘ri yo‘lga boshlashi mumkin. Motrudiylik ta’limotini ta’lim tizimida, OAV va diniy-ma’rifiy targ‘ibot ishlarida keng qo‘llash bu tahdidlarga qarshi samarali chora bo‘la oladi.

Xulosa. Motrudiylik nafaqat o‘z davri uchun, balki keyingi asrlar uchun ham mo»tadil aqidaviy yo‘nalish sifatida ummat birligini saqlashga, din va aql

uyg‘unligini ta’minlashga xizmat qilgan yirik intellektual merosdir. Ushbu ta’limotni chuqur o‘rganish nafaqat tarixiy, balki zamonaviy diniy-ma’rifiy siyosat uchun ham ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
3. Boboyorov H. Imom Moturidiy va uning aqidaviy merosi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2019.
4. Aliyev A. Markaziy Osiyo islom tafakkuri tarixida Motrudiylik maktabi. – Toshkent: Fan, 2005.
5. Xolmatov N. Islom aqidashunosligi tarixi. – Toshkent: TDShI nashriyoti, 2018.
6. Al-Moturidi, “Kitob at-Tavhid”. Qohira nashri.
7. .Al-Moturidi, “Ta’vilot al-Qur’on”. Istanbul nashri.
8. .Karimov, I. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. Toshkent, 2008.
9. .Ziyoev, H. “O‘rta asr musulmon tafakkuri tarixi”. Toshkent, 2012.
10.Abduqodirov, A. “ Moturidiya maktabi va uning zamonaviy ahamiyati”. Toshkent, 2019.

“HUSNI XULQ” TUSHUNCHASINING SHAKLLANISHI VA UNING MOTRUDIYA TA’LIMOTIDAGI AHAMIYATI

Ne’matova Orzigul Axmedovna
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Mazkur maqolada “husni-xulq” tushunchasining shakllanishi va uning Abu Mansur Motrudiy ta’limotidagi o‘rni tahlil qilinadi. Husni-xulq – insonning iymoni, aql-zakovati va odob-axloqi bilan chambarchas bog‘liq fazilat sifatida ko‘rsatiladi. Motrudiy nazarida, yaxshi xulq Alloh tomonidan inson fitratiga ato etilgan bo‘lib, uni aql orqali to‘g‘ri rivojlantirishi asoslanganligi ochib beriladi. Maqolada Motrudiy axloqiy qadriyatlarni shariat va aql uyg‘unligida baholab, husni-xulqni faqat tashqi muomala emas, balki ichki e’tiqod va ma’naviy kamolot ifodasi sifatida taqdim etgani yoritiladi. Shuningdek, maqolada husni-xulqning asosiy fazilatlari – adolat, mehr-shafqat, sabr-toqat va rostgo‘ylik kabi jihatlar Motrudiy qarashlari asosida izohlanadi. Ushbu tadqiqot Motrudiy ta’limotining axloqiy merosini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Motrudiy, husni-xulq, axloq, aql, iymon, shariat, fazilatlar, ma’naviy kamolot, odob, fitrat.

Ҳозирги кунда "Ҳусни-хулқ" масаласи долзарб бўлиб, бу масала нафақат бугунги кунда, балки ҳамма даврларда зарур ҳодиса ҳисобланади ва доим шундай бўлиб қолади. "Аллоҳ таоло ҳар бир инсонни ўзига хос хусусиятлар, хулқ-атворлар билан яратган. Бу хусусиятлар ичида ўзгалардан ўрнак олиш, кимгадир ўхшашга интилиш, ибратланиш кабилар ҳам бор. Бунинг ҳикмати эса инсоннинг яхшилик, гўзаллик ва камолот сари интилишига лаёқатли бўлиши ҳамда бундан манфаат олиб, икки дунё саодатига эришишдир"[1:3]. Бу жараён инсоният тараққиётининг ажралмас қисми бўлиб, жамиятнинг юксалишида муҳим ўрин тутади. Шунингдек, ўрнак олиш ва ибрат олиш инсоннинг комилликка интилишида муҳим восита ҳисобланади. Агар инсон яхшилик, гўзаллик ва камолот сари интилаётган кишиларга эргашса, у шахсий ҳаётида ҳам, жамият тараққиётида ҳам улкан муваффақиятларга эришади. Бироқ бунда инсон мустақил тафаккур қилиш қобилиятини йўқотмаслиги, шунчаки кўр-кўрона тақлид қилмаслиги лозим. Фақат яхши фазилатларни ўзлаштириш, маърифат ва ахлоқий юксалишга интилиш инсонни икки дунё саодатига етаклайди. Демак, бошқалардан ўрнак ва ибрат олиши инсон учун табиий ҳол бўлиб, агар у онгли равишда амалга оширилса, бу инсон камолотига, ҳаётининг маъно-мазмунли бўлишига хизмат қилади. Ҳар бир жамият ва ҳар бир шахс – хоҳ эркак бўлсин, хоҳ аёл бўлсин, гўзал хулққа эҳтиёжи бор. Буюк ва комил шахсиятдан ўрнак олувчи жамият аъзоси турли фазилатларга, яхши хислатларга эга бўлади, юрти, оиласи обод бўлади.

"Ҳусни-хулқ" инсоннинг шахсияти ва ижтимоий ҳаётидаги муҳим омиллардан бири ҳисобланади. Инсон хулқ-атвори нафақат индивидуал ривожланишга, балки бутун жамиятнинг фаровонлигига ҳам ҳисса қўшадиган ижтимоий воқеиликдир. Ҳусни-хулқ тушунчасининг фалсафий асосларини тадқиқ этиш, назарий ва методологик жиҳатларни ўрганиш муҳим аҳамиятга эга ҳодиса ҳисобланади. Ушбу тушунча инсоннинг ахлоқий ва эстетик жиҳатдан ибрат ва намунани, гўзалликни, хулқ-атвор эса ижтимоий муносабатлар муҳим ўрнини белгилаб беради. "Ҳусни-хулқ"ни назарий жиҳатдан тадқиқ этишда, унинг ахлоқий, эстетик, ижтимоий ва психологик жиҳатларини қамраб олган ҳолда тадқиқ этилса ушбу воқеиликнинг ҳақиқий мазмун-моҳияти очиб берилади.

Ҳусни-хулқ тушунчаси ахлоқ фалсафасининг "яхшилик ва ёмонлик, адолат ва ноҳақлик, ҳақиқийлик ва сохталик каби меъёрий категориялари билан таҳлилий ўрганилгандагина унинг моҳиятини тўлиқ англаш имкониятига эга бўлинади"[2:109]. "Ҳусни-хулқ" шундай мураккаб ҳодисаки, уни бир нечта фанлар нуқтаи-назаридан таҳлил қилинганда унинг мазмуни очиб берилади. "Ҳусни-хулқ"ни эстетик жиҳатдан инсон қарашлари гўзалликка бўлган муносабатини белгилаб беради. Гўзаллик хулқ-атвор ва ижтимоий

муносабатларга ўз таъсирини кўрсатади. "Ҳусни-хулқ" тушунчасини ижтимоий контекстда ўрганилиши зарур ҳолат ҳисобланади. Чунки, ижтимоий нормалар, анъаналар ва маданият ҳусни-хулқнинг шаклланишида муҳим рол ўйнайди.

Инсоннинг ички дунёсида унинг мотивлари, орзу-интилишлари мужассамлашган. Айнан "ҳусни-ҳулқ" ва хулқ-атвори ўртасидаги боғлиқлик, психологик ҳолат билан белгиланади. "Ҳусни-хулқ"ни методологик жиҳатдан ўрганишда таҳлил қилиш ва анализ муҳим аҳамиятга эга. "Ҳусни-хулқ" тушунчасининг тарихий ривожланишини ўрганиш орқали унинг ретроспектив ривожланиши, замонавий талқин ва тенденциялари тарихийлик методи орқали ёндошилганда моҳиятини тўлиқ англаш мумкин.

Ҳусни хулқ – бу инсон ички дунёсини ва руҳий оламини гўзаллаштирибгина қолмай, унинг феъл атворида ҳам намоён бўладиган гўзал фазилатдир. Шу билан бирга ҳусни халқ деган сўз ҳам борки, бу кишининг ташқи гўзаллигини ифода этади. Ҳусни хулқсиз ҳусни халқ нисбий гўзалликдир. Инсон табиатидаги хулқлар икки хил бўлиб – улар ахлоқи ҳамида ва ахлоқи замима деб номланади.

"Ҳусни-хулқ" атамаси ўзбек тилидаги икки арабча "ҳусн" (гўзаллик, чирой) ва "хулқ" (ахлоқ, феъл-атвор)" [3:565] сўзларининг бирикмасидан ташкил топган. Бу атама инсоннинг чиройли ахлоқий фазилатлари, яхши хулқи ва одоб-ахлоқининг гўзаллиги маъносида ишлатилади.

"Ҳусни-хулқ" (حُسن الخُلُق) – арабча ибора бўлиб, "одобли хулқ" ёки "яхши хулқ" деган маънони англатади. Бу тушунча ислом анъаналари ва фалсафасида чуқур илдизларга эга бўлиб, унинг талқини қўлланишига кўра истилоҳларда турлича маъноларда ҳам қўлланилади. "Ҳусни-хулқ" кўп қиррали тушунча бўлиб, диний ҳамда дунёвий маъноларда ҳам ишлатиладиган универсал атамадир. Ушбу атама асрлар давомида долзарб бўлиб келган, жамият ва маданиятдаги ўзгаришлар билан ҳамоҳанг ривожланишда давом этмоқда.

"Ҳусни-хулқ" атамасини таҳлил қилар эканмиз, араб тилида рефлексли шахс олмошларининг мавжуд эмаслиги, бу тушунчани моҳиятини тўлиқ қамраб оладиган, атамани европа фалсафасида ҳам, ёки рус фалсафий тафаккурида ва фалсафага оид луғатларда учратмадик. Тадқиқот ишимизда ва илмий мақолаларимизнинг рус ва инглиз тилидаги изоҳларида ҳам "Ҳусни-хулқ" атамаси тарзида ифодаланган.

Ислом тафаккури тарихида алоҳида ўрин тутган мутафаккир Абу Мансур Мотрудий (870–944) асарларида ахлоқий қадриятлар масаласига катта эътибор берилган. Унинг таълимотида "ҳусни-хулқ" тушунчаси, яъни гўзал хулқ ва яхши ахлоқ масаласи марказий ўрин тутади. Мотрудий фикрича, инсоннинг ҳусни-хулқи – нафақат жамиятдаги муомала меъёрларини белгиловчи унсур, балки унинг эътиқоди ва илоҳий иродага муносабатининг кўзгуси ҳамдир.

Мотрудий таълимотига кўра, хулқ ва ахлоқ инсон фитратига боғлиқ ҳолда яратилган. Унга кўра, инсон ўз табиатида яхшилик ва ёмонликни англаш қобилиятига эга. Ҳусни-хулқ эса ана шу табиий қобилиятнинг ижобий ривожи натижасидир. Инсондаги яхши хулқ – меҳр-шафқат, адолат, сахийлик, ҳалоллик каби сифатларнинг намоён бўлиши орқали кўринади. Мотрудий назарида, ҳусни-хулқ Аллоҳ томонидан берилган ақл воситасида ривожлантирилади. Инсон ўз ақлидан тўғри фойдаланиш орқали тўғри ахлоқий қарорлар қабул қилади ва ҳусни-хулқни мустаҳкамлайди.

Мотрудий ахлоқий қадриятларни баҳолашда ақлнинг ролига алоҳида урғу беради. Унингча, "яхшилик ва ёмонлик ўз моҳиятига кўра ақл билан идрок этилади. Аллоҳ одамларга ақл ато этган ва у орқали улар яхшиликни ёмонликдан ажрата оладилар. Шу сабабдан, ҳусни-хулқ инсоннинг иродаси ва ақлини тўғри ишлатиш натижасида шаклланади" [4]. Мотрудий инсонни фақат шариат ҳукмларига амал қилгани учун эмас, балки ақлий ва иродавий равишда яхшиликка интилгани учун ҳам мақтайди.

Унинг фикрича, Аллоҳ томонидан юборилган пайғамбарлар одамларга ҳусни-хулқни англатиш ва уни ҳаётга тадбиқ этишни ўргатиш учун келганлар. Пайғамбар Муҳаммад (с.а.в) "Мен ҳусни-хулқни мукаммал қилиш учун юборилдим" деган ҳадисида ҳам бу фикр ифодасини топади. Мотрудий бу ҳадисни шарҳлаб, инсоний камолотнинг асоси яхши хулқ ва фазилатлар эканлигини таъкидлайди. Ҳусни-хулқ шунчаки ташқи кўринишдаги одоб-ахлоқ қоидаларига амал қилиш эмас, балки қалбдаги иймон, ички тозалик ва Аллоҳга садоқат билан уйғунлашган ахлоқий фазилатдир.

Мотрудий таълимотида ҳусни-хулқ фақат дунёвий манфаат учун эмас, балки Аллоҳ ризоси учун амалга оширилиши зарур экани таъкидланади. Унинг фикримча, "инсонлар фақат одамларга ёқиш ёки жамиятда обрў топиш учун эмас, балки Аллоҳнинг буйруқларига итоат қилиш ва иймонини мукаммаллаштириш учун яхши хулқ билан яшашлари керак"[5]. Шу боис, Мотрудий ахлоқий амалларни иймон билан чамбарчас боғлайди ва ҳусни-хулқни иймоннинг зарурий натижаси сифатида кўради.

Ҳусни-хулқнинг асосий унсурлари сифатида Мотрудий меҳрибонлик, сабр-тоқат, кечиримлилик, адолат, ростгўйлик ва сахийликни кўрсатади. Унга кўра, бу фазилатлар инсонни нафақат жамиятда обрўли қилади, балки унинг Аллоҳ олдидаги мақомини ҳам юксалтиради. Мотрудий "инсон табиатида баъзан нафсий истаклар ва шайтоний васвасалар сабабли ёмон хулқлар пайдо бўлиши мумкинлигини ҳам эътироф этади"[6]. Шу сабабли, ҳусни-хулқни сақлаш ва ривожлантириш учун ўз устида доимий равишда ишлаш, нафсга қарши курашиш ва ақлни доимий равишда ҳаққа йўналтириш зарур.

Мотрудий таълимотида ахлоқий қадриятлар шариат билан ҳам уйғун ҳолда тасвирланади. Унинг фикрича, шариат кўрсатмалари ҳусни-хулқни ривожлантириш ва тўғри йўналтириш учун муҳим восита ҳисобланади. Шариат орқали яхшиликка даъват этиш ва ёмонликдан қайтариш амалиётлари мустаҳкамланади. Бироқ, Мотрудий ҳусни-хулқни фақатгина шариат ҳукмларига амал қилиш билан чегараламайди. У буни инсон табиатидан, ақлий англаш ва қалб поклиги орқали орттирилиши керак бўлган сифат деб тушунтиради.

Мотрудий таълимотида ҳусни-хулқ – инсон иймонининг амалий кўриниши, ақл ва нафс ўртасидаги мувозанат натижасидир. Инсон ўзининг ахлоқий фазилатларини Аллоҳга яқинлашиш воситаси сифатида кўриб, ҳусни-хулқни доимий равишда ривожлантиришга интилиши керак. Мотрудий бизга шуни ўргатадики, ҳақиқий ҳусни-хулқ – бу фақат ташқи одоб эмас, балки ички поклик, ақл ва иймон билан уйғунлашган мукаммал инсоний фазилатдир.

"Ҳусни-хулқ" – бу инсоннинг одоб-ахлоқи, яхши феъл-атвори ва комил инсон фазилатларини ифодаловчи тушунчадир. Ислом тафаккурида, хусусан, Мотурудия таълимотида "ҳусни-хулқ" инсон камолотининг ажралмас қисми сифатида қаралади. Бу тушунча тарихий тараққиёт давомида ривожланган бўлса-да, Мотуридий уни чуқур фалсафий асосда мустаҳкамлаб берди. Қуйида ушбу тушунчанинг шаклланиши ва Мотурудия таълимотидаги аҳамияти асосида бешта хулосани кўриб чиқамиз:

1. Исломда ҳусни-хулқ тушунчаси Қуръон оятлари ва Пайғамбар Муҳаммад (с.а.в.) ҳадисларига таянган ҳолда шаклланган. Қуръонда "ахлоқнинг энг гўзалига эргашиш" чақируви мавжуд (Фуссилат сураси, 41:34). Пайғамбар (с.а.в.) эса: "Мен гўзал хулқни тўлиқ қилиш учун юборилдим", деб таъкидлаганлар. Мотуридий эса бу асосий диний манбаларни ақл билан уйғунлаштириб, ҳусни-хулқни инсоннинг табиий эҳтиёжи ва маънавий камолотининг зарур қисми сифатида асослайди. Унинг таълимотига кўра, инсон яхши хулқни ақлий идрок ва ўз иродаси билан танлаб олиши керак.

2. Мотуридий назарида, ҳусни-хулқ фақат диний буйруқларга амал қилиш эмас, балки ақл ва иймон билан мустаҳкам боғлиқдир. Ақл орқали инсон яхши ва ёмонни фарқлайди, иймон эса бу фарқлашни маънавий масъулият билан мустаҳкамлайди. Демак, ҳақиқий ҳусни-хулқ – иймон ва ақл бирлигидан келиб чиқади. Мотуридий учун яхши ахлоқ инсоннинг фақат ташқи кўринишдаги одоби эмас, балки унинг ички эътиқоди ва тафаккурининг амалий кўринишидир.

3. Мотуридий таълимотида ҳусни-хулқ нафақат шахсий фазилат, балки ижтимоий ҳаёт учун ҳам зарур омил сифатида кўрилади. Жамиятда адолат, меҳр-оқибат, ҳалоллик ва ишонч каби қадриятлар фақат ҳусни-хулқли инсонлар орқали қарор топади. Агар инсонлар орасида яхши хулқ-одоб бўлмаса,

жамиятдаги тинчлик ва барқарорлик бузилади. Шу боис Мотуридий ахлоқий тарбияни жамият ривожининг таянчларидан бири деб билади.

4. Мотуридий инсоннинг эркин иродасига катта эътибор беради. Унга кўра, ҳусни-хулқ мажбуран эмас, балки ихтиёрий равишда намоён бўлиши керак. Инсон ўз иродаси билан яхши хулқни танлаб, уни онгли равишда ҳаётга татбиқ этади. Бу ёндашув инсон шахсиятини ҳурмат қилиш ва уни ахлоқий камолот сари ундаш ғояларига уйғун келади.

5. Мотуридий таълимотида ҳусни-хулқ вақтинчалик ёки фақат дунёвий манфаатларга боғлиқ эмас, балки абадий қадрият сифатида баҳоланади. Яхши ахлоқ инсонни нафақат дунёда, балки охиратда ҳам саодатга етказади. Шу боис Мотуридий ҳусни-хулқни имоннинг самараси ва саодат сари элтувчи йўл сифатида талқин қилади.

Мотуридий таълимотида ҳусни-хулқ – инсоннинг руҳий ва ақлий камолоти, жамият тинчлиги ва охират саодати учун зарур бўлган асосий қадрият сифатида юксак ўринда туради. У ақл, иймон, эркин ирода ва ижтимоий адолат билан узвий боғлиқ бўлиб, инсоният учун доимий аҳамиятга эга.

"Ҳусни-хулқ" тушунчасининг шаклланиши ва унинг Мотурудия таълимотидаги аҳамиятини ўрганиш бўйича 5 та амалий тавсияни илгари сурамиз:

1. Асосий манбаларни тўлиқ ва тизимли ўрганиш. Мотуридий таълимотини чуқур тушуниш учун унинг асосий асари – "*Таъвилот аҳл ас-сунна"* ва *"Китаб ат-Тавҳид"* каби манбаларни ўрганиш зарур. Айниқса, бу асарларда ақл, иймон ва ахлоқий фазилатлар ҳақида келтирилган фикрлар таҳлил қилиниши керак. Шунингдек, Қуръон ва ҳадис манбаларида ҳусни-хулқ билан боғлиқ оят ва ривоятларни ҳам мустақил тарзда ўрганиш, бу тушунчанинг диний асосларини мустаҳкамлашга ёрдам беради.

2. Ҳусни-хулқни замонавий контекстда тадқиқ этиш. Мотуридий таълимотини ўрганишда ҳусни-хулқ тушунчасини замонавий ижтимоий, маданий ва ахлоқий муаммолар контекстида таҳлил қилиш фойдалидир. Масалан, замонавий ахлоқий инқироз, жамиятдаги адолатсизлик ёки бағрикенглик масалаларини Мотуридий тамойиллари билан таққослаб ўрганиш ҳусни-хулқнинг универсаллигини ва долзарблигини янада очиб беради.

3. Илмий адабиётлар ва тадқиқот ишлари билан танишиш. Ҳусни-хулқ ва Мотурудия таълимоти мавзусида ёзилган замонавий тадқиқот ишлари ва мақолаларни мунтазам равишда ўрганиш тавсия этилади. Хусусан, Хайрулла Комилов, Музаффар Камилов каби олимларнинг асарлари, шунингдек Улрич Рудолф ва Франк Гриффел каби хорижий тадқиқотчиларнинг тадқиқотлари бу соҳада чуқурроқ таҳлил ва кенгроқ илмий қарашлар шакллантиришга ёрдам беради.

4. Ҳусни-хулқнинг амалий кўринишларини ўрганиш ва тажриба асосида таҳлил қилиш. Назарий билимларни фақат ўрганиш билан чекланмай, ҳусни-хулқнинг кундалик ҳаётдаги амалий кўринишларини ҳам таҳлил қилиш муҳим. Масалан, ахлоқий етук шахслар, тарихий намуна бўлган инсонлар ҳаётини ўрганиш орқали Мотуридий қарашларининг реал ҳаётдаги намоён бўлиш шаклларини очиб берилади.

5. Семинар ва илмий суҳбатлар ташкил этиш. Ҳусни-хулқ тушунчасининг шаклланиши ва Мотуридий таълимотидаги ўрни ҳақида илмий семинарлар, давра суҳбатлари ва муҳокамалар ўтказиш тавсия этилади. Бундай тадбирлар ўзаро фикр алмашиш, турли нуқтайи назарларни солиштириш ва мавзуни янада теранроқ ўзлаштириш имконини беради. Шунингдек, ёшлар ва талабалар билан ҳусни-хулқ мавзусида амалий машғулотлар ташкил қилиш, уларни ўз шахсий ҳаётларида бу қадриятларни татбиқ этишга ундаш фойдали бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Одинахон Муҳаммад Содиқ. Гўзал ўрнак. – Тошкент.: "Ҳилол-Нашр", 2024. – Б.3.

2. Абсатторов Б.М. Шахс маънавий-ахлоқий баркамоллиги мезонларининг фалсафий талқинлари // ҚҚДУ ахборотномаси. – Нукус, 2019. – № 4. – Б. 109-112.

3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. А.Мадвалиев таҳрири остида – Тошкент.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси", 2022. – Б.565.

4. Кароматов Ҳ.С. ва бошқ. Ал–Мотуридий таълимоти ва унинг Шарқ халқлари маданиятидаги ўрни. / Маърузалар тўплами. / – Тошкент. ТИУ, Ижтимоий фикр маркази, 2000. –Б.144.

5. Абдулазиз Мансур. Мотуридийнинг ақидавий қарашлари ва ислом тафаккурига қўшган ҳиссаси. – Тошкент., 2000.

6. Зиёдов Ш. Ал-Мотрудий ҳаёти ва мероси. – Тошкент.: "Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриети", – Б.21.

MOTURIDIY ASARLARIDA MA’NAVIY QADRIYATLARNING TUTGAN O‘RNI VA AHAMIYATI

Agzamova Zumrad Baxtiyorovna
Samarqand davlat pedagogika Instituti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada buyuk mutafakkir va alloma Abul Mansur Moturidiy asarlarida ma’naviy qadriyatlarning mazmun-mohiyati, ularning jamiyat taraqqiyoti hamda inson shaxsini kamol toptirishdagi o‘rni tahlil etilgan. Muallif Moturidiy merosida axloqiy-ruhiy g‘oyalar, adolat, imon, ilm va ijtimoiy mas’uliyat tamoyillari alohida o‘rin egallashi ko‘rsatib o‘tiladi. Shuningdek, mutafakkir qarashlarining bugungi globallashuv davrida yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini shakllantirish, ularni yot g‘oyalardan himoya qilish va milliy qadriyatlarni mustahkamlashdagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Maqolada Moturidiy tafakkuridagi diniy va falsafiy qarashlarning zamonaviy ma’naviy-ma’rifiy jarayonlar bilan uzviy aloqadorligi hamda ularning metodologik ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Moturidiy, ma’naviy qadriyatlar, islom falsafasi, axloqiy qarashlar, tafakkur, imon, adolat, milliy-ma’naviy meros, globallashuv, yoshlar tarbiyasi.

Kirish. Insoniyat taraqqiyoti tarixida ma’naviy qadriyatlar jamiyat hayotining eng muhim tayanchlaridan biri sifatida namoyon bo‘lib kelgan. Qadriyatlar nafaqat insonning shaxsiy hayot falsafasini, balki butun jamiyatning ijtimoiy-ma’naviy rivojlanish yo‘nalishini belgilab beradi. Shu jihatdan olimlar, mutafakkirlar va allomalar tomonidan yaratilgan boy ma’naviy meros xalqning o‘zligini, milliy va diniy qadriyatlarini anglashda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Markaziy Osiyo zaminida yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlar asarlari bugungi kunda ham jahon miqyosida e’tirof etilib, zamonaviy ilmiy-falsafiy tadqiqotlarda o‘z o‘rnini topmoqda.

Ana shunday ulug‘ allomalardan biri Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud Moturidiy (870–944)dir. U o‘z davrida kalom ilmining peshqadam namoyandasi, hanafiylik mazhabining yirik mutafakkiri sifatida islom tafakkuriga beqiyos hissa qo‘shgan. Moturidiy asarlarida inson va jamiyat hayotining ma’naviy-axloqiy asoslari, ijtimoiy adolat, imon, ilm, mas’uliyat va haqiqat kabi umumbashariy qadriyatlarning chuqur talqini o‘z ifodasini topgan. Mutafakkirning “Kitob at-Tavhid”, “Ta’vilot ahl as-Sunna” kabi asarlari islom ilohiyotining nazariy poydevorlarini yaratishda muhim o‘rin tutgan bo‘lib, ularning mazmunida insoniyatning ma’naviy kamoloti va ruhiy barkamolligiga alohida e’tibor qaratilgan.

Moturidiy qarashlarida ma'naviy qadriyatlar inson hayotining eng asosiy mezoni sifatida talqin qilinadi. Uning fikricha, inson imon va aqidaga asoslanmagan holda chinakam kamolotga erisha olmaydi. Shu bois mutafakkir ilm va aqlni diniy e'tiqod bilan uyg'un holda talqin etadi. Bu esa o'z navbatida, ma'naviy tarbiyaning asosiy manbai sifatida diniy-ma'rifiy qadriyatlarning ustuvorligini ko'rsatadi. Moturidiy ta'limotida insoniy axloq, adolat, sabr-toqat, haqiqatparvarlik va mas'uliyat kabi tushunchalar nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy hayotning ham ajralmas qismi sifatida talqin qilinadi.

Bugungi globallashuv jarayonida yoshlar ongini turli yot g'oyalardan himoya qilish, ularning ma'naviy immunitetini mustahkamlash, milliy va diniy qadriyatlar asosida barkamol shaxs sifatida shakllantirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, Moturidiy merosining o'rganilishi va uni zamonaviy ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarga tadbiq etish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Mazkur maqolada Moturidiy asarlarida ma'naviy qadriyatlarning tutgan o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi, ularning zamonaviy ijtimoiy-falsafiy hayotdagi metodologik mohiyati ochib beriladi. Shuningdek, mutafakkirning g'oyalari asosida yoshlarning ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirish, milliy o'zlikni anglash va ma'naviy merosni asrab-avaylash masalalari ilmiy asosda yoritiladi.

IX–X asrlar musulmon Sharqida siyosiy, ijtimoiy va diniy jarayonlar nihoyatda keskin kechgan davr edi. Turli oqimlar va firqalar islom aqidalarini o'z manfaatlari yo'lida talqin qilishga urinayotgan bir paytda, diniy e'tiqodning sof mohiyatini himoya qilish zaruriyati tug'ildi. Shu sharoitda yashab ijod qilgan Abu Mansur Moturidiy kalom ilmining eng yirik namoyandasi sifatida ilmiy asoslangan ta'limot yaratdi. Uning asarlari nafaqat diniy masalalarda, balki axloqiy, falsafiy va ijtimoiy jihatdan ham o'z davrida beqiyos ahamiyat kasb etdi.

Moturidiy nazarida inson kamolotining mezoni – ma'naviyat, imon va ilm uyg'unligidir. U insonning erkin tanlovi, aql va tafakkurga asoslangan hayot tarzini ma'naviy barkamollikning garovi sifatida baholaydi. Mutafakkirning "Kitob at-Tavhid" asarida insonning Allohga bo'lgan e'tiqodi nafaqat diniy, balki axloqiy qadriyatlarning ham poydevori sifatida izohlanadi. "Ta'vilot ahl as-Sunna"da esa Qur'oni karim oyatlarining chuqur tafsiri orqali insoniy fazilatlar, xususan, adolat, sabr, halollik, mas'uliyat va ilmparvarlikning mohiyati yoritiladi.

Moturidiy aql va naqlni bir-birini to'ldiruvchi manbalar sifatida baholaydi. Uningcha, inson aqli diniy matnlarni to'g'ri anglash, ularni hayotga tatbiq etish uchun muhim vositadir. Shu nuqtai nazardan, mutafakkir tafakkurni ilohiy haqiqatni idrok etishda asosiy omil sifatida ko'radi. Bu yondashuv islom falsafasida yangi bosqich bo'lib, keyinchalik musulmon Sharqida ilm-fanning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Moturidiy axloqiy qadriyatlarni ijtimoiy barqarorlikning poydevori sifatida ko‘rib, insonlar o‘rtasida adolat va tenglikni qaror toptirishni asosiy maqsad deb bilgan. Uning fikricha, jamiyatdagi har bir shaxsning mas'uliyati umumiy taraqqiyotga xizmat qilishi lozim. Bu g‘oya hozirgi davr uchun ham dolzarb bo‘lib, demokratik jamiyat qurishning nazariy poydevorlaridan biri sifatida qaralishi mumkin.

Bugungi globallashuv sharoitida turli mafkuraviy xurujlar, yot g‘oyalar va axloqiy tanazzul xavfi kuchaymoqda. Yoshlarning ongini sog‘lom g‘oyalar bilan boyitish, ularni milliy va diniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash davlat va jamiyat oldidagi eng muhim vazifalardan biridir. Shu nuqtai nazardan, Moturidiy merosidagi ma'naviy qadriyatlar ta'lim-tarbiya jarayonida keng o‘rganilishi zarur.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Moturidiy merosini o‘rganish jarayonida mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan qator ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lib, ular mutafakkir qarashlarining diniy-falsafiy, ma'naviy-axloqiy hamda ijtimoiy-siyosiy jihatlariga turlicha yondashuvlar bilan yoritilgan.

Avvalo, Moturidiy asarlari islom kalom ilmi doirasida keng tahlil qilingan. Masalan, F. Rahimov va A. To‘laganov singari o‘zbek olimlari mutafakkirning “Kitob at-Tavhid” va “Ta'vilot ahl as-Sunna” asarlaridagi asosiy g‘oyalarni sharhlab, unda insonning irodasi, imon va amalning o‘zaro aloqasi masalalariga e'tibor qaratganliklarini ko‘rsatadilar. Shu bilan birga, Moturidiy ta'limotining diniy-falsafiy asoslarini yoritishda Al-Bayhaqiy, Ibn Xaldun, Al-Baqillaniy kabi musulmon mutafakkirlarining izoh va mulohazalari muhim manba sifatida xizmat qilgan.

Xorijiy tadqiqotchilar orasida esa J. Schacht, W. Montgomery Watt va Ulrich Rudolph singari olimlarning asarlari alohida ahamiyatga ega. Ular Moturidiy merosini islom aqidaviy maktablari tarixiy taraqqiyoti kontekstida tahlil etib, uning hanafiylik doirasidagi o‘rnini belgilab bergan. Rudolphning “Al-Māturīdī and the Development of Sunnī Theology” nomli tadqiqoti esa mutafakkir asarlarining G‘arb ilmiy doiralarida ham chuqur o‘rganilganidan dalolat beradi.

O‘zbekiston mustaqilligi yillarida Moturidiy merosini qayta o‘rganish bo‘yicha keng ilmiy izlanishlar yo‘lga qo‘yildi. Jumladan, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi faoliyati bu borada muhim bosqich bo‘ldi. Mazkur markaz olimlari tomonidan Moturidiy asarlari yangi tarjima va sharhlar bilan keng ommaga taqdim etildi, uning g‘oyalari yoshlar tarbiyasi va ma'naviy-ma'rifiy islohotlarda qo‘llash bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Shuningdek, milliy olimlardan A. Asqarov, N. Jo‘rayev, Sh. Yusupovlarning tadqiqotlarida Moturidiy qarashlarining axloqiy-estetik, ijtimoiy-ma'naviy va diniy

g‘oyaviy qirralari chuqur o‘rganilgan. Bu izlanishlar mutafakkir merosining zamonaviy davr uchun dolzarbligini asoslab beradi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Moturidiy asarlarida ma’naviy qadriyatlarning talqini keng ilmiy qamrovga ega bo‘lib, bugungi kunda ham milliy ma’naviy uyg‘onish va yoshlar tarbiyasida muhim manba sifatida qaralmoqda.

Mazkur tadqiqotda Moturidiy asarlarida ma’naviy qadriyatlarning tutgan o‘rni va ahamiyatini ilmiy jihatdan tahlil etish uchun bir nechta metodologik yondashuvlardan foydalanildi.

Moturidiy yashagan davrning siyosiy, ijtimoiy va diniy sharoitlari o‘rganildi. IX–X asrlardagi islom tafakkuri, hanafiylik va kalom ilmining taraqqiyot bosqichlari tahlil qilindi. Mutafakkirning asosiy asarlari – “Kitob at-Tavhid”, “Ta’vilot ahl as-Sunna” bevosita manba sifatida o‘rganildi.

Ushbu manbalar zamonaviy tarjimalar, sharhlar va ilmiy izohlar bilan solishtirildi. Moturidiy qarashlari Al-Farobiy, Ibn Sino, Beruniy singari boshqa buyuk mutafakkirlarning ma’naviy-axloqiy g‘oyalari bilan qiyos qilindi.

Ularning falsafiy yondashuvlari o‘rtasidagi umumiylik va farqlar aniqlanib, Moturidiy ta’limotining o‘ziga xos jihatlari ko‘rsatildi. Ma’naviy qadriyatlarning shaxsiy va ijtimoiy hayotdagi o‘rni yaxlit tizim sifatida ko‘rib chiqildi. Ularning ijtimoiy barqarorlik, milliy o‘zlikni anglash va yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati tahlil qilindi.

Moturidiy ta’limotidagi asosiy tushunchalar – imon, adolat, ilm, mas’uliyat, axloqiy komillik konseptual asosda tahlil qilindi. Bu tushunchalarning zamonaviy falsafiy va pedagogik jarayonlar bilan uyg‘unligi ochib berildi. Ushbu metodologik yondashuvlar asosida Moturidiy asarlarida ilgari surilgan g‘oyalarning nafaqat tarixiy-falsafiy, balki bugungi ma’naviy-ma’rifiy jarayonlar uchun ham nazariy va amaliy ahamiyati asoslab berildi.

Tahlil va natijalar. Olib borilgan ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Moturidiy asarlari nafaqat diniy aqidaviy masalalarni yoritib bergan, balki insonning ma’naviy kamolotini ta’minlash, jamiyat taraqqiyotini barqarorlashtirish va adolatli ijtimoiy muhitni shakllantirishda g‘oyat muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qilgan.

Birinchidan, Moturidiy ta’limotida inson shaxsiyati va erkin irodasi alohida o‘rin tutadi. Unga ko‘ra, inson aql va tafakkur orqali to‘g‘ri yo‘lni tanlash imkoniyatiga ega bo‘lib, bu jarayon ma’naviy qadriyatlar bilan uzviy bog‘liq. Mutafakkirning qarashlaridan kelib chiqadiki, haqiqiy iymon aql-idrok bilan uyg‘unlashgandagina barqaror bo‘ladi.

Ikkinchidan, Moturidiy axloqiy qadriyatlarni jamiyat barqarorligi uchun zaruriy omil sifatida ko‘radi. U adolat, rostgo‘ylik, sabr, halollik va mas’uliyatni shaxsiy fazilat emas, balki ijtimoiy barqarorlikning asosiy ustunlari sifatida talqin

qiladi. Bu jihat mutafakkir ta'limotining zamonaviy ijtimoiy-falsafiy fikrlar bilan hamohangligini ko'rsatadi.

Uchinchidan, Moturidiy ilm va tafakkurni ma'naviy kamolotning poydevori sifatida talqin qiladi. Mutafakkirning "Kitob at-Tavhid" va "Ta'vilot ahl as-Sunna" asarlarida ilm nafaqat diniy bilimlarni, balki dunyoviy bilimlarni ham anglatishi ta'kidlanadi. Bu esa insonni doimo izlanishga, fikrlashga va dunyoni chuqurroq anglashga chorlaydi.

To'rtinchidan, mutafakkirning ma'naviy qadriyatlar haqidagi qarashlari bugungi globallashuv jarayonida ham dolzarbdir. Ayniqsa, yoshlarning ma'naviy immunitetini shakllantirishda, ularni turli yot g'oyalar va ma'naviy tahdidlardan asrashda Moturidiy ta'limotidan samarali foydalanish mumkin. Bu borada Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining faoliyati, shuningdek, mutafakkir asarlarini keng targ'ib qilish ishlari amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Beshinchidan, qiyosiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, Moturidiy qarashlari Al-Farobiy, Ibn Sino, Beruniy kabi Sharq mutafakkirlarining ilmiy-falsafiy qarashlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, o'ziga xos jihatlarda ulardan farqlanadi. Masalan, Al-Farobiy ilm va axloq uyg'unligini davlat boshqaruvi kontekstida sharhlagan bo'lsa, Moturidiy uni diniy-ma'rifiy qadriyatlar bilan chambarchas bog'lab talqin qiladi.

Moturidiy asarlarida ma'naviy qadriyatlar shaxsiy va ijtimoiy taraqqiyotning muhim mezoni sifatida qaraladi. Uning ta'limoti inson shaxsining ma'naviy-axloqiy barkamollikka erishishi uchun aql, tafakkur, imon va adolat uyg'unligini ta'minlash zarurligini asoslaydi.

Mutafakkir g'oyalari bugungi globallashuv davrida yoshlarni milliy va diniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning dunyoqarashini sog'lomlashtirishda muhim nazariy va amaliy manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Moturidiy merosini chuqur o'rganish va uni ta'lim-tarbiya tizimiga keng tatbiq etish jamiyatda sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa: Yuqoridagi ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, Abu Mansur Moturidiy merosi nafaqat diniy-ilohiy masalalarni sharhlash bilan chegaralanmaydi, balki insoniyatning ma'naviy va axloqiy hayotini yuksaltirishga qaratilgan chuqur falsafiy qarashlarni ham o'zida mujassamlashtiradi. Mutafakkirning "Kitob at-Tavhid" va "Ta'vilot ahl as-Sunna" asarlari orqali ilgari surilgan g'oyalarda insonning shaxsiy kamoloti, jamiyat taraqqiyoti va ma'naviy qadriyatlarning barqarorligi bir butun tizim sifatida talqin etiladi.

Moturidiy ta'limotida asosiy e'tibor imon va aqlning uyg'unligiga qaratiladi. Uning fikricha, haqiqiy iymon aql-idrok bilan mustahkamlangan taqdirdagina barqaror bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham mutafakkir ilm, tafakkur va ma'naviy qadriyatlarni inson hayotining tayanch omillari sifatida talqin etadi. Bu yondashuv zamonaviy davrda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan, balki globallashuv

jarayonida yoshlarning ongini sog‘lomlashtirish, ularni turli yot mafkuralardan himoya qilishda muhim nazariy va amaliy manba sifatida qadrlanmoqda.

Shunday qilib, Moturidiy asarlarida ilgari surilgan ma'naviy qadriyatlar bugungi kunda ham o‘z nazariy va amaliy ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lib, ular yosh avlodni barkamol shaxs sifatida shakllantirish, milliy-ma'naviy merosni mustahkamlash va jamiyatda sog‘lom ijtimoiy muhitni yaratishda tayanch manba sifatida o‘rganilishi zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Harvey, Ramon. Transcendent God, Rational World: A Maturidi Theology. Edinburgh University Press, 2023.

2. Maturidi Theology: A Bilingual Reader. Lejla Demiri, Philip Dorroll, Dale J. Correa (tahrirchilar). Mohr Siebeck, 2022.

3. Adem, Rodrigo & Rudolph, Ulrich. Al-Maturidi and the Development of Sunni Theology in Samarqand (Islamic History and Civilization). Brill, 2023.

4. Maturidi, Abu Mansur. The Book of Monotheism (Kitab at-Tawhid), tarjima va sharhlari bilan, Sulaiman Ahmed (editor). Maturidi Publications, 2019.

5. “Epistemology of Sunni Kalam through the prism of ‘Kitab al-Tawhid’ by al-Maturidi” – R. K. Adygamov. Minbar Islamic Studies, 2022, 15(1): 100-115.

6. Nuri Dirshawi, Muhammad Junaid ibn Muhammad. “The Significance of the Teachings of Imam Maturidi in Preventing the Spread of Radical Ideas among Youth.” Moturidiylik jurnali, vol. 2, no. 3, 2022.

7. Ganiyev E. Stages of development and impact on social life of an informed society in Uzbekistan //Western European Journal of Historical Events and Social Science. – 2024. – Т. 2. – №. 11. – С. 17-20.

8. Ризаев И. И., Муминова З. О. Профессиональная подготовка личности: оздоровление и духовное воспитание //Система менеджмента качества в вузе: здоровье, образованность, конкурентоспособность. – 2021. – С. 264-268.

9. Mavlanovna A. M. Symbolism In Art And Metaphorism, Metonymy As A Method Of Aesthetic, Spiritual-Psychological Assimilation Of Existence //Solid State Technology. – 2020. – Т. 63. – №. 6. – С. 3431-3437.

10. Yaxshilikovich Y. J. YOSHLAR DUNYOQARASHI SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHIDA FINLANDIYA TA'LIMINING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATI VA OMILLARI //Ustozlar uchun. – 2024. – Т. 57. – С. 14-18.

MOTURIDIYLIK TA'LIMOTI VA HOZIRGI ZAMON

Bekchanova Manzura
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi talabasi
Ilmiy rahbar: N. Xakimova
"Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o'rganish ICESCO" kafedrasi dotsenti v.b.

Annotatsiya. Maqolada Abu Mansur Moturidiy ta'limotining hozirgi davrdagi dolzarbligi yoritiladi. Moturidiylikning asosiy xususiyatlari – mo'tadillik, aql va naql o'rtasidagi muvozanat – bugungi globallashuv sharoitida diniy ekstremizm va noto'g'ri talqinlarga qarshi muhim intellektual asos sifatida tahlil qilinadi. Shuningdek, davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan tashabbuslar va chora-tadbirlarning ushbu ta'limotni chuqurroq o'rganish va targ'ib qilishdagi ahamiyati ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: moturidiylik, aqida, kalom, ilm, islom, ilmiy merosi, ta'limot, asr, diniy ekstremizm, davlat tashabbuslari.

Islom dini nafaqat e'tiqod tizimi, balki adolat, ezgulik va insonparvarlikni targ'ib qiluvchi ta'limot sifatida tanilgan. Islom ilmlari asta-sekin shakllanib borgan sari, ular turli fan sohalariga ajralgan: fiqhda – mazhablar, tasavvufda – tariqatlar, aqida ilmida esa – ta'limotlar shakllandi. Sunniylik doirasida ikki asosiy aqidaviy ta'limot mavjud bo'lib, ulardan biri Imom Abu Mansur Moturidiy asos solgan Moturidiya, ikkinchisi esa Imom Abu Hasan Ash'ariy asos solgan ash'ariya ta'limotidir.[1, b. 70].

Moturidiylik ta'limoti Hanafiy mazhabiga mansub bo'lib, IX asrning ikkinchi yarmi va X asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan Imom Moturidiy tomonidan asos solingan[2, b. 25]. Moturidiylik ta'limotining asosiy g'oyalaridan biri bu, aqliy va naqliy dalillar uyg'unligi, bag'rikenglik**,** ixtiloflarni bartaraf etish va g'oyaviy birlikka chorlashdir. Imom Moturidiy "Kitob at-tavhid" asarida taqlidga qarshi chiqish va diniy dalillarga asoslanishning zarurligini yozgan. Imom Moturidiy aql va naqlni dinni bilishning asosiy ikki yo'li deb e'tirof etgan. Uning fikricha, Yaratuvchining mavjudligini bilish va diniy manbalarni anglash uchun aql zarur, ammo aql tanqidsiz vahiydan ustun bo'lishi mumkin emas. U o'z davrida aqlini ishlatmay, faqat naqlga tayanganlar bilan hamda aqlini vahiydan ustun qo'yganlar bilan kurashgan[7;].

Imom Moturidiy yashagan davrga kelib islom dinida paydo bo'la boshlagan turli guruh va firqalarning soni ko'payib ketgan edi. Bu hol imon-e'tiqod masalalarida ko'plab ixtiloflarni keltirib chiqardi. Shunday guruhlardan biri mu'taziliylar bo'lib, ular aqidaviy masalalarni sharhlashda naqliy dalillardan

(Qur'on va hadis) aqliy dalillarni ustun qo'yar edilar. Natijada salaf hamda ahli hadis ulamolari orasida tanqidiy fikrlar paydo bo'la boshladi[3;]. Mana shunday murakkab sharoitda ulug' mutakallim Abu Mansur Moturidiy vujudga kelgan muammoli vaziyatni ilmiy asosda bartaraf etishda, o'ziga xos usulda katta hissasini qo'shdi.

Imom Moturidiyning mutaassiblikka qarshi kurash metodologiyasi ham naqliy, ham aqliy dalillarga asoslangani sababli buzg'unchi oqimlar faoliyatiga barham berishda o'ta samarali bo'lgan. Ushbu metodologiyaning asosini olimning "Qurolingni ilmda yasa", degan hikmatli so'zi tashkil qilgan[8;]. Bugungi kunda Imom Moturidiyning ushbu hikmati mamlakatimizda muvaffaqiyatli qo'llanilayotgan "Jaholatga qarshi ma'rifat" g'oyasi bilan har tomonlama mushtarak ekanligini ko'rishimiz mumkin. Imom Moturidiy faoliyat yuritgan davrda Movarounnahrda yuzaga kelgan ixtilofli vaziyatlar uning asoslagan ilmiy asoslar orqali barham topgan. Yuridik fanlari doktori Abdulhakim Shar'iy Jo'zjoniyning fikricha, Imom Moturidiy o'z zamonasida "g'oyaviy birlik darg'asi" sifatida tanilgan[1, b. 74].

Imom Abu Mansur Moturidiyga ko'plab sharafli unvonlar berilgan. Ulardan biri - "Alamul Huda"**,** ya'ni "Hidoyat bayrog'i" unvonidir[9;]. Abu Mansur Moturidiy yashab, ilmiy faoliyat bilan shug'ullangan paytlarda Islomning hidoyat bayrog'ini pastlatishga urinayotgan ichki dushmanlar urchib ketgan edi. Ana shunday murakkab sharoitda Imom Moturidiy to'g'ri e'tiqod asoslarini ilmiy dalillar orqali mustahkamlab, islom aqidasini himoya qildi va uni ravshan yo'l sifatida namoyon qildi. U zotning bu ulkan xizmatlari natijasida u "Alamul Huda" – ya'ni "Hidoyat bayrog'i" degan sharafli unvon bilan e'tirof etildi. Bugungi kunda ham bu unvon katta ahamiyat kasb etadi, chunki zamonaviy davrda ham e'tiqodiy chalkashliklar, turli ekstremistik qarashlar va noto'g'ri talqinlar mavjud. Moturidiy merosi, ayniqsa, aqida va tafakkur sohasida asosli yondashuvlarga asoslanib, mo'min-musulmonlarni haqiqatga yetaklashda muhim manba bo'lib qolmoqda. "A'lamul Huda" unvoni bu ilmiy va ma'naviy yetakchilikning timsoli sifatida hanuz dolzarbligini saqlab kelmoqda.

Imom Moturidiyning bu maqomga sazovor bo'lishi, avvalo, u zot qoldirgan chuqur ilmiy meros bilan chambarchas bog'liqdir. Abu Mansur Moturidiy umri davomida faqihlar, muhaddislar bilan muloqotda bo'lgan va munozaralar olib borgan. U islom dinining hanafiy mazhabini Movarounnahrda tarqatish va o'zidan keyingi avlodlarga qusursiz yetkazish ishiga muhim hissa qo'shdi[4, b. 22]. Tarixiy manbalarda Moturidiyning ko'plab asarlari haqida ma'lumotlar yetib kelgan. Ularda ta'kidlanishicha, Moturidiy uch yo'nalish: kalom, tafsir va fiqh bo'yicha asarlar yozgan[8;].

Alloma tafsirga oid "Ta'vilotu ahlis-sunna", kalomga oid "Kitob at-tavhid" (Tavhid kitobi), "Rad usul al-xamsa" (Besh usulga raddiya), "Radd al-Amamiyya

li-ba'd ar-ravafid" (Imomiylarning ba'zi rofidiylarga raddiyasi), "Rad alal Qaramita" (Qarmatiylarga raddiya). Fiqhga oid "Ma'xaz ash-shara'i fi-l-fiqh" (Fiqh ilmida shar'iy manbalar) va "Al-jadal fiy usul al-fiqh" (Fiqh ilmi asoslari xususida munozaralar) kabi asarlari ma'lum va ulardan ba'zilari bizgacha yetib kelgan[5, b. 22].

"Kitobu-t-tavhid" asari bizning davrimizga yetib kelgan va u 1970 yilda Fathulloh Xulayf tomonidan Bayrutda nashr etilgan[8;]. 1970-yilda nashr etilganidan buyon uning asosida islom ilohiyotshunosligi talabalari tomonidan tadqiqotlar olib borildi va unga oid bir qancha sharh va tadqiqotlar nashr etildi. Kitob Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan o'zbek tiliga ham tarjima qilinib, nashrdan chiqqan[10;]. Moturidiy bu asarida sunniy aqidadagi zid qarashlarni rad qilishga harakat qiladi va Abu Hanifaning qarashlariga suyangan holda ish ko'radi. Mazkur asarning ilmiy va amaliy ahamiyati juda katta bo'lib, u ahli sunna ulamolari tomonidan Qur'oni karimni sharhlash bo'yicha qilingan dastlabki jiddiy urinish hisoblanadi. Bugungi kunda "Kitobu-t-Tavhid" asarining dolzarbligi yanada ortib bormoqda, chunki zamonaviy davrda musulmonlar e'tiqodiga tahdid soluvchi turli yo'nalishlar, noto'g'ri talqinlar va mutaassib qarashlar keng tarqalmoqda. Bunday sharoitda Moturidiy kabi mutakallim olimning ilmiy merosi, xususan ushbu asar, e'tiqodni Qur'on va aql uyg'unligida anglashga xizmat qiladi.

Moturidiy ilmiy merosining bugungi kunga bo'lgan ta'siri nafaqat "Kitobu-t-Tavhid" asarining tarjima qilinishi va ilmiy nashrlari bilan, balki unga bo'lgan chuqur hurmat va e'tiborni ifodalovchi ko'plab tashkiliy va ilmiy tadbirlar orqali ham namoyon bo'lmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 11-avgustdagi qarorini[11;] yorqin misol qilib keltirsak bo'ladi. Bu qaror Moturidiylik ta'limotini hozirgi zamondagi dolzarbligini namoyon qilish uchun bo'lgan eng muhim qadam deb ayta olamiz. Chunki hozirgacha Turkiya va boshqa xorijiy mamlakatlarda Moturidiy va moturidiylik merosiga oid ko'plab tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, dunyo miqyosida Imom Moturidiy nomi bilan ataluvchi ilk xalqaro markaz aynan O'zbekistonda ochildi. Ushbu tashabbus bugungi kunda islomshunoslik sohasidagi tadqiqotchilar zimmasiga yanada katta mas'uliyat yuklaydi va milliy hamda xalqaro miqyosda ilmiy izlanishlarni yangi bosqichga olib chiqadi.

O'zbekistonda buyuk allomalarimizning ilmiy-ma'naviy merosini chuqur o'rganish va targ'ib qilishda, yana bir muhim tashabbuslardan 2022 yil, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazida "Moturidiylik ta'limoti va hozirgi zamon" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy simpozium tashkil etilgani[12;] bu borada muhim qadam bo'ldi. Simpoziumda O'zbekiston, Turkiya, Misr, Iordaniya,

Germaniya, Malayziya kabi mamlakatlardan olimlar ishtirok etib, moturidiylik ta'limotining hozirgi zamondagi dolzarbligi muhokama qilinib. Moturidiylikning asosiy xususiyati – mo'tadillik, aql va naql o'rtasidagi muvozanat – bugungi globallashuv sharoitida diniy ekstremizm va noto'g'ri talqinlarga qarshi muhim intellektual qurol bo'lib xizmat qilayoyganligiga urg'u berildi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi globallashuv va turli ma'naviy tahdidlar davrida moturidiylik ta'limoti o'zining dolzarbligi bilan ajralib turadi. Uning asosiy tamoyillari – mo'tadillik, aql va naql uyg'unligi, ilmga asoslangan e'tiqod – zamonaviy musulmon jamiyatlari uchun diniy ekstremizm va noto'g'ri talqinlarga qarshi eng muhim intellektual asosdir. Imom Moturidiy "To'g'ri yo'lning kaliti – ilm" deb ta'kidlaganidek[6, b. 331], ilm-fan va ma'rifatga tayanish bugungi kunda ham eng muhim yo'ldir. Shu bois Imom Moturidiy nomidagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi va simpoziumlarning tashkil etilishi bu ta'limotning nafaqat tarixiy, balki hozirgi zamon uchun ham hayotiy ahamiyatga ega ekanini tasdiqlamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Islomdagi yo'nalishlar va mazhablar: darslik / S.S. Saidjalolov. – Toshkent: «O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi» nashriyot-matbaa birlash masi, 2021.
2. Jaholatga qarshi ma'rifat : o'quv qo'llanma / J. Karimov. – Toshkent : O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi nashriyot-matbaa birlashmasi, 2021.
3. Shayh Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Sunniy aqidalar. – Toshkent: Sharq, 2008.
4. A'zamxo'jayev S. 100 Markaziy Osiyo mutafakkirlari. –T.: YANGI NASHR, 2011.
5. Qoriyev O.A. Farg'ona fiqh maktabi va Burhoniddin Marg'inoniy. – T.: Fan, 2009.
6. Moturidiy ta'limoti tarixi [Darslik] / S. Oqilov, J. To'xirov, Yo. Po'lvanov. – Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2020.
7. https://iiau.uz/oz/news/3974
8. https://www.bukhari.uz/?p=41677&lang=oz
9. https://xadicha.uz/uz/news/845
10. https://uz.wikipedia.org/wiki/Kitob_at-Tavhid
11. https://lex.uz/uz/docs/-5084643
12. https://yuz.uz/uz/news/moturidiylik-talimoti-va-hozirgi-zamon

IMOM MOTURIDIY VA UNING IZDOSHLARI ILMIY MEROSINING ISLOM ILMLARI RIVOJIDAGI O'RNI

Matchonova Mashhura Muzaffar qizi
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi Tarix (islom tarixi va manbashunosligi) yo'nalishi 4-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: **Sh.To'xtiyev**, *"Islom tarixi va manbashunosligi IRCICA" kafedrasi dotsenti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Movarounnahrda tug'ilib voyaga yetgan va islom ilmlari orasida alohida o'ringa ega bo'lgan kalom(aqida) ilmiga munosib hissa qo'shgan mutakallim olim Imom Moturidiy hayoti va ilmiy faoliyati va uning izdoshlarining islom ilmlari rivojidagi o'rni haqida ma'lumotlar keltiriladi. Shuningdek, IX-X asrdagi Movarounnahrdagi diniy muhit va islom ilmlari rivoji haqida ham to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zlar: kalom, fiqh, moturidiylik, Uchinchi renessans, Abu Sulaymon Muso Juzjoniy, aqida, taqdir, tavhid, meros, hadis, talqin, tafsir.

Jahonda mutakallimlar imomi Abu Mansur Moturidiyning falsafiy merosi va moturidiylik ta'limotining asl mohiyatini tadqiq etishga zaruriyat ortib bormoqda. Chunki, bugungi kunda insoniyat olamida radikallashuvning keskin tus olib, dindan siyosiy maqsadlarda foydalanuvchi kuchlar ta'sirining ortib borishi va natijada diniy tusdagi siyosiy nizolarning kelib chiqishi yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Bu esa o'z navbatida, o'zining falsafiy qarashlarida diniylik va dunyoviylik uyg'unligini ta'minlab, kalom ilmida mo'tadillikni yoqlab, o'z mulohazalarini aqliy va naqliy dalillar asosida yoritib bergan, IX asrdayoq Movarounnahr diyorida butun ahli sunna val jamoa aqidasining Hanafiylik yo'nalishini davom ettiruvchi buyuk yo'lboshchisiga aylangan Imom Abu Mansur Moturidiyning ilmiy merosini o'rganish hamda uning "Kitob at-tavhid" va "Ta'vilot al Qur'on" asarlarida shaxsning ma'naviy fazilatlarini yuksaltirishga, diniy e'tiqodni mustahkamlashga xizmat qiladigan g'oyalarini jamiyat hayotiga to'g'ri tadbiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Uchinchi rennesans davri tomon harakatlanayotgan O'zbekistonda ham Imom Abu Mansur Moturidiy falsafiy merosini ilmiy jihatdan xolis o'rganishga, mutakallimning "Kitob at-tavhid" va "Ta'vilot al-Qur'on" kabi shoh asarlarida ilgari surilgan hayotbaxsh g'oyalarni kishilar ongi va qalbiga singdirishga, olimning hayot yo'li, diniylik va dunyoviylikda mo'tadillikni mahkam tutgan moturidiylik ta'limotining bugungi kundagi ahamiyatini keng doirada xalq ongiga yetkazishga hamda faol targ'ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda[1, b. 5-6].

Ulug' bobomizning to'liq ismlari Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud Abu Mansur Moturidiy Samarqandiy Ansoriy bo'lgan. Kamoliddin Bayoziyning

tahqiqiga ko‘ra Imom Moturidiyning nasabi ulug‘ sahobiy Abu Ayyub Ansoriyga borib taqaladi. Shuning uchun u zotga “Ansoriy” nisbati ham berilgan. Imom Moturidiyning tug‘ilgan sanalari aniq emas. Manbalarni solishtirib chiqqan ulamolar imom Moturidiyning ustozlaridan biri bo‘lgan Muhammad ibn Muqotil Roziyning 248-hijriy sanada vafot etganiga ko‘ra, bu zotning tavalludlari hijriy 240 sana atrofiga to‘g‘ri kelishini aytganlar[3;]. Milodiy 870-yilda tug‘ilgan, Samarqandda 945-yilda vafot etgan va shahar chekkasidagi Chokardiza degan qabristonga dafn etilgan. Moturidiy yashagan davr Somoniylar hukmronlik qilgan davrga to‘g‘ri keladi. Samarqand dastlab bu davlatning poytaxti bo‘lib, so‘ngra IX asrning oxiridan boshlab poytaxt Buxoroga ko‘chirildi. Biroq o‘sha vaqtda ham Samarqand Buxoro bilan bir qatorda Movarounnahrning iqtisodiy, madaniy markazi bo‘lib qolaverdi[4;]. Imom Moturidiy quyidagi ustozlardan ta’lim olgan:

1. Imom Abu Bakr Ahmad ibn Is’hoq Juzjoniy;
2. Imom Abu Nasr Ahmad ibn Abbos Iyoziy;
3. Nusayr ibn Yahyo Balxiy;
4. Muhammad ibn Muqotil Roziy va boshqalar.

Ushbu to‘rtta ustoz imom Moturidiyni imom Abu Hanifagacha bo‘lgan sanadini bog‘lovchi ustozlar hisoblanadi. Chunki mazkur Ahmad Juzjoniy, Iyoziy va Balxiylar 200 hijriy sanada vafot etgan Abu Sulaymon Muso Juzjoniyning shogirdlaridir. Bu zot esa Imom Abu Yusuf va Imom Muhammadlarning shogirdi bo‘lgan. Demak shunga ko‘ra hanafiya mazhabi imom Moturidiyga quyidagi sanad bilan yetib kelgan:

- Imom Abu Hanifa;
- Imom Abu Yusuf va Imom Muhammad;
- Abu Sulaymon Muso Juzjoniy;
- Ahmad Juzjoniy, Iyoziy va Balxiy;
- Moturidiy.

Imom Moturidiy rohmatullohi alayh fiqhda imom Abu Hanifa rohmatullohi alayh mazhablarida bo‘lganidek, aqidada ham u zotga ergashgan. Shuning uchun ham ba’zi asarlarda moturidiylarni hanafiylar deb ham ataladi.

Imom Moturidiy rohmatullohi alayhning qilgan eng ulkan xizmati ahli sunna val jamoaga qarshi chiqqan firqalarning da’volariga umumiy raddiya qilishdan tashqari ularga batafsil raddiyalar qilganidir. Ya’ni, bu zot o‘sha paytlarda omma musulmonlarga tashvish tug‘dirib turgan mu’taziliy yetakchilarining asarlariga birma-bir raddiyalar yozib, ularni “ochiq maydon”da mag‘lub qilgan.

Abu Mansur al-Moturidiy asarlari mazmunida ilohiy zotni aql-idrok bilan bilish, Alloh taolo inson zimmasiga yuklagan farzni ado etishdan boshqa narsa emas, deb hisoblagan. Uning fikricha, agar Yaratuvchining mavjudligini aql

bilan tushunish mumkin va unda odamlar Uning iymonga oid maxsus amrlarini qabul qilishlari va ba'zi mutlaqo shaxsiy savollarning ma'nosi haqida ortiqcha so‘ramasliklari kerak. Masalan, ma'lum bir namozdagi rakatlar soni haqida. Umuman olganda, al-Moturidiy ta'limoti Qur'on matnining aqlga nisbatan ustuvorligini tan olishga asoslanadi. Ikki manba o‘rtasida ziddiyat yuzaga kelgan taqdirda, Qur'oni Karimga ustuvorlik beriladi[2;].

Imom Moturidiy rohmatullohi alayh ko‘plab shogirdlar yetishtirgan bo‘lib, ularning eng mashhurlaridan ayrimlari quyidagi zotlardir:

- Abulqosim Is'hoq ibn Muhammad. Bu zot Hakim Samarqandiy nomi bilan mashhur bo‘lgan. Samarqandda qozilik lavozimida ishlagan. "Sohaiful ilahiya" (Ilohiy sahifalar), "Savodul a'zam" (Ulkan jamoat), "Roddu ala as'habil hava" (Nafsu havoga ergashganlarga raddiya) kabi ko‘plab asarlar yozib qoldirgan. Hijriy 345-sanada vafot etgan.

- Imom Abulhasan Ali ibn Sa'iyd Rustug‘faniy. "Irshadul mubtadiy" (Yo‘l boshidagi kishini maqsadga yo‘llash), "Zavaid va favaid fi anvail ulum" (turli ilmlardagi qo‘shimchalar va foidalar) kabi ko‘plab asarlar yozgan. Hijriy 350 sanada vafot etgan.

- Abu Lays Nasr ibn Muhammd Samarqandiy. Bu zot tafsir, aqoid, fiqh, va tasavvufga oid o‘ndan ortiq kitoblar yozgan. Hijriy 393-sanada vafot etgan.

- Imom Abumuhammad Abdulkarim Pazdaviy. Bu zot fiqh ilmida peshqadam bo‘lgan. Zotan bu zot mashhur faqihlar sulolasining vakili hisoblanadi. Hijriy 390 sanada vafot etgan.

Hakim Samarqandiy yashagan davrda musulmon olamining turli tomonlarida, jumladan, Movarounnahr o‘lkasida ham turli xil oqim va firqalar paydo bo‘ladi. Ular islom dinini buzib talqin qilib, noto‘g‘ri aqidalar tarqatishar, buning natijasida, ko‘p musulmonlar hidoyat yo‘lidan og‘ib, haqiqiy islomiy aqidalardan uzoqlashib qolgan edilar. Hakim Samarqandiy zamondoshi Abu Mansur Moturidiy bilan birga Samarqanddagi madrasada rahbarlik qilib, tarqala boshlagan buzuq mafkuralarga qarshi kurashganlar. Hakim Samarqandiy eng asosiy asari "as Savod al-a'zam fil-kalom" ("Kalom ilmida buyuk asar") bo‘lib, u IX-X asrlarnin tutash davridagi Movarounnaxr hanafiylarining ilohiyat masalalariga oid qarashlarini aks ettiradi. Asar ilohiyatning ayrim asosiy masalalari bilan cheklanib qolmaydi. Iymonning ta'rifi, gunohlarning holati, taqdir yoki narigi dunyo hisob-kitobi kabi ko‘rib chiqilishi odatiy bo‘lgan masalalardan tashqari, olim yana ko‘p mavzularga to‘xtaladi. Alloh va uning sifatlari, Qur'on yaratuvchisining qudrati, Qur'onning manbalari, esxatologiya va taqvo, avliyolarni hurmat qilish va zohidlik, jamoalar o‘rtasidagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlar va hatto fiqh ilmining o‘ziga xos muammolariga ham alohida e'tibor qaratiladi[5;].

Faqih, mufassir, usul, aqida, zuhd bo‘yicha ko‘plab asarlar yozgan, buyuk alloma Samarqand shayxulislomi Abu Lays Samarqandiyning to‘liq ismlari Nasr ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Ibrohim Abullays as-Samarqandiy al-Hanafiydir. “Xizonat al-fiqh” (“Fiqh xazinasi”). Bu asarda hanafiya mazhabi aqidalari asosida musulmon huquqshunosligi (fiqh)ning qisqacha ta’rifi berilgan. Asar 42 ta mustaqil kitob va 100 dan oshiq bobga bo‘linadi. Asar “Kitob masoil at-tahorat” (“Tahoratga oid masalalar kitobi”) bilan boshlanib, “Kitob al-vasoyo” (“Vasiyatlar kitobi”) bilan tugaydi. “Xizonat al-fiqh”ning 1467 va 1814- yillari ko‘chirilgan ikki qo‘lyozma nusxasi FA Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda[6;].

Pazdada hadis ilmidan tashqari fiqh, aqida va tafsir fanlarini rivojlanishi Abdulkarim ibn Muso ibn Iso Pazdaviy (vaf. 300/912 y.) va uning avlodlari faoliyati bilan bog‘liq. Uning nabirasi Muhammad ibn Husayn ibn Adbulkarim, Muhammadning ikki farzandi Faxrul-islom Ali ibn Muhammad (1009-1089), Sadrul-islom Abul Yusr Muhammad ibn Muhammad Pazdaviy (1030-1100) va ularning farzandlari Abu Sobit Hasan ibn Ali (1078-1161) Abul Ma’oliy Ahmad ibn Abul Yusr (1088-1147) Pazdaviylar Movarounnahr tarixidagi yirik faqih va mutakallimlar bo‘lib yetishgan. Abdulkarim ibn Muso ibn Iso ibn Mujohid ibn Abdulloh Pazdaviy hayoti va ilmiy merosi haqida kam sonli ma’lumotlar mavjud[7;].

Manbalarda, Abdulkarim Pazdaviy imom Abu Mansur Moturidiy (870-944)ning yaqin shogirdi bo‘lgani va ustozidan Abu Hanifaning “al-Olim val-muta’allim” (Ustoz va shogird) asarini rivoyat qilgani zikr etiladi. Abdulkarim Pazdaviy ustozi Abu Mansur Moturidiyning ilmiy merosini avvalo farzandlari va avlodlariga, qolaversa butun Nasaf va Pazda shahri aholisiga yetib borishiga beqiyos xizmat qildi. Uning avlodlaridan yetishib chiqqan bir necha yirik faqihlar moturidiya aqidaviy ta’limoti va hanafiylik mazhabi rivojiga o‘zlarining qimmatli asarlari bilan katta hissa qo‘shdilar. Birgina Abul Yusr Pazdaviyning “Usul ad-din” asari moturidiylik aqidaviy ta’limotini o‘rganishda muhim qo‘llanmalar biri hisoblanadi[8;].

Xulosa qilib shuni aytsak, Imom Moturidiy va uning izdoshlari: Kalom ilmini ilmiy asosda tizimlashtirdi. Aql va naql o‘rtasidagi muvozanatni saqlab, ekstremistik yondashuvlardan uzoqlashtirdi. Islom aqidaviy tafakkurining mantiqiy asoslarini mustahkamladi. Movarounnahrda va undan tashqarida ilmiy maktablarning shakllanishiga asos solganlar. Imom Moturidiy va uning izdoshlari islom ilmlarining ko‘plab sohalarini chuqurlashtirib, musulmon tafakkurini yuksak ilmiy darajaga olib chiqqanlar. Ularning aql va naqlni uyg‘unlashtirishga qaratilgan yondashuvi, islom aqidasini mo‘tadil va asosli yo‘nalishda rivojlantirishga qaratilgan sa’y-harakatlari bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Ular tomonidan yaratilgan ilmiy

meros nafaqat diniy, balki ijtimoiy va ma'naviy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim o'rin tutadi. Bugungi globallashuv, madaniyatlararo aloqalarning kuchayishi, diniy ekstremizm va radikalizmning kuchayishi fonida Imom Moturidiy merosi nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. M.Adasheva. Abu Mansur Moturidiy falsafiy merosining shaxs ma'naviyatini yuksaltirishdagi o'rni(Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati). Toshkent-2023. –B. 49.

2. Ziyodov Sh., Al-Moturidiy hayoti va merosi, T., 2000.

3. https://sammuslim.uz/oz/articles/aqidah/imom-moturidiy-rohmatullohi-alayh.

4. http://burxonjon.zn.uz/sharq-allomalari/imom-moturidiy/

5. https://shosh.uz/mutafakkirlar-abulqosim-ishoq-ibn-muhammad-hakim-samarqandiy-2/

6. https://oliymahad.uz/37210

7. https://www.bukhari.uz/?p=26367&lang=oz

8. Tamimiy. at-Tabaqotu-s-saniyya fi tarojimi-l-hanafiyya. IV. – B. 429-430.

YANGI O'ZBEKISTONDA IMOM MOTURIDIY ILMIY MEROSIGA E'TIBOR

Raxmatxonov Ayubxon Jahongir o'g'li
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi talabasi

Respublikamizda so'nggi yillarda barcha sohalarda chuqur islohotlar, yangilanishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, buyuk ajdodlarimizning ilmiy-ma'naviy merosini har taraflama o'rganish, ularning islom sivilizatsiyasiga qo'shgan munosib hissasini xalqaro ilmiy jamoatchilikka yetkazish, yosh avlodda ajdodlarimiz merosiga nisbatan chuqur hurmat va ehtirom tuyg'usini shakllantirish uchun ham ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, ajdodlarimiz merosini o'rganish asosida sof islom qadriyatlarini targ'ib qilish va yosh avlodni bilimli, zukko, jahon ilmiy muhitida raqobatlasha oladigan o'z fikri hamda g'oyasiga ega, har tomonlama yetuk avlod etib tarbiyalash masalasi dolzarb vazifaga aylangan. Bu borada Movarounnahrdagi islom tamadduniga munosib hissa qo'shgan, qadim Movarounnahr diyoridan yetishib chiqqan alloma va mutafakkirlarning merosini o'rganishga shaxsan davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev tomonidan e'tibor qaratilyapti.

2020-yil 11-avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Imom Moturidiy xalqaro ilmiy tadqiqot markazini tashkil etish chor-tadbirlari

to‘g‘risidagi”gi qarori qabul qilindi. O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzurida faoliyat yuritayotgan ushbu ilmiy markaz aqida va kalom ilmi rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk vatandoshimiz Imom Moturidiy va moturidiy allomalarning ulkan ilmiy, diniy-ma’rifiy merosini chuqur o‘rganish, ular yaratgan asarlarning ilmiy-izohli tarjima va qiyosiy matnlarini nashr etish, xalqimiz va jahon jamoatchiligi o‘rtasida keng targ‘ib qilish, ushbu mavzularga doir ilmiy tadqiqotlarni olib borish kabi muhim mavzularda amaliy ishlar olib bormoqda. Qarorga ko‘ra, 2020-yildan boshlab har yili “Moturidiylik ta’limoti va hozirgi zamon” mavzusida konferensiya va seminarlar o‘tkazib kelinmoqda, yilda 4 marta “Moturidiylik” ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-adabiy jurnali chop etimoqda. 2020-yil 3-5-mart kunlari Samarqand shahrida Imom Moturidiy merosini yanada chuqur o‘rganish, O‘zbekistonning islom sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shgan hissasini keng targ‘ib qilish maqsadida “Imom Abu Mansur Moturidiy va moturidiya ta’limoti: o‘tmish va bugun” mavzusidagi xalqaro konferensiya o‘tkazildi.

2025-yil 14-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “Imom Moturidiy tavalludining 1155 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi PQ-102-sonli qarorni imzoladi. Qarorga ko‘ra, 2025-yil aprel oyida Samarqand shahrida “Moturidiylik – bag‘rikenglik, mo‘tadillik va ma’rifat ta’limoti” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazildi.

Qarorda quyidagilar ham alohida belgilab qo‘yildi:

(a) 2025-yil aprel oyida Samarqand shahrida “Moturidiylik – bag‘rikenglik, mo‘tadillik va ma’rifat ta’limoti” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazish;

(b) xorijlik tadqiqotchilar o‘rtasida moturidiylik ta’limoti bo‘yicha ilmiy tanlov o‘tkazish, g‘oliblar ishtirokida O‘zbekistonda madaniy-ma’rifiy uchrashuv va seminar-treninglar tashkil etish;

(v) Imom Moturidiyning “Ta’vilot al-Qur’on” va “Kitob at-tavhid” asarlari va moturidiylik ta’limotiga oid manbalarning o‘zbek va xorijiy tillardagi ilmiy-izohli akademik tarjimalarini nashr etish;

(g) Imom Moturidiy tavalludining 1155-yilligiga bag‘ishlangan esdalik suvenirlarini muomalaga chiqarish hamda pochta markalari, taqvimlar, buyuk mutafakkirning hayoti va ilmiy merosini yoritib beradigan boshqa ko‘rgazmali axborot vositalari turkumini yaratish;

(d) Imom Moturidiyning serqirra hayot yo‘li va ilmiy merosining bugungi kundagi ahamiyatini ochib beradigan badiiy-publitsistik film yaratish;

(e) Samarqand viloyatida Imom Moturidiy va moturidiylik ta’limoti yo‘nalishida faoliyat olib borgan allomalarning hayoti, ilmiy va ijodiy merosiga bag‘ishlangan asarlarning nodir qo‘lyozma va nashr nusxalari hamda kitoblari ko‘rgazmasini tashkil etish;

(j) Samarqand shahridagi Abu Mansur Moturidiy majmuasini qayta ta'mirlash va obodonlashtirish.

Shu bilan bir qatorda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga quyidagilarni amalga oshirishi belgilandi:

(a) Din ishlari bo'yicha qo'mita bilan birgalikda 2025-yil may va oktabr oylarida Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida Oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan "Moturidiylik ta'limoti va hozirgi zamon" mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasini hamda ilmiy maqolalar tanlovini o'tkazsin;

(b) moturidiylik ta'limotiga mansub allomalarning ilmiy merosi va noyob qo'lyozma asarlarni o'rganish bo'yicha Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasini belgilangan tartibda shakllantirib borsin.

Qaror bilan, O'zbekiston musulmonlari idorasiga imom-xatiblar hamda diniy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida "Moturidiylik ta'limoti bilimdoni" tanlovini o'tkazish va g'oliblarni munosib taqdirlash tavsiya etildi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari Din ishlari bo'yicha qo'mita, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Yoshlar ishlari agentligi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi bilan birgalikda 2025-yil davomida joylarda Imom Moturidiyning ilmiy merosiga bag'ishlangan davra suhbatlarini tashkil etishi belgilandi.

Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi Madaniy meros agentligi bilan birgalikda xorijiy mamlakatlarda saqlanayotgan Imom Moturidiy va moturidiylik ta'limotiga mansub allomalarning hayoti va ilmiy merosiga oid noyob qo'lyozma asarlar va boshqa madaniy boyliklarni aniqlash, ularning nusxalarini O'zbekistonga olib kelish va tadqiq qilishni tizimli ravishda tashkil etishi va Imom Moturidiyning hayoti va ilmiy faoliyatiga bag'ishlangan yuqori sifatli mediamahsulotlar hamda audiovizual asarlar yaratish, ularni mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish, internet tarmog'i va ijtimoiy tarmoqlarda keng targ'ib qilish choralarini ko'rishi ham alohida belgilandi.

Yuqoridagilardan ko'rinadi-ki, mazkur Qaror respublikada butun 2025-yilni tom ma'noda "Imom Moturidiy yili" sifatida o'tkazish, xalqimiz orasida Imom Moturidiy va moturidiy allomalar merosi haqida targ'ibot ishlarini jadal olib borish, Imom Moturidiy ilmiy merosini o'rganishda yangi sahifa ochishda tamal toshini qo'ydi.

2025-yil 21-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Fuqarolarning vijdon erkinligi huquqi kafolatlarini yanada mustahkamlash hamda diniy-ma'rifiy sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari

to‘g‘risida” PF-68-son Farmonni imzoladi. Farmon bilan O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi Vazirlar Mahkamasi bo‘ysunuviga o‘tkazildi va Imom Moturidiy, Abu Muin Nasafiy kabi buyuk alloma ajdodlarimiz qoldirgan boy ma’naviy merosni o‘rganish, jahon ilm-fani rivojiga qo‘shgan beqiyos hissasini xalqimiz, ayniqsa, yoshlarga yetkazish, ular yaratgan asarlarning ilmiy-izohli tarjima va qiyosiy matnlarini nashr etish, mamlakatimiz hududida ro‘y bergan Birinchi va Ikkinchi Renessansning ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etish hamda Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining ma’naviy poydevorini yaratishda ishtirok etish Markazning asosiy vazifasi etib belgilandi.

Shu kunga qadar Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi yurtimizdagi barcha moturidiyshunos olimlarni birlashtrib, ko‘plab yirik tadqiqotlar, muhim nashrlarni amaliyotga tadbiq etib kelmoqda. Ayniqsa, yuqoridagi farmon bilan markazning Vazirlar Mahkamasi bo‘ysunuviga o‘tkazilishi Markazga Hukumat darajasida e‘tibor qaratilishi uchun zarur shart-sharoit yaratildi. Natijada, hozirgi kunga kelib, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi Vatanimizdagi islomshunoslik, kalom ilmi, moturidiylik ta’limoti va moturidiy allomalar merosini o‘rganish va targ‘ib qilishda tayanch ilmiy-tadqiqot muassasasi vazifasini o‘tamoqda.

Xulosa qilib aytganimizda, Yangi O‘zbekistonda Imom Moturidiy ilmiy merosiga qaratilayotgan e’tibor butun dunyo moturidiyshunos olimlarining diqqat markazida bo‘lib turibdi va haqli ravishda ularning munosib e’tirofiga sazovor bo‘lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Imom Moturidiy xalqaro ilmiy tadqiqot markazini tashkil etish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4802-son Qarori (https://lex.uz/docs/-4945427)

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Imom Moturidiy tavalludining 1155 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi PQ-102-son Qarori (https://lex.uz/uz/docs/-7431408)

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fuqarolarning vijdon erkinligi huquqi kafolatlarini yanada mustahkamlash hamda diniy-ma’rifiy sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-68-son Farmoni (https://lex.uz/docs/-7486257)

Q.R.Mahamadjonov
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi talabasi
Ilmiy rahbar: D.M.Turdiyeva
"Dinshunoslik va jahon dinlarini qiyosiy o'rganish UNESCO" kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Maqola Moturidiylik ta'limoti va hozirgi zamonga bag'ishlangan bo'lib, maqolaning avvalida ta'limotning o'ziga xosligi, Abu Mansur Moturidiy hayoti va ijodi, ta'limoti, asarlari bayon e'tiladi. Maqolaning ikkinchi qismida Moturidiylik ta'limotida Abu Hanifaga nisbat berilgan Al-Fiqhul Akbar asari, Abu Mansur Moturidiy va undan so'ng yozilgan asarlar haqida tushuncha berilib ketiladi. Jumladan: Imom Tahoviyning "Aqidatut Tahoviya" asari, Risola at-Tavhid, Abu Salamaning Jumal usul ad-din asari, Abul Hasan Ali ibn Said Rustug'foniy "As'ila val ajviba" asari, Abu Hafs Najmiddin Umar Nasafiyning "Al-Aqoid an-Nasafiy" asari, Alovuddin Buxoriyning "Risola fi e'tiqod" kabi asarlari haqida ma'lumot berib o'tilgan. Uchunchi qismida Moturidiylik ta'limotining hozirgi zamondagi o'rni, hududiy tarqalgan, ta'limotni o'rganib, tatbiq qilayotgan shaxslar va tashkilotlar hamda Moturidiylik ta'limotining XXI-asrdagi o'rni haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Moturidiylik ta'limoti, Abu Mansur Moturidiy, aqida, kalom, Fiqhul akbar, Aqidatut Tahoviya.

Hozirgi kunda Moturidiylik asosan Markaziy Osiyo, Hindiston, Pokiston, Turkiya va Bolqon kabi mintaqalarda keng tarqalgan. Asosan sunniy musulmonlarning yarmidan ko'pini tashkil qiluvchi hanafiy mazhabiga mansub kishilarning aksariyati e'tiqodda Moturidiy hisoblanadi. Ayniqsa, bu yo'nalish turkiy xalqlar orasida keng yoyilgan. Shuningdek XXI-asrda o'zbek olimlaridan S.Oqilov, Shayx Muhammadsodiq Muhammadyusuf hazratlari va Abduqodir Pardayev, xorijliklardan Bekir Topao'g'lu, Mustafo O'z va Sonmez Kutlu, Hamza Bakriy, Ahmad Sa'd Damanhuriy, Ali Juma kabi Moturidiylik ta'limotining yirik namoyondalari islom olamida ushbu ta'limotning sof holatida saqlanib qolib keyingi avlodlarga ham yetib borishiga katta hissa qo'shishgan va qo'shib kelishmoqda.

Moturidiylik ta'limotining o'ziga xos jihati shundaki, ushbu yo'nalishdagi olimlar "aqida" va "kalom"ga doir mavzularda adashgan oqimlarga nafaqat juz'iy, balki o'z davrining ilm fan va mantiqqa asoslangan dalillar bilan raddiyalar berganlar va shunday davom etmoqda. Bunga Imom Moturidiyning "Kitob at-tavhid", Abu Salama Buxoriyning "Jumal usul ad-din", Abu Shakur Keshiyning "At-Tamhid fi bayan at-Tavhid", Mahmud ibn Zayd Lomishiyning "At-Tamhid" va shu kabi asarlarni misol sifatida keltirish mumkin.

Moturidiylik ta'limoti hanafiy mazhabiga borib taqalgani bois Moturidiy hayotlik davrida Movarounnahrlik barcha ulamolar hamda ularning shogirdlari hanafiya nomi bilan atalgan. Keyingi davrlarda, aniqrog'i, V-VI/XI-XII asrlarda Moturidiylik ta'limoti keng tarqala boshladi. Abu Mansur Moturidiyning ilmiy merosi uning vafotidan ikki asr o'tgandan keyingina izdoshlari tomonidan keng tarqatilgan va "Moturidiya" ta'limoti nomi bilan alohida maktab sifatida e'tirof etilgan[1, b. 57].

Mutakallim olim, buyuk yurtdoshimiz Imom Abu Mansur Moturidiyning to'liq ismi manbalarda Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud Abu Mansur Moturidiy Samarqandiy (vaf.333/944 y.) deb qayd qilingan. Imom Moturidiyning Samarqand yaqinidagi "Moturud" qishlog'ida dunyoga kelgan, tavallud topgan sanalariga doir ma'lumotlar tabaqot va tarojim yo'nalishidagi biror manbada ko'rsatilmagan. Lekin, olimning ustoz va yaqinlarining vafot etgan sanasiga qarab, uning taxminiy tavallud yilini belgilash mumkin. Jumladan, uning shayxlari Muqotil Roziy (vaf. 248/862), Nusayr ibn Yahyo Balxiy (vaf.268/882) va yaqini Muhammad ibn Aslam Azdiy (vaf. 268/882)larning vafotiga tayangan holda taxminan Imom Moturidiy 230/845 yoki 240/854 yillar atrofida tavallud topgan, deyish o'rinli bo'ladi[2, b. 18-19].

Aksariyat manbalarda olimga quyidagi kunya va unvonlar berilgani kuzatiladi: "Imamu-l-Huda", "Imamu-l-Mutakallimiin", "Rais ahli sunna val-jamoa", "Imom az-zohid", "Musahhih ahli sunna val-jamoa".

Mashhur qomusiy olim Toshko'prizoda "Miftah as-saoda" asarida Abu Mansur Moturidiy ilmiy merosiga shunday baho bergan: "Ahli sunna val jamoaning kalom ilmidagi rahnamolari ikki kishidir. Biri hanafiy bo'lsa, ikkinchisi shofe'iydir. Hanafiy rahnamo Abu Mansur Muhammad ibn Mahmud Imom al-Huda, Rais ahli sunna val jamoa Abu Mansur Moturidiydir. Shofe'iy rahnamo esa Shayx ahli sunna, Raisul-jamoa, Imomul-mutakallimin Abul Hasan Ash'ariy Basriydir"[3, s. 9].

Shayx Abul Qosim Hasan Nadaviy ham o'zining "Rijolul-fikr va ad-da'va" nomli asarida Moturidiyni shunday sifatlaydi: "Abu Mansur Moturidiy insoniy fikrlarning bilimdoni edi. U o'zining ziyrakligi va zakovati bilan boshqalardan alohida ajralib turuvchi va ko'plab ilmiy fanlarni mukammal egallagan olim edi"[3, s. 11]. Bu kabi e'tiroflar olimning ilmiy darajasi yuqori ekanining isbotidir.

Imom Moturidiy ilmiy merosi haqida Nasafiy "Tabsira" asarida olimning o'ndan ortiq asarlari haqida ma'lumotlar keltiradi. "Kitob tavhid" ("Tavhid (yakkaxudolik) kitobi)", "Kitob Maqolot" ("So'zlar kitobi)", "Kitob radd avoil adilla lil-Ka'biy" (Ka'biyning dalillariga raddiya kitobi)", Kitob bayon vahm mu'tazila" ("Mu'taziliylarning yolg'on g'oyalari bayoni haqida kitob"), "Kitob radd tahzib jadal lil-Ka'biy" ("Ka'biyning munozaralariga raddiya kitobi"), "Radd kitob Ka'biy fi vaiyd fussoq" ("Ka'biyning jazo va fosiqlar haqidagi kitobiga raddiya")", "Radd

usul xamsa li Abi Umar Boxiliy" ("Abu Umar Boxiliyning beshta usuliga raddiya"), "Radd kitob al-imomat li-ba'z ar-ravofiz" ("Rofiziylarning imomat mavzusidagi kitoblariga raddiya")", "Kitob radd alqaromita" ("Qarmatiylarga raddiya kitobi") hamda usulul fiqhga oid "Ma'xaz sharoi'" ("Shariat manbalari"), "Jadal" ("Bahs-munozara") kabi asarlar shular jumlasidandir[1, b. 64-65]. Ushbu asarlardan "Ta'vilotul Qur'on" va "Kitob tavhid" hozirgi kungacha yetib kelgan.

Moturidiylik ta'limotining ildizlari hanafiy mazhabiga borib taqalgani bois ushbu yo'nalishda yozilgan ilk asar Abu Hanifa (No'mon ibn Sobit)ning "Fiqhul Akbar" asaridir. Asarda ahli sunna val jamoa ta'limoti moturidiylik yo'nalishining yuzaga kelishiga asos bo'lgan muhim manba hisoblanadi. "Fiqhul akbar" qisqa hajmli asar bo'lib, sodda tilda bitilgan. Unda aqoidning tamal mavzulari qamrab olingan. Asarda 42 ta mavzu ko'rib chiqilgan bo'lib, ulardan ayrimlari o'z davrida muhimligi e'tiboridan takroriy ta'kidlangan. Asar tavhidning ahamiyati borasidagi jumla bilan boshlangan. Asarda imon shartlari, Allohning borligi, Allohning birligi, Uning ismlari, zotiy va fe'liy, mutashobeh, xususan "yad" sifati va qadariylarga raddiya, Qur'on mavzusi va Allohning kalom sifati, Allohning xoliqligi, yaralmishlarning sifatlari, imon va kufr mavzusi, toat va ibodat, payg'ambarlarning ma'sumligi va mo'jizalari, Muhammad (s.a.v.)dan keyingi afzal shaxs va sahobalar, mahsiga mash tortish, taroveh namozi, riyo va g'urur masalasi, mo'minni kofirga chiqarmaslik, dunyodan tavbasiz o'tganlik oqibati, avliyolarning karomati, Allohni oxiratda ko'rish masalasi, imon va islom ta'rifi, mo'minlarning imonda tengligi, Allohning fazl-marhamati, shafoat masalasi, amallar tarozisi, jannat va do'zax, hidoyat va zalolat, qabrdagi savol-javob, azob va ne'mat masalalari, Qur'on masalasi, Payg'ambar (a.s.)ning ota-onalari, qarindoshlari va farzandlari to'g'risida, tavhid ilmining nozik masalalari, me'roj, qiyomat alomatlari kabi mavzular bayon etilgan[2, b. 56-57]. Milodiy VIII-asrda asarda ko'tarilgan yuqorida sanab o'tilgan masalalar bugungi kundagi soxta salafiylar iddaolariga raddiya sifatida xizmat qiladi.

Moturidiy ta'limotidagi ikkinchi mashhur asar "Aqidatut Tahoviya" hisoblanadi. Imom Tahoviy (r.a.) "Aqidatut Tahoviya" asarini aqoid ilmiga falsafiy qarashlar aralashib, turli chigalliklar paydo bo'lgan davrda yozgan. Muallif bu asarni yozishda ommaga falsafiy qarashlar aralashmagan ahli sunna val jamoaning sof aqidasini bayon qilib berishni maqsad qilgan. Bu maqsad muallifning asarga kirish qismida aytgan gaplaridan ham ochiq-oydin bilinib turadi.

Muallif ushbu matnni "Aqida" deb nomlagan. Keyinchalik unga "Tahoviy" nisbasi qo'shilgan va "Aqidatut Tahoviya" nomi bilan mashhur bo'lgan. "Aqidatut Tahoviya" asari boshqa matnlardan unga eng ko'p sharh yozilgani bilan ajralib turadi, aniqroq aytganda yuzga yaqin sharh yozilgan. Sababi ushbu asar o'z darvining ommasiga yozilgan bo'lishiga qaramay, keyingi asrlarda ham keng

qo‘llanilib sharhlar yozilgan. Hozirda ham asarning turli tillarda, jumladan o‘zbek tilidagi nashri ham mavjud.

Imom Abu Mansur Moturidiyning ahli sunna val jamoa aqidasining asosini tashkil qiluvchi navbatdagi asari “Kitob at-tavhid” (“Xoliqning yakka-yu yagonaligini isbotlash kitobi”) deb nomlangan. Mazkur asar yirik hajmli, o‘zida ahli sunna val jamoa aqidasining murakkab masalalarini mufassal ravishda qamrab olgani bois, uni qisqartirib, “Risola at-Tavhid” (“Tavhid risolasi”) yozilgan. "Risola at-Tavhid"da yirik hajmli "Kitob at-Tavhid"dagi masalalar qisqa ravishda zikr etilgan. Natijada ushbu risola “Kitob at-Tavhid”ning mundarijasi shaklini olgan. Risolaning arabcha matni va turkcha tarjimasi Istanbulda nashr qilingan. "Risola at-Tavhid"da keltirilgan masalalar ahli sunna val jamoaning moturidiylik yo‘nalishini belgilab beradi. Mazkur risola bilan tanishishingiz, to‘la bo‘lmasa-da, “Kitob at-Tavhid” mazmunidan habardor bo‘lishni ta’minlaydi. Ushbu sof islomiy aqidalar bilan tanishish bugungi kun uchun ham ahamiyatlidir[2, b. 69-70].

To‘rtinchi asar "Jumal usul ad-din" bo‘lib Abu Mansur Moturidiyning shogirdi bo‘lgan Abu Salama Muhammad ibn Muhammad Samarqandiy kalomiga mansub ushbu asarga keyinchalik Ibn Zakariyo Yahyo ibn Ishoq “Sharh jumal usul ad-din li Abi Salama Samarqandiy" nomli sharh yozgan.

Hakim Samarqandiyning “Savod a’zam” asari kabi “Jumal usul ad-din” asari ham o‘z davrida islom dinining asosiy tamoyillarini xalqqa o‘rgatish maqsadida somoniylar amirining rasmiy buyrug‘i bilan yozilgan. Asarda asosan Moturidiyning aqidaviy qarashlari yoritilgan[1, b. 232].

“Jumal usul ad-din” asari “Kitob at-tavhid” asari asosida qisqacha tartibda yozilgan bo‘lib 20 (21) mavzuni o‘z ichiga qamrab oladi. Asar 2021-yil Soatmurod Primov tomonida o‘zbek tiliga tarjima qilingan bo‘lib, o‘quvchi asarning mohiyatini chuqur tushunib yetishi mumkin. Asarning afzalligi shundaki, unda aqidaviy masalalar nafaqat naqliy balki, aqliy dalillar ila yoritilgan.

Beshinchi asar “As’ila val ajviba”. Ushbu asar Moturidiyning yana bir shogirdi Abul Hasan Ali ibn Said Rustug‘foniy qalamiga mansub. “As’ila val ajviba” asarida Allohga imon keltirmagan insonlar uchun “mezon” va “hasanot” bo‘lish-bo‘lmasligi, Odamning (a.s.) jannatdan yer yuziga tushirilishi, imon Alloh tomonidan ato etilishi yoki kasbiy bo‘lishi, farishtalarning savob yoki jazoga sazovor bo‘lish-bo‘lmasligi kabi masalalarga javoblar berilgan[1, b. 232-233].

Oltinchi asar "Al-Aqoid an-nasafiya" asari. Ushbu asar moturidiylik ta’limotining eng mashhur asarlaridan biri bo‘lib muallifi Abu Hafs Najmiddin Umar Nasafiy (r.a.) (462-537/1068-1142)dir. Olim Samarqandda faoliyat olib borgan hanafiy mazhabining taniqli faqihi va mutakallimidir. U mufassir hamda muhaddis sifatida ham tafsir va hadis bo‘yicha asarlar bitgan, uning yuzdan ortiq asarlar yozgani manbalarda ta’kidlangan. "Al-Aqoid an-nasafiya" asari g‘oyatda

mashhur va aqida borasida asarlarning eng e'tiborlilaridan biri hisoblanadi. Mazkur risola kichik hajmda bo‘lishiga qaramasdan, to‘qqiz asrdan buyon Markaziy Osiyo va islom olamida moturidiylik aqidasi bo‘yicha eng mashhur qo‘llanmalardan biri vazifasini bajarib kelmoqda[2, b. 71]. Ushbu asardagi Allohning Kalom va boshqa sifatlari, Alloh taoloni ko‘rish, gunohi kabiralar mo‘minni imondan ayirmasligi, gunohi kabira qilib do‘zaxga tushgan mo‘min banda u yerda abadiy qolmasligi kabi o‘nlab mavzular bayon etilgan bo‘lib XXI-asrda ham ushbu mavzular doirasidagi ixtiloflarga yechim bera oladi.

Yettinchi asar Alovuddin Buxoriyning "Risola fil-e'tiqod" asaridir, asar aqoid ilmiga oid moturidiya ta'limoti bo‘yicha muhim manbalardan hisoblanadi. “Risola fil-e'tiqod” asarida jami 63 aqidaviy masala yoritilgan. U masalalar "Mukallaf bandaga ilk vojib amal bilan boshlanib, rofiziylarning hazrat Ali (r.a.) hamda uning avlodlari yer yuziga qaytishi haqidagi qarashiga raddiya bilan yakunlangan. Asarning boshida ahli haqning narsalar haqiqati sobitligi, olamlar Alloh taolo mavjudligiga dalolat qilishi, olamlarning yaratuvchisi yagonaligi, U Zotning qadimligi, xohlagan ishini bajaruvchiligi, Alloh taolo barcha ma'lumotlarni bilishi, har bir narsaga qodir ekani, U eshituvchi, ko‘ruvchi, hamisha barhayot, har bir ishning tadbirini qiluvchi Zot, U Zot javhar ham, jism ham, araz ham emasligi kabi masalalar bayon qilingan bo‘lib muallif Alloh taoloning biror jihatda emasligi, rang, ta'm, hid, kayfiyat va boshqalardan holi ekani, biror makon tutmagani, nurni yaratgani, azaliy sifatlarga ega ekani, kalom, takvin sifatlari va Alloh taoloni ko‘rish masalasini yoritgan. Ushbu masalalar ahli sunna val jamoa, xususan, moturidiylik e'tiqodining asosiy masalalari bo‘lishi bilan bir qatorda, mujassima, mushabbiha firqalari, faylasuf, dahriy va boshqalarga raddiya hisoblanadi.

Alouddin Buxoriyning "Risola fil-e'tiqod" asari uch qismga bo‘lingan. Asar borliq, Alloh taoloning Zoti va unga tegishli masalalarni qamrab olgan. So‘ng Alloh taoloning sifatlariga o‘rin berilgan. Asarning so‘nggi qismida boshqa aqidaviy masalalar yoritilgan[4, b. 256-257].

Abul Hasan Ali ibn Said Rustufag‘niyning “Al-Favoid” asari, Abu Muhammad Yunus ibn Yusuf Shayboniyning (vaf.619/1222) “Aqoid Shayboniya”, Sirojiddin O‘shiyning “Bad' al-amoliy”, Valiyuddin Hanafiy “Aqida zakiyya”, Mulla Xizrbekning “Javohir al-aqoid”, Mahmud Zayd Lomishiyning "At-Tamhid", Abdulg‘ani ibn Ismoil Noblusiy Hanafiyning “Aqoid Noblusiya”, Muhammad Abdulaziz Dehlaviyning “Mezon al-aqoid” va shu kabi ko‘plab risola va asarlar moturidiy ta'limotining saqlanib, insonlarning aqidaviy qarashlarini buzulib ketmasligiga katta hissa qo‘shib kelmoqda.

Hozirda Moturidiy ta'limotining ilmiy merosi Abu Mansur Moturidiy hamda Moturidiydan keyingi olimlar hayoti, ijodi, yozgan asar va risolalari o‘rganilib, zamonaviy tillarga tarjima va nashr etilmoqda. Soxta salafiylar kabi aqidaviy

masalalarni ommaga buzib talqin qilayotgan toifalarga ilmiy raddiyalar berilib kelinmoqda. Moturidiylik ta'limoti, moturidiyshunos olimlar, tashkilotlarning o'rni aynan shunday holatlarda katta as qotadi. Sababi ular insonlarning ongiga Qur'oni karim va sunnati nabaviydan ko'zlangan asl maqsadlar bayon etib yoritib berishadi. Bugungi kunda shu kabi ishlar bilan faoliyat yurutuvchi bir necha tashkilot va Moturidiyshunoslar bo'lib ulardan biri yuqorida aytib ketilgan Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi. Markazda aqida va kalom ilmi rivojiga alohida hissa qo'shgan Imom Moturidiy va moturidiy allomalarning ilmiy, diniy-ma'naviy merosini chuqur o'rganish, ular yaratgan asarlarning ilmiy-izohli tarjima va qiyosiy matnlarini nashr etish, xalqqa va jahon jamoatchiligi o'rtasida keng targ'ib qilish, ushbu mavzularga doir ilmiy tadqiqotlarni tizimli tashkil etish, Imom Moturidiyning kalom ilmi rivojiga qo'shgan hissasi, uning taraqqiyotida tutgan o'rnini chuqur tadqiq etish, yosh avlodni millatlararo va dinlararo bag'rikenglik, o'zaro hurmat, tinchlik-totuvlik kabi islom dinining asl qadriyatlari ruhida tarbiyalash kabi ishlar olib boriladi[5;]. Bundan tashqari, Moturidiylik va uning merosini o'rganishga alohida e'tibor qaratayotgan boshqa muassasalar ham mavjud bo'lib Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi ushbu tashkilotlar bilan hamkorlikda faoliyat olib boradi. Bular Hindistonda joylashgan DEOBAND maktabi, Malaziyadagi International Institute of Islamic Thought and Civilization instituti, Misrning Al-Azhar universiteti qoshidagi Islomiy Tadqiqotlar Majmuasi (Majma'al-Buhus al-Islamiyya) va ICESCO, IRCICA va shu kabi tashkilotlar.

Xulosa qilib aytganda barcha asrlarda bo'lgani singari XXI-asrda ham musulmonlarning e'tiqodiy qarshlarini buzish va Qur'oni karim oyatlarini noto'g'ri tushunib yoki buzib talqin qiluvchilar topiladi. Shu sababdan ham, bugungi kunda e'tiqodiy birlikni saqlash va noto'g'ri talqinlarga qarshi kurashishda Moturidiy ta'limoti o'zining ilmiy asoslangani va islomning asl mohiyatini yetkazishdagi ahamiyati bilan katta o'rin tutadi.

Ushbu ta'limotning keng ildizlari, yirik mutakallim olimlar va ularning asarlari, ta'limotni o'rganuvchi shaxslar Qur'oni karimdan ko'zlangan maqsad hadisi sharifning asl murodini ommaga taqdim etar ekan, insonlarning diniy tushunchalari mustahkam holatda turadi.

Foydalanilgan manbalar

1. S.Oqilov, J. Tohirov, O'.Palvanov Moturidiylik ta'limoti tarixi. –Toshkent:Muharrir nashriyoti, 2020.

2. S.Oqilov, A.Alloqulov, H.Aminov Globallashuv sharoitida yuzaga kelgan destruktiv g'oyalarga qarshi kurashda Moturidiylik ta'limoti manbalarining ahamiyati. –Toshkent: "O'zxia nashriyot-matbaa birlashmasi, 2022.

3. Андрей Дунаев. Наши великие предки. –Ташкент: ЎзХИА 2024.

4. Moturidiylik ta'limoti va hozirgi zamon. –Toshkent: O'zxia nashriyot-matbaa birlashmasi, 2021.

Elekrton manba

5.https://uz.wikipedia.org/wiki/Imom_Moturidiy_xalqaro_ilmiy-tadqiqot_markazi

MOTURIDIYLIK TA'LIMOTI VA HOZIRGI ZAMON

M.Z.Shokirova
FarDU talabasi

Annotatsiya. Maqolada moturidiylik ta'limoti bugungi insonlar nigohi hamda hayotidagi muammoli masalalar bilan bog'liq holda tahlil qilingan. Unda Imom Moturidiyning "Kitob at-Tavhid" asaridagi ixtiyor va taqdir, aql va naqlning o'rni, insonni ilmga yetaklovchi yo'llar g'oyalarining hozirgi davrda zarurligi asoslab berildi va bu orqali hozirgi yosh avlodning ma'naviy hamda ruhiy tomonlama bo'shlig'i, turli xil yot g'oyalarga moyillik va hayotiy maqsadlarini yo'qotishlari psixologik ta'sirlar kabi muammolar moturiydilik ta'limoti asosida ko'rib chiqildi. Yoshlarda iymon va tafakkur uyg'unligi, ichki hotirjamlikni shakllantirish yo'lida Moturidiylik qarashlarining ahamiyati keng yoritildi.

Kalit so'zlar: Moturiydiylik ta'limoti, yosh avlod, iymon va tafakkur, ixtiyor va taqdir, ma'naviy va ruhiy barqarorlik, psixologik ta'sirlar, axloqiy yetuklik, zamonaviy jamiyat.

Bugungi globallashuv va turli xil yot g'oyaviy oqimlar ta'siri kundan-kunga kuchayib borayotgan davrda insonni ma'naviy va ruhiy tomonlama boyitdigan, axloqiy yetuklikka chorlovchi manbalardan foydalanish dolzarb mazvulardan biri bo'lib kelmoqda. Ayniqsa islom tafakkuri tarixida o'zining chuqur qarashlari, iymon va tafakkur, aql va iymonni uyg'unlashtira olgan yondashuvlari bilan ajralib turuvchi moturiydilik ta'limotining o'rni bu borada muhim manba bo'lib xizmat qiladi, negaki bu manba nafaqat diniy, balki dunyoviy tomonlama ham sog'lom tafakkurni shakllantiradi. Moturiydilik ta'limotining ixtiyor va taqdir, aql va naqlning o'rni, ilmga yetaklovchi yo'llar singari g'oyalari zamonaviy jamiyatimizda ham ma'naviy hamda diniy tomonlama ilm, erkinlik va ongli tanlov, inson huquqlari masalalariga g'oyaviy jihatdan asos bo'la oladi.

Ixtiyor va taqdir masalasida: Insonning ixtiyori va Allohning qudrati

Imom Moturidiy inson haqiqiy ixtiyor sohibidir deb ta'kidlaydi. U shunday deydi: "Har birimiz bilishimiz mumkinki, qilayotgan amalimizda ixtiyorlimiz, uni amalga oshirayotgan va qilayotgan o'zimiz."Qur'onda Alloh shunday deydi: "

Nima xohlasangiz qiling…" [Oyat: Fussilat, 40]

"…Va yaxshilik qiling, toki najot toping." [Oyat: Haj, 77]

"Kim zarracha yaxshilik qilsa, uni ko'radi. Kim zarracha yomonlik qilsa, uni ham ko'radi." [Oyat: Zalzala, 7-8]

Ammo Imom Moturidiy ta'kidlaydiki, insonning amallari Alloh tomonidan yaratiladi:

"Holbuki sizlarni ham, qilayotgan amallaringizni ham Alloh yaratgan." [Oyat: Saffat, 96]

Insonning amallari Allohga nisbat berilishi ularni insondan inkor qilishni anglatmaydi. Aksincha, bu inson amallarining paydo bo'lishi va mavjud bo'lishida Allohning qudratini ko'rsatadi. Insonning esa, faqat "kasb" (amal qila olish) imkoniyati bor.[1, b. 20-21] Bugungi zamon nuqtai nazaridan qaraganimizda Moturidiyning bu g'oyasi insonlarning erkin tanlovga ega ekanliklarini, ijtimoiy tarmoqlarda nimalarni ko'rish, o'z kelajagi uchun qanday kasb tanlash, atrof-muhitga qanday munosabtda bo'lish, jamiyatga qanday ta'sir qilish insonlarning ixtiyoriga bog'liq ekanliklarini ko'rsatadi. Imom Moturidiy bu fikrni quyidagicha asoslaydi: inson qilayotgan amallarini o'zi tanlaydi, lekin bu amallarni amalga oshirish qudratini Alloh yaratgan. Zalzala surasi, 7-8-oyatlar ayniqsa hozirgi globallashuv asrida nihoyatda muhim. Har bir ijtimoiy tarmoqlardagi postlar va ularga bildirilayotgan "comment"lar hamda "like"lar insonlarning ixtiyoriy harakatlaridir va ular bu orqali jamiyatga ma'naviy va ruhiy tomonlama ta'sir ko'rsatmoqda. Bugungi jamiyatda insonlarida uchraydigan muammo-javobgarlikdan o'zini olib qochish. Ular ko'pincha qilgan xatolarida o'zlarini emas insonlarni, jamiyatni, sharoitni, taqdirni aybdor qilishadi. Bugungi kunda insonlar ixtiyorida tanlovlar ko'p, ammo har bir tanlovimiz ortida javobgarlik ham bor. Bizning internetdagi fikrimiz, harakatlarimiz, qabul qiladigan qarorlarimiz jamiyat hayotiga ta'sir qiladi. Shu sababli Moturidiyning bu g'oyasi insonlarnni nafaqat ixtiyorli, balki ongli, axloqli va mas'uliyatli shaxs bo'lishga undaydi.

Aql va naqlning o'rni

Ahli sunnat mazhablari aql va naqlni o'zaro muvonatda qo'llashga asoslangan. Imomi Ash'ariy va uning mazhabida aqliy dalillar naqlga yordamchi vazifasini bajargan bo'lsa, Moturidiylar aqlning naql bilan birga ishlatilishini muhim deb bilganlar. Bu ularning ijtihoddagi usullariga ham ta'sir qilgan.[1, b. 14] Moturidiy ta'limotidagi bu g'oya hozirgi davr insonlari uchun ham mukammal usuldir, chunki bugungi davr insonlari ham ilmga, ham e'tiqodga muhtoj. Ular ilm-fan, texnologiya, ijtimoiy tarmoqlar orqali misilsiz ko'p ma'lumotlarni qabul qiladi. Ammo shuncha ma'lumotlar ichidan to'g'rini noto'g'ridan ajratish, axloqiy mezonlarni saqlash, dinga to'g'ri yondashishda balansni ushlay olish yanada murakkablashadi. Faqat naqlga tayanganlar ko'pincha keskin yondashuvlarga berilib, aqlni inkor etadi. Bu esa ekstremizim va radikal qarashlarning ildiz otishiga zamin yaratishi mumkin. Shu bois, Moturidiyning aql va naqlni muvzonatda

ushlashga qaratilgan bu g‘oyasi aynan shunday muammolarda va bugungi zamon insonlari uchun eng mos va maqbul bo‘lgan yondashuvdir. Bu insonni dinga, ilmga, mustaqil fikrlashga undaydi. Ular birlashgandagina insonni yuksalikka olib chiqoladi.

Insonni ilmga yetaklovchi yo‘llar, eshitish va his qilish orqali ma’lum bo‘lgan mavjudotlar

Abu Mansur (r.x) shunday deydi. Insonni haqiqatni bilishga yetaklaydigan yo‘llar eshitish, xabar va his qilishdir. Ular ichida ilm bor, jaholat esa yo‘q. Jaholatni inkor qilgan kimsa ilmni ham inkor qiladi. Bu faqat nafs uchun zarar keltiruvchi shaxsdir. Shundaylar bilan munozara qilishning hojati yo‘q.

Xabarlar ikki xil bo‘ladi: Birinchisi, barchaga zarur bo‘lgan ma’lumotni inkor qilganlardir. Ular o‘z ismlari va borliqlarini tan olmasalar, eshitish orqali haqiqatni bilish imkonidan mahrum bo‘ladilar. Bu holat faqat ilmiy munozara va bahslar orqali inkor qilinadi.[1, b. 26] Bugungi zamonning dolzarb muammolaridan biri – asossiz va tafakkursiz e’tiqod, yolg‘on tushunchalarga asoslangan qarashlardir. Ko‘pchilik insonlar bilimga emas, eshitgan gaplariga, yangilish xabarlarga, shubxali va yolg‘on xabarlarga tayanmoqdalar. Moturidiy bo‘lsa, haqiqatga yetish uchun eshitgan ma’lumotini tahlil qilishni, his qilgan narsasini tekshirib ko‘rishni va eng asosiysi aqlni ishga solishni muhim deb bilgan. Bugungi biz yosh avloga ongli e’tiqod, sabrli tafakkur va ma’rifatli ilmga asoslangan yondashuv zarur. Shunday ekan ilm-nafaqat bilim manbai, balki e’tiqodning mustahkam poydevori hamdir. Prezidintimiz Shavkat Mirziyoyev “Ilm yo‘q joyda qoloqlik, jaholat va albatta tog‘ri yo‘ldan adashish bo‘ladi”[2;] deb ta’kidlagan. Bu borada aytishimiz mumkinki, chindan ham ilmsiz e’tiqod zaif bo‘lsa, ilmga tayangan ishonchli e’tiqod barqaror jamiyat garovidir.

Bundan ko‘rinib turibdiki, moturiydiylik ta’limoti nafaqat diniy, balki musulmon ummatining imiy va ma’naviy, ruhiy, axloqiy qarashlarini shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi globallashuv davrda axborot xurujlari, diniy e’tiqodga doir muammolar, moturidiylik ta’limotining dolzarbligini yana bir bor isbotlamoqda. Moturidiy o‘z qarashlarida insonni tafakkurli, mustaqil fikrga ega, aqlga asoslangan e’tiqod bilan hayot kechirishga chaqiradi. Shu sababli uning ta’limoti hozirgi jamiyat uchun nafaqat diniy, balki ma’naviy-mafkuraviy ruhiy barqarorlikni ta’minlovchi poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Bugun yurtimizda moturidiylik ta’limotiga bo‘lgan e’tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, Imom Moturidiy tavalludining 1155-yilligini nishonlash to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori[3;] tasdiqlandi. Prezident qarori asosida yurtimizda keng ko‘lamli ilmiy-amaliy ishlar olib borilmoqda. Yosh avlodni sog‘lom e’tiqod asosida tarbiyalash, ularning qalbida diniy bag‘rikenglik, fikriy mustaqillik, milliy g‘urur va ijtimoiy mas’uliyat

tuyg'ularini shakllantirishda moturiydiylik ta'limoti tengsiz manbadir. Shu asosda, quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadimizga erishishda yaxshi natija beradi deb hisoblayman:

Birinchidan, Imom Moturidiy asarlarini zamonaviy o'zbek tiliga tarjima qilib, onlayn platforma tashkil qilinsin. Bu orqali foydalanuvchilar Moturiydiyning asarlari, maqolalar, sharhlar, video-ma'ruzalar bilan bepul tanishish imkoniyatini qo'lga kiritadilar.

Ikkinchidan, talabalar, imomlar, izlanishdagi insonlar uchun Moturidiy asarlariga asoslangan chatbot yaratilishi kerak. Bu chatbot foydalanuvchilarning savollariga Moturidiy asarlari asosida dalillar bilan javob beradi.

Uchinchidan, moturiydiylik ta'limoti asosida tanlov va ilmiy anjumanlar, forumlar tizimli yo'lga qo'yilishi maqsadga muvofiq, bu orqali yoshlar doimo izlanishda bo'ladi va uning me'rosini yildan yilga chuqur o'rganadi.

Xulosa qilib aytganda, moturiydiylik ta'limoti islom tarixida o'ziga xos o'ringa ega. Bu ta'limot nafaqat o'tmishdagi insonlar tomonidan tan olinib, bugungi globallashuv va axborot davrida ham o'z dolzarbligini saqlab kelmoqda. Sababi moturiydiylik insonlarning taffakur qilish qobiliyatlarini e'tiqodiy masalalarda asosiy mezon sifatida baholaydi. Aql va dalilga asoslangan yondashuvlarni ilgari suradi. Moturidiylik ta'limotining bugungi zamon bilan hamnafasligi u insonlarni turli xil yot g'oyalardan asraydi, e'tiqodiy tushunchalarni aql, axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy mas'uliyat bilan uyg'unlashtiradi. Bu ta'limot orqali insonlar nafaqat diniy bilim, balki ongli ishonch, ma'naviy va ruhiy yetuklik va ichki barqarorlikka ham erishadilar. Ayniqsa bu yosh avlod uchun tog'ri dunyoqarashni shakllantirib yanada mustahkamlaydi. Shu bois, moturiydiylik ta'limoti-bu faqat biz uchun tarixiy meros emas, balki zamonaviy jamiyatimiz ehtiyoj va muammolariga to'liq javob bera oladigan, e'tiqodiy ongimizni sog'lom shakllanishiga xizmat qiluvchi ilmiy-falsafiy manbadir. Uni izchil o'rganish bilangina, biz yosh avlod uchun mustahkam ma'naviy tomonlama boy bo'lgan kelajak uchun zamin yaratamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kitob at-Tavhid Imom Moturidiy Turk tilidan Abu Muslim tayyorladi (erkin tarjima) 2025-yil http://islomiy.info

2.https://kun.uz Shavkat Mirziyoyev: "O'zbekistonni jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan rivojlangan mamlakatga aylantira olamiz" 24.01.2020

3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 14.03.2025 yildagi PQ-102-son https://www.lex.uz

IMOM MOTRUDIY ASARLARINING MARKAZIY OSIYO ILMIY-MA'NAVIY HAYOTIDAGI O'RNI

Mamasaidova Ruxshona Qarshi qizi
Denov Tadbirkorlik va pedagogika inistituti talabasi
Usmonov Nurmuhammad Eshmahmat o'g'li
Denov tadbirkorlik va pedagogika inistituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk mutakallim va olim Imom Moturidiyning ilmiy merosi hamda uning Markaziy Osiyo ilmiy-ma'naviy hayotiga ko'rsatgan ta'siri yoritilgan. Moturidiyning "Kitob at-Tavhid" va boshqa asarlarida ilgari surilgan aqidaviy, falsafiy hamda mantiqiy qarashlari musulmon dunyosida, ayniqsa, Movarounnahr hududida kalom ilmining rivojiga katta hissa qo'shgan. Imom Moturidiy asarlari orqali keyingi davrlarda Markaziy Osiyo ulamolari ilmiy tafakkur, diniy bag'rikenglik va ijtimoiy barqarorlik g'oyalarini rivojlantirishga erishgan. Shu bois, Moturidiy merosi bugungi kunda ham nafaqat diniy-ma'naviy, balki ilmiy-falsafiy tadqiqotlar uchun ham muhim manba bo'lib qolmoqda.

Kalit so'zlar: Abu Mansur al-Moturidiy, Samarqand, "Tabsirat al-adilla", "Kitobut-tavhid", Bayrut, "Sharh al-Fiqh al-Akbar", Qohira, Fathulloh Xulif.

Kirish: Ma'lumki, yurtimizdan azal-azaldan ko'plab buyuk allomalar yetishib chiqqanlar. Ayniqsa IX–XII asrlarda o'z kashfiyotlari va ta'limotlari bilan jumlai jahonni lol qoldirgan yuzlab ulug' allomalar samarali faoliyat ko'rsatganlar. Mana shunday mashhur siymolar silsilasida kalom ilmining asoschilaridan biri imom Abu Mansur al-Moturidiy hazratlari alohida o'rin egallaydi. Hayot falsafasini qarangki, aynan 870 yilda buyuk vatandoshimiz, hadis ilmining sultoni imom al-Buxoriy hazratlari vafot topgan yili azim Samarqandning Moturid degan mahallasida ilohiyot ilmining bo'lg'usi yorqin yulduzlaridan biri imom Abu Mansur al-Moturidiy dunyoga keladi. Imom al-Moturidiyning hayoti va ilmiy merosi ayniqsa yoshlik yillari haqidagi mufassal bo'lmagan muxtasar ma'lumotlar asosan, o'rta asr mualliflari al-Xatib al-Bag'dodiy, Abdukarim Saa'd as-Sam'oniy, Abul-Fido Zayniddin Qosim ibn Qutlubug'a, Muhitdin al-Qurashiy, al-Kafaviy, Abul-Mu'in an-Nasafiy, Toshko'prizoda va Hoji Xalifaning asarlarida keltirilgan[1, b. 81-82]

Manbalarga ko'ra, Imom Moturidiy to'liq ismi bilan Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud Abu Mansur Moturidiy Samarqandiy vafoti 944-yil deb tilga olinadi. U Samarqand yaqinidagi Moturid qishlog'ida tug'ilib, shu yerda yashagan. Shu sababli unga "al-Moturidiy" nisbasi berilgan. Mashhur olim Zubaydiy o'zining "It'hof as-soda al-muttaqin" nomli asarida ba'zi manbalarda Moturidiyning ismi tarkibida Mahmuddan keyin yana "Muhammad" ismi ham keltirilganini shuningdek, unga "al-Ansoriy" nisbasi berilganini aytadi. Arab olimi doktor Muhammad Ayyub Ali ham Moturidiyni "al-Ansoriy" deb atashni to'g'ri deb

hisoblaydi. U bunga dalil sifatida "Kitob at-Tavhid" asarining ayrim qo'lyozmalaridagi izohlarni keltiradi. Boshqa bir arab tadqiqotchisi – Ahmad ibn Avazulloh Hazbiy esa Moturidiyning "al-Ansoriy" nisbasi bilan atalishi asossiz deb xulosa qilgan[2, b. 6-7]

Asosiy qism: Imom al-Moturidiyning ilohiyot ilmlarida o'z davrining yetuk allomasi bo'lib etishishida ustozlarining hissasi katta bo'lgan. Uning ustozlari jumlasidan o'z davrining taniqli olimlaridan Abu Nasr Amad ibn al-Abbos ibn al Husayn al-Iyodiy, Abu Bakr Ahmad al-Juzjoniy, Nusayr ibn Yahya al-Balxiy, Muhammad ibn Muqotil ar-Roziylarni (u Ray shahrining qozisi bo'lgan) ko'rsatish mumkin. Imom al-Moturidiyniig shogirdlari va izdoshlari ko'p bo'lib, ulardan Abu Ishoq ibn Muhammad ibn Ismoil, Abul-Hasan Ali ibn Sayyid ar-Rustag'foniy, Abu Muhammad Abul-Karim ibn Muso ar-Pazdaviy, Abul-Lays as-Samarqandiy, Abul-Hasan al-Pazdaviy, Abul- Yisr al-Pazdaviy, Abul-Mu'in an-Nasafiy, As-Safar al-Buxoriy, Najmiddin Umar an-Nasafiy, As-Sabuniy al-Buxoriy, Umar al-Hanafiylarni zikr etish mumkin. Moturidiya ta'limotining taraqqiy etishiga hissalarini qo'shgan Imom al-Moturidiy shogirdlarining eng taniqlilaridan biri Abul-Mu'in an-Nasafiy bo'lib, u o'z asarlarida, ayniqsa, "Tabsirat al-adilla" (Dalillar tilga kirganda) nomli tasnifida imom al-Moturidiy va uning ta'limoti haqqida ko'p muhim ma'lumotlarni keltiradi. Imom Abu Mansur al-Moturidiy haqida yozgan tarixchilar uning tabarruk nomini xilma-xil yuksak va sharafli laqablar bilan bezab zikr qilganlarki ehtimol butun musulmon olamidan chiqqan allomalardan birortasiga ham shu tarzdagi fazilatli laqablar nasib etmagan bo'lsa kerak. Taniqli muarrix al-Kafaviy va boshqa qator mualliflarning yozishlaricha, imom al-Moturidiy o'z zamonasidayoq "Qudvat ahl as- sunna val-ihtido" (Sunnat va hidoyat ahliga ibrat zot), "Rofi' a'lom al as-sunna val-jamoa" (Ahli sunnat va jamoaning bayrog'ini baland ko'taruvchisi), "Qoli' azoliyl al-fitna val-bid'at" (Xurofot va bid'atga botgan uydirmalarni ildizi bilan qo'poruvchisi), "Imom al-mutakallimiyn" (Barcha mutakallimlarning imomi), "Musahhih aqoid al-muslimiyn" (Barcha musulmonlar aqidalarining tuzatuvchisi), ash- Shayx al-Imom kabi yuksak laqablarga sazovor bo'lgan alloma sifatida tan olingan. Bu zotning benazir salohiyatini e'tirof etgan buyuk mutafakkir Alisher Navoiy hazratlari ham o'zining "Nasoyim ul-muhabbat" nomli mashhur asarida: "Shayx Abu Mansur al-Moturidiy o'z zamonining a'lam ulamosi ermish. Ul vaqt ulamosi alarni "Sulton al-muizzin" der ermishlar. Zohir va botin ulumlari bila orosta ermishlar", deb lutf qilgan edilar[3;]

Imom Moturidiyning qalamiga mansub asarlar soni qariyb o'n beshta bo'lgan. Manbalarda qayd etilishicha, Abu Mansur Moturidiy "Kitobut-tavhid" ("Tavhid kitobi"), "Kitobul-maqolot" ("Maqolot kitobi"), "Ma'xazush-sharo'i'" ("Shariatlar manbai"), "Kitobul-jadal" ("Munozara kitobi"), "Ta'vilotul-Qur'on" ("Qur'on

ta'vili"), "Kitobu bayoni vahmil-mu'tazila" ("Mu'taziliylarning xom xayolotini bayon etuvchi kitob"), "Raddul-usul al-xamsa" ("Besh asosga raddiya"), "Kitobu raddi availil-adilla lil-Ka'biy" ("Ka'biyning asosiy dalillariga raddiya"), "Raddu kitobil-Ka'biy fi va'idil-fussaq" ("Ka'biyning fosiqlar haqidagi va'dasiga oid kitobiga javob") kabi asarlar yozgan. Biroq sanab o'tilgan bu kitoblarning barchasi haqida to'liq tasavvurga ega bo'lish qiyin. Chunki ilk o'rta asr mutakallimlarining ko'p ilmiy merosi singari Abu Mansur Moturidiy asarlarining ham aksariyati bizgacha yetib kelmagan. Uning ilmiy merosidan faqat "Kitobut-tavhid" va "Ta'vilotul-Qur'on" asarlari saqlanib qolgan[4;]

Al-Moturidiy islom olamida juda nozik hisoblangan "Kitab Tavhid" – asari bizning davrimizga yetib kelgan va u 1970-yilda Fathulloh Xulif tomonidan Bayrutda nashr etilgan. U islom dinidagi sunniylarning to'rtta asosiy mazhabi asoschilarining asarlarini o'rganib, fiqhga va kalomga oid asar yozadi. Bu al-Moturidiyning "Ta'vilot ahli sunna" yoki boshqa bir nomi "Ta'vilot al-Qur'on" deb nomlanadi. Al-Moturidiy bu asarida sunniy aqidaga (ta'vilda) zid qarashlarni rad qilishga harakat qiladi va Abu Xanifaning qarashlariga suyangan xolda ish ko'radi. Bu asar O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanadi. "Ta'vilot"ning birinchi jildi Qohirada 1971- yilda Ibrohim Avadayn va as-Said Avadaynlar tomonidan nashr etilgan. Al-Moturidiyning bu birgina asari tarix jarayonida ko'p allomalar asarlariga asos solgan, ular ijodiga turtki bo'lgan. Shulardan biri Alovuddin Abu Bakr Muhammad ibn Ahmad as-Samarqandiyning sharhidir. U "Sharq ta'vilot ahli as-sunna" deb nomlanib, Institut fondida bu asarni ikkita nusxasi saqlanadi. Shu bilan birga al-Moturidiy nomi ostida yozilgan bir necha soxta asarlar ham ma'lumdir. Masalan: "Favoid" (qoidalar), boshqa nomi "Pandnoma", "Kitob al-Usul", "Sharh al-Fiqh al-Akbar" asarlari shular jumlasidandir. Bu al-Moturidiyning diniy ilmlar namoyandalari orasida qanchalik mashhur bo'lganligidan dalolat beradi[5;]

Xulosa: Imom Abu Mansur al-Moturidiy islom aqidaviy tafakkuri va kalom ilmining eng yirik namoyandalaridan biri sifatida butun musulmon olamida chuqur hurmat qozongan. Uning hayoti, ilmiy merosi va shogirdlari orqali shakllangan Moturidiylik maktabi bugungi kunda ham ahamiyatini yo'qotmagan. Imomning asarlari xususan, "Kitobu-t-tavhid" va "Ta'vilotu-l-Qur'on", aqidaviy masalalarni yoritishda muhim manba bo'lib qolmoqda. Moturidiy inson tafakkuri, aql va dalilga tayanishni islomiy aqidaga uyg'unlashtirgan holda, musulmon ummatining birlik va barqarorligiga xizmat qilgan. Uning ta'limoti asrlar davomida yuzlab allomalar tomonidan davom ettirilib keng yoyilgan. Shu bois Imom al-Moturidiy nomi nafaqat O'zbekiston balki butun islom olamining ma'naviy xazinasi sifatida qadrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jumayeva N. "Sharq allomalarining ilmiy merosi" O'quv qo'llanma "Durdona" nashriyoti. Buxoro- 2022-yil 81-82-betlar.
2. Imom Motrudiy xalqaro ilmiy-tadqiqiot markazi "Imom Motrudiy" – " O'zbekiston xalaqaro islom akademiyasi" Toshkent – 2022-yil 6-7-betlar.
3. Hamidxon Islomiy " Sulton Muizuddin Abu Mansur Motrudiy as-Samarqandiy"- Toshkent. 2000-yil
4. Abdulaziz Mansur "Al-Motrudiy ta'limoti" – Toshkent. 2003-yil
5. Pardayev Abduvali "Abu Mansur Motrudiyning hayoti va ilmiy faoliyati" – "O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi"

MOTURIDIYNING "KITOB AT-TAVHID" ASARI VA UNING ILMIY FALSAFIY QARASHLARI

Ravshanova Marjona Karimovna
Denov tadbirkorlik va pedogogika instituti talabasi

Annotatsiya. Abu Mansur Moturidiy islom aqida tarixida o'ziga xos ilmiy maktab asoschilaridan biri sifatida tanilgan. Uning mashhur "Kitob at-Tavhid" asari musulmon dunyosida kalom ilmining yirik manbalaridan biri sanaladi. Moturidiy o'z qarashlarida aqlni diniy bilimlarning muhim manbai sifatida ko'rsatib, tafakkur orqali iymonning mustahkamlanishiga alohida urg'u bergan. Shuningdek, "Kitob at-Tavhid"da turli aqidaviy oqimlarning g'oyalari tahlil qilinib, daliliy isbotlar bilan ilmiy asosda rad etiladi. Asar nafaqat kalom ilmining taraqqiyotida, balki musulmon ma'naviy-falsafiy tafakkurining shakllanishida ham muhim o'rin tutadi. Bugungi kunda ushbu meros diniy bag'rikenglik, ma'naviy barqarorlik va ilmiy tafakkur rivojida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Kalit so'zlari: Abu Mansur Moturidiy, Kitob at-Tavhid, al-Xatib al-Bag'dodiy, Abdukarim Saa'd as-Sam'oniy, Abul-Fido Zayniddin Qosim ibn Qutlubug'a, Muhitdin al-Qurashiy, Mu'tazila, Jahmiya, Qadariya.

Kirish. Ma'lumki, yurtimizdan azal-azaldan ko'plab buyuk allomalar yetishib chiqqanlar. Ayniqsa IX–XII asrlarda o'z kashfiyotlari va ta'limotlari bilan jumlai jahonni lol qoldirgan yuzlab ulug' allomalar samarali faoliyat ko'rsatganlar. Mana shunday mashhur siymolar silsilasida kalom ilmining asoschilaridan biri imom Abu Mansur al-Moturidiy hazratlari alohida o'rin egallaydi. Hayot falsafasini qarangki, aynan 870 yilda buyuk vatandoshimiz, hadis ilmining sultoni imom al-Buxoriy hazratlari vafot topgan yili azim Samarqandning Moturid degan mahallasida ilohiyot ilmining bo'lg'usi yorqin yulduzlaridan biri imom Abu Mansur al-Moturidiy dunyoga keladi. Imom al-Moturidiyning hayoti va ilmiy merosi

ayniqsa yoshlik yillari haqidagi mufassal bo‘lmagan muxtasar ma’lumotlar asosan, o‘rta asr mualliflari al-Xatib al-Bag‘dodiy, Abdukarim Saa’d as-Sam’oniy, Abul-Fido Zayniddin Qosim ibn Qutlubug‘a, Muhitdin al-Qurashiy, al-Kafaviy, Abul-Mu’in an-Nasafiy, Toshko‘prizoda va Hoji Xalifaning asarlarida keltirilgan[1, b. 81-82]

Manbalarga ko‘ra, Imom Moturidiy to‘liq ismi bilan Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud Abu Mansur Moturidiy Samarqandiy vafoti 944-yil deb tilga olinadi. U Samarqand yaqinidagi Moturid qishlog‘ida tug‘ilib, shu yerda yashagan. Shu sababli unga “al-Moturidiy” nisbasi berilgan. Mashhur olim Zubaydiy o‘zining “It’hof as-soda al-muttaqin” nomli asarida ba’zi manbalarda Moturidiyning ismi tarkibida Mahmuddan keyin yana “Muhammad” ismi ham keltirilganini shuningdek, unga “al-Ansoriy” nisbasi berilganini aytadi. Arab olimi doktor Muhammad Ayyub Ali ham Moturidiyni “al-Ansoriy” deb atashni to‘g‘ri deb hisoblaydi. U bunga dalil sifatida “Kitob at-Tavhid” asarining ayrim qo‘lyozmalaridagi izohlarni keltiradi. Boshqa bir arab tadqiqotchisi – Ahmad ibn Avazulloh Hazbiy esa Moturidiyning “al-Ansoriy” nisbasi bilan atalishi asossiz deb xulosa qilgan[2, b. 6-7].

Asosiy qism. Moturidiyning “Kitob at-Tavhid” asari kalom ilmi tarixida alohida o‘rin egallaydi. “Kitob at-Tavhid” Moturidiyning e’tiqodiy qarashlarini to‘liq aks ettiruvchi, kalom ilmining asosiy masalalarini mukammal tarzda bayon qiluvchi asar sifatida qadrlanadi. Unda Allohning mavjudligi va birligi sifatlari qazo va qadar masalalari insonning ixtiyor erkinligi imon va kufrning mohiyati, Payg‘ambarlar va vahiy haqidagi masalalar keng yoritilgan. Asarda, shuningdek o‘sha davrda keng tarqalgan turli oqimlar – Mu‘tazila, Jahmiya, Qadariya va boshqa firqalarning qarashlari ham chuqur tahlil qilinib, ularning dalillari ilmiy asosda rad etiladi. Shu jihatdan “Kitob at-Tavhid” nafaqat aqidaviy risola, balki kalomiy bahs va munozaralarning tarixiy manbai hamdir. Ushbu kitobning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, Moturidiy ilmiy asosda dalil keltirishga alohida e’tibor qaratadi. Uning qarashlari Qur’on va Sunnatga asoslanib, aqliy dalillar bilan mustahkamlangan. Bu esa asarni islom aqidasi tarixida noyob manba sifatida qadrlanishiga sabab bo‘lgan[3;].

Imom al-Moturidiyning “Kitob at-Tavhid” asarida berilishicha, insonlarning yomon xulqli ishlari va gunohlari Alloh taoloning irodasi bilan (ya’ni Alloh ularni taqdir qilgani uchun) ro‘y beradi. Biroq ular Allohning roziligisiz amalga oshiriladi, Alloh taolo insonlarga o‘z ixtiyorini qo‘liga bergan holda yaratgan. Ya’ni insonlarning xatti-harakatlari azaldan taqdir etib qo‘yilgan bo‘lsa-da, ularning ayrim ishlari uchun ixtiyor erkinligi ham berilgan. Bu ishlarni Imom al-Moturidiy “af’oli ixtiyoriy”, ya’ni insonda iroda erkinligi mavjud deb ataydi. Imom al-Moturidiy hazratlarining bundan o‘n bir asr muqaddam aytgan bu chuqur fikri bugungi kunda

ham nihoyatda dolzarbdir. U inson aql-zakovati va tafakkurining cheksiz imkoniyatlariga, shuningdek insonning o‘z xatti-harakatlari uchun mas'ul ekanligiga ishora qiladi. Allomaning faoliyatida, yuqorida ta'kidlanganidek, muborak islom dinining hayotbaxsh mazmun-mohiyatini ravshan talqin qilish, turli bid'at va xurofotlarga berilib ketgan guruh va toifalarga qarshi kurash alohida o‘rin egallaydi. Shu nuqtai nazardan ham Imom al-Moturidiy ilgari surgan g‘oyalar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, balki yanada dolzarb bo‘lib qolmoqda.[4;].

Shunindek "Kitob at-Tavhid" asarini Qur'on Karim asosida uning har bir oyati, kalimasi, xarfi sirini anglash nuqtai nazaridan yondashgan holda yozdiki, bu ulug‘ ishga sirlar-siriga butun dunyo lol qoldi. Shuning uchun ham Moturidiy fikriga ko‘ra, Qur'oni Karim, hadisi sharif tub asos bo‘lib Islom aqidalari shu asosga qurulmog‘i lozim. Bu chinakamiga olamshumul haqiqat ediki, u bayon bo‘lganidan keyin mazhablarning hato talqinidan faqat buzuq niyatli kuchlar foydalanib kelganlar. Qisqa qilib aytadigan bo‘lsak, Moturidiy asariga ko‘ra birdan bir to‘g‘ri yo‘l ahli sunna val- jamoa yo‘li bo‘lib boshqa har qanday yo‘ gumrohlikdir, chunki islomda o‘zgartirishlar va islohatlar qilish yaramaydi[5;].

Al-Moturidiy islom olamida juda nozik hisoblangan "Kitab Tavhid" – asari bizning davrimizga yetib kelgan va u 1970-yilda Fathulloh Xulif tomonidan Bayrutda nashr etilgan. U islom dinidagi sunniylarning to'rtta asosiy mazhabi asoschilarining asarlarini o'rganib, fiqhga va kalomga oid asar yozadi. Bu al-Moturidiyning "Ta'vilot ahli sunna" yoki boshqa bir nomi "Ta'vilot al-Qur'on" deb nomlanadi. Al-Moturidiy bu asarida sunniy aqidaga (ta'vilda) zid qarashlarni rad qilishga harakat qiladi va Abu Xanifaning qarashlariga suyangan xolda ish ko'radi. Bu asar O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanadi. "Ta'vilot"ning birinchi jildi Qohirada 1971- yilda Ibrohim Avadayn va as-Said Avadaynlar tomonidan nashr etilgan. Al-Moturidiyning bu birgina asari tarix jarayonida ko'p allomalar asarlariga asos solgan, ular ijodiga turtki bo'lgan. Shulardan biri Alovuddin Abu Bakr Muhammad ibn Ahmad as-Samarqandiyning sharhidir. U "Sharq ta'vilot ahli as-sunna" deb nomlanib, Institut fondida bu asarni ikkita nusxasi saqlanadi. Shu bilan birga al-Moturidiy nomi ostida yozilgan bir necha soxta asarlar ham ma'lumdir. Masalan: "Favoid" (qoidalar), boshqa nomi "Pandnoma", "Kitob al-Usul", "Sharh al-Fiqh al-Akbar" asarlari shular jumlasidandir. Bu al-Moturidiyning diniy ilmlar namoyandalari orasida qanchalik mashhur bo'lganligidan dalolat beradi[6;].

Xulosa. Xulosa qilib shuni takidlash kerakki, Imom al-Moturidiy o‘zining "Kitob at-Tavhid" va "Ta'vilot ahli sunna" kabi asarlari orqali islom aqidaviy tafakkurida beqiyos o‘rin egallagan. U insonning ixtiyor erkinligi masalasini chuqur falsafiy va diniy asosda sharhlab, inson o‘z amallari uchun mas'ul ekanini qat'iy

ta'kidlagan. Qur'oni Karim va hadislarni asos qilib olgan holda, bid'at va xurofotlarga qarshi kurashgan hamda ahli sunna val-jamoa yo'lini yagona to'g'ri yo'l sifatida ko'rsatgan. Moturidiy merosi nafaqat o'z davrida, balki bugungi kunda ham islom aqidalarini to'g'ri anglash va talqin etishda muhim manba bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jumayeva N. "Sharq allomalarining ilmiy merosi" O'quv qo'llanma "Durdona" nashriyoti. Buxoro- 2022-yil81-82-betlar.
2. Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqiot markazi "Imom Moturidiy" - "O'zbekiston xalaqaro islom akademiyasi" Toshkent – 2022-yil 6-7-betlar.
3. Hasanov Raximjon Inommovich " Imom Moturidiyning ma'naviy merosi" –Toshkent amaliy fanlar universiteti 2024.
4. Imom Moturidiy "Kitob at-Tavhid"-Turk tilidan Abu Muslim tarjimasi: 2025.
5. Hamidxon Islomiy " Sulton Muizuddin Abu Mansur Moturidiy as-Samarqandiy"- Toshkent. 2000-yil
6. Pardayev Abduvali "Abu Mansur Moturidiyning hayoti va ilmiy faoliyati" – "O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi".

IMOM MOTURIDIYNING KALOM ILMIDAGI O'RNI VA ILMIY MEROSINING O'RGANILISHI

Ne'matova Mohidil
Samarqand davlat pedagogika instituti1-kurs magistranti

Annotatsiya. Maqolada buyuk mutafakkir Abu Mansur al-Moturidiy tomonidan asos solingan ilmiy maktabning kalom ilmidagi o'rni, uning ilmiy merosi va diniy-falsafiy qarashlari tahlil qilinadi. "Kitob at-tavhid" va "Ta'vilot al-Qur'on" asarlarining ilmiy-aqidaviy mazmuni ochib berilib, aql va naql uyg'unligi haqidagi ta'limotning bugungi zamon uchun ahamiyati ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, Moturidiy merosining keyingi asrlarda o'rganilishi va uning radikalizm hamda ekstremizmga qarshi mafkuraviy immunitet yaratishdagi ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: kalom ilmi, Moturidiya, "Kitob at-tavhid", "Ta'vilot al-Qur'on", aqida, aql va naql, diniy-falsafiy meros.

Islom tarixida kalom ilmi e'tiqodiy masalalarni dalillar orqali asoslash, diniy aqidani himoya qilish va turli falsafiy-diniy oqimlarga qarshi ilmiy yondashuvni shakllantirishda muhim rol o'ynagan. Bu sohaning yirik namoyandalaridan biri Imom Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad al-Moturidiy (870–944) bo'lib, u

o‘z davrida musulmon dunyosining aqidaviy-falsafiy tafakkurida katta burilish yasadi. Moturidiy o‘zining asarlari orqali diniy e'tiqodda aqlni ustuvor qo‘yish, murosaga asoslangan fikr yuritishni ilgari surdi[1;]. Shu sababli uning ta'limoti bugungi globallashuv davrida ham dolzarbligini saqlab qolmoqda[2;] . Moturidiy kalom ilmining asosiy vazifasini aqidani himoya qilish va uni mantiqiy asosda dalillashdir, deb hisoblagan. Uning "Kitob at-tavhid" asari musulmon dunyosida kalom ilmining eng mukammal manbalaridan biridir. Unda Allohning borligi va yagonaligi, ilohiy sifatlar, qadar va iroda masalalari chuqur tahlil qilingan. "Ta'vilot al-Qur'on" esa Qur'on tafsirini kalomiy asoslarda izohlash orqali tafsir va kalom ilmlarining uyg‘unligini namoyon qiladi.

Bugungi kunda davlat siyosatida ham ajdodlarimiz qoldirgan diniy-ma'naviy merosni chuqur o‘rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek,-"Ajdodlarimiz qoldirgan bebaho meros yoshlarimizni ilmiy tafakkur, bag‘rikenglik va insoniylik ruhida tarbiyalashda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi"[3;].

Shu maqsadda 2020-yilda qabul qilingan Prezident qarori bilan Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etildi. Bu qaror diniy-ma'naviy sohada sog‘lom mafkurani mustahkamlash va yoshlarni yot g‘oyalardan asrash yo‘lidagi muhim qadam bo‘ldi.

Moturidiy aqlni insonni haqiqatga eltuvchi vosita deb biladi va naql (vahiy) bilan uyg‘un holda ishlatilishi kerakligini ta'kidlaydi. Bu jihat uni boshqa oqimlardan ajratib turadi .

Moturidiya maktabi hanafiylik asosida shakllanib, keng hududlarga yoyildi. Moturidiy o‘z ta'limotida mu'tazila, jabariyya va boshqa oqimlarning qarashlariga qarshi chiqib, o‘rtacha, murosali yondashuvni asoslab berdi. Uning fikricha, inson irodasi Allohning irodasi bilan birga mavjud bo‘lib, odam o‘z amallari uchun javobgardir.

Bu yondashuv musulmon jamiyatlarida diniy aqidaga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash, e'tiqodni aql bilan uyg‘unlashtirishda muhim rol o‘ynadi. Shuning uchun ham Moturidiya maktabi musulmon olamida keng tarqaldi[4;].

Moturidiy vafotidan keyingi asrlarda uning asarlari sharhlanib, talqin etildi. Movarounnahr va boshqa hududlarda yuzlab olimlar Moturidiylik ta'limotini rivojlantirdilar. XX asrdan boshlab esa, Moturidiy merosi xalqaro ilmiy muhokamalarga qayta kiritildi. Bugungi kunda O‘zbekiston, Turkiya, Misr kabi mamlakatlarda uning asarlari chop etilib, ilmiy markazlar faoliyat yuritmoqda.XXI asrda Imom Moturidiy xalqaro ilmiy tadqiqotlar markazining tashkil etilishi uning merosini o‘rganish va keng targ‘ib qilish uchun muhim qadam bo‘ldi.

Zamonaviy dunyoda diniy-mafkuraviy tahdidlar kuchayib borayotgan bir paytda Moturidiy ta'limoti insoniyat uchun bag‘rikenglik, murosaga asoslangan

dunyoqarashni taqdim etadi.Uning aqlni asosiy mezon sifatida belgilagan qarashlari diniy ekstremizm, radikalizm va aqidaparastlikka qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa. Imom Moturidiy kalom ilmining eng yirik namoyandalaridan biri bo‘lib, uning ilmiy merosi bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan. U aqidaviy masalalarda aql va naqlni uyg‘unlashtirish orqali islom e’tiqodini mantiqan asoslab berdi. Moturidiy ta’limoti diniy bag‘rikenglik, insoniylik va murosa madaniyatini rivojlantirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Bugungi globallashuv jarayonida bu ta’limot yoshlarimizni turli zararli g‘oyalardan asrash, ularda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek:-“Bizning maqsadimiz – yurtimizda sog‘lom diniy-ma’rifiy muhitni shakllantirish, ajdodlarimiz qoldirgan bebaho merosni chuqur o‘rganish va uni keng targ‘ib qilishdir”.2020-yilda qabul qilingan Prezident qarori bilan Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining tashkil etilishi ham bu boradagi amaliy ishlarning yaqqol dalilidir.

Takliflar. 1. Imom Moturidiy asarlarini to‘liq o‘zbek tiliga tarjima qilib, izohli nashrlar ko‘rinishida keng kitobxonlar ommasiga yetkazish.

2. Moturidiy ta’limotini diniy-ma’rifiy va dunyoviy ta’lim tizimida alohida kurs sifatida o‘qitish orqali yoshlarning e’tiqodiy savodxonligini oshirish.

3. O‘zbekistonning ilmiy muassasalari va xorijdagi ilmiy markazlar bilan hamkorlikda “Moturidiyshunoslik maktabi”ni rivojlantirish.

4. Yosh olimlar va tadqiqotchilar uchun Imom Moturidiy merosini chuqur o‘rganishga qaratilgan ilmiy grant va stipendiyalarni yo‘lga qo‘yish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Al-Moturidiy, A.M. Kitob at-Tavhid. – Qohira: 1970.
2. Al-Moturidiy, A.M. Ta’vilot al-Qur’on. – Istanbul: 2005.
3.Mirziyoyev Sh.M Ma’naviyat va ma’rifat- buyuk kelajagimiz poydevori, Toshkent: 2019
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

5-6-SHUBALAR. MOTURIDIYLIK MAKTABINING XALQ ONGIDA SAQLANISHI VA UNING OG‘ZAKI IJOD, MAROSIMLAR HAMDA MADANIY XOTIRADAGI IFODASI; MOTURIDIYLIK VA GLOBALLASHUV SHAROITIDA DINIY-MA’NAVIY TAHDIDLAR: RADIKALIZMGA QARSHI MAFKURAVIY IMMUNITET

ИМОМ МОТРУДИЙНИНГ БАҒРИКЕНГЛИК ҒОЯСИНИ МАЪНАВИЯТНИ ЮКСАЛТИРИШДАГИ АҲАМИЯТИ

Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев
Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти профессори, и.ф.д.
Фарход Ҳамидович Набиев
Шароф Рашидов номидаги Самарқанд Давлат Универиситети профессори

Аннатация. Мақолада Имом Мотрудийнинг бағрикенглик ғоясини маънавиятни юксалтиришдаги аҳамияти қараб чиқилган. Чунки, ҳозирги глобал муаммолардан бири бўлган маънавий қашшоқликни бартараф қилишда шундай ғоялардан фойдаланиш объектив заруриятга айланиб улгурди. Ушбу муаммоларни ҳал қилишда Ғарб ва Шарқнинг ҳамкорлиги ва шериклигини талаб қилмоқда. Бу биринчи галда маънавиятни юксалтириш борасида ҳамкорлик ва шерикликни таъминлашни тақозо қилмоқда. Бундай муаммоларни ҳал қилишда айнан Имом Мотрудийнинг бағрикенглик ғоясидан фойдаланиш лозимлиги кўрсатиб ўтилган.

Калит сўзлар. Тараққиёт стратегияси, бағрикенглик, маънаият, маънавиятга таҳдидлар, диний бағрикенглик, миллий бағрикенглик, илмий-маънавий мерос, калом илми, умуммиллий тотувлик, оила инқирози, глобал экологик муаммолар, маънавий қашшоқлик.

Тадқиқот натижалари. Бугуги кунда дунёда мавжуд бўлган ва инсониятни ҳалокат ёқасига олиб келиб қуйган глобал муаммоларни бартараф қилиш инсониятни бирлаштиришни талаб қилмокда. Ўзбекистон бу борадаги ташаббуслари билан ҳалқаро микёсда обрў эътибори ошиб дунёда ўзининг муносиб ўрнига эга бўлиб бормоқда. Бунда Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг олиб бораётган доно ички ва ташқи сиёсати муҳим роль ўйнамоқда. Муҳтарам Президентимиз томонларидан 2022 йил 21 январда тасдиқланган Тараққиёт стратегиясида инсониятни бирлаштиришнинг муҳим шарти бўлган маънавиятни юксалтириш устувор вазифа қилиб белгиланди. Маънавиятни юксалтириш бирлик ва жипслик асосида жамият тараққиётини таъминлаб халқимиз ҳаётини бахтли қилишнинг муҳим шарти хисобланади. Ўзбекистон Президентининг 2017 йил 19 сентябрда БМТ минбаридан туриб диний бағрикенглик борасида берган таклифи асосида 2018 йил 12 декабрда БМТнинг "Маърифат ва диний бағрикенглик" резолюцияси қабул қилинди. Тараққиёт стратегияси ва БМТ резолюциясининг диний ва миллий бағрикенгликни шакллантириш борасидаги вазифаларни амалга ошириш инсониятни бирлаштиришга хизмат

қилади. Бунинг учун инсониятни бирлаштиришга хизмат қиладиган илмий-маънавий омил шаклланган бўлиши лозим.

Ўзбекистони халқаро миқёсда обрў эътиборини ошиб боришида унинг бой илмий-маънавий мероси асос бўлиб хизмат қилмоқда. Ислом илмининг йирик вакили, калом илмининг султони Имом Мотрудийнинг бой илмий-маънавий меросини ўрганиш бугунги кунда инсоният жамиятида мавжуд бўлган глобал муаммоларни бартараф қилишда асос бўлиб хизмат қилади. Айниқса, мотрудийлик таълимотининг бағрикенглик ғоясини жаҳон жамоатчилиги ўртасида кенг тарғиб қилиш глобал инсоният жамиятида маънавиятни юксалтиришда муҳим аҳамиятга эга. Шу билан биргаликда ёшларимизни юксак маънавиятли қилиб ва Ватанга муҳаббат руҳида тарбиялашда ҳам мотрудийлик таълимоти муҳим илмий-маънавий асос бўлиб хизмат қилади.

Бу борада Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан 2025 йил 19 мартдаги "Умуммиллий тотувлик ва хориждаги ватандошлар билан алоқаларни мустаҳкамлашни янги босқичга олиб чиқишга оид чора-тадбирлар тўғрисида"ги ПФ-52-сон Фармон муҳим аҳамиятга эга. Чунки фармонда умуммиллий тотувликни таъминлаш борасида устувор вазифалар белгилаб берилган. Ушбу мақсад йўлида Маданият вазирлиги ҳузурида Миллатлараро муносабатлар ва хориждаги ватандошлар масалалари бўйича қўмита ташкил этилди. Мазкур қўмита Президент Адмнистрациясига ва Вазирлар Махкамасига ҳисобот бериши белгилаб қўйилганлиги уни статусини юқорилигини белгилаб беради.

Бугун инсоният жамияти ядро қирғин қуроли таҳдиди, экологик таҳдид, оиланинг глобал инқирози каби қатор глобал муаммолар қуршовида яшаб келмоқда. Оиланинг глобал инқирози Ғарбда яққолроқ намоён бўлмоқда, Шарқда эса эндигина намоён бўлмоқда. Бундай тафоввутнинг сабаби маънавиятга бўлган муносабатдаги тафоввут билан, яъни Шарқдан фарқ қилиб Ғарбда маънавиятга эътиборсизлик билан боғлиқ. Ғарбда оиланинг инқирози шунчалик ёйилиб кетдики олимлар ва мутахасисслар уни инқироз деб эмас балки модернизация деб таърифлашмоқда.

Ушбу глобал муаммоларни, жумладан, оила глобал инқирози муаммосини таҳлили уларнинг сабаби охир оқибатда маънавиятни қашшоқлашувига боғлиқлигини кўрсатмоқда. Ғарб ва Шарқнинг ўзига хослиги, яъни Ғарбдаги индивидуализм ва Шарқдаги жамоавийлик кайфияти маънавиятга бўлган эҳтиёжда тафоввутни келтириб чиқарди. Ғарбда тарихий тараққиёт жараёнида маънавиятни юксалтиришга етарлича эътибор қаратилмади.

Мавжуд глобал муаммоларни сабаби бўлган маънавий қашшоқликни бартараф қилиш Ғарб ва Шарқни ҳамкор ва шериклигини талаб қилади. Маънавиятни юксалтириш борасида ҳамкорлик ва шерикликни таъминлаш учун халқаро мувофиқлаштирувчи марказ тузиш лозим. Ушбу марказ асосий эътиборни маънавиятни юксалтириш асосида оилани мустаҳкамлашга қаратиши лозим.

Бундан ташқари инсоният жамиятини ҳалокат ёқасига олиб келиб қўйган глобал муаммолар ҳам инсониятни бирлаштиришни тақозо этади. Чунки глобал муаммо глобал тадбирни тақозо этади ва бунинг учун энг аввало инсониятни бирлаштириш керак бўлади. Инсониятни бирлаштириш учун эса инсониятни фарқларига эмас балки умумий жиҳатларига эътибор қаратиш керак бўлади. Бугунги кунда инсоният миллатига, динига, ирқига, мафкурасига, географик жойлашувига ва бошқа жиҳатларига қараб фарқланмоқда. Бундай фарқланишлар табиий равишда одамлар ўртасида қарама қаршиликларни келтириб чиқаради ва бундай ҳолатда мавжуд бўлган глобал муаммоларни бартараф қилиш имконияти деярли бўлмайди. Шунинг учун бугунги кунда инсониятни бирлаштириш масаласини энг долзарб муаммолардан бири деб айтиш мумкин.

Ўзбекистон Республикаси Президенти таклифига асосан БМТ томонидан маърифат ва диний бағрикенглик тўғрисидаги резолюцияни қабул қилиниши инсониятни бирлаштиришда муҳим аҳамиятга эга. Инсониятни бирлаштириш комплекс чора-тадбирлар ишлаб чиқиш талаб этиладиган муаммо ҳисобланади. Инсониятни бирлаштиришга хизмат қиладиган бағрикенглик рамзини ишлаб чиқиш ана шундай тадбирлардан бири бўлиши мумкин.

Глобал муаммоларни бартараф қилиш глобал тадбирларни, глобал тадбирлар эса инсонятни бирлаштиришни талаб қилади. Инсониятни бирлаштириш учун одамларни фарқига эмас, балки умумий жиҳатларига эътибор қаратиш лозим. Бунинг учун маънавиятни юксалтириш асосида инсониятни бирлаштиришга хизмат қиладиган бағрикенглик эмблемасини яратиш керак бўлади. Бағрикенглик эмблемаси инсониятни диний ва этник фарқларини эмас балки уларни умумий жиҳатларини акс эттириши лозим. Масалан, ирқлар ва миллатлар кўп бўлса ҳам барча Одам Ато ва Момо Ҳавонинг фарзандлари эканлигини, динлар кўп бўлса ҳам Оллоҳ ягона эканлигини акс эттириши лозим.

Имом Мотрудийни илмий-маънавий меросининг бағрикенглик томойилини амалиётга тадбиқ қилиш учун қуйидаги бағрикенглик эмблемасини таклиф қилиш мумкин.

Ушбу эмблемада мужассамланган бағрикенглик ғояларини тарғиб қилиш ва одамларни онгу қалбига сингдириш инсониятни глобал миқёсда бирлаштиришга ва умуммиллий тотувликни таъминлашга хизмат қилади. Бирлашиш ва умуммиллий тотувлик эса, жипсликни кучли қилиш асосида мавжуд бўлган глобал муаммоларни бартараф қилишнинг муҳим шарти ҳисобланади. Бундай эмблемани ишлаб чиқиш ва жаҳон ҳамжамиятига тарғиб қилиш Имом Мотрудийнинг бой илмий-маънавий меросини амалиётга тадбиқ қилишни англатади. Ҳадис илмининг султони Имом Бухорий одамларнинг нажоти фақат билим ва ундан бошқаси бўлмагай деб ёзган. Лекин Имом Бухорий замонларидан ўтган минг йиллий вакт давомида инсоният жамиятида шундай ўзгаришлар бўлдики энди одамларнинг нажоти фақат билим бўлмай қолди. Бугун замон талабидан келиб чикиб Имом Бухорийнинг доно сўзларига қўшимча килиб "Одамларнинг нажоти билим ва маънавиятда" деб айтиш керак бўлмокда. Чунки Имом Бухорий замонларидан кейинги даврда секуляризация, эмансипация ва атеистик тарбия сабабли маънавий қашшоқлик келиб чикди. Бундай маънавий қашшоқликдан чиқиб маънавиятни юксалтиришда Имом Мотрудийнинг илмий-маънавий мероси муҳим асос бўлиб хизмат қилади.

Адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 19 мартдаги "Умуммиллий тотувлик ва хориждаги ватандошлар билан алоқаларни мустаҳкамлашни янги босқичга олиб чиқишга оид чора-тадбирлар тўғрисида"ги ПФ-52-сон Фармон.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги "2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги ПФ-60-сон Фармони.

- ёшларнинг дунёвий ва диний дунёқарашларини уларга ҳар бир ўргатилаётган аниқ ва табиий фанлар ичида диний-маънавий мантиқ,шунингдек диний-маърифий фанларда эса илмий-дунёвий билимлар мужассам эканлигини,ишончли далиллар билан тушунтириб бориш оқали уйғунлаштириш ишларини йўлга қўйиш;

- ёшларнинг дунёвий ва диний дунёқарашларини уйғун шакллантириш ва ривожлантириш жараёнида таълим-тарбия берувчиларнинг ишлаб чиқиладиган касбий квалификацион стандартлар асосида билими ва малакасини мунтазам ошириб бориш;

- ёшларнинг дунёвий ва диний дунёқарашларини уйғун шакллантириш ва ривожлантиришда оила, маҳалла ва таълим-тарбия муассасалари, оммавий ахборот воситалари,шунингдек бошқа ижтимоий-гуманитар тузилмалар ўртасида самарали ҳамкорлик механизмини йўлга қўйиш;

- ёшларнинг дунёвий ва диний дунёқарашларини уйғун шакллантириш ва ривожлантиришда фалсафий ва диний-маърифий таълим-тарбиянинг инсонпарварлик ва илмийлик, касбга йўналтирилганлик, ворисийлик каби тамойилларга, шунингдек ишонтириш,намуна кўрсатиш,соғлом рақобат (беллашиш), ўртоқларча танқид қилиш, рағбатлантириш,танбеҳ бериш ва жазолаш каби методларга таяниб фаолият юритиш билан белгиланади.

3. ***Концепцияда белгиланган вазифаларни амалга оширишга босқичлари. Бу*** **ижтимоий вақт оралиғида** қуйидаги босқичларда:1) оила ва маҳалла;

2) мактабгача таълим; 3) умумий ўрта таълим; 4) олий таълим тизимларида таълим-тарбия олаётган болалар,ўқувчилар,талаба ёшларнинг дунёвий ва диний дунёқарашларини уйғун шакллантириш ва ривожлантиришга қаратилган бир қатор талабларни бажаришни тақозо этади.

1. **Оила ва маҳаллаларда** ота-онанинг ҳар томонлама саводхонлигини ошириш,яъни «тарбиячининг ўзи-тарбияланган бўлиши керак», деган қоидага тўлиқ амал қилиш; турли ёшдаги болаларининг бадиий- маънавий эстетик дидини шакллантириш,ақлий қобилиятини ўстириш учун мўлжалланган алла ва эртак айтиш, мақоллар келтириш, топишмоқларни бериш, ўйинчоқларни

ўйнаш, китобларни ўқиши каби зарурий тўпламларини тайёрлаш ва улар билан барча фазандларини ошна қилиш орқали ,уларнинг дунёвий ва диний дунёқарашларини уйғун шаклланишига дастлабки қадамни қўйиш ва уни келгусида узлуксиз тарзда ривожлантириб боришни таъминлаш;

Оилада ҳар қандай шароида ҳам ота-онанинг фарзандлари дунёқарашларини тўғри шакллантириш учун жавобгарлик масъулияти катта эканлигини билиши, уни унутиш эса оилани парокандаликка олиб келишига сабаб бўлишини англаб етиши керак бўлади.

2. Мактабгача таълим муассасаларида таълим-тарбия олаётган болалар онгида дунёвий ва диний дунёқарашларини уйғун шаклланиш куртакларининг пайдо бўлишини таъминлаш учун уларнинг:

- ўзини англаш, ўзига ўзи баҳо бериш, теварак-атрофдаги нарсаларга нисбатан ахлоқий-маънавий муносабатни пайдо қилиш, ўзининг ва бошқа болаларнинг хулқ-атворига "яхши" ёки"ёмон" деб баҳо беришни ўргатиш; -
- болалар учун махсус ташкиллаштириладиган сюжетли-ролли: спектакллар, куй-қўшиқ ва рақслар, турли театрлаштирилган томошалар, саҳна кўринишлари, миллий ўйинларда иштирок этишларини таъминлаш орқали янги мотивларни пайдо қилиш ва мустаҳкамлаш;
- болалар онгида «Ўзбекистон – менинг Ватаним!» туйғусини шакллантириш; давлат рамзларига,милий ва умуминсоний дунёвий ва диний қадриятларга нисбатан ҳурмат ҳиссини туғдириш;
- тарбияланаётган ўғил болаларда мардлик, шижоат, миллий ғурур, қатъият, тадбиркорлик, орият; қиз болаларда эса ибо, ҳаё, қаноат, меҳнатсеварлик каби ахлоқий-маънавий фазилатларни шакллантириш;
- болаларда атроф муҳит озодалиги, шахсий гигиена, табиатни асраб-авайлашга қаратилган экологик тарбия мазмунидаги «Она табиатни асрайлик!» шиори остида ўтказиладиган тадбирларда иштирок этишини таъминлаш;
- болаларни орзуга интилиш, ижодий фикрлаш, яратувчанлик, ички қобилиятларини юзага чиқаришга қаратилган конструктор-муҳандислик ўйинларига жалб этиш;
- болаларни мардлик, шижоат, қатъият, зукколик, жасорат, гўзаллик, олийжаноблик, меҳр-шафқат, китобхонлик намуналарини ўзида акс эттирган миллий сиймолар, миллий эртаклар ва мултфильм қаҳрамонлари кўринишлари ва лавҳалари ифодаланган тарбиявий аҳамият касб этувчи образлар акс эттирилган мажмуаларини яратиш каби вазифаларни бажариш талаб этилади.

4. **Умумий ўрта таълим тизимида** таълим-тарбия олаётган ўқувчи ёшларнинг дунёвий ва диний дунёқарашларини уйғун шакллантириш ва ривожлантириш учун қуйидагиларни :

- математика, физика, кимё, биология, тиббиёт, ахборот технологиялари каби аниқ-табиий фанлар соҳаларида юз бераётган инқиллобий ўзгаришларнинг моҳиятини очиб бериш орқали замонавий илмий фалсафий дунёқарашни шакллантиришга кўмаклашиш;

- дарслардан бўш вақтларида ваколатли ҳокимият идоралари томонидан диний-маърифий ишларни тарғиб қилиш учун тайёрланган расмий ҳужжатлар асосида диний-маърифий таълим-тарбия ишларни олиб бориш натижасида "Ислом динининг –нурли ҳаётга,илм-маърифатга,яхшиликка" чорловчи дин эканлигини ўқувчи-ёшлар қалбига сингдириш орқали,уларнинг диний-маънавий дунёқарашларини шакллантириб боришни ташкиллаштириш;

- табиат оламида юз берган,бироқ инсон ақли етмайдиган нарса,ҳодиса ва жараёнларнинг сир-асрорларини билишда,улар ҳақида ислом динининг муқаддас "Қуръони карим" китобида айтилган фикрлар билан солиштиришни ўргатиш;

- жамият ҳаётида бўлаётган «қусур»ларнинг келиб чиқиш сабаб ва оқибатларини билишда, уларни тузатишда ислом динининг ахлоқий-маънавий кодекси бўлган «Ҳадис»лар илмидан фойдаланиб фаолият юритишнинг фойдали томонларини тушунтириш;

- умуминсоний ва миллий қадриятларга ҳурмат бажо келтириш орқали ўзининг индивидуал шахсий дунёвий ва диний дунёқарашларини ривожлантириш, ҳаёт фаолиятида юзага келган муаммоларини ўзи мустақил ҳал қилишни ўргатиш;

- мустақил ҳаёт учун зарур бўлган дунёвий ва диний билимларни ўзлаштиришини чуқурлаштириш орқали касблар ҳақидан туғри тасаввур ҳосил қилиш натижасида виждонан меҳнат қилиш кўникмаларини шакллантириш, бунда муваффақиятларга эришиш мотивларини кучайтириш кабиларни бажариш талаб этилади.

5. Олий таълим тизимида ёшларнинг дунёвий ва диний дунёқарашларини уйғун шакллантириш ва ривожлантиришга қўйиладиган талаблар:

- талабаларга касбга йўналтирилган билимларни беришда холис, илмий, тарихий асосланган диний-маърифий билимларни дунёвий илмлар билан мутаносиб равишда интеграция қилиш орқали таълим-тарбия беришни йўлга қўйиш;

- талабаларга турли соҳалар бўйича берилаётган дунёвий илмлар ва диний маълумотлар,турли хил ахборотларни чуқур таҳлил қилиш орқали танқидий

баҳолашни ўргатиш асносида илмий ва танқидий фикрлаш кўникмаларини ривожлантириш;

- интернет ва ижтимоий тармоқларда тарқатилаётган материалларнининг мазмунини тезликда ангаб олиш орқали ёлғон,бўҳтонлардан иборат бўлган тўқима ва мантиқсиз маълумотлардан огоҳ бўлини,уларнинг таъсир доирасига тушиб қолишдан эҳтиёт бўшни ўргатиш;
- талабаларга "Диншунослик" фанидан дарс беришда диний ва дунёвий билимларни қамраб олган, илмий-методик жиҳатдан тўлиқ ишлаб чиқилган ўқув дастурларидан фойдаланишни биладиган сертификатга эга бўлган мутахассислардан фойдаланишни йўлга қўйиш;
- талабаларга"жаҳолатга қарши –маърифат билан курашиш" ғояси остида турли дин ва эътиқод вакилларига нисбатан ҳурмат, бағрикенглик ва мулоқот маданиятини ўргатиш ва шу орқали экстремизм, фанатизм, радикализм ҳамда "Оммавий маданият" таъсирига қарши ғовий-мафкуравий иммунитетни кучайтириш кабиларни бажариш киради.

4. Концепцияни амалга оширишдан кутилаётган натижалар:

1. Концепциянинг жорий қилиниши бола,ўқувчи,талаба ёшларнинг дунёвий ва диний дунёқарашларини уйғун тарзда риволантириб бориш,уларнинг она-Ватанга садоқат, тадбиркорлик,ишбилармонлик, иродалилик, мафкуравий иммунитет, меҳр-оқибатлилик, масъулиятлилик, толерантлик, сиёсий-ҳуқуқий маданият, инновацион фикрлаш, меҳнатсеварлик каби таянч компетенциялар билан мустақил ҳаётга кириб боришларига кенг имкониятлар яратиб беради.

2. Оилалар, таълим муассасалари, маҳаллаларда ёшларнинг дунёвий ва диний дунёқарашларини уйғун шакллантириш ва ривожлантириш мамлакатимизнинг мустақил фикрлаш ва қарор қабул қилиш лаёқатига эга бўлган илмли, тажрибали, эътиқодли, ҳар қандай ишнинг кўзини биладиган ёш ишбилармон,тадбиркор инсон капиталига эга бўлган эҳтиёжини қондиришни таъминлайди.

3. Мамлакатнинг куч қудрат таянчи бўлган ёшларнинг дунёвий билимларни эгаллашлари мисли кўрилмаган кашфиётларни амалга оширишларига, диний-маърифий билимларни ўзлаштириб олишлари эса жамиятда жиноятчилик, экстремизм, терроризм, коррупция, фирибгарлик, кўзбўямачилик, ёлғончилик, эгоцентризм, ахлоқий бузуқлик, оилавий ажримлар, меҳр-оқибатнинг камайиши, «оммавий маданият»га кўр-кўрона тақлид, лоқайдлик, бегоналашув, ўзибўларчилик, фарзанд тарбиясига масъулиятсизлик, эл-юрт тақдирига бефарқлик билан қараш каби иллатларнинг илдизини кесишга маънавий мотивация берувчи кучга айлантиради.

4. Концепциянинг амалга оширилиши жамиятда ёшларнинг дунёвий ва диний билимларни интеграцион тарзда ўзлаштиришларига,натижада инсонпарварлик ва диний бағрикенгликни таъминлашга хизмат қиладиган янгича типдаги миллий ўзбекона дунёвий ва диний дунёқарашларнинг уйғунлашган шаклларининг пайдо бўлишига салмоқли ҳисса қўшади.

Фойдаланилган адабийотлар

1 Мирзиёев Ш.М.Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тўлдирилган иккинчи нашри. – Тошкент:"Ўзбекистон"нашриёти,2022. – Б.3
2. Ўзбекистон Республикаси мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги маълумотномаси. 12.08.2025 йил.// https://www.uzedu.uz/y3#
3. Ўзбекистонда диний бағрикенглик.Маълумотнома.//https://strategy.uz/index.php?news=1014
4. Мирзиёев Ш.М. https://president.uz/uz/lists/view/7735. 28.11.2024.
5. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси.- Тошкент:Yuridik adabiyotlarpublish,2023. - Б.21,23.
6. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг "Узлуксиз маънавий тарбия концепцияси"ни тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида қарори.// (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 03.01.2020 й., 09/20/1059/4265-сон, 19.06.2020 й., 09/20/391/0777-сон; 10.08.2022 й., 09/22/438/0726-сон).

GLOBALLASHUV SHAROITIDA DINIY-MA'NAVIY TAHDIDLARGA QARSHI KURASHDA MOTURIDIYLIK MEROSINING DOLZARBLIGI

Ravshanov Sherbek Tursunqulovich
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti "Samarqand tamadduni tarixi" kafedrasi mudiri, dotsent

Annotatsiya: Globallashuv jarayoni bugungi kunda dunyo hamjamiyatiga nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, balki diniy-ma'naviy tahdidlarni ham olib kirmoqda. Ushbu maqolada zamonaviy globallashuv sharoitida ekstremizm, aqidaparastlik va boshqa buzg'unchi g'oyalarga qarshi kurashda Imom Abu Mansur Moturidiy asos solgan moturidiylik merosining dolzarbligi tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida tarixiy-taqqosiy va tahliliy usullar qo'llanilib, ilmiy akademik manbalarga tayangan holda Maturidiy ta'limotining asosiy tamoyillari – aql-zakovatni ustuvor bilish, bag'rikenglik va mo'tadillik – zamonaviy tahdidlar kontekstida yoritilgan.

Kalit so'zlar: globallashuv, diniy tahdidlar, ma'naviy tahdidlar, moturidiylik, Imom Moturidiy, aqidaviy meros, ekstremizmga qarshi kurash, bag'rikenglik, ma'rifat, mo'tadillik, "jaholatga qarshi ma'rifat".

Kirish. Globallashuv jarayoni insoniyat hayotining turli jabhalariga jadal kirib kelar ekan, bu jarayonning ijobiy imkoniyatlari bilan birga salbiy oqibatlari ham ko‘zga tashlanmoqda. Hayot haqiqatidan ma’lumki, har qanday taraqqiyot mahsulidan ikki xil maqsadda – ezgulik yoki yovuzlik yo‘lida foydalanish mumkin [6, b. 34]. Xususan, globallashuv sharoitida axborot almashinuvi tezlashib, mafkuraviy chegaralar barham topmoqda. Bu holat dunyoning turli mintaqalarida diniy-ekstremistik g‘oyalarning keng tarqalishiga xizmat qilmoqda. Bugungi kunda turli terroristik tashkilotlar va aqidaparast oqimlar globallashuv imkoniyatlaridan foydalanib, xususan internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar ongi va qalbiga salbiy ta’sir o‘tkazishga urinmoqda [2]. Masalan, 2010-yillar o‘rtalarida “Islom davlati” (IShID) terroristik tashkiloti safiga Yaqin Sharq jangovar harakatlariga Markaziy Osiyodan taxminan 5 mingga yaqin yosh jangarilar yollangani bu tahdid qanchalik real ekanini ko‘rsatadi. Markaziy Osiyo respublikalari, xususan O‘zbekiston ham globallashuv davrida bunday xatarlarga yuzma-yuz keldi. Sovet davrida din sohasidagi bo‘shliq va diniy savodsizlik tufayli mustaqillikdan so‘ng ayrim fuqarolar zararli oqimlar ta’siriga tushib qolganliklari kuzatildi [4]. Yillar davomida diniy ta’limotlarning izchil o‘qitilmagani oqibatida paydo bo‘lgan ma’naviy bo‘shliqdan foydalanib, turli ekstremistik guruhlar va “vahhobiylik”, “hizb ut-tahrir” kabi aqidaparast oqimlar mintaqaga kirib kelgani ma’lum [4] [11, p. 118]. AQSh Davlat departamentining so‘nggi ma’ruzalarida ham Markaziy Osiyoda, jumladan O‘zbekistonda, xalqaro terrorchi tashkilotlar – xususan IShIDning “Xuroson” qanoti – faoliyati eng asosiy tahdid ekani ta’kidlanadi [10, p. 5] [9, p. 3].

Shunday sharoitda, diniy-ma’naviy tahdidlarga qarshi kurash faqat kuch ishlatish choralarigina emas, balki ma’naviy-ma’rifiy vositalar orqali ham olib borilishi zarur ekanligi ayon bo‘lmoqda. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I. A. Karimov globallashuv davrida yoshlar ma’naviyatini mustahkamlashga alohida e’tibor qaratib, “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida globallashuvning milliy ma’naviyatga ta’siriga qarshi faqat boy ma’naviy merosimizga tayanish bilangina samarali kurashish mumkinligini uqtirgan edi [6, b. 112–113]. Ayniqsa, mamlakatimizda istiqomat qiluvchi aholi tarixan e’tiqod qilib kelgan hanafiylik-moturidiylik aqidaviy merosi hozirgi kunda zararli diniy oqimlarga qarshi mafkuraviy kurashda g‘oyaviy tayanch sifatida e’tirof etilmoqda. Shu bois, O‘zbekistonda so‘nggi yillarda “Ma’rifat bilan jaholatga qarshi kurash” shiori ostida milliy-diniy merosni targ‘ib qilish, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy singari allomalar nomida ilmiy markazlar va maktablarni tiklashga qaratilgan izchil ishlar amalga oshirildi [5] [6]. 2020-yilda mamlakatimizda maxsus Prezident qarori bilan Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etilib, ushbu markaz oldiga buyuk alloma Imom Moturidiy va uning izdoshlarining ilmiy

merosini chuqur o‘rganish, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik tamoyillarini keng targ‘ib qilish hamda jaholatga qarshi ma’rifat g‘oyasini amalga oshirish kabi vazifalar qo‘yildi [7]. 2025-yilda Samarqand shahrida Imom Moturidiy tavalludining 1155 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan “Moturidiylik – bag‘rikenglik, mo‘tadillik va ilm doktrinasi” nomli xalqaro konferensiyada ham Imom Moturidiy ta’limotining zamonaviy davrdagi ahamiyati, xususan bu ta’limotning turli ekstremistik g‘oyalar va buzg‘unchi oqimlarga qarshi kurashdagi o‘rni alohida ta’kidlandi [14] [2]. Bu kabi sa’y-harakatlar zamirida bitta asosiy g‘oya mujassam: Moturidiylik aqidaviy merosi – o‘zining mo‘tadil, aqliy-nazariy yondashuvi bilan – bugungi tahlikali zamonda paydo bo‘layotgan diniy-ma’naviy xurujlarga qarshi eng samarali mafkuraviy qalqon bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Ushbu maqolaning maqsadi globallashuv sharoitida kuchayib borayotgan diniy-ekstremistik tahdidlarga qarshi kurashishda Imom Abu Mansur Moturidiy merosining dolzarb ahamiyatini ilmiy manbalar asosida yoritib berishdan iborat. Maqolada Moturidiy aqidaviy ta’limotining asosiy tamoyillari – aql va vahiy munosabati, imon va kufr masalasidagi qarashlar, bag‘rikenglik va mo‘tadillik mezonlari – qisqacha tavsiflanadi hamda ushbu tamoyillarning hozirgi zamon “jaholatga qarshi ma’rifat” kurashidagi o‘rni tahlil qilinadi.

Tadqiqot usullari (metodologiya). Maqola mavzusini yoritish uchun tarixiy-taqqoslama, tahlil va sintez kabi ilmiy tadqiqot usullari qo‘llanildi. Awalo, Imom Moturidiy asarlari va u haqdagi ilmiy tadqiqotlar mazmun-mohiyatini o‘rganishda tarixiy-tizimli yondashuv qo‘llanilib, Moturidiy ta’limoti IX–X asrlardagi ilmiy-diniy jarayonlar kontekstida ko‘rib chiqildi. So‘ngra, zamonaviy globallashuv davrida vujudga kelgan diniy-ekstremistik tahdidlar to‘g‘risida mahalliy va xorijiy manbalardagi ma’lumotlar tahlil qilindi. Xususan, O‘zbekiston va Markaziy Osiyoda diniy ekstremizmning tarqalish omillari bo‘yicha tadqiqotchilar (masalan, E. Abdullaev, R. Kuchkarov va boshqalar) olib borgan ilmiy ishlar natijalari ko‘rib chiqildi [12] [4]. Moturidiy merosining bugungi kunda yangicha talqin va tatbiq etilish holatini baholash uchun O‘zbekiston hukumati tashabbuslari (Imom Moturidiy markazining tashkil etilishi, “ma’rifat karvonlari” faoliyati va h.k.) hamda xalqaro doiradagi ilmiy anjumanlar materiallari tahlil qilindi. Maqolani yozishda SCOPUS va boshqa xalqaro ma’lumotlar bazasiga kiruvchi ilmiy maqolalar va nufuzli manbalardan faol foydalanildi; jumladan, B. Pajvak va A. Milofskiy (2024) kabi xorijiy mualliflarning Markaziy Osiyoda ekstremizmga qarshi kurash tajribasiga doir tahlillari, shuningdek M. F. M. Yusoff (2025) singari tadqiqotchilarning Imom Moturidiy ta’limotining zamonaviy ahamiyatiga oid ishlanmalari mazkur tadqiqot uchun muhim manbalardan biri bo‘lib xizmat qildi [2] [3]. Maqola yakunida keltirilgan xulosalar aynan shu manbalardagi dalillarning qiyosiy tahliliga asoslanadi.

Natijalar va tahlil. Moturidiylik aqidasi – IX asr oxiri va X asr boshlarida Markaziy Osiyoda (Movarounnahrda) vujudga kelgan sunniy e'tiqodning yirik oqimlaridan biri bo'lib, u Imom Abu Mansur al-Moturidiy (870–944) nomi bilan bog'liq. Moturidiy hanafiylik ta'limotiga tayangan holda islom aqidasini aqliy dalillar bilan boyitgan, ya'ni aql va naqlni uyg'unlashtirgan ilohiyot maktabini barpo etgan [1, p. 13–15] [15]. Moturidiy qarashlariga ko'ra, inson aql-zakovati Alloh tomonidan berilgan buyuk ne'mat bo'lib, u haqiqatni anglash va yaxshilikni yomonlikdan ajratishga qodirdir [1, p. 14]. Imon masalasida Moturidiy aqidaga ko'ra, amal-e'tiqod alohida tushunchalar bo'lib, imon asosan qalb bilan tasdiq etilishiga bog'liq; musulmon kishi gunohkor bo'lsa-da, agar u Allohni va farz amallarini inkor etmasa, kofir sanalmaydi – chunki imonning o'zi gunoh yoki savob amallarga bog'liq holda kamayib-ko'payib turmaydi [7, b. 330–331]. Bu nuqtai nazar, masalan, xatoga yo'l qo'ygan musulmonni darhol "kofir" deb hukm qiluvchi xarijiylik va boshqa mutaassib oqimlardan keskin farq qiladi. Moturidiy ta'limotida hech bir jamoa yoki shaxs o'zini mutlaq haqli deb bilib, boshqalarni osongina kufrda ayblamasligi lozimligi uqtiriladi – zero, inson qalbidagi iymon darajasini haqiqiy biluvchi yolg'iz Allohdir. Shuning uchun takfir (boshqa musulmonni dindan chiqdi, deb hukm qilish) masalasida Moturidiy va uning izdoshlariga xos bo'lgan ehtiyotkorlik keyinchalik ahli sunna doirasida ijobiy qoidaga aylangan. Bu hol ayniqsa bugungi kunda turli ekstremistik guruhlar o'ziga to'g'ri kelmagan musulmonlarni osongina "murtad" deb e'lon qilayotgan bir paytda mo'tadil e'tiqod namunasining qanchalik ahamiyatli ekanini ko'rsatadi.

Moturidiylikning o'ziga xos jihatlaridan yana biri – islomiy ta'limot va qadriyatlarni turli mintaqa va xalqlarning mahalliy madaniy an'analari bilan uyg'un holda tushuntirish va qo'llashdir. Imom Moturidiy fikricha, shariat ko'rsatmalarini hayotga tatbiq etishda ularning zamon va makonga muvofiq ma'nosini anglash lozim; din mohiyatan har bir xalqning manfaatiga va farovonligiga xizmat qilishi darkor [11, p. 66–68]. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Moturidiy va uning izdoshlari Markaziy Osiyoda islomni mahalliy urf-odatlar bilan uyg'unlashtirishga intilgan, xalqlarning islomdan avvalgi ijobiy qadriyatlarini inkor etmasdan, balki ularni islomiy mazmun bilan boyitgan holda qabul qilgan [11, p. 68–70]. Masalan, Markaziy Osiyoda avliyolar ziyorati, ma'rifiy tasavvuf an'analari kabi qadriyatlarga Moturidiy olimlar bag'rikenglik bilan munosabatda bo'lishgan. Qat'iy hanbaliy yoki zohiriy ulamolar bid'at deb rad etgan ayrim mahalliy urf-odatlar mintaqamizda "islomiylashgan" shaklda yashab kelavergan [11, p. 69]. Shu tariqa, Moturidiylik ta'limoti mintaqamizda diniy bag'rikenglik muhitini shakllantirishga xizmat qilgan: turli mazhab va din vakillari yonma-yon tinch yashab, ko'pchilikning vazminlik tamoyili ustuvor bo'lgan. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, Markaziy Osiyo xalqlari tarixidagi diniy bag'rikenglik va ko'pmadaniyatli totuvlikning asosi aynan

hanafiy-moturidiy dunyoqarashga borib taqaladi [13, p. 14–16]. Moturidiy an'analarida tarbiyalangan ulamolar turli mazhablararo kelishmovchiliklarga yo'l qo'ymay, aksincha musulmon jamiyati ichida ham, boshqa din vakillari bilan ham tinch-totuv muhitni saqlashga harakat qilganlar [13, p. 18–19] [11, p. 70].

Yuqoridagi xususiyatlar – aqidaviy ma'rifatparvarlik va bag'rikenglik – Moturidiylik merosini zamonaviy ekstremistik oqimlarga qarshi samarali qurolga aylantiradi. Jumladan, Moturidiy asarlarida dinda ixtiyor (erkin tanlov) va mas'uliyat masalasi keng yoritilgan. Alloma ta'limotiga ko'ra, inson o'z e'tiqodini anglashda majburlash va zo'ravonlikdan yiroq bo'lishi zarur; haq dinni qabul qilish – bu insonning ongli tanlovi va Alloh oldidagi javobgarligidir [3, p. 2–3]. Bu prinsip bugungi kunda ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ekstremistik guruhlar ko'pincha zo'ravonlik va majburlash orqali "din o'rnatmoqchi" bo'ladilar. Moturidiy esa bunday yondashuvni qoralab, "insonning qalbi va aqli ishonch hosil qilmagan e'tiqod haqiqiy e'tiqod emas" degan fikrni ilgari suradi [7, b. 332]. Shuningdek, Moturidiy aql-zakovatni ishlatmaslikni qattiq tanqid qilgan: uning nazarida, "ko'r-ko'rona taqlid" (ya'ni tanqidiy tafakkursiz ergashish) haqiqiy imon uchun zaif asosdir [7, b. 333]. Afsuski, ko'plab zamonaviy ekstremistik oqimlar aynan shunday ko'r-ko'rona, tanqidiy mushohadasiz amal qilishni targ'ib qiladi. Demak, Moturidiy merosidagi aqliy yondashuvni o'rgatish orqali yosh avlodni bunday "g'oyaviy qul"likdan asrash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Imom Moturidiy ta'limotining asosiy tamoyillari – racionalizm (aqliy dalillarning ustuvorligi), bag'rikenglik (boshqa fikr va e'tiqodlarga hurmat) hamda mo'tadillik (ifrat va tafritdan saqlanish) – bugungi globallashuv davrida turli shakldagi diniy-ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashda g'oyaviy asos bo'la oladi. Yuqoridagi natijalar sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Moturidiylik – ilm va ma'rifatga asoslangan e'tiqod maktabi. Bu ta'limot yosh avlod ongida diniy bilimga qiziqishni oshirib, ularda tanqidiy fikrlash ko'nikmasini shakllantiradi. Natijada, yoshlarda ekstremistik da'vatlarga qarshi ichki immunitet hosil bo'lib, ular diniy masalalarda yolg'on bilan haqiqatni ajratib olishga qodir bo'ladi.

Moturidiylik – mo'tadillik va ijtimoiy integratsiya maktabi. Imom Moturidiy an'analarida din va dunyo ishi o'rtasida muvozanatga erishish, dunyoviy bilimlarni ham qadrlash g'oyalari mujassam. Alloma ta'limoti jamiyat hayotida mutaassiblik va qoloqlikka o'rin qoldirmaydi – aksincha, ilm-fan va taraqqiyotni rag'batlantiradi [14, b. 1–2]. O'zbekiston rahbariyati ilgari surgan "Ma'rifatli Islom" konsepsiyasi ham bevosita Hanafiya-Moturidiy merosiga tayanib, islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini tiklashga qaratilganini ko'rish mumkin [14]. Moturidiy merosi musulmonlarni zamonaviy fuqarolik jamiyati hayotida faol ishtirok etishga,

dunyoviy qonunlarga hurmat qilishga undaydi [1, p. 15] [2, p. 3]. Bu esa ekstremistik guruhlar targ‘ib qilayotgan izolyatsiya va qarama-qarshilikka qarshi kuchli mafkuraviy javobdir – chunki Moturidiylik modeli musulmonlarga “yagona maqsad yo‘lida birlik, lekin yakka qolmaslik” prinsipini taklif etadi, ya’ni ular jamiyatning ajralmas qismi bo‘lib qolgan holda ham o‘z diniy qadriyatlarini saqlab yashashlari mumkin.

Moturidiylik – xavfsiz e’tiqod va barqarorlik omili. Tadqiqot davomida aniqlangan muhim natijalardan biri shuki, Moturidiy ta’limoti zamirida yotgan rasyonalizm va etik tafakkur diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi barqaror jamoaviy immunitet shakllantiradi. Maturidiylikka ko‘ra, har bir aqida va amalning maqsad-mohiyatini anglash lozim; mazmunidan ajralib qolgan shakliy dinparastlik (formalistika) tanqid qilinadi [3, p. 3]. Bu yondashuv din niqobi ostida zo‘ravonlik va buzg‘unchilik qiluvchi kimsalarning haqiqiy niyatini fosh etishga xizmat qiladi, chunki Moturidiy ta’limoti nafaqat matnlarni ko‘r-ko‘rona takrorlashni, balki ularning ortidagi illatlar va maqsadlarni tushunishni talab qiladi [3, p. 3]. Demak, Moturidiy merosini o‘rgangan odam har qanday diniy shior ortida aslida Qur’on va Sunnatga zid illat yashirinmaganini aql tarozisida o‘lchashga odatlanadi. Bu esa diniy niqobdagi ekstremizmni fosh etishning eng samarali yo‘lidir. Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev ham yaqinda bo‘lib o‘tgan Moturidiyy shakrdagi xalqaro konferensiyaga yo‘llagan tabrigida: “Imom Moturidiy tafakkuri va bugungi zamon uchun uning ta’limotining ahamiyatini chuqur tadqiq etishga alohida e’tibor qaratmoqdamiz” deya ta’kidlab, mamlakatimizning “ma’rifatli islom” davlat siyosati aynan tarixiy-diniy merosni zamonaviy hayot bilan uyg‘unlashtirishga qaratilganini alohida qayd etdi [14].

Yuqorida keltirilgan natijalar shuni ko‘rsatadiki, Moturidiylik aqidaviy merosi globallashuv sharoitida paydo bo‘layotgan diniy-ma’naviy tahdidlarga qarshi mafkuraviy kurashning tayanch nuqtasi bo‘la oladi. Xususan, Imom Moturidiy asarlarida ilgari surilgan aql-zakovatni qo‘llash, bag‘rikenglikni qaror toptirish va dinda zarurat darajasida qanoat qilish (ifrat va tafritdan qochish) kabi tamoyillar bugungi kunda ekstremizm va terrorizmga qarshi targ‘ibot-ta’limot ishlarining mazmunini boyitmoqda. Bu borada o‘tkazilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar natijalari ham musbat samara bermoqda: masalan, Malayziyalik olim M. F. M. Yusoff (2025) o‘z tadqiqotida Moturidiy merosini “aqliy barkamollik, bag‘rikenglik va ijtimoiy integratsiya omili” deb atagan holda uning zamonaviy dunyodagi ahamiyatini atroflicha asoslab bergan [3, p. 1–5].

Munozara. Globallashuv sharoitida diniy-ma’naviy tahdidlarga qarshi kurash masalasida olib borilgan ushbu tadqiqotdan ko‘rinadiki, an’anaviy islom aqidasi – xususan moturidiylik merosi – zamonaviy ekstremizmga qarshi kurashda beqiyos manba va tamal toshi bo‘lib xizmat qiladi. Moturidiylik modeli diniy

qarashlarda mutanosiblik va ilmiy yondashuvni ta'minlash orqali jaholatga qarshi kurashadi, bu esa bevosita jamiyat xavfsizligini ta'minlashga hissa qo‘shadi. Tadqiqot natijalarini muhokama qilar ekanmiz, bir nechta masalaga e'tibor qaratish lozim.

Birinchidan, moturidiylik merosini o‘rganish va targ‘ib qilish tizimini takomillashtirish zarurati tug‘iladi. O‘zbekistonda bu borada ijobiy qadamlar tashlanmoqda – maxsus ilmiy markaz tashkil etildi, talabalarga Moturidiy nomidagi stipendiyalar joriy qilindi, xalqaro anjumanlar uyushtirilmoqda [5]. Biroq moturidiylik ta'limotini keng jamoatchilikka, ayniqsa yosh avlodga yetkazishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ommaviy axborot vositalaridan foydalanishni kuchaytirish lozim. Chunki ekstremistik g‘oyalar internet orqali tez tarqalayotgan bir paytda ularga qarshi mafkuraviy immunitetni ham internet va media vositalari orqali shakllantirish talab etiladi [2, p. 1–2]. Yoshlar orasida ijtimoiy tarmoqlarda Moturidiy merosining mazmunini sodda va tushunarli tarzda tushuntirib beruvchi maqolalar, videoroliklar, podkastlar tayyorlash – dolzarb vazifalardan biridir.

Ikkinchidan, diniy va dunyoviy ta'lim integratsiyasi masalasiga e'tibor zarur. Moturidiy ta'limoti naqshida ilmiy dunyoqarash va iymon bir-birini to‘ldiruvchi tushunchalar sifatida qaraladi [3, p. 3]. Demak, bugungi kunda maktab va oliy o‘quv yurtlarida dunyoviy fanlarni o‘qitish jarayonida milliy-diniy merosimizning ilg‘or g‘oyalari ham singdirib borilsa, bu yoshlarning mafkuraviy barqarorligiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi. Masalan, axloqiy tarbiya darslarida Moturidiy asarlaridan olingan ibratli hikmatlar, uning aql va axloq haqidagi qarashlari keltirilishi mumkin. Zero, Moturidiy ta'limoti nafaqat diniy ekstremizmga qarshi, balki axloqiy buzilish va ma'naviy bo‘shliq kabi tahdidlarga qarshi ham samarali vositadir. Mazkur tadqiqot doirasida ko‘rib chiqilgan Ch. Xursanovning (2022) ilmiy maqolasida ta'kidlanganidek, Moturidiy falsafiy merosi inson ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qiladi hamda individual ruhiy tarbiyada ham beqiyos o‘rin tutadi [7, b. 332–333]. Demak, Moturidiylik merosini nafaqat ekstremizmga qarshi kurash, balki jamiyatning ma'naviy salohiyatini oshirish dasturining bir qismi sifatida targ‘ib etish lozim. Bu jihat oxir-oqibat har qanday tahdid va inqirozlarga bardosh bera oladigan barkamol insonni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Uchinchidan, xalqaro hamkorlik va tajriba almashuvi moturidiylik merosini qayta tiklash va ommalashtirish yo‘lida muhim omil bo‘lmoqda. Ushbu tadqiqot doirasida tahlil qilingan 2025-yil Samarqand konferensiyasi hamda 2021-yilda o‘tkazilgan onlayn anjuman materiallari shuni ko‘rsatadiki, bugun dunyoning ko‘plab olim va ulamolari moturidiylik merosiga jiddiy qiziqish bildirmoqda [14] [15]. Xususan, Turkiya, Misr, Malayziya, Indoneziya, Rossiya kabi qator davlatlarda Moturidiy ta'limotini o‘rganish va uni zamonaviy ekstremizmga qarshi qo‘llashga

doir ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada O‘zbekiston tajribasi ham alohida e’tirofga loyiq: xalqaro ekspertlar O‘zbekistonda davlat darajasida islomning ma’rifiy an’analarini tiklash va diniy plyuralizmni (ko‘pmadaniyatli totuvlikni) targ‘ib qilish borasidagi sa’y-harakatlarni yuqori baholamoqda [13, p. 18–20]. Jumladan, A. S. Jahar va M. M. Kamilov (2020) kabi tadqiqotchilar O‘zbekistonning hanafiy-moturidiy qadriyatlar asosida diniy bag‘rikenglik muhitini mustahkamlash yo‘lidagi siyosatini mintaqadagi boshqa mamlakatlar uchun namuna sifatida keltirganlar [13, p. 14–16; p. 18–20]. Bu esa Moturidiylik merosining nafaqat mahalliy, balki global miqyosdagi ahamiyatini yana bir karra tasdiqlaydi.

Mazkur munozarali jihatlar shuni ko‘rsatadiki, Moturidiy merosi atroflicha o‘rganilishi va zamonaviy ijtimoiy hayotga ijodiy integratsiya qilinishi darkor. Bu boradagi ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish uchun kelgusida quyidagi yo‘nalishlarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq: (1) Moturidiy asarlarining to‘liq va izohli tarjimalarini tayyorlash hamda ularni akademik muomalaga kiritish; (2) moturidiylik va zamonaviy ekstremistik oqimlar ta’limotini qiyosiy o‘rganib, ularning farqli jihatlarini ommaga tushunarli uslubda yetkazish; (3) Markaziy Osiyo tashqarisidagi musulmon jamiyatlarda (masalan, Janubi-Sharqiy Osiyo, Afrika va Yevropada) Moturidiy merosining qabul qilinishi va targ‘ib qilinishi bo‘yicha tadqiqotlar olib borish; (4) diniy bag‘rikenglik va terrorizmga qarshi kurashda Moturidiylikka xos yondashuvlar samaradorligini amaliy monitoring qilish va baholash. Ushbu yo‘nalishlarda izlanishlar davom ettirilsa, Moturidiylik merosini yanada chuqurroq anglash va undan zamonaviy tahdidlarga qarshi kurashda unumli foydalanish imkoniyati oshadi.

Xulosa. Yuqoridagi tadqiqot va tahlillar asosida quyidagi xulosa va tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

Globallashuv davrida diniy-ma’naviy tahdidlarning ko‘lami va ta’sir kuchi ortib bormoqda. Ayniqsa, yosh avlod ongi turli ekstremistik va mutaassib g‘oyalar nishoniga aylangan. Bunday sharoitda ularga qarshi kurashda faqat kuch va huquqiy choralar bilangina cheklanib bo‘lmaydi; balki jamiyatda sog‘lom mafkuraviy muhitni shakllantirish, xalqning tarixiy-diniy merosiga tayanish zarur. O‘zbekiston tajribasi ko‘rsatmoqdaki, diniy-ma’rifiy merosni tiklash orqali ekstremizmning oldini olish real samara bermoqda [2, p. 2].

Imom Abu Mansur Moturidiy merosi – xalqimiz ma’naviy boyligining ajralmas qismi sifatida – bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Moturidiy asos solgan aqidaviy maktabning negizini tashkil etuvchi aqliy dalillarga tayanuvchi e’tiqod va bag‘rikenglik tamoyillari hozirgi zamon xavf-xatarlariga qarshi kurashda muhim ideologik asos bo‘lib xizmat qilmoqda [3, p. 4] [13, p. 15]. Tadqiqotimiz davomida aniqlanganki, Moturidiylik ta’limotini o‘rgangan va unga amal qilgan shaxs ekstremistik g‘oyalarga kamroq beriluvchan bo‘ladi, chunki u

dinning asl mohiyatini aqldan yiroq talqinlarda emas, balki ilm-fan va ezgulik bilan uyg‘un holda tushunadi.

Moturidiylik merosini targ‘ib qilish orqali jamiyatda “jaholatga qarshi ma’rifat” g‘oyasini keng yoyish mumkin. Bu g‘oya so‘nggi yillarda O‘zbekistonda davlat va jamoatchilik tashabbuslari orqali amaliyotga joriy etilmoqda [6, b. 35] [14, b. 1]. Imom Moturidiy xalqaro markazi, Islom akademiyalari va boshqa ilmiy dargohlar faoliyati natijasida allomalarimiz merosi qayta tiklanib, ommaga yetkazilmoqda. Xususan, Moturidiy asarlaridagi insonparvarlik, tinchliksevarlik va ilmiy tafakkurga chorlovchi fikrlar yoshlar tarbiyasiga singdirilayotgani tahsinga loyiqdir. Bu sa’y-harakatlarni izchil davom ettirish zarur.

Diniy-ekstremistik tahdidlarga qarshi kurash strategiyasida Moturidiylik merosidan foydalanish nafaqat mahalliy, balki global miqyosda ham e’tirof etilmoqda. Xalqaro ekspertlar O‘zbekistonning mo‘tadil Hanafiya–Moturidiy merosiga tayangan holda diniy bag‘rikenglik va barqarorlikka erishish yo‘lini yuqori baholab, bu tajribani boshqa mamlakatlar uchun namuna sifatida ko‘rsatmoqdalar [13, p. 14–20]. Demak, Moturidiylik merosi faqat o‘zbek xalqi emas, balki butun musulmon olamining ekstremizmga qarshi kurashida umumbashariy ahamiyatga ega boylikdir.

Yuqorida keltirilgan xulosalar ushbu tadqiqot savoliga to‘liq javob beradi: globallashuv sharoitida diniy-ma’naviy tahdidlarga qarshi kurashda Moturidiylik merosi nihoyatda dolzarb va zarurdir. Alloma Imom Moturidiy asrlar avval yaratib ketgan ilmiy-ma’naviy meros bugungi tez o‘zgarayotgan va tahdidlarga to‘la dunyoda ham insoniyatga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatuvchi ma’naviy nur bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu merosni chuqur o‘rganish, targ‘ib qilish va amaliyotga tatbiq etish orqali biz kelajagimizni mudhish g‘oyaviy xatarlardan asrashimiz, yuksak ma’naviyatli va yengilmas kuchga ega jamiyat barpo etishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Cornell S. E., Zenn J. Religion and the Secular State in Uzbekistan. – Washington: Silk Road Paper, 2018. – P. 13–15.

2. Pazhwak B., Milofsky A. Amid Central Asia’s Struggle with Extremism, Uzbekistan Promotes Pluralism. – United States Institute of Peace, 30.07.2024. – P. 1–3.

3. Yusoff M. F. M. The Contribution of al-Māturīdī: Reason, Tolerance, and Integration. – IslamiCity, 08.05.2025. – P. 1–5.

4. Kuchkarov R. Ideological threats in Uzbekistan: recent history and modern techniques. – Revista Publicando, 2021. – P. 318–320.

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори. "Имом Мотуридий халқаро илмий-тадқиқот марказини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида" (11.08.2020). – Самарқанд вилояти вакиллиги сайти, 2020.

6. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 34–35.

7. Xursanov Ch. L. Abu Mansur al-Moturidiy falsafiy merosida shaxs ma'naviyatini yuksaltirish masalalari. – "Oriens" jurnali, 2022, №2(4). – B. 328–334.

8. Chaudet D. Hizb ut-Tahrir: An Islamist Threat to Central Asia? – Journal of Muslim Minority Affairs, 2006, Vol. 26(1). – P. 120–122.

9. U.S. Department of State. Country Reports on Terrorism 2022: Uzbekistan. – Washington, D.C.: U.S. State Department, 2023. – P. 2–3.

10. Baran Z., Starr S. F., Cornell S. E. Islamic Radicalism in Central Asia and the Caucasus: Implications for the EU. – Uppsala University Report, 2006. – P. 5–10.

11. Naumkin V. V. Radical Islam in Central Asia. – Oxford: Rowman & Littlefield, 2005. – P. 66–70.

12. Abdullaev E. Islam and National Security Challenges in Uzbekistan. – IISS Eurasia Seminar (London), 2003. – P. 1–5.

13. Jahar A. S., Kamilov M. M. Strengthening Religious Tolerance: A Lesson from Uzbekistan. – Journal of Islamic Studies, 2020, Vol. 31(2). – P. 14–20.

14. Mirziyoyev Sh. M. Tabrik nutqi "Moturidiylik – bag'rikenglik va taraqqiyot mazhabi" xalqaro konferensiyasida. – Samarqand, 30.04.2025. – B. 1–2.

15. Imam Maturidi International Research Center (Official website material). – Tashkent, 2021.

SAMARQANDDA BIRINCHI ILM MARKAZLARINING SHAKLLANISHI VA ULARNING PAYDO BO‘LISHIGA SABAB BO‘LGAN OMILLAR

Mamarasulov Dilmurod Toshtemirovich
Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)

Annotatsiya. Maqolada Samarqand shahrida ilk ilm-fan markazlarining shakllanishi va ularning qiyofasini belgilovchi omillar bayon etilgan. Samarqandda paydo bo‘lgan ilk madrasalar faoliyatini ularda ulug‘ imomlar Abu Mansur Moturidiy, Xoja Abdu Dorun, Xoja Muizuddin Abdu Dorun, Abu Ali al-Fuzayl as-Samarqandiy, Abu Muhammad ad-Doromiy as-Samarqandiy, Imom Ismoil al-Buxoriy, Hasan Muhammad Falsafiy Samarkandiy, Nasha Muhammad Samarkandiylar rivojlantirgan. Abullais Samarqandiy, Imom Ali as-Sug‘diy, Abu Fazl Muhammad Samarqandiy, Ashraf Samarqandiy va boshqalar.

Kalit so‘zlar: Avesto, yozuv, islom, Qur'on, madrasa va masjidlar, madrasalar faoliyati, talabalar, an'analar davomiyligi, vorislik, Raboti G‘ozyon madrasasi, uyg‘onish davri, universitetlar, olimlar.

Insoniyat tarixi shuni ko‘rsatadiki, biron bir sivilizatsiya yoki madaniyat rivoji o‘z-o‘zidan va tasodifan paydo bo‘lmagan. Bu borada birinchi galda har qanday taraqqiyotning asosiy sharti bo‘lgan ob’ektiv omil va holatlar mavjud bo‘lishi lozim. Aynan ko‘p yillar davomida to‘planib, vujudga kelgan qulay sharoit va vaziyat, shu zaminda unib-o‘sgan istedodlar, turli sohalarda olib boriladigan chuqur izlanishlar tadrijiy rivojlanib, oxir-oqibatda mantiqiy natijalarga olib kelishi tabiiydir. Bu hol, ayniqsa, insoniyat dunyoqarashining shakllanishida, o‘zligini anglashida ulkan ahamiyat kasb etib kelganligida hamda “Uyg‘onish davri” (IX-XII asrlar) nomini olgan Markaziy Osiyo tamadduni taraqqiyotida namoyon bo‘ladi.

Tarixan ma’lumki, muayyan millat va xalqning madaniy va ma’naviy saviyasining muhim belgilaridan biri davlatdagi ma’naviy muhit, ilm-fan va ta’lim-tarbiya jarayoni va uning darajalari va natijalari bilan belgilanadi. Markaziy Osiyo, xususan, bugungi O‘zbekiston hududi ham tarixda bu sohada dunyoda yetakchi o‘rinlarda turgan. Xususan, Markaziy Osiyo xalqlari tarixiga oid zardushtiylikning muqaddas kitobi hisoblangan Avestoda ham ma’naviy muhit, ilm-fan va ta’lim-tarbiya xususida muayyan fikrlar ilgari surilgan. Avestoning ma’naviyat, ilmiy g‘oya bilan bog‘liq jihatlari shundaki, unda umuminsoniy ahamiyatga ega bo‘lgan ezgulik, uning qaror topishi uchun qarash g‘oyasining ilgari surilganligi edi. Zardusht ta’limotida olam tartibi va ijtimoiy barqarorlik, tinchlik, xalqlar o‘rtasidagi hamkorlik kishilarning ongli ravishda ezgulik tomonida turib faol kurashishga undovchi mustahkam g‘oya ilgari surilgan. Mazkur g‘oya bugungi kun milliy

ma'naviyatining tamal toshlaridan hisoblanib, u umuminsoniy g'oyalarni o'zida mujassamlashtirgan. Eronshunoslar (S.N.Sokolov, L.A.Lelekov, V.A.Livshis, M.Is'hoqov, A.G.Perixanyan) Avesto kitobini maxsus "Avesto tili"da (o'rta forsiyga yaqin) oromiy yozuv asosidagi pahlaviy yozuvida bitilganligini keltirishadi[7, p. 4-5].

Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatining eng qadimgi nodir yozma manbasi Zardushtiylikning "Avesto" kitobida ham ma'naviy muhit, ilm-fan va ta'lim-tarbiya bilan bog'liq masalalarga jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida qaralgan. Inson borki, ta'lim olishga mas'ul qilinganidek, muallimning o'z kasbiga sadoqati va mas'uliyati "Avesto"ning Videvdot kitobida alohida qayd etilgan. Zardusht ta'limotida, olam tartibi va ijtimoiy barqarorlik, tinchlik, xalqlar o'rtasidagi hamkorlik, yovuzlik ustidan ezgulikning g'alabasi uchun ongli kurashda kishilarning faolligi ayni ma'rifat bilan bog'liq, degan mustahkam g'oya ilgari surilgan.

Ahmoniylar saltanati tarkibida bo'lgan satrapliklarda ham o'z yozuvlarini vujudga keltirish bilan bog'liq ehtiyoj oromiy yozuv asosida qondirilgan. Masalan, miloddan avvalgi IV-III asrlarga kelib esa Samarqandda oromiy yozuv asosida sug'diy yozuv shakllangan[18, p. 18-19]. Bu davrda Samarqand Sug'dining o'zida uch xil yozuv amal qilgan[21, p. 4-31, 33-80]. Ulardan birinchisi Samarqandda va Sug'dning markaziy hududlarida shakllangani uchun "Samarqand sug'diy yozuvi" yoki "milliy sug'diy yozuv" nomi bilan yuritiladi. Ikkinchisi, asosan xristian diniy jamoalarida qo'llanilgan va oromiy alifbo asosida paydo bo'lgan suryoniy yozuv bo'lgan. Uchinchi yozuv, milodning III asrida yashagan Moniy tomonidan joriy etilib, uning nomi bilan "Moniy yozuvi" deb yuritilgan. Shunga ko'ra, sug'diy tildagi manbalar uch xil yozuv orqali bizgacha yetib kelgan. Sug'diy yozuv suryoniy yozuvga yaqin holatda o'ngdan chapga qarab yozilgan. Ularning o'xshashligi ikkala yozuv ham oromiy yozuv asosida shakllanganligidadir[23, p. 347-541].

Arab xalifaligi hukmronligiga qadar Markaziy Osiyoda oromiy yozuv asosida shakllangan sug'diy, pahlaviy, xorazmiy, suryoniy, boxtariy, uyg'ur, xo'taniy kabi yozuvlarning mavjud ekanligi, "Avesto", "Bundahishn", "Qilmishlarimizning sabablari va oqibatlari", "Mast qiluvchi ichimliklar sutrasi", "Sudashan haqidagi doston", Mug' tog'i sug'diy hujjatlarining tipologik tuzilishi hamda ularda nomlari zikr etilgan xattotlar, Turfondan topilgan o'nlab astronomiya, tibbiyot, dinga oid sug'diy-buddaviy, sug'diy-moniy, sug'diy-xristian parchalaridan namunalar ayni davrda mintaqamizda ilmu-urfonning ravnaq topganligini ko'rsatadi. E'tiborli tomoni ushbu yozuvlar o'rgatiladigan va shu davrda shakllangan maktablarning mavjudligi alohida ahamiyatga ega.

Mavjud manbalarning guvohlik berishicha, Samarqand markaziy Sug'dda ilk o'rta asrlardayoq (V-VIII asrlar) xattotlar maktabi mavjud bo'lgan. Tarixda birinchi

marotaba sug‘diy alifbo 1965 yilda Panjikent arkida arxeolog A.Isoqov tomonidan topilgan. Ko‘za sirtiga o‘yib yozilgan alifboda jami 23 ta harf bo‘lib, sug‘diy yozuvda mavjud bo‘lgan harflarning hammasi ular orasidan joy olgan. O‘rganuvchi mashq qilayotib bu alifboni yozganligi ko‘rinib turibdi. Bu esa VIII asrdayoq Sug‘dda dabiriston-xattotlar maktabining davomi sifatidagi xattotlik maktabining mavjud ekanligidan dalolat beradi. Sug‘dda ushbu an’ana davom etib, xattotlik san’atiga bu yerda jiddiy e’tibor berilgan. Bu esa ilk o‘rta asrlardayoq ilm-fan, ta’lim va madaniyatning hukmdorlar rahnamoligida bo‘lganligidan darak beradi[1, p. 278-284]. Bu maktablar kelgusida oliy ta’lim muassasasini o‘rnini bosuvchi madrasalarning (Yevropada Universitet) vujudga kelishiga zamin yaratgan.

Jahonda universitetlar turlicha omillar asosida shakllangan. Ba’zi oliy ta’lim dargohlari siyosiy ta’sirlar va shaxsiy tashabbus asosida vujudga kelgan bo‘lsa, ba’zilari iqtisodiy taraqqiyot, shaharlashish hamda ilm fan homiylari rahnamoligida vujudga kelgan.

Ilmiy adabiyotlarda dunyoda ilk vujudga kelgan universitet 855 yilda Konstantinopolda, oldindan mavjud bo‘lgan o‘rta asr maktablari qoshida, Vizantiya davlat arbobi Varda va Lev Matematik (faylasuf olim) tomonidan asos solingan Magnavr (Konstantinopoldagi saroy nomi) universiteti ekanligi keltiriladi. Konstantinopolning qulashiga qadar (1453 yil) ushbu oliy dargohda huquq, tibbiyot, gramatika, ritorika, falsafa, diplomatiya, arifmetika, geometriya, musiqa va astronomiyadan talabalarga saboq berilgan[22, p. 80-84]. Tarixan birinchi oliy maktablar qadimgi Yunonistonda va qadimgi Rim jamiyatida miloddan avvalgi VI-I - asrlarda paydo bo‘lgan. Ularning yaratilishiga notiqlar maktablari asos bo‘ldi. To‘g‘ri, ular universitetlar deb atalmagan, ammo ularning o‘ziga xos xususiyatlari bor edi[28, p. 405-427].

O‘rta asrlarda mavjud bo‘lgan muammolardan biri bu odamlarni ma’lum bir diniy g‘oya ostida birlashtirish edi. Bu yo‘lda ayniqsa, Yevropada turli sherikchilik birlashmalari, savdogarlar gildiyalari, sanoat-tijorat sexlari va shirkatlar muhim rol o‘ynab, ular qoshida dinni targ‘ib qiluvchilar, diniy bilimlar beruvchilar faoliyat yuritishgan.

Bugungi Yevropa tomonidan tan olingan ilk universitetlarni tashkil topishi vaqti xaqida fikr bildirsak. Masalan, hozirgi Tunisdagi Al-Zaytun universiteti (737 yil), Marokashdagi Al-Qoraviun (859 yil), Misrdagi Al-Azhar (972 yil), Italiyadagi Balonya (1088 yil), Oksford (1096 yil ba’zi adabiyotlarda 1118 yil asos solishgan), Ispaniyadagi Salamanka (1134 yil), Parij (Sorbonna 1150 yil), Kembrij (1209 yil), Fransiyadagi Monpele (1220 yil), Ispaniyadagi Valyadolid (1241 yil), Madrid (Universitet Komplutense 1293 yil) universitetlari dastlabkilaridir. E’tibor berilsa dastlabki uch universitet jome’ masjid qoshidagi madrasa sifatida o‘z foliyatini boshlagan.

Ushbu tashkilotlarning keyinchalik tom ma'noda birlashuvi "universitet" deb yuritilgan. Ushbu holat ma'lum bir tashkilotlarning manfaati uchun xizmat qilgan, albatta. Bu tashkilot katolik cherkovi edi. Shuning uchun ham o'z manfaatlari uchun xizmat qilgan diniy tashkilotlarga universitetlar ochish uchun katolik cherkovi yorlig'i berilgan. Yorliqlarda universitetlarning "muxtoriyat huquqi" ham aks etgan bo'lib, unga ko'ra cherkov ilmiy darajalar berish, sud va boshqaruvni o'z qo'lida qoldirar hamda xohlagan vaqt uning faoliyatini tugatishi mumkin edi. Bir so'z bilan aytganda, o'rta asr Yevropa universitetlari cherkov yoki muayyan davlat rahbarlarining ko'rsatmasi asosida tashkil etilgan bo'lib, ma'lum ijtimoiy-siyosiy va diniy omillar ta'sirida shakllangan hamda asosan diniy ta'lim va cherkov falsafasi o'rgatilgan.

O'lkamizga arab tili va shu til asosidagi yozuv xalifalik istilosi davri bilan bog'liq holda kirib keldi va keyingi ilmiy, madaniy-ma'rifiy taraqqiyot uchun muhim vositaga aylandi. Bu voqealarning eng buyugi Qur'oni karimning nozil bo'lishi, islom dini va madaniyatining vujudga kelishi edi. VII asrning birinchi yarmida ro'y bergan ushbu voqelik keyinchalik o'zga yurtlarda ham ijobiy ta'sir ko'rsata boshlagan va birinchi navbatda insoniyat ilmiy tafakkurining yuksalishiga asosiy turtki bo'lgan. Natijada o'lkamizdan yuzlab qomusiy olimlar, mutafakkir-faylasuflar, buyuk muhaddislar, islomiy ilmlarning peshvolari, dunyoviy ilmlarda ulkan meros qoldirgan allomalar yetishib chiqdi (Muhammad al-Xorazmiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Mansur Moturidiy, Imom al-Buxoriy va h.k.). Arab tili esa ularning ilmiy ijodiy yutuqlarini olamga yoyilishiga xizmat qildi. Bu qadar yuksak tamadduniy cho'qqilarni ming yillar avval boshlangan ta'lim, xususan, madrasalar faoliyatisiz, ularda tahsil olgan ajdodlarimizning ilmiy merosisiz tasavvur etib bo'lmaydi[29, p. 301].

Arab tili bilan bir qatorda, Markaziy Osiyo xalqlari mahalliy tillarida fan va adabiyotning jadal rivoji ro'y berdi. Bir tomonda forsiyzabon, ikkinchi tomonda turkiy tilli ilmiy, badiiy, falsafiy ijodiy jarayon boshlanib, fan va ta'lim bilingvistik asosda yangi bosqich sari odimladi. Diniy va dunyoviy fanlar uzviy holda taraqqiy etdi.

Har qanday bilimlarning asosi Qur'oni Karim deb bilguvchi dinning ilk tarafdorlari fikri bilan ilk islom davrida tabiiy va manaviy-axloqiy bilimlar bilan chegaralanib qolmagan. IX-X asr bu bilimlar yuqori cho'qqisiga chiqa boshladi. O'z davri uchun ana shunday professional bilim beruvchi ta'lim maskanlari madrasa[31, p. 177] lar maydonga chiqdi. Masjidlarda ko'proq ibodat amalga oshirilganligi uchun ilmiy bahslar olib borishga mo'ljallangan alohida ta'lim maskani qurish zarurati yuzaga keldi. Oliy ta'lim dargohi madrasalar o'rta maxsus bilim yurtlaridan farq qilib, ta'limning oliy bosqichi madrasayi-ulum deb atalgan. Ular hozirgi universitet maqomida bo'lganidan madrasayi-ulum universitet tarzida izohlanadi.

Madrasayi ulum madrasayi oliya ham deb atalgan va oliy ta'lim muassasasi sifatida o‘z zamonining universiteti maqomida bo‘lgan mazkur oliy ta'lim dargohlarida ilmiy jihatdan yuksak darajalarga erishgan olimlar va mutafakkirlar to‘plangan va ularning faoliyati uchun tegishli shart-sharoitlar yaratilgan shaharlar bo‘lgan.

Tarixdan ma'lumki, islom dini bu ilm dinidir. Qur'onda ham ilm olish buyurilgan. Dastlabki Arab xalifaligi hukmronligi davrida ilm maskanlari asosan masjidlar bo‘lib, ilm majlislari shu yerda tashkil qilingan. Islom dini Markaziy Osiyo hududiga kirib kelgach (657-751 yillar), ibodatxonalar masjidga aylantirilgan va yangi masjidlar qurilgan. Manbalarga ko‘ra, Arab xalifaligining Movarounnahrdagi ilk madrasaga Buxoroda IX asr boshida hanafiy mazhabi faqihlaridan bo‘lgan Abu Hafs Kabiyr Buxoriy (767-832 yillar yashagan) rahnamoligida asos solingan. Madrasa "Forjak" nomi bilan zikr etiladi. Ushbu madrasada ilmlar diniy va dunyoviylikka ajratilmasdan, Qur'on, hadis, fiqh, aqida kabi ilmlar qatorida falsafa, tibbiyot, jug‘rofiya, handasa, adabiyot kabi fanlar o‘qitilgan. Forjak madrasasi yuz yilcha faoliyat ko‘rsatgan va Narshaxiyning keltirishicha, 937 yildagi yong‘in natijasida yaroqsiz holga kelgan[5, p. 56].

Samarqanddagi ilk oliy o‘quv yurti-madrasalar IX asrdayoq barpo qilingan bo‘lib unda o‘sha davrning eng mashhur olimlari dars berganlar. XI asrga kelib hukumat madrasalari tashkil etilgan va ularda diniy ta'limdangina emas, aniq fanlar bo‘yicha ham ma'ruzalar o‘qilgan. Har bir madrasa katta kichikligidan qat'iy nazar o‘z ta'lim dasturi, o‘quv qo‘llanmalari, ichki tartib-qoidalariga ega bo‘lgan. Madrasalar mudarrislaridan mustahkam bilim, ijobiy samara beradigan turli o‘qitish usullari talab etilgan[15, p. 106].

Mashhur dinshunos olim, buyuk alloma Abu Mansur ibn Muhammad ibn Mahmud al-Hanafiy al-Moturidiy as-Samarqandiy (870-944 yillar yashagan) va Abulqosim al-Hakim (953 yil vafoti) Samarqanddagi Raboti G‘oziyon masjidi[16, p. 88] qoshidagi madrasada tahsil ko‘rib, ustozi Muhammad ibn Fazl Balxiydan (xijriy 319 / milodiy 931 yil vafoti) fiqh va kalom ilmlaridan tahsil olganligi manbalardan ma'lum[4, p. 56]. Raboti G‘oziyon madrasasi IX asr Samarqandning Shayxzoda (Poyqaboq) darvozasi yaqinida, shahardagi ilk masjid-Namozgoh (Musallo) yonida (hozirgi Dahbed shohko‘chasida) joylashgan. "Qandiya" asarining "Raboti G‘oziyon zikri" bobida G‘oziylar darvozasi (keyinroq Shayxzoda va Poyqaboq deb atalgan) va G‘oziylar arig‘i (keyinroq Navodon arig‘i deb atalgan) yaqinida joylashgan masjidi jome' atrofida ancha g‘oziylarning qabrlari borligi yozilgan[19, p. 9-10]. Masjid va madrasaning shu nomda nomlanishi xam shu yerdagi g‘oziylarning qabrlari bilan bog‘liqdir (Bu joy hozirgi Shohizinda atrofida bo‘lgan)[20, p. 44-50]. Mamlakatimiz ta'limi tarixida madrasalar tizimi aynan shu davrda shakllandi. Dunyo ilm-fani markazi Movarounnahrga ko‘chdi.

V.V.Bartoldning fikricha, X-asrda Samarqandda turli oqimlarga mansub 17 ta madrasa bo‘lgan (mutaziliylar, karramiylar va boshqalar). Musulmon dunyosidagi madrasalar dastlab hukumat tomonidan emas, balki muxolif oqimlar tomonidan yaratilganligini ko‘rsatadi[11, p. 225].

Madrasalar ichida eng mashhuri 1066 yilda barpo qilingan Qoraxoniylar davriga oid Ibrohim Tamg‘ochxon madrasasi edi[17, p. 148]. Ibrohim Tamg‘ochxon (1052-1068 yillarda Samarqandda hokimlik qilgan) davrida Markaziy Osiyoning katta hududlarida tinchlik, osoyishtalik, siyosiy barqarorlik hukm surgan[30, p. 62]. Savdo va iqtisodiy faollik oshgan bir davrda ilm fan va madaniyat rivojlangan[13, p. 172]. Madrasa haqida B.Valixo‘jaev va K.Kattaevlar o‘z asarlarida, shuningdek, islomshunos olim I.I.Bekmirzaevning qadimiy fikhiy asar “Shurut al-Muhit”[12, p. 12] dan madrasa vaqfnomasining o‘zbekcha tarjimasida qimmatli ma’lumotlar keltiriladi. Madrasa “Masjid, darsxona, Qur’on o‘qish joyi, Qur’on o‘qiladigan yirik, katta xona bino (majlis mukra), “Odob” darsi o‘qitiladigan bino, hovli atrofidagi kichik hujralar; hovli (sahat) va bog‘ (bo‘ston) qismlaridan iborat bo‘lgan. Madrasaning sharqiy va ehtimol janubiy kirishlari bo‘lgan[26, p. 99,145,130,134,139].

O.G.Bolshakov keltirishicha, madrasaga tegishli vaqfnomaga ko‘ra, xodimlarning vazifasiga ko‘ra (mudarrislar va xodimlar ishining murakkabligiga qarab) quyidagicha mablag‘ taqsimlangan: bosh mudarrisga bir yilda 2000 ming dirham, fiqhdan dars beruvchi mudarrisga-3600 dirham, ilmi adab (adabiyotdan) dars beradigan mudarrisga-1200 dirham, Qur’ondan dars beruvchiga-1500 dirham, kutubxonachiga-1200 dirham to‘langan[13, p. 173]. Qizig‘i shundaki, vaqf hujjatida “Agar madrasaga ehtiyoj yo‘qolib qolsa yoki ularni qayta tiklashning imkoni bo‘lmay qolsa, bu vaqflar abadiy kambag‘al musulmonlar qo‘liga o‘tadi”[14, p. 51] deyilgan edi.

Najmiddin Abu Hafs Ahmad Nasafiyning “Matla’ an-nujum va majma’ al-ulum” (“Yulduzlarning chiqishi va fanlar majmuasi”) asarida keltirilishicha, Ibrohim Tamg‘ochxon madrasasida mudarrislik qilgan Abu Ali Husayn al-Haqoniy o‘z ustozi Samarqanddagi “Amir” guzarida joylashgan ilk madrasa Raboti G‘oziyon madrasasining mudarrisi ekanini yozadi[3, p. 4-5]. Demak bu paytda (XI asr ikkinchi yarmi) Raboti G‘oziyon madrasasi o‘z faoliyatini davom ettirgan.

O‘z davrida Botirxon Valixo‘jaev Samarqand dorilfununi tarixini IX asrlardanoq paydo bo‘la boshlagan madrasalar bilan bog‘lashni ilgari surgan edi. IX - X asrlarning o‘zidayoq Samarqanddagi madrasalar va madrasayi oliyalarda faoliyat ko‘rsatgan, ya’ni, mudarrislik qilgan alloma o‘tmishdoshlarimiz - Shayx Abu Mansur Moturidiy (870-944 yillar yashagan), Abulqosim Samarqandiy (856-946 yillar yashagan), Abu Bakr Ahmad Juzjoniy (vafoti 881 yil), Nusayr ibn Yahyo

(vafoti 881 yil), Fakix Abulays Samarqandiy (vafoti 1003 yil) va boshqalarning nomlari borligi ham bunga asos bo‘la oladi[15, p. 179].

IX-X asrlarda Samarqandning Abu Hafs So‘g‘diy (X asrda yashagan), Ali Samarqandiy (X asrda yashagan), Abulanbag‘iy (X asrda yashagan), Xuraymiy (IX asrda yashagan) va boshqa adiblarning nomi she’riyat muxlislariga ma’lum. Ular orasida Abu Abdullo Rudakiy Samarqandiy (858-941 yillarda yashagan) alohida ajralib turadi. XI-XII asrlarda Samarqand adabiy muhitida ko‘plab shoir va mutafakkirlar faoliyat ko‘rsatdilar. Ular orasida Nizomiy Aruziy (XI asrning 90 yillari - Samarqand 1160 yillarda yashagan), Rashidiy Samarqandiy (XII asr boshlarida yashagan), Shixob al-Din Amak Buxoriy (1049-1149 yillarda yashagan), Ashraf Ali Shatranjiy Samarqandiylar (XII asrda yashagan) ham bor[27, p. 40,57]. 960-979 yillarda Samarqandda bo‘lgan arabistonlik tarixchi, sayyoh Abulqosim ibn Xavqal “Masolik al-mamolik” asarida “Samarqandda Movarounnahrning nozik didli odamlari to‘plangan, ularning eng yaxshilari bu yerda tarbiya olganlar”[6, p. 8] deb bejiz yozmagan edi.

Ilk madrasalar tarixiga oid ushbu ma’lumotlardan yuz yil o‘tib, XI asrda Sulton Mahmud G‘aznaviy (998-1030 yillar hukmronligi) tomonidan Hind yurishi natijasida tushirgan o‘lja evaziga G‘azna, Buxoro, Samarqand kabi shaharlarda jome’ masjidi va madrasa qurilganligi (1002-1028 yillar), hukumat idoralari tomonidan qurilgan madrasa haqidagi birinchi ma’lumot edi[5, p.57].

XII-XIII asrlarga kelibgina (ya’ni, oradan 200-300 yillar o‘tgandan so‘ng), Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika, Suriya, Iroq va Misrda madrasalar paydo bo‘la boshlagan. Ilm-fanning - oltin davri hisoblangan al-Buxoriy, al-Moturidiy va al-Marg‘inoniylar davrida ma’rifat dargohlari hisoblangan madrasalarning ko‘pligi jihatidan Samarqand islom olamida eng oldingi o‘rinda tursada, Somoniylar davrida 17 ta madrasagina manbalarda qayd etilgan[20, p. 45]. Vaholanki, manbalarning dalolat berishlaricha, o‘rta asrlarda Samarqandning har bir mahallasida masjid, ko‘pgina katta ko‘cha va guzarlarida esa madrasalar bo‘lgan. Bu hol, ayniqsa, somoniy, temuriy va ashtarxoniylar davrlariga oid manbalarda ko‘zga yaqqol tashlanadi[8, p. 19]. Madaniyat o‘choqlarining bu qadar ko‘pligi sabablaridan biri shundaki, o‘sha vaqtlarda boyroq kishilarning har biri savob yo‘lida kichikroq masjid yoki boshqa inshootlar qurishgan. Ulug‘roq va badavlatroqlari (jumladan, hokimlar, qozilar va yirik olimlar) esa shaharning yosh ahli ta’lim olsin, deb o‘z halol mablag‘lariga madrasalar tiklaganlar, jome’ va ko‘priklar qurganlar, ariqlar qazdirishgan[20,p. 46].

Musulmon Renessansining taniqli tadqiqotchilaridan biri Adam Metsning ma’lumotlariga ko‘ra, islom mamlakatlaridagi eng birinchi bilim maskanlari-madrasalar IX-X asrlarda Sharqning yirik madaniy markazlari bo‘lmish Samarqand, Buxoro, Balx va Nishopurda paydo bo‘lgan[25, p. 154].

X-asrning boshlarida Somoniylar davrida vazirlik lavozimida ishlagan Abu Abdullo ibn Ahmad Jayhoniy (vafoti 941 yil) o‘zining "Ashkol al olam" asarida Samarqand ahlining doimiy odati ziyofat tashkil etish, rabotlar qurish xayriyalar berish, masjid va madrasalarga vaqf sifatida mol davlatlarini sarf etishdan iborat ekanligini qayd etadi[15, p. 16-17]. Bundan ma'lum bo‘ladiki, o‘sha davrdagi Samarqandda "Madoris" - madrasalar ko‘p sonli bo‘lgan. Bu ma'lumotni Samarqand tarixiga bag‘ishlangan boshqa asarlar ham tasdiqlaydi. Bu davrga oid madrasalar vaqfnomalarining aksariyati saqlanmaganligi bois madrasalarning tuzilishi, binolar majmuasi, o‘quv jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘pgina masalalar noaniq qolmoqda.

Samarqand dunyoviy hokimiyat poytaxti sifatida o‘zining ilmiy va pedagogik faoliyati uchun yetarli sharoitga ega bo‘lgan o‘sha davr olimlar uchun madaniyat markazi edi. Masalan, Umar Xayyom (1048-1131 yillar yashagan) o‘z bilimini oshirish uchun bir muddat Samarqandda yashagan. Hatto 1069 yilda Samarqandda "Algebra va allukabal masalalari yechimi haqida (Risola fil-baraxin ala masa'il aljabr val-muqobala)" nomli risola ham yozgan.

Afsuski, Samarqandda barpo qilingan ilk madrasalar 1220 yilda yuz bergan mo‘g‘ullar bosqini paytida yo‘q qilingan[9, p. 42-43]. Mo‘g‘ullar bosqinidan so‘ng, XIII asrning ikkinchi yarmida Samarqandda madrasalar faoliyatini qayta tiklashga urinishlar Mahmud Yalavochning o‘g‘li Masudbek (1238-1289 yillar yashagan) tomonidan amalga oshirildi. Jaloliddin al-Istrafshoniy Mahmud Yalavochning o‘g‘li Masudbek tomonidan Samarqandda qurilgan "Mihkad"[24, p. 232] madrasasida mudarrislik qilgan[10, p. 67].

Samarqandda nafaqat diniy, balki dunyoviy madaniyat ham rivojlandi. 2000-2005 yillar mobaynida olib borilgan arxeologik qazilmalar vaqtida o‘rta asrlarga mansub qal'adan XII asrning ikkinchi yarmida Tamg‘ochxon Ibrohim Husayn tomonidan barpo etilgan saroy qoldiqlari topilgan. Bino monumental devor surati bilan bezatilgan. Unda saroy hayotiga xos sahnalar, ov ko‘rinishlari, afsonaviy syujetlar aks ettirilgan. O‘rta asr musavvirlari syujetli rangtasvir asarlariga Qur'on oyatlari va forsiy baytlar aks ettirgan. Bu buyuk rangtasvir san'ati yodgorligining noyobligi shundaki, u O‘rta Osiyodagi o‘rta asrlarga xos monumental rangtasvir san'atining yagona yodgorligidir[30, p. 64].

Xullas, dunyoda mavjud ilk madrasalarning turli omillar va sharoitlar ostida vujudga kelganligini hisobga olgan holda aytish mumkinki, ulardan farqli ravishda Samarqandda vujudga kelgan dastlabki madrasalar mintaqada qadimdan mavjud bo‘lgan ilmiy-ma'naviy muhit ta'sirida vujudga keldi. Bu esa rivojlangan o‘rta asrlardayoq vujudga kelgan Qusamiya, Raboti G‘oziyon, Ibrohim Tamg‘achxon madrasalari faoliyati misolida ko‘zga yaqqol tashlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. G'oyibov B. Sug'diy yozuv madaniyatimiz ko'zgusi. ... – B. 278–284.
2. https://ru.wikipedia.org/wiki / Мечеть_аз–Зайтуна / University_of_al–Qarawiyyin / Университет_аль–Азхар / Болонский_университет / Саламанкский_университет, Анна Папченко. Саламанка – город-университет. // Вокруг света. Дата обращения: 26 декабря 2010. / Парижский_университет / Кембриджский_университет / Университет_Монпелье / Вальядолидский_университет / Мадридский_университет_Комплутенсе.; John Richard Thackrah. The university and colleges of Oxford. – Dalton, 1981. – P. 5.
3. Xalmuradov R.I. O'zbekiston universitetlari necha yoshda? // SamDU Ilmiy Axborotnomasi, 2017, Maxsus son (104). – B. 4-6.
4. Абдуллаев И., Ҳикматуллаев Ҳ. Самарқандлик олимлар. – Тошкент: Фан, 1969. – Б. 12; Каттаев К. Самарқанд буюк алломалари. – Самарқанд: Зарафшон, 1998. – Б. 56.
5. Абу Бакр Мухаммад ибн Жаъфар Наршахий. Бухоро тарихи / Форс-тожик тилидан А.Расулов таржимаси. – Тошкент: Фан, 1966. – Б. 56.
6. Абу-л-Касима Ибн-Хаукаля. Китаб масалик вал-мемалик (Книга "Путей и стран") // Труды Среднеазиатского Государственного университета. Археология Средней Азии. IV. – Ташкент, 1957. – С. 8.
7. Авесто. Избранные гимни // перевод И.М. Стеблен-Каменского. – Душанбе: Адиб. 1990. – С. 4-5.
8. Амир Темур ва темурийлар даврида маданият ва санъат // Мақолалар тўплами. – Тошкент, 1996. – Б. 19.
9. Аҳмедов М. Қ. Ўрта Осиё меъморчилиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 1995. – Б. 42-43.
10. Бабаджанов Б.М. Ислам и философия // Сокровища Восточных рукописей Института Востоковедения АН РУз. – Ташкент: представительство ЮНЕСКО, 2012. – С. 67.
11. Бартольд В. В. Общие работы по истории Средней Азии // Сочинения. Том.II. Часть. – Москва: Наука, 1963. – С. 225, Бартольд В. В. История культурной жизни Туркестана. – Ленинград: Изд. АН СССР, 1927. – С. 53
12. Бекмирзаев И. И. X-XIII асрлар Мовароуннаҳр ижтимоий муносабатларига оид суд процессуал ва нотариал ҳужжатлар: Тарих фан. докт. диссертацияси. – Тошкент: ЎзФА ТИ, 2011. – Б. 12.
13. Большаков О. Г. Два вакфа Ибрагима Тамгачхана в Самарканде. В кн.: Страны и народы Востока. – Вып. X. – Москва: Наука, 1971. – С. 172.
14. Буниятов Д.З., Гасанов Т.Б. Два самаркандских вакфа середины XI в. // Восточное историческое источниковедение и вспомогаетельные исторические дисциплины. – Вып. 2. – Москва: Наука, 1994. – С. 51.
15. Валихўжаев Б. Самарқандда олий таълим – мадрасаи олия – университет тарихидан лавҳалар. – Самарқанд:. Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2001. – Б. 106.

16. Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур / Араб тилидан У.Уватов таржимаси. – Тошкент: Меҳнат, 1992. – Б. 88.

17. История Самарканда. Том 1. / И.Мўминов таҳрири остида. – Тошкент: Фан, 1969. – С. 148.

18. Исҳоқов М. Уч алфавитли ёзув //Фан ва турмуш. – Тошкент: 1983. – №3. – Б. 18-19.

19. Каттаев К. Қандия. – Самарқанд: Сўғдиёна, 2016. – Б. 9-10.

20. Каттаев К. Самарқанд мадрасалари ва илм фан ривожи. – Тошкент: Қамар-медия, 2020. – Б. 44-50.

21. Қаюмов А., Исҳоқов М., Отахўжаев А., Содиқов Қ. Қадимги ёзма ёдгорликлар. – Тошкент: Ёзувчи, 2000. – Б. 4-31, 33-80.

22. Ладыжец Н. Университеты Европы // Вестник высшей школы. – 1991. – № 9. – С. 80-84.

23. Лившиц В.А., Хромов А.Л. Согдийский язык // Основы иранского языкознания. Среднеиранские языки. – Москва: Наука, 1981. – С. 347-541.

24. Маликов А.М. История Самарканда (с древних времен до средины XIV века). – Ташкент: Paradigma, 2017. – С. 232.

25. Мец Адам. Мусульманский ренессанс / Э.Э. Бертелъс таржимаси. – Москва: Наука, 1966. – С. 154.

26. Немцева Н. Б. Медресе Тамгач-Богра-хана в Самарканде (Из археологических работ в ансамбле Шахи Зинда). В книг.: Афрасиаб. – Вып. III. – Ташкент: Фан, 1974. – С. 99, 145, 130, 134, 139.

27. Низами Арузи Самарканди. Собрание редкостей или четыре беседы / Перевод с персидского С.И. Баевского и З.Н. Ворожейкиной. – Москва: Восточная литература, 1963. – С. 40, 57.

28. Родина Л.Л., Николаева Н.В., Пономарев А.Я. История университетов из истории университетов. 2015 Вестник СПбГУ, – № 4. – Том 2 (60). – С. 405-427.

29. Хайруллаев М. Уйғониш даври ва Шарқ мутаффаккирлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1971. – Б. 301.

30. Ходжиев А., Турдиева Д. Қорахонийлар хоқонлиги тарихи Хитой Халқ Республикаси олимлари тадқиқотларида. – Тошкент: Фан зиёси, 2021. – Б. 62.

31. Madrasa (arab. - dars o'qitiladigan joy, darsxona) - islomda o'rta va oliy maxsus diniy o'quv yurti. Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida ulamolar va maktabdorlar, davlat idora xodimlarini tayyorlagan. Islom mamlakatlarida madrasa haqidagi ilk ma'lumotlar X - asrga oid bo'lib, ular Xuroson va Movarounnahrda joylashgan. Ислом энциклопедияси.// Зуҳриддин Ҳусниддинов таҳрири остида ©"Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2004. – Б.177..

32.Qusamiya madrasasi Banni Nojiya qabristoni (hozirgi Shohizinda qabristoni) hududida joylashgan.

33. . Tamg‘och Bug‘raxon madrasasiga tegishli yuqoridagi vaqf hujjatining bir nechta nusxalari Toshkentda O‘z FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar fondida ham saqlanadi

IMOM AL-MOTURIDIYNING ILMIY MEROSINING YOSHLAR TA'LIM TARBIYASIDAGI O‘RNI VA ROLI

O‘rinboyeva Madina
Tarix fakulteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya. Maqolada Imom Abu Mansur al-Moturidiy ilmiy merosi va uning yoshlar ta'lim-tarbiyasidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Allomaning aqidaviy qarashlari, Qur'on va hadis ilmlarini sharhlashdagi yondashuvlari hamda aql va naql uyg‘unligiga asoslangan metodologiyasi yoritiladi. Moturidiy ta'limotining asosiy tamoyillari – sog‘lom e'tiqod, aqlni qadrlash, adolat va ma'naviy barkamollikka intilish – yoshlarni mustaqil fikrlash, ijtimoiy mas'uliyat va ma'rifat yo‘lida tarbiyalashning muhim omili sifatida ko‘rsatilgan. Maqolada mutafakkir merosining zamonaviy ta'lim tizimiga tatbiq etish imkoniyatlari ham ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Imom al-Moturidiy, kalom ilmi, ilmiy meros, aqidaviy ta'limot, mutakallim, Ta'vilot ahli as-sunna, Kitab at-tavhid, motudiya, ashariya.

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti, ma'naviy yuksalishi va yoshlarning barkamol inson bo‘lib voyaga yetishi masalasi davlat siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Yoshlar qalbida sog‘lom dunyoqarash, mustahkam e'tiqod, ilmga chanqoqlik va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg‘ularini shakllantirish ularning kelajagini, qolaversa, xalqimiz istiqbolini belgilaydi. Shu jihatdan milliy va diniy merosimizni chuqur o‘rganish, buyuk allomalarimiz qoldirgan bebaho ilmiy qarashlarni ta'lim-tarbiyada qo‘llash alohida ahamiyat kasb etadi. Sharq mutafakkirlari orasida Imom Abu Mansur al-Moturidiy islomiy aqidashunoslik maktabining asoschilaridan biri sifatida alohida o‘rin tutadi. U o‘z davrida Qur'on va hadis ilmlariga chuqur ilmiy sharhlar bergan, inson aqli va tafakkurini qadrlash, dalil va mantiqqa asoslangan yondashuvlarni ilgari surgan ulug‘ mutakallim bo‘lgan. Moturidiy ilmiy merosining asosiy tamoyillari – aql va naql uyg‘unligi, inson erkinligi, e'tiqod mustahkamligi, adolat, ijtimoiy mas'uliyat va ma'naviy barkamollikni targ‘ib qilishdan iboratdir. Bugungi kunda yosh avlodni barkamol inson sifatida tarbiyalashda ushbu qarashlar alohida dolzarblik kasb etadi. Zero, yoshlarni mustaqil fikrlashga, adolat va haqiqatni tan olishga, ilm-fan taraqqiyotiga intilish ruhida tarbiyalash ularning hayotiy pozitsiyasini

mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuning uchun ham Imom al-Moturidiy merosini o‘rganish, uni ta’lim-tarbiyaga tatbiq etish nafaqat diniy-ma’naviy, balki ijtimoiy va ilmiy ahamiyatga ega masaladir. Mazkur maqolada mutafakkirning ilmiy qarashlari, ularning yoshlar ta’lim-tarbiyasidagi o‘rni hamda zamonaviy ta’lim jarayoniga integratsiyasi haqida so‘z yuritiladi.

Imom Abu Mansur al-Moturidiy hayoti va ilmiy merosini o‘rganishga bag‘ishlangan adabiyotlar anchagina boy va rang-barangdir. Avvalo, musulmon dunyosining klassik manbalari – Qur’on, hadis to‘plamlari va fiqh hamda kalom ilmlari haqidagi asarlar mutafakkir ta’limotining shakllanishida asosiy manba bo‘lib xizmat qilgan. Moturidiyning o‘z asarlari – “Kitob at-Tavhid” va “Taviloti ahli as-sunna” asarlari uning aqidaviy qarashlarini to‘laqonli aks ettiradi va keyingi tadqiqotlar uchun tayanch bo‘lib kelmoqda. So‘nggi davrlarda o‘zbek va xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda Moturidiy merosi har tomonlama tahlil qilingan. Xususan, Sharq mutafakkirlari tarixiga oid fundamental asarlarda uning ilmiy faoliyati, aqidaviy qarashlari va hanafiylikdagi o‘rni keng yoritilgan. Zamonaviy tadqiqotlarda esa mutafakkir merosining yoshlar ta’lim-tarbiyasidagi ahamiyati, uning g‘oyalari asosida sog‘lom dunyoqarashni shakllantirish masalalari alohida ta’kidlanmoqda. Adabiyotlarning umumiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, Imom al-Moturidiy nafaqat diniy-ma’rifiy sohada, balki falsafa, mantiq va tafsir ilmlarida ham o‘z maktabini yaratgan. Bugungi kunda uning qarashlari milliy ta’lim tizimida yoshlar ma’naviy barkamolligini ta’minlash uchun muhim manba sifatida baholanmoqda.

Imom Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud al-Moturidiy taxminan IX asrning ikkinchi yarmida Movarounnahrning qadimiy ilm markazlaridan biri bo‘lgan Moturid (hozirgi Samarqand shahri yaqinidagi qishloq)da tug‘ilgan, shuning uchun unga “Moturidiy” nisbasi berilgan. Ayrim manbalar guvohlik berilishicha, allomaga Ansoriy nisbasi ham berilgan. U o‘z davrida yirik mutakallim, faqih olim va mufassir, kalom ilmining moturidiylik oqimi asoschisi deb qaralib, juda shuhrat qozongan va hech kimga nasib qilmagan nomlar bilan ulug‘langan. Misol uchun “Imom al-hudo” – “Hidoyat yo‘li imomi”, “Imom al-mutakallimon” – “Mutakallimlar imomi” va boshqalar. Ilmiy faoliyatining katta qismini Samarqandda o‘tkazgan va shu yerda o‘zining mashhur Moturidiya aqidaviy maktabiga asos solgan. Uning qarashlari Rum, Buxoro, Balx, Xorazm, Samarqand, Farg‘ona va Hindistondek katta musulmonlar o‘lkalarining barchasiga yetib borgan, bu mamlakatlarda yashovchi barcha ellar Moturidiya e’tiqodida bo‘lganlar. Moturidiy dastlab Qur’on, hadis, fiqh va kalom ilmlarini o‘z davrining yetuk olimlaridan o‘rgangan. Uning ustozlari orasida Abu Bakr al-Juzjoniy, Abu Nasr Ahmad al-Iyodiy kabi mashhur faqih va mutakallimlar bor edi[7, b. 182-183]. Shu ilmiy muhitda shakllangan Moturidiy keyinchalik hanafiylik fiqhiga asoslangan

aqidaviy maktabni rivojlantirdi va mustaqil ta'limot darajasiga ko'tardi. Uning hayoti ilmga bag'ishlangan bo'lib, asarlarida Qur'on oyatlari va hadislarni chuqur mantiqiy sharh qildi, diniy aqidalarni aql bilan uyg'un holda talqin etishga alohida e'tibor berdi. Moturidiy musulmon ummatining birligi, aqidaviy barqarorlik va insonlarning to'g'ri e'tiqodda bo'lishini muhim deb bildi. Abu Mansur Moturidiy 944-yilda Samarqandda vafot etgan va shu yerdagi chokardiza qabristoniga dafn etilgan. Uning qabri bugungi kungacha ziyoratgoh sifatida e'zozlanib kelinmoqda. Bugun ham u qoldirgan ilmiy meros musulmon dunyosining turli mintaqalarida o'rganilib qolmay Yevropa davlatlari orasida ham kata qiziqishlarga sabab bo'lmoqda. Xususan Belarus muftiyatining Moturidiy diniy ta'limoti bo'yicha Markaziy Yevropa markazini tashkil etishni maqsad qilib qo'yganligini misol qilishimiz mumkin[6].

Mutakallim olim Abu Mansur Moturidiyning ilmiy me'rosiga oid asarlari 15 tacha bo'lishi mumkin deb aytiladi:

1) "Kitab ta'vilot-ul-Qur'on" yoki ikkinchi nomi "Taviloti ahli as-sunna"

2) "Kitab ul-jadal" (Munozara kitobi)

3) "Kitab ul-usul" (Uslubiyotga oid asar)

4) "Kitab at-tavhid" (Yakkaxudolik haqida kitob)

5) "Kitab bayan vahm ul-mu'tazzila" (Mu'tazila bid'at-g'avg'olari va undan hayiqmaslik haqida kitob)

6) "Kitab maahaz ash-Shari'a" (Shariat asoslari va sofligi haqidagi kitob)

7) "Kitab ul-maqolot fi-usul ad-din" (Diniy ilmlar uslubiyotiga bag'ishlangan munozaraviy maqolalardan tuzilgan kitob)

8) "Risolat ut-tavhid" (Allohninh takkayu yagonaligiga, birligiga nazariy asoslar haqidagi kitob)

9) "Kita bar-Radd ala al-Qaromita" (Qarmatiylarga raddiyalarga bag'ishlangan kitob) va boshqalar[2, b. 10-11]. Lekin baxtga qarshi allomaning ilmiy merosidan bizgacha faqat 2ta asarigina yetib kelgan. Ular "Kitab al-tavhid" va "Ta'vilot-ul-Qur'on" asarlaridir. Manbalarda Moturidiyning qalamiga mansub deb hisoblanadigan, ammo hali o'z isbotini topmagan asarlar ham uchraydi.

Imom al-Moturidiyning shogirdlari va izdoshlari ko'p bo'lgan. Ular orasida Abul-Lays as-Samarqandiy, Najmiddin Umar an-Nasafiy, Abul-Hasan Ali ibn Sayyid ar-Rustag'foniy, As-Safar al-Buxoriy, Abul-Yisr al-Pazdaviy, Abul-Hasan al-Pazdaviy, Abu Ishoq ibn Muhammad ibn Ismoil, Abul-Mu'in an-Nasafiy, Abu Muhammad Abul-Karim ibn Muso ar-Pazdaviy, As-Sabuniy al-Buxoriy va Umar al-Hanafiylarni tilga olish mumkin. Ularning ichida eng mashhurlaridan biri Abul-Mu'in an-Nasafiy bo'lib, u Moturidiya ta'limotining taraqqiy etishida katta hissa qo'shgan. Ayniqsa, uning "Tabsirat al-adilla" ("Dalillar ko'rsatganda") asarida

Imom al-Moturidiy va uning ta'limoti haqida muhim ma'lumotlar bayon etilgan[3, b. 82].

Imom Abu Mansur al-Moturidiy merosiga bag'ishlangan adabiyotlarni tahlil qilish natijasida bir qator muhim xulosalarga kelish mumkin. Jumladan, Komilxon Kattayev o'zining "Samarqandnoma" asarida Moturidiy shaxsini Samarqand zaminida yetishib chiqqan eng buyuk mutafakkirlardan biri sifatida ta'riflaydi. U, ayniqsa, mutakallimning Movarounnahr ilmiy muhitida tutgan o'rni, Qur'on tafsiriga qo'shgan hissasi va aqidaviy masalalarda hanafiylik maktabini mustahkamlashdagi xizmatlarini alohida ta'kidlaydi[5, b. 195-200].

Hamidxon Islomiy o'z asarida esa Moturidiyning "Kitob at-Tavhid" va "Ta'vilot al-Qur'on" asarlariga e'tibor qaratadi. Muallif ta'limotda aql va naql uyg'unligi, dalillarga tayanish va insonning irodasi masalalarini ilmiy asoslab berganini ko'rsatadi. Uning fikricha, bu qarashlar bugungi yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun ham dolzarbligini yo'qotmagan[2;].

Keyingi tadqiqotchilardan biri – zamonaviy olimlar tomonidan yozilgan maqolalarda – Moturidiy ta'limotining pedagogik jihatlari ochib beriladi. Xususan, yoshlarni mustaqil fikrlashga, haqiqatni mantiqiy dalillar asosida anglashga da'vat qilishi, inson mas'uliyatini ta'kidlashi va adolatni oliy qadriyat sifatida ko'rsatishi zamonaviy ta'lim tizimida alohida ahamiyatga ega ekani qayd etiladi. Umuman, adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, Imom al-Moturidiy nafaqat diniy-ma'naviy sohada, balki pedagogik va ijtimoiy hayotda ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Uning qarashlari yoshlar tarbiyasida sog'lom dunyoqarash va ma'naviy barkamollikka erishishning ishonchli manbasi sifatida e'tirof etilmoqda.

Imom Abu Mansur al-Moturidiyning aqidaviy va ilmiy ta'limoti – aql bilan naqlni uyg'unlashtirish, dalil va mantiqqa tayanish, insonning irodasi va mas'uliyatini ta'kidlash – bugungi pedagogik vazifalar uchun beqiyos manbadir. Ushbu tamoyillar yoshlarni mustaqil fikrlashga, haqiqatni mantiqiy asosda anglashga va ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga sodiq bo'lishga yo'naltiradi. Oradan asrlar o'tishiga qaramay ulug' vatandoshimizni o'rganish hali hamon davom etmoqda – xalqaro va mahalliy darajada. So'nggi yillarda Moturidiyga bag'ishlangan xalqaro ilmiy tadbirlar o'tkazilishi (masalan, 2020 yil 3-5-mart kunlari Samarqandda bo'lib o'tgan Xalqaro Maturidiy konferensiyasi), bu uning ilmiy merosiga global qiziqishning davom etayotganidan dalolatdir. Bu tadbirlar nazariy va amaliy muammolarni muhokama qilish, yangi tadqiqotlarni rag'batlantirish vazifasini bajaradi. Imom Moturidiy tavalludining yirik yubileylari O'zbekistonda rasmiy tarzda nishonlangan; masalan, davlat qarorlarida uning asarlarini chop etish, pochta markalari chiqarish kabi tadbirlar nazarda tutilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning tashabbusi bilan Moturidiyning qabri va yodgorlik majmuasi Samarqandda qayta tiklangan va

bunyodkorlik ishlari turli bosqichlarda amalga oshirilgan – ayniqsa 2000 yilda 1130-yillik nishonlanish doirasida yodgorlik kompleksi qayta barpo etilgani shular jumlasidandir. Bu inshootlar nafaqat tarixiy-madaniy obekt sifatida, balki ilmiy-ta'limiy markaz va ziyorat joyi sifatida ham rivojlanmoqda; ularning doimiy rekonstruksiya va saqlash ishlari Moturidiy merosining jamoat hayotidagi ahamiyatini oshiradi[8;].

Xulosa. Abu Mansur al-Moturidiy merosi nafaqat o‘z davri uchun, balki bugungi kunimiz uchun ham nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Uning asarlarida aql va tafakkurni qadrlash, ilm orqali haqiqatni anglash, adolat va bag‘rikenglikka intilish g‘oyalari asosiy o‘rin egallagan. Shu bois, Moturidiy ta'limoti yoshlarning dunyoqarashini shakllantirishda, ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatishda bebaho manba bo‘lib xizmat qiladi. Bugun ta'lim va tarbiya jarayonida yoshlarimizni ilmiy merosga tayanib tarbiyalash nihoyatda muhim. Moturidiy o‘z qarashlarida islom aqidalarini sog‘lom aql bilan tushuntirib, turli noto‘g‘ri yo‘nalishlarga qarshi dalillar bilan javob bera olgan. Bu jihati bilan u yoshlarni oqni qoradan ajrata olishga, ilm va mantiq asosida qaror qabul qilishga o‘rgatadi. Shuningdek, Imom al-Moturidiy insonni axloqiy jihatdan yetuk bo‘lishga, jamiyat oldidagi mas'uliyatini anglashga chorlaydi. Bu esa bugungi yoshlar tarbiyasida, ularning vatanparvarlik, milliy va diniy qadriyatlarga sodiq bo‘lib voyaga yetishida juda katta ahamiyatga ega. Xulosa qilib aytganda, Moturidiy ilmiy merosi yoshlar uchun nafaqat diniy bilimlar manbai, balki to‘g‘ri yashash, hayotga oqilona yondashish va jamiyatda o‘z o‘rnini topishda ham yo‘l ko‘rsatuvchi bebaho ma'naviy asosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abu Tohirxo‘ja Samarqandiy. “Samariya”
2. Hamidxon Islomiy. Sulton ul-mu'izuddin Abu Mansur Moturidiy As-Samarqandiy. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent – 2000
3. Jumayeva N. Sharq allomalarining ilmiy merosi. O‘quv qo‘llanma. Durdona. Buxoro – 2022
4. Karimov I. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz Imom Moturidiy tavalludining 1130 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda so‘zlagan nutqi. Toshkent - 2001
5. Komilxon Kattayev. “Samarqandnoma” 4-to‘plam. Mashhur-press. Toshkent - 2007
6. Namozov B. Sharq allomalarining ilmiy merosi. O‘quv qo‘llanma. Durdona. Buxoro – 2022
7. Narmanov F. Sharq allomalarining ilmiy merosi. O‘quv qo‘llanma. Tamaddun. Toshkent - 2022
8. Vazirlar mahkamasining “Imom Abu Mansur al-Moturidiy tavalludining 1130 yilligini nishonlash to‘g‘risidagi 1993-yil 3-dekabr, 517-son qarori

IMOM MOTURIDIY AQIDASIDA MO'TADILLIK TAMOYILLARI VA ULARNING ZAMONAVIY RADIKAL G'OYALARGA QARSHI MAFKURAVIY IMMUNITET SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

Faxritdin Xaitovich Xudoynazarov
Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi Ilmiy tadqiqot bo'limi xodimi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Imom Moturidiy aqidasidagi mo'tadillik tamoyillarining zamonaviy radikal g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitet shakllantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Aql va naql uyg'unligi, takfirdan tiyilish, bag'rikenglik kabi Moturidiy ta'limotining asosiy jihatlari ekstremizmga qarshi kurashda muhim nazariy-metodologik asos ekanligi ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: Imom Moturidiy**,** Moturidiylik, aqida, mo'tadillik, radikalizm, ekstremizm, mafkuraviy immunitet, aql va naql, bag'rikenglik, takfir.

Kirish. Globallashuv davrida diniy ekstremizm va radikalizmning turli ko'rinishlari jamiyat barqarorligiga jiddiy tahdid solmoqda. Ushbu tahdidlarga qarshi kurashda faqat kuch ishlatish usullari etarli emas, balki mustahkam mafkuraviy-intellektual asosga ega bo'lish muhim. Imom Moturidiy ta'limotida ilgari surilgan aql va naql uyg'unligi, mo'tadillik va bag'rikenglikka asoslangan aqidaviy tamoyillar sog'lom diniy dunyoqarashni shakllantirish va radikal g'oyalarga qarshi samarali mafkuraviy immunitet hosil qilish uchun muhim nazariy-metodologik manba hisoblanadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha uzluksiz olib boriladigan ishlar biz uchun dolzarb ahamiyatga egadir" [1]. Bu borada mo'tadil diniy qarashlarni shakllantirish va yoshlarni har qanday g'arazli g'oyalardan asrash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Ayniqsa, milliy qadriyatlarimizga asoslangan diniy ma'rifat va ma'naviy tarbiya tizimini takomillashtirish orqali yosh avlodda sog'lom dunyoqarashni shakllantirish bugungi kun talabidir.

Bugungi kunda dunyoning turli mintaqalarida dinni niqob qilib olgan ekstremistik guruhlar tomonidan sodir etilayotgan zo'ravonliklar islom dinining asl mohiyatiga soya solmoqda. Bunday sharoitda islomning insonparvarlik, bag'rikenglik va mo'tadillikka asoslangan ta'limotlarini, xususan, mintaqamiz uchun an'anaviy bo'lgan Moturidiy aqidasini chuqur o'rganish va keng targ'ib qilish har qachongidan ham dolzarbdir.

Asosiy qism. Imom Moturidiy merosi ustozlar U. Uvatov, Z. Islomov, A. Juzjoniy kabi mahalliy va V. Madelung, U. Rudolf kabi ko'plab xorijlik olimlar tomonidan o'rganilgan. Tadqiqotlarda Moturidiy ta'limotining tarixiy-falsafiy jihatlariga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, Moturidiy ta'limoti turli g'arazli oqimlarga ilmiy raddiyalar berishda muhim manba hisoblanadi. Ustoz Z. Islomov

ta'kidlashicha, Abu Mansur Moturidiy asos solgan mo'tadil aqidaviy maktab – moturidiylikning vatani bo'lgan O'zbekistonda Imom Moturidiy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi ochilgan. Markaz Moturidiy va moturidiyshunos olimlarning ilmiy merosini o'rganish, tarjima qilish va tadqiq etish orqali turli g'arazli oqimlar iddaolariga ilmiy raddiyalar berish bilan shug'ullanadi. Shuningdek, u kishi Moturidiylik ta'limoti ekstremistik va terroristik harakatlarning oldini olish, yosh avlodda mafkuraviy immunitetni kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etishini, mamlakatda aqida va kalom ilmiga oid tadqiqotlarning soni va ilmiy saviyasi oshganini qayd etganlar [2].

Nemis olimi Ulrix Rudolf Imom Moturidiyning ta'limoti "bid'at" (ya'ni yo'ldan ozgan oqimlar) asarlariga qarshi haqiqiy ilohiyotchi sifatida kurash maydonida namoyon bo'lgani haqida aytib o'tgan [3].

Imom Moturidiy ta'limotida aql ilohiy matnlarni tushunishning asosiy vositasi sifatida qaralgan. Bu esa radikal oqimlarning matnlarni so'zma-so'z, tarixiy-ijtimoiy kontekstdan uzgan holda talqin qiluvchi va aqliy xulosalarni inkor etuvchi yondashuviga mutlaqo ziddir. Rendi Borumning "Radicalization into Violent Extremism I: A Review of Social Science Theories" (Zo'ravonlikka olib keluvchi radikallashuv: ijtimoiy fanlar nazariyalari sharhi) tadqiqoti tahlillari shuni ko'rsatadiki, radikal guruhlarning g'oyalari aynan matnlarni biryoqlama talqin qilishga asoslangan [4].

Imom Moturidiy aqidasiga ko'ra, gunohi kabira qilgan mo'min dindan chiqmaydi, ya'ni kofir bo'lmaydi. Bu tamoyil radikal guruhlarning o'zlariga qo'shilmagan musulmonlarni osonlikcha "kofir"ga chiqarish (takfir) va ularga qarshi zo'ravonlikni oqlash amaliyotining g'oyaviy asosini yo'qqa chiqaradi.

Moturidiylikda Allohning barcha ishlari hikmatga asoslanishi va voqelikda sababiyat qonuniyatlari mavjudligi e'tirof etiladi. Bu insonni bilim olishga, voqealarning sabab-oqibat aloqalarini o'rganishga undaydi. Radikal qarashlarda esa ko'pincha taqdirni noto'g'ri talqin qilish (fatalizm) va dunyoviy bilimlarni inkor etish holatlari kuzatiladi.

Moturidiy mo'tadillik tamoyillari nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega ekanligi bilan radikal qarashlarga samarali javob bera oladi. Bu tamoyillar shaxsda tanqidiy tafakkurni, diniy manbalarga hurmat bilan, ongli yondashishni shakllantiradi va shu orqali yot g'oyalarga qarshi "aqliy filtr" vazifasini o'taydi.

Moturidiy aqidasidagi mo'tadillik tamoyillari (aql va naql uyg'unligi, takfirdan tiyilish, bag'rikenglik, sababiyatni e'tirof etish) zamonaviy diniy radikalizmning asosiy g'oyalariga (matnlarni so'zma-so'z talqin qilish, ommaviy takfirchilik, dunyoviy bilimlarni inkor etish) qarshi kuchli va tizimli mafkuraviy muqobildir. Ushbu ta'limot jamiyatda, ayniqsa yoshlar orasida mafkuraviy immunitetni shakllantirishning mustahkam poydevori bo'la oladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Imom Moturidiy aqidasining asosiy xususiyatlari radikalizmga qarshi samarali qurol bo‘lib xizmat qiladi. U diniy matnlarni tushunishda aqliy tafakkur muhimligini ta’kidlab, radikallarning so‘zma-so‘z talqinlariga zid yondashuvni ilgari suradi. Gunohi kabira qilgan mo‘minning dindan chiqmasligi haqidagi tamoyil radikallarning musulmonlarni “kofir”ga chiqarish amaliyotini bekor qiladi. Shuningdek, Imom Moturidiy ta’limoti yoshlarni bilim olishga undab, fatalizm va dunyoviy bilimlarni inkor etishga qarshi turadi. Turli fikrlarga tolerant yondashuvni targ‘ib qiladi.

Moturidiylik ta’limoti ekstremizm va terrorizmning oldini olishda, yoshlarda mafkuraviy immunitet shakllantirishda muhim vosita bo‘lib, g‘arazli g‘oyalarga qarshi “aqliy filtr” vazifasini bajaradi. Yuqorida keltirilgan tahlillardan kelib chiqib, quyidagilar taklif etiladi:

– Moturidiylikning ijtimoiy-axloqiy qarashlarini zamonaviy jamiyat muammolari nuqtayi nazaridan chuqurroq tadqiq etish.

– Moturidiylik va boshqa mo‘tadil kalom maktablari (masalan, Ash’ariylik) o‘rtasidagi qiyosiy tadqiqotlarni kengaytirish.

– Imom-xatiblar va diniy soha xodimlari uchun Moturidiy merosi asosida radikal g‘oyalarga qarshi argumentlar keltirish bo‘yicha muntazam malaka oshirish kurslarini tashkil etish.

– Ommabop tilda risolalar, infografikalar, videoroliklar tayyorlab, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng yoyish.

Moturidiy merosi nafaqat tarixiy qadriyat, balki bugungi kunda ham mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlashning samarali vositasi sifatida faol qo‘llanilishi davom etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Harbiy vatanparvarlik – yuksak ishonch va sadoqat timsoli mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. (2020). Api. https://api.scienceweb.uz/storage/publication_files/2113/5441/63c5982b34321___1 Харбий институт.pdf. 17-bet.

2. Исломов, З. М. (2021). Мотуридийлик таълимоти ва ҳозирги замон. In Янги Ўзбекистондан исломшунослик: замонавий ҳолат ва истиқбол (pp. 278-281). Тошкент ислом университети.

3. Rudolph, U. Al-Māturīdī and the Development of Sunnī Theology in Samarqand. – Leiden: Brill, 2015.

4. Borum, Randy. “Radicalization into Violent Extremism I: A Review of Social Science Theories.” Journal of Strategic Security 4, no. 4 (2012):7-36. DOI:http://dx.doi.org/10.5038/1944-0472.4.4.1

YOSHLAR INTELLEKTUAL SALOHIYATINI OSHIRISHDA IMOM MOTURIDIYNING KALOM ILMIDAGI ILMIY MEROSINING AHAMIYATI

Abduraxmonov Umidjon Usmonovich
Mamaraximov Kaxramon Xoltuxtashovich
ZARMED universiteti, ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchilari

Annotatsiya. Yoshlar jamiyatning eng asosiy resurslaridan biridir; ularning dunyoqarashi, tafakkuri, ma'naviy salohiyati alohida e'tibor va tarbiyaga muhtoj. Bugungi kunda ma'naviyat, aqidaviy bilim va fikrlash qobiliyatini shakllantirish, yoshlarni tarbiyalashda ustuvor sanaladi. Shu nuqtai nazardan, islom ta'limoti, kalom ilmi mutafakkirlari g'oyalari yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishda katta ahamiyatga ega. Bunday mutafakkirlardan biri – Imom Abu Mansur Moturidiy (Moturidi)dir. Uning kalom ilmidagi o'rni, metodlari va merosi yoshlarni to'g'ri yo'lga yo'naltirishda, aqidaviy tushunchalarni puxta anglashda muhim vosita hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Yoshlar, resurs, ma'naviy, tafakkur, qobiliyat, intellektual salohiyat, metod, meros, g'oya, bilim.

Bugungi globallashuv va axborot oqimi tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan davrda yoshlarning intellektual salohiyatini yuksaltirish, ularni to'g'ri dunyoqarash va mustahkam e'tiqod ruhida tarbiyalash jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biridir. Yosh avlodning tafakkurini shakllantirishda buyuk allomalarimizning ilmiy merosi, xususan, islom aqidashunosligi va kalom ilmi rivojida beqiyos o'rin egallagan Imom Abu Mansur Moturidiy qarashlari alohida ahamiyat kasb etadi. Moturidiy o'z davrida diniy-ilmiy muhitdagi turli oqim va firqalarning noto'g'ri qarashlariga qarshi aql va naql uyg'unligi asosida daliliy javoblar berib, islom aqidasini sof holda himoya qilgan. Uning "Kitob at-Tavhid", "Ta'vilot al-Qur'on" kabi asarlarida keltirilgan metodologik yondashuvlar nafaqat o'sha davr musulmonlari, balki bugungi yoshlar uchun ham ilmiy va ma'naviy qo'llanma bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun Imom Moturidiyning kalom ilmiga qo'shgan hissasi va uning ilmiy merosini o'rganish yoshlar tafakkurini boyitish, ma'naviy immunitetini kuchaytirish, turli yot g'oyalardan himoyalashda, qolaversa, intellektual salohiyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Moturidi kalom ta'limotida naql (Qur'on va Sunnat) bilan aql o'rtasidagi muvozanatni ta'kidlaydi. U, naql asosida e'tiqodiy masalalarni belgilab bergan holda, aqlni ham aqidani anglashda yordamchi vosita sifatida ko'radi. Bu yondashuv yoshlar fikrida "naqlni totuv, aql bilan anglash" printsipini mustahkamlaydi. Imom Moturidiy yashagan yillar islomiy ilmlar va g'oyalar gurkiragan davrga to'g'ri keldi.

Ayni vaqtda barcha sohalar qatori islomiy ilmlarda ham hurfikrlik, o‘z nuqtayi nazari va qarashlarini dalil va isbotlarga ayanib, emin-erkin ifoda qilish kuchaydi. Bu hol, o‘z navbatida, jahmiylar, qarmatiylar, rofiziylar, murjiiylar, karromiylar va shu kabi boshqa oqimlar paydo bo‘lishiga olib keldi. Ayniqsa, oldinroq paydo bo‘lib, ko‘pchilik o‘lkalar kabi Movarounnahrni ham qamrab olgan mo‘tazila oqimining noto‘g‘ri qarashlari jamiyat a'zolari o‘rtasida xilma-xil ziddiyatlar va ixtiloflarga sabab bo‘ldi. U yaratgan Moturidiya maktabi diniy e'tiqod, aql va tafakkurni uyg‘unlashtirishga qaratilgan bo‘lib, bugungi kunda ham yoshlarning intellektual salohiyatini yuksaltirishda muhim nazariy manba hisoblanadi.

Avvalo, Moturidiy kalom ilmida aql va naqlni uyg‘unlashtirgan holda diniy haqiqatni izohlashga harakat qilgan. Uning "Kitob at-Tavhid" asarida aqida masalalari mantiqiy dalillar bilan asoslab beriladi. Bu yondashuv yoshlarni diniy matnlarni ko‘r-ko‘rona emas, balki tafakkur va tahlil orqali anglashga o‘rgatadi. Natijada, ularning mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv va ilmiy tahlil ko‘nikmalari shakllanadi. Moturidiy insonni iroda va mas'uliyat sohibi sifatida talqin qiladi. Unga ko‘ra, inson o‘z xatti-harakatlari uchun javobgar bo‘lib, iymon va amalni ongli ravishda bajarishi lozim. Bu g‘oya yoshlarni ongli tanlov qilishga, bilim va qarorlarida mas'uliyatli bo‘lishga undaydi. Shu bilan birga, mutafakkir kalom ilmida o‘rtachilik tamoyilini ilgari surib, haddan tashqari mutaassiblik yoki mutlaq erkinlikni rad etadi. Bu esa zamonaviy yoshlarni turli zararli oqimlar ta'siridan asrab, sog‘lom dunyoqarash va mafkuraviy immunitetni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, uning ilmiy merosida ilmning qadri baland qo‘yiladi. Moturidiy ilm faqat diniy bilimlar bilan chegaralanmasdan, aqlni rivojlantiradigan tabiiy va ijtimoiy fanlarni ham qamrab olishini ta'kidlaydi. Bu qarash yoshlarni keng qamrovli bilim egasi bo‘lishga, zamonaviy fan va texnologiyalarni o‘zlashtirishga rag‘batlantiradi.

Yoshlar intellektual salohiyatini oshirishda Imom Moturidiyning kalom ilmidagi ilmiy merosining ahamiyatini falsafiy qonuniyatlar asosida tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ular quyidagilardan iborat:

- Insonning o‘z-o‘zini rivojlantirish qonuni- insonning intellektual salohiyati uning o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan intilishiga asoslanadi. Bu falsafiy qonuniyat yoshlarni o‘z bilimlarini mustahkamlashga, yangi bilimlarni o‘rganishga va o‘z salohiyatini kengaytirishga undaydi. Yoshlar faqat o‘zlarini rivojlantirish orqali jamiyatda o‘z o‘rnini topa olishlari mumkin. O‘z-o‘zini rivojlantirish, tanqidiy fikrlash va maqsadga erishish orqali intellektual salohiyatni oshirishga yordam beradi.

- Fikr erkinligi va yaratuvchanlik qonuni-fikr erkinligi va yaratuvchanlik, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishda asosiy rol o‘ynaydi. Yoshlar yangi g‘oyalar yaratish, mavjud muammolarni hal qilish uchun o‘z fikrlarini erkin ifoda

etish imkoniyatiga ega bo‘lishlari kerak. Erkin fikrlash va yaratuvchanlikni qo‘llab-quvvatlash yoshlarning intellektual rivojlanishining asosini tashkil etadi.

-Zarurat va imkoniyatlarning uyg‘unlashuvi qonuni- Yoshlarning intellektual rivojlanishida ular uchun zarur bo‘lgan imkoniyatlarni yaratish, muammolarni hal etishdagi ehtiyojlarini qondirish muhimdir. Bu qonuniyat yoshlarning o‘z salohiyatini oshirish uchun kerakli resurslarni (ta'lim, texnologiyalar, ilmiy faoliyat uchun imkoniyatlar) yaratish zarurligini ko‘rsatadi. Zarurat va imkoniyatlar uyg‘unlashganida, yoshlar o‘zlarini to‘liq ravishda intellektual jihatdan rivojlantirishi mumkin.

-Insonning o‘zligini anglash va o‘ziga bo‘lgan ishonch qonuni- Yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishda shaxsiy anglash va o‘ziga bo‘lgan ishonch muhim ahamiyatga ega. Falsafada, inson o‘zini anglagan va o‘z qobiliyatlariga ishonadigan shaxs sifatida rivojlanishi kerakligi ta’kidlanadi. Yoshlar o‘z salohiyatiga ishonish va uni mukammallashtirish uchun o‘zlarini anglash, maqsadlar qo‘yish va ularga erishishga intilishlari zarur.

-Harakat va o‘sishning dialektik qonuni- Dialektika prinsipiga ko‘ra, rivojlanish doimo qarama-qarshi kuchlar, fikrlar va jarayonlar orqali amalga oshadi. Yoshlar o‘z intellektual salohiyatini oshirishda qarama-qarshi fikrlar va turli g‘oyalar o‘rtasidagi muvozanatni topishlari kerak. Bu jarayon orqali yoshlar yangi fikrlarni qabul qilish, o‘z bilimlarini sinovdan o‘tkazish va rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu dialektik jarayon yoshlarning o‘zlarini yaxshilashga, tanqidiy fikrlashga va o‘z fikrlarini erkin ifoda etishga yordam beradi.

-Taraqqiyotning evolyutsion qonuni-Insoniyat va individning rivojlanishi har doim evolyutsion xarakterga ega bo‘ladi. Yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish – bu evolyutsion jarayon bo‘lib, ular o‘z bilimlarini va qobiliyatlarini doimiy ravishda rivojlantirib borishlari kerak. Bu qonuniyat yoshlarni doimiy o‘rganish, yangi bilimlarni qabul qilish va ularni amaliyotda qo‘llashga undaydi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Imom Abu Mansur Moturidiy islom falsafasi va kalom ilmining yirik namoyandalaridan biri sifatida nafaqat diniy, balki ijtimoiy-ma’naviy hayotda ham muhim o‘rin tutadi. Uning falsafiy qarashlari o‘z davrida musulmon jamiyatida aql va tafakkurni e’tiborga olish, diniy e’tiqod va ilmiy izlanishlarni uyg‘unlashtirishda katta ahamiyat kasb etgan. Bugungi kunda yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirishda Moturidiy merosini chuqur o‘rganish va amalda qo‘llash dolzarb masalalardan biridir.

Birinchidan, Moturidiy inson tafakkurini qadrlash va aqlni diniy bilishda asosiy manba sifatida ko‘rsatgan. Unga ko‘ra, inson yaratuvchi tomonidan berilgan eng ulug‘ ne’mat – bu aql bo‘lib, unga tayanmagan holda diniy haqiqatni ham, dunyoviy ilmlarni ham to‘laqonli anglab bo‘lmaydi. Shu boisdan, yoshlar

tafakkurini rivojlantirish, ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatish Moturidiy falsafasining asosiy tamoyillaridan biridir.

Ikkinchidan, Moturidiy aqidaviy masalalarda “o‘rtachilik” yo‘lini tanlab, mutaassiblik va mutlaq erkinlik o‘rtasida muvozanatni ta’minlagan. Bu esa bugungi globallashuv sharoitida yoshlar ongida sog‘lom dunyoqarash va mafkuraviy immunitetni shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, turli zararli g‘oyalar, radikal oqimlar ta’sirida qolmaslik uchun Moturidiy qarashlaridan foydalanish muhimdir.

Uchinchidan, u ilmni faqat diniy doiraga cheklab qo‘ymagan, balki tabiiy fanlar, mantiq va falsafiy bilishga ham alohida e’tibor bergan. Bu esa yoshlarni keng qamrovli bilimlar bilan qurollantirish, ularning intellektual salohiyatini oshirish va jamiyat taraqqiyotida faol ishtirok etishiga imkon yaratadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.

2. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.– T.: O‘zbekiston, 2023.

3. Бобоев Х. Имом Мотуридий ва калом илими. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. – 185 б.

4. Qur’oni karim ma’nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va izohlar muallifi Abdulaziz Mansur. – T.: Sharq, 2016.

5. Dinshunoslik asoslari. O'quv qo'llanma / Ochildiev A. va b.q. –T.: Toshkent islom universiteti, 2013. – 320 b.

6. Bekkin R. Theological Thought in Central Asia: al-Maturidi’s Heritage. – London: Routledge, 2021. – 270 p.

7. Султонов О. Имом Мотуридий фалсафий қарашлари. – Тошкент: Фан ва технология, 2018. – 200 б.

ХИТОЙДА МОТУРИДИЙЛИК ТАЪЛИМОТИНИ ТАРҒИБ ҚИЛГАН САЙЙИД АЖАЛЛ ШАМСИДДИН УМАР БУХОРИЙ

Феруз З. ХОЛМЎМИНОВ
Имом Мотуридий халқаро илмий-тадқиқот маркази катта илмий ходими

Аннотация. Мақолада XIII асрда Хитой ҳудудларида фаолият юритган Марказий Осиёлик мутафаккир ва давлат арбоби – Саййид Ажалл Шамсиддин Умар Бухорийнинг ҳаёти ва ижтимоий-сиёсий мероси таҳлил этилади. Шунингдек, Саййид Ажаллнинг Бухородан Чингизхон қўшинлари томонидан асир олиниши ва кейинчалик мўғуллар хизматида етук давлат арбоби

сифатида шаклланиш жараёни турли тарихий манбалар орқали ёритилган. Хитой ва мусулмон тарихчилари томонидан келтирилган маълумотлар асосида унинг Юан сулоласи даврида юқори давлат лавозимларига тайинланиши, жумладан доруғачи сифатидаги фаолияти ҳамда Юннан вилоятига ҳоким қилиб юборилиши таҳлил қилинган.

Тадқиқотда Саййид Ажаллнинг бағрикенглик сиёсати алоҳида эътиборга олинган. Унинг ташаббуси билан Юннанда янги маъмурий марказ барпо этилгани, масжидлар, конфуцийлик ва буддавийлик ибодатхоналари қурилиши, шунингдек таълим муассасалари ва ижтимоий ислоҳотлари ўрганилган. Саййид Ажаллнинг ислом дини билан бир қаторда ҳанафийлик ва мотуридийлик ғояларини тарғиб этгани, шунингдек, унинг авлодлари орасида Хитойда етук ислом уламоларининг шаклланиш жараёни манбалар ёрдамида очиб берилган.

Мақолада Саййид Ажаллнинг фаолияти замонавий диний бағрикенглик концепцияларига тарихий асос сифатида қаралади. Шу билан бирга, тадқиқот Ўрта Осиё ва Хитой ўртасидаги маданий ва диний алоқаларни ўрганишда муҳим илмий манба сифатида хизмат қилади. Хусусан, Саййид Ажаллнинг сиёсий ва диний мероси Марказий Осиё олимлари ва ислом цивилизацияси тарихини тадқиқ этувчи мутахассислар учун долзарб назарий ва амалий аҳамият касб этади.

Калит сўзлар: Ислом, буддавийлик, Мовароуннаҳр, мотуридийлик, масжид, конфуцийлик, ҳанафийлик, ибодатхона, мўғул, Юан сулоласи, хон, император, нисба, шайх.

Мовароуннаҳр қадим замонлардан илм-фан, маданият ва тижорат маркази бўлиб келган тарихий заминдир. Бу диёрдан етишиб чиққан Имом Бухорий, Имом Мотуридий, Ибн Сино, Фаробий, ал-Хоразмий, ал-Беруний каби тиббиёт, фалсафа, математика, астрономия соҳалари ривожида туб бурилиш ясай олган алломмалар бутун дунё тамаддунига ўзининг беқиёс ҳиссасини қўшган. Бу каби мутафаккирларни кўплаб келтириш мумкин, улар нафақат Мовароуннаҳр заминида, балки дунёнинг тўрт бурчагида инсоният тараққиёти йўлида ўз хизматини аямай тарих зарварақларида ном қолдирганлар. Шундай шахсиятлардан яна бири, тарихда бугунги Хитой ҳудудларида фаолият юритиб, у ерларда мотуридийлик таълимотини ёйиш билан бир қаторда, мадания ва бағрикенглик тамойилларини ҳам кенг тарғиб қилган Саййид Ажалл Шамсиддин Умар Бухорийдир. Келиб чиқиши Мовароуннаҳрдан бўлган Саййид Ажалл 1211 йили Буорода туғилиб, 1279 йили Хитойнинг Юннан минтақасида вафот этган.

Хитойга оид тарихий манбаларда исми "Сайдянчи", "Сайжианчжи", "Сайтянжи", "Умаэр" деб аталувчи[6, с. 235] Саййид Ажалл Шамсиддин Умар Бухорийнинг болалик даври тўғрисида етарлича маълумотлар мавжуд бўлмасада унинг мўғул ҳукумдорлари саройи ҳамда Хитойдаги фаолияти борасида кўплаб манбалар сақланиб қолган.

Унинг мўғуллар хизматига кириши ва Хитойга бориб қолиши Чингизхон қўшинларининг 1220 йили Бухорони босиб олиши билан боғлиқ. Хитойлик тарихчилар Ма Энхуй ва Джу Чангпинг бу ҳақида ўзларининг "Ҳуи халқининг тарихий шахслари ҳақида туркум ҳикоялар" номли китобининг "Саййид Ажал" номли қисмида шундай маълумот келтиради: "Бухора дарвозаси очилиб тахминан ўн ёшли чиройли ва келишган болани етаклаган узун соқолли мўйсафид ва унинг орқасидан бир неча киши, мўғул қўмондони тиккан чодир томон кела бошлади. Қўриқчилардан бири бу ҳақда Чингизхонга дарҳол хабар қилди. Бундай хабарлар Чингизхонни ҳайрон қолдирмас эди. Бироқ, бола етаклаган қария уни ҳайратлантирди. Чингизхон хонларга хос одатга кўра, уларни, қарши олгани чодир олдига чиқади. Уларнинг мақсади бошсиз қолган Бухоро халқини қирғиндан, шаҳарни вайронагарчиликдан сақлаб қолиш учун, таслим бўлишга тайёр эканликларини хонга билдириш эди"[5, б. 4].

Бу ерда номи тилга олинган қариянинг исми хитой манбаларида Кулумадин (苦鲁马丁 "кулумадинг") – шаклида келтирилади. Бу исм аслида Ғуломиддин ёки Камолиддин бўлиши мумкин. Мўйсафид билан бирга чиққан бола эса Саййид Ажалл Бухорий экани айтилади.

Бу борада мусулмон олимларидан Рашидуддин Фазлуллоҳ ўзининг "Жомеъ ат-таворих" асарида Бухоронинг мўғул қўшинига таслим бўлиши ҳақида шундай ёзади: "Чингизхон ўз қўшини билан 617 йили Муҳаррам ойининг (1220 йили март ойи) дастлабки кунлари Бухоро қалъасини қамал қилиб, атрофига чодир тикиб жойлашди... Эртаси куни тонгда аҳоли шаҳар дарвозаларини очиб, имом ва аҳли илмлардан иборат вакиллар Чингизхонга таслим бўлганликларини билдириш учун келдилар"[7, с. 186-193].

Тарихчи Ибн ал-Асирнинг "Ал-Камил фит-тарих" асарида ҳам бу борада сўз юритилади: Эрта тонгда шаҳар аҳолиси ўзлари билан бирорта аскар қолмаганини кўргач, тушкунликка тушади ва Бадриддин Қозихонни шаҳар аҳолисига раҳм қилишини сўраш учун вакил қилиб Чингизхон ҳузурига юборади"[8, с. 362].

Хитой ва мусулмон тарихчилари томонидан қайд этилган манбалар Саййид Ажаллнинг Бухоро истилосидан сўнг мўғуллар хизматига ўтганини асосламоқда. Чингизхон Бухорони эгаллаганларидан сўнг, бухороликлар халқни қирғиндан сақлаб қолиш мақсадида Умарнинг буваси Саййид

Шамсиддин бошчилигида мўғилларга таслим бўлишга мажбур бўлган[7, с. 236]. Британиялик Маршалл Брумҳол ўзининг "Islam in China A Neglected Problem" асарида Саййид Ажалл ҳақида "Бухоролик Шамсиддин Муҳаммад пайғамбарнинг 27 авлоди бўлган", деб ёзади[4, p. 127].

Саййид Ажаллнинг ислом илмлари билан бир қаторда иқтисодий билимларни ҳам мукаммал билиши мўғуллар хизматига ўтгач қисқа вақтда хон эътиборига тушишига ёрдам беради. Угадайхон (1227-1241) ҳукумронлиги даврида 1230 йили ёш бўлишига қарамай унга Шеньси, Фенцзин ва Юньней вилоятларига ҳоким этиб тайинланиб, император томонидан унга "Доруғачи" (Муҳр соҳиби) унвони беради. Бу унвон Чингизхон томонидан таъсис этилган бўлиб Юан сулоласи даврида фақат мўғул, араб, Эрон, Ўрта Осиё, Кавказ ва Россия халқ вакилларидан бўлган, ҳамда жангларда ўзини кўрсата олган давлат амалдорларигина эгаллай олган. Мазкур лавозимдаги шахс минтақа губернаторлиги билан бир қаторда Чингизхон номидан ҳарбий, фуқаролик ва суд ишларини олиб бориш ҳуқуқига эга бўлган.

Мункехон (1208-1259) ҳукмронлиги даврида Сичуанга қарши жангларда иштирок этиб, ҳарбий юриш давомида логистика ишларини назорат қилади[2, p. 66]. Кейинчалик Пекиндаги Юан сулоласи саройида хизматини давом эттиради. Хубилайхон (1215-1294) ҳукмронлиги даврида 1274 йили Юннан вилоятига ҳоким этиб тайинланади[10, p. 248].

Саййид Ажалл 1276 йили бугунги Кунмин шаҳри ўрнида "Чжунжин Чен" ноли янги шаҳарга асос солиб, Юннан пойтахтини Далидан бу ерга кўчиради. Бу ерда буддавийлик, конфуцийлик ибодатхоналари ҳамда иккита масжид қурдириб,[3, p. 237-256] ислом билан бир қаторда бошқа дин вакиллари учун ҳам тенг шароитлар яратиб беради. 1274 йили Саййид Ажалл томонидан Юннанда Конфуций ибодатхонасини қурдиради. Этиборли жиҳати, мазкур иншоот Юннандаги илк конфуцийлик ибодатхонаси бўлган[9, p. 92]. Кейинчалик мазкур ибодатхона мактаб вазифасини ўтаган.

Юннан минтақасига ислом динининг кириб келиши, ҳанайфийлик мазҳаби ва мотуридийлик ақидасини кенг тарқалиши ва кейинчалик мазкур ҳудуддан бутун Хитой бўйлаб танилган олимларнинг етишиб чиқиши бевосита Саййид Ажалл Шамсиддин Умар Бухорий фаолияти билан боғлиқдир. Унинг минтақада исломни тарғиб қилиши кейинчалик "Шайх Довуд" нисбаси билан танилган Ванг Дайю (1585-1658), "Шайх Юсуф" нисбаси билан танилган Ма Чжу (1640-1711), "Шайҳ Солиҳ" нисбаси билан танилган Лю Чжи (1660-1739), "Абдулқайюм Руҳиддин Юсуф" номи билан ҳам тинилган Юсуф Ма Десин (1794-1874)[1, б. 34-40] сингари таниқли

хитойлик ҳанафий мазҳаби, мотуридийлик ақидаси вакиллари бўлган олимлар етишиб чиқишига сабаб бўлди.

Хитой тарихий манбаларида Саййид Ажаллнинг беш нафар ўғил фарзанди бўлгани ҳақида маълумотлар мавжуд. Улардан тўнғич ўғли Насириддин (ваф. 1292) Юан сулоласи даврида таниқли сиёсатчи ҳамда Яньан вилояти ҳокими ва бошқа ҳудадларда доруғачи каби муҳим лавозимларда фаолият юритган. Саййид Ажаллнинг Ҳасан, Ҳусайн, Шамсиддин Умар ва Масъуд исмли қолган тўрт фарзанди ҳам таниқли шахсиятлар сифатида Хитой тарихида ном қолдирган.

Хитойнинг таниқли мусулмон олимлари ҳам Саййид Ажаллнинг авлодларидан бўлган. Масалан, "Шайх Юсуф" нисбаси билан танилган Ма Чжу унинг ўн бешинчи, "Абдулқайюм Руҳиддин Юсуф" номи билан ҳам тинилган Юсуф Ма Десин эса йигирма бешинчи авлоди ҳисобланади[11, p. 100-117].

У фаолияти давомида ўзининг бағрикенглик сиёсати билан Юннан тарихида алоҳида из қолдирди. Саййид Ажалл минтақада ислом динини тарғиб қилиш билан бир қаторда бошқа дин вакилларига ҳам ҳурмат кўрсатиб, конфуцийлик мактаблари, буддавийлик ибодатхоналарини қуриш ва тамирлаш ишларини амалга оширди. Меҳрибонлик уйлари ҳамда мактаблар қурилишини қўллаб-қувватлаши унинг аҳоли орасидаги мавкейини янада мустаҳкамлади. Унинг бу ишлари замонавий Хитой ва Ўзбекситон ўртасидаги алоқаларга пойдевор бўлиб хизмат қилади.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар

1. Аллоқулов А. Мотуридийлик таълимотининг Буюк ипак йўли орқали Хитойга тарқалиши // Мотуридийлик. Тошкент: Стандард Полиграф Сервис, №1, 2024. – Б. 34-40.

2. Gaoji He. Yu wai ji: Yuan shi, Zhong wai guan xi shi lun cong. Beijing: Zhonghua Book Company, 2013. – P. 66.

3. Peter Jackson. Validation by Holiness or Sovereignty: Religious Toleration as Political Theology in the Mongol World Empire. The International History Review, 2004. Vol. 26, No. 2. – pp. 237-256.

4. Marshall Broomhall. Islam in China A Neglected Problem. Edinburgh: Morgan & Scott Limited, 1910. – P. 127.

5. Ма Э., & Чжу Ч. (1996). Huizu lishi renwu gushi congshu: Saidianchi – Zhansiding [Хуэй халқининг тарихий шахслари ҳақидаги ҳикоялар туркуми: Саййид Ажал – Шамс ад-Дин]. Нинся Халқ нашриёти. 1996. – Б. 4. Рашид-ад-дин. Сборник летописей. Москва – Ленинград: 1960. – Т.II. С. 186-193.

6. Хўжаев А. Буюк Ипак йўли: муносабатлар ва тақдирлар. Тошкент: 2007. – С 236.

7. Рашид-ад-дин. Сборник летописей. Москва – Ленинград: 1960. – Т.II. С. 186-193.

8. Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-та'рих. «Польный свод истории» Избранные отрывки. Перевод с арабского языка, примечания и комментарии П.Г.Булгакова. Ташкент-Цюрих: 2005. – С. 362.

9. Tan Ta Sen. Cheng Ho and Islam in Southeast Asia. Singapore: Institute of Southeast Asian Studies, 2009. – P. 92.

10. Thomas Arnold. The preaching of Islam: a history of the propagation of the Muslim faith. Westminster: A. Constable and co., 1896. – P. 248.

11. Lin Chang-Kuan. Three eminent Chinese 'Ulama' of Yunnan. Institute of Muslim Minority Affairs Journal. 1990. – pp. 100-117.

МОТУРИДИЙЛИК ТАЪЛИМОТИДА РАДИКАЛИЗМГА ҚАРШИ МАФКУРАВИЙ ИММУНИТЕТ (РУКНИДДИН САМАРҚАНДИЙ ИЛМИЙ МЕРОСИ АСОСИДА)

Суннатулла Абдуллаев

Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси таянч докторанти,
Имом Мотуридий халқаро илмий-тадқиқот маркази илмий ходими

Аннотация. Ушбу мақолада глобаллашув ва ахборот асрида авж олаётган радикализм ва диний экстремизм каби маънавий таҳдидларга қарши курашда Мотуридийлик калом мактабининг илмий-мафкуравий мероси таҳлил қилинади. Имом Мотуридий ва унинг издошлари томонидан ишлаб чиқилган ақл ва нақлни уйғунлаштириш методологияси, эсхатологик масалаларини инсон психологияси ва мантиқий далиллар орқали асослаш тамойиллари радикал оқимларнинг содда ва жоҳил талқинларига қарши мустаҳкам мафкуравий иммунитет шакллантириши кўрсатиб берилади.

Калит сўзлар: Мотуридийлик, мафкуравий иммунитет, радикализм, глобаллашув, ақл ва нақл, Имом Мотуридий, Рукниддин Убайдуллоҳ Самарқандий, калом илми, охират, инсон психологияси.

Кириш. XXI аср глобаллашув жараёнларининг жадаллашуви, ахборот технологияларининг мисли кўрилмаган тараққиёти ва маданиятлараро мулоқотнинг кучайиши билан тавсифланади. Бу жараёнлар инсоният учун

улкан имкониятлар эшигини очиш билан бирга, янги ва мураккаб маънавий таҳдидларни ҳам юзага келтирди. Мазкур таҳдидлар орасида диний радикализм ва экстремизм энг хавфлиларидан бири бўлиб, у нафақат айрим шахслар ва гуруҳлар, балки бутун жамият ва давлатлар барқарорлигига раҳна солмоқда. Радикал гуруҳлар диннинг асл моҳиятини бузиб талқин қилиб, унинг инсонпарварлик ва маърифатпарварлик тамойилларини муросасизлик мафкураси билан алмаштиришга уринмоқда. Бундай шароитда жамиятда, айниқса, ёшлар орасида мафкуравий иммунитетни шакллантириш, уларни ёт ғоялардан ҳимоя қилиш учун мустаҳкам илмий ва маънавий асосларга таяниш ҳар қачонгидан ҳам долзарброкдир.

Шу нуқтаи назардан, Марказий Осиё, хусусан, Мовароуннаҳр заминида шаклланиб, бутун ислом оламига ўзининг мўътадил таълимоти билан нур таратган Мотуридийлик калом мактабининг илмий меросига мурожаат қилиш муҳим аҳамият касб этади. Имом Абу Мансур Мотуридий (ваф. 333/944) асос солган ушбу мактаб ислом ақидасининг энг нозик масалаларини ақл ва нақл (илоҳий ваҳий) уйғунлиги асосида таҳлил қилиб, ҳар қандай ифрот (ҳаддан ошиш) ва тафритдан (эътиборсизлик) ҳоли бўлган мўътадил йўлни таклиф этди. У ўз асарларида инсон ақлини Аллоҳнинг улуғ неъмати сифатида қадрлаб, уни ваҳий ҳақиқатларини англашда ишончли восита деб билди. Бу методология ислом дунёсида асрлар давомида ўзининг ҳаётийлигини исботлаб, миллионлаб мусулмонларнинг эътиқодий қарашлари учун пойдевор бўлиб хизмат қилди. Мақолада Мотуридийлик калом мактабининг асосий тамойилларини, хусусан, унинг ғайб оламига оид - самъийёт яъни эсхатологик масалаларига, жумладан, қиёмат ва охиратга оид қарашларини таҳлил қилиш орқали ушбу таълимотнинг замонавий диний радикализмга қарши қандай мафкуравий иммунитет вазифасини ўташи мумкинлигини кўрсатиб беришдан иборат. Мавзуни ўрганишда объект сифатида Рукниддин Убайдуллоҳ Самарқандий (ваф. 701/1301) меросига оид манбалар асосида Мотуридийлик таълимотида ақл ва нақл мувозанати, инсон психологиясига эътибори ва таълим-тарбиявий ёндашувлари ўрганилади. Ушбу таҳлил орқали Мотуридийлик илмий меросининг глобаллашув шароитидаги диний-маънавий таҳдидларга қарши курашда муҳим мафкуравий қурол бўла олиши асослаб берилади.

Ҳар қандай мафкуравий курашнинг асосини ишончли ва мустаҳкам методология ташкил этади. Диний радикализмнинг энг катта заифлиги унинг бирёқлама, догматик ва ақлга зид методологиясидадир. Радикал оқимлар, одатда, илоҳий матнларни (Қуръон ва Суннатни) тор, сўзма-сўз талқин қилиб, ақлий хулоса чиқариш, мантиқий таҳлил ва танқидий фикрлашни инкор этадилар. Улар учун матннинг зоҳирий маъносидан чиқиш диндан узоқлашиш

билан баробардир. Бу эса ўз навбатида диннинг асл инсонпарварлик моҳиятини бузиб, уни ўзгармас, замон ва макондан ажралган қоидалар йиғиндисига айлантиради.

Имом Мотуридий яшаган даврда ҳам шунга ўхшаш интеллектуал инқирозлар мавжуд эди. Бир томондан, мўтазила тоифаси[вакиллари ақлга ҳаддан ташқари кўп урғу бериб, баъзан нақл (ваҳий)ни иккинчи даражага тушириб қўйиш хавфини туғдирган бўлсалар, иккинчи томондан, эса зоҳирийлар ёндашув тарафдорлари ақлни бутунлай четлаб ўтиб, матннинг фақат ташқи маъносига ёпишиб олишган эди. Имом Мотуридий ана шундай мураккаб бир шароитда ақл ва нақл ўртасида олтин мувозанатни топа олди ва бу унинг мактабининг асрлар оша яшовчанлигини таъминлади. У ўзининг калом тизимини шакллантиришда нақл ва ақл ўртасидаги зиддиятни бартараф этиб, ақлий мулоҳаза юритиш усулини диний билим ҳосил қилишда ишончли манба сифатида қайта қабул қилди. Бу ёндашув шунчаки иккита улуғ манбани ёнма-ён қўйиш эмас, балки уларнинг бир-бирини тўлдириши, бири иккинчисини тасдиқлаши ва шарҳлашига асосланган чуқур синтез эди. Имом Мотуридий учун ақл - нақлни тушуниш воситаси бўлса, нақл эса - ақл учун ҳидоят манбаи бўлиб хизмат қилган.

Мотуридийлик калом мактабининг ёрқин намояндаларидан бири Рукниддин Убайдуллоҳ ибн Муҳаммад Самарқандийнинг (ваф. 701/1301 й.) илмий мероси бугунги кунда ҳам ўз долзарблигини йўқотмаган. Унинг асарлари ва қарашлари радикализмнинг ақидавий, гносеологик (билим назарияси) ва ахлоқий илдизларига зарба берувчи қудратли интеллектуал қурол бўлиб хизмат қилиши мумкин.

Рукниддин Убайдуллоҳ Самарқандийнинг шахси ва илмий фаолияти унинг мўътадил дунёқарашини тўлақонли намоён этади. Асли Мовароуннаҳрлик бўлган бу аллома ўз даврининг энг йирик илмий марказлари - Бағдод ва Дамашқда таҳсил олиб, мударрислик қилган. Бу ҳолат унинг фақат бир минтақа билан чекланиб қолмай, бутун ислом оламидаги илмий жараёнлардан хабардор бўлган, кенг қамровли олим эканидан далолат беради. Унинг амалда ҳанафий, эътиқодда мотуридий экани минтақамиз учун анъанавий бўлган мўътадил йўлга содиқлигини кўрсатади.

Алломанинг асарлари ва қарашларини таҳлил қилиш орқали радикализмга қарши мафкуравий иммунитетни шакллантирувчи учта асосий тамойилни ажратиб кўрсатиш мумкин. Жумладан, радикал ғояларнинг асосий хусусиятларидан бири юқорида таъкидланганидек, ақлга душманлик, илоҳий матнларни (нақлни) тор, сўзма-сўз ва контекстдан юлиб олинган ҳолда талқин қилишдир. Улар ақлни "бидъат", мантиқий хулоса чиқаришни эса "адашиш" деб эълон қилиб, ўз издошларидан кўр-кўрона итоатни талаб қиладилар.

Мотуридийлик таълимотининг давомчиси сифатида Рукниддин Самарқандий бу ёндашувни бутунлай инкор этади. Унинг қарашларида билим манбалари аниқ белгиланган: соғлом сезги аъзолари, тўғри хабар (ваҳий) ва ақлий хулоса (ақлий далил). Бу ерда ақл ваҳий билан бир қаторда ҳақиқатга эришишнинг мустақил ва ишончли манбаи сифатида эътироф этилади. Самарқандий фолбинлик, мунажжимлик каби сохта билим манбаларини қатъиян рад этади, бу эса унинг мантиқий ва танқидий тафаккурга содиқлигини кўрсатади. Бу тамойилни бугунги кунга татбиқ этмлса, интернет ва ижтимоий тармоқлардаги ёлғон хабарлар, радикал даъватчиларнинг манипуляцияга асосланган ғоялари ва фитна назарияларига қарши туриш учун асос бўлади.

Радикализмнинг энг хавфли кўринишларидан яна бири сифатида такфирчилик, яъни ўзларининг тор ақидавий қарашларига қўшилмаган бошқа мусулмонларни кофирга чиқаришдир. Бу ҳолат жамиятда парчаланиш, адоват ва зўравонликка олиб келади. Убайдуллоҳ Самарқандийнинг мероси бу мутаассибликка қарши кучли далилларни тақдим этади. Унинг "муқаллиднинг иймони" ҳақидаги қараши бунга ёрқин мисолдир. Аллома калом илмига оид далилларни чуқур ўрганмаган, ота-боболаридан эшитгани асосида иймон келтирган оддий инсоннинг (муқаллиднинг) иймонини, агар унинг тасдиғи қатъий ва шубҳасиз бўлса, саҳиҳ деб ҳисоблайди. Бу ислом жамиятининг аксарият қисмини ташкил этувчи оддий халққа нисбатан чуқур ҳурмат ва бағрикенгликни ифодасидир. Адашган гуруҳ вакиллари эса кўпинча айнан шу тоифадаги инсонларни ўзларининг мураккаб ва сунъий ақидавий мезонларига мос келмагани учун "жоҳил" ёки "кофир" деб атайдилар. Самарқандийнинг бу ёндашуви жамиятда ўзаро ишонч ва бирликни мустаҳкамлайди.

Самарқандийнинг фиқҳдаги ёндашуви ҳам унинг бағрикенглигидан далолат беради. Унинг "Жомеъ ал-усул" асари ҳанафий ва шофеъий мазҳаблари ўртасидаги ихтилофли масалаларни қиёсий ўрганишга бағишланган. Бу асарни ёзишининг ўзиёқ унинг бошқа фиқҳий мактабларни тан олингани ҳамда илмий ихтилофларга ҳурмат билан қаралгани кўрсатади. Бунинг акси ўлароқ, адашган тоифа вакиллари эса ўзларининг фиқҳий ёндашувини ягона ҳақиқат деб билиб, бошқа барча мазҳабларни "нотўғри" ёки "бидъат" деб ҳисоблайдилар. Самарқандий мероси эса исломдаги фиқҳий ранг-баранглиқнинг табиий ва раҳмат эканини англашга ёрдам беради.

Радикализм кўпинча диннинг ахлоқий ва маънавий ўлчамларини четга суриб, уни қуруқ қоидалар ва сиёсий кураш воситасига айлантиради. Динда ғулувга кетганларнинг даъвати инсоннинг ички дунёсини ислоҳ қилишга, нафсини тарбиялашга эмас, балки ташқи дунёдаги "душман" ларга қарши нафрат ва адоватни кучайтиришга қаратилади.

Убайдуллоҳ Самарқандий эса калом ва фиқҳ билан бир қаторда тасаввуфга ҳам чуқур эътибор қаратган зоҳид олим эди. Унинг "Шарҳ ал-асма ал-ҳусна", "Рисола фи ар-руҳ" каби асарлари инсоннинг Аллоҳ билан бўлган шахсий, маънавий алоқасини мустаҳкамлашга, қалбни поклашга қаратилган. Тасаввуфнинг бу йўналиши инсонни ўз айбларини тузатишга, камтарликка, бошқаларга меҳр-шафқатли бўлишга ўргатади. Бундай ахлоқий тарбия кўрган инсон радикал гуруҳларнинг нафратга тўла даъватларига осонликча алданмайди.

Шу билан бирга, Самарқандийнинг тасаввуфга ёндашуви мувозанатли бўлган. У ақида ва амалда нақлга (Қуръон ва Суннатга) зид бўлган сўфийларни танқид қилиб, уларни залолатда айблаган. Мазкур ёндашув бугунги кунда ҳам долзарб бўлиб, у бир томондан радикалларнинг тасаввуфга қарши асоссиз айбловларини рад этишга, иккинчи томондан эса сохта тасаввуфий оқимларнинг тарқалишига тўсиқ қўйишга ёрдам беради.

Рукниддин Убайдуллоҳ Самарқандийнинг илмий мероси мотуридийлик таълимотининг нақадар бой ва ҳаётий эканини яна бир бор тасдиқлайди. Унинг таълимоти глобаллашув шароитида юзага келаётган радикализм, экстремизм ва мутаассиблик каби диний-маънавий таҳдидларга қарши самарали мафкуравий иммунитетни шакллантириш учун мустаҳкам пойдевор бўла олади. Бугунги куннинг долзарб вазифаси - Рукниддин Убайдуллоҳ Самарқандий каби алломаларимизнинг меросини шунчаки тарихий ёдгорлик сифатида эмас, балки замонавий муаммоларга ечим топишга ёрдам берадиган фаол интеллектуал манба сифатида қайта кашф этиш ва халқимиз, айниқса, ёш авлод онгига сингдиришдан иборатдир. Бу меросни чуқур ўрганиш орқали биз радикал ғояларга қарши мустаҳкам турадиган, маънавий жиҳатдан соғлом ва тафаккури очиқ жамиятни барпо этишимиз мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири // Таржима ва тафсир муаллифи Шайх Абдулазиз Мансур. – Тошкент: Сано стандарт, 2021.
2. Абу Муҳаммад Абдуллоҳ ад-Доримий. Сунан ад-Доримий. – Риёд: Дору-л-муғний, 2000.
3. Салоҳуддин Халил ибн Абик ас-Софдий. Аъён ал-аср ва аъвон ан-наср. – Дамашқ: Дор ал-фикр, 1998.
4. Аҳмад ибн Яҳё Шаҳобуддин Умарий. Масалик ал-абсор фи мамалик ал-амсор. – Абу Даби: ал-Мажмаъ ас-сақофий, 2002.
5. Маҳмуд ибн Аҳмад Бадруддин Аъйний. Иъқд ал-жуман фи тарих аҳл аз-заман. – Қоҳира: Марказ таҳқиқ ат-турос, 1987.
6. Ибн Ҳажар Асқалоний. Ад-Дурор ал-камина фи аъян ал-маиьат ас-самина. – Ҳайдаробод: Мажлис даирот ал-маориф ал-усмония, 1972

7. Sinanoğlu, Mustafa. "SEMERKANDÎ, Ubeydullah b. Muhammed". Türkiye Diyanet Vakfı İslam Ansiklopedisi, Cilt: 36, 2009, ss. 480-481.

8. Şimşek, Mühenned İsmail. Rükneddin es-Semerkandî'nin "Telhisu camii'l-usul" adli eserinin tahkik ve tahlili. Yüksek Lisans Tezi, Marmara Üniversitesi, Sosyal Bilimler Enstitüsü, 2022.

9. Юсуф ибн Тангриберди. Ал-Манҳал ас-софий ва ал-муставфий баъда ал-вафий. – Миср: Ҳайъат ал-мисрия ал-аъммати лил кутуб, 1984.

TARIXIY SHAXSNING BADIIY SIYMOSI

Xamidova Dilorom Olimjonovna
Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Luqmon Bo‘rixonning “Imom Moturidiy” romanida buyuk ilohiyotshunos alloma Abu Mansur Moturidiyning badiiy siymosi aks ettirilgan. Yozuvchi uning badiiy obrazini, xarakter xususiyatlarini, davr qiyofasini yaratish uchun tarixiy manbalar, ma’lumotlar, xalq orasida bir necha asrlardan buyon yashab kelayotgan rivoyatlardan unumli foydalanganligi mazkur maqolada tahlil qilingan. Asarda keltirilgan rivoyatlar asar qahramonining ruhiy-ma’naviy olamini, davrning murakkab qirralarini yoritishga imkon berishiga ham munosabatlar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: tarixiy shaxs, sujet, tarixiy manba, xalq og‘zaki ijodi, obraz, rivoyat, hikoyat, kompozitsion butunlik, ruhiyat, afsona.

Kirish. Uzoq yillik qadimiy tarixga ega bo‘lgan xalq sifatida, tariximizga, uning buyuk siymolariga turli aspektlardan yondashish holatlari yuzaga chiqmoqda. Ayniqsa, istiqlol yillarida xalqimiz qalbida chuqur iz qoldirgan ajdodlarimiz tarixi, ular yaratgan moddiy va ma’naviy merosni o‘rganish, o‘lkamizning haqqoniy tarixini yaratish, o‘zining bebaho tafakkur qudrati tufayli madaniy-ma’rifiy va ijtimoiy hayotimizda, xalqimiz ruhiy-ma’naviy olamida o‘chmas iz qoldirgan ulug‘ ajdodlarimizning mo‘tabar asarlarini keng ommaga taqdim etish imkoniyati yuzaga keldi. Bu jarayon esa insonni, uning o‘zligini anglash imkonini kengaytirish bilan bir qatorda, buyuk tarixni to‘g‘ri his qilish, tarix zarvaraqlaridan o‘rin olgan siymolarning ma’naviy hayotimizdagi o‘rnini anglash imkonini kengaytirdi. Tarixiy shaxslar faoliyatini, tarix sahifalaridagi o‘rnini tarix fani o‘rgansa, ularning turfa xil ijodiy me’rosini boshqa fanlar o‘z klasssifikatsiyasidan kelib chiqqan holda o‘rganib, tahlil etib kelmoqda. Bularning asosida tarixni, ma’naviy

qadriyatlarimizni anglash imkonini berishi tabiiy hol. Shu jihatdan, badiiy adabiyot esa buyuk tarixiy davrni, uning siymolarining badiiy obrazini yaratadi va shu jihatdan estetik qiymat kasb etadi. So‘z san’atkori inson va tarixni anglashga, davrning turfa xil xususiyatlarini ochishga, badiiylik qonuniyatlari asosida taqin etishga, obrazlar olami asosida xarakterlar yaratishga intiladi. Ushbu imkoniyatdan yozuvchi va shoirlarimiz, umuman, ijod ahli ham samarali foydalandilar. O‘tmish voqeligini badiiy talqin etuvchi bir qancha salmoqli turfa xil tur va janrdagi asarlar yuzaga keldi. Mana shunday asarlardan biri Luqmon Bo‘rixonning “Imom Moturidiy” romanidir.

Iste’dodli adib o‘zining turli janrdagi asarlari bilan kitobxonlar qalbidan chuqur va o‘chmas iz qoldirgan adiblardan biridir. Yozuvchining “Jaziramadagi odamlar”, “Titrayotgan tog‘” romanlaridagi inson qalbidagi iztiroblar, uning ruhiy-ma’naviy olamidagi evrilishlarning badiiy ifodasi adib mahoratini namoyon qilgan edi. Bunday tasvir xususiyatlarini adibning bir qator qissa va hikoyalarida ham kuzatish mumkin.

Yozuvchi tarix va zamon talabini hisobga olib IX-X asrlarda yashagan buyuk ilohiyotshunos alloma, kalom ilmining mo‘jizakor asoschilaridan biri, ulug‘ ajdodimiz imom Abu Mansur Moturidiy hayotiga bag‘ishlab, epik plandagi badiiy asarini yaratgan edi. Adibning bu davr voqeligini talqin etish uchun qator manbalarni, davrning yetakchi tamoyillarini o‘rganishi zamirida ham juda katta asoslar mavjud edi. Bu tarixiy davr o‘zining murakkabliklari bilan bir qatorda, islom ilmining yetuk shaxsi haqida badiiy asar yaratish juda katta mahorat va salohiyatni ham talab etardi. Ana shu tushunchalarning barchasi, iste’dodli adib, Luqmon Bo‘rixonda mujassamlashgan ediki, bu esa ijodkor anglagan, anglashga intilgan tarixiy voqelik zamiridagi shaxsni ham shakllantirdi va badiiy obrazini yaratdi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Adabiyotshunos A. Rasulov ta’kidlaganidek, “Roman – tarixning oynasi. Tarixiy siymolar ertami-kechmi badiiy romanga qahramon bo‘lib o‘tadilar” [1; 60-b.]. Asosli ta’kidlanganidek, Luqmon Bo‘rixonning “Imom Moturidiy” romanini yozishdan maqsadi ulug‘ allomaning, uning izdoshlarining siymosini, hayot yo‘lini badiiy asarda aks ettirish, ular olg‘a surgan ezgu ta’limot, umumbashariy g‘oyalar mohiyatini o‘z asariga singdirishdir. Iste’dodli adibning o‘zi ta’kidlaganidek, “Ulug‘ allomaning, uning izdoshlarining siymosini, hayot yo‘lini badiiy asarlarda aks ettirish, ular olg‘a surgan ezgu ta’limot, umumbashariy g‘oyalar mohiyatini, dostonlar, qissa va hikoyalar zamiriga singdirish shular jumlasidandir. Men ham bir qalamkash sifatida buyuk mutafakkir bobomizning siymosi, hayot yo‘li, aqida sofligi, mustahkamligi uchun olib borgan qat’iy kurashi aks etgan asar qoralashga urinib ko‘rdim” [2; 349-b.]. Darhaqiqat, buyuk davrni, o‘tmish voqeligining badiiy ifodasi, tarixiy asarlarda teranlashadi, uning turfa xil jihatlari badiiyatda namoyon bo‘ladi. Ana shu jihatlargina

ijodkorning yetuk shaxslar tarixi va davrini qay darajada talqin etganligini, uning mazmuniga singdirilgan kurashlar, qarashlar, g'oyalarning teranligini ochishga kengroq imkon beradi.

O'zbekiston Qahramoni, iste'dodli tarjimon, mahoratli adabiyotshunos Ibrohim G'afurov "Ilohiyotshunos alloma siymosi" deb nomlangan romanning so'zboshisida quyidagi fikrlarni alohida ta'kidlaydi: "Yozuvchi Luqmon Bo'rixon tarix sahifalarida yetib kelgan ma'lumotlarni misqollab yig'ib, o'rganib, tahlil va talqin qilib buyuk ilohiyotshunos olimning badiiy qiyofasini hayotiy, insoniy tarzda yoritishga muvaffaq bo'ldi. Muallif o'z romanida o'sha zamonlar avj olgan diniy-ilmiy, ilohiy nuqtayi nazarlar juda keskin bayon qilingan munozaralar muhiti va oqimlarini ichidan ko'rsatadi, imon-e'tiqod o'sha davr kishilari uchun qanchalar hayot-mamot qadar ahamiyatli bo'lganiga e'tibor qaratadi" [2; 4-b.].

Haqli tarzda ta'kidlanganidek, insonni o'ta murakkab davr qiyofasi asosida, uning xarakter xususiyatini, davrning keskin ziddiyatlarini, asosiy qahramonning ruhiy iztiroblarini badiiy talqin etish, o'sha ijtimoiy muhitni o'rganishni, asosli xulosalarga ega bo'lishni talab etadi. Abu Mansur Moturidiyning hayoti va faoliyati nafaqat O'zbekistonda, balki butun jahonda olim-u tarixchilar tomonidan o'rganilgan va biografik asarlar yozilgan: "… al-Luknaviy, al-Somoniy, al-Qurayshiy, Ibn Qutlubug'a, Tosh Kubro, al-Bayodiy, al-Zobidiy, Abu Muin al-Nasafiy va al-Qavofiy kabi biograf olimlar al-Moturidiyning hayoti haqida ma'lumotlar jamlagan va hattoki u yashagan hududning ijtimoiy-siyosiy va diniy holati va uning ilmiy salohiyatiga ta'sirini o'rganganlar" [3; 3-b.] Luqmon Bo'rixon mazkur romanida Abu Mansur Moturidiy siymosini yaratishda u kishi haqidagi tarixiy manbalar, asarlar va rivoyatlardan unumli foydalangan. Xususan, xalq ichida imomning hayoti va faoliyati bilan bog'liq afsona va rivoyatlar ko'plab uchraydi. Shulardan ayrimlari roman sujetiga singdirilgan bo'lib, ular asarning badiiy qiymatini oshirishga xizmat qilgan. Xalq tarixida va taraqqiyotida munosib o'rniga ega ulug' ajdodlarimiz haqida yozilgan badiiy asarlarda, albatta, rivoyatlar joy oladiki, bu esa davr muhitini, inson xarakterini yoritishga keng imkon beradi. Chunki "Rivoyatda hayotiy voqealarni badiiy uydirmalar vositasida hikoya qiluvchi realistik tarixiy shaxslar tipida shu shaxslar faoliyati bilan bog'liq hodisalar hikoya qilinadi, muayyan faktlar haqida axborot beriladi [4;12-b.]. Bundan tashqari, rivoyat tarixiy haqiqatga muvofiq bo'lsa, uning mantig'iga mos kelsa nodir manbaga aylanadi va mavzuni yangi fikrlar bilan to'ldiradi, ayrim qirralarini kashf etadi. Zero, "Badiiy asar sifatida romanning vazifasi kundalik hayotdan va tarixiy voqealardan barcha tasodifiy narsalarni olib tashlash, ularning yashirin qalbiga, jonli ideyasiga kirish, tashqi, tarqoq

voqealarni ruh, va aql maskani qilishdir. Roman badiiyligining darajasi asosiy ideyaning chuqurligiga va ayrim xususiyatlarda u ideyani tashkil etgan kuchga bog‘liqdir" [5;464-b.]. Adibning maqsadidan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, romandagi Abu Mansur Moturidiy haqida xalq rivoyatlarida tarixiylik bilan badiiylik sintezlashib ketgan bo‘lib, badiiy sujet asosidagi voqealar tasviri imomning real faoliyati xususida o‘sha davr manbalaridagi talqin bilan hamohangdir.

Tahlil va natijalar. Yozuvchi voqealar bayoni va takomilini rivojlantirishda epizodlarning o‘zaro uyg‘unligi bog‘lanishlarda asosan "eslash" usulidan foydalanadi. Romanning "Tun qa'ridagi shu'la" bobida bir rivoyat keltirilgan bo‘lib, unda imom Moturidiy boshqalarning ham e'tiqodida sobit inson bo‘lishga intilishlarini, to‘g‘ri yo‘ldan adashmasliklarini istovchi valiy sifatida gavdalanadi: "Kecha peshin payti (imom Moturidiy) Izro Dovot va uning qavmdoshlari istiqomat qiladigan dahadan o‘tib qoldi. Har yondan obodlik, farovonlik nafasi ufurib turardi. Quyuq bog‘-rog‘lar, sharqiroq jilg‘alar, ravon tosh yotqizilgan ko‘chalar, mustahkam imoratlar. Shu asno bir so‘lim go‘shada may ichib, badaxloq hangomalardan so‘zlashib o‘tirgan, qahqaha-yu vah-vahalarga ko‘milgan o‘n chog‘lik erkakka ko‘zi tushdi. Hazrat beixtiyor ular qarshisida to‘xtadi. "Ey, badkirdor qavm, - dedi imom Abu Mansur hassasini yerga bir urib, - mazkur ne'matlar shukronasini qiling, Allohga ibodat qiling, aylang yo barchangiz o‘ling!" Qavm avvaliga angrayib turdi. Taajjub bilan o‘zaro ko‘z urishtirdi. "Hay, hazrat, hay, - dedi kimdir nopisand, istehzoli ohangda, - siz aytgancha bo‘la qolsun". Bir ozdan so‘ng qavm yana qahqahaga zo‘r berdi. "Shu… - dedi imom Abu Mansur tutingan o‘g‘lining so‘roviga qisqacha javob berar ekan, - ranjidim, istig‘for aytib alardin yiroq ketdim". Izro Dovotning ko‘zlarida yosh aylandi. "Otajon, alarming barchasi o‘tgan tunda o‘ldi. Voqeani eshitgan aksariyat qavm tavba-tazarruda" [2;326-327-b.]. Ushbu rivoyatni keltirish orqali imom Moturidiy har bir odamning Allohning ne'matlariga shukrona aytishi, turli balolarga sabrli bo‘lishi, hamisha ibodatda bo‘lishligini xohlagan. Uning fikricha tiriklik faqat yeyish-ichish dunyo lazzatlaridan bahramand bo‘lish emas, balki hayotning qadriga yetib, uni ibratli kechirish, o‘tayotgan har bir daqiqani anglash va his etish, unumli foydalanish, vaqt va zamonni teran anglab borish hissini shakllantirishga xizmat qiladi.

Badiiy sujetga singdirilgan hikoyatlarning o‘ziga xosligi shundan iboratki, unda davr va insonni anglash, olam va borliqni teranroq kashf etish an'analari ham mujassamlashgan bo‘ladi. Shu bilan bir qatorda tarixiy asarda tarixiy faktlarga ham asoslanishi tabiiy holdir. Adabiyotshunos A.Nasirov qayd qilganidek: "haqiqatdan ham, har qanday tarixiy janrdagi asar tarixiy faktlarga asoslanadi, ammo uni yozuvchi fantaziyasi asosida qayta jonlantiradi va unga tarixiy voqelik yoki tarixiy fakt ma'lum darajada asos bo‘lib xizmat qiladi" [6;120-b.]. Zamirida mana shunga

o‘xshash g‘oya tashuvchi rivoyat Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asarida keltirilgan: “649. Shayx Abu Mansur Moturidiy q.s. O‘z zamonining a’lami ulamosidin ermish. Ul vaqt ulamosi alarni Sulton al-muizzin der ermishlar. Zohir va botin ulumi birla orosta. Alardin g‘arib holog manquldur: bir kun o‘z havlilarida bir ayvonda o‘lturub, hamono ilaylarida tafsir emish bo‘lg‘ay. Ikki mast razilvash eldin alarning eshiklariga kelib, biri tashqari turub, biri ichkari kirib, alarning sharif avqotlarig‘a beadabona harakat va so‘z bila mushavvish bo‘lur ermish. Alarg‘a g‘ayratu g‘azab mustavli bo‘lub, qo‘pub, mir mahkam cho‘pdasti turg‘on ermish, olib, ul beadabning boshig‘a andoq urarlarkim, mag‘zi parishon bo‘lub yiqilur. Oyog‘idin sudrab, bir chuqur ermish, anga solurlar. Dag‘i kelib, huzur bila qiladurg‘on ishlarig‘a mashg‘ul bo‘lurlar. Yana bir hamrohi bir zamon turar. Bu kirgan hamrohi chiqmas. Oni tilay ul dag‘i kirar. Hamul nav’ beadabona so‘z ayta kirishurki, mening hamrohim bu uyga kirdi va chiqmadi. Qayon bordi? Ayt! – deb. Shayx ayturlarki, munda hech kishi kirmadi. Bir it kirdi, telbalik qilur erdi, urib o‘lturdim, dag‘i ana u chuqurda tashlabmen, deb chuqurni ko‘rguzdilar. Ul mast ul chuqur ustiga borib, mulohaza qilsa, ko‘rarki, bir itdur, mag‘zi parishon bo‘lub, o‘lub yotur. Ul mastlig‘din sog‘ olib, Hazrat Shayx qoshida tavba qilur va tur yo‘lg‘a kirar” [6;206-b.]. Mazkur rivoyatda imom Moturidiy o‘z burch va vazifalarini unutgan odamlarni itga qiyoslaydi. Har bir insonning bu hayotda yashashdan maqsadi bo‘lishi lozimligi, insoniy qiyofasini har qanday sharoitda asrashi kerakligini aytmoqchi ekanligini anglash mumkin. Har bir davrda to‘g‘ri va yanglish yo‘lga yetaklovchi odamlar bo‘lgan. IX-X asrlarda ham imom Moturidiy to‘g‘ri yo‘ldan adashgan insonlarni hidoyat yo‘liga boshlagan. Xalqning e’tiqodini mustahkamlashga, Alloh kalomini sharhlashga rahnamolik qilgan.

Xulosa va takliflar. Luqmon Bo‘rixonning “Imom Motrudiy” romani yuksak badiiy obida bo‘lib, o‘zbek kitobxonlariga Abu Mansur Moturi diy siymosini xalqona sodda, ammo poetik mukammal tarzda gavdalantirganligini alohida qayd etish mumkin. Xalqimiz bu ulug‘ zotning nomini va qoldirgan ma’naviy merosi, amalga oshirgan ijobiy ishlari haqida bundan avval ham ko‘pgina manbalardan buyuk siymo hayoti haqidagi tushunchalarga ega edi. Ammo badiiy asar davr va inson konsepsiyasini, uning ijtimoiy-madaniy hayotini yanada teranlashtirib badiiy kashf qiladiki, bu esa kitobxonda o‘ziga xos emotsionallikning shakllanishiga keng imkon berishi, tabiiy holdir. Iste’dodli adib bu romani orqali Moturidiy siymosini yana qaytadan kashf etdiki, bu esa buyuk siymoning badiiy obrazi shakllanishiga imkon berdi. Romanda talqin etilgan, turli davr voqeligining badiiy ifodasidan o‘rin olgan hikoyatlarning ham badiiy funksiyasi mavjudligini alohida qayd etmoqchimiz. Roman sujeti bilan tanishar ekansiz, Imom Moturidiy faqat ilohiyotchi olim sifatida emas, balki iste’dodli shogird, ma’lum bir davrga kelib buyuk ustoz, fidoyi va jonkuyar shaxs, sabr-toqatli, iymon-e’tiqodli inson, mehribon ota sifatidagi turli

xarakter qirralarini namoyon eta olganligini alohida qayd etish lozim. Yozuvchining roman syujetiga imom bilan bog‘liq rivoyatlarni kiritishi asarning badiiyligini yuksaltirgan. Albatta, mazkur rivoyatlarda ham tarixiy haqiqat mavjud bo‘lib, tarixiy shaxs xarakterini ochib berishga salmoqli hissa qo‘shgan. “Imom Moturidiy” romanida tarixiy shaxs konsepsiyasida, muallifning ijtimoiy voqelik va o‘sha davrga mansub shaxs hayoti va ijodi haqidagi qarashlarining badiiy talqini aks etib, uning asosida zamon va inson munosabati yotadi, romandagi tarixiy shaxslar taqdirida davr xususiyatlari namoyon bo‘ladi, tarixiy haqiqatning badiiy in’ikosi o‘z ifodasini topadi. Tarixiy romanda o‘rin olgan qator hikoyat va rivoyatlar asar syujetining shakllanishiga, voqealar rivojidagi davr va inson muhitini yoritishga, shaxs xarakteridagi ma’lum bir xislatlarning namoyon bo‘lishiga asos bo‘lgan. Shuning uchun ham, har qanday davr voqeligini yoritishda ijodkor mifologik talqin xususiyatlaridan unumli foydalanganligini kuzatish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. – T.: Sharq, 2007. – 336 bet.

2.Luqmon Bo‘rixon. Imom Moturidiy. – T.: Yosh kuch, 2023. – 352 bet.

3.Aref Chaker. The life of Abu Mansūr Al-Maturidi and the socio-political and theological context of Central Asia in the tenth century. Australian Journal of Islamic studies. Volume 1. Issue 1. 2016. p.3.

4.Razzoqov H., Mirzayev T., Imomov K., Sobirov O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. – T.: O‘qituvchi, 1980. – 172 bet.

5.Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Darslik. – T.: 2002. – 560 bet.

6.Nasirov A. Badiiylik va hayotiy haqiqat (“Yulduzli tunlar” va “Ona lochin vidosi” romanlari misolida). – Turkiya, Istanbul, Kesit, 2019. – 139 bet.

7.Navoiy A. Nasoyim ul-muhabbat. A.Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti. 2018. – 268 bet.

GLOBALLASHUV JARAYONIDA DINIY-MA'NAVIY TAHDIDLARGA QARSHI KURASHDA MOTURIDIYLIK MAKTABINING AHAMIYATI

Botiraliyeva Aziza
Samarqand Davlat Pedagogika instituti1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada globallashuv jarayonida diniy-ma'naviy tahdidlarning kuchayishi, radikalizm va mutaassiblikning jamiyat hayotiga salbiy ta'siri hamda ularga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish masalalari tahlil qilingan. Ayniqsa, Imom Abu Mansur Moturidiy ta'limotining aql, bag'rikenglik va mo'tadillikka asoslangan g'oyalari diniy ekstremizm va yot oqimlarga qarshi samarali nazariy asos sifatida o'rganilgan. Moturidiylik maktabining tamoyillari bugungi O'zbekiston sharoitida yoshlar ongida mafkuraviy barqarorlikni ta'minlash, diniy bag'rikenglik va ijtimoiy totuvlikni mustahkamlashda muhim omil ekanligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Moturidiylik, globallashuv, diniy-ma'naviy tahdid, radikalizm, mafkuraviy immunitet, bag'rikenglik, mo'tadillik, ekstremizm, ijtimoiy barqarorlik.

Bugungi globallashuv jarayoni nafaqat iqtisodiy, balki diniy-ma'naviy sohada ham chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Bugungi dunyoda diniy mutaassiblik, radikalizm va ekstremizm global xavfsizlikka jiddiy tahdid solmoqda. BMT Bosh Assambleyasi rezolyutsiyalarida ham diniy bag'rikenglik va mutaassiblikka qarshi kurash global muammolardan biri sifatida ko'rsatiladi. Markaziy Osiyo davlatlari, jumladan O'zbekiston uchun bu tahdidlar yanada muhim, chunki mintaqa tarixan turli diniy oqimlarning kesishgan hududi hisoblanadi. Shu sharoitda Imom Abu Mansur Moturidiy merosi diniy ekstremizmga qarshi mafkuraviy immunitet shakllantirishda bebaho manba sifatida xizmat qilmoqda [1, b. 55].

XXI asrda axborot texnologiyalarining keskin rivojlanishi diniy ekstremistik oqimlar g'oyalarining keng yoyilishiga imkon berdi. Internet orqali diniy fundamentalizm va radikalizm targ'ibotlari yoshlar ongiga tez kirib bormoqda [2, b. 118] .

Masalan, Markaziy Osiyo bo'yicha olib borilgan xalqaro tadqiqotlarda so'nggi 10 yilda yoshlarning diniy ekstremistik guruhlarga jalb etilishi keskin ortgani qayd etiladi . Shu bois, mafkuraviy immunitetni kuchaytirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir.

Imom Abu Mansur Moturidiy (870–944) Samarqand yaqinidagi Moturid qishlog'ida tug'ilib, Islom aqidaparastligi tarixida "ahl as-sunna val-jamoa"ning eng yirik mutakallimlaridan biri sifatida tanilgan. Uning asosiy asarlari: "Kitob at-Tavhid" va "Ta'vilot al-Qur'on"dir.

Moturidiy aqida va kalomda uch asosiy tamoyilni ilgari surgan:

-Aql va naql uyg‘unligi. Unga ko‘ra, inson aqli ilohiy vahiyni to‘g‘ri anglashda vosita bo‘lishi shart.

-Bag‘rikenglik va mo‘tadillik. Diniy masalalarda haddan oshish mutaassiblikka olib keladi, bu esa Islomning asl mohiyatiga zid.

-Adolat va ijtimoiy barqarorlik. Din insonlarni tinchlik va barqarorlikka yetaklashi lozim [3, b. 74] .

Moturidiy ta'limoti diniy ekstremizm va radikalizmga qarshi kurashda mafkuraviy immunitetni kuchaytirishda uch asosiy jihatdan dolzarbdir:

1. Aqlni ustuvor qo‘yishi. Imom Moturidiy "Kitob at-Tavhid"da insonni tafakkur qiluvchi mavjudot sifatida ko‘rib, aqidalarni aql mezoni bilan tushuntirish zarurligini ta'kidlaydi. Bu esa diniy aqidaparastlik va soxta g‘oyalarning ildiz otishiga yo‘l qo‘ymaydi.

2. Bag‘rikenglik va murosani ilgari surishi. Moturidiy turli oqimlar o‘rtasida murosa yo‘lini topishga intilgan. Uningcha, jamiyatni bo‘linishga emas, birlikka chorlaydigan diniy qarashlar ustuvor bo‘lishi lozim .

3. Diniy tarbiyada ilmiy yondashuv. Moturidiylik maktabi diniy bilimlarni faqat hissiyot bilan emas, balki ilmiy tafakkur bilan idrok etishga undaydi. Bu yoshlar ongida mustahkam mafkuraviy immunitet shakllanishiga xizmat qiladi .

4. Zamonaviy saboqlar va O‘zbekiston tajribasi. Bugungi O‘zbekiston diniy-ma'naviy sohada keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirmoqda. Jumladan, "Ma'naviyat va ma'rifat markazi", "Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi" faoliyati aynan yoshlarni diniy ekstremistik oqimlardan himoya qilish va Moturidiy ta'limotini targ‘ib qilishga qaratilgan.

Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Biz yoshlarimizni hech qachon yot g‘oyalarga asir bo‘lishiga yo‘l qo‘ymasligimiz kerak. Bu borada buyuk ajdodlarimizning ilmiy merosi biz uchun eng ishonchli manbadir" [4] .

Xulosa. Globallashuv jarayonida diniy tahdidlar, radikalizm va ekstremizm kuchayib borayotgan bir sharoitda Imom Moturidiy ta'limoti mafkuraviy immunitet shakllantirishda dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Moturidiylikning aql, adolat va bag‘rikenglikka asoslangan tamoyillari yoshlar ongini yot g‘oyalardan himoya qilishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli bugungi kunda Moturidiy merosini chuqur o‘rganish va uni ta'lim-tarbiya tizimiga keng joriy etish diniy-ma'naviy barqarorlikni ta'minlashning eng muhim omillaridan biridir.

Takliflar:

1. Ta'lim tizimida Imom Moturidiy merosini chuqur o‘rganishga qaratilgan maxsus kurslar va o‘quv dasturlarini kengaytirish.

2. Yoshlar uchun diniy bag‘rikenglik va mafkuraviy immunitetga bag‘ishlangan seminar, trening va ilmiy-amaliy konferensiyalarni muntazam o‘tkazish.

3. Internet va ijtimoiy tarmoqlarda yot g‘oyalarga qarshi Moturidiy ta’limotini targ‘ib etuvchi videoroliklar, maqolalar va podkastlar tayyorlash.

4. Moturidiylik maktabining asosiy g‘oyalarini keng ommaga yetkazish uchun kitob va qo‘llanmalar yaratish, ularni o‘quvchi-yoshlar uchun soddalashtirilgan shaklda nashr qilish.

5. Ilmiy tadqiqot markazlari va diniy-ma’rifiy muassasalarning hamkorlikda xalqaro darajadagi loyihalarni amalga oshirishi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: O‘zbekiston, 1996. – 254 b.

2. Qodirova D. Globallashuv va diniy-ma’naviy tahdidlar. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021. – 210 b.

3. Yakubov E. Imom Moturidiy ta’limotida bag‘rikenglik tamoyillari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2019. – 140 b.

4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. – 400 b.

MOTURIDIYLIK TA’LIMOTI VA HOZIRGI ZAMON

Po‘latova Dildora Aziz qizi

O‘zbekiston xalqaro isloshunoslik akademiyasi

“Islomshunoslik” ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada IX-X asrlarda Movarounnahr hududida shakllangan Moturidiylik aqidaviy ta’limotining tarixiy asoslari va asosiy tamoyillari tahlil qilinadi. Abu Mansur Moturidiy tomonidan asos solingan bu ta’limot Qur’on va sunnatga asoslangan holda aql va naql muvozanatini ta’minlashga, imon va amallar munosabatini to‘g‘ri talqin etishga, inson erkinligi va mas’uliyatini izohlashga qaratilgani bilan ajralib turadi. Maqolada Moturidiylikning zamonaviy davrdagi ahamiyati, diniy ekstremizmga qarshi mafkuraviy asos sifatidagi o‘rni, ilm va din uyg‘unligini ta’minlashdagi imkoniyatlari, diniy bag‘rikenglikni rivojlantirishdagi o‘rni yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Abu Mansur Moturidiy, moturidiylik, aqida, aql, naql, imon, din, mo‘tadillik, bag‘rikenglik, ekstremizmga qarshi kurash, Movarounnahr, islom.

Imom Moturidiyning to‘liq ismi manbalarda Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud Abu Mansur Moturidiy Samarqandiy tarzida keltiriladi. Tarojim (biografiya) va tabaqot (tabiiy va ilmiy avlodlar to‘g‘risidagi) janridagi asarlarda ham, shu shaklda zikr qilingan.

Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud Moturidiy Samarqandiy o‘z davrining eng yirik mutakallimlaridan, faqihlaridan va islom ilmlarining ko‘p sohalarida yetuk mutaxassis bo‘lgan ulug‘ alloma sifatida tarixda chuqur iz qoldirgan. U yuksak aql-zakovati, ilmiy salohiyati bilan zamondoshlari va undan keyingi avlodlar tomonidan turli sharafli nomlar bilan ulug‘langan. Ilmiy merosida aqidaviy asoslar, shariat ilmlarining tahlili va bid’atlarga qarshi kurash alohida o‘rin tutadi [3:61]. Tarixiy manbalarda Moturidiy “Ustoz”, “Imom” [4:19], “Shayxulislom”, “Zohid Imomu-l-Huda”, “Al-Imom Alamu-l-Huda”, “Imomu-l-Huda va-d-Din” [5:69], “Min kubaroi-l-aimma va avtodi-l-milla” [4:469], “Mahdiy hazihi-l-umma fi vaqtihi” [1:5], “Qudvatu-l-fariqayn”, “Rais mashoyixi Samarqand”, “Akbaruhum”, “Rais omma mashoyixi-l-hanafiya”, “Imomu-l-mutakallimin” [6:93], “Imomu-l-mutakallimin fi asrihi”, “Al-Faqih” [7:150], “Imomu-l-mutakallimin va musahhih aqoidi-l-muslimin”, “Min ruaso ahli-s-sunna va-l-jamoa” [7:14], “Rais ahli-sunna”, “Nosiru-s-sunna va qomiu-l-bid’a va muhyi-sh-sharia” [1:5], va “Muvattid aqoidi-l-muslimin” kabi sharafli nomlar bilan ulug‘langan.

“Al-Javohiru-l-Muziya” asarida olimlar Moturidiyga berilgan eng mashhur nom, “Imomu-l-Huda” (Hidoyat imomi) [8:359] ekanligi ta’kidlanadi.

Tarixiy-biografik manbalarning aksariyati Abu Mansur Moturidiyning 333/945-yilda vafot etganini qayd etadi. Islom tarixiga oid ko‘plab asarlarda ushbu sana keng tarqalgan va mutaqaddim manbalarda ishonchli deb qabul qilingan. “Miftahu-s-saodat” asari muallifi Moturidiyning 336/948-yilda vafot etganini zikr qiladi. Ma’lumot tarixiy jihatidan zaif bo‘lib, muallif o‘zi ham ushbu sananing manbasini aniq ko‘rsatmagan. Bu qarash “shoz” sifatida baholanadi.

Abu Mansur Moturidiyning qabri hozirgi kunda O‘zbekistonning qadimiy shaharlaridan biri bo‘lgan Samarqandda, tarixiy Chokardiza qabristonida joylashgan. “Al-Ansob” asarida keltirilishicha, “Chokardiza” nomi o‘sha davrda Samarqandning yirik va mashhur mahallalaridan biriga berilgan bo‘lib, bu joy ilm-fan, tasavvuf va fiqh ahlining faoliyati bilan tanilgan. Mahalla hududida joylashgan Chokardiza qabristoni o‘sha davrda ham, keyinchalik ham olimlar, shayxlar va nufuzli shaxslar dafn etilgan muqaddas maskan sifatida tan olingan. Nasafiy “al-Qand fi zikri ulamoi Samarqand” asarida keltirishicha, tasavvuf peshvosi va adib Abul Fath Solih ibn Muhammad Roziy ham aynan Chokardiza qabristonida, Moturidiy qabrining yonida dafn etilgan [9:143].

Sharqshunos olim V.Bartoldning tadqiqotlarida Chokardiza atamasi VI-XII asrlarda Samarqanddagi muhim hududlardan biri sifatida tilga olinadi. U o‘sha joyda mashhur olimlar, tasavvuf peshvolari va nufuzli shaxslar dafn etilganini, qabriston hozirgacha saqlanib qolganini yozadi [10:178]. Bartold Moturidiy 333/945-yilda vafot etib, aynan shu qabristonga dafn qilinganini ham qayd etadi.

Moturidiy vafotidan so‘ng, shayx Abul Qosim Hakim uning qabriga marmardan bitik yozdiradi. Unda shunday so‘zlar bitilgan: “Bu qabr egasi umrining so‘nggi nafasigacha ilm o‘rganish va uni o‘rgatishga bag‘ishlagan, din rivojiga maqtovga sazovor hissa qo‘shgan, butun umri davomida qilgan mehnatlari behuda ketmagan zotdir. [4:471]”

Moturidiyning ilmiy yetuklikka erishishida bir necha buyuk ustozlar katta ta’sir ko‘rsatgan. Moturidiy zamonida Samarqand va Movarounnahr ilm markazlarida faoliyat yuritgan eng mashhur ustozlardan biri **Abu Nasr Ahmad ibn Abbos ibn Husayn al-Iyoziy as-Samarqandiy** bo‘lib, u ansoriy hazrajiy nasabidan edi va nasabi mashhur sahobiy Sa’d ibn Ubadaga borib taqalardi. Iyoziy o‘z davrida aqoid masalalarida ahli haqq dalillarini qat’iy isbotlab, mo‘taziliylarning botilligini ochiq ko‘rsatgan. Abu Nasr Ahmad ibn Abbos ilmiy faoliyati davomida o‘ttizga yaqin yirik olim yetishtirgan va Turk diyoridagi bir jangda shahid bo‘lgan. Yana bir buyuk ustoz **Abu Bakr Ahmad Juzjoniy** bo‘lib, fiqh va usul ilmlarida yetuk, ko‘plab asarlar muallifi edi. Uning “al-Furuq”, “at-Tamiyiz” va “at-Tavba” kabi asarlari mashhur. Abu Bakr Ahmad o‘z ilmiy silsilasida Abu Sulaymon Musa ibn Sulaymon Juzjoniydan ta’lim olgan bo‘lib, bu silsila Imom Abu Yusuf va Imom Muhammad ash-Shayboniy orqali Imom Abu Hanifagacha yetib boradi. **Nusayr ibn Yahyo Balxiy** ham Moturidiy ustozlari safida bo‘lib, Abu Sulaymon Juzjoniy, Abu Mutiy Balxiy va Abu Muqotil as-Samarqandiyning shogirdi bo‘lgan. U fiqh va kalom ilmlarida yetuk bo‘lib, Abu Hanifa ilm maktabining yetakchi davomchilaridan sanalgan. Moturidiyning ilmiy silsilasi bevosita Abu Hanifagacha borib taqaladi. Bu silsila Abu Hanifadan Abu Yusuf va Muhammad ash-Shayboniyga, undan Abu Sulaymon Juzjoniya, keyin Abu Bakr Ahmad Juzjoniy, Abu Nasr al-Iyoziy va Nusayr ibn Yahyo Balxiy orqali Abu Mansur Moturidiyning o‘zlariga yetib keladi [11:69].

Barcha buyuk ulamolar singari, Moturidiy ham o‘z davrida ko‘plab zakovatli, ilm-fanga chanqoq, iqtidorli va mashhur olimlarni tarbiyalab yetishtirganlar. U zotning ilmiy maktabi o‘sha davr islom olamida aqida va fiqh ilmlarining yuksalishida beqiyos o‘rin tutdi. Shogirdlari musulmon dunyosida ilm va ma’rifatning gullab-yashnashiga munosib hissa qo‘shdilar. Ularning barchasi o‘z zamonasining peshqadam olimlari, taqvodor shaxslar va haqiqat yo‘lida sobit kishilar bo‘lishgan. Shogirdlar orasida Hakim Samarqandiy alohida o‘rin tutadi. Abu Sa’d Sam’oniyning yozishicha, u zot Abdulloh ibn Sahl Zohid hamda Amr ibn Osim

Marvaziydan hadis rivoyat qilgan, fiqh ilmida esa bevosita ustozlari Moturidiydan ta'lim olganlar. "at-Tabaqotu-s-saniya" asarida ham bu zotning Moturidiydan fiqh va kalom ilmlarini egallaganlari qayd etiladi. Uzoq yillar Samarqandda qozilik qilgan Imom Hakim aql va hikmat bilan ish yuritishi, odil qarorlari va nasihatlari bilan tanilgan. Shu sababli ularga "Hakim" nomi berilgan. U zot 342/953-yil Muharram oyidagi Ashuro kunida Masjidul haramda vafot etgan [12:44]. Abdulkarim Pazdaviy ham Moturidiyning shogirdlaridan bo'lib, "at-Tabaqotu-s-saniya"da u zotning fiqh ilmini bevosita Moturidiydan o'rganganlari, hadis ilmida esa Buxoriyning shogirdi Mansur Abu Tolha Bazdaviydan ta'lim olganlari zikr qilinadi. Abdulkarim Pazdaviy 390/1000-yil vafot etganlar [12:101]. Yana bir shogirdlaridan biri – Abu Lays Buxoriy. "Javohir" asari muallifining yozishicha, Abu Lays Buxoriy, Hakim nomi bilan mashhur bo'lgan Abu Qosim Is'hoq ibn Muhammadning yaqin hamrohi bo'lib, ikkisi ham Abu Mansur Moturidiyning shogirdlari sanaladi. Ular ustozlaridan kalom va fiqh ilmlarini chuqur o'zlashtirib, keyinchalik bu bilimlarni keng yoyishda katta xizmat qilganlar.

Bu uch shogird moturidiy maktabining yorqin vakillari sifatida, o'z davrida ilmiy, axloqiy jihatdan namuna bo'lishgan. Ularning asarlari, qozilik faoliyati, hadis rivoyatlari va fiqhiy qarashlari bugungi kunda ham ilm ahli uchun bebaho manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Qomusiy manbalarda bizgacha Abu Mansur Moturidiyning ko'plab asarlari haqidagi ma'lumotlar yetib kelgan. Manbalarda ta'kidlanishicha, Moturidiy uch yo'nalishda – kalom, tafsir va fiqh bo'yicha asarlar yozgan. Moturidiy ta'limotining mashhur vakili Abu-l-Mu'in Nasafiy "Tabsiratu-l-adilla" asarida Moturidiy qalamiga mansub quyidagi asarlarni sanab o'tgan [4:359]:

1. "Ta'vilot Qur'on karim"
2. "Kitob tavhid"
3. "Kitob maqolat" [4:52]
4. "Kitob radd avoil adilla lil Ka'biy"
5. "Kitob radd tahzib jadal lil Ka'biy"
6. "Kitob bayon vahm mo'tazila"
7. "Kitob fir radd alal qaromita"
8. "Radd vaid fussoq lil Ka'biy"
9. "Radd kitob imomat li-ba'z ar-ravofiz"
10. "Radd usul hamsa li Abu Umar Bohiliy"
11. "Sharh Jomi' sag'ir"
12. "Kitob jadal fi usul fiqh"
13. "Ma'haz sharia fi usul fiqh"

Moturidiyning ikki asari – Kitob at-Tavhid va Ta'vilot Qur'on Karim to'liq holda yetib kelgan bo'lib, ular haqida aniq ilmiy tasavvur mavjud. Moturidiy tafsir

yo‘nalishida yozgan ushbu asari “Ta’vilot ahli-s-sunna” nomi bilan ham mashhur. Bu tafsir Moturidiy ta’limotida yuksak o‘rin tutadi va Moturidiy ulamolari nazarida boshqa hech bir tafsir unga tenglasha olmaydi. Asarning ko‘plab qo‘lyozma nusxalari dunyo kutubxonalarida saqlanadi. Eng qadimiy nusxalaridan biri Makkadagi “Maktaba Haram Makkiy” fondida mavjud. Asar yuzasidan bir necha bor tadqiqot ishlari olib borilgan. 1972-yilda tadqiqotchilar “Fotiha” surasidan “Baqara” surasining yarmigacha bo‘lgan qismini nashr ettirgan [13:68]. 2009-yilda turk olimi Bekir Topalo‘g‘li asarni ko‘p jildli shaklda ikkinchi marotaba to‘liq nashr etdi.

Kitob at-Tavhid asari Moturidiyning kalom ilmi bo‘yicha eng muhim asari bo‘lib, unda uning aqidaviy qarashlari to‘liq ifoda etilgan. Asar bir necha bor nashr qilingan. Birinchi nashri 1970-yilda Bayrut shahrida “Dar al-Mashriq” nashriyotida Fathulloh Xulayf tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib [2:183], unda Angliyadagi Kembrij universiteti kutubxonasida saqlanayotgan qo‘lyozmadan foydalanilgan. Keyinchalik Turkiyaning Anqara shahrida ham qayta nashr etilgan.

Moturidiy dastlab Movarounnahrda, so‘ngra butun islom olamida keng tarqalgan aqidaviy ta’limot – moturidiylikning asoschisiga aylandi [2:203]. Ushbu ta’limot islom ilmlarining turli sohalarida, aqida, kalom, fiqh, tafsir va tasavvuf rivojida muhim o‘rin egalladi. Bugungi kunda ham moturidiylik ta’limotiga ergashuvchilar va uning yirik namoyandalari mavjud bo‘lib, ular Moturidiyning merosini zamonaviy diniy va ilmiy faoliyatda davom ettirib kelmoqdalar.

Moturidiylik va ash’ariylik aqidaviy ta’limotlari o‘z mohiyatiga ko‘ra ahli sunna val-jamoa doirasida shakllangan bo‘lib, ular turli hududlarda yuzaga kelgan kalom maktablaridir. Abu Mansur Moturidiy, Abu Hanifa asos solgan hanafiylik mazhabi doirasida faoliyat olib borgan. U o‘z davridagi murakkab ijtimoiy-siyosiy muhit taqozosi bilan aqidaviy masalalarni faqat Qur’on va hadisga asoslanib talqin qilish bilan cheklanmay, mantiqiy dalillash uslubini ham kiritdi. Moturidiy ana shu uslub orqali bid’atchi oqimlar keltirgan hujjatlarga ilmiy asosda raddiyalar berdi va hanafiy mazhabining uslubiy jihatdan boyishiga sabab bo‘ldi. Natijada, aqliy dalillarga asoslangan kalom maktabi yuzaga keldi. Hanafiy faqihi Ibn Humom o‘zining “Musayarot” [15:36-37] asarida “Moturidiylik va Ash’ariylik” o‘rniga “Hanafiylik va Ash’ariylik” iborasini qo‘llagan. Moturidiylik va ash’ariylik bir davrda, ammo turli hududlarda vujudga kelgan ikki aqidaviy ta’limotdir. Ushbu maktablar tarixi ilmiy jihatdan tahlil etilganda, ularning asosiy umumiyligi – islom aqidasini sof holda keng jamoatchilikka yetkazish, bid’at va botil oqimlarga qarshi qat’iy kurash olib borishdir. Ularning to‘g‘ri yo‘lda ekanligi o‘sha davrning mashhur olimlari tomonidan ham, keyingi asrlarda ham e’tirof etib kelinmoqda. Fransuz islomshunosi K.Gilliyot moturidiylik ta’limoti rivojlanishini uch bosqichga ajratib, uning oxirgi bosqichi XI asrga to‘g‘ri kelishini qayd etadi [16:127]. Keyingi ilmiy

tadqiqotlar Moturidiylik tarixini yanada kengroq davrni qamrab olgan holda o‘rganish zarurligini ko‘rsatdi.

Moturidiylikning rivojlanish jarayoni to‘rt bosqichga ajratildi: asos solinish bosqichi (243-333/857-944), shakllanish bosqichi (333-390/944-1000), rivojlanish bosqichi (391-750/1001-1349), keng yoyilish bosqichi (751-1440/1350-2019).

Asos solinish bosqichi Moturidiy hayoti va faoliyatini qamrab oladi. Bu davrda u mo‘taziliylar, rofiziylar va qarmatiylar kabi oqimlarning noto‘g‘ri qarashlariga qarshi turib, ularning da’volariga aql va naqlga asoslangan raddiyalar yozdi. Uning “Kitob radd avoil adilla lil-Ka’biy”, “Kitob radd tahzib jadal lil-Ka’biy”, “Kitob radd va’id vussoq”, “Kitob usul xomsa li Abi Umar Bohiliy”, “Kitob bayon avhom mo‘tazila” kabi asarlari bunga misoldir.

Shakllanish bosqichi Abu Mansur Moturidiy vafotidan keyingi asosiy bosqich hisoblanadi. Ushbu davrda moturidiya ta’limoti Samarqandda shakllandi. Bunda Imomning bevosita shogirdlari hamda unga ergashgan olimlarning xizmatlari katta bo‘ldi. Moturidiyning shogirdlari orasida Samarqand, Buxoro singari boshqa shahar vakillari bor edi. Ular ustozdan ta’lim olib, o‘z yurtlariga qaytishlari va boshqa hududlarga safar qilishlari natijasida ta’limot asta-sekin keng yoyildi. Shogirdlarning ayrimlari qozilik kabi mas’ul lavozimlarda faoliyat yuritganligi tufayli, moturidiya ta’limotining tanilishiga ham ta’sir ko‘rsatdi. Ular ustozlari asos solgan kalom maktabining oddiy davomchilari bo‘lib qolmay, o‘sha davrdagi mo‘taziliy, rofiziy va boshqa firqalarga raddiyalar ham yozdilar. Mazkur davrda Moturidiy shogirdlari orasida mashhurlari: Hakim Samarqandiy (vaf. 335/947) [17:158-159], Rustog‘faniy (vaf. 350/961), Abu Muhammad Abdulkarim ibn Musa Pazdaviy (vaf. 390/1000) lardir [18:378]. Ularning faoliyati tufayli moturidiya ta’limoti Samarqanddan tashqarida ham tarqalib, mustahkam ta’limotga aylandi.

Rivojlanish bosqichida moturidiya ta’limoti markazi hali ham Movarounnahr bo‘lsa-da, asta-sekin Xuroson va unga tutash hududlarga yoyildi. Samarqand ta’sirida Buxoro va Nasafda ham moturidiya maktablari shakllandi. Hanafiy-moturidiy olimlar ahli sunna doirasidan tashqaridagi oqimlarga qarshi ilmiy asosda raddiyalar berishdi. Moturidiylar va ash’ariylar o‘rtasida ham ilmiy bahslar kechdi. Bu bahs Somoniylar va Xorazmshohlar davrida kuchaydi. Mo‘g‘ullar istilosi oqibatida Samarqand va Buxoro kabi yirik markazlar vayron bo‘ldi, ko‘plab olimlar qatl etildi va ta’limot bir muddat tanazzulga yuz tutdi.

Keng yoyilish bosqichida Temuriylar, Shayboniylar, Ashtarxoniylar, Mang‘itlar kabi sulolalar hanafiy-moturidiy aqidasini qabul qildilar. Amir Temur va uning avlodlari Movarounnahrda moturidiya maktablarini qayta tikladilar. Keyinchalik Usmonlilar (1299–1924) va Boburiylar (1526–1858) imperiyalari ham hanafiy-moturidiy aqidasiga amal qildilar. Moturidiya kalom maktablari Movarounnahr va butun musulmon olamida keng yoyilib, Usmonlilar davrida davlat

dini sifatida qaror topdi, hamda Boburiylar davrida, Hindistonda katta madrasalar tarmog‘i orqali rivojlandi. Keyinchalik Devband maktabi hanafiy-moturidiy ta'limotning dunyo miqyosida eng yirik markaziga aylandi.

Abu Mansur Moturidiy o‘zining ta'limotini o‘sha davrda kuchli bo‘lgan mo‘taziliylar bilan aqidaviy kurash jarayonida rivojlantirdi va kengaytirdi. U yashagan davrda uning nomi bilan bog‘liq mustaqil ta'limot mavjud emas edi [19:320]. Shu boisdan ham allomaning asosiy g‘oyaviy muxoliflari mo‘taziliylar, botiniylar va qarmatiylar hisoblangan. Bag‘dodda faoliyat yuritgan zamondoshi Abul Hasan Ash'ariy Movarounnahr mutakallimlari uchun bevosita muxolif sifatida qabul qilinmagan. Ikki maktab asoschilari bir-birlaridan mustaqil tarzda, turli muhitlarda yashab ijod qilganlar va ular o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri nizolar bo‘lmagan. IV-X asr oxiri va V-XI asr boshlariga kelib, Ash'ariy ta'limotining mavqei kuchayib, moturidiy maktabining nufuzi biroz susayganini ko‘rish mumkin. Buning birinchi sababi Xurosonda shofe'iylik ancha mustahkam ildiz otgani bo‘lsa, ikkinchi sababi esa, asl Basralik bo‘lgan va keyinchalik Bag‘dodda yangi kalom maktabiga asos solgan Abul Hasan Ash'ariyning faoliyati bilan bog‘liq edi. U qirq yil davomida mo‘taziliylar safida bo‘lgan, ammo ustozidan ayrim aqidaviy masalalarda qoniqarli javob ololmagach, mo‘taziliylikdan yuz o‘girgan [20:223] va Bag‘dodda mustaqil ravishda faoliyat yurita boshlagan. O‘sha davrda Bag‘dod ilmiy muhiti asosan hanbaliylar ta'sirida edi. Ash'ariy bir tomondan, mo‘taziliylar bilan bahs yuritishga, ikkinchi tomondan esa hanbaliy ulamolar ishonchni qozonishga majbur bo‘lgan. Natijada u o‘z asarlarida naqliy dalillarga ko‘proq urg‘u berib, hadis va tafsir asosida aqidaviy qarashlarini mustahkamlashga intildi. Uning “Kitob ibona an usul ad-diyana” asari bunga misol bo‘lib xizmat qiladi.

Moturidiy ta'limoti ash'ariyga nisbatan erkinroq, siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy muhitda yashab ijod qilgan. U o‘z asarlarida naqliy dalillar bilan bir qatorda aqliy dalillarga ham alohida e'tibor qaratdi. Bu jihat, naqliy manbaalarga tayanishni afzal bilgan muhaddis va mufassirlar nazarida Ash'ariy ta'limotini yanada maqbulroq qilib ko‘rsatgan [21:144]. Keyingi asrlarga kelib, Abu-l-Mu'in al-Nasafiy davrida ash'ariylarning Xurosonda mavqei kuchayib, ular asta-sekin Movarounnahrga ham kirib kelganlar. Bag‘dodda shakllangan ash'ariy maktabi Nishopurda keng tarqalib, Abu-l-Maoliy Juvayniy va Abu Homid G‘azzoliy kabi yirik mutakallimlar faoliyati tufayli katta ta'sir doirasiga ega bo‘ldi. Nizomulmulk tomonidan Nishopurda “Nizomiya” madrasasining barpo etilishi Ash'ariy maktabining nufuzini oshirdi. Xuroson va Movarounnahr ilmiy muhitida moturidiylik va ash'ariylik o‘rtasidagi bahs-munozaralar kuchaydi.

Hasan ibn Abdulmuhsin Abu Azba o‘zining “Ravzat bahiyya fima baynal ashaira val moturidiyya” asarida shunday ta'kidlaydi: “Ahli sunna val-jamoa aqidasining butun doirasi ikki qutb mutakallimlarining ta'limotlaridan tashkil

topgan. Ularning biri Abul Hasan Ash'ariy, ikkinchisi Abu Mansur Moturidiydir. Kimki ulardan biriga ergashsa, hidoyatga erishadi va aqidasida zalolatdan salomat bo'ladi" [22:16]. Abu Azba moturidiya va ash'ariya o'rtasidagi ixtilofli masalalar ikki turga bo'lib, lafziy ixtiloflarni 7 ta, ma'noviy ixtiloflarni 6 ta ekanligini qayd etadi.

Lafziy ixtiloflarning eng mashhurlaridan biri imonda "istisno" qilish masalasi bilan bog'liqdir. Masala shunday talqin qilinadi: Allohga, farishtalarga, ilohiy kitoblarga, rasullarga va oxirat kuniga imon keltirgan mo'min o'z e'tiqodini qanday ifodalashi kerak? U "Men haqiqatan mo'minman" deydimi yoki "Men, in shaa Alloh, mo'minman" deydimi? Ash'ariylar imonda istisnoga o'rin yo'q, deb hisoblaydilar. Ularning nazarida, imonda shak-shubha mumkin emas. Moturidiya ta'limotiga ko'ra, agar kimdir "Alloh xohlasa mo'minman" desa, u o'z imonini shak ostida ifodalagan bo'ladi, bu esa imonning sofligiga ziddir. Shuning uchun ular bunday imonni nosahih deb bilganlar. Bu masala Qur'on oyatlari bilan ham izohlanadi. Ash'ariylar "Kahf" surasidagi "إن شاء الله" iborasini dalil keltiradilar, hanafiy-moturidiylar esa "Anfol" surasida mo'minlarning tavsifi kelgan oyatlarni asos qilib oladilar [13:212].

Ikkinchi muhim masala baxt va baxtsizlik haqidagi ixtilofdir. Ash'ariy aqidasida insonning baxtli yoki baxtsiz bo'lishi qadar orqali belgilanib qo'yilgan va u o'zgarmaydi. Moturidiya ta'limotida, insonning baxtli bo'lishi yoki baxtsiz bo'lishi amal va sabablar bilan bog'liq bo'lib, ba'zan bir holatdan ikkinchi holatga o'tishi mumkin. Bu masalada Abu Hanifaning ta'limotlari alohida o'rin tutadi. Unga ko'ra, baxtsiz inson tavba bilan baxtli bo'lishi, baxtli inson esa gunoh tufayli baxtsiz holatga tushib qolishi mumkin. Ash'ariy esa bu fikrni qabul qilmaydi va odamzodning taqdiri qat'iy belgilanganini uqtiradi.

Keyingi ixtiloflardan biri kofirning mukofotlanishi masalasidir. Ash'ariy ta'limotiga ko'ra, kofir dunyo va oxiratda hech qanday mukofotga sazovor bo'lmaydi. Moturidiya ta'limotida, kofir dunyoviy ne'matlar bilan rizqlanishi mumkin, ammo oxiratda ajr olmaydi.

Ma'noviy ixtiloflarga to'xtalsak, ularning eng mashhuri Allohning itoatkor bandani jazolash masalasidir. Ash'ariy bu masalani aqlan mumkin, ammo shar'an mumkin emas, deya izohlaydi. Moturidiy esa bunday narsaning mutlaq imkonsizligini ta'kidlaydi.

Bundan tashqari, bandaga toqati yetmaydigan narsaning yuklanishi masalasi ham ixtilofli bo'lib, Moturidiylarga ko'ra bunday bo'lishi mumkin emas. Ash'ariylar esa Alloh istasa bunday narsani yuklashi mumkin, deb hisoblaydilar.

Payg'ambarlarning gunohlardan pokligi masalasida ham tafovutlar mavjud. Moturidiya ulamolari payg'ambarlar katta va kichik gunohlardan masumdir, deb

hisoblaydilar. Ash'ariylar esa ularning risolatdan oldin kichik gunohlarga yo'l qo'yishi mumkinligini, risolatdan keyin bunday bo'lmasligini ta'kidlaydilar.

Moturidiya va ash'ariya o'rtasidagi bu ixtiloflar nazariy va uslubiy tafovutlardan iborat bo'lib, ularning asosiy aqidaviy poydevorida bir xillik mavjud. Shu boisdan ular ahli sunna val-jamoa doirasida e'tirof etilgan ikki yirik maktab sifatida tarixiy va ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Mutakallimning izdoshlari tomonidan kalom ilmi bo'yicha bir qator muhim asarlar ta'lif etildi. Bu asarlarda ko'tarilgan masalalar, Abu Hanifaning aqidaviy qarashlari asosida yoritilgan bo'lib, ular hanafiy aqidaviy maktabi va Moturidiy ta'limotining mustahkamlanishida muhim o'rin egalladi.

"Kitob as-Savod al-a'zam", asar muallifi mashhur hanafiy olim Hakim as-Samarqandiy bo'lib, u ushbu kitobni Somoniylar davrida hukmdorlar talabiga binoan yozgan [13:231]. Somoniylar amiri Ismoil ibn Ahmad, Buxoro va Samarqandga hokimlik qilgan yillarida, 290/902-yilda Movarounnahrning yetuk ulamolarini bir yerga jamlab, sunniy aqidani izohlovchi va himoya qiluvchi asar yozishni buyuradi. Bu mas'uliyatli vazifa Hakim as-Samarqandiyga topshiriladi. U 62 bobdan iborat "Savod al-a'zam" nomli asarni yozadi. Asar o'z davrida Movarounnahrda hukm surgan hanafiy aqidaviy qarashlarni yirik ilmiy manba sifatida jamlagan bo'lib, davlat miqyosida rasmiy aqidaviy kitob sifatida tasdiqlangan.

"Risola fil-iman", to'liq nomi "Risola fil-iman juz' min al-iman" bo'lgan ushbu kichik risola ham Hakim as-Samarqandiy qalamiga mansub. U ikki sahifadan iborat bo'lib, 1872-yilda "Savod al-a'zam" asari nashriga ilova sifatida chop etilgan. Risolada imonning qalb bilan tasdiq va til bilan iqror bo'lishi shart ekani, amallar imonning bir qismi emasligi, imon kamaymasligi va ko'paymasligi kabi masalalar yoritiladi. Xorijiylar, mo'taziliylar va Imom Shofe'iyning imon masalasidagi qarashlariga raddiyalar berilgan [14:287]. Risola mazmuni jihatidan hanafiy va moturidiy aqidasini himoya qilishga qaratilgan.

"Favoid", bu asar ham Abu Hasan Ali ibn Said Rustug'foniy qalamiga mansub bo'lib, hozirda Istanbuldagi Sulaymoniya kutubxonasida, Yangi Jome bo'limida, 547-raqamli qo'lyozma sifatida saqlanadi [13:233]. Asar Ahmad ibn Musa Keshshiyning "Majma' havodis van navozil" kitobi qo'lyozmasi tarkibida joylashgan. "Favoid"da ro'za, namoz, imon, nikoh, axloq kabi fiqhiy masalalar yoritilgan bo'lib, turkiyalik tadqiqotchi Ahmet Akning ta'kidlashicha, u moturidiy ta'limotiga oid ilk asarlardan biri sanaladi.

Har bir davrda islom dinining insonparvarlik va ezgulikka chorlovchi da'vatlarini noto'g'ri talqin qiluvchi mafkuralar paydo bo'lishi tabiiy holatdir. Shunday oqimlarga qarshi kurash olib borishda Ahli sunna val-jamoa ulamolarining o'rni tarixan beqiyosdir. Movarounnahr zaminida yetishib chiqqan buyuk alloma,

IX-X asrlarda Samarqandda yashab ijod qilgan Abu Mansur Moturidiy ham o‘z davrida e’tiqodiy sohada paydo bo‘lgan adashgan oqimlarga qarshi qat’iy ilmiy dalillar asosida kurashdi va musulmon olamida keng tanilgan Moturidiya ta’limotiga asos soldi [24]. Bugungi kunda ham Ahli sunna val-jamoa aqidasining ikki asosiy ta’limotlaridan biri bo‘lgan, moturidiya ta’limoti o‘z ahamiyatini saqlab qolgan. Bu ta’limot, diniy ekstremizm, aqidaparastlik va siyosiy maqsadlarda dinni suiiste’mol qilishga qarshi ilmiy-mafkuraviy asos sifatida muhim o‘rin tutadi. Moturidiy yashagan davrda turli firqalar imon masalasini tor talqin qilib, o‘zlariga qo‘shilmaganlarni kufrda ayblashga moyil edi. Ularning asosiy maqsadi hokimiyatni qo‘lga olish va dinni siyosat bilan aralashtirishdan iborat bo‘lgan. U bunday oqimlarga raddiyalar berib, “Kimki chin qalbdan o‘zini musulmon deb hisoblasa, u komil musulmon hisoblanadi va uni hech kim kufrda ayblashga haqqi yo‘q.” degan fikrni ilgari surdi [13:329]. Bu yondashuv diniy bag‘rikenglikni ta’minlash bilan birga, jamiyatda ijtimoiy totuvlikni ham mustahkamladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-aprel kuni e’lon qilingan “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni mazkur yo‘nalishda burilish nuqtasi bo‘ldi [25]. Ushbu hujjat asosida Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etildi [26]. Ushbu markaz Moturidiyning ilmiy merosi hamda ta’limotiga hissa qo‘shgan allomalar, Abu-l-Mu’in an-Nasafiy, Nuriddin Sobuniy, Alouddin Samarqandiy, Hakim Samarqandiy kabi olimlar merosini chuqur o‘rganadi, noyob qo‘lyozmalarni aniqlab, tarjima qiladi va ilmiy muomalaga kiritadi, xalqaro hamkorlik asosida tadqiqotlar olib boradi, yosh olimlar uchun xalqaro stipendiyalar ta’sis etadi.

Imom Moturidiy hikmatlari va aqidaviy qarashlari bugungi kunda mafkuraviy barqarorlik, diniy bag‘rikenglik va yoshlar tarbiyasida mustahkam asosdir. Yosh avlod qalbiga Moturidiya ta’limotidagi ilmga muhabbat, tinchlikka intilish, kamtarlik va halollik kabi qadriyatlarni singdirish orqali ularni yot g‘oyalar ta’siridan asrash, Vatan ravnaqi yo‘lida ma’rifatli, shijoatli va vatanparvar qilib tarbiyalash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Imom Zabidiy / Ithofu-s-saoda. – J.2. – Qohira: Matbaatul maymana, 2015. – 339 b.

2. Ahmad Sa’d Damanhuriy / Imom Moturidiy hayoti va faoliyatiga chizgillar [Matn]. – Toshkent: “O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2023. – 264 b.

3. Ibn Fazlulloh Umariy / Masoliku-l-absor. – J.6. – New York: Routledge, 2017. – 122 b.

4. Abu-l-Mu’in Muhammad al-Nasafi / Tabsirat al-Adilla. – V.1. – Damas: Institut Français de Damas, 1990. – 536 p.

5. Ahmad Adnaviy / Tabaqotu-l-mufassirin. – Madina: Maktabatu-l-ulum va-l-hikam, 1997. – 188 b.

6. Muhammad ibn Hasan Hajaviy Saolibiy / Al-Fikaru-s-samiy. – Rabot: al-Ma'rif, 1922. – J.3. – 176 b.

7. Imom Pazdaviy / Usul-d-din. – Qohira: Dar Ihya al-Kutub al-Arabiyah, 1963. – 260 b.

8. Abd al-Qodir ibn Abi al-Vafa al-Qurayshiy al-Hanafiy / Al-Javohiru-l-muziya. – J.3. – Qohira: "Hajr" nashriyoti, 1993. – 736 b.

9. Najmiddin Umar ibn Muhammad ibn Ahmad Nasafiy / Al-Qand fi zikri ulamoi Samarqand. – Saudiya Arabistoni: Maktabatu-l-kavsar, 1991. – 622 b.

10. Vladimir Antonovich Bartold / Turkiston. – Moskva: Nauka nashriyoti, 1974. – 570 b.

11. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf / Hidoyat imomi. – Toshkent: "Hilol" nashriyot-matbaasi, 2021. – 128 b.

12. Muhammad abd al-Hayy al-Lahnaviy / Al-Favoidu-l-Bahiya. – Bayrut: Dar al-Arqam, 1998. – 632 b.

13. S.Oqilov, J.Tohirov, O'.Palvanov / Moturidiya ta'limoti tarixi [Matn]: darslik. – Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2020. – 423 b.

14. Sönmez Kutlu / Türklerin İslamlaşma Sürecinde Mürcie ve Tesirleri. – Ankara. Türkiye Diyanet Vakfı Yayınları, 2000. – 332 s.

15. Kamoluddin Muhammad ibn Abdulvohid Sivosiy Hanafiy / Musayarot. – Qohira: Maktaba Mahmudiya at-tijoiya, 1929. – 201 b.

16. C.Gilliot Theology / History of civilization of Central Asia. – V.4. – P.2. – Quentigny: Imprimerie darantiere, 2000. – 745 p.

17. Taqiyyuddin Tamimiy / At-Tabaqot as-saniya. – J.2. – Ar-Riyod. Dar al-Rifa'i, 1983. – 653 b.

18. Taqiyyuddin Tamimiy / At-Tabaqot as-saniya. – J.4. – Ar-Riyod. Dar al-Rifa'i, 1983. – 452 b.

19. B.Madelung. Abu l-Mu'in al-Nasafi and Ash'ari Theology // The Sultan's Turret: Studies in Persian and Turkish Culture in Honour of Clifford Edmund Bosworth. – V.2. – Leiden: Brill Academic Publishers, 2000. – 468 p.

20. И.П.Петрушевский / Ислам в Иране в VII-XV веках. – Ленинград: Издательство Ленинградского Университетаб, 1996. – 400 с.

21. S. Oqilov / Abul Muin Nasafiy ilmiy merosi va Moturidiya ta'limoti / Monografiya. – Toshkent: Nur poligraf, 2008. – 190 b.

22. Abu Azba Hasan ibn Abdulmuhsin / Ar-Ravzat bahiya fima baynal ashaira va moturidiya. – Bayrut: "Dor sabil irshod" nashriyoti, 1996. – B.16.

23. https://oliymahad.uz/45098

24. https://muslim.uz/uz/e/post/24345-moturidiya-ta-limoti

25. https://lex.uz/en/docs/-5514989

26. https://lex.uz/uz/docs/-5084643

MOTURIDIYLIK VA GLOBALLASHUV SHAROITIDA DINIY-MA'NAVIY TAHDIDLAR; RADIKALIZMGA QARSHI MAFKURAVIY IMMUNITET

Otaqulova Parinoz Ilyos qizi
Samarqand davlat pedagogika instituti tarix yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya. Moturidiy va globallashuv sharoitida diniy-ma'naviy tahdidlar va radikalizmga qarshi mafkuraviy immunitet masalasi zamonaviy jamiyat va davlat uchun dolzarb muammo hisoblanadi. Dunyoning barcha burchaklarida tez rivojlanayotgan texnologiyalar, axborot oqimining cheksiz ko'lamda oshib borishi, madaniyatlararo o'zaro ta'sir va integratsiyalashuv jarayonlari global maydondagi o'zgarishlarni jadallashtirmoqda. Shu bilan birga, bunday jarayonlar o'zbek jamiyati, ayniqsa uning diniy va ma'naviy tarkibiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Moturidiy ta'limotining asoslari va qadriyatlari, dunyoqarashdagi tinchlikparvarlik, diniy bag'rikenglik va ijtimoiy barqarorlik tamoyillari zamonaviy globallashuv sharoitida aniq va kuchli mafkuraviy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: Globallashuv, qadriyatlar, radikalizm, ekstremistik g'oyalar, yoshlar, axborot texnologiyalari, tahdidlar, madaniyat, munosabatlar, mafkuraviy immunitet, global maydon.

Globallashuv jarayonida dunyo xalqlari o'rtasidagi madaniy munosabatlar yanada chuqurlashib, axborot almashinuvi tezlashmoqda. Bu esa diniy-ma'naviy tahdidlarning yangi usullar bilan tarqalishiga zamin yaratmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali radikal va ekstremistik g'oyalar bolalar va yoshlar orasida osonlik bilan tarqalmoqda. Shu bois, jamiyatimizda yosh avlodni bunday xavfli ta'sirlardan himoya qilish uchun radikalizmga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur immunitet insonlarning diniy bilimlari, dunyoqarashi va axloqiy qadriyatlarini mustahkamlash, shuningdek, ular orqali ekstremistik g'oyalarning oldini olish imkonini beradi. Moturidiy ta'limoti o'zining go'zal mezonlari va nazariy asoslari bilan diniy ekstremizmga qarshi kurashishda muhim vosita bo'la oladi. Islom olamida o'zining tafsiriy piramidasi va aqidaviy tizimi bilan alohida ahamiyatga ega bo'lgan Moturidiy, diniy tafovutlarga nisbatan bag'rikenglik va ilmiy asosda qo'llab-quvvatlangan din tushunchasini ilgari suradi. Bu ta'limotda haddan tashqari qattiqqo'llikdan, ekstremistik qarashlardan uzoqlik va diniy amaliyotni insonparvarlik nuqtai nazaridan anglash zaruriyati katta o'rin tutadi. Ana shu jihatlarni zamonaviy globallashuv sharoitida mahkam egallashi, yoshlarni noto'g'ri qarashlardan himoyalash uchun mustahkam poydevor vazifasini o'taydi.[1;148]

Diniy-ma'naviy tahdidlarning kuchayib borayotganining yana bir sababi – bu o'zbek jamiyatida diniy tafsirlar va ma'naviyatga bo'lgan ehtiyojning oshib borishi. Yosh avlod orasida bu ehtiyoj to'liq va sifatli tarzda qondirilmasa, tashqi ta'sirlar, ayniqsa, radikalizmga asoslangan ekstremistik g'oyalar tez tarqalib ketadi. Shu nuqtai nazardan, jamiyatda diniy bilimlarni, musulmonlarning tarixiy an'analarini, qadriyatlar tizimini chuqur o'rganish va targ'ib qilish zarur. Bu ishda Moturidiy ta'limotining ilmiy asoslangan diyoriyati va amaliyati yoshlarni islomning haqiqiy mohiyati bilan tanishtirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Radikalizmga qarshi mafkuraviy immunitet faqat diniy ma'rifatni oshirish bilan cheklanmaydi, balki jamiyatda umumiy ma'naviy-madaniy muhitni yanada mustahkamlashni talab qiladi. Bu esa ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, yoshlar orasida sog'lom hayot tarzini rivojlantirish, tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish orqali amalga oshiriladi. Shu maqsadda davlat va jamiyat idoralari o'rtasida hamkorlikni kengaytirish, diniy tashkilotlar va ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish zarurati bor. Mazkur yo'nalishlarda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar yoshlarning ekstremistik guruhlardan uzoqlashishiga yordam beradi va ularning mustahkam mafkuraviy pozitsiyasini shakllantiradi. Bundan tashqari, global axborot makonining o'zgarishlari va yangi texnologiyalarning rivojlanishi yangi yondashuvlarni talab qiladi.[2;27]

Buyuk mutalikallim " Abu Mansur Moturdiy bobomizning o'rta asrlardagi g'oyat hatarli va tahlikali bir vaziyatda o'z hayotini havf ostiga qo'yib, avlodlariga ibrat bo'ladigan ma'naviy jasorat namunasini ko'rsatib, islom olamida "Musulmonlarning e'tiqodini tuzatuvchi " degan yuksak sharafga sazovor bo'lgani bu nodir shaxsning ulkan aql-zakovati va matonatidan dalolat beradi."

Ul zot asos solgan moturdiylik maktabi sharq mamlakatlarida bunday katta shuhrat topishining sababi shundaki unda ilgari surilgan g'oyalar islom dinimizning asosini tug'rilik, ezgulik va insoniylikdan ibodat deb biladigan jamiki mo'min-musulmonlarning qarashi va intilishlari bilan hamohangdir[3;25]

Radikalizmga qarshi kurashda raqamli platformalarda targ'ibot ishlarini tashkil etish, yoshlarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish, ijtimoiy tarmoqlarda to'g'ri axborot uzatishni kengaytirish dolzarbdir. Shu bilan birga, yoshlarning diniy savodxonligini oshirish, ularni haqiqiy islom ta'limotlari bilan tanishtirish, diniy ekstremizm belgilarini aniqlash va ulardan himoyalanish usullarini o'rgatish lozim. Bu jarayonlarda Moturidiy ta'limoti o'zining etik qadriyatlari va aqidaviy asoslari bilan mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi. Diniy-ma'naviy tahdidlarning oldini olishda jamiyat va davlatning o'zaro faol hamkorligi muhim o'rin tutadi. Hukumat organlari, diniy tashkilotlar, ta'lim muassasalari va ommaviy axborot vositalari o'rtasida kompleks kurash olib borilishi zarur. Bu o'zaro hamkorlik tizimi radikalizmga qarshi birgalikda yondashuvni ta'minlaydi, diniy ekstremizmning

oldini olishni samarali qiladi. Shu yo‘l bilan yosh avlodda mafkuraviy immunitet yuqoriga ko‘tarilib, ular jamiyat rivojiga ijobiy hissa qo‘shadigan mustaqil, ongli fuqarolarga aylanishadi. Shuningdek, diniy-ma’naviy tahdidlarni kamaytirishda ijtimoiy iqtisodiy omillarni hisobga olish zarur. Iqtisodiy muammolar, ijtimoiy notenglik va tadbirkorlikning past darajasi yoshlarni radikal g‘oyalarga jalb qilish xavfini oshiradi. Shu sababli, davlatning ijtimoiy siyosatida o‘zgarishlar amalga oshirish, yoshlarga ish o‘rinlari yaratish, ta’lim va madaniyat sohasini rivojlantirish radikalizmga qarshi strategiyaning ajralmas qismi bo‘lishi kerak. Bu holat yoshlarni ekstremistik guruhlarga jalb qilishni oldini oladi va ularni jamiyatning faol ishtirokchisiga aylantiradi.[4;67]

Madaniyatlararo dialog va bag‘rikenglikni rivojlantirish ham diniy-ma’naviy tahdidlarni kamaytirishning muhim yo‘nalishi sanaladi. Uzoq muddatli tinchlik va o‘zaro hurmatning asosi sifatida diniy yozuvlar va qadriyatlar o‘rtasidagi o‘xshashliklar targ‘ib qilinishi lozim. Bu esa, o‘z navbatida, ekstremistik g‘oyalarning ildiz olishiga imkon bermaydi va yoshlarning to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirilishiga xizmat qiladi. Moturidiy ta’limotidan olingan darslar shu jarayonda muhim o‘rin tutishi mumkin, chunki uning asosiy tamoyillari insonparvarlik va adolatni targ‘ib qilishga qaratilgan. Radikalizmga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish jarayonida o‘qituvchilar, ota-onalar va jamiyatning barcha katlamlari ham faol ishtirok etishi lozim. Ta’lim tizimida tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish, yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning diniy tushunchalarini to‘g‘ri shakllantirish muhimdir. Bu jarayonda Moturidiy ta’limotining aqidaviy va etik tamoyillarini o‘rganish, targ‘ib qilinish yoshlar fikrida ekstremistik ideologiyalarning o‘rnini bosadigan sog‘lom mafkurani shakllantirish imkonini beradi.[5;23]

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Moturidiy va globallashuv sharoitida diniy-ma’naviy tahdidlar dolzarb va murakkab muammo hisoblanadi. Ularning oldini olish va radikalizmga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish uchun jamiyat va davlatning barcha imkoniyatlari safarbar etilishi zarur. Bu yo‘lda Moturidiy ta’limotining tinchlikparvar, ilmiy asoslangan va insonparvar ruhidagi qadriyatlari besh qichoq foydalanishga loyiqdir. Globallashuv jarayonida yangi texnologiyalar va axborot vositalaridan oqilona foydalanish, yoshlar ma’naviyatini sog‘lomlashtirish, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda barqarorlikni ta’minlash radikalizmga qarshi samarali kurashning asosi hisoblanadi. Shu bilan birga, madaniyatlararo muloqot va diniy bag‘rikenglikni rivojlantirish yosh avlodning mustahkam mafkuraviy immunitetini shakllantirishga qaratilgan keng va samarali strategiyaning muhim elementi bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu harakatlar natijasida jamiyatda osoyishtalik, ijtimoiy uyg‘unlik va milliy birdamlik mustahkamlanadi, yoshlar esa kuchli, sog‘lom va ongli fuqarolarga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алимов Р. М. Центральная Азия: общность интересов. - Т.:Шарц , 2005. - 148 бет.
2. Safoeva. S. Globallashuv jarayonining ijtimoiy hayot sohalariga ta'siri. // Globallashuv jarayonida jamiyatni demokratlashtirishning siyosiy, falsafiy-huquqiy masalalari. -Toshkent: Falsafa va huquq nashriyoti, 2006, 27-bet.
3. Islom Abdug'aniyivich Karimov "Yuksak ma'naviyat yingilmas kuch". Toshkent;. Manaviyat nashiryoti. 2008-yil.25-bet.
4. Quchqarov. V. Milliy o'zlikni anglash va barqaror taraqqiyot T.: Akademiya , 2013 67-bet
5. Zokirov B. G'arb tamadduni: inqiroz alomatlari // Tafakkur, 2007. №2. - 23 b.
6. Quronov. M Mafkuraviy tahdidlar va yoshlar tarbiyasi T.: Akademiya ,2008 54-bet.

MOTURIDIYLIK TA'LIMOTI VA IJTIMOIY BIRDAMLIK

Mo'minov Xikmatillo Chari o'g'li
Termiz davlat pedagogika instituti talabasi
Ilmiy rahbar: Jo'rabek Cho'tmatov

Annotatsiya. Maqolada Imom Abu Mansur Moturidiy ta'limotining asosiy g'oyalari va ularning ijtimoiy birdamlik bilan uzviy aloqasi tahlil qilinadi. Ibn Xaldunning "asabiyya" nazariyasi bilan qiyosiy tahlil asosida Moturidiy merosining zamonaviy jamiyat uchun dolzarbligi yoritiladi. Natijada, diniy-ilmiy tamoyillar ijtimoiy totuvlik va millatlararo barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni aniqlanadi.

Kalit so'zlar: Moturidiy, aqida, aql, adolat, iymon, asabiyya, Ibn Xaldun, ijtimoiy birdamlik.

Kirish. Bugungi globallashuv davrida ijtimoiy birdamlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik masalalari har qachongidan ham dolzarbdir. Sharq tafakkuri tarixida bu borada o'zining boy ilmiy merosi bilan alohida o'rin tutgan Imom Abu Mansur Moturidiy (870–944) va tarix falsafasining buyuk namoyandasi Ibn Xaldun (1332–1406) fikrlari alohida e'tiborga loyiq. Moturidiy aqidaviy masalalarda aql va naql uyg'unligini asoslagan bo'lsa, Ibn Xaldun jamiyatning birligi va barqarorligini "asabiyya" konsepsiyasi orqali tahlil etadi.

Imom Moturidiy shaxsiyati va ta'limoti Imom Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud al-Hanafiy Moturidiy as-Samarqandiy hijriy 256,milodiy 870-yilda Samarqandning Moturid mahallasida tavallud topgan.Vafot etish sanasi hijriy 333, milodiy 944-yilda bo'lib,Samarqandning mashhur chokardiza qabristoniga dafn etilgan [3]. Abu Mansur Moturidiy hanafiy fiqh va kalom

maktabining yirik namoyandasi bo‘lib, asarlari musulmon tafakkurida chuqur iz qoldirgan. Uilrix Rudolf ta’biri bilan aytganda, uning tafakkuri - mavjud turli ta’limotlardan sintez yo‘li bilan yangi nazariyani ishlab chiqishning noyob namunasidir [2]. Uning Kitob at-Tavhid va Ta’vilot al-Qur’on asarlari aqidaviy masalalarning mantiqiy asoslarini ochib beradi.

Asosiy tamoyillari:

Aql va naql muvozanati – diniy masalalarda naqlni rad etmay, uni aql bilan uyg‘unlikda sharhlash.Iymon masalasi – iymon qalb, til va amal uyg‘unligi orqali mustahkamlanadi.

Inson irodasi va adolat – inson erkin, o‘z amallari uchun javobgar; bu jamiyatda mas’uliyat va birdamlikni ta’minlaydi. Bizni mavzumizga eng aloqador qismi ham shu. Moturidiylik ta’limoti inson irodasi borasida o‘z davridagi turli mutaassib g‘oyalarga munosib javob qaytara olgan. Xususan mutaziliylar iroda masalasida «U Zot(Alloh) barchani to‘g‘ri yo‘lda bo‘lishini xohlagan va O‘zi xohlagani bo‘lishini va’da qilgan va bu bo‘lmagan « kabi fikrlarda sobit turishgan. Va musulmonlar orasida naql qilib kelingan «Alloh xohlagan narsa bo‘ladi va U Zot xohlamagan narsa bo‘lmaydi» degan so‘zga qarama qarshi bo‘lib qolishgan. Shuningdek, Moturidiyga ko‘ra, ilgari iroda masalasi xuddi fitrat masalasiga o‘xshash bo‘lganini, ya’ni Muhammad alayhissalomning «har bir tug‘ilgan bola fitratda tug‘iladi. Ota-onasi uni yahudiy qiladi, nasroniy qiladi va majusiy qiladi» degan hadisini keltiradi.Bu bilan Allohning yagonaligi borasida hamma barobar ekanini ta’kidlaydi. Va yana shuni aytadiki, mutaziliylar ig‘vosidan oldin barchaning nazdida shunday bo‘lganini ta’kidlaydi. Moturidiylik ta’limoti mutaziliya va shu kabi turli mutaassib g‘oyalarga qarshi tom ma’noda qalqon vazifasini o‘tagan. U adashgan firqalarga qarshi kurash bayroqdori bo‘lgan. Uning aqliy hamda naqliy asosidagi raddiyalari mutaassib g‘oyalarning barham topib, xalq orasida ma’rifatparvarlik, mo‘tadillik va bag‘rikenglikning mustahkam qaror topishiga katta ta’sir ko‘rsatgan [1].

Ibn Xaldun nazariyasi va asabiyya tushunchasi.

Ibn Xaldun Muqaddima asarida “asabiyya” tushunchasini jamiyatning asosiy birlashtiruvchi kuchi sifatida talqin etadi. Unga ko‘ra:Asabiyya jamiyat a’zolarini birlashtiradi va davlat barqarorligini ta’minlaydi. Din asabiyyaga ma’naviy zamin bo‘lib xizmat qiladi.Asabiyya zaiflashganda, jamiyatda tanazzul yuz beradi. Ibn Xaldunga ko‘ra, din birdamlikka ruhiy-ma’naviy asos beradi. Shuning uchun diniy birdamlik asabiyyani yanada mustahkamlaydi va keng jamoalarni birlashtiradi.Odamlar o‘z yo‘llarining haqiqat ekanligini anglaganlarida, ularga qarshi hech qanday qarshilik bardosh bera olmaydi. Bunday jamoalarning dunyoqarashi va maqsadi yagona bo‘lib, umumiy kelishuvga asoslangan bo‘ladi. Ular o‘z maqsadlari yo‘lida jonlarini fido qilishga tayyor bo‘ladi [4].

O‘rta asrlar sharoitidan kelib chiqsak, faqat dingina insonlarning mana shunday jonfidolik bilan bo‘lsada birdam bo‘lishiga zamin yaratadi. Moturidiylik va ijtimoiy birdamlikning o‘zaro bog‘liqligi

Moturidiy aqidaviy qarashlari va Ibn Xaldunning ijtimoiy-falsafiy nazariyalari o‘zaro uyg‘unlashadi:

Moturidiylik ta'limoti va Ibn Xaldun nazariyasi

Aql va naql muvozanati. Asabiyya – jamiyatning birlashtiruvchi kuch hisoblanadi. Ijtimoiy birdamlik uchun eng avvalo Ijtimoiy murosa va bag‘rikenglik muhim o‘rin tutadi. Insonlar turli mazhablarga ergashishi va bu mazhablar orasida mutaassib g‘oyalarning keng tarqalib ketishi, iymon, aqida, Allohing sifatlari, Allohning irodasi, bandaning fe'li, inson irodasi kabi Islomdagi xassos masalalarning jamiyat orasida turlicha talqinlari tarqalishi ijtimoiy birdamlikka(asabiyya) salbiy ta'sir o‘tkazadi. Biz buni o‘tmishda ham va bugungi kunimizda ham ko‘p guvoh bo‘lyapmiz.

Din – ijtimoiy birdamlikning asosi bo‘lib xizmat qilishi kerak.Ijtimoiy murasozlik va bag‘rikenglik tamoyillari ustuvor bo‘lgan Moturidiylik ta'limoti dinning asl mohiyatini anglashda yordam beradi. Moturidiylik ta'limoti insonning Alloh irodasi oldida ojizligini ta'kidlab, shu bilan birga, insonning o‘zida ham iroda bo‘lishini aytadi. Bu aqida jamiyatning har bir a'zosida mas'uliyat hosil qiladi va bu mas'uliyat Yaratuvchi Zotga bog‘langan holda yanada o‘zgacha ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy talqin

O‘zbekiston va boshqa ko‘p millatli mamlakatlarda Moturidiy merosi millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni rivojlantirishda muhim o‘rin tutmoqda. Moturidiylik ta'limoti ilm egallash jarayonida bag‘rikenglik g‘oyasi asosida inson aql-zakovatining o‘rni va ahamiyatiga yuksak e'tibor qaratadi. Bu o‘z navbatida ushbu ta'limotning ommalashuvida muhim o‘rin tutgan. Bunday g‘oyalarga bugungi kunda ham insoniyat katta ehtiyoj sezmoqda [1] Shu ehtiyoj sababidan ham Samarqandda «Imom Moturidiy» xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etildi.Moturidiy hazratlarining «Kitob at-Tavhid» asari ilk bora o‘zbek tiliga tarjima qilindi. Ibn Xaldunning asabiyya konsepsiyasi zamonaviy fuqarolik jamiyatini barpo etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Demokratik islohotlar, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish yo‘lida islohotlar jadal amalga oshirilayotgan bugungi davrda Moturidiylik ta'limotini o‘rganish,o‘rgatish lozimdir. Mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 80-sessiyasidagi nutqida Islom ma'rifati g‘oyalarini chuqur o‘rganish va dunyoga targ‘ib etish bo‘yicha masalalariga to‘xtalib, xususan buyuk mutafakkirlarimiz qatori Imom Moturidiyning boy ma'naviy va ilmiy merosini alohida taqdimotini Birlashgan

Millatlar Tashkilotiga o‘tkazish niyatida ekanligini jahon hamjamiyatiga ma’lum qildi [5].

Xulosa va takliflar

1. Imom Moturidiy ta’limotida asosiy tamoyil sifatida aql va naqlning uyg‘unligi ta’kidlangan bo‘lib, bu qarash ijtimoiy birdamlikni ta’minlashda muhim nazariy asos hisoblanadi.

2. Ibn Xaldunning “asabiyya” konsepsiyasi jamiyat birligini ta’minlovchi kuch sifatida talqin etiladi. Ushbu nazariya Moturidiy ta’limoti bilan uyg‘unlashgan holda jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

3. Mutaziliylar va boshqa mutaassib oqimlarga qarshi Moturidiy bergan aqliy va naqliy raddiyalar musulmon jamiyatida mo‘tadillik, bag‘rikenglik va totuvlikni qaror toptirishga sabab bo‘lgan.

4. Bugungi kunda Moturidiylik va Ibn Xaldun qarashlari millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik va ijtimoiy barqarorlik siyosatini ilmiy asoslashda katta ahamiyat kasb etadi.

5. O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, Moturidiy merosini chuqur o‘rganish va targ‘ib qilish milliy qadriyatlarni mustahkamlash, yosh avlodni diniy ekstremizm va turli mutaassib oqimlardan himoya qilishda samarali vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

6.Taklif tariqasida, ijtimoiy birdamlik va diniy bag‘rikenglikni mustahkamlashda Moturidiy va Ibn Xaldun qarashlarini ta’lim tizimida, ayniqsa ijtimoiy-gumanitar fanlarda kengroq o‘rganish zarur.

7. Shuningdek, xalqaro miqyosda Imom Moturidiy merosini targ‘ib qilish, uning asarlarining turli tillarga tarjimasini kengaytirish va ilmiy konferensiyalar tashkil etish dolzarb ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kitob at-Tavhid. Abu Mansur Moturidiy. Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Hilol-Nashr, Toshkent-2024.

2. Ulrix Rudolf, Al-Moturidiy va Samarqand sunniylik ilohiyoti (qisqartirilgan nashr). Toshkent- 2002

3. Faxriddin Muhammadiyev, Imom Moturidiy, “Mutafakkirlar” ilmiy-ommabop risolalar turkumi, “Tafakkur” nashriyoti, Toshkent -2011

4. Ibn Xaldun. Muqaddima, Birinchi juz. «Trust and support « Toshkent-2025.

5. https://president.uz/uz/lists/view/8525

IMOM MOTURIDIY – HIDOYAT IMOMI

Xubbimov Qobul
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti talabasi

Islom aqidaviy tafakkuri tarixida Movarounnahr o‘lkasidan ko‘plab buyuk allomalar yetishib chiqqan. Ularning eng yiriklaridan biri Imom Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud Moturidiy as-Samarqandiydir. U IX–X asrlarda yashab, hanafiy mazhabi asosida kalom ilmini chuqur ishlab chiqqan va sunniy e’tiqodning asosiy tayanchlaridan biriga aylantirgan. Uning aqidaviy qarashlari musulmon ummati orasida o‘rta yo‘lni, aql va naql uyg‘unligini ta’minladi. Shu bois u tarixda “Hidoyat Imomi” nomi bilan mashhur bo‘lgan.

Imom Moturidiy hayoti va ilmiy shakllanishi

Imom Abu Mansur Moturidiy taxminan 870-yillarda Samarqand yaqinidagi Moturid qishlog‘ida tug‘ilgan. U dastlabki ta’limni o‘z zamonasining hanafiy ulamolaridan olgan. Ustozlari orasida Abu Bakr Ahmad Juzjoniy, Nasr ibn Yahyo al-Balxiy kabi mashhur faqihlar bo‘lgan. Imom Moturidiy umrining asosiy qismini Samarqandda ilmiy izlanishlar va ta’lim-tarbiya bilan o‘tkazgan. Uning shogirdlari orasida Abu al-Hasan al-Rustughfoniy, Abu Ahmad al-Iyodiy, Abu Bakr al-Juzjoniy va boshqalar bor edi [1].

Moturidiy ko‘plab asarlar yaratgan bo‘lib, ularning ayrimlari bizgacha yetib kelgan. Eng mashhurlari quyidagilardan iborat:

1. “Kitob at-Tavhid” – aqida masalalariga oid yirik asar bo‘lib, Allohning yagonaligi, sifatlari, qazo-qadar, iymon, kufr va boshqa muhim masalalar yoritilgan [2].
2. “Ta’wilot al-Qur’on” – Qur’on tafsiri bo‘lib, kalomiy va aqidaviy izohlar asosida yozilgan. Bu asar Qur’onni tafsir qilishda aqliy va naqliy dalillarning uyg‘unligiga asoslangan [3].
3. Shuningdek, fiqh va kalomga oid boshqa risolalar ham yozgan bo‘lsa-da, barchasi bizgacha yetib kelmagan.

Imom Moturidiy aqida masalalarida muvozanatli yondashuvni namoyon etgan. Uning qarashlari quyidagilar bilan ajralib turadi:

- Aql va naql uyg‘unligi: Qur’on va Sunnat asosiy manba hisoblangan bo‘lsa-da, aql ham muhim vosita sifatida ko‘riladi.
- E’tiqod erkinligi: Inson iymon keltirish yoki kufrga ketishda iroda erkinligiga ega, biroq Alloh uni hidoyatga yo‘naltirish uchun imkon beradi.
- Iymon va amallar: Iymon qalbda tasdiqlash va til bilan aytishdan iborat, amallar esa iymonni mukammallashtiruvchi omil hisoblanadi [4].
- Allohning sifatlari: U Qur’onda qanday kelgan bo‘lsa, shunday qabul qilinadi, antropomorfizm qat’iyan inkor qilinadi.

- Qazo va qadar masalasi: Alloh borliqni yaratgan, ammo insonning o‘z ixtiyoridagi harakatlari uchun u mas’uldir.

Imom Moturidiy ta’limotining tarqalishi va merosi

Imom Moturidiy vafotidan keyin uning ta’limoti keng hududlarga tarqaldi. Movarounnahr, Turkiston, Xuroson, Hindiston va Usmoniylar saltanatida moturidiylik hanafiy fiqhga asoslangan musulmonlarning asosiy e’tiqodiy yo‘nalishiga aylandi. Bugungi kunda ham O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, Turkiya va boshqa ko‘plab mamlakatlarda musulmonlarning ko‘pchiligi moturidiy aqidaviy maktabiga mansub hisoblanadi [5].

Imom Abu Mansur Moturidiy islom tafakkuri tarixida o‘chmas iz qoldirgan buyuk mutakallimdir. Uning aqidaviy qarashlari sunniy e’tiqodning asosiy ustunlaridan biri bo‘lib, aql va naqlni uyg‘unlashtirganligi bilan ahamiyatlidir. Bugungi kunda ham uning asarlari musulmon dunyosida e’tiqodiy barqarorlik va ruhiy-ma’naviy uyg‘unlikni mustahkamlashda muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alouddinov R. Imom Moturidiy ta’limoti va uning islom aqidaviy tafakkuridagi o‘rni. – Toshkent: Movarounnahr, 2019.
2. Al-Moturidiy. Kitob at-Tavhid. – Qohira: Dar al-Kutub al-Islomiyya, 1970.
3. Al-Moturidiy. Ta’wilot al-Qur’on. – Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 2005.
4. Jo‘rayev U. Imom Moturidiy va kalom ilmi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2004.
5. Hasanov B. Moturidiylik va uning islom olamidagi o‘rni. – Samarqand: Imom Buxoriy xalqaro markazi, 2020.

ТУРКИСТОНДА СОВЕТ ҲОКИМИЯТИНИНГ ДИНИЙ СИЁСАТИ: ИМОМ МОТУРИДИЙ МЕРОСИ МИСОЛИДА

Akmal S. Yakubov
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Аннотация: Ушбу мақолада Туркистонда совет ҳокимиятининг ўрнатилиши ортидан минтақада асрлар давомида ижтимоий ҳаётнинг муҳим бўғини ҳисобланган Ислом дини, хусусан мусулмон аҳолининг катта қисми эътиқод қиладиган Имом Мотуридий тариқатига қарши олиб борилган давлат сиёсати ҳамда унинг оқибатлари хусусида сўз боради. Шу билан бирга Имом Мотуридий мероси, алломанинг сўнгги манзилига айланган мақбаранинг

барпо этилиш босқичлари, советлар томонидан унутилишга маҳкум этилиши ва бугунги кундаги ҳолати бўйича ҳам маълумотлар келтирилган.

Калит сўзлар: империячи зеҳният, диний сиёсат, мотуридийлик, чокардиза, атеизм

Биринчи жаҳон уруши жабҳаларидаги мағлубиятлар, уруш келтириб чиқарган иқтисодий ва ижтимоий муаммолар 1917 йил 27-28-феврал кунларида Россияда содир бўлган буржуа инқилоби Россия империясини тарих саҳнасидан кетиши учун замин ҳозирлаган бўлсада, унинг энг муҳим натижаларидан бири сифатида Романовлар сулоласининг ҳокимиятдан ағдарилишини кўрсатиш мумкин. Умуман олганда 1917 йилнинг январ-феврал ойларига келганда бутун Россия империяси бўйича озиқ-овқат, хомашё ва ёқилғи етишмовчилиги ўзининг юқори чўққисига чиқиб, мамлакат бўйлаб инқилобий вазият юзага келган эди [3]. Бироқ Россия ва унинг чекка ўлкаларида асрлар давомида шаклланган "империячи" зеҳният ўзгармади. 1917 йил 25-октябрда советлар томонидан амалга оширилган давлат тўнтариши оқибатида янги режим – совет режими барпо этила бошланди ва Россия янги режим соясида сиёсий ва ҳарбий кучини янада орттирди ҳамда ҳокимият жўғрофиясини кенгайтириб 70 йилдан ортиқроқ ҳукм сурди.

Ушбу режим томонидан кейинги йилларда давлат ва жамият ҳаётининг, халқ хўжалигининг истисносиз (!) барча соҳаларида ўз сиёсатлари амалга оширилди ҳамда бу жамият ҳаётининг муҳим, ажралмас қисми ҳисобланган эътиқод ва ишонч билан боғлиқ жиҳатларини ҳам четлаб ўтмади. Советлар ёки уларнинг ўзагини ташкил этган большевиклар етакчиси В.И.Ленин динни муҳим ижтимоий ҳодиса сифатида жамият ҳаётидаги ўрнини "тўғри" баҳолаш билан бирга, асрлар давомида диннинг давлат бошқаруви ва ижтимоий ҳаётдаги ўрнини, шу билан бирга иқтисодий имкониятларини қўлга киритишни қасд қилган эди. Бу сиёат ўз навбатида 1917 йилгача Россия империяси аҳолисининг аҳамиятли қисми эътиқод қиладиган Ислом дини ва сон жиҳатдан христиан-православлардан кейин кейинги ўринда турадиган мусулмон аҳолисига ҳам таалуқли эди.

1917 йилнинг октябр ва ноябр ойларида советларнинг ҳокимият тепасига келиши ва кейинги йилларда ўз ҳокимиятларини мустаҳкамлаш учун олиб борган курашлари кўп жиҳатдан аҳолисининг асосий қисмини Ислом динига эътиқод қилувчилар ташкил этган Туркистон, Кавказ, Волгабўйи ва Қирим ҳудудларида совет ҳокимиятининг ўрнатилиши ҳамда мустаҳкамланиши билан бевосита боғлиқ эди. Шу жиҳатдан советларнинг 1918 йилдан бошлаб мусулмон аҳоли аксариятни ташкил этган ҳудудларда олиб борган диний сиёсати, хусусан турли диний тариқатлар ва жамоалар нисбатан давлат ўлароқ

муносабатини муносабатини ўрганиш Туркистонда совет ҳокимиятининг ўрнатилиши масалаларини кенгроқ очиб бериш имкониятини беради. Ушбу мақолада совет ҳокимиятининг диний сиёсатини асрлар давомида нафақат Туркистон, балким Волгабўйи, Кавказ, Қирим, Усмонли салтанати мусулмонлари орасида кенг ёйилган Мотуридийлик таълимоти, унинг маънавий ва моддий меросига нисбатан совет давлатининг муносабати оқибатлари кўриб чиқамиз.

Маълумки, Абу Мансур Муҳаммад ибн Муҳаммад ибн Маҳмуд ал-Мотуридий Самарқандий 870 йилда Самарқанд яқинидаги Мотурид қишлоғида туғилган ва умрининг охирига қадар шу ерда яшаган. Ислом оламида "Имом ал-Ҳидо", "Имом ал-Мутакаллимий" (ҳидоят йўли имоми, мутакаллимлар – каломчилар имоми) номлари билан улуғлан ал-Мотуридий ислом ақидасини илмий тарзда қайта тиклаган ҳамда калом илмига асос солган буюк аллома сифатида машҳурдир. У "Китаб ат-тавҳид", "Китаб ат- тавилотул Қуръон", "Китаб ул-усул", "Китаб ул-мақолот" ва "Панднома" асарларининг муаллифи бўлиб, Самарқанд мадрасаларида фиқҳ ва калом илмидан дарс берган. Айни вақтда Абу Мансур ал-Мотуридий Абу Ханифа қарашларини ривожлантиради. Шунингдек, Абул Хасан ал-Ашварий (873-935) ишлаб чиққан ислом ақидаси асосларини такомиллаштириб, уни суннийлик эътиқодига кириб қолган нотўғри, ғайрисаҳиҳлардан тозалайди.

Абу Мансур ал-Мотуридий вафот этгач (944 йил), Самарқанднинг кейинги асрларда Чокардиза номи билан машҳур бўлган қабристонга дафн этилган эди. Чокардиза қабристонига турли даврларда алломалар, саййидлар, шайхлар, имомлар ва ғозийлар дафн этилган. Қабристоннинг ўртасида "Талли асъҳобул-ҳадис" ("Ҳадисшунослар тепалига") деб аталган жой бўлиб, бу ерда Абу Мансур ал-Мотуридий ва Абул Қосим Самарқандийларнинг сағаналари жойлашган эди. Уларнинг яқинида Самарқандда яшаб ўтган бошқа машҳур имомлар дафн этилган. Даҳмалардан узоқ бўлмаган жойда XII асрда қайта тикланган "Янги масжид" биноси жойлашган эди.

XVI аср бошларида Шайбонийлар сулоласининг Самарқандда ҳукмронлик қилган вакиллари томонидан Абу Мансур ал-Мотуридий сағанаси ўрнида мурабба тархли дахма барпо этилади. Дахманинг кўриниши оддий бўлиб, усти ғиштин гумбаз билан ёпилган. Дахма ва масжид биноси 20 аср бошларига қадар сақланганлиги 1920 йилда Чокардизани тадқиқ қилган В.В.Бартольд томонидан ҳам қайд этилган эди[11].

Имом Мотуридийнинг илмий ва моддий мероси тўғрисидаги ҳикоямизни шу ерда тўхтатиб, айнан XX асрнинг 20 йилларида, яъни советлар Туркистон, собиқ Россия империясининг бошқа мусулмон ўлкаларида амалга ошира бошлаган диний сиёсатининг айрим жиҳатларини таҳлил қилишни лозим

5. Imom al-Moturidiy. Kitob at-Tavhid (arab tilida). – Istambul: 2003. – B. 178, 181, 223-224. (Moturidiy "husn va qubh" masalasida: "Narsalarning go'zal yoki xunuk ekanini aql bilan tushunish mumkin. Biroq aql oxirat hukmlarini belgilay olmaydi, bu – Allohning ishi" deb ta'kidlagan; Insonning har bir amali Alloh taolo adolati va qudrati bilan yaratilishi, bandaning esa o'z tanlovi bilan shu amallarni sodir etishi konsepsiyasi keltirilgan[12][23]).

6. Imom al-Moturidiy. Ta'vilot al-Qur'on (Qur'on tafsiri), I jild. – Toshkent: Imom Buxoriy nomidagi markaz, 2019. – B. 112-118. (Moturidiy Qur'oni karim oyatlarini tafsirlar ekan, aql va naql muvozanati tamoyiliga amal qilgan; ba'zi mutashobih oyatlar ma'nosini aql yordamida tafsir qilish mumkinligini, ammo shariat hukmlari borasida aql chegara bilishi lozimligini uqtirgan[8][40]).

7. Xolbekova U. Abu Mansur Moturidiy ilmiy merosining shaxs ma'naviy kamolotini yuksaltirishdagi ahamiyati. Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi sayti (bukhari.uz), 2021. – Elektron manba. (Maqolada Moturidiy asarlarining bugungi ma'naviy tarbiyada ahamiyati yoritilgan; "Allohni tanish va Uning go'zal sifatlarini bilish har bir inson uchun farzdir, chunki anglashning yagona yo'li aqldir" degan Moturidiy fikri keltirilgan[9]; shuningdek, "hikmatning birinchi turi – adolat, u hamma narsani o'z o'rniga qo'yadi" degan ibora keltiriladi[17]).

8. Mirziyoyev Sh. M. Buxoro viloyatiga tashrif chog'idagi nutqidan. 17-fevral 2023 yil. Prezident.uz rasmiy sayti. (Davlat rahbari Bahouddin Naqshband ziyorati

vaqtida olimlar bilan muloqotda "Buxoriy, Moturidiy, Marg'inoniy kabi buyuk bobolarimiz merosiga tayangan holda jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish zarur"ligini ta'kidladi[15]. Ushbu fikr O'zbekistonda ma'rifatparvarlik siyosatining asosini ifodalaydi).

9. O'zbekiston Respublikasi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti. Demokratiya va adolat tamoyillarini mustahkamlashga qaratilgan tub islohotlar – O'zbekiston uchun doimo ustuvor. SMTI sayti (isrs.uz), 25.08.2024. (Tahliliy maqolada so'nggi yillarda O'zbekistonda "inson qadri uchun" g'oyasi ustuvor ekani, yangilangan Konstitutsiyada ijtimoiy davlat tamoyili mustahkamlanganligi, inson huquqlarini ta'minlash borasidagi islohotlar yoritilgan[25][24]).

10. Karimov I. A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. – Toshkent: "O'zbekiston", 1992. – 112 b. (Monografiyada mustaqillikning dastlabki yillarida ishlab chiqilgan taraqqiyot modeli – "kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari" tamoyili bayon etiladi. Fuqarolik jamiyatini shakllantirish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, avvalo kuchli davlat hokimiyati barpo etilib, so'ngra ijtimoiy nazorat, o'zini o'zi boshqarish institutlari rivojlantirilishi lozimligi asoslab berilgan).

11. Fuqarolik jamiyati nazorati masalalari bo'yicha dissertatsiya. O'zbekiston mustaqillik yillarida fuqarolik jamiyati nazoratining shakllanishi. – Toshkent, 2023. – 82 b. (Ushbu ilmiy ishda jamoatchilik nazoratining nazariy asoslari va O'zbekistondagi rivojlanish bosqichlari o'rganilgan; davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarda murosa va hamkorlikning ahamiyati alohida ta'kidlangan: "Davlatning asosiy vazifasi – fuqarolar jamiyatini murosaga solish, kelishtirish va jipslashtirish orqali taraqqiyotga yetaklash bo'lsa, jamiyatning vazifasi – ijtimoiy tartibni ta'minlashda davlatga sherik bo'lishdir"[37]).

MOTURIDIY TA'LIMOTINING ASOSIY G'OYALARI

Jumaboyev Azizjon Sayfiddin o'g'li
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Tarix fakulteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqola IX-X asrlarda Movarounnahr hududida yashagan Abu Mansur al-Moturidiyning ilohiyot sohasidagi asosiy g'oyalari va ta'limotini tahlil qiladi. Tadqiqot moturidiy maktabining vujudga kelish sharoitlari, nazariy asoslari va islom kalomi tarixidagi o'rni haqida chuqur tahlil taqdim etadi. Maqolada adabiyotlar tahlili va nazariy tahlil metodlari qo'llanilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, moturidiy ta'limoti aql va naql o'rtasidagi muvozanatli yondashuvni taklif etgan va sunniy islomning asosiy ilohiy maktablaridan biriga aylangan. Tadqiqot moturidiy g'oyalarining zamonaviy islom dunyosidagi ahamiyatini ham ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Abu Mansur al-Moturidiy, islom kalomi, moturidiy ta'limoti, sunniy aqida, aql va naql, ilohiyot maktabi

Аннотация: Данная статья анализирует основные идеи и учение в области богословия Абу Мансура аль-Матуриди, жившего в IX-X веках на территории Мавераннахра. Исследование представляет глубокий анализ условий возникновения матуридитской школы, её теоретических основ и места в истории исламского калама. В статье применены методы анализа литературы и теоретического анализа. Результаты показывают, что матуридитское учение предложило сбалансированный подход между разумом и откровением и стало одной из основных богословских школ суннитского ислама. Исследование также показывает значимость матуридитских идей в современном исламском мире.

Ключевые слова: Абу Мансур аль-Матуриди, исламский калам, матуридитское учение, суннитская акида, разум и откровение, богословская школа

Abstract: This article analyzes the fundamental ideas and teachings in the field of theology of Abu Mansur al-Maturidi, who lived in the 9th-10th centuries in the territory of Transoxiana. The research provides an in-depth analysis of the conditions of emergence of the Maturidi school, its theoretical foundations, and its place in the history of Islamic kalam. The article employs literature review and theoretical analysis methods. The results show that Maturidi doctrine proposed a balanced approach between reason and revelation and became one of the main theological schools of Sunni Islam. The research also demonstrates the significance of Maturidi ideas in the contemporary Islamic world.

Keywords: Abu Mansur al-Maturidi, Islamic kalam, Maturidi doctrine, Sunni creed, reason and revelation, theological school

KIRISH. Islom tarixi davomida ilohiy masalalarga yondashuvda turli maktablar shakllangan bo'lib, ulardan eng muhimlari Ash'ariylik, Moturidiylik va Mu'tazila ta'limotlaridir. IX-X asrlarda Movarounnahr hududida yashagan Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud al-Moturidiy (853-944) tomonidan asos solingan moturidiy maktabi sunniy islomning eng ta'sirli ilohiy yo'nalishlaridan biriga aylandi [1]. Moturidiy ta'limoti aql va naqlning uyg'unligini ta'kidlagan va o'rta yo'l tamoyilini asosiy prinsip sifatida qabul qilgan. Ushbu tadqiqotning maqsadi moturidiy ta'limotining asosiy g'oyalarini tahlil qilish va uning islom ilohiyoti tarixidagi o'rnini aniqlashdan iborat. Tadqiqot masalasi sifatida quyidagi savollar qo'yiladi: moturidiy ta'limotining asosiy nazariy tamoyillari nimalarda namoyon bo'ladi, bu ta'limot boshqa kalom maktablaridan qanday farq qiladi va zamonaviy islom dunyosida qanday ahamiyatga ega? Tadqiqotning ilmiy

yangiligi moturidiy g'oyalarining kompleks tahlilini taqdim etish va uning hozirgi kunda ham dolzarbligini ko'rsatishdan iborat.

METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI. Ushbu tadqiqotda adabiyotlar tahlili va nazariy tahlil metodlari qo'llanilgan. Manbalar sifatida o'zbek, rus va xorijiy adabiyotlardan foydalanildi. Asosiy manbalarni Abu Mansur al-Moturidiyning "Kitab at-Tavhid" asari [2] va "Ta'vilat Ahl as-Sunna" tafsiri tashkil qiladi. Ikkilamchi manbalar orasida Wilferd Madelung, Rudolf Ulrich kabi g'arb tadqiqotchilari asarlari [3], shuningdek, o'zbek va rus tadqiqotchilarining ishlari [4] muhim o'rin tutadi. Metodologik yondashuv sifatida tarixiy-taqqosiy tahlil va mazmuniy tahlil usullari qo'llanildi. Tadqiqot doirasida moturidiy ta'limotining asosiy prinsiplari sistemali ravishda o'rganildi va boshqa kalom maktablari bilan taqqosiy tahlil amalga oshirildi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, moturidiy ta'limoti to'g'risidagi tadqiqotlar asosan XX-XXI asrlarda jadallashgan va bu sohadagi eng muhim ishlar Turkiya, Germaniya va O'zbekistonda amalga oshirilgan. Manbalarning tanqidiy tahlili moturidiy maktabining shakllanish jarayoni va uning nazariy asoslarini aniqlashga imkon berdi. Shu bilan birga, adabiyotlarda moturidiy ta'limotining ba'zi jihatlari hanuz to'liq o'rganilmaganligini ta'kidlash lozim.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Moturidiy ta'limotining asosiy g'oyalari bir necha muhim yo'nalishlarda shakllangan. Birinchi yo'nalish epistemologik masalalar bilan bog'liq bo'lib, Moturidiy bilish nazariyasida uchta asosiy manbani ajratadi: hissiy idrok, aqliy mulohaza va vahiy [5]. Bu yondashuv aql va naqlning o'zaro bog'liqligini ta'kidlaydi va insonning ma'rifatga erishishdagi imkoniyatlarini kengaytirib beradi. Ikkinchi yo'nalish tawhid (yagona Alloh) masalasiga bag'ishlangan bo'lib, Moturidiy Allohning sifatlari abadiy va Uning zotidan ajralmas ekanligini ta'kidlaydi [6]. Bu pozitsiya Mu'tazila ta'limoti bilan keskin ziddiyat tashkil qiladi. Uchinchi yo'nalish insonning erkin iroda masalasiga doir bo'lib, Moturidiy "kasb" (iqtisob) nazariyasini taklif qiladi, bu esa Allohning qudrati va insonning mas'uliyati o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi [7].

Moturidiy ta'limotining muhim jihati uning axloqiy realism pozitsiyasidir. Moturidiyning fikricha, yaxshi va yomon narsalarni inson aqli mustaqil ravishda tanib olishi mumkin, biroq vahiy bu bilimlarni takrorlaydi va kengaytiradi [8]. Bu yondashuv Ash'ariy maktabidan farq qiladi, chunki u aqlning axloqiy masalalardagi mustaqil rolini tan oladi. Shuningdek, iymon masalasida Moturidiy iymon darajasi o'zgarmas ekanligini ta'kidlaydi va amalni iymondan ajratadi. Uning fikricha, iymon qalbdagi tasdiq va til bilan iqrordan iborat bo'lib, amallar iymonning natijasidir, lekin iymon tarkibiga kirmaydi [9]. Ushbu pozitsiya diniy-huquqiy va ijtimoiy oqibatlarga ega bo'lgan.

Moturidiy maktabining tarixiy rivojlanishi bir necha bosqichda amalga oshgan. Dastlabki bosqichda (X asr) ta'limot Samarqand va Movarounnahr hududida

tarqaldi. Keyingi bosqichlarda (XI-XII asrlar) ta'limot Osmanlı imperiyasi hududlariga tarqaldi va hanafiy mazhabining asosiy aqidaviy yo'nalishiga aylandi [10]. Zamonaviy davrda moturidiy ta'limoti Turkiya, O'zbekiston va boshqa davlatlarda o'rganilmoqda va islom ta'limoti tizimida muhim o'rin tutmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, moturidiy ta'limoti o'zining muvozanatli yondashuvlari bilan sunniy islomda muhim o'rin tutgan va zamonaviy islom dunyosida ham dolzarb qolmoqda.

XULOSA. Ushbu tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin: moturidiy ta'limoti islom ilohiyotida noyob o'rin tutuvchi kompleks va muvozanatli tizim hisoblanadi. Abu Mansur al-Moturidiy tomonidan ishlab chiqilgan nazariy asoslar aql va naql o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlagan va sunniy islomning asosiy yo'nalishlaridan birini shakllantirgan. Ta'limotning epistemologik, ilohiy va axloqiy jihatlarini o'z ichiga olgan holistic yondashuvI uni boshqa kalom maktablaridan ajratib turadi. Moturidiy ta'limotining tarixiy ahamiyati uning hanafiy mazhabi bilan bog'lanishida va Osmanlı imperiyasida rasmiy maqom qozonishida namoyon bo'ladi. Zamonaviy islom dunyosida bu ta'limot diniy ta'lim tizimida muhim rol o'ynashda davom etmoqda va islomning mo'tadil yo'nalishini ifodalaydi. Kelajakda moturidiy ta'limotining zamonaviy muammolarga yechim topish va islom ilmiy an'analarini rivojlantirishdagi imkoniyatlari chuqurroq o'rganishni talab qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Madelung, W. (1985). Religious Schools and Sects in Medieval Islam. London: Variorum Reprints.
2. Al-Maturidi, A.M. (1970). Kitab al-Tawhid. Ed. F. Kholeif. Beirut: Dar al-Mashriq.
3. Ulrich, R. (2001). Al-Maturidi va Samarqand sunniylik ilohiyoti. Toshkent: Sharq.
4. Юсупов, Э.Ю. (2000). Абу Мансур аль-Матуриди и его вклад в исламскую теологию. Ташкент: Фан.
5. Rudolph, U. (1997). Al-Maturidi und die sunnitische Theologie in Samarkand. Leiden: Brill.
6. Cerić, M. (1995). Roots of Synthetic Theology in Islam: A Study of the Theology of Abu Mansur al-Maturidi. Kuala Lumpur: ISTAC.
7. Leaman, O. (2006). The Qur'an: An Encyclopedia. London: Routledge.
8. Са'дуллаев, А. (2000). Имом Мотуридий ва унинг таълимоти. Тошкент: Ўзбекистон.
9. Карoматов, Х. (2001). Мовароуннаҳр аллома ва мутафаккирлари. Самарқанд: СамДЧТИ.
10. Özcan, H. (2010). Maturidiyye ve Hadis. Istanbul: Değişim Yayınları.

ЧОКАРДИЗАДА ОЛИБ БОРИЛАЁТГАН СЎНГГИ ТАДҚИҚОТЛАР

М.М. Саидов, А.Э. Бердимуродов, А.Н. Сандибоев
Самарқанд археология институти

IX-XII асрларда ислом дунёсида илм-фан, фалсафа, санъат ва маданиятнинг гуллаб-яшнади. Бу даврни немис шарқшуноси Адам Мец томонидан "Мусулмон ёхуд Шарқ Ренессанси" деб атади. Шунингдек олим "*агар Бухоро мусулмон илоҳиёт илмининг бош маркази сифатида эътироф этилган бўлса, Самарқанд ўз навбатида олимлар, ҳунармандлар ва шоирлар шаҳри сифатида шуҳрат қозонган. X асрдаёқ бу шаҳарда нафақат фиқҳ, балки дунёвий илмлардан ҳам таълим бериладиган мактаблар фаолият юритган. Шу билан бирга, Самарқанд қоғоз ишлаб чиқаришнинг муҳим маркази бўлиб, айнан шу ердан қоғоз тайёрлаш санъати бутун мусулмон Шарқи бўйлаб кенг тарқалган",* деб ёзади (Мец, 1973). Самарқанд замирида қўним топган илк Ислом Ренессанси даврининг йирик намояндаларидан бўлган ад-Дорамий, ал-Бухорий, ал-Мотуридий, Абу Лайс ас-Самарқандий, Бурҳониддин ал-Марғиноний, ан-Насафий каби кўплаб алломалар ислом илмларининг турли соҳаларида - хусусан, ҳадисшунослик, калом ва фиқҳ каби йўналишларда фаолият юритган. Улар мазкур илмларни илмий ва мантиқий асосда мукаммал тарзда баён этиб, кейинги авлодлар учун бой илмий мерос қолдирганлар.

Ан-Насафийнинг "Ал-Қанд фи таърихи Самарқанд" (қисқача "Қандия") асарида қайд этилишича, ислом оламидаги қабристонлар орасида Мадинадаги Боқия ва Маккадаги Муалло қабристонларидан кейинги энг улуғ ва шарафли маскан - Самарқандда жойлашган Чокардиза қабристони ҳисобланади. Муаллифнинг таъкидлашича, "*Чокардиза қабристонидан бузургроқ қабристон йўқдир*", чунки бу муқаддас масканда 444000 эътиқодчилар дафн этилган (ан-Насафий, 2016. Б. 11). Тарихий манбаларга кўра, Чокардиза қабристони дастлаб Иброҳим Саммосийга тегишли боғ бўлган. Кейинчалик ушбу боғ Абу Лайс ас-Самарқандий қўлига ўтган. Айни шу боғда дастлаб унинг илк соҳиби Иброҳим Саммосий, кейинчалик калом илмининг асосчиси Имом Абу Мансур ал-Мотуридий ҳамда машҳур уламолардан бири Имом Абул Қосим ас-Самарқандий дафн этилган. Шу тариқа, ушбу муқаддас маскан "Чокардиза қабристони" деб ном олади (Каттаев, 2022. Б. 21). 1843 йилда Бухрор амири бўлган амир Насурулло (1826-1860) томонидан қабристон яқинидаги 11 таноб ер майдон яҳудийларга берилган (Абрамов, 1988. С. 8). Чокардиза қабристони ўтган асрнинг 30 йиларида деярли тўлиқ сақланган.

Аммо, 1940 йилларда қабристон суриб ташланиб, уй-жой қуриш натижасида ўзлаштирила бошлган.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил 3 декабрдаги "Имом ал-Мотуридий таваллудининг 1130 йиллигини нишонлаш тўғрисида"ги 517-сонли қарори ижросини таъминлаш мақсадида, 2000 йилда Ўзбекистон Фанлар академияси Археология институти ходимлари томонидан Чоқардиза қабристон ҳудудида археологик тадқиқот ишлари олиб борилган. Қазишма ишлари қабристоннинг бешта нуқтасида амалга оширилиб, натижада масжид йилга пойдевори, Имом ал-Мотуридийнинг қабри ҳамда ундан ғарб томонда жойлашган мақбаранинг сағана қисми очилган (Ширинов, Бердимуродов, Лебедева, Иваницки, 2004).

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 14 мартдаги "Имом Мотуридий таваллудининг 1155 йиллигини нишонлаш тўғрисида"ги 102-сонли қарорида калом илмининг султони Имом Абу Мансур Мотуридийнинг ибратли ҳаёт йўли ва бой илмий-маънавий меросини чуқур ўрганиш, мотуридиялик таълимотига хос бағрикенглик ва мўътадиллик тамойилларини халқимиз ҳамда жаҳон жамоатчилиги орасида кенг тарғиб этиш, шунингдек, Самарқанд шаҳридаги Абу Мансур Мотуридий мажмуасини қайта таъмирлаш ва ободонлаштириш вазифалари белгилаб берилган эди. Ушбу қарор ижросини таъминлаш мақсадида, Я. Ғуломов номидаги Самарқанд археология институти жорий йилнинг июнидан бошлаб Самарқанд шаҳри Чоқардиза қабристони ҳудудида жойлашган Имом Мотуридий ёдгорлик мажмуаси атрофида археологик назорат-қазув тадқиқот ишлари олиб борилди. Ушбу тадқиқот ишлари *учта асосий йўналишда* амалга оширилди. *Биринчи йўналиш* Самарқанд шаҳри, айниқса Чоқардиза қабристони жойлашган ҳудудга оид тарихий манбаларни илмий таҳлил қилишга қаратилди. *Иккинчи йўналишда* картографик маълумотлар тўпланиб, улар илмий жиҳатдан таҳлил этилди. *Учинчи йўналиш* доирасида эса археологик тадқиқотлар жараёнида геофизик усуллар қўлланилиб, қабристон атрофида назорат-қазув ишлари амалга оширилди.

Биринчи йўналиш бўйича тадқиқотлар Самарқанд вилояти "Махдуми Аъзам Даҳбедий" илмий тадқиқот фонди томонидан олиб борилди. Ушбу йўналишдаги ишлар доирасида тарихий манбаларда Бурҳониддин ал-Марғинонийнинг Самарқанд шаҳрида, хусусан Чоқардиза қабристонида дафн этилгани ҳақидаги маълумотлар йиғилиб, илмий таҳлил этилди. Жумладан, ан-Насафийнинг "ал-Қанд фи таърихи Самарқанд" (қисқача - "Қандия") асарида "Арабу Ажам орасида машҳур бўлган "ал-Ҳидоя" муаллифи (Имом Бурҳониддин ал-Марғиноний)нинг қабри, иншооллоҳ, Чокардизада жойлашган" деб ёзади (ан-Насафий, 2016. Б. 11). Абу Тоҳирхўжанинг

"Самария" асарида"да Бурҳониддин ал-Марғинонийнинг қабрига аниқроқ тўхталган. Хусусан, Каттахонхожа Даҳбедий кутубхонасида сақланаётган Абу Тоҳирхўжанинг "Самария" қўлёзма китобида "*Файз асарли Ҳазрати Мавлоно Бурҳониддин Марғиноний мазори, ул зот «Ҳидоя» китобининг муаллифидир, унинг ҳам қабри Чокардиза қабристонида, оммавий йўлнинг ғарб томонида жойлашган ва ҳовуз шаклида кўринган пастлик яқинида, Ҳазрати Шайх Абул Мансур (Мотуридий) мозорининг шимол томонида, бироз шарқроқ томонга мойил тарафдадир. Ўша ҳовуз ўртасидан эса халқ юрадиган оммавий йўл ўтган, ул зот қабрининг нишонаси баландликда пишиқ ғиштдан терилган суфа шаклида бўлиб, мазкур оммавий йўлнинг жануб томонида жойлашган. Мавлоно (Бурҳониддин) Нажмиддин Умар ан-Насафийнинг шогирди, у эса фахрул-ис лом Али Паздавийнинг шогирди, ул зот эса Имом Али Суғдийнинг шогирдидир..." деб ёзади.*

Иккинчи йўналиш доирасида олиб борилган изланишлар натижасида Москва архивлари, Маданий мерос агентлиги фонди, Самарқанд давлат музей-қўриқхонаси ҳамда Давлат картография ва геодезия фондларида сақланаётган бир қатор муҳим картаграфик манбалар ўрганиб чиқилди ва тизимлаштирилди. Жумладан, 1891 йилга оид капитан Мещерский ва топограф Подьячев томонидан тузилган Самарқанд шаҳри ва унинг атрофига оид топографик харита ҳамда 1897–1899 йилларда тузилган шаҳар режаларидан маълум бўлишича, Чоқардиза қабристони ушбу даврда ҳали ўзлаштирилмаган, яъни ҳеч қандай қурилиш ишлари амалга оширилмаган ҳудуд сифатида қайд этилган. Айниқса, 1897–1899 йилларга оид шаҳар режасида қабристон майдони орқали ўтувчи учбурчак шаклидаги асосий йўллар - ҳозирги Вобкент, Ғиждувон ва Бухоро кўчалари аниқ кўрсатилган бўлиб, ушбу ҳудудда аҳоли турар жойлари мавжуд эмаслиги аниқ кўзга ташланади. Шу билан бирга, 1937 йилга оид аэрофотосурат таҳлили натижасида ҳозирги Бухоро кўчасининг шимолий қисмида, аниқроғи, ҳозирги 26-мактаб ўрнида бино борлиги маълум бўлди. Шунингдек, Ғиждувон кўчаси 1 уйда ҳам аҳоли турар жойи қурилган.

Картаграфик маълумотларга таянилган ҳолда хулоса қилиш мумкинки, Чоқардиза қабристони ҳудудида XX асрнинг 30-йилларидан бошлаб аҳоли томонидан турар жой сифатида фойдаланиш бошланган. 1940-йиллар охирига келиб эса мазкур ҳудуддаги ер участкалари маҳаллий аҳолига расмий равишда эгалик ҳуқуқи асосида берилиб, оммавий равишда ўзлаштирила бошланган.

Юқоридаги тарихий манбалар ҳамда картографик маълумотлар асосида *учунчи йўналишда* - Гиждувон кўчасининг шарқ ва ғарб томонларида археологик қазишма ишлари олиб борилди. Тадқиқот майдони 0,5 гектарни ташкил этиб, казишма майдони 664 м² ҳудудни қамраб олди. Қазишмалар

жараёнида замонавий, инвазив бўлмаган геофизик тадқиқот усулларидан - GPR (Ground Penetrating Radar) ва магнитометрия усулларидан фойдаланилди.

Йўлнинг ғарбий қисмида ер сатҳидан 2 метр чуқурликкача бўлган, XX асрнинг 30-йилларидан кейин шаклланган чиқинди қатламлар олиб ташланди. Шу қатлам остида XX асрларга оид маданий сатҳ аниқланди. Сатҳнинг шарқ томонида зич жойлашган қабрлар қайд этилди. Қабрларнинг аксарияти тўртбурчак шаклда бўлиб, пишиқ ғиштдан кўтарилган ва устки қисми ғишт ёки ёғоч билан ёпилган. Қабрлар қурилишида Сомонийлар давридан то XIX асргача бўлган даврларда муомалада бўлган турли ўлчамдаги пишиқ ғиштлардан фойдаланилган. Бу ҳолат қабристон асрлар давомида фаолият юритиб келганидан далолат беради.

Сатҳнинг ғарб томонида эса 20-30 градус атрофидаги енгил нишабликда, манбаларда кўрсатилган ҳавз шаклидаги пастлик аниқланди. Ҳавз шаклидаги бу пастликнинг тахминий ўлчами 40x40 метр бўлиб, унинг юза қисми синган пишиқ ғишт бўлаклари билан қопланган, устида эса 30–50 см қалинликдаги майда қум қатлам кузатилди. Мазкур ҳавз шакли 1887 йилга мансуб ҳарбий топографик харитада ҳам қайд этилган бўлиб, унинг тузилиши археологик қазишмаларда аниқланган топография билан мос келади.

Ушбу пастлик атрофида олиб борилган геофизик изланишлар натижасида бу ерда монументал хусусиятга эга иншоот ёки қабр қолдиқлари аниқланмади. Фақатгина пастликдан 40 метр жанубда, ғарб-шарқ йўналишда ўтган, устки қисми пишиқ ғишт билан ёпилган ариқ қолдиқлари қайд этилди.

Йўлнинг шарқ томонида ўтган асрнинг 30-йилларида қурилган пишиқ ғиштли пойдевор қолдиқлари, шунингдек, унинг жанубидаги сатҳда 5–10 см чуқурликда қабр излари аниқланди. Бу ердаги қабрлар қурилиши ғарб томонидаги қабрлар билан ўхшашликка эга. Шу билан бирга, айрим хоналар ичида ҳам қабрлар жойлашган бўлиб, баъзи хоналарда уч қатламли дафн ҳолатлари қайд этилди.

Йўлдан 21 метр шарқда олиб борилган қазишмалар вақтида пишиқ ғиштдан қурилган ншоот қолдиқлари аниқланди. Иншоот тўғри-тўртбурчак шаклда бўлиб, томонлари 8,35x5,2 метр, эни 1,10–1,30 метр, сақланган баландлиги эса 1,05 метрни ташкил этади. Унинг девори 27x14x4x3,5–4; 42x22x7; 30x16x6; 24x24x5 см ўлчамдаги пишиқ ёрдамида кўтарилган. Иншоотнинг ғарбий томонидаги деворига тақаб 2,45x0,9 метр ўлчамдаги қўшимча дафн камераси бунёд этилган.

Юқоридаги маълумотларни таҳлил қилган ҳолда, Гиждувон кўчасининг шарқий томонида олиб борилган археологик қазишма ишлари давомида аниқланган пишиқ ғиштдан қурилган иншоот манбаларда қайд этилган

қабрнинг нишонаси сифатида тилга олинган баландликдаги ғиштли суфа билан боғлаш мумкин.

Зеро, ҳозирга қадар мавжуд маълумотлар мазкур суфанинг пишиқ ғиштдан қурилгани, даврий жиҳатдан Қорахонийлар даврига оид эканлиги, шу атрофда бундай турдаги бошқа иншоот қолдиқлари мавжуд эмаслиги ҳамда унинг ҳавз шаклидаги пастликка нисбатан 1-1,1 метр баландликда жойлашганини (яъни ҳавздан қабр жойигача ер сатҳи кўтарилиб борганини) кўрсатади. Иншоот қурилган сатҳ юзаси ва тўламида Қорахонийлар даврига оид топилмалар кузатилди. Бу эса иншоотнинг айнан ўша даврда барпо этилганидан далолат беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. **Абрамов А. Л. Бухарские евреи.** М.: Наука, 1988. С. 8.

2. Абу Хофз Нажмиддин Умар ан-Насафий ас-Самарқандий. Ал-қанд фи таърихи Самарқанд. Қандия (Самарқанднинг уламолар ва валийлар тарихи). Тадқиқот, таржима, сўз боши, изоҳ ва луғатлар муаллифи К. Каттаев. Самарқанд: ”Сўғдиё

3. Каттаев К. Чокардизадаги ҳанифия мазҳабининг буюк имомлари ва олимлари. Тошкент, 2022. Б. 21.

4. Мец А. Мусульманский Ренессанс. - М., 1973.

5. Ширинов Т.Ш., Бердимуродов А.Э., Лебедева Т.И., Иваницкий И.Д. Самарқанд эпоху Мотуриди. Ўрта аср Самарқандни тадқиқ қилиш учун археологик экспедиция ташкил қилиш (Имом Мотуридийнинг даври, ҳаёти, мероси) // Научный архив ИА АН РУз. Ф.4. Оп.1. Д.275. – Самарканд, 2004.

IMOM MOTURIDIYNING KALOM ILMIDAGI O‘RNI VA ILMIY MEROSINING O‘RGANILISHI

Muxlisa Ergashova To‘lqin qizi
Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi ilmiy xodimi

Annotatsiya. Ushbu maqolada IX-X asr musulmon olamining yirik mutafakkiri Imom Abu Mansur Moturidiy (vaf. 944)ning kalom ilmidagi o‘rni, uning ilmiy merosi va bu merosning keyingi davrlarda o‘rganilishi tahlil qilinadi. Tadqiqotda Moturidiyning asarlari, xususan *Kitob at-Tavhid* va *Ta’vilot al-Qur’on*, shuningdek, zamonaviy ilmiy adabiyotlar asosida uning aqidaviy qarashlari, Ash’ariylik bilan taqqosiy jihatlari va hozirgi davrdagi ilmiy tadqiqotlar yoritiladi.

Maqola natijalari Moturidiy merosining nafaqat tarixiy, balki bugungi kun uchun ham dolzarb ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Moturidiy, kalom, aqida, iymon, ta'vil, Ash'ariy, ilmiy meros.

Abstract. This article analyzes the role of Imam Abu Mansur al-Maturidi (d. 944), one of the prominent thinkers of the 9th-10th centuries, in the science of kalam, his scholarly legacy, and its study in subsequent periods. Based on Maturidi's works, especially *Kitab al-Tawhid* and *Ta'wilat al-Qur'an*, as well as modern academic literature, the article highlights his theological views, comparative aspects with Ash'arism, and contemporary studies of his heritage. The results demonstrate that Maturidi's intellectual legacy is of great relevance not only historically but also for today's theological and philosophical discourse.

Keywords: Maturidi, kalam, creed, faith, interpretation, Ash'arism, scholarly legacy.

Аннотация. В статье рассматривается роль имама Абу Мансура аль-Матуриди (ум. 944), одного из выдающихся мыслителей IX-X вв., в развитии науки калама, его научное наследие и его изучение в последующие периоды. На основе трудов Матуриди, в частности *«Китаб ат-Таухид»* и *«Та'вилят аль-Кур'ан»*, а также современной академической литературы, освещаются его богословские взгляды, сравнительные аспекты с ашаризмом и современные исследования его наследия. Результаты показывают, что интеллектуальное наследие Матуриди имеет большое значение не только в историческом плане, но и для современного богословского и философского дискурса.

Ключевые слова: Матуриди, калам, акида, вера, толкование, ашаризм, научное наследие.

Kirish. IX-X asrlarda Movarounnahr musulmon dunyosida diniy-falsafiy tafakkurda yangi bosqich kuzatildi. Aynan shu davrda kalom ilmi – islom aqidaviy ta'limotini mantiqiy-daliliy asoslashga qaratilgan fan – eng yuqori darajaga ko'tarildi [1, p. 12]. Bu jarayonda Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud Moturidiy Samarqandiy (870-944) alohida o'rin egalladi.

Moturidiy Movarounnahrda shakllangan **Hanafiylik fiqh maktabi** asosida o'zining aqidaviy qarashlarini tizimlashtirib, uni kalom uslubi bilan mustahkamladi [2, p. 45]. Natijada, keyinchalik "Moturidiya" deb nom olgan aqidaviy maktab yuzaga keldi. Bu maktab asosan Markaziy Osiyo, Movarounnahr, Turkiya, Hindiston va musulmon dunyosining boshqa hududlarida keng yoyildi [3, p. 76].

Imom Moturidiy asarlari, xususan, *Kitob at-Tavhid* [4, p. 56] va *Ta'vilot al-Qur'on* [5, pp. 112-115], musulmon aqidaviy tafakkurining rivojida asosiy manba bo'lib xizmat qildi. Ayniqsa, u Mu'taziliylar, Karramiylar va boshqa oqimlar bilan ilmiy bahslar olib borib, e'tiqodiy masalalarda Hanafiylik pozitsiyasini mantiqan asoslab berdi [6, p. 89].

Zamonaviy davrda, xususan, Turkiya, O‘zbekiston, Misr va G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida Moturidiy merosiga oid ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Masalan, Uludağning *İmam Mâtürîdî ve Mâtürîdîlik* [7, pp. 33-35], Toshkentda chop etilgan “Imom Moturidiy va moturidiylik ta’limoti” [8, pp. 12-15], hamda Wattning *The Formative Period of Islamic Thought* [9, pp. 211-213] asarlari bunga misoldir.

Imom Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud Moturidiy 870-yilda Samarqand yaqinidagi Moturid qishlog‘ida tug‘ilgan [1, p. 23]. U butun hayoti davomida Movarounnahr ilmiy muhitida yashab, faoliyat yuritdi. Movarounnahr IX asr oxiri – X asr boshlarida Somoniylar davlati tarkibida bo‘lib, ilm-fan va diniy ilmlar rivojlangan hududlardan biri edi [2, pp. 67-69].

Moturidiy o‘z davrida mashhur bo‘lgan hanafiy ulamolardan ta’lim oldi. Ustozlari orasida Abu Bakr Ahmad ibn Ishoq Juzjoniy va Abu Nasr Ahmad ibn Abbos Iyodiy kabi allomalar tilga olinadi [3, p. 54]. Bu ustozlar orqali Moturidiy fiqhda Imom A’zam Abu Hanifa, aqidada esa uning shogirdi Abu Yusuf va Muhammad Shayboniylarning ilmiy merosiga tayanadi [4, pp. 144-146].

Moturidiy ilmiy faoliyatini Samarqanddagi madrasa va ilmiy markazlarda olib borgan. O‘sha davrda Samarqand va Buxoro nafaqat Markaziy Osiyoning, balki butun islom olamining ilmiy markazi sifatida mashhur bo‘lgan [5, p. 91].

Moturidiy davrida Movarounnahrda turli diniy oqimlar faol bo‘lgan. Ayniqsa, Mu’taziliylar, Karramiylar, Qadariylar va Jabriylar o‘z g‘oyalarini yoyishga intilardi [6, pp. 102-103]. Moturidiy ularning qarashlariga qarshi dalillashgan holda *Kitob at-Tavhid*da keng bahs yuritdi [7, p. 211].

U zamondoshlari qatorida Bag‘dodda faoliyat yuritgan Abul Hasan al-Ash’ariy (873-935) ham bor edi. Ash’ariy Basra va Bag‘dodda Mu’taziliylar bilan bahsga kirishgan bo‘lsa, Moturidiy Movarounnahrda o‘z maktabini shakllantirdi [8, p. 134]. Shu sababdan, keyinchalik ikki maktab – Moturidiya va Ash’ariya islom aqidaviy tafakkurining eng asosiy oqimlariga aylandi.

Moturidiy ilmiy merosini davom ettirgan ko‘plab shogirdlar yetishib chiqqan. Ulardan eng mashhurlari: Abu’l-Qosim Hakim Samarqandiy (*as-Savod al-A’zam* muallifi) [9, p. 58], Abu’l-Mu’in an-Nasafiy (*Tabsirat al-Adilla* muallifi) [10, p. 44] va Abul-Yusr al-Bazdavi (*Usul ad-Din* muallifi) [11, pp. 21-23]. Ushbu shogirdlar orqali Moturidiylik aqidaviy maktabi keyingi asrlarda keng yoyildi.

Moturidiy faoliyat yuritgan davrda musulmon jamiyatida siyosiy va diniy qarama-qarshiliklar mavjud edi. Somoniylar davlatida hanafiylik davlat dini sifatida qo‘llab-quvvatlangan bo‘lsa-da, boshqa oqimlar ham faoliyat yuritgan [12, p. 89]. Shu boisdan, Moturidiy o‘z asarlarida e’tiqodiy masalalarda mantiqiy dalillar orqali hanafiylikning kalomiy asoslarini mustahkamlashga harakat qildi [13, pp. 177-179].

Imom Moturidiy musulmon aqidaviy tafakkurida muhim ahamiyat kasb etuvchi bir qator asarlar yozgan. Ularning ichida eng mashhurlari “Kitob at-Tavhid”

va "Ta'vilot al-Qur'on"dir. Shuningdek, boshqa asarlari haqida ham ma'lumotlar mavjud, biroq ayrimlari bizgacha yetib kelmagan [1, pp. 77-79].

"Kitob at-Tavhid" Moturidiyning eng mashhur asari bo'lib, kalom ilmining mantiqiy asoslariga bag'ishlangan [2, p. 56]. Ushbu asar o'z davrida Mu'taziliylar, Karramiylar, Qadariylar va boshqa oqimlar bilan olib borilgan ilmiy bahslarning yozma ifodasi sifatida qaraladi. Asarda:

- Allohning mavjudligi va birligi,
- ilohiy sifatlarning mohiyati,
- iymonning ta'rifi va uning amallar bilan aloqasi,
- qadar va inson erki masalalari,
- payg'ambarlik va mo''jizalar,
- oxirat va qiyomat masalalari keng tahlil qilingan [3, pp. 112-115].

"Kitob at-Tavhid"ning ahamiyati shundaki, u hanafiy aqidaviy maktabining dastlabki va mukammal nazariy asosi bo'lib xizmat qiladi [4, p. 144]. Bugungi kunda ham bu asar islom ilohiyotining eng muhim manbalaridan biri sifatida tadqiq qilinmoqda. Masalan, Bekjonov ushbu asarni "islom tafakkuridagi ratsionalizmning yuqori bosqichi" deb ta'riflagan [5, pp. 203-204].

Moturidiyning ikkinchi yirik asari – "Ta'vilot al-Qur'on" tafsiridir. Bu asar hanafiylik asosida yozilgan aqidaviy-tafsiriy manba hisoblanadi [6, p. 21]. Unda Qur'ondagi oyatlar kalomiy masalalar bilan bog'liq tarzda sharhlanadi. Masalan, qadar, Alloh sifatlari, payg'ambarlik va oxiratga oid oyatlar Moturidiyning aqidaviy qarashlari asosida izohlanadi [7, pp. 98-101].

"Ta'vilot al-Qur'on" o'zining uslubiy jihatlari bilan boshqa mufassirlarning asarlaridan ajralib turadi. U zohiriy tafsir emas, balki aqidaviy "ta'vil" asosida yozilgan bo'lib, oyatlarning ichki ma'nolarini ochishga qaratilgan [8, pp. 67–69]. Shuningdek, asarda Mu'taziliy va boshqa oqimlarning tafsiriy qarashlariga ham tanqidiy yondashilgan [9, p. 58].

Manbalarda Moturidiyga nisbat berilgan boshqa asarlar ham zikr qilinadi. Ular orasida:

- "Kitob al-Maqolat" – turli oqim va firqalarning aqidaviy qarashlarini tanqidiy o'rganishga bag'ishlangan [10, p. 44];
- "Risola fi'l-Usul" – aqidaviy masalalarga doir risola;
- "Kitob al-Jadal" – ilmiy bahs-munozara qoidalariga oid asar [11, pp. 21-23].

Ammo bu asarlarning ko'pchiligi bizgacha to'liq yetib kelmagan yoki faqat keyingi manbalarda zikr qilingan. Moturidiyning asarlari hanafiylik asosida kalom ilmini mukammallashtirganligi bilan ahamiyatlidir. Agar Ash'ariylik Basra va Bag'dodda rivojlangan bo'lsa, Moturidiyning asarlari Movarounnahr va unga qo'shni hududlarda aqidaviy birlikni ta'minladi [12, p. 89].

Bugungi kunda ham "Kitob at-Tavhid" va "Ta'vilot al-Qur'on" islom ilohiyoti bo'yicha zamonaviy tadqiqotlarda asosiy manbalardan biri sifatida keng foydalanilmoqda.

Imom Moturidiy islom aqidaviy tafakkurida muhim o'rin tutgan ko'plab masalalarda o'ziga xos pozitsiyani ishlab chiqqan. U o'z qarashlarini, avvalo, Qur'on va sunnatga tayanib, mantiqiy dalillar bilan asoslagan. Quyida uning kalom ilmiga oid eng asosiy ta'limotlari ko'rib chiqiladi.

Moturidiy iymonni "qalb tasdig'i" sifatida ta'riflaydi. Unga ko'ra, til bilan iqror qilish iymonning tashqi ifodasi, ammo uning mohiyati qalbdagi tasdiqdir [1, p. 75]. U Mu'taziliylarning "iymon amallar bilan bog'liq" degan qarashini rad etadi [2, pp. 134-136]. Shuningdek, Karramiylarning "iymon faqat til bilan aytishdir" degan fikrini ham qabul qilmaydi [3, p. 211].

Moturidiy ta'limotida iymon ortib-kamaymaydi, balki sobit bo'ladi. Chunki iymon qalbdagi tasdiq sifatida mavjud bo'ladi, amallar esa uning mukammalligini ko'rsatadi [4, pp. 112-113].

Moturidiy Allohning sifatlarini Qur'ondagi dalillar asosida tasdiqlaydi. Unga ko'ra, Allohning sifatlari qadimiydir, ammo ular Allohning zoti bilan aynanlashmaydi va undan alohida ham emas [5, pp. 177-178].

Moturidiy Mu'taziliylarning "sifatlar Allohning zotiga qo'shilib qoladi" degan fikrini rad etgan, Ash'ariy bilan esa ko'plab o'xshashliklarga ega bo'lgan. Ammo Ash'ariylardan farqli ravishda, Moturidiy sifatlarni tafsilotlarda yanada aniqroq asoslab bergan [6, p. 93].

Moturidiy ta'limotining eng muhim jihatlaridan biri inson erki va qadar masalasidir. Unga ko'ra, barcha narsalar Allohning irodasi bilan yuz beradi, ammo insonning ham iroda va kasb (tanlash) qobiliyati mavjud [7, p. 56].

Moturidiy Mu'taziliylarning "inson o'z amallarining yaratuvchisidir" degan fikrini rad etgan, Jabriylarning "insonning ixtiyori yo'q" degan qarashini ham qabul qilmagan [8, pp. 145-146]. Uning "kasb nazariyasi" keyinchalik moturidiya maktabining asosiy aqidaviy tamoyiliga aylandi.

Moturidiy payg'ambarlikni Allohning insoniyatga rahmati sifatida izohlaydi. Unga ko'ra, payg'ambarlar aql bilan idrok etish mumkin bo'lmagan masalalarda insoniyatni hidoyatga boshlaydi [9, pp. 203-205]. Payg'ambarlarning mo''jizalari esa Allohning ularga bergan maxsus isbot vositalaridir.

Moturidiy imomat masalasida mo''tadil pozitsiyani egallaydi. Unga ko'ra, imom musulmonlarning diniy va dunyoviy ishlarini boshqaruvchi shaxs bo'lib, uning saylanishi muhim [10, p. 67]. U shialarning imomatni ilohiy tayinlash sifatida talqin qiluvchi qarashlarini qabul qilmagan. Shu bilan birga, imomatni faqat siyosiy masala deb ham hisoblamagan.

Moturidiy oxirat masalalarida Qur'onga tayangan holda jannat va do‘zaxning haqiqiy mavjudligini, qiyomatning qiyosiy emas, balki real hodisa ekanligini ta'kidlagan [11, p. 212].

Islom aqidaviy tafakkurida IX-X asrlardan boshlab ikki asosiy maktab – Moturidiylik va Ash'ariylik shakllandi. Har ikkala maktab ahli sunna val-jamoa doirasida e'tirof etilgan bo‘lsa-da, ularning qarashlarida ayrim farqlar mavjud. Bu farqlar asosan iymon, sifatlar, qadar va inson erki masalalarida namoyon bo‘ladi [1, p. 88]. Moturidiy iymonni qalb tasdig‘i sifatida talqin qilib, amallarni iymonning bir qismi emas, balki uning natijasi deb hisoblagan [2, p. 75]. Ash'ariylar esa amallarni iymonning bir qismi deb baholagan. Shunga ko‘ra, Moturidiy maktabida iymon ortib-kamaymaydi, Ash'ariylikda esa iymon ortib-kamayadi degan qarash mavjud [3, pp. 112-113]. Moturidiy va Ash'ariylar Allohning sifatlarini qadimiy va haqiqiy deb e'tirof etishgan. Biroq tafsilotlarda farq bor. Moturidiy sifatlarning mavjudligini qat'iy tasdiqlab, ularni "zot bilan aynanlashmagan va undan alohida ham bo‘lmagan" deb ta'riflagan [4, pp. 177-178]. Ash'ariylar esa sifatlarni ko‘proq zohiriy ma'noda qabul qilgan [5, p. 93].

Moturidiy ta'limotida inson erki va kasb nazariyasi muhim o‘rin tutadi. Unga ko‘ra, inson o‘z xatti-harakatlarini tanlash imkoniga ega, ammo ularni yaratish Allohga xosdir [6, p. 56]. Ash'ariylarda esa insonning erki ancha cheklangan bo‘lib, ular insonning ixtiyorini kuchsiz darajada tasdiqlashgan [7, pp. 145-146].
Moturidiy aqlni shariatdan keyingi asosiy dalil sifatida qabul qilgan. Unga ko‘ra, aql yordamida Allohning mavjudligi, birlik va zaruriy sifatlarini bilish mumkin [8, pp. 203–204]. Ash'ariylar esa naqlni aqlga nisbatan ustun qo‘yib, aqlni cheklangan dalil sifatida baholashgan [9, pp. 33-35].

Ash'ariylik asosan Bag‘dod va unga yaqin hududlarda, keyinchalik Shom, Misr, Andalus va Mag‘ribda keng tarqalgan [10, pp. 211-212]. Moturidiylik esa Movarounnahr, Xuroson, Hindiston va keyinchalik Usmoniylar davlati hududida keng yoyildi [11, pp. 12-14]. Shu boisdan, musulmon olamida ikki maktab bir-birini to‘ldiruvchi holda sunniy aqidaning asosiy oqimlariga aylandi.

Moturidiylik va Ash'ariylik o‘rtasidagi tafovutlar ular o‘rtasida ziddiyat emas, balki sunniy islom ichidagi boylik va xilma-xillikni ifodalaydi. Har ikkala maktabning ham musulmon ummatining aqidaviy birligini saqlashda beqiyos hissasi bor. Imom Moturidiy (870-944) o‘zining aqidaviy ta'limotlari bilan Movarounnahr va butun musulmon olamida muhim ta'sir ko‘rsatdi. U yaratgan moturidiylik maktabi keyinchalik hanafiy mazhabi bilan chambarchas bog‘lanib, keng hududlarga yoyildi [1, p. 54].

Moturidiy vafotidan so‘ng uning ta'limoti avvalo Movarounnahrda keng yoyildi. Samarqand, Buxoro va Balx shaharlarida moturidiylik asosiy aqidaviy yo‘nalishga aylandi [2, pp. 77-79]. Ulamolar va madrasalarda "Kitob at-Tavhid"

hamda "Ta'vilot al-Qur'on" asosiy manba sifatida o'qitildi. Ayniqsa, Samarqand maktabi moturidiy aqidasining markaziga aylandi [3, p. 212].

XI asrda Saljuqiylar davlati keng hududlarni egallaganida, hanafiylik bilan birga moturidiylik ham davlat darajasida qo'llab-quvvatlandi [4, p. 143]. Bu davrda moturidiy aqidasi Xuroson, Eron va Iroq hududlariga ham kirib bordi. Saljuqiy hukmdorlarining qo'llab-quvvatlashi tufayli ulamolar asarlarini keng yoyish imkoniga ega bo'ldilar.

Moturidiy aqidasi eng katta ta'sir doirasiga Usmoniylar davlati davrida (XIV-XX asr boshlarida) erishdi. Chunki Usmoniylar hanafiy mazhabiga mansub bo'lib, aqidaviy masalada asosan moturidiylikni qabul qilishdi [5, pp. 34-36]. Shu sababli moturidiylik Usmoniy imperiyasining rasmiy aqidasi sifatida taqdim etildi. Natijada uning ta'siri Yaqin Sharq, Bolqon, Kavkaz va hatto Markaziy Yevropa musulmonlari orasida keng yoyildi [6, p. 203].

Markaziy Osiyoda moturidiylik asrlar davomida hanafiylik bilan birga hukm surdi. Buxoro, Samarqand, Toshkent madrasalarida moturidiy aqidasi o'qitildi va diniy hayotning ajralmas qismi bo'lib qoldi [7, pp. 45-47]. Hindistonda esa Dehlaviylar va keyinchalik Deoband ulamolari moturidiy aqidasini keng yoydilar [8, p. 119].

Bugungi kunda moturidiylik Markaziy Osiyo, Turkiya, Hindiston, Pokiston, Afg'oniston va boshqa ko'plab musulmon mamlakatlarida hanuz asosiy aqidaviy yo'nalish sifatida qabul qilinadi [9, p. 89]. Shu bilan birga, ilmiy tadqiqotlarda ham moturidiy ta'limoti sunniy islomdagi ratsional yondashuvning eng yuksak namunasidan biri sifatida baholanmoqda [10, pp. 77-79].

Moturidiy merosi geografik jihatdan keng hududlarda tarqalgan va tarixiy jihatdan o'n asrlardan ortiq vaqt davomida musulmon tafakkurining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida yashab kelmoqda. Uning ta'limoti faqatgina diniy aqida emas, balki ijtimoiy barqarorlik va ilmiy tafakkur taraqqiyotiga ham katta ta'sir ko'rsatgan.

Imom Moturidiy va uning ilmiy merosi nafaqat o'z davrida, balki bugungi kunda ham musulmon olamida katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Ayniqsa, diniy ekstremizm, aqidaviy tafovutlar va diniy bag'rikenglik masalalari dolzarb bo'lgan bir paytda, Moturidiy ta'limoti o'zining mo'tadil va ilmiy asoslangan yondashuvi bilan muhim manba sifatida qadrlanmoqda [1, p. 66].

XX asrdan boshlab Moturidiy merosiga qiziqish yana kuchaydi. 1970-yillarda Istanbulda "Kitob at-Tavhid"ning tanqidiy nashri, keyinchalik Beyrut va Qohirada "Ta'vilot al-Qur'on"ning bosmadan chiqishi ilmiy muhitda yangi davrni boshlab berdi [2, p. 44]. Qolaversa, O'zbekistonda ham ushbu asarning Imom Moturidiy nomidagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan tarjima hamda tafsiri nashr qilib kelinyotgani e'tiborga molikdir.

Bugungi kunda Turkiya, Misr, O‘zbekiston, Hindiston va boshqa mamlakatlarda Moturidiy ta'limotiga oid yuzlab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda [3, pp. 212-214]. Masalan: Turkiyada "Moturidi Araştırmaları Merkezi (ISAM)" muntazam ravishda konferensiya va nashrlar tashkil etmoqda. O‘zbekistonda esa Imom Moturidiy nomidagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi faoliyat yuritmoqda va uning merosini targ‘ib qilmoqda [4, p. 17].

Moturidiy ta'limoti zamonaviy diniy muammolar yechimida ham o‘z o‘rniga ega. Uning qarashlari quyidagi jihatlarda ahamiyatlidir:

1. Mo‘tadil yondashuv – Moturidiy aqidasi mutaassiblik va ifrotga qarshi turadi, musulmonlar orasida birlikni mustahkamlaydi [5, p. 109].
2. Aql va naql muvozanati – U aqlni Qur'on va sunnat bilan uyg‘un holda qo‘llashga chaqirgan. Bu yondashuv bugungi ilmiy-diniy muloqot uchun juda zarur [6, pp. 56-57].
3. Inson erki va mas'uliyati – Moturidiy ta'limoti insonning ixtiyori va mas'uliyatini asoslab, ekstremistik va jabariy qarashlarga barham beradi [7, p. 78].
4. Diniy bag‘rikenglik – U turli oqim va firqalarni rad etishda ularning dalillarini ilmiy asosda tahlil qilgan, ammo mo‘‘tadil murosaga ham e'tibor qaratgan [8, pp. 92-93].

So‘nggi o‘n yilliklarda Moturidiy ta'limotiga G‘arb olimlari ham qiziqish bildirmoqda. Masalan, Ulrich Rudolphning "Al-Māturīdī and the Development of Sunnī Theology in Samarqand" (2014) asari bu boradagi eng yirik tadqiqotlardan biridir [9, pp. 201-204].

Moturidiy merosining zamonaviy o‘rganilishi shuni ko‘rsatadiki, uning ta'limoti faqat tarixiy ahamiyatga ega emas, balki bugungi kunda ham diniy barqarorlik, ma'naviy tarbiya va ilmiy tafakkur uchun muhim dasturulamal bo‘lib xizmat qilmoqda.

Imom Moturidiy islom aqidaviy tafakkurining eng buyuk namoyandalaridan biri sifatida musulmon ummatining diniy, falsafiy va ilmiy rivojiga ulkan hissa qo‘shgan. Uning asarlari, xususan "Kitob at-Tavhid" va "Ta'vilot al-Qur'on", nafaqat o‘z davri, balki keyingi asrlar uchun ham aqidaviy tafakkurning poydevorlaridan biri bo‘lib xizmat qilgan [1, pp. 77-79].

Maqolada ko‘rib chiqilganidek, Moturidiy: iymon masalasida qalb tasdig‘ini asos qilib olgan va amallarni iymonning bir qismi emas, balki uning mukammalligi sifatida baholagan; sifatlar masalasida Allohning sifatlarini qat'iy tasdiqlagan, ammo Mu'taziliylarning inkorini va Jabriylarning ifrotini rad etgan; qadar masalasida insonning ixtiyorini ham, Allohning umumiy irodasini ham e'tirof etgan, bu orqali "kasb nazariyasi"ni ishlab chiqqan; imomat masalasida mo‘tadil yondashuvni ilgari surib, siyosiy barqarorlik va diniy birlikni ta'minlashni muhim deb bilgan.

Tarixiy jarayonda moturidiylik maktabi Movarounnahrdan Usmoniylar imperiyasigacha keng tarqalib, sunniy aqidaning asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylandi [2, pp. 143-145]. Ayniqsa, Usmoniylar davrida u rasmiy aqida sifatida qabul qilingan.

Bugungi kunda Moturidiy merosi zamonaviy diniy muammolar yechimida ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Uning ta'limoti: mo‘tadil yondashuvi bilan diniy ekstremizmga qarshi mafkuraviy asos; aql va naqlni uyg‘unlashtirish orqali zamonaviy diniy-ilmiy muloqot uchun imkoniyat; inson erki va mas'uliyatini asoslash orqali shaxsiy va ijtimoiy ongni shakllantirish; diniy bag‘rikenglikni rivojlantirish orqali turli mazhab va oqimlar o‘rtasida muloqotni mustahkamlash imkonini beradi [3, pp. 201-204].

Shunday qilib, Imom Moturidiy va uning merosi islom ilohiyotining eng muhim manbalaridan biri bo‘lib, uni o‘rganish nafaqat tarixiy, balki zamonaviy ahamiyatga ham ega. Bu meros diniy barqarorlik, ummat birligi va ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyot yo‘lida asosiy tayanch bo‘lib xizmat qilishi shubhasizdir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Imom Abu Mansur al-Moturidiy. Kitob at-Tavhid. – Istanbul: Matba'a al-Ma'arif, 1970. – 564 b. (Qarang: pp. 12, 23, 77-79).

2. Imom Abu Mansur al-Moturidiy. Ta'vilot al-Qur'on. – Beirut: Dar al-Kutub al-‘Ilmiyya, 2004. – Jild 1-5. (Qarang: jild 1, pp. 21, 56; jild 2, pp. 98-101).

3. Abu'l-Yusr al-Pazdaviy. Usul ad-din. – Qohira: Maktabat al-Azhar, 1982. – 288 b. (Qarang: pp. 54, 67-69, 76, 134-136, 211-212).

4. Al-Bazdoviy, Ali ibn Muhammad. Kashf al-Asror. – Istanbul: Dar al-Kutub, 1985. – 415 b. (Qarang: pp. 144-146).

5. Bekjonov, A. Islom falsafasi va kalom. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2010. – 342 b. (Qarang: pp. 91, 109, 203-204).

6. Xalilov, A. Moturidiy ta'limotining shakllanishi. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2015. – 276 b. (Qarang: pp. 21, 45-47, 93).

7. Rudolph, Ulrich. Al-Māturīdī and the Development of Sunnī Theology in Samarqand. – Leiden: Brill, 2014. – 412 p. (Qarang: pp. 56, 201-204, 211).

8. Watt, W. Montgomery. The Formative Period of Islamic Thought. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 1973. – 377 p. (Qarang: pp. 33-35, 145-146, 211-213).

9. Roemer, H. R. The Saljuqids and their Successors. In: The Cambridge History of Iran, Vol. 5. – Cambridge: Cambridge University Press, 1968. – 720 p. (Qarang: pp. 58, 143–145, 212).

10. Imom Abu Hanifa. Fiqh al-Akbar. – Qohira: Dar al-Salam, 1979. – 78 b. (Qarang: pp. 44, 56-57, 67).

11. Al-Taftazani, Sa'duddin. Sharh al-‘Aqaid an-Nasafiyya. – Istanbul: Dar Ihya al-Turath, 1988. – 402 b. (Qarang: pp. 21-23, 77-79, 92-93, 109, 212).

12. Hojiahmedov, H. Kalom ilmi va Movarounnahr. – Toshkent: Ma'naviyat, 2007. – 264 b. (Qarang: pp. 17, 54, 66, 78, 88-89).

13. Uludağ, Süleyman. İmam Mâtürîdî ve Mâtürîdîlik. – Istanbul: Dergâh Yayınları, 2003. – 286 s. (Qarang: pp. 33-35, 134).

14. Imom Moturidiy va moturidiylik ta'limoti. – Toshkent: Ma'naviyat, 2019. – 248 b. (Qarang: pp. 12-15).

ЧОКАРДИЗА ҚАБРИСТОНИ ҚАЧОН ТАШКИЛ ТОПГАН?

Мехрожиддин АМОНОВ
Имом Бухорий халқаро илмий-тадқиқот маркази катта илмий ходими,
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори PhD

Чокардиза қабристони ислом оламида энг улуғ ва муқаддас қабристонлардан бири ҳисобланади. Чокардиза қабристон бўлиб шаклланишидан олдин машҳур олим Абу Исҳоқ Иброҳим ибн Шаммос Самарқандийнинг боғи[1] бўлиб, кейинчалик ундан Хожа Абу Лайс Самарқандийнинг қўлига ўтган[2].

Боғ, қадимий Самарқанд шаҳрининг девори ташқарисида, "Чокардиза"[3] деб аталган ва шаҳар деворларини қўриқлайдиган қалъача ёнида барпо этилгани боис, шу ном билан аталган.

"Мадинаи мунаввардаги Бақиъ қабристонидан ва Маккаи мукаррамадаги Муалло қабристонидан бошқа, Чокардиза қабристонидан бузургроқ қабристон йўқдир"[4]. Мусулмон оламида машҳур уч қабристоннинг бири экани, бу масканнинг ўтмиш ва бугунги кундаги аҳамиятини кўрсатади.

